**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**
**GUMANITAR FANLAR FAKULTETI**
**TARIX KAFEDRASI**

# TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

**Chirchiq– 2025**

**Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar.**
Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami, I Tom. – Toshkent: «Zebo print », 2025. 384 b.

**Mas’ul muharrir:**
G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

**Tahrir hay’ati:**
R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor
Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor
D.Axmadjanov - pedagogika fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
O.Normatov - tarix fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
O.Jaynarov - tarix fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
I.Joldasov - pedagogika fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
S.Toshev – katta o‘qituvchi

Ushbu to‘plamda Qadimgi va o‘rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi:zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo’yicha tadqiqotlar va ularning yo’nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqola va tezislar o‘rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o‘qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

***Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.***

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.
© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

## SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o‘tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo‘lishiga ishonch bildiraman..

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov**

**Qahramon Rajabov**,
O‘zbekiston FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi

# TOSHKENT – SHARQ DARVOZASI YOXUD “TOSHKENT RUHI”NING OLAMSHUMUL AHAMIYATI

***Annotatsiya:*** *Maqolada XX asr 50-60-yillarida O‘zbekiston SSR poytaxti bo‘lgan Toshkent shahrining Sharq darvozasiga aylanishiga hamda xalqaro miqyosda o‘tkazilgan turli siyosiy uchrashuvlar va ellararo ilmiy yig‘inlar natijasida “Toshkent ruhi” tushunchasi shakllanganligi, bu yerda turli davlatlar o‘rtasida bir necha marta Toshkent Deklaratsiyasi imzolanganligi ko‘rsatilgan. Maqola yurtimiz tarixida Toshkentning tutgan o‘rnini aniqlash va baholashda muhim o‘rin tutadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *“Toshkent ruhi”, Sharq darvozasi, kinoijodkorlar festivali, yozuvchi va shoirlar anjumani, sharqshunoslar konferensiyasi, ziyolilar syezdi, paxtakorlar qurultoyi, Toshkent Deklaratsiyasi.*

XX asr 50-60-yillarida O‘zbekistonda yashagan yosh avlod romantik orzular bilan hayot kechirgan. Bir tomondan, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabadan sarmast, ikkinchi tomondan, iqtisodiy turmushning ozgina yaxshilanishi hamda shaxsga sig‘inish qoralangan iliqlik davrining ta’siri, uchinchi tomondan, rasmiy mafkuraning rivojlangan sotsializm g‘alabasi va tez orada kommunistik jamiyat qurish haqidagi cho‘pchaklariga ishongan o‘zbek xalqi ko‘tarinki kayfiyatda yashagan va mehnat qilgan. Bu holat o‘sha paytdagi O‘zbekiston SSR siyosiy rahbariyatiga ham xos bo‘lib, ular Kreml topshiriqlarini bajarish bilan bir qatorda o‘zlarining kamtarligi, halolligi, talabchanligi hamda kommunistik g‘oya va sovet davlatiga sodiqligi bilan keng xalq ommasiga o‘rnak va namuna bo‘lganlar. Bu davrda O‘zbekistonning barcha bo‘g‘indagi rahbarlari oddiy va kamtarona hayot kechirgan, ehtiyojlar ham hozirgidan ancha kam bo‘lgan, amaldorlar bilan xalq o‘rtasida ajralish hali yuz bermagan edi. Qisqasi, yashash zavqli va hayot go‘zal bo‘lgan.

XX asr 50-yillari o‘rtalaridan boshlab, O‘zbekiston SSR poytaxti Toshkentning mavqei tobora oshib borgan. Kreml rahbariyati, bir tomondan, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston sovet respublikalari o‘rtasida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng yuqori bo‘lgan O‘zbekiston SSRni avval butun mamlakatga, so‘ngra Sharq musulmon dunyosiga namuna sifatida

ko‘rsatish uchun bejiz tanlamagan. Ikkinchi tomondan, O‘zbekiston SSR rahbariyati (Nuriddin Muhitdinov, Sharof Rashidov, Yodgor Nasriddinova)ning o‘sha paytdagi mavqei Ittifoqda ham juda baland bo‘lib, moskvalik “dohiylar” N.Xrushchev va L.Brejnov ko‘p masalalarda ular bilan hisoblashishlariga to‘g‘ri kelgan. Uchinchidan, mehnatkash va halol o‘zbek xalqi o‘zining fidokorona mehnati bilan bu e’tirofga haqqoniy ravishda sazovor bo‘lgan edi. Xalqimiz o‘rtasida asrlar davomida sayqal topgan do‘stlik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik xislatlarini ham unutmaslik lozim. To‘rtinchidan, O‘zbekiston SSR poytaxti Toshkent shahri butun mintaqadi rivojlangan zamonaviy shahar bo‘lib, u nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markaz ham hisoblangan.

Shuning uchun ham Kreml rahbariyati Toshkentga Sharq darvozasi sifatida qarab, bu shaharni “sotsializm mash’ali” sifatida eng avvalo Osiyo va Afrikadagi mustaqil taraqqiyot yo‘lida rivojlanayotgan yosh mamlakatlarga o‘rnak sifatida ko‘rsatishga harakat qilgan. Bundan tashqari islom dinining ma’naviy markazi bo‘lgan Turkistonning o‘sha paytdagi vorisi O‘zbekiston SSR poytaxti qadimiy Shosh Sharqdagi barcha musulmonlarga ham “sotsializmning ikkinchi Makkasi” bo‘lishi kerak edi.

XX asr 50-yillari o‘rtalaridan boshlab, Toshkentda xalqaro va butunittifoq miqyosida ko‘plab anjumanlar o‘tkazilgan. 1957 yil 4-11 iyunda sharqshunoslarning Butunittifoq birinchi konferensiyasi o‘tkazildi. Unda Moskva va Leningraddan taniqli sharqshunoslar, Ozarboyjon, Gruziya, Armaniston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston respublikalaridan kelgan olimlar qatorida Xitoy, Hindiston, Eron va Turkiyadan ham mhmonlar qatnashdi.

Bu davrda Toshkent mintaqada nafaqat ilm-fan, madaniy va siyosiy markaz sifatida, balki adabiyot va san’atning markazi sifatida ham shuhrat qozondi. O‘zbekiston poytaxti Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi (uch qit’a) kinoijodkorlari, yozuvchi va shoirlarining turli anjumanlari va festivallari o‘tadigan shaharga aylana bordi. O‘sha paytda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Nuriddin Muhitdinov(1955-1957 y.) hamda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sharof Rashidov (1950-1959 y.) kabi atoqli davlat va siyosat arboblari bu anjumanlarni tashkil qilishda, “Toshkent ruhi” tushunchasining shakllanishida muhim rol o‘ynadilar. Toshkent nafaqat Ittifoqdagi turkiy respublikalar va musulmon aholisi o‘rtasida, balki sovet davlatining butun Sharq xalqlariga

nisbatan yuritayotgan siyosatida bu davrda muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Toshkentda o‘tkazilgan sharqshunoslarning Butunittifoq birinchi konferensiyasining so‘nggi majlisida ma’ruza qilgan N.Muhitdinov anjumanning o‘zbek poytaxtida o‘tkazilishi ahamiyatining quyidagicha ko‘rsatgan edi: “Sharq xalqlari butun dunyo tarixida katta o‘rin tutib keldilar va tutmoqdalar. Ular bebaho moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratdilar va xuddi G‘arb xalqlari singari jahon madaniyati va sivilizatsiyasi xazinasiga o‘zlarining buyuk hissalarini qo‘shdilar.

Xitoy va Hindistonning, Misr va O‘rta Osiyoning, Eronning va Sharqdagi boshqa mamlakatlarning mutafakkirlari va olimlari o‘zlarining ziyrak aqllari bilan uzoq davom etgan tarixiy davrida fanga yo‘l ochib berdilar”.

Sharqshunoslar anjumani tugagandan keyin oradan ikki oy o‘tgach, 1958 yil 20 avgust – 3 sentabrda Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlarining kinofestivali o‘tkazildi. Festival Osiyo va Afrika mamlakatlari kino san’atining asarlari bilan o‘zaro tanishish, ikki qit’a o‘rtasida madaniy hamkorlik, do‘stlik va tinchlikni kuchaytirish maqsadida tashkil etildi. Kinofestivalda Osiyo va Afrika qit’alarining Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasi, Vyetnam Demokratik Respublikasi, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Indoneziya, Birma, Pokiston, Yaponiya, Tailand, Seylon, Tunis, Marokash kabi davlatlaridan vakillar ishtirok etadi. Kinofestivalning ahamiyati yana shundan iborat ediki, yurtdoshlarimiz Osiyo va Afrika mamlakatlarining kino san’ati, ularning madaniy hayoti va turmush tarzi bilan keng tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. O‘zbekistonlik rejissorlar va kinoijodkorlar tomonidan bu paytda suratga olingan ayrim filmlarda Osiyo va Afrika mamlakatlarida yaratilgan filmlarning ta’siri yoki o‘zbekistonliklar ishlagan kino kartinalarining ularga ta’sirini ko‘rish mumkin.

Toshkentda 1968 yildan boshlab har ikki yilda muntazam ravishda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining xalqaro kinofestivali o‘tkazib turildi. Uch qit’a san’atkorlarining I kinofestivali 1968 yil oktabrda, so‘nggi X xalqaro kinofestivali 1988 yil 24-30 mayda bo‘lib o‘tdi. (1992 va 1997 yillarda Toshkent xalqaro kinofestivali o‘tkazildi. 2021 yilda u qayta tiklandi.)

1958 yil 7-13 oktabrda Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining birinchi konferensiyasi o‘tkaziladi. Konferensiyaning 7 oktabrdagi ochilish marosimida nutq so‘zlagan KPSS MK Prezidiumi a’zosi, KPSS MK kotibi N.Muhitdinov bu anjumanning ahamiyatini quyidagicha ko‘rsatib o‘tgan edi: “Xalqimiz adiblarini kishi ruhining muhandislari deb ataydi. Bu juda o‘tkir gap. U yozuvchilarning olijanob faoliyatidagi asosiy vazifani, chunonchi, kishilar ongini shakllantirish, ularni xalqlar ozodligi va baxt-saodati uchun qat’iy, sabotli kurash olib borish ruhida tarbiyalash vazifasini xarakterlaydi. Insoniyatning kelajak taqdirida ko‘p narsa sizlarga, badiiy so‘z san’atkorlariga bog‘liqdir”.

Osiyo va Afrika mamlakatlarining Toshkentda 1958 yil oktabrida o‘tkazilgan I xalqaro konferensiyasida Osiyo va Afrika qit’asidagi 37 mamlakatdan 200 nafardan ortiq, Yevropa va Amerika qit’alarining 13 mamlakatidan 20 nafardan ortiq yozuvchilar ishtirok etdi. Mana shu juda katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan xalqaro anjumanda qabul qilingan jahon xalqlariga qaratilgan Murojaatnomada shunday deyiladi: “Biz yozuvchilar – xalqlarning vijdonimiz. Zamondoshlarimizninggina emas, kelajak nasllarning taqdiri bizning zimmamizdadir... Sizlarni biz bilan birgalikda adolat, go‘zallik va ozodlik yo‘lidan olg‘a borishga undaymiz. Bular bizga xalq hayoti bilan chambarchas bog‘langan, aql-idrokning g‘alabasi va adolatning tantanasi uchun kurashda unga madad beradigan adabiyotni yaratishimizga xizmat qiladi”.

Aynan shu konferensiya kunlarida “Toshkent ruhi” tushunchasi paydo bo‘ldi va u tarixiy atamaga aylandi. O‘shanda konferensiyada qatnashgan yozuvchilarning ma’ruza va nutqlarida bu tushuncha tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot, do‘stlik va hamkorlik, baynalmilalchilik, demokratiya ruhi bilan sug‘orilgan edi. Ana shularning hammasi “Toshkent ruhi” iborasida aks etgan.

Taniqli davlat va siyosat arbobi Sharof Rashidov ta’kidlaganidek, u O‘zbekiston SSR parlamentining raisi hamda taniqli yozuvchi sifatida konferensiya faoliyatiga rahbarlik qilgan edi, “Toshkent konferensiyasida olg‘a surilgan g‘oyalar va prinsiplar – birdamlik va do‘stlik ruhi Osiyo hamda Afrika yozuvchilarining keyingi barcha faoliyatida o‘z amaliy ifodasini topdi va rivojlandi. “Toshkent ruhi” qanotli so‘zga aylandi”.

Toshkentda bunday anjumanlarningo‘tishi bejiz emas edi. Chunki O‘zbekiston SSRni 1950/1959-1983 yillarda o‘zi asli yozuvchi va adib bo‘lgan atoqli davlat arbobi Sharof Rashidov boshqaradi. Sh.Rashidov 66

yil umr ko‘rgan bo‘lsa, uning teng yarmi, ya’ni 33 yil davomida u murakkab va ziddiyatli sovet davri bo‘lganligiga qaramasdan O‘zbekiston SSRni birinchi rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Oradan qariyb 20 yil o‘tgach, 1976 yil sentabrda Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari yosh yozuvchilarining anjumani bo‘lib o‘tdi. 1978 yil oktabrda Osiyo-Afrika harakatining 20 yilligi munosabati bilan Toshkentda yozuvchilar yana to‘planishdi. Sharof Rashidov yozganidek, “Bu uchrashuvlarda Osiyo va Afrika yozuvchilari Toshkentda turib o‘z saflarini yanada jipslashtirish, butun kuch-quvvatlarini tinchlik va erkinlik uchun imprealizm, neokolonializm, irqchilik, sionizm va aparteidga qarshi kurashga sarflashga qat’iy ahd qildilar. Ular bundan 20 yil muqaddam bo‘lib o‘tgan Osiyo va Afrika yozuvchilarining birinchi konferensiyasida ilgari surilgan g‘oyalar va tamoyillarga, “Toshkent ruhi”ga sodiq ekanliklariga qasamyod qildilar”.

Toshkentdagi uchrashuvda qabul qilingan Deklaratsiyada shunday deyiladi: “Osiyo va Afrika xalqlarining milliy va ijtimoiy ozodligi, madaniy tiklanishi yo‘lida hali g‘ovlar, to‘siqlar ko‘p... Hech qachon xalqlarning manfaatlari va orzu-istaklari bugungiday chambarchas bog‘lanib ketmagan edi. Bu talantimizni xalqlar o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va qardoshlarcha hamkorlik ishida sarflamog‘imiz, hormay-tolmay kelajak sari olib boradigan yo‘llar solmog‘imiz darkor”.

“Toshkent ruhi” atamasi XX asr 60-yillari o‘rtalaridan boshlab katta siyosiy ahamiyat kasb etib, u jahon siyosatida tinchlik shartnomalari tuziladigan shahar ma’nosini ham anglata boshladi.

1966 yil 4-10 yanvarda Toshkentda Hindiston Bosh vaziri La’l Bahodir Shastri va Pokiston Prezidenti Muhammad Ayyubxon o‘rtasida SSSR Ministrlar Soveti raisi Aleksey Kosigin vositachiligida o‘zaro muzokaralar tashkil qilindi. 1965 yil may oyida Kashmir uchun Hindiston va Pokiston o‘rtasida o‘zaro urush boshlangan edi. Shunday holatda ikki davlatni yarashtirish va muzokaralar o‘tkazish uchun Toshkent shahri tanlandi. Bu muzokaralarni tashkil qilish va uyushtirishda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Sharof Rashidovning xizmati ayniqsa katta bo‘ldi.

Muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlanib, Hindiston va Pokiston davlatlari o‘rtasida Toshkent deklaratsiyasi imzolandi hamda urushni to‘xtatish to‘g‘risida o‘zaro kelishib olindi. Toshkent deklaratsiyasining qabul qilinishi natijasida Osiyo qit’asidagi ikki qo‘shni davlat: Hindiston va

Pokistonning tinch-totuv yashashi to‘g‘risida zamin yaratildi. Biroq muzokaralar tugallanib, deklaratsiya imzolangandan so‘ng 1966 yil 10 yanvarda Hindiston Bosh vaziri La’l Bahodir Shastri Toshkentda to‘satdan vafot etdi.

Shastrining bevaqt vafot etishi turli mish-mishlarni keltirib chiqardi. Hatto oshpazlar tomonidan u zaharlangan degan taxmin ham paydo bo‘ldi. Moskvadan zudlik bilan Toshkentga katta komissiya jo‘natildi. Komissiyaning xulosasiga ko‘ra Shastri yurak xuruji natijasida vafot etganligi aniqlandi. Bu holat turli asossiz mish-mishlarga chek qo‘ydi. Shastrining jasadi Hindistonga olib ketildi. O‘sha kunlari Toshkentdagi markaziy ko‘chalardan biri va maktabga Shastri nomi berildi, keyinchalik maktab hovlisida unga haykal o‘rnatildi.

Xullas, Toshkent deklaratsiyasi Kashmir mojarosi bo‘yicha bir qancha amaliy tadbirlarni ko‘zda tutgan edi: har ikkala mamlakat qurolli kuchlarini qurolli to‘qnashuvdan oldin egallab turgan joylariga qaytarish, diplomatik vakolatxonalar faoliyatini tiklash, har ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy va savdo munosabatlarini qaytadan rivojlantirish va h.k. Toshkentda imzolangan deklaratsiya Hindiston bilan Pokiston munosabatlaridagi janjalli masalalarni tinch yo‘l bilan hal etishga asos bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qayta tiklagandan keyin “Toshkent ruhi” tushunchasining ma’no va mohiyati yana ham chuqurlashdi. Bu ruh uzoq yillar davomida murosasiz jang olib borgan davlatlar (Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Tojikiston) rahbarlarining bevosita Toshkent shahrida yarashib, o‘zaro sulhga imzo chekishlari hamda turli qit’alar va mamlakatlar vakillari ishtirokida tinchlikni mustahkamlashga qaratilgan nufuzli uchrashuvlar, xalqaro anjumanlar, san’at, adabiyot va kino festivallari, hatto “Toshkent – paxta yarmarkasi” kabi yirik jahon anjumanlarida o‘z ifodasini topgan.

Afg‘onistonda uzoq yillar davom etgan qurolli ziddiyatni tinch yo‘l bilan hal etishning asosiy tamoyillari haqida Toshkentda 1999 yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan uchrashuv katta ahamiyat kasb etadi. 1999 yil 19-20 iyulda Toshkent shahrida Afg‘oniston muammosini hal etish bo‘yicha 6+2 guruhining BMT homiyligidagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda tarixiy Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Siyosiy tushuncha bo‘lgan 6+2 guruhiga Afg‘oniston bilan chegaradosh 6 davlat: Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston,

O‘zbekiston, shuningdek, AQSH va Rossiya kiradi. Bu guruhning anjumanlariga BMT shafelik qilib kelmoqda.

Toshkent deklaratsiyasi muqaddima va 13 banddan iborat bo‘lib, uning 1-3 bandlarida Afg‘onistondagi mojaroni harbiy yo‘l bilan hal qilish mumkin emasligi, mamlakat barqarorligi uchun siyosiy muzokaralar boshlanishiga da’vat etilib, afg‘on diyoriga qurol yetkazib berishning oldini olish zarurligi ta’kidlangan. Deklaratsiyani 7-8 bandlarida mamlakatdagi qaltis vaziyatning sabablari, xalqaro terrorizm va ularning tashkilotchilariga Afg‘onistonda boshpana berishni va terrorchilarni o‘qitishni to‘xtatishga qaratilgan sa’y-harakatlar belgilangan. Deklaratsiya Afg‘onistondagi Tolibon kuchlari va Birlashgan harbiy ittifoq o‘rtasida hamda ular bilan 6+2 guruhi a’zolari orasida bevosita muloqotni yo‘lga qo‘yishga asos bo‘ldi. O‘z vaqtida Toshkent deklaratsiyasi Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish yo‘lida zalvorli qadam bo‘lgan edi.

Bir paytlar SSSR o‘n yil davomida (1979-1989) Afg‘onistonga harbiy bosqin uyushtirib, mamlakatda shafqatsiz janglar olib borgan. Sovet Ittifoqining hujumi, bir tomondan, mamlakatda sho‘roviylar (sovet davlati)ga qarshi milliy ozodlik kurashini yuzaga keltirgan bo‘lsa, bu qurolli mojaroga AQSH, Pokiston va boshqa islom davlatlarining aralashuvi natijasida siyosiy hokimiyat uchun qattiq kurash boshlandi. Bu kurashlar pirovardida Afg‘onistonda shafqatsiz va murosasiz davom etgan fuqarolar urushini ham keltirib chiqardi. Bu yerda azaldan yashab kelgan o‘zbeklar, tojiklar va turkmanlarning ahvoli battar og‘irlashdi. 2001 yil 11 sentabrda Nyu-Yorkdagi Jahon savdo markazi va Vashingtondagi Pentagon qarorgohiga terrorchilik harakatlari sodir bo‘lishi natijasida 3000 kishidan ortiq tinch aholi halok bo‘ldi. Ayrim amerikalik tadqiqotchilarning fikricha, Jahon savdo markazi binolariga AQSH maxsus xizmati tomonidan portlovchi moddalar qo‘yilgan va terrorchilar faoliyati ularga oldindan ma’lum bo‘lgan, biroq Amerika tomoni tegishli choralar ko‘rmagan. (Toshkent shahrida 1999 yil 16 fevralda amalga oshirilgan terrorchilik harakatida ham xuddi shunday bo‘lgan edi.)

2001 yil 7 oktabrda Afg‘onistonda terrorchilikka qarshi tadbirlar boshlandi. AQSH harbiy havo kuchlari Afg‘oniyatondagi jangovar nishonlarni bombardimon qildi. Buning uchun ular O‘zbekistonning Qarshi shahri yaqinidagi Xonobodda joylashgan AQSH harbiy bazasidan foydalandi. Afg‘onistonga AQSH va uning ittifoqchilari o‘z harbiy qismlarini kiritdi. Biroq 20 yil davom etgan AQSH harbiy missiyasi ham

xuddi sovet davlati Afg‘onistonga bostirib kirganidek mag‘lubiyatga uchrab, 2021 yil avgustda ular mamlakatdan chiqib ketdi va Afg‘onistonda hokimiyat butunlay tolibonlar qo‘liga o‘tdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr 50-yillari o‘rtalaridan boshlab Toshkent shahri nomi bilan chambarchas bog‘langan “Toshkent ruhi” tushunchasi keyingi o‘n yilliklarda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Dastlab xalqaro maydonda adabiyot va san’atga nisbatan qo‘llangan bu tushuncha siyosiy atamaga aylandi. Xalqaro siyosat va madaniyat olamida paydo bo‘lgan “Toshkent ruhi” tushunchasi jahon miqyosida san’at, adabiyot va madaniyat sohasidagi jarayonlar integratsiyasini boshlab berdi. Keyinchalik bu atama turli davlatlar va xalqlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish uchun imzolangan ko‘plab Toshkent deklaratsiyalari mazmunida yangi siyosiy ma’noni o‘zida mujassamlashtirdi.

**Адҳам Аширов**
Фанлар академияси Тарих институти
“Этнология ва антропология” маркази бошлиғи

## ТОШКЕНТ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИ ВА УРФ-ОДАТЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Тарихдан маълумки, Тошкент воҳасива унга туташ минтақаларда ўзбеклар азал азалдан ўтроқ деҳқончилик ва ҳунармандчилик билан шуғулланиб келган. . Қолаверса, воҳа аҳолиси барча ҳаётий ишлар билан шаҳарда маҳалла, қишлоқда қишлоқ ва овул жамоалари шуғулланган. Маҳалла ва қишлоқ жамоасини жамоа йиғинида сайланган оқсоқол бошқарган. Ижтимоий ҳаёт масжид, чойхона ва бозорларда мужассамлашган, уларда асосан эркаклар иштирок этган, жамоага маълум бир маҳаллада, қишлоқда яшовчилар бирлашганлар. Кишининг эътиқоди, миллати ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, у ёки бу жамоа худудида яшаши унинг ўша жамоага мансублигининг ягона белгиси ҳисобланган. Жамоадаги кишилар, касб ҳунари ва мавқеидан қатъий назар жамоа ишлари (ҳашар) ва маросимларга қатнашишлари зарур бўлган, акс ҳолда бундай шахс халқ назаридан қолган.

Юз йилликлар давомида халқимизнинг она табиатга, ерга, сувга, ҳавога, оловга бўлган чексиз ҳурмати ва уларни эъзозлаш билан боғлиқ турфа хил қарашлари асосида халқ тақвими ва оилавий ҳамда диний ҳаёт билан боғлиқ урф-одатлар шаклланган

Воҳа ўзбекларида қадимдан анъана бўлиб келган ҳашар, меҳмондўстлик, катталарни ҳурмат қилиш ва бир қанча одатлар, маросимлар жамоанинг қатнашувида ўтган. Ҳашарнинг бир неча тури мавжуд: жамоа ишларини бажаришда, қўни-қўшничилик ва қавм-қариндошлик доирасида ўтказиладиган ҳашар ва бошқалар. Ҳашарнинг бу турлари ихтиёрий ўзаро ёрдам бўлган. Ҳашарнинг яна бир тури давлат миқиёсида ўтказилган. Унда олдинлари хон ва мулкдор ерларига сув чиқариш учун ариқ қазилган, қўриқ очилган, ҳосилни йиғиштириш ва қурилишлар амалга оширилган бўлса кейинги йилларда баҳорда «Наврўз» арафасида ўтказиладиган хашарда жамоат жойларини тозалаш, янги кўчатлар экиш ва дарахтларни қирқиб шакл бериб оқлаш каби юмушлар оммавий равишда бажариш анъанага айланган. Кичик кўламдаги ҳашарни ҳашарбоши (ариқ қазилса-мироб ёки қишлоқ оқсоқоли) бошқарган. Катта ва узоқ муддатда бажариладиган ҳашарлар махсус ишбошилар (канал қазилганда-ариқ оқсоқли) назоратида ўтказилган. Жамоа ишлари бажариладиган ҳашар Ўзбекистоннинг барча қишлоқ ва шаҳарларида кенг қўлланилган. Жамоа ҳашари билан кўприк қуриш ва таъмирлаш, ариқ-зовурлар, қазиш, уларни тозалаб туриш; масжид қуриш ва таъмирлаш, мозорларни тозалаш ва бошқа ишлар бажарилган. Катта хашарлар тантаналари бошланиб, тугалланиши ҳам кўтаринки руҳда якунланган. Умумхалқ хашар удуми 30-40 йиллари Бекобод ГЭС, Тошкент шаҳрининг Бешёғоч даҳасидаги кўлни (ҳозирги Ўзбекистон Миллий боги худудида жойлашган кўл) бунёд этишда намаён бўлди.

Кишилик тарихини дастлабки босқичларида шаклланган меҳмондорчилик одати ҳаётий заруратлар билан боғлиқ бўлган ва тарихни турли босқичларидан ўтиб ҳозирга қадар етиб келган. Маълум сабаблар билан тарқалиб кетган уруғ-аймоқлар, бир-бирларини аизлабтопгач, улар улуғ меҳмон тарзида иззат-икром билан кутиб олинган. Бора-бора меҳмондорчилик халқларнинг удумига айланган; меҳмонга нафақат уруғдошлар ва қариндошларни, ҳатто бегона кишилар, йўловчиларни ҳам қабул

қилишган. Меҳмонни қабул қилиш учун маҳалла ва қишлоқ жамоалари хонодонларида махсус хоналар-меҳмонхона қурилган. Меҳмонни одат бўйича меҳмонхонада қабул қилинган. Меҳмонхонаси бўлмаган хонодон уни яшаб турган уйига таклиф қилган.

Воҳада яшовчи ўзбеклар, қозоқлар ва тожикларда меҳмон одатда меҳмонхона ёки уйнинг тўрига ўтказилади. Тўкин дастурхон ёзилиб, нон ва чой келтирилади. Кейинроқ таом пиширилиб (кўпинча палов, қовурдоқ, шўрва) тортилади. Меҳмоннинг миниб келган уловига (от, эшак, туя) ҳам пичан-ем берилган. Мезбон иложи борича меҳмонга саҳоват кўрсатиши шарт бўлган. Меҳмон кутиб олинмаса хонадон соҳиби жамоа назаридан қолган.

Ўзбек меҳмондорчилик таомилидан бири-меҳмон кимнинг хонодонига келишидан қатъий назар, уни зудлик билан бориб кўришишга ошиққанлар. Чунки меҳмон айни вақтда қишлоқ ёки маҳалла жамоасининг ҳам меҳмони ҳисобланган. Уни бориб кўришни ўзларига шараф деб билганлар. Меҳмонни навбати билан бошқа хонодон соҳиблари ҳам уйларига таклиф қилиш одат бўлган. Қозоқларда улуғ меҳмон оёғи тагига паёндоз тўшаб, баъзан қўй сўйиб кутиб олинган. Зиёфатга қўшнилар, маҳалладошлар ёки қишлоқ оқсоқоллари, ҳурматли кишилари таклиф этилган. Меҳмонни кузатиш олдидан сарпо кийдириш одати ҳам бўлган. Вилоятда яшовчи ўзбек, тожик, қозоқ халқларининг меҳмондорчилик таомиллари аждодлардан авлодларга ўтиб, ҳозиргача сақланиб келмоқда.

Маълумки, нонни эъзозлаш ўзбек, тожик, қозоқ ва бошқа халқларнинг қадимий одатларидан. Асосий хўжалик машғулотларидан бири деҳқончилик бўлган ўзбек халқида нон азалдан асо¬сий ва тансиқ исътемол маҳсулотларидан бўлиши билан бирга унга илоҳий неъмат даражасида қаралган. Нонга ҳурмат билан муносабатда бўлиш болаларга жуда ёшликдан ўргатилган. Ўз навбатида нон билан боғлиқ қатор урф-одатлар шаклланган. Жумладан, нон ҳеч қачон оёқ остига таш¬ланмаган. Нонни босиш оғир гуноҳ ҳисобланган. Нон ўзига хос рисқ-насиба рамзи бўлганлиги учун ҳам узоқ сафарга ёки ҳабий хизматга кетаётганларни нон тишлатиб кузатиш удуми бўлган. Бундан ташқари келинни куёвникига кузатишда бошига нон қўйиш одати бўлган. Ўзбеклар

орасида қадимий одатга кўра ғалла сомонини ҳеч қачон ўчоққа ва тандирга ёқишмаган. Чунки донни-нонни ёқиш оғир гуноҳ дейилади..

Ўзбекларда уйга келган меҳмонни, қавм-қариндошни катталар билан болалар ҳам биргаликда чиқиб кутиб олганлар. Агар меҳмон от ёки от-арава миниб келган бўлса от-уловини бола (ўспирин) отхонага киритиб, беда-пичан берган. Меҳмон кетар вақтда унинг оти ёки от-араваси йўлга ҳозирланган ва отга минишига ёрдам берилган; болалар меҳмон билан катталар қаторида хайрлашганлар.

Юқорида келтирилган барча тартиб-қоидалар, одатлар ёшларга оилада ўргатилган. Болаларнинг одоблилиги, ахлоқий даражаси оиладаги тартиб-интизом ва анъаналарнинг қатьийлигига боғлиқ бўлган.

Ёшларни одоб-ахлоқ руҳида тарбиялашда жамоанинг ўрни ҳам катта бўлган. Жамоанинг ҳар бир аъзоси меҳмондорчилик, маъракa ва б. жамоат жойларида ёши ва мавқеига қараб жой эгаллаган. Катталар ва ҳурматли кишилар олдинда борган ва давра тўрига таклиф қилинган.

Вилоятда яшовчи ўзбек, тожик ва қозоқларда Наврўз кунлари ҳамма эрта тонгдан яхши ниятлар билан ўрнидан турган. Одамлар эски кийимларини ташлаб, янги озода кийимларини, қизлар эса баҳорга мос кийимларини кийишган. Ёш-яланглар янги кийимлар, пойабзаллар тайёрлаб, байрам кунлари кечаси билан ухламасдан эртак, ҳикоя, достонлар айтишиб, шеърхонлик қилишади. Наврўз байрамини ашулалар айтиб, турли ўйинлар ўйнаб, хурсандчилик билан кутиб олишган. Ёш йигит қизлар бир-бирларига гулдасталар тақдим этишган. Наврўз кунлари ўзаро давом этаётган урушлар тўхтатилган, гина-гудуратлар унутилган, одамлар тинч ва яхши қўшничилик алоқаларига интилганлар, ота-оналар, қариндошлар, қўни-қўшнилар, бир-бирларини йўқлашган, бетоб кишиларнинг ҳолидан хабар олинади, ночорларга ёрдам берилади, марҳумлар қабрини зиёрат қилиб, тартибга келтирилган. Агар байрам кунлари бирор киши вафот этса, дафн этиш кечиктирилган, мотам маросимлари ҳам ўтказилмаган. Наврўз байрами кунлари маҳбусларни озод қилиб, гуноҳкорларнинг гуноҳидан кечиш одати ҳам бўлган. Уйлар, кўчалар тозаланиб, уларга сув сепилган.

Деҳқонлар яратгандан йил бўйи намгарчилик етарли бўлишини тилаб байрам куни кўпчип турган ерга қалин қилиб сув сепиш удумлари бажарилган. Наврўз байрамининг биринчи куни улоқ, отда пойга мусобақалари, кураш, қўчқор, хўроз уриштириш каби ўйинлар уюштирганлар. Наврўз кунлари бозорларда катта савдо-сотиқлар ташкил қилинган ва ўша куни энг ширин таомлар тайёрланган.

Наврўз тантаналарининг шоҳона таоми сумалак ҳисобланган. Сумалакни асосан аёллар тайёрлашган. Сумалак тайёрлаш жараёнида ўзига хос маросим - тадбир вужудга келган. Ҳозирги вақтда бу маросим корхона ва муассасаларда ҳам ташкил этилган. Наврўз куни тайёрланган сумалак «Наврўз сумалак» деб аталган. «Наврўз сумалак»ни қариялар ўзларига ва бола-чақаларига узоқ-умр, келинчак ва қизлар ўзларига бахт тилаб қўзғашади. Чунки кекса ёшли қарияларнинг таъкидлашларича, сумалакни қўзғаётганда киши нима яхши ниятлар тиласа Оллоҳ етказар эмиш. Сумалак пишиб етилгунга қадар аёллар, қиз-жувонлар давра қуриб ўйин-кулги қиладилар, суҳбатлашадилар, ҳаёт икир-чикирлари ҳақида фикр алмашадилар. Бу кун турли-туман ўтлардан сомса, чучвара каби ширин-ширин таомлар пиширилган.

Юртимизга ислом дини кириб келгач Наврўз анъанаси ислом ақидалари билан уйғунлашган. Наврўз тантаналарида ночор ва камбағалларга меҳр-мурувват ва хайру саховат кўрсатиш, қон-қариндошлар ва дўст биродорлар холидан хабар олиш, оила аъзоларига меҳр-муҳаббат билан муомалада бўлиш, гина-гудрат ва адоватни эсдан чиқариб, урушганларни ярашишлари, Наврўзнинг шохона таоми сумалакнинг Биби Фотима таоми деб номланиши ва шунга ўхшаган инсоний фазилатлар ва савобли ишлар Наврўзнинг ислом дини билан нечоғлик яқинлигининг яққол тимсолидир.

Баҳор фаслидаги байрам ва сайиллардан ташқари куз мавсумидаги тўқинсочинлик билан боғлиқ байрам ва сайиллар ҳам мавжуд. Шулардан бири Ҳосил байрами. Бу байрам ҳам ўзбек халқининг қадимий танътаналаридан бири ҳисобланади. Олдинлари байрам кузда барча экинлар ҳосили, мевалар йиғиб-териб олинганидан кейин кўпинча қишлоқларда, шахарларга яқин ерларда ўтказилган. Мустақилликдан кейин шахарларда ҳам ўтказиш оммавий расм бўлган. Байрам кунлари (2-3 кун) деҳқонлар сайил жойларига етиштирилган маҳсулотларини сотишга олиб келган.

Байрам сайилгоҳига шаҳар ҳунарманд-косиблари ҳам ўз маҳсулотларини олиб чиқиб сотган. Сайилгоҳларда хар ким ўзига керакли нарсаларни харид қилиш имкониятига эга бўлган. Сайил кунлари пойга, кўпкари, ва бошқа мусобоқа ўйинлари уюштирилган. Баъзи қишлоқларда қўқор, така, хўроз, туя уруштириш одат бўлган. Жамоаларда шу кунлари мол сўйилиб, элга худойи ҳам берилган. Хосил байрами ва у билан боғлиқ маросимлар бирмунча ўзгаришлар билан ҳозирга қадар етиб келган. Хар йили дала ва боғларда етиштирилган ҳосил йиғиб олингандан кейин қишлоқ жамоалари маълум кунларни ҳосил байрами деб эълон қилади. Бу кунлар етиштирилган маҳсулотлар белгиланган жойларга (ярмаркаларга) келтирилиб сотилади.

Бешик тўйи вилоятда яшовчи ўзбеклар орасида кенг тарқалган қадимий одатлардан. Бола туғилганда етти, тўққиз, ўн биринчи кулари ёки келин-куёвнинг ота-оналарининг ўзаро келишувлари билан белгиланган кунда асосан қариндош-уруғ, қўни-қўшнилар иштироикида ўтказилади.

Бешик материали асосан қаттиқ ёғочлардан, унинг эгма қисмлари(поялари) эса қора толдан ясалиб, бола учун махсус қўл ва оёқ боғичлари(тортқилар) билан боғлаб қўйилади. Бешикнинг кўплаб фойдали жиҳатлар мавжуд бўлиб, бу хусусиятлар ҳаттоки медицина томонидан ҳам исботланган. Шу боис ўзбекларда чақалоқни илк маротоба бешикка белаш махсус маросим-бешик тўйи сифатида нишонланиб келинган. Одатда, бешик тўйи оиладаги биринчи (тўнғич) фарзанд учун ўтказилади ва у тантанали кечади. Бешик удуми билан боғлиқ чақалоққа керакли барча буюмлар тайёрланган. Дастурхонга нон, патир ва анвойи ширинликлар тугилган, шунингдек яна унга ўйинчоқлар (қиз бола бўлса қўғирчоқ) қўшилган. Чақалоққа атаб (агар ўғил бола бўлса) той ҳам ясатилган. Чақалоқнинг ота-онаси, бува ва бувисига сарпо ҳам қўйилган. Безатилган бешик, совғалар ва дастурхонларни арава (ҳозирда машиналарда ёки автобус) га юклаб, кўча-кўйда кўз-кўз қилиб, карнай-сурнай ва чилдирмалар жўрлигида олиб борилган. Меҳмонларни кутиб олинганд, ниятлари оқ бўлиши, болага бахт тилаш рамзи сифатида уларнинг юзларига ун сепиб кутиб олинган. Келган меҳмонларга дастурхон тузаб безатилган хонага таклиф этилган. Шу вақт бошқа хонада бошқа расм-русмлар ижро этилиб

чақалоқни бешикка белаш маросими ўтказилган. Халқимизда болани бешикка белашда қариндош-уруғлар ва маҳаллада ҳурматли, эътиборли, ували-жували аёллар танланган. Булардан бири доя момо (энага) ёки ўзининг катта бувиси бўлиши лозим бўлган. Болани бешикка белашда "қўрқмас ботир бўлгин, соғлом ўсгин, узоқ яшагин!" деб турилган. Шу тарзда болани бешикка белашиб, қўл оёғи боғлангандан кейин бешик атрофида тўпланганлар бешик устидан турли сочқилар сочганлар. Бешикка белаётган кампирлардан бири: "Эгаси келди бешикка, шайтон чиқсин эшикка", - деб айтиб турган. Одатда белаётган аёл оғзига нон тишлаб олиб, то белаб бўлгунича гапирмаган. Бола белаб бўлингандан сўнг кайвони оғзидаги нон ёш бола томонидан "умри узоқ, ризқи баланд бўлсин" деган ниятда узоқроқ жойга олиб қочилган. Анъанага кўра, болани бешикка белашда ёстиғи остига ойна, пичоқ, қалампир каби нарсалар қўйилган. Бу нарсаларнинг ўз рамзий маъноси бўлган. Пичоқ ва ойна қўйишда гўдак ҳаёти ойнадек тиниқ, пичоқдай ўткир бўлсин деган ният мужассамлашган. Таомлар тортиб бўлингач, меҳмонлар бирин-кетин кузатилади. Шу билан маросим якунланади.

Шарқ халқлари аждодларининг расм-русумлари, дунёқараши, ишонч-эътиқод¬лари, турмуш-тарзи ва ҳаёт ҳақидаги фалсафий қарашлари, асрлар бўйи жамланган ҳаётий тажрибалари ва турмуш кўникмаларини ўзида мужассамлаштирган энг жозибали маросимларимиздан бири икки ёшни бирлаштирувчи - никоҳ тўйидир. Бундан мақсад никоҳни жамоатчиликка маълум қилиш ва ота-она, қариндош-уруғларларнинг жамоа билан баҳам кўришидир.

Вилоятда яшовчи дунганларда кросскузен оилалар, яъни тоғани ёки аммани қизига уйланган оилалар кенг тарқалган. Холаваччаларнинг орасидаги никоҳ энг мақбул никоҳ ҳисобланган ва ака-укаларнинг фарзанлари орасида оила қуриш таъқиқланган.

Ўзбекистоннинг бошқа ерларида бўлгани сингари воҳада ҳам келин тушириш дастлаб уй кўрди(қиз кўрди) маросимдидан бошланади. Маълумки ўтмишда, никоҳ тўйи фақат ота-она тавсияси ва раъига кўра ўтказилган. Бу одат айрим ерларда ҳозиргача сақланган. Ўғил балоғатга етгач муносиб қиз ахтаради. Йигитнинг онаси, аммаси, ёки холаларидан бири мўлжалланган қизларни хонодонига ташриф буюриб, «меҳмонга келдик» баҳонаси билан қиз кўрадилар, ҳовлисининг тозалиги, уйларининг тартиблилигига разм

соладилар; қайси қиз мақул келса, уникига совчи юборганлар. Ўзбекларда совчилар кичик, катта совчиларга бўлинади. «Кичик совчи»лар (кўпинча аёллар) ишни битириб қайтганларидан сўнг «катта совчи»лар тўй ҳаражатларини ва айним жойларда қалин миқдорини белгилаганлар. Кўплаб ерларда совчиликка куёвнинг тоғаси ва элнинг сўзамол ҳурматли «оқсоқоли» борган. Дунганларда олдинлари совчиликка фақат эркаклар боришган. Агар қиз томон рози бўлган келган совчига ширинчой беради. Рози бўлмаса ширинчой берилмайди. Бунда куёв томон тайёрганлик қилиб, келин томон ҳам стол ясатиб кутиб олишади. Ассалому алайкум деб қуда андалар билан қуллуқ бўлсин берган бўлса ҳар битта аёлни эркакни қўлини ушлаб салом беради.

Никоҳ тўйи тизимидаги кўримли маросимлардан фотиҳа тўйи бўлган. Совчиларнинг сўнгги боришида фотиҳа куни белгиланган. Бўлажак келиннинг уйида ўтказиладиган фотиҳа тўйи даврасига жамоанинг эътиборли қариялари, оқсоқоли ҳам таклиф этилган ва бу кун «нон синдириш» маросими ўтказилади. Даврадагилар орасидан кекса ёшли, кўп фарзандли, бир никоҳли киши йигит ва қизнинг тақдирини мустаҳкам боғланиши ҳақида дуои-фотиҳа ўқиб қўлига қиз томонидан олиб келинган ва йигит томонидан дастурхонга қўйилган нонлардан биттадан олиб жуфт қилади ва нонни юза тарафига қаратиб тенг қилиб синдиради. Унаштирилаётган ёшларнинг нондай азиз бўлиб, ўз қадр-қимматларини йўқотмасин деган ният ушбу удумда мужасамлашган. Нонни жуфт синдиришда эса келин-куёвнинг, қўша-қариши ҳақидаги магик орзу-истак мужасамлашган. Фотиҳа тўйи якунида ўзаро икки томоннинг ўзаро келушувига кўра тўй ва никоҳ куни белгиланган. Фотиҳа тўйидан катта тўйигача бўлган вақтда қудалар товоқ қайтариш, «кўрпа солди», тўққиз, «қиз оши (қиз мажлиси)» каби маросимлар ўтказилган. Йигит томон байрамларда келинга хайитлик совғалар юбориб турган. Дунганларда совчилик маросимдан сўнг тўйга 10-15 кун қолганда “Сун дали” – “Асосий совғаларни олиб бориш” маросими бўлган.

Ўзбек ва тожикларда никоҳ тўйи куни ёки бир кун олдин қиз томонга тўйнинг ошини пишириб ёки хомлигича юборилади. Қиз хонодонида жамоага ош тортилади. Тўй куни ёки тўйдан бир кун олдин қизнинг отасиникида никоҳ маросими ўтказилади. Куёв яқин

жўраси, тоғаси билан бўлажак келин хонодонига борган. Имом бўлажак куёвга эр-хотинликнингн бурч ва ҳуқуқларини тушинтиргач, қизнинг янгаси орқали рухсатини олиб кейин «Хутбаи никоҳ» ўқиган.

ХХ асрнинг 70-80-йилларидан бошлаб, куёвникида келин ва куёв учун базм уюштирилиб, стол усти дастурхонига турли ноз-неъматлар билан бирга спиртли ичимликлар қўйилиб, иштирокчилар томонидан улар шаънига самимий истаклар билдириш анъанага айланди. Шунингдек кейинги йилларда ФҲҚҚ бўлимларида никоҳдан ўтилгандан кейин базм уюштириш, енгил машиналарда келин ва куёвнинг сайр этиши, расм ва видео тасмаларга тушиши, улуғ кишилар ҳайкали пойига гуллар қуйиши, никоҳ кечаси базмига донгдор санъаткорларни таклиф этиши каби расм-русмлар кириб келди. Тўйнинг эртаси куни «келин салом» каби удум бажарилган. Ушбу удум орқали келиннинг нақадар тарбия кўрганлигига, феъли атворига, уқувлилигига баҳо берилган ҳамда ишчанлиги, эпчиллиги, урчуқ эгириш, овқат пиширишга нечоғлик тайёр эканлиги каби фазилатлари синовдан ўтказилгандир. Бу эса қизларни ёшликдан меҳнатга, рўзғор тутишга, меҳмон кутишга ўргатишни кўзда тутади.

Тошкент воҳаси аҳолисининг ижтимоий ва оилавий қадриятларнинг хар бирида бир қанча урф-одатлар, ирим-сиримлар ва расм-руслар мужассамлашган. Ўзбекистон миллий мустақилликка эришгач, вилоятда яшовчи кўплаб халқлар ва миллатларнинг қадимий ва азалий қадриятлари аста секин тикланди ва уларнинг кўплари турмуш-тарзидан ўзининг муносиб ўрнини топди. Ўз навбатида советлар даврида коммунистик мафкура остида олиб кирилган айрим маросимлар халқ турмушидан чиқиб кетди ва қолаверса янги қатор замонавий маросимлар ҳам кириб келди.

**Д.А. Алимова**
Главный научный сотрудник
Национального центра археологии АН РУз,

## ДЖАДИДЫ ТАШКЕНТА И ИХ СПОНСОРЫ

***Аннотация****. В статье дается анализ Туркестанского джадидизма в контексте экономике края в конце XIX – начале XX вв. На примере Ташкента, мы можем говорить об особенностях взаимоотношений национальных прогрессистов с достаточно важной в обществе стратой – меценатами, предпринимателями для поддержки своих образовательных целей.*

***Ключевые слова:*** *Джадидское движение, национальные прогрессисты, Туркестанское генерал-губернаторство, Ташкент, Мунавваркари Абдурашидханов, Абдулла Авлони, Убайдулла Ходжаев, Саидазимбой, Орифходжа.*

Рассмотрение вопроса взаимоотношений национальных прогрессистов начала XX века, аккумулирующих джадидское движение с такой социальной стратой, как предприниматели, купечество в контексте Ташкента правомерно, ибо Ташкент со второй половины XIX в. постепенно превращался не только в огромный внутренний рынок Российской империи и центр русско-среднеазиатской торговли, но и в площадку политических и общественных процессов. Он был центром и общественных движений, а с 1915 года и политических.

Джадидизм в Туркестане можно расценивать как одну из ветвей и разновидностей реформаторского движения национально-прогрессивной интеллигенции, возникшего и развивающегося во многих странах Востока в XIX – нач. XX в. Джадидизм был детищем времени, определенного, во-первых, упадком культуры, кризисом религиозного сознания края, во-вторых, экономическим состоянием региона. Завоевание Туркестана Российской империей вызвало необратимые процессы как экономического и хозяйственного порядка, так и сознания людей. Об отрицательных сторонах этого процесса писали многие. Учитывая это, все же следует сказать, что вхождение Туркестана в систему империи, открыло широкие возможности для интеллигенции края увидеть мир, сравнить и сделать выводы о том, что и в мусульманской стране возможен

прогресс. Об этом писал А. Дониш. Его философские заключения о том, каким должно быть общество и государство, отраженные в его труде «Наводир ул-вакае» («Редкостные события»).

А молодежью были – будущие джадиды, которые обогатили свои знания европейской литературой и культурой. Идея просветительства главенствовала в их концепции реформ на первом этапе движения. На этом этапе они видели свою основную задачу в создании новой системы образования. Джадиды не только теоретически обосновали необратимость проведения такой реформы, но и приложили большие усилия по открытию школы усули-джадид (новометодные), библиотек, читальных залов, издавая учебники, и газеты, создав первый национальный театр. И в этом Ташкент стал примером показательности, т.к. здесь, по сравнению с другими регионами края, аккумулировались их силы и возможности. К 1911 г. общее количество новометодных школ в Туркестане составляло 63, с обучением 4106 детей, 90 из них действовали в Фергане, 12 – в Семиречье, 5 – в Самарканде и 24 – в Ташкенте, где было выше и качестве образования[13].

В отличие от старых мактабов в них дети овладевали грамотой за 40 дней, что и определялось популярностью среди населения. К 1917 году из было 100. Роль Ташкента, как центра духовной культуры для населения Туркестана росла с каждым годом. Во главе джадидского движения, здесь, наряду с известным просветителем Махмудходжой Бехбуди, признанным отцом для джадидизма, был ташкентец Мунаваркори Абдурашидханов, писатель, редактор, общественный и в дальнейшем политический деятель, имевший религиозное образование и светские знания. Работа в должности имама мечети Дархан Ташкента сделала его очень популярным среди народа. Проблемы он знал глубоко. Он одним из первых открыл у себя дома новометодную школу, затем еще в других частях города. Его перу принадлежат ряд учебников, касающихся литературы, истории, географии, ряд рассказов для детей. Он был инициатором создания благотворительных обществ «Жамият хайрия», «Туран», издателем газеты Хуршид, с 1917 г. главным редактором газет «Нажот», «Кенгаш», и руководил отделом в газете «Садои Туркистон». В 1917 г. он стал одним из основателей и руководителей общественно-политической организации Шурои

Исламия и принял участие во всех 4 краевых мусульманских съездах, был сторонником и участником Туркистон мухторияти. В 1918 году по его инициативе был организована Туркестанский народный университет (Туркистон халк дорилфуни), который был прообразом Национального университета Узбекистана. В советское время он продолжил свою прогрессивную деятельность, но в 1929 году на этапе начала репрессий и преследования национальной интеллигенции был арестован по подозрению в организации подпольных организаций и расстрелян в 1931 г.[2, 168-170].

Необходимо сказать и о Абдулле Авлони, видном просветителе, литературном и театральном деятеле и публицисте начала XX в., который приложил большие усилия в подготовке квалифицированных кадров педагогов. В своем доме в 1907 году он организовал выпуск газеты Шухрат, в своей махалле новометодную школу, написал ряд учебников по литературе, организовав благотворительный фонд и товарищество «Нашриет» и книжный магазин под названием «Мактаб кутубхонаси», который находился на площади Хадра[2, 155-156].

Абдулла Авлони внес весомый вклад в развитие узбекского театра. Группа Туран, созданная им в 1913 г. был первой профессиональной театральной труппой в Туркестанском крае. Там были поставлены и пьесы, написанные им. После установления советской власти, продолжая работать на поприще просвещения, в 1919 г. он был назначен генеральным консулом советского посольства в Герате (Афганистане). Далее, по возвращении, он работал САГУ, в качестве профессора. Возможно, его дипломатическая деятельность и спасла его от советских репрессий.

Третий представитель ташкентского отряда джадидов, которого мы хотим представить – Убайдулла Ходжаев (Убайдулла Асадуллаходжаев), окончивший русско-туземную школу, а затем юридический факультет Среднеазиатского университета. Став первым из узбекских адвокатов, он работал в окружном суде. Будучи сторонником демократических реформ, он организовал тайное общество «Умид», позднее переименовав в «Тараккий парвар» и ставший одной из основных оппозиций джадидов в 1914 году при помощи местных меценатов. У. Ходжаев под своей редакцией начал издавать газету «Сади Туркестан», ставшей одной из рупоров

пропагандистской деятельность джадидов. После ее закрытия царской администрацией, У.Ходжаев переехал в Андижан и стал издавать газету на русском языке «Туркестанский голос».

В 1917 г. приняв участие в политическом движении за автономию Туркестана, он был избран председателем Ташкентской организации «Шурои Исламия» и членом Всероссийского совета мусульман. У. Ходжаев был одним из авторов программных документов о создании «Туркестан мухторияти» и входил во его правительство в качестве военного министра. После ликвидации большевиками республиками он уехал с Ахмад Заки Валиди и принял активное участие в формировании Башкирской автономии. В 1920-1938 гг. он подвергался преследованиям из-за политического прошлого и взглядов, репрессирован в 1938 г. и расстрелян[2, 178-179].

Эта краткая история лишь ташкентских представителей джадидского движения. Количество его участников остается неизвестным, но учитывая значение Ташкента, как самого развитого в общественно-политическом отношении города, остается предполагать, что здесь представителей движения было гораздо больше, чем в других регионах Туркестана, хотя и Ферганская область отличалась по количеству новометодных школ.

В целом, джадиды отличались как совершенно новая страта в колониальном обществе Туркестана. Их появление зрело давно, еще в начале XIX в., определенного выступлениями на тему просвещения А. Дониша, Абая, Ч. Валиханова, Мукими, Фурката, Хамзы, Бердаха, Завки, Баяни, Аваз Утера и др., представителей поэтической элиты. Думается, что джадидизм имел генетические корни, однако колонизация края Российский империей как лакмусовая бумага, ярко показала степень отсталости региона в социально-экономическом, культурном, духовном отношениях.

Колонизация Туркестана Российском империей вызвала большие изменения в экономике края и социальной дифференциации Туркестанского общества. В частности, формирование обширного слоя предпринимателей, владельцев фабрик и заводов, крупных землевладельцев, ориентированных на рынок, купцов-ростовщиков, руководителей форм, и банков[8, 83].

Большая часть этого слоя составляли российские представители, однако на арену выходит местная торговая элита. Проникновение российского капитала в экономику Туркестана имело двойственное значение. С одной стороны, это привело к резкому развитию промышленности, появлению страты промышленных рабочих, с другой, к кризису традиционных видов ремесел. Подорвался статус местных групп национального деканства, мелких собственников. Духовенство также потеряло свой былой статус.

Статус национальных предпринимателей обрел новую форму. Особенно ярко это проявилось в Ташкенте – центре Туркестанского генерал-губернаторства. По данным всеобщей переписи населения 1897 г. постоянное население Ташкента составляло 155673 человека. К 1904 году его численность возросла до 170 тыс. чел.[3, 167].

Это был бурный котел, в котором кипела общественная и политическая жизнь представителей многих национальностей, в том числе переселенцев из России, призванных стать опорой царской власти в Туркестане. 40 тыс. их представителей проживали в новой части города. Местное население концентрировалось в его старой части, границей между двумя частями была Урда. С первых дней основания города в нем возник ряд торговых и промышленных заведений. Приезжие и местные купцы и предприниматели стали открывать промышленные предприятия, продуктовые и галантерейные магазины, крупные мельницы, мыловаренные и кирпичные заводы. В связи с ориентацией на хлопководство и стремлением России обрести хлопковую независимость, стали строиться хлопкоочистительные заводы. В 1885 году в Ташкенте уже действовало 27 промышленных предприятий с общим количеством рабочих 365 человек и валовой продукций в 680, тыс. руб. [3, 168].

В городе стала развиваться инфраструктура, в начале XX века была создана городская конная железная дорога, действовали телеграф, телефон, почта. Решающее значение в судьбе города имело доведение в 1899 г. до Ташкента линии железной дороги Самарканд-Андижан, связывающей Ташкент с побережьем Каспия, что было вызвано появлением в городе новых крупных предприятий. С началом строительства железной дороги Оренбург-Ташкент, город

стал самым оживленным пунктом края[3, 168], втянутым в оборот мирового капитала.

В таких условиях развивалось местное предпринимательство, которое вносило значительный вклад в развитие экономики края. В хлопковой индустрии местные предприниматели принимали активное участие. Так из 157 заводов Ферганской области 107 принадлежало им, из 15 – в Ташкенте и его окрестностях – 3.

В 1886 году в Ташкенте насчитывалось 42642 торговца, из них 1206 в русской части города. Крупными торговцами галантерейных товаров в азиатской части города были братья Урмбаевы, чей ежегодный оборот достигал 1 млн. руб. Они владели 190 торговыми и промышленными заведениями. Крупную торговлю изделиями из железа, чугуна и меди вели Абдумавлян Абдумаликбаев в азиатской части города, Мусбай Расул Мухамедов в русской части, с ежегодным оборотом 500 тыс. и 2 млн. руб. [4, 398]. Наиболее крупными представителями торгового купечества, проживавшими в Ташкенте были известный в истории своими политическими взглядами Саидазимбай и Арифходжа.

Среди владельцев заводов Ф. Азадаев в книге «Ташкент во второй половине XIX в. Очерки социально-экономической и политической истории» называет следующих лиц[1, 158]:

| **Владелец завода** | **Сумма производства** | **Среднее число рабочих** | **Примеания** |
|---|---|---|---|
| Рахматбаба Халбабаев | 14500 | 12 | Все рабочие были русскими |
| Ходжаахмет Абдужаббаров | 13400 | 12 | |
| Каримбай Бадалбаев | 11000 | 14 | |
| Мухаммад Нигмаджан | | | |
| Мулла Нармухамедов | 32000 | 15 | |
| Мирагзам Мираюпов | 38400 | 20 | Русские и местные жители |
| Инагамбаба | 16900 | 16 | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Розикбаев | | | |
| Риксибай Баймухамедов | Нет сведений | 10 | |
| Ашур Бабаджанов | 8000 | 6 | |
| Касимбай | 8000 | 6 | |

На 1893 год Ф. Азадаев дает список «выдающихся владельцев фабрик и заводов, а также земледельческих хозяйств»: Исабек Хакимбеков, Мирзагзам Мираюпов – владельцы хлопкоочистительных и кожевенных заводов; Бадал Мухамадбай Дада Мухамедбаев, Бакижан Дадажанов – владельцы хлопковых заводов и общественных бань; 12 местных жителей (Азимбай, Риксибай) – владельцы кожевенных заводов; Мулла Амин – владелец хлопкоочистительного завода и землевладелец; 5 местных жителей - владельцы общественных бань; Абдухамутходжа Щадманходжаев – владелец кирпичного завода и землевладелец и еще 56 «выдающихся землевладельцев»[1, 159].

Основная часть торгового оборота Сырдарьинской области приходилась на долю Ташкента. В 1893 - общий торговый оборот области – 29 609 700 руб.; Ташкента – 22178 руб.; в 1898 г. – 45 221 100 руб., Ташкента – 27 130 520 руб.[1, 172].

Приобретая право на широкую торговлю на территориях империи, предприниматели пытались выйти на европейские рынки, конкурируя с российскими. Усиленному ведению дел местных предпринимателей сопутствовало понимание преимуществ российской экономики, необходимости введения и освоения новых технологий, которые заметно и основательно проникали в различные сферы жизни. Они были очевидцами этих событий. Так, в начале XX века Управлением земледелия и государственных имуществ Туркестанского края в целях внедрения в сельское хозяйство современных орудий труда создаются склады сельскохозяйственного инвентаря. Такой склад в 1900 был впервые создан в Ташкенте, затем в Самарканде. Новые инструменты и технику приобретали и представители местного населения. Постепенно в Туркестан стали прибывать из Европы экскаваторы, центробежные насосы, рисоочистительные машины, новые технологии для обработки овощей и сушки фруктов, вагоны-

рефрижераторы, гидравлические прессы для хлопка мельницы нового типа[8, 104-109]. Конечно, в распространении информации об этом большую роль играла реклама. Так, по сообщению газеты «Туркистон вилоят газети» один из предпринимателей из Бешагачской части г. Ташкента Мухаммад Амин Зафар Ходжи привез разного рода оборудование из Америки, Германии, Франции и открыл цех танбурной вышивки. Большое участие в рекламе техники принимают ташкентские филиалы фирм «Антон Эрхангер и К», «В.Т. Столь и К», акционерных обществ «Стукен и К», «В. Финцер и К. Гампер», «Полан и К» и многих др.» [8, 109].

Это не оставалось вне зрения местных предпринимателей и, конечно, же представителей национальной интеллигенции, в том числе джадидов, которые всячески приветствовали внедрение новых технологий и считали, что они как воздух нужны туркестанской экономике и культурным процессам. Здесь следует сказать, что известный джадид А. Чулпан в статье о проблемах земледелия в Туркестане, критикует положение, особенно дехкан, за неиспользование новой техники, хотя сам же отмечает, что главной причиной этого является отсутствие средств[14]. Стремление к технологиям объединяло национальных предпринимателей с джадидами. Представители обеих страт понимали, что в основе процесса лежит образование и в целом просвещение. Это объединенное стремление охватило почти все города Туркестана. Конечно, в этом процессе участвовали не все богатые люди края, однако лучшие их представители сделали ставку на джадидов, веря в их концепцию реформ и обновлений. В джадидской печати имеются сведения о том, что они собирались и обсуждали положение Туркестана и конкретно-практические меры в области образования. По информации журнала «Ойна» 9 марта 1914 г. в Ташкенте собрались предприниматели и джадиды в доме Зиёмухаммада Тошмухаммедова в квартале Себзор, где прошло обсуждение по вопросу приобретения земельного участка для создания новометодной школы[11; 12, 375].

Однако следует отметить, что первыми спонсорами джадидов в деле создания школ были они сами. Известно, что М. Бехбудий, М. Абдурашидханов, А.Авлоний, и др. потратили немало средств для создания новометодных школ. Так, М. Бехбудий создал на свои

средства школу в Самарканде, пригласив для этого Шакури и эта школа была одной из лучших в Самарканде. Миноваркары Абдурашидханов и Эшонходжа Ханходжаев открыли две школы в Ташкенте на свои средства. И даже царская администрация признавала их самыми лучшими. Большинство джадидов были из достаточно обеспеченных семей, что позволяло им путешествовать по странам мира и приобретать знания о состоянии в них образования. На свои же средства они создали немало учебников, являясь сами же их авторами М. Бехбудий, М. Абдурашидханов написали 15 пособий и 1 учебник, а также газет. Пресса стала трибуной пропаганды просвещения. Большинство их были сосредоточены в ташкенте в 1905-1906 гг издавав газеты Тараккий (ред. Исмаил Обидов), «Хуршид» (ред. М. Абдурашидханов), в 1907-1908 гг. «Шухрат» (ред. А. Авлоний), «Осиё» (ред. Ахмаджон Бектемиров).

Ташкентский купец Саидазимбай был самым ярым сторонником новометодных школ и джадидских газет. На свои средства он издавал газету «Туджор», где печатались статьи не только на экономические темы, но и пропагандирующие культуру и просвещение. Продолжал его дело его сын, Саидкарим Саидазимбайев, который писал «сегодняшнее время – очень развитий период в мире прессы, душа каждой нации освещается системой газет и каждая нация видит своими глазами через нее как в зеркале весь мир и узнает о себе» [13, 81].

Саидазимбай был самым лояльным к русской власти. Еще до завоевания Туркестана, он, наладил торговые отношения с Россией и приход русских встретил, как неизбежность. Конечно же он понимал, что вхождение Туркестана в Российскую империю создавало благоприятные условия для бизнеса, поэтому всячески оказывал услуги царским властям: от освобождения за свои средства русских рабов до поддержки их политики. Он был назначен туркестанским генерал-губернатором председателем махкама. Некоторые современные историки обвиняют его в предательстве, но не стоит так однозначно оценивать эту личность. Он просто отличался прагматизмом и реальным взглядом на вещи, понимая, что новая власть не временная явление и конечно же исходил из своих бизнес-интересов. В письме Саидазимбая, написанном в 1871 г. генерал-

губернатору К.П. Кауфману, он говорил о необходимости изучения в школах и мадраса русского языка, русских законов, основ бухгалтерии[10, 8-10]. Воодушевленный Кауфман, дает указание М.А. Терентьеву создать комиссию для претворения в жизнь предложений Саидазимбая, однако через короткое время об этом забывают. Подобное отношение и другие наблюдения Саидазимбая привели в конце жизни к разочарованию и еще большему сближению с джадидами. Он открыл новометодную школу у себя дома в старой части города (на Хадре).

Его сын Саидгани, очень известная личность своей деятельностью по отправке мусульман для паломничества в Мекку (хадж), был назначен царем министром паломничества Туркестанского генерал-губернаторства. Его отчет на имя царя в 1909 г. о движении мусульманских паломников с Мекки в 1908 году свидетельствует об огромной работе по анализу и выявлению проблем, устройству, перевозке, организации продовольственных пунктов, штатов переводчиков, постройке туземных бань, больниц, аптек. Он с горечью пишет, что «как и везде и на сей раз действительность оказалась совершенно иной, чем можно было составить предположение и стоило только приступить к фактическому осуществлению дела, как с разных сторон стали приниматься всевозможные меры во что бы то не стало воспрепятствовать его осуществлению»[6, 74]. Саидгани потратил немало своих собственных средств на это дело, ставшее основным в его жизни. Предполагаем, что этот человек, обладающий большим интеллектом имел связи с джадидами, которые в своих статьях писали о проблемах хаджа.

Другая сторона участия национальных предпринимателей в общественной жизни была организация благотворительных обществ. Но это отнюдь нельзя назвать политической деятельностью, как это делает Е.Р. Тайронов в своей диссертации[9, 18-19].

Известно, что объявление манифеста царя 17 октября 1905 года определило возможность создания в Туркестане различных национальных организация, обществ, союзов, в том числе с участием местного населения. Конечно, роль в их создании джадидов и предпринимателей была велика. 1 сентября 1906 года в медресе

Кукельдош в Ташкенте впервые открылось такое благотворительное общество. В его организации наряду с М. Абдурашидхановым и другими джадидами особую инициативу проявлял Саидкарим Саидазимбаев, Максудходжа Эшан Отаходжа, Абдували Абдунамбай-оглы, Мирзаабдулла Мухаммадбай-оглы[5]. Весной 1909 г. в городе по инициативе Мунавар коры было организовано еще одно благотворительное общество с участием предпринимателей[9, 18]. Это общество были признаны поддерживать образовательные учреждения, внедрить за счет зажиточных его членов стипендий для студентов. Основатели этих обществ обратились к правительству за разрешением создать общество «Умид», которое должно было снабжать книгами новометодные школы[7, 1-2].

Конкретных данных о финансовой стороне вопроса, в архивах НАУ и в материалах периодической печати, определенных договорах, объеме выделенных средств пока не найдено. Несмотря на это, связь джадидов со своими спонсорами в деле образования не подлежит сомнению. Вместе с тем, следует сказать, что предприниматели, по свойственным им и понятные опасения за свои капиталы и бизнес, были далеки от политики. Большинство из них, хотя сочувствовали джадидам и понимали необходимость просвещения, нигде не предпринимали мер противоправительственных характера. Подтверждением этого является то, что в годы когда движение джадидизм и уже получил политическую окраску, они вовсе отошли от них. Нет ни одного свидетельства, что предприниматели поддерживали Туркестанскую автономию, созданную джадидами в ноябре 1917 года.

Таким образом на примере Ташкента, мы можем говорить об особенностях взаимоотношений национальных прогрессистов с достаточно важной в обществе стратой – меценатами, предпринимателями для поддержки своих образовательных целей. Они были достаточно прагматичны в поиске возможностей для развития реформаторского движения использовали различные приемы и способы вовлечения в него выгодных единомышленников.

**Список литературы:**

1. Азадаев Ф. Ташкент во второй половине XIX века: Очерки соц.-экон. и полит. истории. Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1959.

2. Алимова Д.А. История как история, история как наука. 2 том. Феномен джадидизма. Ташкент: Узбекистан, 2009.

3. Алимова Д.А., Филанович М.И. История Ташкента (с древнейших времен до наших дней). Ташкент: ART FLEX, 2009.

4. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Ташкент, 1912.

5. Мунавар коры Абдурашидханов. Тошкентда жамияти хайрия // Хуршид. 1906. № 3.

6. Национальный архив Узбекистана, И-1, оп. 4, д. 1260.

7. Национальный архив Узбекистана, И-461, оп.1, д. 901.

8. Очерки истории формирования и развития предпринимательства в Узбекистане. Ташкент, 2011.

9. Тайронов Е.Р. Общественно-политическая деятельность туркестанских предпринимателей в начале XX в.: автореф. дис. канн. ист. наук. Ташкент, 2011.

10. Толибжонов Қ. Сайидазимбой: далиллар, мулоҳазалар // Фан ва турмуш. 1994. № 1. Б. 8-10.

11. Тошкентдан хабарлар. Мактабга харакат // Садои Туркистон. 1917. № 7.

12. Турсун Мухаммадий. Ташкентдан мактуб // Ойна. 1914. № 24. Б. 375

13. Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – нач. XX вв.): дисс. канд. ист. наук. Ташкент, 1995.

14. Чўлпан А. Ватанамиз Туркистонда зироат ва дехкончилик // Садои Фаргона. 1914. № 13.

**Sherali Qo‘ldashev**
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi

## “ZAFARNOMAI XUDOYORXON”DA CHIRCHIQ DARYOSI BO‘YIDAGI JANG TAFSILOTI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, Qo‘qon tarixchisi Abdulg‘ofurbek Ismatiyning “Zafarnomai Xudoyorxon” asarida 1845-yilda yuz bergan Chirchiq daryosi bo‘yidagi jang tafsilotlari berilgan. Ushbu jangda mingboshi Musulmonquli va yosh shahzoda Xudoyorxon qo‘shinlari o‘rtasidagi jang tasvirlangan. Garchi Xudoyorxon bu jangda g‘alab qozongan bo‘lsa-da, uning ichki ruhiyatida xonlikning inqiroziga sabab*

*bo‘lgan o‘zaro kurashlar maydoniga aylanganligini tan oladi. Asarda berilgan ma'lumotlar shu davrda yozilgan boshqa qo‘lyozmalardagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilingan. Barcha ma'lumotlar tahlili orqali ilmiy xulosalar yozilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chirchiq, daryo, Abdulg‘ofur, Ismatiy, Zafarnoma, jang, Xudoyorxon, Musulmonquli, g‘alaba, tahlil, xulosa.*

Abdug‘ofurbek Ismatiyning “Zafarnomai Xudoyorxon” dostoni XIX asrning 40-50-yillarida Qo‘qon xonligida yuz bergan tarixiy voqealar, shuningdek, Xudoyorxonning ruhiy iztiroblari, ichki dunyosi she'riy misralarda tasvirlangan. Bu asar masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, hajmi 3000 misradan ortiqdir. Asarning to‘rt qo‘lyozma nusxasi ma'lum bo‘lib, biz tavsif qilgan nusxa 1859-yili ko‘chirilgan va 65 varaqdan iboratdir. Asardagi boblar nomi qizil rang bilan matni qora siyoh rangda yozilgan. Bu asarni ilmiy muomalaga kiritgan olim A.Qayumov «Zafarnomayi Xudoyorxoniy»ning badiiy va g‘oyaviy jihatlarini ilmiy tahlil qilgan[4, 311]. Uning «Zafarnomayi Xudoyorxon» asari taxminan 1853-1854-yillari fors-tojik tilida yozilgan va u madhiya tarzida yaratilgan rasmiy tarixiy yodgorlikdir. Muallif doston boshida Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842) o‘limidan so‘ng sodir bo‘lgan urush va janjallar hamda fitnalar tafsilotlarini bayon qilgan. 1845-yilda Qo‘qon xoni Sheralixonning qatl qilinishi sabablarini iztirob bilan qalamga olgan. Bir oz vaqt taxtda o‘tirgan Murodxonning Xudoyorxonni ham o‘ldirib tashlash rejasi qanday barbod bo‘lganini hikoya qilgan. Dostondan ma'lum bo‘lishicha, Xudoyorxonga muxolif bo‘lgan qirg‘iz-qipchoq qo‘shinlari bilan Qo‘qon lashkarlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang Chirchiq daryosi bo‘yida sodir bo‘lgan.

Muallif jang tafsilotlarini zavq-shavq bilan emas, balki afsus-nadomat ila tasvirlaydi. Sababi, Xudoyorxon garchi bu jangda g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, o‘ziga qarindosh xalq askarlari qirilib ketdi, eng yomoni ikki qardosh xalq bir-birini kechirmaydigan yovga aylandi[6, 25]. Minglab odamlar qon daryosiga g‘arq bo‘ldi. Buni shoir Xudoyorxon ruhiyati orqali ham ifodalashga harakat qilgan. Xudoyorxon shafqatsizliklarni, urush va qon to‘kishlarni ko‘rar ekan: “Bu dunyoda meni ko‘nglim kabi ish bo‘lmadi, naylay”, deya odamlar o‘rtasidagi hiyonat, badnafslik kabi illatlardan bezor bo‘lganini izhor qiladi[1, 27].

Tarixda “Obi Turk”, “Parak” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan Chirchiq daryosi bo‘yida ko‘plab janglar bo‘lib o‘tgan. Biroq, bu jangni

ahamiyati shundaki, bir tomondan yosh shahzodaning Qo‘qon taxtiga chiqishi uchun omil bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan xonlikning inqirozini dastlabki sahifasini ochib bergan edi. Dostonda qipchoqlarning ikki guruhining o‘zaro olib borgan urushlari haqida ham ma'lumot berilgan. Qipchoqlarning bir guruhiga Musulmonquli bosh bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi guruhiga Normuhammad va uning safdoshlari Qulbobo, Karimquli, O‘tamboylar boshchilik qilganlar. Musulmonquli o‘zining mingboshilik lavozimidan foydalanib ikkinchi guruh joyloshgan Toshkent vohasiga ikki marta harbiy yurish qilgan[3, 63].

Bu jang tafsiloti haqida boshqa manbalarda ham ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Avaz Muhammad Attorning “Anjumand at-tavorix” asarida shunday bayon qilingan: “O‘sha vaqtda qal'achi savdogarlar karvonining kelish mavsumi bo‘lib, yo‘ldan Toshkand shahriga kirmoqchi bo‘lishadi. O‘sha asnoda lashkarga duch kelib, lashkar ahli Toshkandga kiritmay, Ho‘qand yo‘li bilan oldlariga solib, o‘z lashkargohiga tushiradilar. Ertasi kuni tongda nayyiri a'zam, ya'ni koinot jismi Quyosh olamni o‘z nuri bilan munavvar qilgan chog‘i maslahat jilovini qaytmoqda, hayrli ko‘rib, ko‘ch yukini karvon ahliga berib, o‘z oldiga solib, ketayotgan karvon orqasidan Musulmonquli o‘z lashkarini huddi saddi Iskandardek tuzatib, yo‘lga tushdi. Karvonning boshi hozir Chirchiq deb ataluvchi Parak daryosidan o‘tib, har kim bir manzilgohga tushgan paytlarida Musulmonquli qo‘shinining muqaddimasi Chirchiqning u tarafidan ko‘rinsa, uning avvali daryo ichiga endi kirib, oxiri Chirchiq bo‘yiga yetishgan edi. Shunda to‘satdan Toshkand lashkari huddi yashin va yeldek uning orqasidan ul qavmga yetishib, hamla qildi va o‘zini podaga urgan bo‘ridek, qamishzorga tushgan o‘tdek, may shishasi ustiga tashlangan aroqxo‘rdek hamda osmondan tushgan selga o‘xshab, pastu balandlikka parvo qilmay, duch kelgan tarafga quilib bori, ketayotganlar safini ostin-ustun qildilar.... Shu tariqa daryo ichida to‘lqinlar taloto‘mi bosqin-chopqin bilan jondan boj olardi, har odamning boshi to‘pdek daryo ichiga dumalab ketardi va oqqan qon daryo yuzini hino rangidek, yo‘q, xuddi qizil maydek qilgan edi. Ana shu yanglig‘ ro‘y bergan jangu jadal bilan daryoning bu qirg‘og‘iga o‘tdilar va o‘zini daryo ichidan najot sohiliga olib chiqqan har kimsa qochmoq yo‘lini o‘zining tinch-omonligi sababchisi o‘rnida ko‘rib, boshqaning salomatligi bilan ishi bo‘lmadi”[2, 128]. Niyozmuhammad Ho‘qandiyning “Ibrat ul-havoqin” asarida bu jang haqida quyidagi ma'lumotni bergan: “Shahrixon hokimi Xolmuhammad dodxoh o‘z jamoasi

bilan Toshkand ichidagilar bilan til biriktirib, Normuhammad qo‘shbegiga “bemulohaza chiqib jangga kirishingiz, biz ham o‘z qo‘shinimiz bilan xonni olib sizga borib qo‘shilamiz”, deb aytibdi. Bu habar shaharga yetishi bilan qo‘shin bu asrorni tekshirish uchun Toshkanddan chiqib Musulmonquli ustiga bostirib keldi. Bu alomatni Musulmonquli ko‘rib, to‘htamasdan orqaga chekinib, Chirchiq daryosi labiga keldi. Xonni olib daryodan o‘tmoqchi bo‘lganida Toshkand qo‘shini yetib kelib, jangga kirishdi. Musulmonquli ming mashaqqat bilan xonga yaqinlashib, endi uni qo‘lga olib suvdan o‘tmoqchi bo‘lganida, oliymaqom xonni (Musulmonquliga) muholif sarkardalar olib Toshkand ichiga olib ketishdi. Toshkandning botir va dilovar jangchilari barcha lashkarlari bilan Musulmonqulini quvib, Chirchiqqa yetkazdilar. Musulmonquli ozgina qo‘shini bilan qutilib, Chirchiqdan o‘tdi va qochish yo‘liga kirdi. Nayzazan dilovarlar va mardafkan bahodirlar Musulmonquli orqasidan quvib, surib bordilar va ba'zilarini o‘ldirib, ayrimlarini asirga oldilar”[5, 564].

Xullas, Chirchiq daryosi bo‘yidagi jang tafsilotlari xonlik davri manbalarida birmuncha kengroq yoritilgan. Ular orasida Abdulg‘ofur Ismatiyning “Zafarnomai Xudoyorxon” asaridagi ma'lumotlar birmuncha batafsilroq va mohiyatan aniqroq qilib yoritilgan. Ushbu jangdan so‘ng Qo‘qon xonligida taxtga Xudoyorxon chiqadi va bir necha marta taxtni topshirib, oladi. Aynan uning davrida xonlikdagi turli qavmlarning o‘zaro taxt talashishlari, boshboshdoqlik, porakandalik vaziyatlari yuzaga kelgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdulg‘ofurbiy Ismatiy. Zafarnomai Xudoyorxon. Rossiya Fedaratsiyasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti. Sharq qo‘lyozmalari markazi. № S-667. – 83-varaq.

2. Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи Жаҳонномайи (Оламни кўрсатувчи тарих). Форс-тожик тилидан таржимон, кириш, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Ш. Воҳидов. – Тошкент., 2012. – 439б.

3. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигидаги тарихнавислик: генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари. Тошкент: Akademnashr. 2010. 315 б.

4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1961. – 452б.

5. Ниёз Муҳаммад Ҳўқандий. Ибрат ул-ҳавоқин (Тарихи Шохруҳий). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – 700б.

6. Сафаева Э., Остонақулов И. “Зафарномаи Худоёрхон” – тарихий достон // Тошкент Ислом институти илмий-таҳлилий ахборот журнали. 2005 йил. 3-сон. – Б. 24-28.

**Dilmurod Normurodov**
O‘zMU dotsenti

## BO‘STONLIQ TUMANI “SIJJAK” MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA

Qadimdan ilk o‘rta asrlarga qadar Choch, 9–12-asrlarda Shosh-Iloq deb yuritilgan Toshkent vohasining o‘ziga xos o‘tmishi bor. Vohaning qulay tabiiy-geografik joylashuvi va turli resurslarga boyligi odamlar tomonidan tosh davridan muntazam o‘zlashtirib kelishlariga sabab bo‘lgin. Keyinchalik Toshkent vohasida aholi soni oshib qishloq va shaharlarga asos solingan. Bular haqida darak beruvchi turli arxeologik yodgorliklarining o‘rni haligacha saqlanib qolgan. Ular g‘or-makoni, ochiq manzillar, tosh davri ustaxonalari, qoyatosh sur’atlari, shaharlar, qishloqlar, konlar, qabr-qo‘rg‘onlari va boshqalardan iborat bo‘lib, ularning umumiy hisobda 750 dan ortig‘i ilmiy muomalaga olib kirilgan [1]. Bu madaniy meros obyektlaridan bir qismi qabristonlarga aylantirilgan bo‘lsa, bir qismi esa so‘ngi 200-yil orasida o‘zlashtirilib yo‘q qilib yuborilgan. Ulardan saqlanib qolganlarining aksariyati O‘zbekistonning arxeologik yodgorliklari sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Shuni qayd qilish kerak-ki, Toshkent vohasidagi yerlarni sug‘orma dehqonchilik maydonlariga aylantirish maqsadida o‘tgan asrning o‘rtalarida suv ombor qurish ishlariga katta e’tibor qaratilgan. Natijada, Toshkent vohaning asosiy daryolari – Chirchiq va Ohangaron daryolari havzalarida bir qancha suv omborlari qurilgan. Jumladan, Chirchiq daryosi havzasida – daryoning yuqorisida “Chorvoq suv ombori”, daryoning bosh qismidagi Xo‘jakent havzaning tekislashgan qismidagi Bo‘zsuv omborlari, Ohangaron daryosi havzasida – daryoning yuqori oqimida Ohangaron suv ombori, daryoning tekislikka tutash qismida “Tuyabo‘g‘iz suv ombori (Toshkent dengizi) tashkil qilingan. Ana shu suv omborlarining tashkil qilinishi munosabati bilan tashkil qilingan arxeologik tadqiqotlarda vohaning asosiy arxeologik yodgorliklari hisobga olingan, ulardan ayrimlarida qazuv ishlari ham olib borilgan. Tadqiqotlarda aniqlangan

yodgorliklarning bir nechtasi vohada tashkil qilingan suv omborlarning suv ostida qolib ketgan. Ularning xarobalarida saqlanib qolgan ashyolar suv omborlarning suvi sathi pasaygan mavsumda ochilib qolmoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda ichki va tashqi turizm maskanlariga aylangan Chorvoq suv ombori sohillarida bunday ashyolarning turistlar tomonidan topilishi holatlari tez-tez kuzatilib turibdi. Bu kabi arxeologik ashyolarni yig‘ib olib muzeylarga topshirish maqsadida joriy yilning bahor oyida Chorvoq suv ombori suvi sathining pasaygan mavsumda, suv omborning qirg‘oqlari bo‘ylab yangi arxeologik qidiruv ishlari olib borildi.

2025-yil 27-mart kuni Chorvoq suv omboriga shimoldan kelib qo‘shiladigan Piskomsoyning o‘ng irmog‘i bo‘lgan Sijjaksoyning chap sohili, Piskomsoyning Bo‘stonliq tumani, “Sijjak” MFYga tutash qirg‘og‘i kuzdan kechirilganda oq, sariq, yashil va ko‘k rangda sirlangan va qizg‘ish rangdagi sirsiz sopol parchalari, pishirilgan g‘ishtlar, temir toshqollari uchratildi. Tekshirilar paytida ushbu ashyolar sochilib yotgan hududda turli kattalikdagi, ko‘p sonli doirasimon shaklli toshlarni eritib metall ajratib olishda foydalanilgan o‘choq va sopol buyumlarni pishirishda foydalanilgan xumdonlarning o‘rni ko‘zga tashlandi. Yangi tadqiqotlarda suv ombor suvining pasayganligidan foydalanib, suv bosadigan qismidagi moddiy ashyolardan sirli va sirsiz sopol buyumlar, suyakdan yasalgan buyumning sinig‘i va kamon o‘qlarining uchlari yig‘ib olindi. 12–13-aprel kunlari esa mavsumda suv ostida qolib ketadigan kulolchilik xumdonlarining tuzilishiga oydinlik kiritish uchun ulardan ikkitasida arxeologik qazish-tozalash ishlarini olib borildi[1]. Bu tadqiqot natijasida qazib o‘rganilgan har ikkala xumdonlarning ovalsimon shakldaligi, olov yoqishga moslashtirib biroz kengaygan tomoni daryo ya’ni, sharq tomondaligi aniqlandi. Xumdonlar ikki yarusli bo‘lib, uning 1-pasiki qismi (yarusi) xumdonni qizitish uchun o‘t-olov yoqiladigan, 2-tepa qismi (yarusi) kulolchilik buyumlarini terib-taxlab quyib pishiriladigan qismi bo‘lgan. Xumdonlarning devorini yuzasi yuqori darajadagi olov yonishi natijasida ko‘kimtir-shaffof rangga, ichki arkibi esa qizg‘ish ranga kelib qolgan. Afsuski, ustki yarusini devori deyarli saqlqnmagan. Ushbu kulolchilik xumdonlar quyidagicha o‘lchamga ega:

[1] Bu qazish ishlarida ishtirok etgan arxeolog Konstantin Andreevich Kraxmalga, O‘zMU “Arxeologiya” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich kechki guruhi talabalari – Abrorjon Ilxomjon o‘g‘li Sharobboyev, Davronbek Xayitboy o‘g‘li Sayfutdinov, Axmadjon tuxliboy o‘g‘li Tovasharov, Asadbek Abduraxmon o‘g‘li Norqulov, Shahzod asror o‘g‘lilar Salimjonovga, 3-bosqich kechki guruhi talabasi – Ozodjon Yunus o‘g‘li Xudaynazarovga chuqur minnatdorlik bildiramiz.

1-xumdon. Yirik hajmda bo‘lib, uning diametri – 2,8 m, saqlangan umumiy chuqurligi – 1,4 m, shundan pastki qismi – 1,2 m., yuqori qismi – 20 sm, devorining qalinligi – 10–15 sm.dan iborat (1-rasm).

2-xumdon. 1-sidan 50 m janubda joylashgan bo‘lib, uning diametri – 1,2 m, saqlangan pastki qismini chuqurligi – 0,5 m (yuqori qismi saqlanmagan), devorining qalinligi – 10–14 sm.dan iborat. Bu xumdonning o‘tin solishga moslangan old tomoni 0,5 m.ga kengaygan (2-rasm).

Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFYga tutash maydonidagi yangi qidiruv ishlari paytida uchratilgan ashyolar orasida bir dona ishlov berilgan tosh quroli ham bo‘lib, uning ishlov berilishi tosh davrining muste madaniyati ashyolariga o‘xshash [4] (3-rasm). Topilmalar orasidagi kulolchilik charxi yordamida yupqa devorli va pishiq qilib yasalgan, oq, sariq va yashil rangda sirlangan idishlar Toshkent vohasida 9–12-asrlarda keng tarqalgan kulolchilik buyumlariga o‘xshash [2]. Kulolchilik buyumlarining kulolchilik charxida yasalgan devori ancha qalin va dag‘alroq yasalib, qora va yashil rangda o‘simliksimon bezaklar berilgan va ustidan shaffof rangdagi sir bilan qoplangan idishlar esa 14–18-asrlarda vohada keng tarqalgan idishlar bilan bir xil o‘xshashlikda [3]. Topilmalar orasida suyakdan ishlangan buyumning dastasi ham bo‘lib, ungan tirnab naqsh chizilgan (4-rasm).

Umuman, Sijjakda yangi olib borilgan qisqa muddatli tadqiqotlarga, hududda sochilgan sopol parchalarining dastlabki tahlili ushbu hudud tosh davridayoq qadimgi odamlar tomonidan o‘zlashtirilganligini, 9-asrdan to 18-asrgacha hunarmandlar xususan, kulollarning va metallsozlarning mahsulot ishlab chiqarish ustaxonalari bo‘lganligidan guvohlik bermoqda. Kelgusida maydonda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi jarayonida bu masalaga yanada aniqlik kiritilishi.





1-rasm. 1-xumdon.

2-rasm. 2-xumdon.




A



B

3-rasm. Muste davri madaniyatiga tegishli tosh quroli




4-rasm. Buyumning suyakdan ishlangan dastasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Normurodov D. Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar davri moddiy madaniyati (miloddan avvalgi XIII asr – milodiy XIII asrning boshlari). Toshkent, 2023. 1-ilova.

2. Брусенко Л.Г. Глазурованная керамика Чача IX – XII вв. – Ташкент, 1986. 136 с.

3. Буряков Ю. Ф. Канка и Шахрухия древнейшие города Ташкентского оазиса. – Ташкент, 2010.

4. Сулейманов Р. Статистическое изучение культуры грота Обирахмат. – Ташкент, 1972.

**Ikramov Ravshan Aktamovich**
Yuridik fanlar nomzodi, professor**,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

## TURKISTONDA RUS IDORA USLULLARINING JORIY ETILISHI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin Rus idora usulini joriy etilishi, Turkistonda qabul qilingan nizomlar va ulardagi o‘zgarishlar o‘lkani harbiylashtirish kabi masalalar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar****: Turkiston, Eron, Afg'oniston va Xitoy, Rossiya, Turkistonning general-gubernatori, fon Kaufman, 1886-yildagi «Nizom».*

Turkiston ma’muriyati imperiyaning boshqa o‘lkalari boshqaruvidan o‘zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turgan. Ushbu boshqaruv tizimining asosiy xususiyati shundaki, hokimiyat Rossiyaning deyarli barcha boshqa viloyatlarida bo'lgani kabi ichki ishlar vazirligi emas, balki harbiylar qo'lida to'plangan. Bu, asosan, Eron, Afg'oniston va Xitoy bilan chegaralar Turkistonga yaqin bo'lganligi, shuningdek, Rossiyaga yarim bog'liq bo'lgan Buxoro va Xiva xonliklari bilan bog'liq bo'lib, ular bilan har doim ham oddiy harbiy-diplomatik munosabatlar o'rnatilmaganligini [1,108] rus ma’murlari asosiy sabab qilib ko‘rsatadi. Aslida Turkiston aholisiga ishonmaganligidan aholini harbiy boshqaruv orqali qattiq nazortda ushlab turush bo‘ganligi bugungi kun uchun sir emas albatta. Bundan tashqari, 1917-yilgacha O'rta Osiyoning mahalliy aholisi harbiy xizmatga olinmagani aholiga nisbatan ishonmaganlik va harbiy xizmat sir asrorlarini o‘rganib keyinchalik qo‘zg‘alon ko‘tarishi mumkinligidan qo‘rqishgan.

Rossiya hukumatining Turkiston uchun 1865-1916 yillar davomida ishlab chiqqan va amalga tatbiq etilgan o'nta qonun loyihasi (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916)ga va uning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o‘zgartirishlarda o‘lka aholisini qattiq nazoratda ushlab turish holatlari o‘z aksini topgan[2,189]. Turkiston o‘lkasi siyosiy tizimida Sankt-Peterburg oliy harbiy-siyosiy doiralarining niqoblangan va jahon afkor ommasini chalg‘itishga qaratilgan nayranglari ham ro‘y-rost gavdalangan. Harbiy vazirlikning Bosh shtabi Osiyo bo‘limi, Ichki ishlar vazirligi politsiya

departamenti, «imperator hazrati oliylarining o‘z mahkamasi», Vazirlar qo‘mitasi va Vazirlar Kengashining Turkiston idorasiga oid hujjatlarida Rossiya hukumati Turkiston xalqlarining «xohish-irodasi va roziligiga qarab qolmasligi» hamda «o‘z faoliyatida to‘la erkin bo‘lishlari zarurligi» alohida uqtirilgani bejiz emas.

Turkistonda imperiyachilik boshqaruvining mustamlakachilik tamoyili rasman Turkistonning birinchi general-gubernatori fon Kaufmanning 1868 yil 22 yanvarda Toshkent shahri aholisi bilan bo’lgan uchrashuvda so‘zlagan dasturiy nutqida o‘zining yaqqol ifodasini topgan edi. U mazkur nutqida ruslarni O‘rta Osiyo xalqlarining katta og‘asi deb atab, Turkistonda bu hokimiyatning qat’iy va doimiy o ‘mashganligini alohida uqtirgandi[3,230].

Turkiston general gubernatori idorasi uchun alohida nizom (331-moddali) birinchi marta 1886 yil 2 iyunda qabul qilindi. Bu nizomni qabul qilinishi sabablari 1847-yilda boshlangan bosqinchilik urushlari 1885-yilda Turkmaniston hududi egalangandan so‘ng yakullangan edi shuning uchun o‘lka uchun qabul qilingan vaqtinchalik nizomlar tugatilib barcha sohani qamrab olgan nizom qabul qilindi.

Fuqaro ham harbiy idora, Turkiston general-gubernatorlari nazoratida edi. Turkiston general-gubernatori, ayni zamonda, rus qismlarining qo‘mondoni ham edi. Turkiston va Dasht gubernatori Rusiya harbiy nozirligining tasarrufida bo‘lib, Turkiston general-gubernatori to‘g‘ridan-to‘g‘ri oq podshoga murojaat qilish hamda tashqi siyosatga doir qaror qabul qilish kabi alohida imtiyozlarga ega edi.

Turkiston general-gubernatori o‘lim jazosini tasdiqlash va afv etish huquqiga ega bo‘lgan. O‘lim jazosiga oid qarorlarning tafsilotini bosh voliga yetkazish lozim bo‘lgan. General gubernator esa bu ma’lumotni Peterburgga bildirishi shart emas edi. Turkistondagi rus harbiy idoralari va general gubernatorning vazifasi, nima bo‘lishidan qat’i nazar, rus hokimiyatini himoya qilishdan iborat edi.

Turkistonda butun idora ishlari ruslar qo‘liga o‘tdi. Faqat qishloq raislari, mirob va qozilar turkistonliklardan saylanar, bulardan qozini rus gubernatori tasdiqlar edi. Qozilarning faoliyati 43 nafar rus sudyalari tomonidan qattiq nazorat qilinardi, rus boshqaruv tizimi aholining diniy hayotiga ham aralashar edi. 1866 yil idora nizomining 25-moddasi bo‘yicha oddiy xalq rasmiy vazifasi bo‘lmagan o‘z imomlarini saylash huquqiga ega edi. Shu nizomning 261-moddasi vaqf yerlarini bekor qildi.

Jome masjidlarining faoliyati general gubernator izniga bo‘ysunardi. Turkistonlik hokimlar oyligi 30 so‘mdan oshmagan, asosan, oilaviy masalalarni ko‘rib chiqa olishi mumkin edi. Turkistonda yagona diniy markaz bo‘lishi qat’iy man qilingandi. Idora ishlari turkistonliklar vositasida ruscha olib borilardi. Dastlabki tarjimonlar guruhi tatar va boshqirdlardan tashkil topgan edi. 1886 -yildan rus ofitserlari yerlik xalq tilini o‘rganishga majbur qilindi. Ammo ofitserlar bunga amal qilmadi. Ruscha biladigan turkistonliklar shu qadar oz ediki, rus hukumati Omsk va Toshkentda Turkiston va boshqa Osiyo mamlakatlarida ishlaydigan ruslar uchun «Osiyo til maktabi» ochishga majbur bo‘ldi[4, 47].

1889-yilgacha tajriba tariqasida yerli xalqdan nohiya (uezd) hokimi o‘rinbosari saylanishi joriy etilgan edi. Andijon qo‘zg‘olonidan so‘ng 1889-yilgi nizom bilan bu qoida o‘zgartirildi. Qo‘zg‘olon bostirilgach, rus bosh volisi Duxovskiy mahalliy xalq bilan muloqot faqat rus tarjimonlari yoki mutlaq ishonchli bo‘lgan ruslarga sadoqatli rus bo‘lmaganlar vositasida olib borilishi haqida buyruq berildi.

Rus boshqaruvi ish boshlashi bilan Turkistonning eski asilzodalari bir chetga surilib qoldi. Zodagonlar, hokimlar, beklar qattiq nazoratga olindilar yoki boshqa yurtlarga surgun qilindilar. Harbiy mutaxassislar esa urush davrida va istilo vaqtida yo‘q qilindi. Asir olingan turkistonlik harbiy soha vakillari uzoq yillar qamoqda saqlandi va ulardan faqat o‘z hurligi uchun kurashish fikridan qaytganlargina ozod qilindi. Ruslar bosqiniga qarshi alohida jasorat ko‘rsatganlar, ruslarga qarshi kurashgan zobitlar yoppasiga qirg‘in qilindi[5,229].

1886-yildagi «Nizom»ga ko‘ramavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o‘zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O‘lkada viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat prokurori va uning yordamchisi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etiladi.

Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan «jinoyat»lar ko‘rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini ag‘darish maqsadida harakat qilgan siyosiy «jinoyat»chilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi.

Xulasa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston o‘lkasida Rossiya hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to'ldirilib, o‘zgartirilib turildi. Buning siri juda oddiy edi. Chor Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaravi tizimiga

kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi. Imperiya asoschisi Pyotr I ning armonini qondirgan holda o‘zbek xonliklaridagi ming yillik davlatchilik zaminlarini qo'porishni ko‘zlagan edi. Asosiy maqsad butun jahonga tanilgan Amir Temur saltanati vorislarini tobe qullarga aylantirish, xalqlarini esa sekin-asta ruslashtirish jarayoniga tortib, ko‘hna Turon zaminni imperiyaning chekka guberniyalaridan biriga aylantirish edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ташкентская городская дума была к началу века прошлого (XX) века единственная на всю империю городская дума, которая была сформировалась и действовала на основании либерального «городового положения» 1870, в то время как другие местные органы самоуправления опирались на «городовое положение» 1890.с – 108.
2. Shamsutdinov R.va boshq.Vatan tarixi II (XVI–XX asr boshlari); K.2.: /- T.: «Sharq», 2010, 368 b.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 2000.
4. Вдзенконский П. «Сборник узакононей и распоржений пра-вительства устройстве крестьян и инородцев степного края», СПб 1887.
5. Dr. Boymirza Hayit Turkiston Rossiya va Xitoy oralig`ida. T 2023.

**Я.Х.Ғаффоров**
ЧДПУ “Тарих” кафедраси профессори т.ф.н.

## МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИК ВА БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЎЗБЕКИСТОН-МДҲ ҲАМКОРЛИГИ

***Аннотация:****Мақолада МДҲ доирасида давлатларнинг минтақавий хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш масалалари ҳамда коллектив хавфсизлик тизимини яратиш истиқболлари кўрсатиб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *Истиқбол, инқироз, радификация, интеграция, антитеррор, концепция, агрессия, зиддиятлар, сиёсий блоклар, геосиёсат.*

Мустақил Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсати тенг ҳуқуқлилик ва ўзаро манфатдорлик, бошқа мамлакатларнинг ички

ишларига аралашмаслик қоидалари асосида амалга оширилади. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги ташкилотини ташкил қилувчи мамлакатлар билан бевосита ва кўп томонлама муносабатларни ривожлантириш ташқи сиёсатимизнинг устувор йўналишларидан биридир. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги ташкилоти (МДҲ)- 1991 йил 8 декабрда Россия Федерацияси, Украина ва Белорусия Республикалари Белорусиянинг Вискўл ҳукумат саройида Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги ташкилотини ташкил этиш тўғрисида ўзаро битим имзоладилар. Кейинчалик, 1991 йил 21 декабрда Собиқ Иттифоқ таркибига кирган, қолган 8 та давлат (Болтиқ бўйи давлатлари ва Грузиядан ташқари) Ўзбекистон, Қозоғистон, Тожикистон, Туркманистон, Қирғизистон, Арманистон, Озарбайжон, Молдова Республикалари ҳам ушбу Битимга қўшилиш ҳақида келишув имзоладилар. Орадан 2 йил ўтгач Битимга Грузия Республикаси ҳам қўшилди. Ўзбекистон Ҳамдўстлик таркибига кирарқан унинг ғоясини қўллаб-қувватлайди, унинг ташкилотчилари таркибига кириб барча қатнашчиларнинг тенг ҳуқуқлилиги асосида уни мустаҳкамлаш ва ривожлантириш кераклигини қаттиқ туриб ёқлайди.

Айни пайтда Ўзбекистоннинг МДҲ даги бошқа давлатлар билан, аввало Россия билан муносабатлари у ўзаро манфаатли сиёсат юргизаётганилигини яққол намойиш этмоқда, Республиканинг МДҲ мамлакатлари билан самарали ҳамкорликка, халқларимиз ўртасида вужудга келган кўп томонлама иқтисодий, илмий-маданий, алоқаларни янгича асосда мустаҳкамлаш ва ривожлантиришга тайёрлигини тасдиқламоқда.

Минтақавий барқарорлик, минтақа кўламидаги интеграция жараёнларини ривожлантириш масалаларини ҳал қилишда МДҲ мамлакатлари ўртасида вужудга келаётган муносабатлар алоҳида ўрин тўтади. Ўтган йиллар мобайнида МДҲ мамлакатлари икки томонлама ва кўп томонлама шартнома муносабатлари доирасида тенг ҳуқуқли шерикчилик асосида ўзаро фойдали ҳамкорлик қилишлари учун кенг имкониятлар мавжудлигини тасдиқлади. Бундай ҳамкорликки Ҳамдўстлик мамлакатларининг худудий яқинлиги ва иқтисодий жаҳатидан боғланганлигигагина эмас балки чуқур тариҳий илдизлар, маданий ва маънавий алоқалар, катта тариҳий давр мобайнида халқларимизнинг тақдири муштараклиги

ҳам асос бўлмоқда. Мамлакатларимиз халқларининг яқинлашуви табиий кечаётган жараён. Бу халқ интеграцияси бўлиб, сунъий равишда жорий этиладиган сиёсий интеграциядан фарқли ўлароқ, ҳақиқий интеграциядир.[2]

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек “Биз Ўзбекистоннинг МДҲ доирасидаги ҳуқуқий базаси ва ҳамкорлиги олатини тубдан қайта кўриб чиқиш ва шу асосда уни кенгайтириш учун имкониятлар истиқболини белгилаб олишни режалаштирганмиз.. Биз бир қатор устувор йўналишлар бўйича аввало, савдо, инвестиция транспорт, туризм, таълим ва илм-фан, шунингдек хавфсизлик соҳаларидаги фаоллаштиришдан манфаатдормиз. МДҲнинг биз аввало иштирок этмаган тармоқ органлари фаолиятида иштирок этишга тайёрмиз”[3]

Ўзбекистон МДҲнинг тенг ҳуқуқлари аъзоси сифатида МДҲ ва Марказий Осиё доирасидаги жараёнларда фаол иштирок этиб келмоқда. Ушбу мамлакатлар билан ўзаро манфаатли ҳамкорликни кенг йўлга қўя олади. Қолаверса Ўзбекистон стратегик ва геополитиқ жиҳатдан қулай жойлашган давлат сифатида қўшни давлатлар, яқин қўшни давлатлар ва Ҳамдўстлик давлатлари орасида алоҳида аҳамиятга эга давлат сифатида баҳоланади.

1993 йилнинг 4 январ куни Тошкентда И.Каримовнинг ташаббуси билан илк бор Ўрта Осиё давлатлари президентларининг умумий йиғилиши бўлиб ўтган ва ушбу учрашув давомида биринчи марта “Марказий Осиё давлатлари” деб ном олган матбуот конференцияси ташкил этилди. Бу учрашув Марказий Осиё интеграциясига асос бўла олади деб бемалол айтишимиз мумкин.

2001 йил 28 деқабрда Тошкент шаҳрида ўтказилган Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Ўзбекистон Республикаси давлат раҳбарларининг Тошкент Баёнотида “Минтақавий иқтисодий интеграциянинг шакл ва механизмларини такомиллаштириш, ягона хавфсиз худудни шакллантириш маслалари бўйича ўзаро тушунишни чуқурлаштириш, минтақада тинчлик ва барқарорликни сақлаш бўйича биргаликдаги хатти-ҳаракатларни ишлаб чиқиш масаласида сиёсий, савдо-иқтисодий, илмий-техникавий, маданий-

[2] Я.Ғаффоров. Халқаро ташкилотлар хамкорлиги. Т. Ишончли Ҳамкор, 20212 йил, 158-159 бетлар.
[3] Ш.Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. “Ўзбекистон”, 2018 йил, 2-жилд, 328-бет.

гуманитар соҳадаги муносабатларда кўп режали ҳамкорликни жадаллаштириш тарафдори эканликларини билдирдилар ҳамда Марказий Осиё Иқтисодий Ҳамжамияти (МОИҲ)ни “Марказий Осиё ҳамкорлиги” Ташкилоти (МОҲ) деб қайта тузишга келишиб олдилар”[1] Шунингдек Тошкент Саммити музокараларида томонларнинг Афғонистон воқеаларига муносабати бир ҳил эканлиги таъкидланди.

Ўзбекистоннинг минтақа осойишталигини таъминлашдаги ҳаракатларида МДҲ мамлакатлари билан бўлган ўзаро алоқалар ҳам муҳим ўрин тутади. Бу борада Ўзбекистоннинг биринчи президенти И.А.Каримов “Не-не босқичларни, қирғинларни кўрган бу тупроқни боболаримиз ёнма-ён туриб ҳимоя қилганлар. Бинобарин, бизнинг тариҳимиз ҳам, тақдиримиз ҳам бирлашиб кетган Аллоҳ Таоло берган азалий ва абадий насибамиздир”[2]. деган эди.

МДҲ ташкил этилгандан буён ўтган давр мобайнида унга аъзо давлатлар бошлиқларининг 30 дан ортиқ кенгаши бўлиб ўтди. МДХ доирасида 1400 дан ортиқ қарор ва ҳужжатлар қабул қилинди. Алмати учрашувида Россиянинг Собиқ СССР ўрнига БМТ ва халқаро ташкилотларда аъзоликни давом эттириши, Ядро қуроли бўйича, Қуролли кучларга қўмондонлик қилишни Е.И.Шапошниқовга топшириш бир қанча масалалар юзасидан қарорлар қабул қилинди. Мазкур учрашув МДҲ ташкилотининг ташкилий структуравий жаҳатидан шаклланиши белгилади. Кўп ўтмасдан Белоруссия пойтахти Минскда (1991 йил 30 деқабрь) МДҲ га аъзо давлатларнинг учрашуви бўлиб ўтди. Бунда МДҲ мамлакатлари давлат бошлиқларининг кенгаши тўғрисидаги, МДҲ мамлакатлари ҳукумат бошлиқларининг кенгаши тўғрисидаги, Қуролли кучлари ва чегара қўшинлари тўғрисидаги, Космик фазони тадқиқ этиш, ундан биргаликда фойдаланиш хақида, Собиқ СССРнинг чет эллардаги мол-мулки тўғрисида битимлар имзоланди. Бундан кейинги фаолиятда ташкилотнинг вориси сифатида Россия Собиқ СССРнинг чет мамлакатлардаги ташқи қарзларини тўлашни, МДҲ га аъзо мамлакатларини хавфсизлигини ва барқарорлигини таъминлашда уларни чегаралар даҳлсизлигини таъминлашда маълум миқдорда

[1] Я.Х.Ғаффоров, А.Холлиев. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Т., 2003 йил, 131-бет.
[2] И.А.Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996 йил, 1-жилд, 51-бет.

қуролли кучларни ташкил этишда, барча масалалар юзасидан қарорлар қабул қилишда ташкилотга аъзо мамлакатлар давлат ва ҳукумат бошлиқлари кенгаши иштирокини таъминлашни ўз зиммасига олди. МДҲ доирасида минтақавий хавфсизликни таъминлашга доир талайгина ишлар амалга оширилди. Масалан 1992 йил 15 март Киевда МДҲ давлатларининг чегараларини ва ҳамдўстлигининг денгиз иқтисодий зоналарини қўриқлаш тўғрисидаги битим имзоланди. Айниқса 1992 йил 15 май Тошкентда бўлиб ўтган конференцияда Коллектив хавфсизлик, тинчликни сақлаш, коллектив кучларнинг мақоми тўғрисидаги битимни имзоланиши катта аҳамиятга эга бўлди. Мазкур битим асосида Чегара қўшинларини пул билан таъминлаш, Қуролли кучларини қисқартириш ва улар сифатини ошириш масалаларига ойдинлик киритди. 1993 йил январда Минскда Афғонистон-Тожикистон чегараларини мустаҳкамлаш учун МДҲнинг тинчлик ўрнатувчи ҳарбий қисмини юбориш тўғрисида битим имзоланди. Имзоланган бу битим МДҲ нинг жанубий сархадларидаги вазиятни барқарорлиштириш, тинчликни таъминлаш, Тожикистонда давом этаётган кескин можароларнинг олдини олишда катта аҳамиятга эга бўлди. Бундан ташқари МДҲ нинг кенгашлари (1996 йил 28 апрель, 1996 йил 17 май Москва, 1997 йил 23 октябрь Кишинёв)бўлиб ўтди. Бу кенгашларда интеграция жараёнларини тезлаштириш концепцияси, уюшган жиноятчиликка қарши биргаликда кураш дастури, МДҲ доирасида қабул қилинган ҳужжатларнинг бажарилиш аҳволи ва самарадорлигини ошириш МДҲ нинг истиқболлари, МДҲ фаолиятини барча аъзо давлатлар манфаати нуқтаи-назардан яхшилаш ва такомиллаштириш масалалари мухокама қилинди.[1]

Мазкур қонунлар минтақадаги ҳар томонлама сиёсий ахволни яхшилашга олиб келди. Бу сиёсий жараёнларни кузатиб турган ҳамда ташкилотнинг мамлакатдаги инқирозий вазиятни ҳал эта олишига ишонган Грузия 1993 йилда МДҲга аъзо бўлиб кирди. Грузияни МДҲ га аъзо бўлиб кириши халқаро сиёсий майдонда ташкилотга бўлган ишончни ортишига олиб келди. 1993 йил МДҲ Устави қабул қилинди. Агар бир МДҲ нинг Уставидан келиб чиқиб мақсад ва вазифалари ҳақида гапирадиган бўлсақ давлатларнинг инсон ҳуқуқларини ва эркинликларини таъминлаш, ташқи сиёсий

[1] Янги Ўзбекистоннинг етти зафарли юриши. “Шарқ” Т. 1998 йил, 195-бет.

алоқаларини мувофиқлаштириш, умумий иқтисодий маконни вужудга келтириш, транспорт ва алоқа тизимларини такомиллаштириш аҳоли соғлиғи ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш, ижтимоий масалалар ва миграция сиёсатини эркинлаштириш, уюшган жиноятчиликка қарши кураш, мудофа сиёсати, ҳамкорлик қилиш ва ташқи чегараларни қўриқлашда биргаликда фаолият юритишни назарда тутади. МДҲ аъзоларининг баргаликдаги фаолият соҳасидаги биргаликда амалга ошириладиган қуйидаги тадбирлар киритилди.

-ташқи сиёсий фаолиятни мувофиқлаштириш мудофа сиёсати ва ташқи чегарани муҳофаза қилиш;

-умумиқтисодий муҳитни шакллантириш ва ривожлантириш, Умумевропа ва Евроосиё бозорини шакллантириш;

-иқтисодий ислоҳот ўтказиш;

-божхона сиёсатини бирга олиб бориш;

-транспорт ва алоқа шунингдек энергетика тизимларини ривожлантириш;

-уюшган жиноятчиликка қарши кураш;

Дастлабки даврларда МДҲ га аъзоларнинг (Грузия ва Молдавия) ортишини ва ташкилот фаолиятини кўплаб соҳалар (айниқса минтақадаги хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш) да фаоллашганлигини кўришимиз мумкин.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ)- бир бутун давлат, федерация ёки мамлакат эмас, ҳарбий блок ҳам эмас, давлатлар ҳамдўстлигининг янгича шакли, Унга кирувчи ҳар бир давлат халқаро ҳуқуқнинг мустақил ва тенг ҳуқуқли субъетидир.[1]

МДҲ нинг асосий мақсадларини амалга ошириш учун Ҳамдўстлик давлатлари ўзаро муносабатларда қўйидаги қоидаларга риоя қилади;

-давлат суверенитетини ўзаро тан олиш ва ҳурмат қилиш;

-тенг ҳуқуқлилик ва бир-бирларини ички ишларига аралашмаслик;

-иқтисодий куч ва бошқа тайзиқ услубларини қўллашдан воз кечиш;

[1] А.Жалолов, Қ.Хоназаров тахрири остида “Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат” “Шарқ”-Т.:-2000 йил, 152бет.

-баҳсли муаммоларни келиштирувчи воситалар ва халқаро ҳуқуқ нормалари ва тамойиллари асосида ҳал этиш;

Юқоридаги қоидалардан кўриниб турибдиқи МДҲ фаолияти тўлик халқаро жамият қабул қилган бир бирига ўзаро ҳурмат тамойили асосида амалга оширилишни кўзда тутади.

Шундай қилиб, МДҲ колектив хавфсизлик тизими қурилиши КХ тўғрисидаги шартнома орқали эмас норматив хужжатлар асосида амалга оширилади. Бунда тинчлик масалалари бўйича ҳужжатлар имзолаган давлатлар, КХШ иштирокчилари ҳамкорлигидаги тинчлик операцияларида МДҲ давлатлари томонидан қўллаб-қувватланади хавфсизлик ва мудофа соҳасидаги ўзаро муносабатлар ҳамкорликни бошқа йўналишлари билан солиштирганда мураккаб йўлни босиб ўтди. Аввалданоқ, КХ тўғрисидаги шартнома ҳамкорликдаги давлатларнинг кўпчилигини эгаллади.

Халқаро ҳуқуқ нуқтаи назаридан, чет эл тадқиқотчилари 3 та қатегорияга бўлинади. Россия федерацияси фуқаролари ўз ватанини барча давлатларнинг фуқаролари улар бошқа барча ҳуқуқлар фойдаланишлари керак. Ниҳоят, болтиқ бўйи давлатлари фуқаролиги бўлмаган гуруҳ кўп.

1990 йиллар оҳирида ташкилот фаолиятини қайта ташкил этишга бир неча ўринишлар бўлди. Кишинёвдаги давлат бошқариш тизимини қайта кўриб чиқиш бўйича қарор қабул қилинди. Ҳамкорликда ривожлантириш истиқболлари ва стратегиясини белгилаш, МДҲ давлатлари ҳар бирини ролини ошириши масалалари долзарб қилиб қўйилди. 1998 йил қарор қабул қилиш учун МДҲ фаолиятини муқаммаллаштириш масалалари бўйича давлатлараро форум чақирилди.

Форум иштирокчилари таъкидладиқи ҳамкорликда интеграцион жараёнларни ривожлантириш, ҳамкорликда савдо-иқтисодий сиёсат йўналишларини ишлаб чиқиш ва эркин савдо зонасини шакллантириш муҳим элементи ҳисобланади.1994 йил 15 апрелида эркин савдо зонаси тузиш тўғрисидаги келишувга ўзгартириш ва қўшимчалар қиритиш тўғрисида баённома тайёрланди.

1999 йил 2 апрелида давлат бошлиқлари кенгаши МДҲ органлари тизимини қайта шакллантириш ва такомиллаштириш тўғрисидаги форумда қабул қилинган қарор тасдиқланди. Бу

ҳужжатларга кўра, МДҲнинг ижроия қўмитаси ҳамкорликни доимий ишловчи ягона маъмурий органига айланди.Шу билан бирга давлат бюджетидан молиялаштириладиган 10 га яқин тармоқни ишчи органлари тугатилди. Уларнинг вазифалари ижроия қўмитасига ўтказилди. Умумий ишчилари сони 1190 кишидан 710 кишигача, 40% га қисқарди (улардан 356 таси ижроия ҳокимият ходимлари, 354 таси МДҲнинг бошқа органлари ходимлари). Кейинчалик МДҲ давлатлари Антитеррористик маркази ташкил этилиши билан ижроия қўмитаси 46 ходимга қисқарди.[1]

МДҲ собиқ СССР худудида фуқаролик уруши келиб чиқишини олдини олди, мамлакатларни босқичма-босчиқ халқаро муносабатлар тизимига кириб, мустақилликлари, ва суверенитетини мустаҳкамлашга кўмак берди. Бироқ МДҲга аъзо мамлакатларнинг ўзаро имкониятлари ҳар қандай соҳада кенг бўлишига қарамай айрим қамчиликларга йўл қўйилди. Бунга албатта, биз ижобий маънода қарайдиган бўлсақ ҳар бир МДҲ га аъзо мамлакатлар ўтиш даврида ўз ички муаммоларига кўпроқ аҳамият қаратиши, шу муаммолар доирасида ўралашиб қолиши натижасида МДҲ ташкилотининг фаолиятига нисбатан эътибор пасайиши табиий ҳодиса эди. Агар биз МДҲ нинг 2000 йилдан кейинги фаолиятига назар солсақ ушбу ташкилотга жаҳон ҳамжамиятининг қизиқишини ортишини, жаҳонда содир бўлаётган глобал миқёсидаги муаммоларни ҳал этишда МДҲнинг аҳамиятини ортиши ундаги аъзо мамлакатларнинг сиёсий-иқтисодий марказларга айланаётганлиги, халқаро дипломатик муносабларда МДҲ мамлакатларининг асосий субъекти сифатида эътироф этилаётганлигини, унинг таркибида турли ҳил минтақавий муаммоларни ҳал этишга асосланган ишчи органларининг тузилаётганлигини гувоҳи бўлаяпмиз. Демак келажакда МДҲ ташкилотининг истиқболи минтақадаги мамлакатлар учун прогрессив аҳамият қасб этади.

**Адабиётлар**

**1.**Я.Ғаффоров. Халқаро ташкилотлар хамкорлиги. Т. Ишончли ҳамкор, 20212 йил, 158-159 бетлар.

**2.**Ш.Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. “Ўзбекистон”, 2018 йил, 2-жилд, 328-бет.

[1] Забуров А. Органы СНГ И Интеграция Содружества и Национальные интересы-Москва.:, 2005

**3.**Я.Х.Ғаффоров, А.Холлиев. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Т., 2003 йил, 131-бет.

**4.**И.А.Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996 йил, 1-жилд, 51-бет.

**5.**Янги Ўзбекистоннинг етти зафарли юриши. “Шарқ” Т. 1998 йил, 195-бет.

**6.**А.Жалолов, Қ.Хоназаров тахрири остида “Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат” “Шарқ”-Т.:-2000 йил, 152бет.

**7.**Забуров А. Органы СНГ И Интеграция Содружества и Национальные интересы-Москва.:, 2005

**D.B.Axmadjanov**
ChDPU Tarix kafedrasi dotsenti

## O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikning tarixiy ildizlari, mustaqillikdan so‘ng amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda olib borilayotgan tashqi siyosiy faoliyat, milliy madaniyat markazlarining ahamiyati, hamda diniy ekstremizmga qarshi kurashda davlat institutlarining roli yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:****Totuvlik, bag‘rikenglik, konfessiya, milliy madaniyat markazi, diniy erkinlik, siyosiy islohot, xalqaro huquq, O‘zbekiston, tolerantlik, ijtimoiy barqarorlik*

O‘zbekiston geosiyosiy jihatdan Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan bo‘lib, qadimdan turli xalqlar, dinlar va madaniyatlarning tutashgan nuqtasi hisoblanadi. Bu hududda tarixan yahudiylik, buddizm, zardushtiylik, nasroniylik va islom dinlari bir zamonda tinch-totuv yashab, o‘zaro boyishgan. Mustaqillik yillarida esa diniy va millatlararo totuvlik O‘zbekiston siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Hozirgi kunda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilayotgan yurtimizda millatlararo hamjihatlik va diniy bag‘rikenglik davlat siyosatining negizini tashkil qiladi.

Qadimdan zardushtiylik, buddizm, yahudiylik, nasroniylik va keyinchalik islom dinlari bu hududda keng tarqalgan. Ijtimoiy barqarorlik

va diniy mojarolarning yo‘qligi, ushbu dinlar o‘zaro yonma-yon, tinch-totuv yashaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, islom dinining kelishi bilan diniy bag‘rikenglik tamoyillari yanada chuqurlashdi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi allomalar islom falsafasi va bag‘rikenglik g‘oyasini ilmiy asosda rivojlantirdi. Bu davrda turli konfessiyalarning hamkorligi madaniyat va ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-22-moddalarida har bir fuqaroning millati, tili, dini va irqidan qat’i nazar teng huquqliligi kafolatlangan. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun (1998) bu normalarning amaliy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

2017–2021-yillarga mo‘ljallangan “Beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da millatlararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik va tolerantlik asosiy yo‘nalish sifatida belgilandi. Ushbu strategiya asosida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 dan ortiq qarorlar qabul qilindi.

Bugungi kunda 138 ta milliy madaniyat markazi faoliyat yuritmoqda. Ular o‘z milliy an’analarini saqlab qolish, madaniy va til merosini rivojlantirish, ijtimoiy integratsiyaga hissa qo‘shmoqda.

Mazkur Kengash diniy tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, mojarolarni bartaraf etish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita ro‘yxatdan o‘tgan 2100 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

2018-yil 12-dekabrda BMTda O‘zbekistonning tashabbusi bilan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi. 2020-yil O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashiga saylandi. AQSh Davlat departamenti esa O‘zbekistonni “tashvishli davlatlar” ro‘yxatidan chiqardi.

Prezident Sh. Mirziyoyev va avvalgi rahbar I.A. Karimov xalqaro minbarlarda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, ekstremizm va fundamentalizmga qarshi xalqaro kurash masalalarida faol pozitsiyada bo‘lib kelmoqda.

Ba’zi konfessiyalarning noqonuniy faoliyati, missionerlik harakatlari xavf solmoqda.

Diniy ekstremizmga qarshi targ‘ibot kuchaytirilishi lozim.

Yoshlar orasida bag‘rikenglik madaniyatini oshirish uchun ta’lim tizimi va OAV faol ishtirok etishi kerak.

Jamoat kengashlarining roli kengaytirilishi lozim.

O‘zbekistonda millatlararo va diniy totuvlik modeli huquqiy kafolatlar, siyosiy irodaga asoslangan barqaror strategik tizimga ega. Bu tizim xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan. Kelgusida bu tajribani yanada takomillashtirish va ilmiy asoslash orqali barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: Adolat, 2012.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent, 1998.
3. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, BMT, 1948.
4. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. UNESCO, 1995.
5. Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
6. Yovqochev Sh.A. Siyosat va din. Toshkent, 2013.
7. www.president.uz – Prezident nutqlari.
8. www.iiv.uz – Din va xavfsizlik sohasidagi tahlilla

**O. M. Normatov,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tarix kafedrasi mudiri,
т.ф.ф.д.(PhD,) доцент,

## TOSHKENT VILOYATI TARIXI RAYONLASHTIRISH DAVRIDA

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Toshkent tarixining kam o‘rganilgan, ya’ni O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan rayonlashtirish siyosati davridagi Toshkent viloyati tarixi, Toshkent okrugining tashkil topishi, uning ma’muriy – iqtisodiy, ijtimoiy –siyosiy va madaniy holati haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Toshkent okrugi, rayonlashtirish, ma’muriy-iqtisodiy isloxotlar, qishloq xo‘jaligi, aholining etnik tarkibi, savdo-sotiq munosabatlari.*

O‘zbekistonda davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab, to bugunga qadar turli sohalarda demokratik islohatlar, tadbirlarlar izchillik bilan o‘tkazilib, amalga oshirilib kelinmoqda. Davlat mustaqilligimizning o‘n sakkiz yillik bayrami bilan qo‘shib nishonlangan Toshkent shahrining 2200 yilligi tantanalari bunga misol bo‘la oladi. Toshkent bugun mustaqil O‘zbekistonning xalqaro maydondagi yuksak nufuzi va obro‘-e’tibori

ramzi, o‘nlab xorijiy davlatlar elchixonalari, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari joylashgan, sammitlar, yirik xalqaro anjumanlar o‘tkazilayotgan, tinchlik va do‘stlik bitimlari imzolanayotgan tarixi boy, buguni go‘zal, kelajagi buyuk shahar hisoblanadi. “Toshkent bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqamizning yuksak taraqqiy etgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy va ma’naviy-ma’rifiy markazidir. Toshkent - qudratli sanoat va transport-kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy ijtimoiy infra tuzilmalarni o‘zida mujassam etgan yirik megapolisdir”[1.].

Mazkur maqolada Toshkent viloyati tarixining kam o‘rganilgan, ya’ni O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan rayonlashtirish siyosati davridagi Toshkent okrugining ma’muriy – iqtisodiy, ijtimoiy –siyosiy va madaniy holati haqida so‘z yuritiladi.

O‘rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilib, O‘zbekiston SSR tashkil topgandan, so‘ng O‘zbekiston SSR tarkibida qolgan Toshkent okrugi ma’muriy markaz maqomini saqlab qoldi.1926 yilda Markazning rayonlashtirish komissiyasi tomonidan Toshkent okrugining hududi, Toshkent va Mirzacho‘l uezdlarining, Xo‘jand uezdining esa faqat Nov rayoni o‘rnida tuzish rejalashtirildi va amalga oshirildi. Okrugning umumiy maydoni 12779 kvadrat vyorstani* tashkil etgan. O‘zbekiston SSRning rayonlashtirish komissiyasi ma’lumotlariga qaraganda, Toshkent okrugi shimoli-g‘arbda Qozog‘iston bilan, sharqdan Xo‘jand okrugi bilan, janubdan Tojikiston ASSRning O‘ratepa viloyati bilan va g‘arbdan esa Samarqand okrugi bilan chegaralangan. Toshkent viloyat rayonlashtirish komissiyasi tomonidan Toshkent okrugida quyidagi 11 ta rayon ro‘yxatga olingan: Toshkent, Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Parkent, Angren, Pskent, Mirzacho‘l, Bekobod, Hovost rayonlari[2. – S 1.].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxividagi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, okrug aholisi 561064 kishini tashkil etib, uning 282571 nafari shaharlarda, 278493 nafari esa qishloqlarda istiqomat qilishgan[3.]. Okrugdagi 5 ta rayonda Toshkent, Mirzacho‘l, Hovost rayonining Ursatevskiy stansiyasi yashash punktida Yangiyo‘lning Qovunchi shaharchasi, Pskentda shahar aholisi istiqomat qilishgan. 1926 yilda okrug bo‘yicha aholi zichligi 1 kvadrat vyorstaga 43,9 kishiga to‘g‘ri kelgan. Aholining milliy tarkibiga ko‘ra qishloq va shaharlarda yashashida nazar tashlaydigan bo‘lsak quyidagi ko‘rinishda bo‘lgan. Qishloq aholisini

49,7 %ni o‘zbeklar, 26,3 % ni qozoqlar, 11,9 % ni quramalar va boshqa millat vakillari tashkil etgan bo‘lsa, shahar aholisini esa 64,1 %ni o‘zbeklar, 24,5 %ni ruslar va qolgan turli millat vakillari tashkil etgan[2. – S 81.]. Demak ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki o‘zbeklar okrugda katta mavqega ega hisoblanishgan.

Toshkent okrugida savdo-sotiq munosabatlari ham o‘ziga xos ravishda olib borilgan. Okrug bo‘yicha 32ta bozorlar faoliyat yuritgan bo‘lib, har biri rayon aholisi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Masalan, “Toshkentda, Qibray, Ko‘kterak, Toshkent, Troskiy; Yangiyo‘lda, Zangiota, Eski Toshkent, Qovunchi, Chinoz; Parkentda, Namdanak, Parkent; Angrenda, Obliq, Telov, Xonobod, Yangi bozor; Bekobodda, Jumabozor, Qiyot, Stretenskiy”[4.] kabi bozorlarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Bu kabi bozorlar boshqa rayonlarni ham har birida alohida tashkil etilgan bo‘lib, Toshkent okrugidagi rayonlarni o‘zaro bog‘lab turgan. Turli xil iste’mol mollari, xom ashyo materiallari temir yo‘llar orqali, transport yo‘llari orqali yetkazilib rayonlarning iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Savdo aloqalari okrug doirasidagi rayonlar bilan chegaralanmasdan boshqa okruglar bilan ham olib borilgan. Jumladan, Qo‘qonga guruch, un, paxta, spirt mahsulotlari, tamaki, teri, tola; Andijonga guruch, non, paxta, mevalar, spirt mahsulotlari; Samarqandga teri; Chimkentga spirt mahsulotlari, teri, ho‘l mevalar; Turkman okrugiga guruch, poliz ekinlari keltirilgan bo‘lsa, Toshkent okrugiga Sirdaryodan baliq, teri; Qo‘qondan toshko‘mir, neft, tozalangan yog‘; Turkman okrugidan kerosin, neft; Andijondan tozalangan yog‘, toshko‘mir, neft, tola; Samarqandan choy, spirt mahsulotlari; Chimkentdan paxta, non tola va boshqa hududlarga ham turli xil mahsulotlar yuborilgan[5. –S 131]. Okruglar mahsulotlarni turli yo‘llar bilan yuborishgan. Masalan, Toshkent okrugidan Farg‘ona vodiysiga guruch faqat temir yo‘llar orqali emas, balki Angren vohasidagi dovon orqali ham yuborilgan. Okrugda savdo-sotiq munosabatlarining markazi Toshkent shahri bo‘lib, qo‘shni okruglar va hattoki Markaziy Osiyodagi markaziy savdo aloqalarni bog‘lovchi asosiy shahar hisoblangan.

Okrugning qishloq xo‘jalik sohasi ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, muhim tarmoq hisoblangan. Aholi foydalanadigan umumiy ekin maydoni okrug bo‘yicha 180766 desyatinani** tashkil etib, uning 157698 desyatinasi sug‘oriladigan, 23068 desyatinasi lalmikor yerlar hisoblangan [2. – S 81.]. Okrug aholisi qishloq xo‘jaligi sohasida asosan sholikorlik,

dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ulanishgan. Masalan okrugdagi 5 ta rayonda: Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Pskent, Angrenda sholikorlik bilan, Bekobod, Toshkent va Yangiyo‘lda esa asosan paxtachilik bilan shug‘ulanishgan. Bundan tashqari okrugda bog‘dorchilik va uzumchilik ham o‘zga xos ko‘rinishda bo‘lgan. Jumladan umumiy ekin maydoninig 3771 desyatinasi bog‘lar, 4640 desyatinasi esa uzumzorlardan iborat bo‘lgan.

Toshkent okrugining ma’muriy tuzilishiga nazar tashlasak, rayonlashtirish komissiyasi tomonidan 27 ta volost o‘rniga 11 ta rayon, 197 ta qishloq sovetlari o‘rniga esa 204 ta qishloq sovetlari tuzildi. Har bir rayonning katta-kichikligiga qarab qishloq sovetlarining soni turlicha tashkil etilgan. Masalan, Toshkent rayonining markazi – Toshkent bo‘lib, 36 ta qishloq soveti bo‘lgan, Yangiyo‘lning markazi Qovunchi, qishloq sovetini soni 18 ta, Parkentning markazi-Parkent bo‘lib, qishloq sovetining soni 7 ta va boshqa rayonlarga ham shunga o‘xshash ko‘rinishda tashkil etilgan edi[2. -S 4 -10.].

Xullas Toshkent tarixining O‘rta Osiyoda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan rayonlashtirish arafasidagi umumiy holatiga etibor bergan bo‘lsak, Toshkent nafaqat O‘zbekiston balki O‘rta Osiyo miqyosida juda katta mavqega ega shahar hisoblangan. Insoniyat tamadduni, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan shaharlar orasida Toshkent alohida mavqei va nufuzi bilan ajralib turadi. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan, o‘zining muhim jug‘rofiy va geosiyosiy o‘rniga ega Toshkent haqli ravishda “Sharq darvozasi” nomini olgan, tinchlik va do‘stlik ramziga aylangan. Zero, Toshkentning tarixi va bugungi hayoti yurtimiz tarixi va kelajagi bilan chambarchas bog‘liq”.

**Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:**

1. Каримов И.А. Тарихи бой, бугуни гўзал, келажаги буюк шаҳар. Халқ сўзи. 2009 йил 2 сентябрь.

2. Материалы по районированию Ташкентского округа Уз ССР. Выпуск I. Список населённых пунктов. – Т.: Изд. ТОКР, 1926.

3. ЎзР МДА, Р86 –фонд, 1-рўйхат, 3402 - иш, 333-варақ.

4. ЎзР МДА, Р86 –фонд, 1-рўйхат, 3405 - иш, 299-варақ..

5. Материалы по районированию Туркестана. Выпуск II. Проект административно – хозяйственного деления ТССР.–Т.: Изд ТЭС, 1924.

*** Бир вёрста** - 1,0668 км га тенг рус узунлик ўлчов бирлиги.

**** Бир десятина** – 1,03 гектарга тенг узунлик ўлчов бирлиги.

**Qandov Bahodir Mirzayevich,**
Chirchiq davlat pedagogika universitetidotsenti

## TURKISTON ASSRDA NAZIR TO‘RAQULOV BOSHCHILIGIDA YER-SUV ISLOHOTINING AMALGA OSHIRILISHI

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyoda agrar siyosat islohotchilaridan biri Nazir To‘raqulovning Turkiston Muxtor Respublikasida Sovet hokimiyati o‘rnatilishining dastlabki yillarida qo‘shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek maqolada, yer-suv islohoti, qishloq ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar va O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatining agrar siyosatini amalga oshirishda N.To‘raqulovning roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, agrar siyosat, islohot, Turkiston, yer siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, Turkiston Muxtor Respublikasi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini topib olgan, mamlakatda esa demokratik tuzum asoslari qurilgan va fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan bir davr hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi va istiqlolga erishgandan so‘ng yurtimizda paydo bo‘lgan ulug‘vor o‘zgarishlar yangi demokratik, insonparvar jamiyat qurish muammolarining murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatdi.

XX asrning 20-yillarida jamiyat hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar mazkur davrdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi yangilanishlar, o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur davrda siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar bevosita ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Turkistonda sovet hokimiyati[1, 334-340] o‘rnatilgandan keyin bolsheviklarning agrar siyosati yer-suv munosabatlarida xususiy mulkchilikni tugatish, mayda dehqon xo‘jaliklari o‘rniga kollektiv xo‘jaliklar tashkil qilishga qaratilgan edi[2, 278-287]. 1917 yil 26 oktabrda e’lon qilingan “Yer to‘g‘risida”gi dekretda “Buyuk agrar o‘zgarishlarni amalga oshirishda, Ta’sis Majlisida uzil-kesil hal qilingunga qadar, quyidagi dehqonlar nakazi hamma joyda qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi kerak”[3, 35], deyilgan. Dehqonlar nakazida: “Yerga xususiy mulkchilik huquqi abadiy bekor qilinadi; yerning sotilishi ham, sotib olinishi ham, ijaraga yoki garovga qo‘yilishi ham va boshqa biron yo‘l bilan olinishi ham mumkin emas”[4, 114], deb ko‘rsatib o‘tilgan. Yer natsionalizatsiya qilingandan so‘ng ko‘p yerli xo‘jaliklarning ko‘payishi uchun iqtisodiy sharoitga barham berildi. Bu tadbir qishloq xo‘jaligini

sotsialistik asosda qayta qurish maqsadida, “quloq” deb nomlangan o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklari huquqlarini dastlab cheklash, keyin to‘la tugatish, yakka dehqon xo‘jaliklarini kooperativlashtirish uchun amalga oshirilgan edi.

O‘zbekistonda Oktabr to‘ntarishining dastlabki kunlaridan boshlab agrar o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. 1917 yil 8 noyabrda Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti organi “Nasha gazeta”da “Yer to‘g‘risida”gi dekret e’lon qilindi. Turkiston o‘lkasi va Yer ishlari xalq komissarligining 1917 yil 9 dekabrda chiqargan yer oldi-sottisini taqiqlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi va amalda tatbiq etildi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida agrar sektorni institutsional isloh qilish Markaziy Osiyo iqtisodiyoti va aholisining ijtimoiy hayotini rivojlantirish va barqaror rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Gap shundaki, islohotlarning dastlabki yillarida aholining mulkdor qatlamlari mavqeining kuchayishi fonida sovet hokimiyati oldida juda muhim vazifa – qishloq xujaligini mustahkamlash turibdi. Shuning uchun ham bevosita Nazir To‘raqulov rahbarlik qilgan (1921 – 1922) Turkiston Kompartiyasi tashabbusi bilan dehqonlar negizida “Qo‘shchi” (“Olzorlar”) uyushmasini tashkil etish jarayoni boshlandi. Uyushma qishloqni ijtimoiylashtirish, barcha mehnatkash dehqonchilikni siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun yagona tashkilotga birlashtirish uchun mo‘ljallangan edi. Nazir To‘raqulov bu lavozimlarda ishlash jarayonida sovet hokimiyati va bolsheviklar partiyasiga sadoqatini namoyish qilgan. Turkiston muxtoriyati hukumati va Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatiga to‘g‘ri baho bera olmagan va ularni yo‘qotish tarafdori bo‘lgan[5, 334-340]. Nazir To‘raqulov respublikaning turli viloyatlariga tez-tez safar qilib, yangi hukumat oldidan yuzaga kelgan muammolar mohiyatini tushunishga harakat qilardi; turli qurultoylarda so‘zga chiqqan, yig‘ilish va mitinglarda ishchilar, sovet armiyasi askarlari, dehqonlar bilan uchrashuvlar o‘tkazgan.

XX-asrning 20-yillarida Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan Nazir To‘raqulov ham ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy islohotlarning boshida turgan. Bu davrda Turkistonda keng ko‘lamli yer-suv islohoti amalga oshirildi. Bu islohotlarning mazmun-mohiyati yerlarni milliylashtirish, yirik xususiy yer egaliklari negizida jamoat va davlat yerdan foydalanuvchilarni tashkil etishdan iborat edi.

Hozirgi Turkistonda yerlarni milliylashtirish jarayoni boshlandi. 1917-1920 yillarda amalga oshirilgan agrar o‘zgarishlar Turkistondagi agrar islohotlarning birinchi bosqichi bo‘ldi. Bu islohotlarning ikkinchi bosqichi Rossiya imperiyasi hukumati yurgizib kelgan mustamlakachilik siyosatining yer munosabatlaridagi oqibatlarini tugatishga qaratilgan yer-suv islohotining (1920-1922 yillar) o‘tkazilishidan boshlandi. Birgina 1919 yilning mart oyida Varg‘ona vodiysida tugatilgan yirik yer egalari hisobidan ikkita sovxoz tashkil etildi, shu yilning aprel oyida esa birinchi kommuna tashkil etildi. Viloyatda jami 10 ta davlat xo‘jaligi tashkil etildi [6, 91].

Sovet hukumati yerdan foydalanish sohasidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar bilan bir vaqtda suv islohoti ham amalga oshirildi. Shu bilan birga Xodjent, Nau, Digmay va boshqalardagi xususiy irrigatsiya korxonalari milliylashtirildi. Suv nasoslari va boshqa sug‘orish inshootlari asosan milliylashtirildi. Yerlarda suv taqsimoti bilan endi kambag‘allar shug‘ullanardi. Suv ta’minoti bilan bog‘liq vaziyat ishchilar va askarlar deputatlari Kengashlari va Xalq xo‘jaligi Kengashlari tomonidan nazorat qilindi.

Nazir To‘raqulov 1920-yil 19-iyuldan 22-oktabrgacha Turkiston ASSR raisi lavozimida ishlagan. Bu davrda u yer-suv islohoti masalalari bilan yaqindan shug‘ullandi. U boshchiligidagi komissiya ko‘chmanchilar muammolari va ularni joylashtirishga alohida e’tibor qaratdi. Turkiston Kompartiyasi O‘lka komitetining 1920 yil 23 fevraldagi majlisida yer-suv masalasi har taraflama muhokama qilindi. Qabul qilingan qarorda O‘lka komiteti Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetiga Oktabr to‘ntarishidan ilgari ko‘chmanchilarning yerlari tortib olingan uezdlar bo‘yicha ko‘chirib keltirilgan kishilar uchun mehnat qilib foydalaniladigan yer normasini belgilab berish maqsadida alohida komissiyalar tuzishni taklif qildi. O‘lka komiteti ko‘chirib kelingan kishilarning normadan ortiqcha yerlarini tortib olib mahalliy aholiga berish yo‘li bilan yer va suvdan foydalanishda rus aholisi bilan yerlik tub aholining huquqlarini tenglashtirishni navbatdagi yer-suv islohotining asosiy vazifasi deb hisobladi[7]. Bu qoida yer-suv islohoti o‘tkazish bo‘yicha qabul qilingan barcha huquqiy hujjatlarga asos qilib olindi. Kommunistlarning bu qoidasi negizida rus “quloq” xo‘jaliklari iqtisodiy imkoniyatlarini cheklash va tub aholini sovet hukumatiga yaqinlashtirish, joylarda sovet hokimiyatini mustahkamlash maqsadlari yotar edi.

1920 yil sentabrda bo‘lib o‘tgan Turkiston Kompartiyasining V syezdi va Turkiston ASSR Sovetlarining IX syezdi yer-suv islohotini o‘tkazish to‘g‘risida aniq qarorlar qabul qildi. Shunday qilib, 1920-yil 14-dekabrda TurkMIQ tomonidan “Turkiston ASSRdagi ko‘chmanchilar, o‘troq aholi posyolkalari va kazak qishloqlarining yer tuzish to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi. Unda yerdan foydalanish va yer ajratish tartibi belgilandi. Shuning uchun yer islohoti yo‘nalishlarini belgilash maqsadida 1920-yil oxiri - 1921-yil boshida tayyorgarlik ishlari olib borildi. Shundan so‘ng joylarda islohotni amalga oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan viloyat, okrug va volost sovetlarining qurultoylari, shuningdek, bo‘lajak islohotlarga bag‘ishlangan ko‘plab konferensiyalar, mitinglar va mehnatkashlarning yig‘ilishlari o‘tkazildi. Bundan tashqari, uni amalga oshirish uchun hududlar aniqlandi, “mehnatsiz” fermer xo‘jaliklari hisobga olindi va yerlarni qayta taqsimlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi.

Turkkomissiya va umuman N.To‘raqulov boshchiligidagi boshqaruv apparati nihoyatda og‘ir harbiy-siyosiy sharoitda aholi bilan ishlashga majbur bo‘ldi. Turkistonda islohot o‘tkazish rejalashtirilgan aholi punktlari qatoriga Qo‘qon okrugi Konibodom tumanidagi Konibodom va Maxram volostlari kiritilgan. Buning sababi shundaki, bu yerda inqilobga qadar ko‘chirilgan hududlarda shakllangan yer munosabatlari sinfiy zulmning milliy-mustamlakachilik zulmi bilan chambarchas bog‘liqligining yaqqol namunasi bo‘lgan.

Yer-suv komitetlari boy xo‘jaliklar yerlarini musodara qildi, ularga kontribusiyalar (to‘lovlar) soldi, musodara qilingan yerlarni dehqonlarga taqsimlab berdi, asbob-anjomlar bilan ta’minladi, ssuda bilan yordam ko‘rsatdi. 1918 yil 18 mayda Samarqand uezdidagi Mahalla volosti yer-suv komiteti So‘chak qishlog‘ida savdogar P.Abramovning 21,5 desyatina ekin yerini, dehqonchilik asbob-uskunalari, imoratlari bilan birga, shuningdek, S.Abramovning 13 desyatina yerini musodara qildi[8]. Toshkent uezdidagi Bulatov volostining yer-suv komiteti 2,5 ming desyatinaga yaqin boylar yerlarini ro‘yxatga oldi. Mazkur ekin ekiladigan yerlar o‘sha kezlarda tashkil topgan 12 ta kollektiv xo‘jalikka taqsimlab berildi. Toshkent uezdidagi Oqjar yer-suv komiteti natsionalizatsiya qilingan “Qoplonbek” va “Kensoy” yer mulkini, “Gulbahor” mulkini, shuningdek, boshqa dehqon xo‘jaliklarini qo‘lga oldi[9]. Mazkur yerlarda dastlabki kommuna va qishloq xo‘jalik artellari tashkil qilindi, shuningdek, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer berildi. Farg‘ona viloyatidagi yer-suv komitetlari 1918 yil

apreldan 1919 yil aprelgacha Skobelev uezdida 22 nafar boy xo‘jaliklarning 12315 desyatina yerini, jonli va jonsiz qishloq xo‘jalik hayvonlari, asbob-anjomlari bilan birga natsionalizatsiya qilgan[10].

1920-1922 yillarda N. To‘raqulov Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining Turkiston komissiyasi, shuningdek, RKP(b) MK Turkiston byurosi a’zosi bo‘lgan. Bu davrda Turkiston komissiyasi, asosan, ko‘chirish xo‘jaliklari to‘plangan hudud bo‘lgan Semireche ko‘chirma xo‘jaliklari bilan shug‘ullanishi kerak edi. Biroq ularning salmoqli qismi Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida ham bo‘lgan. Islohotni ushbu uchta hududda amalga oshirishga qaror qilindi. 1920 yil oxiri - 1921 yil boshida yer-suv islohotiga tayyorgarlik ishlari olib borildi. Uni amalga oshirish yo‘nalishlari belgilandi, “mehnatsiz” fermer xo‘jaliklari hisobga olindi, yerlarni qayta taqsimlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Yer tuzish ishlari bilan bir vaqtda mahalliy darajada islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan viloyat, tuman va volost Sovetlarining qurultoylari, shuningdek, bo‘lajak islohotlarga bag‘ishlangan ko‘plab konferensiyalar, mitinglar va mehnatkashlarning yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Qo‘qon okrugining Konibodom va Maxram volostlarida qishloqlarning boy tabaqalari ham suvdan foydalanishning asosiy manbalariga ega bo‘lib, ular kambag‘allarni qul qilish vositalaridan biri bo‘lib ham xizmat qilgan. Bu yerda boylar suvni nihoyatda qimmatga chiqarib yuborgan, buning natijasida hosil kamaygan [11, 100]. N.To‘raqulov yuqori davlat lavozimlarida ishlagan holda viloyatda agrar islohotlar siyosatini belgilashda yaqindan ishtirok etdi. Birinchi bosqichda Turkistonda yer-suv islohotining asosiy maqsadi feodal-bay xo‘jaliklarini musodara qilishga qaratilgan edi. Bu, birinchi navbatda, qishloq proletariati mavqeini mustahkamlash, millatidan qat’i nazar, qishloqning barcha mehnatkashlarini barcha ekspluatatorlarga qarshi birgalikda kurashish uchun birlashtirishga qaratilgan edi.

Turkistonda agrar islohotlar jarayonida Komissiya o‘z faoliyatiga partiya va sovet xodimlarini jalb qildi va ular bilan birgalikda keyinchalik “Qo‘shchi” nomini olgan fermerlar uyushmalarini tuzdi. Konibodom viloyatida islohotlarga bevosita tayyorgarlik ko‘rish va amalga oshirish uchun Farg‘ona viloyat inqilobiy qo‘mitasi 1921-yil 5-fevralda u yerga keng vakolatlarga ega bo‘lgan yer tuzish komissiyasini yubordi. Shu bilan birga, turli toifadagi fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish xususiyati

va koʻlami belgilandi hamda ularga muvofiq toʻliq yoki qisman olib qoʻyilishi lozim boʻlgan yerlar miqdori belgilandi.

Islohotni amalga oshirish, tayyorgarlik chora-tadbirlarini hisobga olmaganda, ikki bosqichdan – koʻchmanchilardan, bay va boshqa yirik xoʻjaliklardan davlat yer fondiga yerlarni tortib olish va uni kambagʻallar va fermerlar oʻrtasida taqsimlashdan iborat edi. Asosan, bu ishlarning barchasi 1921 yil fevral oyining oxiridan may oyining boshigacha boʻlib oʻtdi va navbatma-navbat - avval Maxramda, keyin esa Qonibodam volostlarida amalga oshirildi, bu esa malakali yer tuzuvchilarning etishmasligi bilan izohlanadi.

Komissiya oʻzining tayyorgarlik ishlarida texnik qiyinchiliklar tufayli ham, koʻrfaz va mustamlakachilar oʻz yerlarini yashirganligi sababli ham barcha yirik fermer xoʻjaliklarini etarli darajada aniqlay olmadi. Bunda ekspluatatorlarga qaram boʻlgan va yer munosabatlarini tubdan qayta tashkil etish imkoniyatiga har doim ham ishonmaydigan dehqonlarning oʻzlari ham kam rol oʻynamadilar. Ularning koʻpchiligi ikkilangan, ikki tomonlama pozitsiyani egalladi. Boʻlajak islohot muhokama qilingan yigʻilish va yigʻilishlarda ularning koʻpchiligi hayotiy manfaatlariga javob bergani uchun uni amalga oshirish tarafdori boʻldi. Ammo koʻrfazlar kambagʻallarga va fermerlarga bosimni kuchaytirishi bilanoq, ularning yaqindagi qarorlari oʻz oʻrnini noaniqlik va qoʻrquvga olib keldi.

Sovet hokimiyati tomonidan baylar va boy dehqonlarning yerlarini musodara qilish boʻyicha koʻrilgan qatʼiy choralar, shubhasiz, bir tomondan dehqonlarga katta taʼsir koʻrsatdi. Tayyorgarlik chogʻida kutish va kutish nuqtai nazarini olganlar ham endi islohotni qoʻllab-quvvatladilar.

Boshqa tomondan, islohotning amalga oshirilishi yer egalarining tabiiy qarshiliklariga sabab boʻldi. Qulaklar yer tuzish komissiyalari ishiga toʻsqinlik qilishga urinib, yerlarini roʻyxatga olishdan yashirib, islohotni qoʻllab-quvvatlagan kambagʻallarni qoʻrqitib, terrorchilik harakatlarini amalga oshirdi. Mahalliy baislar ham xuddi shunday harakat qilishgan, lekin bu borada mustamlakachilar ayniqsa faol edilar. Bu islohot, birinchi navbatda, «kulaklar»ga qarshi qaratilganligi bilan izohlanadi va aftidan, baislar oʻzlarining yer egaliklarini saqlab qolishlarini kutganlar. Keyinchalik bunday emasligi ayon boʻlgach, bu ikki guruh ham birlashib, birlashgan front boʻlib islohotga qarshi chiqa boshladi.

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi va RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining Turkiston komissiyasi N.Toʻraqulov zimmasiga yuklatilgan

vazifalardan biri shu ediki, u islohotlar jarayonida qishloq proletariati bilan keng ko‘lamli tushuntirish ishlari olib borishda faollarga rahbarlik qiladi. Aholi o‘rtasida olib borilgan keng targ‘ibot kampaniyasidan so‘ng kambag‘allarning asosiy qismi Sovet hukumatining agrar islohotlarini qo‘llab-quvvatladi. Yer tuzish komissiyasi faoliyati davomida mustamlakachilar va boylar yerlari, shuningdek, bir-biriga yaqin turuvchi “mehnatsiz” xonadonlar guruhi – sobiq volost boshqaruvchilari, savdogarlar, ruhoniylar va boshqalar aniqlanib, davlat fondiga olib qo‘yildi. Hammasi bo‘lib, yer egalarining ushbu butun toifasi 380 ta fermer xo‘jaligini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ulardan beshtasi ayniqsa yirik bo‘lib, o‘rtacha 21,6 desyatini tashkil etdi. Yuqorida sanab o‘tilgan xo‘jaliklardan jami 555 desyatina yer olib qo‘yildi[12, 335]. Qisman musodara qilingan “yarim mehnatkash” fermer xo‘jaliklarining arzimagan ortiqcha yer maydoniga ega bo‘lgan va yollanma mehnatidan shaxsiy mehnatiga yordamchi sifatida foydalanilgan yerlari. Bunga ikki yoki undan ortiq qishloqda mayda yer uchastkalari bo‘lgan va ularni o‘z mehnati bilan to‘liq o‘zlashtirish imkoniyati bo‘lmagan xo‘jaliklar ham kiradi, ularning bir qismi choryakkorlarga ijaraga berilgan. Jami bu toifadagi musodara qilingan ortiqcha yerlar 459 desyatinni tashkil qildi[12, 336]. Bundan tashqari, davlat fondiga Konibodamdagi 88 desyatinaga yaqin 4 ta madrasaning vaqf yerlari ham kiritilgan.

Qishloq jamoalarini tugatish va ulardagi ortiqcha yerlarni tortib olishdan 23 331 desyatina, “mehnatsiz yashovchi xo‘jaliklar”ni tugatishdan 240 599 desyatina va davlat yerlarini tugatishdan 1 505 040 desyatina yer islohot tufayli tashkil qilingan Yer fondiga qo‘yildi. Yer-suv islohotining Yer fondidagi 1 768 970 desyatina yerdan 658 780 desyatinasi o‘troq o‘zbek va turkmanlarga, o‘troqlashayotgan qirg‘izlarga, kam yerli qirg‘iz jamoalariga, davlat muassasalariga, kolxozlar va boshqa xo‘jaliklarga bo‘lib berildi. Hammasi bo‘lib 15 799 ta xo‘jalik yer bilan ta’minlandi[13]. Sovet hukumati agrar islohotlarning mohiyatini tushuntirish maqsadida aholining kam ta’minlangan qatlamlari o‘rtasida keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini olib bordi. Yersiz va kambag‘al dehqonlarning ilk uyushmalari Xo‘jant tumanida tashkil etilgan.

N.To‘raqulov 1921-yil may oyidan 1922-yil iyunigacha Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining raisi bo‘lib ishlagan vaqtida davlat tuzilishining boshqa masalalari qatori dehqon kooperativlari muammolariga ham katta ahamiyat berdi. U agrar munosabatlarni tartibga

soluvchi huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda bevosita ishtirok etgan. Uning rahbarligida 1922 yil 15 martda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi “Qo‘shchi ittifoqi to‘g‘risida Nizom”ni qabul qildi. Ushbu nizom tasdiqlangach, ittifoq ovul, qishloq va qishloq proletar va yarim proletar ommasining kasbiy-siyosiy tashkiloti deb e’lon qilindi [14, 90]. Nizomga ko‘ra, “Qo‘shchi”ning asosiy siyosiy vazifasi kambag‘allarni sovet qurilishiga jalb etish va har qanday zulmga qarshi kurashdan iborat edi. Iqtisodiy vazifalarga kelsak, oziq-ovqat va xo‘jalik organlari dasturini so‘zsiz amalga oshirish, mehnatkashlar turmush farovonligini yuksaltirish bu boradagi eng yaqin vazifalar etib belgilandi. Qayd etish joizki, “Qo‘shchi” uyushmasi qisqa vaqt ichida Shimoliy Turkistondagi eng ommaviy tashkilotga aylandi. Shunday qilib, 1923-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan va barcha boshlang‘ich tashkilotlardan 100 nafar delegat yig‘ilgan Qo‘shchining birinchi okrug qurultoyi Xo‘jandda ittifoqni mustahkamlashda katta rol o‘ynadi. Qurultoyda paxtachilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, bu dehqon xo‘jaliklarining tovarchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ittifoq tashabbusi bilan har bir paxtakorga imtiyozli kredit shartlari asosida bug‘doy yetkazib berildi[12, 354]. Iqtisodiyotdagi o‘z mavqeini mustahkamlash uchun baislar qo‘llagan muhim dastaklardan biri bu Yangi iqtisodiy siyosatning dastlabki yillarida keng miqyosga ega bo‘lgan xususiy savdo edi. Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va hunarmandchilik bilan savdo qilish huquqiga 10 mingga yaqin ruxsatnomalar berildi. Savdo erkinligi aholining badavlat qatlamlariga bozor konyunkturasidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish imkonini berdi. Ular oziq-ovqat inqirozidan foydalanib, non va boshqa mahsulotlar narxini oshirdilar, savdo korxonalari tashkil qildilar yoki ijaraga oldilar.

N.To‘raqulov agrar islohotlar mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonida Turkistonda ishchilar sinfining yetishmasligi omilini hisobga olish zarurligini tushundi. Gap shundaki, islohotlarning boshida qishloqlarda nafaqat feodal munosabatlari saqlanib qolgan, balki baylar va musulmon ruhoniylari dehqonlar ommasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganlar. Shuning uchun qishloqlarda dehqon masalasida mamlakatning markaziy rayonlariga qaraganda ancha moslashuvchan va ehtiyotkor siyosat yuritish zarur edi. Turkiston partiya va sovet mehnatkashlarining bir qismi yangi iqtisodiy siyosatning mohiyatini to‘liq anglay olmadi. To‘raqulov esa o‘sha davr uchun professional iqtisodchi bo‘lib, doimo

yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surardi. Boshqa tomondan, u xalqqa juda yaqin bo‘lib, xalqning boy va kambag‘al qatlamlari o‘rtasidagi ijtimoiy muammolar, jamiyatning tabaqalanishi va ularning sabablarining ko‘p nozik tomonlarini bilardi.

Binobarin, ko‘pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, mintaqaning urushdan keyingi rivojlanishi yarim feodal yer munosabatlari va ibtidoiy dehqonchilik texnologiyasini saqlab qolgan holda mayda dehqon xo‘jaligi asosida amalga oshirildi. Biroq, mintaqadagi siyosiy vaziyat barqarorlashgani sababli, Sovet hukumati ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatishga harakat qildi. Ular ikkita asosiy yo‘nalishda harakat qildilar: 1) mehnat dehqon xo‘jaliklarini yuksaltirish va mehnatkashlarning bai ekspluatatsiyasini imkon qadar cheklash, 2) qishloq xo‘jaligining yangi shakllarini bosqichma-bosqich joriy etish. Chunonchi, Konibodom tumanida amalga oshirilgan islohotga ko‘ra, umumiy maydoni qariyb 979 desyatina bo‘lgan 847 ta dehqon xo‘jaligi yer olgan bo‘lsa, yer fondining qolgan qismidan yana 557 ta fermer xo‘jaligiga mayda “qo‘shimchalar” kiritildi. Binobarin, jami 1404 ta fermer xo‘jaligiga yer maydoni ajratildi[15]. Yer-suv islohotini amalga oshirish jarayonida ko‘chmanchi ruslar va mahalliy boylarning yirik yer egalari tugatilib, ularning o‘zlari okrugdan quvib chiqarildi. Islohot natijasida xo‘jalik yuritishning feodal va kapitalistik shakllari barbod qilindi, mahalliy va rus dehqonlarining yerga bo‘lgan huquqlari tenglashtirildi, bu katta siyosiy ahamiyatga ega edi.

1918 – 1920 yillarda davlat yordami tufayli kollektiv xo‘jaliklar soni ortib bordi. 1924 yildan boshlab sovet hukumati Turkistonda yer-suv islohotini o‘zbek qishloqlarida amalga oshirishga tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordi. Shu maqsadda sovet hukumati Turkistonda qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, plug, kultivator, seyalka, traktor kabi yangi texnikalar bilan ta’minlashga yordam qildi.

Yer islohotining ijobiy natijalaridan biri agrar inqirozni biroz yumshatish edi. Fermerlar islohot bo‘yicha tortib olingan yerlarni oldilar. Bundan tashqari, komissiya islohotni amalga oshirayotganda, Maxram volostining Qorayantak, Maxram va Qoraqchiqum qishloqlari yaqinida joylashgan 3,5 ming desyatinaga yaqin sug‘orilmaydigan yerlardan iborat bo‘lgan davlat yer fondidan ham foydalanmoqchi bo‘ldi. Biroq, bu yer fondi hali ham rivojlanishni talab qilganligini hisobga olsak, “bu yerga joylashishni istaganlar juda kam edi”[15].

Xullas, yer-suv islohotining o‘tkazilishi bolsheviklarning sinfiy siyosati, sinfsiz jamiyat qurish to‘g‘risidagi utopik g‘oyasi amalga oshirilishining natijasi edi. 1920 – 1922 yillardagi yer-suv islohoti vositasi yordami bilan kommunistlar boylar, mulkdorlar sinfini tugatish maqsadini amalga oshirish harakatida bo‘ldi. Turkistondagi sovet rejimi qurolli kurash davom etayotgan sharoitda o‘zbek qishloqlarida tub yerli mulkdorlarni tugatish yo‘lini xalq qo‘llab-quvvatlamasligi aniq edi. Shu sababli yer-suv islohotining birinchi bosqichida rus posyolkalari va qishloqlaridagi rus aholisi mulkdorlarining “mehnatsiz yashovchi xo‘jaliklar” deb nomlangan qismini to‘la tugatish, “quloq xo‘jaliklari”ning mehnat normasidan ortiqcha yerini musodara qilish ishlari amalga oshirildi. Rus aholisi yashaydigan posyolka va qishloqlardagi mulkdorlar tadbirkor va ishbilarmon xo‘jaliklar edi. Ular qishloq xo‘jaligi rivojida katta o‘rin tutardi. Shuning uchun ularning tugatilishi qishloq xo‘jaligi taraqqiyotiga katta zarar yetkazdi. Demak, yer-suv islohotining o‘tkazilishi ham, “mehnatsiz yashovchi xo‘jaliklar”ning tugatilishi ham, “quloq xo‘jaliklari” yerlarining mehnat normasidan ortig‘ining musodara qilinishi ham noto‘g‘ri bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, yer-suv islohotini o‘tkazishning ilk tajribasi jiddiy xatolar va katta xarajatlardan xoli bo‘lmagan. Shunga qaramay, bu eski yer munosabatlarini buzishda muhim bosqich bo‘ldi. Islohot, birinchi navbatda, katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, rus va mahalliy aholining yerga bo‘lgan huquqlarini tenglashtirdi va shu bilan mustamlakachilik o‘tmishining yana bir yodgorligini yo‘q qildi.

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda sovet hokimiyati dastlabki kunlardan boshlab qishloqda mulkdorlar sinfi bilan kurash boshladi. 1918 yildan boshlab yirik rus mustamlakachilari bo‘lgan katta yer egalari, boylarning yerlari va asbob-anjomlari musodara qilina boshlandi. Sovet rejimiga qarshi qurolli kurash avj olgan sharoitda bu ish keng miqyosda amalga oshirilmadi.

Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish bilan katta yer egalarining yerlarini musodara qilish to‘xtatilgan edi. Qishloqdagi tadbirkor dehqonlar yerlarini tortib olish nomigagina kambag‘al dehqonlarni yer bilan ta’minlagan, u asosan kolxoz, kommuna, sovxozlar tashkil qilishga, yakka dehqon xo‘jaliklarini kollektiv xo‘jalikka aylantirishga qaratilgan edi. Umuman olganda, tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, Sovet hokimiyati paydo bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo mintaqalarida amalga oshirilgan

islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari katta bo‘lgan. Bu Turkistondagi shimolidagi agrar islohotlar, yer-suv islohoti jarayonlariga bevosita rahbarlik qilgan Nazir To‘raqulovning alohida xizmatlaridir. Uning islohotchi, o‘tish davrining eng murakkab sharoitida yangi boshqaruv va xo‘jalik boshqaruvi institutlarini yaratish tashabbuskori sifatidagi tajribasi esa Markaziy Osiyo xalqlarining bugungi va kelajak avlodlari uchun xizmat qilishi shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati**

1. Rajabov Q.K. O‘zbekiston XX asrda. Birinchi jild. –Toshkent: “Fan”, 2024. –B.334-340.

2. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkita kitob. Birinchi kitob. 1917-1939 yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov. –Toshkent: “O`zbekiston”, 2019. –B.278-287.

3. Sotsialisticheskoye pereustroystvo selskogo xozyaystva v Uzbekistane (1917 – 1926 gg.). Sbornik dokumentov. –Tashkent: Izdatelstvo Akademii Nauk UzSSR, 1962. – S. 35.

4. Agrarnaya politika sovetskoy vlasti (1917 – 1918 gg.). Dokumenti i materiali. –Moskva: Izd. AN SSSR, 1954. – S. 114.

5. Rajabov Q.K. Turkiston muxtoriyati tarixi. – Toshkent: “Fan”, 2023. –B.256.

6. Materiali po istorii Kompartii Tadjikistana. – Dushanbe, 1963. – 191 s.

7. O‘zbekiston Milliy arxivi, 18-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 26-varaq.

8. Samarqand viloyati davlat arxivi, 17-fond, 1-ro‘yxat, 103-ish, 30-varaq.

9.O‘zbekiston Milliy arxivi, 25-fond, 1-ro‘yxat, 35-ish, 114-varaq.

10. O‘zbekiston Milliy arxivi, 29-fond, 3-ro‘yxat, 1516-ish, 86 – 87-varaqlar.

11. Skorobogatov I.M. Iz istorii deyatelnosti organizatsiy RKP (b) severnix rayonov Tadjikistana (1919-1921 gg.). // Materiali po istorii Kommunisticheskoy partii Tadjikistana. – Dushanbe: Irfon, 1971. – Vip. 2 – S. 100.

12. Istoriya tadjikskogo naroda. T. 5. - Dushanbe, 2011. – 850 c.

13. O‘zbekiston Milliy arxivi, 20-fond, 1-ro‘yxat, 278-ish, 28-varaq.

14. Antonenko B.A. Agrarniye preobrazovaniya v dokolxoznom tadjikskom kishlake. – Dushanbe, 1987. – 234 s.

15. Krasnaya Fergana. 13 iyulya 1921.

16. Rajabov Q.K., Amonova F.S., Qandov B.M. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Ochun” nashriyoti, 2025. –B.528.

**M.F. Kamolova**
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
kamolova.muxlisa7@mail.ru

## XIX ASRNING IKKICHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRINING ARXITEKTURASIDAGI O‘ZGARISHLAR (Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman faoliyati misolida)

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Turkistonning birinchi general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufmanning o‘lkadagi faoliyati hamda bu davrda Toshkent shahrida imperiya mustamlakachiligi mafaatlarini ifoda etgan arxitektura inshootlarining qurilishiga oid ma’lumotlar turli davr ilmiy tadqiqot ishlari tahlilga tortish orqali ochib berishga harakat qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Toshkentning “yangi shahar” qismi, gimnaziya, shaharning bosh rejasi, ma’muriy markaz, Eski Shahar.*

Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Toshkent shahri 1865-yilda M.G.Chernyayev rahbarligidagi rus qo‘shinlari tomonidan egallanganidan so‘ng, dastlab Turkiston viloyatining, 1867-yildan esa, Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylandi. Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida o‘zinnig mustamlakachilik siyosatini olib borishda nafaqat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shu bilan birga o‘lka madaniy hayotida ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu davrdan boshlab, Toshkent shahrida Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati markazi sifatida imperiya siyosatini yaqqol ko‘rsatuvchi poytaxt shaharga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni, jumladan, davlat muassasalari, o‘quv yurtlari, savdo markazlari, banklar, rus aholisi uchun cherkovlar va boshqa inshootlar barpo etildi.

General M.G. Chernyayev shaharni egallagan bo‘lsa-da, shahar hayotining bir maromda davom etishiga xalaqit bermadi. Shahar devoridan sharqqa, Anhor va Chauli (Aslida ariq nomi mahalliy xalq orasida Shibli deyilgan, bu ariq rus manbalarida Chovli yoki Chauli deb atalgan. Bu ariqlar shaharni asosiy suv bilan ta’minlovchi manbasi hisoblangan – M.K.) kanallari orasidagi yerda askarlar uchun harbiy qarorgohlar qurildi, qal’a barpo etildi, bir nechta ma’muriy binolar va

yangi shaharning birinchi turar-joy binosi – generalning (Turkiston viloyati boshlig‘ining uyi – M.K.) uyi qurildi. [1, 73]

Toshkent shahrining iqtisodiy va geografik imkoniyatlarini yaxshi anglagan rus hukumati vakillari bu yerni “Osiyo Gamburgi va Frankfurti”ga aylantirishga harakat qilishgan. Bu boradagi amaliy harakatlarni imperiya mafaatlarini to‘liq hisobga olgan holda general-gubernatori K.P.Kaufman (1818-1882) boshlab bergan. Shuningdek, general-gubernator K.P.Kaufman o‘lka mahalliy sharoitlarga moslashib ish yuritish hamda haqiqiy ehtiyojlarga mos ravishda, hududni boshqarish bo‘yicha yangi nizom loyihasini ishlab chiqib, uni imperiya markaziga taqdim etdi. [3, 61]

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanning tashabbusi bilan Toshkent shahrida imperiya markaziy rayonlaridan ko‘chirib keltirilgan rus aholisi uchun turar joy va boshqa ma’muriy inoshoatlar qurilishi boshlandi. Bu esa Toshkent shahar arxitekturasida jiddiy o‘zgarish hisoblangan “yangi shahar” qismining barpo etish loyihasi tuzilib, bu loyihaga harbiy muhandis A.V.Makarov boshchilik qilishi belgilandi va 1870-yil 1-mayda K.P.Kaufman tomonidan tasdiqlanadi. [4, 8]

Shaharning yangi qismi to‘g‘ri burchakli tuzilish bo‘yicha emas, balki konsentrik rejalashtirish bo‘yicha qurilishda davom etdi. Toshkent shahri uchun tanlangan qurilish rejasi boshqa yirik shaharlar uchun andoza vazifasini bajardi. Jumladan, 1877-yilda Namangan shahrining yangi qismi va Yangi Marg‘ilon shahri ham Toshkentning “yangi shahar” qismi uchun tanlangan qurilish rejasi asosida qurila boshlandi. [5, 225]

K.P.Kaufman shaharning rus aholisi uchun turar-joylar qurilishi masalasida general A.K.Geyns bilan maslahatlashib, uni mahalliy yig‘imlari hisobidan 100 ming rubl jamg‘arma tashkil etishga va yiliga kamida 1,5 ming rubl maosh oladigan shaxslarga uy-joy qurish uchun yillik ish haqi miqdorida ssudalar berishga kelishildi. [3, 74]. Ushbu yechim xususiy imoratlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada, 1868-yildayoq Toshkent shahrining “yangi shahar” qismida 270 ta xususiy bino qurilgan. [1, 73]

Toshkent shahrida imperiya ma’muriyati tomonidan qurilgan yana bir bu davrdagi inshoot general-gubernator qarorgohi – ya’ni “Oq uy” deb nomlanib, uning qurilishi K.P.Kaufman o‘lkada xizmatga kirishgan yildan boshlanib, 1884-yilgacha davom etdi. Lekin 1871-yil kuzida kelib, K.P.Kaufmanning oilasi bilan general-gubernator uchun mo‘ljallangan

yangi uyga ko‘chib o‘tgan. Bu inshoot qurilishida turli xil me’morchilik uslublarining aralashmasi: baland shiftli xonalar, ulkan Georgiyevskiy zali, bir nechta mehmonxonalar (ulardan biri mahalliy uslubda bezatilgan)ni ko‘rishimiz mumkin. [2]

Toshkent shahrida 1870-yillarda rus hukumati o‘z mafaatlaridan kelib chiqqan holda ko‘plab ma’muriy-boshqaruv binolari, cherkov va turar-joy binolari barpo ettirdi. O‘lkadagi rus hukumati ma’murlari tomonidan mustamlaka boshqaruv tizimini yanada mustamhkamlash uchun shaharning hududini qayta rejalashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. 1871-yildayoq shaharning ikki “yangi” va “eski” shahar qismlarini rejalashtirish loyihasi tuzilib, u 1871-yil 12-fevralda tasdiqlandi.

Turkiston o‘lkasidagi rus ma’murlari Toshkentning “yangi shahar” qismi hududi yildan-yilga kengaytirib bordi. Shahar hududi 1877-yilgi 1 kvadrat verstdan – 1908-yilga kelib, 30 kvadrat verstgacha yetdi. 1871-yilda bu yerda harbiylardan tashqari 2073 nafar ko‘chib keltirilgan rus aholisi istiqomat qilgan bo‘lsa, 1908-yilga kelib, shaharning “yangi shahar” qismida yashaydigan aholi soni 50 ming nafarga yetgan. [1, 74] Shahar hududining kengayishi, shubhasiz, mahalliy aholi yerlari hisobiga bo‘ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida katta mavqega ega bo‘lgan Toshkent shahrini bosib oldi. Rus hukumatining Toshkent shahrida o‘rnashishdan va xalqning mustamlakachilarga qarshi bosh ko‘tarishidan xavfsiragan mustamlaka hukumati Anhorning chap qirg‘og‘ida o‘zi uchun tayanch manzilga asos soldi. Shu davrdan boshlab Toshkent shahri “eski shahar”, “eski qism”, mustamlaka hukumatining barpo etgan joyi esa “yangi shahar”, “yangi qism” deb atala boshlandi. Hatto ma’muriyat hisobotlarida ham Toshkentning “eski” va “yangi” qismlari uchun alohida ma’lumot berib borildi.

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman hukmronligi davrida Toshkent shahrida rus mustamlakachilik siyosati hosilasi bo‘lgan ayollar va erkaklar gimnaziyalari, real bilim yurti, davlat banki binosi, cherkovlar qurilishi o‘z navbatida Toshkent shahri arxitekturasi va umumiy manzarasiga o‘zgartirishlar kiritdi. Ammo “yangi shahar” dagi barcha qulayliklar faqatgina shu shaharda istiqomat qiluvchi harbiylar, amaldorlar va rus aholisi uchungina yaratilgan edi. Toshkentning “Eski shahar” qismi deyarli hech qanday o‘zgarishsiz qolaverdi.

**ADABIYOTLAR**

1. Кнауер Н.Х. Немцы древного края (Туркестан, Средняя, Центральная Азия), 2016, Printed in Germany.
2. Васильев Д.В., Любичанковский С.В. Русская власть в туркестанском крае: визуализация имперского пространства как фактор аккультурации. Вестник Томского государственного университета. История. 2018. № 54.
3. Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Ташкент., 1912.
4. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи. – Тошкент.: Фан ва технология; 2004.

**Abduraxmanova Jummagul Nomazovna,**
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Ijtimoiy fanlar” fakulteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**TOSHKENT VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI TARIXI**

***Annototsiya:****Ushbu maqolada Toshkent viloyati aholisining milliy tarkibi xilma–xil ekanlgi, turli millat vakillarining viloyat hududiga kelib qolish tarixi bayon qilingan.*

***Kalit so’zlar:*** *millatlararo munosabat, millatlar tarkibi, ko’p millatlilik, tarixiy jarayonlar, o’zbek xalqining bag’rikengligi, millatlararo totuvlik, tenglik.*

Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillari asosida tinchlik, totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, bag’rikenglik, totuvlik ruhida tarbiyalash hozirgi kunda eng muhim ustuvor vazifalardan biridir.

Bugun respublikada turli din va millat vakillari emin–erkin, bahamjihat holda yashab kelmoqda. Bu esa fuqarolarning vijdon erkinligi ularning millati, irqi va dinidan qat’iy nazar to‘liq kafolatlangan hamda bag‘rikenglik g‘oyalari huquqiy jihatdan ta’minlanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, turli millat va din vakillari o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik g‘oyalarini qaror toptirishda izchil hamda keng ko’lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya, 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamda 140 dan oshiq milliy–madaniy markazlar faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridan biri bo'lgan Toshkent viloyati ham ko'p millatli hudud hisoblanadi. Viloyatda 80 dan ortiq millat va elat vakillari yashab istiqomat qilib kelmoqda. Aholini milliy tarkibi bo'yicha o'zbeklar (60,9 %), ruslar (8,1 %), qozoqlar (14,3 %), tatarlar (2,5 %), tojiklar (5,0 %), koreys (2,8 %), ukrain, turk, qirg'iz, turkman, uyg'ur, nemis, arab, yunon, belorus va boshqa millat vakillari (7,4 %) tashkil qiladi[1]. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy–ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishi borasida Konstitutsiyamizda *"O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf–odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"*, deb ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston shu jumladan Toshkent viloyatida ham turli millat vakillarining kelib joylashishi va ushbu hududda yashab qolishlari o'ziga xos bir tarixiy jarayonlardan hisoblanadi. Har bir tarixiy davrdga xos bo'lgan hukmron tuzum tomonidan olib borilgan millatlarni ko'chirish siyosati natijasida turli millat vakillari mazkur hududga kelib yashab qolishgan. Natijada Toshkent viloyati ham o'z navbatida ko'p millatli hududga aylangan.

Respublikamiz hududida XX asr boshlarida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926 yilda esa O'zbekistonda 90 millat va elat vakillari yashagan bo'lsa, 1959 yilda ular soni 113 taga, 1979 yilda 123 taga, 1989 yilga kelib ular soni 130 taga yetgan[2, 46]. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilib kelishmoqda.

Turli tarixiy jarayonlar va turli tarixiy voqeiliklar natijasida O'zbekiston aholisining xilma–hil etnik tarkibi, ko'p millatlilik shakllandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olib, Buxoro amirligi va Xiva xonligi ustidan protektorat joriy qilgandan keyin rus, ukrain, beloruslarning ko'chib kelib o'rnashishi faollashdi. XIX asr oxirida Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati natijasida Toshkent vohasiga ko'plab yevropa millatiga mansub aholi joylashtirildi.

1917 yil oktyabr davlat to'ntarishi natijasida bolsheviklarning hokimiyatga kelishi, Turkiston o'lkasida ham sovet hokimiyatining o'rnatilishi bevosita O'zbekistonning ijtimoiy–iqtisodiy va demografik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bundan tashqari Rossiyadagi 1918–1922 yillardagi fuqarolar urushi, 1921 yil bahorida Rossiyada boshlangan ocharchilik munosabati bilan migratsiyon jarayonlar kuchayib, Turkiston o'lkasiga boshqa xalqlarning ko'chib kelishi ko'payadi. O'z navbatida sobiq sovet hokimiyati tomonidan e'lon qilingan "xalqlar do'stligi, tenglik va qardoshlik, insonparvarlik, ijtimoiy adolat" shiori ostidagi mafkurasi asosida turli xalqlarni O'zbekiston hududiga bemalol ko'chirish siyosati boshlangan edi.

XX asr 30–yillarida mamlakatni industirlashtirish siyosati amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928–1932) davrida 289 ta, ikkinchi besh yillik (1933–1937) davrida 189 ta sanoat korxonasi barpo etildi. Natijada Chirchiq, Angren, Yangiyo'l, Olmaliq, Bekobod kabi sanoat shaharlar vujudga keldi[4, 399]. Ushbu sanoat korxonalarini malakali ishchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida markaz tomonidan RSFSR hududidan olib kelingan. Markazning bunday usuli ya'ni xodim va ishchilarni RSFSR hududidan olib kelinishi butun sovet tuzumi davrida doimiy amalga oshirilib kelingan.

Ikkinchi jahon urushi Toshkent viloyati aholisi tarkibining xilma–xiligini yanada ko'paytirdi. Urushning dastlabki yillarida qisqa vaqt ichida urush harakatlari ketyotgan hududlarga yaqin joylardan ko'plab sanoat korxonalari, fabrika va zavodlar, oliy o'quv yurtlari, davlat tashkilotlari ko'chirib keltirildi. Urush yillarida 100 dan ortiq O'zbekistonga ko'chirilgan sanoat korxonalaridan 55 tasi Toshkent va Toshkent viloyatiga joylashtirilgan[3, 342]. Bundan tashqari boshpanasiz qolgan oilalar, ota–onasiz qolgan bolalar ham evakuatsiya qilingan. 1941 yilning o'zida 200 mingta bola bolalar uyiga joylashtirildi. Minglab bolalarni o'zbek oilalari o'z bag'riga olishgan. 1943 yilga qadar 4672 nafar go'daklar o'zbek xalqi o'zining issiq bag'ridan joy olgan[4, 371]. Ko'chirib keltirilgan aholiga O'zbekistonliklar tomonidan mehr–oqibat ko'rsatilib, yordam berildi. Bundan tashqari urush yillarida O'zbekistonga boshqa xalqlarning vakillari, etnik guruhlar o'z ona yurtlaridan asossiz ravishda badarg'a qilindi va majburiy ravishda ko'chirildi. 1941 yilda Volgabo'yidagi nemislar sharqqa surgun qilingan bo'lsa 1943 yildan boshlab keyingi yillarda ham qalmiq, qorachoy, chechen, ingush, qrim tatarlar, balkar,

bolgar, yunon, polyak, mesxeti turklar kabi kam sonli millatlar majburiy ravishda ravishda O'zbekiston hududiga ko'chiriladi. 1944 yil martidan 1945 yil oktyabriga qadar respublikaga ko'chirilgan kam sonli millat vakkillari 200 mingni tashkil qilgan[5, 461–462]. Ko'chirib keltirilganlarning asosiy qismi Toshkent viloyati hududga joylashtirilgan. Garchi mustabid tuzum tomonidan mahalliy aholi va ko'chirib keltirilganlar o'rtasida ma'muriy–taqiqlovchi to'siqlar qo'yilgan bo'lsada, o'zbek xalqi bu insonlarga nisbatan chinakkam mehr–shavqat ko'rsatishdi, yordam berishdi. Xalqimizning bag'rikengligi, mehmondo'stligi, baynalminal tarbiyasi urush yillarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Urushdan keyingi yillarda ham ko'plab boshqa millat vakillarining mamlakatimizga ko'chirib kelitirishlari davom etdi. 1949 yilda Gretsiyadagi fuqarolar urushi natijasidan o'z vatanidan qochgan bir guruh siyosiy muhojirlar Toshkent, Chirchiq, Bekobod, Yangiyo'l shaharlariga joylashtiriladi[6, 83]. Ushbu shaharlarda ular samimiy kutib olinib, uy–joy, ish bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari urushdan keyingi yillarda Eron, Turkiya, Germaniya, Ruminiya va Polsha kabi davlatlardan ham minglab odamlar O'zbekistonga ko'chirib kelingan. 1952 yil 1 iyulda O'zbekiston SSRda hisobda bo'lgan 186310 nafar maxsus ko'chirib keltirilganlar respublikaning turli viloyatlariga, shu jumladan, Toshkent viloyatiga 62358 kishi joylashtirilgan edi[2, 210]. Urushdan keyingi og'ir yillar bo'lishiga qaramay O'zbekiston xalqi ulardan o'zlarining beg'araz yordamini ayamadilar.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda markazdan kadrlar jo'natish yana ham ko'paydi. Jumladan, RSFSRdan O'zbekistonga 1961–1965 yillarda 115.3 ming nafar ishchi ko'chirilgan bo'lsa, 1966–1970 yillarda 66.4 ming ishchi, 1971–1975 yillarda 55,3 ming kishi ko'chirib keltirilgan[2, 173]. Ko'chirib keltirilgan kishilar Navoiy, Zarafshon, Muborak shaharlari bilan bir qatorda Toshkent viloyatining Chirchiq, Angren, Bekobod, Olmaliq kabi shaharlarga joylashtirilgan edi. Bu jarayonlar ham o'z navbatida O'zbekiston, shu jumladan Toshkent viloyati aholisi tarkibining tobora ko'p millatli bo'lib borishini ko'rsatardi.

Turli davrlarda voqeiliklar, ayniqsa sobiq sovet tuzumining olib borgan siyosati Toshkent viloyati aholisining milliy tarkibining xilma–xil bo'lishiga olib kelgan. Toshkent viloyati hududida istiqomat qilib kelgan mahalliy aholi eng og'ir vaqtlarda ham o'zbek xalqiga xos bo'lgan

bag'rikenglik, totuvlik, mehr–shavqat, millatparvarlik tuyg'ulariga sodiq qolgan.

O'zbek xalqining bag'rikengligi tufayli O'zbekiston hududida turli millatlarning birligi va xilma–xilligi, ma'naviy mushtarakligi shakllangan.

Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida insonning yashashi, ta'lim olishi, mehnat qilish va o'z iqtidorini namoyish etishi kabi hayotiy va tabiiy haq–huquqlari turli darajada poymol etilayotgan bir davrda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari totuvlik hamda bag'rikenglik tamoyili asosida tinch–totuv yashab kelishmoqda.

Tinchlik va totuvlikni ta'minlash, bag'rikenglikni qaror toptirish masalasi hamisha tinchliksevar davlatimiz siyosatining muhim asosi bo'lib kelgan. Zero, bugun amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida tinchlik, barqarorlik, bag'rikenglik, o'zaro hamjihatlik, ishonch, hurmat kabi umuminsoniy g'oyalar yotadi. Bu esa yangi O'zbekiston ilgari surgan oqilona siyosatning muhim asosidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. https://qomus.info.
2. Rahbarxon Murtazayeva. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – Toshkent "Go To Print". 2020.
3. Б.Ж.Эшов., А.А.Одилов. Ўзбекистон тарихи. II–жилд. (XIX аср II ярми – 1991 йил август). – Тошкент., "Янги аср авлоди", 2015.
4. R.Shamsutdinov, H.Mo'minov. O'zbekiston tarixi. – Toshkent., "Sharq". 2019.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент., "Шарқ". 2000.

**Ш.Б.Жумаева – ЧДПУ**
Тарих кафедраси доценти, т.ф.ф.д. (PhD).
*E-mail: shairajumayeva@mail.ru*

## ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ: ИМКОНИЯТЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР

***Аннотация:*** *Мақолада туризм индустрияси ҳамда Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантириш мақсадида амалга оширилаётган ислоҳотлар ёритиб берилган. Муаллиф Тошкент вилоятида зиёрат туризмини ривожлантириш имкониятлари,*

*муаммолар ва уларни бартараф этиш юзасидан ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб ўтган.*

***Таянч сўзлар:*** *Туризм, зиёрат туризми, зиёратгоҳ, виза, Марказий Осиё.*

Бугунги кунда туризм индустрияси жуда ҳам тез суръатларда ривожланиб, саёҳат ва тарихий туризм, таълим туризми, экотуризм, спорт, зиёрат, тиббиёт туризми каби йўналишларда халқаро туризм бозорида рақобат кундан кунга ошиб бормоқда. Таҳлилчилар маълумотига кўра туризм соҳасида 1 та иш ўрнинг яратилса, ўзаро боғлиқ соҳаларда яна 5та иш ўрни яратилишига олиб келади [1]. Ўзбекистон Республикаси ҳам бу соҳада ўзига хос имкониятлар ва устуворликка эга мамлакатлардан бири бўлиб, халқимизнинг бой тарихий-маъданий мероси, ватанимизнинг бетакрор ва жозибадор табиати, табиий ресурслари нафақат ички туризмни балки халқаро туризмнинг барча соҳаларини ривожлантириш имкониятини беради. Жумладан, збекистон ўзининг бой тарихи, бетакрор маданий мероси, қадимий меъморий ёдгорликлари, бетакрор ошхонаси ва халқ амалий санъати билан хорижликлар, сайёҳлар ва зиёратчиларнинг эътиборини тортади. Давлатимиз раҳбарининг 2021 йил 2 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 24 февралдаги “Ички ва зиёрат туризмини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори туризмнинг ушбу йўналишини ривожлантиришда ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Мазкур соҳани янада ривожлантириш мақсадида 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилди. Мазкур концепцияга кўра 2025 йилга келиб хорижлик сайёҳлар сонини 9-10 миллион нафарга ошириш, турли кўргазмалар, танловлар ўтказиш, Ўзбекистонни фестиваллар мамлакатига айлантириш, шу тариқа ивент-туризмни ривожлантириш режалаштирилган.

Халқаро туризмнинг энг сердаромад йўналишларидан бири-зиёрат туризмидир. Ватанимиз уламоларининг ислом дини ва илм-фан равнақига қўшган ҳиссаси, уларнинг илмий-маънавий мероси ҳамда Марказий Осиё ҳудудининг ислом цивилизациясининг шаклланишида тутган ўрни, халқимизнинг бой тарихи ва

меҳмондўстлиги зиёрат туризмини ривожлантиришга асос бўлади. Исмоил Сомоний, Чор Бакр, Чашмаи Аюб, Шоҳизинда, Руқобод, Имом Ал-Бухорий, Баҳоуддин Нақшбанд, Гўри Амир, Хўжа Ахрор, Паҳлавон Маҳмуд, Ҳазрати Имом, Занги Ота, Султон Саодат, Ҳаким ат-Термизий каби машҳур зиёратгоҳлари фикримиз далилидир. Жумладан, Тошкент вилоятида жойлашган Зангиота зиёратгоҳи Марказий Осиё минтақаси халқлари учун ғоятда муқаддас қадамжо ҳисобланади. Бу тарихий-меъморий мажмуани ҳар куни 5 минг нафар зиёратчи ва сайёҳлар зиёрат қилгани буни яққол тасдиқлайди. Зиёратчиларнинг турли мамлакатдан эканлиги хам эътиборга моликдир.[2]

Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Тошкент вилояти ўзига хос салоҳиятга эга худудлардан бири хисобланади. Тошкент воҳаси ғарбдан Тянь-Шань шарқдан Угом, Писком, Чотқол тоғ тизмалари билан ўралган бўлиб, бу тоғлар бағридан оқиб чиқувчи ирмоқлар Чирчиқ дарёсини ҳосил қилади. Вилоятнинг антропоген ландшафти ва табиий географик шароитининг қулайлиги сабабли одамзот унинг ҳудудини қадимги тош давридан бошлаб (Кўлбулоқ, Обираҳмат, Хўжакент) ўзлаштирилган.[3]

Қадимдан, Илоқ, Бинкент, Чоч, Шош номлари билан машҳур Тошкент воҳаси қадимдан Европа ва Осиёни боғлайдиган йўллар чорраҳасида муҳим савдо маркази бўлиб, Осиёнинг дарвозаси бўлиб хизмат қилганлиги боис “Шарқ дарвозаси”, қулай табиий-географик жойлашуви, тарихи, бетакрор меъморий обидалари билан дунёга “Шарқ гавҳари” деб номлари билан танилган. Шу сабабли Тошкент воҳасига ташриф буюрувчилар, қадим ва навқирон воҳани зиёрат этувчилар доимо кўпчиликни ташкил этган.

Тошкент вилояти ҳудудида 828 та моддий маданий мерос объекти бўлиб, шундан 588 таси археология, 7 таси архитектура, 74 таси монументал ёдгорлик, 159 таси диққатга сазовор жойлардир. Шунингдек, 223 таси маҳаллий ва 605 таси республика аҳамиятидаги объект сирасига киради.

Айтиш жоизки, 2016-2021 йиллар давомида 18 та маданий мерос объектида таъмирлаш тиклаш ишлари олиб борилди. Ушбу мақсадлар учун жами 18 миллиард 582 миллион сўм маблағ ажратилди.

Вилоят ҳудудида жойлашган Занги ота, Шайх Умар Вали Боғистоний, Мачит Али, Заркент ота, Шодмалик ота, Пайғамбар ота, Парпи ота каби зиёратгоҳлар нафақат Тошкент вилоятида, балки Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантиришда ҳам муҳим маданий мерос объектлари ҳисобланади.

Мазкур қадамжо ва зиёратгоҳларга нафақат республикамиздан, балки қўшни республикалар ҳамда Россия, Туркия, Индонейзия, Малайзия, Эрон, Покистон каби давлатлардан зиёратчилар ташриф буюришмоқда. Амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари билан бир қаторда вилоятда зиёрат туризмини ривожланишига салбий таъсир қилувчи объектив ва субъектив муаммолар ҳам мавжуд:

1.Ҳудуднинг туристик ресурсларини реклама , тарғибот ва ташвиқот ишларининг пастлиги.

2.Зиёратгоҳлар жойлашган ҳудуд инфраструктурасидаги муаммолар: зиёратгоҳларга олиб борувчи йўлларнинг асосий қисми таъмирлашга муҳтож, ичимлик суви ва табиий газ муаммолари.

3.Зиёратчилар ва сайёҳларга хизмат кўрсатувчи мехмонхоналар сони ва хизматлар сифати, нархини қайта кўриб чиқиш лозим.

4.Муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларнинг тарихий-меъморий қиёфасини ва табиат билан уйғунлигини йўқотмаслиги учун реконструкция, ободонлаштириш ишларини мутахассис олимлар билан ҳамкорликда амалга оширишни йўлга қўйиш лозим.

Тошкент вилояти зиёрат туризмини ривожлантириш истиқболли режасида қуйидагилар амалиётга татбиқ этилса мақсадга мувофиқ бўлар эди:

1.Туристик ресурслар тўғрисида сайтлар ва мобил дастурларни ишлаб чиқиш орқали тарғибот ишларини кучайтириш лозим.

2.Тошкент вилоятида туризм индустрияси бўйича инвестицион лойиҳалар сонини ошириш.

3. Минтақавий ҳамкорликни йўлга қўйиш орқали туристлар оқимини кўпайтириш. Масалан, Буюк Ипак йўли кесимида: Қозоғистон-Ўзбекистон қўшма турлари каби [4].

4.Туризм соҳаси билан боғлиқ кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш буйича дастурлар ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш лозим.

5.Зиёрат туризми йўналишини қўшимча йўналишлар билан бойитиш яъни экотуризм, гастрономик туризм, шоппинг ва бошқалар билан уйғунлаштириш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Тошкент вилояти нафақат зиёрат туризми, балки экотуризм, саёҳат туризми, спорт туризми, тиббиёт туризмини ривожлантириш бўйича улкан салоҳиятга эга ҳудуд ҳисобланади. Туризм бўйича сайёҳлар сонининг ўсиши аҳолини иш билан таъминланишига, валюта тушумининг кўпайишига, ЯИМнинг ўсиши ҳамда мамлакатнинг экспорт салоҳиятини оширишга хизмат қилиб, валюта киримлари ҳамда ташқи савдо баланси барқарорлиги таъминланади. Шу сабабли мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда, Ўзбекистоннинг туризм хабини яратиш сари барча имкониятларни сафарбар этиш лозим.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1.http//www.webeconomy.ru

2. Эралиев Б., Остонақулов И., Абдулаҳатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари.3-жилд.Тошкент-2015й. 295-б.

3. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар («Тафаккур сарчашмалари» туркумидан). Тўплам-3. Т-2009. 13-бет

4. Тошкент вилояти хокимининг 2000 йил 3 мартдаги 93-сонли қарори

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 28 августдаги 708-сонли Фармойиши

6. https://uzbektourism.

**Ибадуллаева Р .**

Магистрант 1-го курса исторического факультета

Национального университета Узбекистана

## AMUDARYO VILOYATINING TASHKIL TOPISHI VA UNING SIYOSIY AHVOLI

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада XX аср бошларида Туркистон ўлкасининг ажралмас қисми бўлган асосан қорақалпоқлар яшайлиган*

*Амударё бўлимининг Амударё вилоятига айланишида юз берган сиёсий жараёнлар турли давр адабиётлари ва тадқиқотлари ўрганиш натижасида тахлилга тортилган.*

***Калит сўз:*** *Туркистон, Амударё, бўлим, вилоят, уъезд, большевиклар, қорақалпоқлар, ҳокимят, бошқарув, Шўрахон, Чимбой.*

В начале XX века политические процессы на всей территории Туркестанского края приняли крайне противоречивый характер. Особенно это проявилось после государственного переворота 1917 года и прихода к власти большевиков, ознаменовавший конец существования Российской империи. Однако, анализируя политико-экономическую ситуацию Амударьинского отдела в феврале и октябре 1917 года, следует подчеркнуть, что Октябрьский переворот в России серьезного влияния не оказал на Каракалпакстан, поскольку власть всё ещё находилась в руках колониальных властей и царских чиновников. Учитывая особое положение Амударьинского отдела, особенно его удалённость от центральных регионов Туркестана, можно отметить, что в структурах власти на территории этого отдела с октября 1917 по октябрь 1918 года не произошло резких изменений, многие организации, такие как комиссар Амударьинского отдела гидротехник В. Н. Памшев, комиссары Амударьинского отдела, комиссары Чимбайского и Шураханского уездов, городская дума Петро-Александровска, Комитет общественной безопасности города, а также Совет солдатских депутатов Петро-Александровска продолжали исполнять свои обязанности[1, 35-36].

В результате похода большевиков на Хивинское ханство в феврале–апреле 1920 года была образована Хорезмская Народная Советская Республика (ХНСР). На территории ХНСР были созданы 22 районных совета, из которых 14 располагались в регионах с преобладанием узбекского населения, 5 – с преобладанием туркмен, и 3 – в районах, где компактно проживали казахи и каракалпаки. Шурой Хожейли руководил Саидахмад Саидкаримов, а шурой Кунграда – Мустафа Адамов. Местными органами власти стали управлять так называемые «красные аксакалы». Казахи, каракалпаки и туркмены выбирали аксакалов из числа представителей своих родов. «Йовмуты, киргизы-казахи, каракалпаки и узбеки признавались равноправными гражданами Хорезмской Народной

Советской Республики (ХНСР)»[3, 373].

18 февраля 1920 года между представителем Туркестанской комиссии Б. Скаловым и представителями народной власти, упомянутыми выше, было заключено мирное соглашение. Согласно этому соглашению, в Чимбае была создана Временная революционная комиссия (ревком) большевиками. В волостях участка населением были избраны пятиместные комитеты. Учитывая обычаи и особенности образа жизни казахов, им было разрешено осуществлять местное самоуправление. Соглашение было подписано со стороны большевиков представителем Туркестанской комиссии Г. Скаловым, со стороны каракалпаков в Чимбайском участке — Богли Охун Мухамедовым, Хасаном Муллой Осалиевым, а от казахов — В. Егоровым, Коневым и другими. Основные положения данного соглашения были подтверждены на основе мирного договора, заключённого 20 мая 1920 года между командованием Амударьинской группы войск Красной армии Закаспийского фронта и представителями каракалпаков и казахов[4, 307-308].

После заключения данного мирного соглашения Революционный комитет Амударьинского отдела был реорганизован. В его состав вошли: М. Солдатов (председатель), М. Балжанов (заместитель председателя), Ш. Хасанов, Г. Скалов, А. Макаев и И. Митин (члены). Впервые в качестве заместителя председателя и членов революционного комитета советской власти были назначены представители от узбеков, каракалпаков, казахов и уральских казаков[3, 373]. В июле 1920 года Революционный комитет Амударьинского отдела обратился к Центральному Исполнительному Комитету (ЦИК) Советов Туркестанской Республики с просьбой преобразовать Амударьинский отдел в Амударьинскую область с целью создания условий для будущего экономического, политического и культурного развития[2, 94]. В результате народы нижнего течения Амударьи поднялись на новую ступень в борьбе за право самостоятельно определять свою судьбу[3, 380].

6 декабря 1920 года административное устройство Амударьинской области было утверждено в виде плана №361 Туркестанской Республики, состоящего из 8 пунктов. Документ был утверждён председателем Центрального Исполнительного Комитета

Республики Нозиром Туракуловым, народным комиссаром внутренних дел Султанбеком Ходжановым и секретарём Совета ЦИК М. Юмакаевым. На основании постановления ЦИК Туркестанской АССР от 10 октября 1920 года Амударьинский отдел был преобразован в Амударьинскую область в прежних территориальных границах[1, 47].

Согласно плану, составленному большевиками, с целью организации управления на территории прежнего Амударьинского отдела в составе Туркестанской Советской Социалистической Республики, до проведения всеобщего народного голосования, на основе пунктов 8 и 9 разрабатываемого соглашения между РСФСР и Хорезмской Народной Советской Республикой (ХНСР), Центральный Комитет Туркестанской АССР принял следующее Постановление:

Прежняя территория Амударьинского отдела, как и другие области, введённые в систему управления, должна была быть переименована в Амударьинскую область в соответствии со всеми правовыми нормами.

– Город Турткуль (бывший Петро-Александровск) был объявлен административным центром Амударьинской области.

Амударьинская область была поделена на два уезда — Шураханский и Чимбайский: административным центром первого уезда стал город Турткуль, второго — город Чимбай. Оба города получили статус уездных центров.

– Для управления Амударьинской областью был создан временный областной революционный комитет, состоящий из 5 человек, действующий на общих основаниях, назначенных ЦИК Туркестана.

– Для управления уездами были созданы уездные революционные комитеты, которые бы действовали согласно существующему плану уездных ревкомов.

– Областной и уездные революционные комитеты должны были быть сформированы в необходимые отделы в соответствии с указаниями и планами Народных комиссариатов.

– В вопросах, связанных с ХНСР, областной революционный комитет должен был обращаться к полномочному представителю РСФСР в ХНСР. Областной ревком не имел права вступать в какие-либо переговоры или заключать соглашения с правительством ХНСР

или его агентами. Амударьинская областная революционная комиссия могла осуществлять торговые связи с другими государствами только через Отдел внутренней торговли при Комиссии по делам Туркестана Центрального Исполнительного Комитета РСФСР[1, 48].

Именно поэтому в октябре 1920 года Центральный Исполнительный Комитет Туркестана придал Амударьинскому отделу статус области в пределах его прежней территории и разрешил использовать все права, предоставленные для управления областью. Площадь Амударьинской области составляла 99 391 квадратную версту. Согласно новому плану советской власти, прежние участки Шурахан и Чимбай были преобразованы в уезды. Город Турткуль был объявлен областным центром. Центральным Исполнительным Комитетом Туркестана был назначен новый областной революционный комитет[4, 309]. Шураханский уезд по своей территориальной протяжённости был в два раза больше, чем Чимбайский, и включал в себя бескрайние пески Кызылкума, охватывая волосные округа Тамды и Мингбулак. Площадь орошаемых земель в этом уезде составляла 20 565 десятин. Вся Амударьинская область делилась на три ярко выраженных района: кочевой скотоводческий — Томди, преимущественно земледельческий — Шурахан и смешанного типа — Чимбай.Тамдымский район был скотоводческим, и всё его население численностью 35 083 человека состояло из казахов. В Шураханском районе проживали 48 782 узбека, 5 789 русских, 5 656 туркмен и представители других народов (персы, татары); население занималось оседлым земледелием. Население Чимбайского уезда было наполовину кочевым, наполовину земледельческим: из 62 776 жителей большинство составляли каракалпаки, а часть — казахи. Чимбайский уезд располагался в нижнем течении Амударьи, на северо-западе Амударьинской области. Его общая площадь вместе с островом Муйнак составляла 8 857 квадратных верст.

В административном отношении уезд делился на 10 волосей: Чимбай, Кукузак, Кегайлы, Кунград, Янгибазар, Нукус, Толлык, Даукаре, Наупир и Муйнак. Волость Муйнак была зарегистрирована как отдельная волость в 1924 году и, в отличие от других, обособлялась своим островным положением и специализировалась

на рыболовстве. Остальные волости были ориентированы на земледелие. Население волостей Кукузак, Чимбай, Янгибазар, Кегейли, Наупир, Толлык и Нукус в основном составляли оседлые каракалпаки, занимавшиеся земледелием, ремеслом и рыболовством вдоль рек. Этнически вторыми по численности после каракалпаков были казахи, в основном проживавшие в Даукаре, а также частично в волостях Нукус, Кунград, Наупир и Кегейли. Казахи в уезде вели в основном оседлый образ жизни, лишь незначительная часть в Даукаре продолжала кочевой образ жизни и занималась скотоводством. Узбеки в малом количестве встречались в Кунградской волости, занимались земледелием в сельской местности и торговлей в городах. Русские (в основном уральские казаки) и украинцы (несколько сот семей) проживали в малом числе в районах, близких к Амударье: Заир, Ак-Дарья, Майпост, Токмак-Ата, Муйнак, Учсай. Они занимались рыболовством, охотой, перевозками, а некоторые работали как рабочие и служащие в Чимбае. Остальное население составляли немногочисленные татары, персы, армяне. Согласно отчёту переписи населения 1921 года, численность населения Чимбайского уезда, включая 4 000 человек на острове Муйнак, составляла 84 994 человека. Шураханский уезд находился на юге области и охватывал 54 400 квадратных верст. Уезд включал 7 волостей: Бийбазар, Шурахан, Тёрткуль, Сарыбий, Шейх-Аббоз Вали, Томди и Мингбулак. Общее население составляло 72 482 человека[1, 50].

За исключением Тамды и Мингбулак, жители остальных волостей в основном занимались оседлым земледелием. Опорой системы советского государственного управления стали исполнительные комитеты уездов-городов, волостей и аулов, которые формировались через выборы. Выборы неоднократно переизбирались. Комиссары новой власти не допускали к участию в выборах в местные советы торговцев, землевладельцев и представителей духовенства. На выборах в местные советы, проводившихся на основе классовой теории большевиков, не учитывались местные — национальные особенности, а также допускались компромиссы и взяточничество. Новая власть с первых же шагов начала разрушать не те идеи справедливости и равенства,

которые обещала, а традиционные восточные структуры, формировавшиеся веками.

В заключение следует отметить, что политические конфликты в Амударьинском отделе в 1918–1920 годах, усиление недовольства местного населения, а также действия большевиков в интересах своих целей в этом регионе привели к преобразованию отдела в область. После этого правовой статус области в структурах власти Туркестанской АССР был повышен. В первые годы власть большевиков в области не предпринимала самостоятельных действий: советский аппарат в основном ограничивался ожиданием указаний из центра. В результате восстановление сельского хозяйства и народного хозяйства, составлявших основу экономической жизни области, проходило с большим трудом. Кроме того, конфискации государственных средств должностными лицами, находившимися у власти, оказали негативное влияние на развитие области.

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Жуманиязов Д.Қ. **Туркистон АССРдаги Амударё вилояти тарихи (1920-1924 йиллар):** тарих фанл. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс... – Тошкент, 2019. – 35-50 б.
2. Панабергенов А.Н. Партийные организация Каракалпакии в борьбе за упрочение Советской власти и восстановление народного хозяйства(1917-1925й.й.). – Нукус: Каракалпакстан, 1983. –С.94.
3. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917–1939 йилларда. – Тошкент; O‘zbekiston, 2019. – 373 б.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент; Шарқ, – 309 б.

**Raxmanova M.Sh.**
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktorant

## KATTA O‘RTA OSIYO IQTISODIY RAYONINING GEOGRAFIK JOYLASHUV XUSUSIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada sobiq Sovet hukumati tomonidan o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida SSSR ning barcha hududlaridagi kabi O‘rta Osiyo hududida ham tashkil qilingan iqtisodiy rayonlar xususan,*

*Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni haqida so‘z yuritilgan. Asosan bu iqtisodiy rayonning geografik shart-sharoitlari, tabiiy boyliklari mavjud tadqiqotlar asosida tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni, SSSR, O‘zbekiston SSR, Qozog‘iston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg‘iziston SSR, Tojikiston SSR, geografik joylashuv, iqtisodiy.*

XX asrning 20-yillarida SSSR da boshlangan iqtisodiy va hududiy rayonlashtirish [1, 21]. Ikkinchi jahon urishidan so‘ng mamlakatning barcha potenisal quvvatidan, xususan geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, geoekologik holati, iqtisodiy ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy rivojlanish holatidan tez sur’atlarda samarali foydalanish maqsadida bu siyosat yangi bosqichga ko‘tariladi va yanada jadallashtiriladi. 1957-yil 10-iyun kuni SSSR da iqtisodiy-ma’muriy rayonlarning tashkil etilishi haqida qaror qabul qilingan. Unga ko‘ra mamlakatda hammasi bo‘lib 105 ta iqtisodiy rayon tashkil qilingan. Xususan, RSFSR da 70 ta, USSR da 11 ta, Qozog‘iston SSRda 9 ta, O‘zbekiston SSR da esa 4 ta iqtisodiy rayonlar tashkil etilgan [8, 180].

Shu tariqa mamlakatda tashkil qilingan iqtisodiy rayonlar bitta respublika tarkibida yoki bir nechta respublikalarning iqtisodiy va xo‘jalik jihatidan birlashtirilishi natijasida vujudga keltirilgan. Bir necha respublikalar birlashtirilishi natijasida tashkil etilgan iqtisodiy rayonlar ya’ni ular Kavkazorti, Boltiqbo‘yi va O‘rta Osiyo respublikalariga “katta” so‘zi qo‘shib ishlatilgan va ular “katta iqtisodiy rayon” nomini olgan. Shunday iqtisodiy rayonlardan biri, markazi Toshkent shahri bo‘lgan SSSR iqtisodiyotini harakatlantiruvchi potensial quvvatga ega bo‘lgan Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonidir.

Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibiga geografik joylashuv jihatidan O‘rta Osiyo hududidagi Qozog‘iston SSR dan tashqari 4 ta ittifoqdosh respublika – O‘zbekiston SSR, Qirg‘iziston SSR, Tojikiston SSR va Turkmaniston SSR hududlari kirgan. Ushbu Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonining hududi 1 238 000 km. kv. ni tashkil qilgan. 1962-yil 1-yanvar statistika ma’lumotlarida keltirilishicha aholisi 15 175 000 kishini tashkil qilgan [2, 5].

Bu iqtisodiy rayon 1963-yil 5-fevralda KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 140-sonli farmoyishi bilan tuzilgan [8, 181] va Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonini rejalashtirish va koordinatsiyalash (nazorat qilish) Kengashi tomonidan boshqarib, nazorat qilib borilgan [5, 2].

Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni geografik jihatdan shimolda Qozog‘iston SSR bilan, janubda Eron va Afg‘oniston bilan, sharqda Xitoy hududlarigacha va g‘arbda esa Kaspiy dengizni bilan bilan chegaralangan. Ushbu hudud SSSR davlatining janubiy qismida joylashgan bo‘lib, issiq va quyoshli kunlarning ko‘pligi, energetik resurslarga, xilma xil tabiiy xom ashyolarga boyligi jihatidan ham butun mamlakatda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yevrosiyo materigining o‘rtasida, okeanlardan uzoqda joylashgan Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonining tabiati xilma xilligi va landshafti jihatidan bir biridan farqlanuvchi ikki qismga – tekislik va tog‘li qismlarga ajratishimiz mumkin. Tekislik qismida SSSR dagi eng katta cho‘llar Qizilqum, Qoraqum va Ustyurt joylashgan. Tog‘li hududlar esa Turkman-Xuroson (Kopet-dog‘), Pomir-Oloy, Tyan Shan tog‘ tizmalaridan iborat bo‘lgan. Rayonning shunday tog‘li hududlarida 10 mingga yaqin daryo va yirik soylar mavjud bo‘lgan [4, 228-229]. Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibida joylashgan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Tajan Murg‘ob va boshqa daryolar rayonning tekislik qismini suv bilan ta’minlab turgan. Shu bilan birga ushbu suv havzalarida xalq xo‘jaligining barcha tarmog‘i uchun zarur bo‘lgan juda katta gidroenergetik inshootlar ham barpo etilgan.

Tadqiqotchi A. Mamatqulovning fikriga ko‘ra, O‘rta Osiyo hududidagi Qozog‘iston SSR ning alohida iqtisodiy rayon sifatida tashkil qilinishiga sabab Qozog‘iston SSR mehnat taqsimotida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish xususiyatiga egaligi va bundan tashqari Qozog‘iston SSR ning sanoatida asosiy ishlab chiqarish sohasi qora va rangli metallurgiya bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibiga kirgan respublikalarda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Qozog‘iston SSR energetikasining asosini ko‘mir qazib olish tashkil etgan bo‘lsa, O‘rta Osiyoning boshqa respublikalari gidroenergetika va gaz qazib olishga ixtisoslashgan. Qozog‘iston SSR qishloq xo‘jaligining asosini go‘sht va bug‘doy yetishtirish tashkil etgan bo‘lsa, boshqa O‘rta Osiyo respublikalari – paxta, ipak, sabzavotlar, uzum, qorako‘l yetishtirishga ixtisoslashgan [3, 14-15]. Mana shu farqli jihatlarni inobatga olgan holda Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibi shakillantirilgan.

Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonida aholining o‘sish sur’atlari ham yuqori bo‘lib, SSSR ning boshqa iqtisodiy rayonlari orasida birinchi o‘rinda turgan. Bu esa hududning sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarini mehnat resurslari bilan ta’minlanishiga sabab bo‘lgan. U. Nuritdinovning

ta'kidlashicha, Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining eng muhim iqtisodiy-geografik xususiyatlaridan biri – mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi va tabiiy sharoiti bilan birga resurslardan sanoat va qishloq xo'jaligida intensiv foydalanish imkoniyatlarining kattaligida bo'lgan [4, 231]. Ushbu tabiiy geografik joylashuvi va iqtisodiy xususiyatlari Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni SSSR xalq xo'jaligi uchun kopmleks holda xizmat qilgan.

Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining yetakchi sohalaridan biri paxta yetishtirish bo'lib 1960-yillarda butun SSSR da yetishtiriladigan paxtaning 90 foizini yetkazib bergan. Paxta yetkazib berish bo'yicha O'zbekiston SSR birnchi, Turkmaniston SSR ikkinchi va Tojikiston SSR uchinchi o'rinda turgan [7, 660]. Bunday natijalar ko'rsatilishiga O'rta Osiyo xususan O'zbekiston SSR ning suv hazalaridan maksimal darajada foydalanilganligi sabab bo'lgan.

O'rta Osiyoda xalq xo'jaligi suniy sug'orishga asoslanganligi va bu yerda yetishtiriladigan paxta SSSR da yetishtiriladigan paxtaning asosini tashkil qilganligi uchun hududdagi mavjud sug'orish tizimlarini qayta rekonstruksiya qilingan va bundan tashqari O'zbekiston SSR da Katta Farg'ona va Toshkent kanallari, Janubiy Tojikiston hududida Katta Vaxsh va Hisor, Qirg'iziston SSR da Katta Chuy va Talas hamda Turkmaniston SSR hududida Qoraqum va boshqa kanallar qurilgan [2, 6].

Tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha Katta O'rta Osiyo iqtosodiy rayoni SSSR da birinchi o'rinda turgan. Umuman olganda SSSR hududida gaz zaxiralari notekis taqsimlangan bo'lib, ushbu gaz zaxiralarining 1/4 qismi SSSR ning Yevropa qismida, 3/4 qismi esa Osiyo qismida joylashgan [6, 55]. Osiyo qismida joylashgan tabiiy gaz zaxiralar O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR hududlariga to'g'ri kelgan.

O'rta Osiyo tabiiy gazidan unumli foydalanish, mamlakatning boshqa hududlariga yetkazish maqsadida bu yerdan O'rta Osiyo – Ural, O'rta Osiyo – Markaz gaz quvurlari va bundan tashqari O'rta Osiyo respublikalarining boshqa hududlariga ham magistral gaz quvurlari o'tkazilgan [4, 232].

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, gaz zaxiralari bo'yicha butun SSSR da birinchi o'rinda turgan Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni neft zaxiralari bo'yicha uchinchi o'rinda bo'lgan va qazib olinadigan neftning 9/10 qismi Turkmaniston SSR hududiga to'g'ri kelgan [8, 184]. Ushbu Katta O'rta

Osiyo iqtisodiy rayoni hududlaridan qazib olinadigan gaz van neft mahsulotlari SSSR xalq xo‘jaligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning ikkinchi yarmida SSSR iqtisodiyotini rivojlantirish uchun hududini iqtisodiy rayonlarga bo‘lib boshqarish asosida olib borilgan. O‘rta Osiyo hududida tashkil qilingan Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni iqlimi, yer-suv resurslari, qazilma boyliklarining mavjudligi hamda sanoati va qishloq xo‘jaligining mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi SSSR iqtisodiyoti uchun katta foyda keltirgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qarang; Норматов О. М. Ўрта Осиёда ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2022. – 21 б.

2. Аминов А.М. К характеристике Среднеазиатского экономического района. / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1963. 2 сон. – 5-6 б.

3. Маматқулов А. Ўзбекистонда XX асрнинг 50-80 йилларида совет ҳокимятининг иқтисодиф районлаштириш сиёсати (Самарқанд-Қарши иқтисодий районлари мисолида).Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илм.дар.... дисс. – Тошкент: 2021. – 14-15 б.

4. Нуритдинов Ў., Голован К.А. СССР иқтисодий географияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 228-232 б.

5. Рудин А. Ўрта Осиё йирик иқтисодий райони // Қизил Ўзбекистон. 1962 йил 13 апрель.

6. Среднеазиатский экономический район. – Москва: Наука, 1972. – С. 55.

7. Юнусова Х. Катта Ўрта Осиё иқтисодий районида Ўзбекистоннинг тутган ўрни.

8. Юнусова Х. Э. Катта Ўрта Осиё иқтисодий райони тарихи. Тарихий тадқиқотлар. 2024. №4 (6). – 180-185 б.

**Турсунметов Азизбек Анварович,**
с.н.с. Национального Центра археологии АН РУЗ

## КОЛОНИАЛЬНАЯ БЮРОКРАТИЯ ТАШКЕНТА В ПЕРИОД ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ. ДЕЛО О БАНКАХ В ЖУРНАЛЕ «ИЗОХ»

**Аннотация.** В предпринимаемом исследовании рассматривается дело, которые обрисовывает восприятие местного населения имперской властью и реакции последних на угрозы своей власти в Туркестанском генерал-губернаторстве. Переписка о банках в журнале «Изох» в 1916 году демонстрируют на первый взгляд реалистичность опасений официальных лиц, в которых апеллирование к настроениям местного населения, обладает набором ориенталистских стереотипов, в которой функционеры стремятся прибегнуть к соблюдению определенных норм мусульманского правового поля, в которой они стремятся утвердить в умах людей этатисткую легитимность.

**Ключевые слова:** ориентализм, Мунаввар Кары, Абдурахман Садыков, журнал «Изох».

В литературе по постколониализму страхи колониальных функционеров оцениваются как не обоснованные панические действия, в основе которых ориенталистские стереотипы и предубеждения в отношении местного мусульманского населения [**1**:316; **2**: 255–304], и хотя эти опасения не всегда были беспочвенными, они не редко принимали утрированные трактовки.

Так, в деле о панисламистском движении в Туркестанском крае ведется разбор о напечатанной статье в журнале «Изох». Оно начинается с докладной записки Военного губернатора Сырдарьинской области, о журнале «Изох» (в тексте «Ислах») от 2 апреля 1916 года. Обзор статьи, в которой говорится о не допустимости мусульманам участвовать в банковских операциях, которая вызвала беспокойство и негодование начальника Сырдарьинской области. В своем беспокойстве он ссылается на коранические предписания, которым не соответствует статья в журнале «Изох», он, тем не менее, резюмирует: **«**Ни на основании действующих законов, ни обязательных постановлений не представляется возможности привлечь редактора к ответственности, дабы понудить его впредь быть осмотрительным в

обсуждении вопросов, имеющих общегосударственное значение, а между тем, оставление без внимания подобного рода статей, несомненно, повысит влияние журнала среди «туземного» населения, как органа правоверного мусульманского миросозерцания и может повесть к самым не желательным последствиям» [**3**:Л.2 об]. В своем рапорте, полицмейстер «туземной» части гор. Ташкента 28 марта 1916 года пишет, что появление статьи произвела сильное впечатление на «туземцев»: «*Так на 20 году* службы в качестве члена учетного комитета Ташкентского отделения Государственного Банка Абду-Мавлянбаев отказывается от этого звания. Коммерсант Вали Хофка Абдумаликов следует его примеру. Конечно, их место займут и более достойные, но я полагаю, что появление такой статьи и в такой момент, когда Родина взывает к патриотизму населения и обращается с воззванием о военном займе, - более чем неуместно и более того – вредно для успеха займа. Сарты за время войны скопили большие суммы денег и держат *их у себя. Возможно, было ожидать от них подписки - но теперь этой подписки не будет, ибо мусульманин не может явно идти против шариата, раз вопрос об этом поднят*[**3**: Л.5]». В конце концов, было принято решение о публикации ответной статьи с привлечением исламских религиозных авторитетов, после чего издание журнала «Ислах» прекратить на все время действия в крае чрезвычайного положения. Примечательно, что среди приводимых доводах о желательности и не греховности обращения к банковским услугам, авторы ответной статьи использовали известные населению примеры о современных им финансовых практиках в Турции, а также исторический экскурс с использованием известных в прошлом религиозных авторитетов и пояснения при каких условиях были допустимы процентные займы.[**3**: Л. 10-11.] Среди других мер – были сами издатели журнала «Изох» Абдурахман сея Садыков и Мунаввар Кары Абдурашидханов, где последнего считали настоящим издателем и генератором идей. Ташкентские функционеры имели самые неблагоприятные на них характеристики, во многом преувеличенные [**3**: 12, 12 об.] Начальник Туркестанского районного охранного отделения полковник Волков ходатайствовал перед Генерал-губернатором о высылке Абдурахмана – Сейяха Садыкова и Мунаввара – Кары Абдурашидханова из пределов Туркестана, как

личностей сомнительной политической благонадежности, враждебно настроенных ко всему русскому и к существующему порядку управления в России [**3**: Л.12 об, 15 об.]. Вопрос безопасности и ожидание высших чинов генерал-губернаторства поддержки со стороны населения в этот сложный военный период, вынуждало власти нервно реагировать на любые признаки не лояльности [**3**: Л.15]. Тем не менее, чинами администрации было решено сделать «внушение» редакторам о недопустимости впредь издавать подобные публикации, под угрозой высылки из края [**3**: Л. 21,21 об]. Допросы Абдурахман Садыкова и Мунаввар Кары Абдурашидханова возможно не убедили полностью администрацию края в их верноподданнических настроениях. Однако, их показания говорят о не желании лезть на рожон, в частности Мунаввар Кары показал, что участия в журнале Ислох не принимал и как учитель новометодной школы не соглашался с мнением журнала «Изох», саму статью не читал, а слышал о ней: «с содержанием этой статьи я не согласен, т.к. и в самом Коране приблизительно сказано следующее «не берите удвоенных (больших) процентов». В том же журнале вовсе нет указаний о банках. Сам Магомет говорил, что даже не разрешенные вещи при наличности нужды могут быть разрешены и почему принимаем во внимание, что теперь без банков коммерческая жизнь не возможна, без чего не могут обойтись и мусульмане, я полагаю, что участие мусульман в банковских операциях не противоречит шариату. Примером тому может служить существование банков в мусульманском государстве – Турции с участием мусульман. Более показать ничего не имею [**3**: Л. 78-79] Допрос Абдурахман Садыкова и вовсе демонстрировал абсолютную лояльность, если судить по тексту, где он признавал себя преданным России человеком и более того долгое время работал по поручениям некоего консула Половцева в Бомбее, отправляясь на задания в разные страны [**3**:Л.82-83 об], причем сами чиновники эти заявления категорически отвергли.

Таким образом, видно, что оценки и восприятие имперской власти лояльности/не лояльности местного населения продиктованы не только акциями отдельных представителей коренного населения, но также желанием видеть в них своих сторонников, позиционируя себя легитимным благодетелем и

отчизной. Здесь можно процитировать известную исследовательницу голландского колониализма на острове Ява - Энн Столер, рассуждающей об одной из особенностей колониального контроля: «с одной точки зрения государства участвуют в контроле за страстями своих поданных и граждан, устанавливая правила и убеждая их в том, что они будут наказаны за нарушения, оставаясь субъектом норм разума и верховенства закона» [**4**:101].

**Список использованной литературы**

**1**.Sahadeo J. Russian Colonial Society in Tashkent. 1865–1923. – Indiana University Press, 2007. – 316 p

**2.**Alexander S. Morrison. Sufism, Pan-Islamism and information panic: Nil Sergeevich Lykoshin and the Aftermath of the Andijan uprising. past & present, no. 214 (february 2012), P. 255–304

**3.** НАУз. И-461, Оп.1.Д. 1784.

**4.** Ann Stoler. Along the archiving grain. Epistemic anxieties and colonial common sense. Princeton University Press, 2009. 316p.

**Sherov Mansur Boltayevich**
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
katta o‘qituvchisi

## TOSHKENT VILOYATI IJTIMOIY – SIYOSIY HAYOTIDA CHIRCHIQ OLIY TANK QO‘MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTINING TUTGAN O‘RNI

Chirchiq oliy tank ko‘mondon muhandislik bilim yurti o‘zining shonli tarixi davomida juda ko‘plab shonliy, tarixiy an’analarga ega bo‘ldi. Uning faoliyati nafaqat harbiy hayot bilan, hususan, Toshkent viloyati Chirchiq shahri bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy yo‘llarni bosib o‘tdi. Bilim yurtining tashkil topishi 1918-yil 16-noyabrda Nijniy Novgorod shahrida tashkil qilingan, Xarkov shahridan 1941-yilning sentabr oyida Chirchiq shahriga ko‘chirilgan bo‘lsa ham, bu shahar bilan mushtarak tarixiy jarayonlarni boshdan o‘tkazgan.

Bilim yurti shaxsiy tarkibi 1941-yil avgust-sentabr oylari davomida Boku va Krasnovodsk, so‘ngra Toshkent shahriga yetib keldi.

Toshkent viloyatidagi Chirchiq shahriga o‘rnashdi. Bilim yurti shaxsiy tarkibi ko‘chish qiyinchiliklariga qaramasdan, bir daqiqa ham o‘quv mashg‘ulotlarini to‘xtatmadi. Mashg‘ulotlar vokzallar, dalalar va

vagonlarda ham olib borildi. 1941-yil 15-noyabr Xarkov tank bilim yurti 2535 kursant, 221 qizil askar, 203 kichik komandirlar, 310 o‘rta va katta qo‘mondonlar tarkibi bilan Chirchiq shahriga kelib joylashdi. Chirchiq aholisi evakuatsiya qilinganlarni quchoq ochib kutib oldi. Bilim yurti shaxsiy tarkibini joylashtirishda mahalliy aholi katta yordam berdi. Turkiston hududi Chor Rossiyasi tarkibiga kirgan davrda chorizm siyosatiga qarshi 1912-yilda bosh ko‘targan Sapyorlar joylashgan hududga bilim yurti kelib joylashdi.

Kursantlar uchun yotoqxonalarning yetmasligi va dars xonalarining yo‘qligi o‘quv jarayonini to‘xtatib qo‘ygani yo‘q. Mashg‘ulotlar dala sharoitida olib borilib, kursantlar chodirlarda kun kechirdilar. Chirchiq shahri axolisi harbiylarni quchoq ochib kutib oldi hamda oziq-ovqat va xo‘jalik uchun kerakli jixozlar bilan ta’minlab turdi. Bilim yurtida komandir-tankchilarni tayyorlash bilan birgalikda, milliy jangovar qo‘shilmalari uchun siyosiy rahbarlarini tayyorlovchi 30 kunlik kurslar ham tashkil qilindi. O‘zbekistonda urush yillari tashkil qilingan 14 ta milliy qo‘shinlar tuzilmalarini siyosiy rahbarlari (asosan millatlari o‘zbek bo‘lgan) bilim yurtida ochilgan qisqa kurslarda tayyorlanib, frontga jo‘natilgan. 1942-yilning yanvar oyigacha O‘zbekiston hukumati yo‘llanmasi bilan bu kurslarni 200 dan ortiq yetakchilar tamomladilar va ular frontda jang qilayotgan O‘zbekistonda tuzilgan milliy kovaleriya diviziyalari va o‘qchi batalyonlariga borib qo‘shildilar.

Ikkinchi jahon urushi yillari frontlarida bilim yurti bitiruvchilaridan 78 kishi sobiq SSSR ning eng yuqori Sovet Ittifoqi qahramoni unvoni bilan mukofotlandilar. 1941-1945 yillar Ikkinchi jahon urushi davomida bilim yurti har-xil qiyinchilik, ocharchiliklarga qaramasdan, front uchun yuqori malakali, vataniga sadoqatli tankchi-ofitser kadrlar yetkazib berish vazifasini a’lo darajada bajardi. Qurolli Kuchlarga bilim yurti 7 mingdan ziyod tankchi-ofitserlar yetkazib berdi. Ular janggoxlarda nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashda yuqori qahramonlik natijalarini ko‘rsatib, bilim yurti jangovar an’analarini boyitishga xizmat qildi.

O‘zbek xalqining sodiq farzandlari Mirsolih Miragzamov va Shavkat Umarovlar urush yillari frontdan to‘g‘ri bilim yurtiga tahsil olish uchun yuborilgan edilar. Mirsolix Miragzamov urush boshlanmasdan avval tank harbiy qismlarida xizmatini o‘tayotgan edi. Urushning dastlabki kunlaridanoq Mirsolix urushning alamini, azob-uqubati va kulfatlar

keltirishini tushunib yetdi. Mirsolix Miragzamov nemis-fashist bosqinchilaridan Kalach shahrini ozod etishda hamda Stalingrad jangida va boshqa hududlarni ozod etishda ishtirok etdi.

Endigina 18 bahorni qarshilagan Shavkat Umarov koʻpgina Oʻzbekistonliklar qatori koʻngillilardan tuzilgan harbiy qismlar bilan frontga otlandi. Birinchi jangni Shavkat 1941-yilda oʻz koʻzi bilan koʻrdi, jangda u oʻzini jasur matonatli gvardiyachi-razvedkachi sifatida namoyon qildi. Maxsus topshiriqlarni namunali bajara olganligi sababli, Shavkat Umarov uch marotaba Jangovar Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlangan edi.

Bilim yurti shaxsiy tarkibida ajoyib an'ana shakllandiki bu ular joylashgan shaharni obodonchiligiga va rivojlanishiga oʻz xissalarini qoʻshar edilar.

1945-yilning may oyida kursantlar harakatlari bilan Chirchiq shahrida 4,5 ming daraxt ekilgan istirohat bogʻining ochilishi amalga oshirildi, shu bilan birga bilim yurtida 1300 oʻrinli tomosha zali va ofitserlar klubi ochildi. Shu tarzda urushning suronli yillari oʻtib bordi, har bir kun bilim yurtining jangovar shavkatini ulugʻlovchi qahramonliklarga boy boʻldi. Urush yillari bilim yurti buyuk gʻalabaga salmoqli oʻz hissasini qoʻshdi bu dargohni 7 ming ofitser-tankchi bitirib chiqib, yer yuzini fashizm balosidan tozaladi, lekin gʻalabaga erishishdagi ogʻir yoʻlda koʻplab farzandlaridan judo boʻldi.

Urushdan keyingi yillarda bilim yurti shaxsiy tarkibi Chirchiq shahrining ijtimoiy-iqtisodiy xayotida muhim rol oʻynay boshladi. Hasharlar, muxum strategik obyektlarni qoʻriqlash, katta qurulishlarda ishtirok etib, shaharning ajralmas qismiga aylandi. Shu bilan birga, Chirchiq shahrida xarbiy qism va boʻlinmalarning koʻpayishi Chirchiq harbiy gornizonini shakllantirdi. Bir soʻz bilan qilib aytganda, Chirchiq harbiylar shahriga aylanib bordi.

1966-yildan boshlab Toshkent tank bilim yurti hayotida yangi davr boshlandi. Bilim yurtiga Oliy oʻquv yurti maqomi berilib, oʻqish muddati 4 yilga uzaytirildi. Chirchiq shahridagi yagona oliy ta'lim muassasi sifatida faoliyat olib bordi.

Bilim yurti shaxsiy tarkibi tashabbusiga koʻra Chirchiq shahri aholisi bilan hamkorlikda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga ham yaqindan yordam berib turildi.

Bilim yurti yoshlar tashkiloti tashabbusi bilan 1965-yili Chirchiq shahrida joylashgan 4 ta maktab olindi. Otaliqqa olinayotgan maktablar soni oshib borib, 1968-yilga kelib ularning soni 12 taga yetdi. Bilim yurti ofitserlari va kursantlari yordamida shahar yoshlarni harbiy vatanparvarlik to‘garaklariga jalb qilindi, ulardan 16 tasi tankchilarni yosh do‘stlari va armiyaning yosh do‘stlari hamda 17 ta harbiy-texnik to‘garaklar tashkil etar edi. Bilim yurti yoshlar tashkiloti maktablarda o‘tkaziladigan harbiy-vatanparvarlik o‘yinlariga va sayohatlarga xomiylik qilar edilar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bilim yurtining jangovar shon-sharaf muzeyi katta ishlarni amalga oshirdi. 1973-yili Sovet Armiyasining tashkil topganligining 55 yilligi munosabati bilan muzey qayta jihozlandi. Muzey ekspozitsiyalari ko‘payib, undagi stendlar bilim yurtining qahramonliklarga boy o‘tmishidan hikoya qilish bilan birga, bilim yurtining bugungi kunini ham o‘zida aks ettirganligi bilan muzeyga tashrif buyurganlarning e’tiborini o‘ziga jalb qiladi.

Kursantlar va bilim yurti rahbariyati sayi-harakatlari hamda Turkiston harbiy okrugi qo‘mondonligi yordamida P.S.Ribalko nomidagi Toshkent Oliy Tank-qo‘mondonlik bilim yurti Chirchiq shahrining eng go‘zal go‘shasiga aylandi.

Bilim yurti shaxsiy tarkibi 1980-yil Chirchiq shahridagi eng katta sanoat korxonasi xisoblangan elektrokimyo kombinatida yuz bergan texnogen avariyani bartaraf etish ishlarida faol qatnashib, mahalli axoliga yaqindan yordam bergan.

1988-1989 yillari Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida yuz bergan tabiiy ofat, aholi yashash joylarini sel yuvishi ofatlarini bartaraf etishda bilim yurti shaxsiy tarkibi faol ishtirok etidi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq boshlangan Milliy armiyamizni barpo etishdagi katta ishlarning mantiqiy yakuni 1992-yil 14 yanvaridagi mamlakatimiz xududidagi barcha harbiy qismlar va muassasalarni O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror bo‘ldi. Shu davrdan boshlab bilim yurtining hayotida yangi tarixiy sahifalar ochildi.

1993-yilda bilim yurtiga **CHIRCHIQ OLIY TANK QO‘MONDON-MUHANDISLIK BILIM YURTI** nomi berildi.

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lida ildamlab borayotgan mustaqil O‘zbekiston tarixan juda qisqa davrda ulkan

yutuqlarga erishdi va erishmoqda. Milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimiz tiklandi, milliy o'zligimizga qaytdik. Tinchlik va barqarorlik kundalik hayotimizning uzviy qismiga aylandi.

Ayni paytda, osuda hayotimizni izdan chiqarishga urinayotgan yovuz kuchlarning mavjudligini ham qayd etish lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tinchlikni asrash, uni asrab-avaylash bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yurtimizga nisbatan qaratilgan bunday tahdidlar, avvalo, aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilik kabi hodisalar ko'rinishida namoyon bo'lmaqda. So'nggi yillarda dunyodagi turli davlatlar, xalqlar, millatlar va dinlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish niyatida dindan mafkuraviy vositalar sifatida foydalanilmoqda.

1999-2000 yillardagi Farg'ona, Surxondaryo, Toshkent viloyatidagi bir guruh xalqaro terrorizm va ekstremizm gumashtalarining mamlakatimiz hududiga qurolli hujumlarini bartaraf etishdagi jangovar operatsiyalarda bilim yurti shaxsiy tarkibi ham ishtirok etdi. Unda bilim yurti kursantlaridan I.M.Nishonov, F.T.Qaxxorov, N.U.Po'latov va boshqalar qatnashib, mardlik namunalarini ko'rsatganliklari uchun ham O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti farmoni bilan "Jasorat" medallari bilan mukofotlandilar.

Mamlakatimiz xavfsizligiga, aholimiz tinch va osoyishta xayotiga xar xil xalqaro terrorchi guruxlar tahdid solayotgan 1999-2001 yillari Chirchiq bilim yurti shaxsiy tarkibi Toshkent viloyati hududida joylashgan strategik va yirik sanoat korxonalarini xavfsizligini taminlash ishlarida kamarbasta bo'ldilar. Xususan, bilim yurti shaxsiy tarkibi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida Chorvoq suv omborida xavfsizligini taminlash ishlarini olib bordilar.

Shu kunlarda Chirchiq oliy tank qo'mondon muhandislik bilim yurti o'zining eng yaqin oliy o'quv yurti bo'lgan Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'quv dargoxlari bilan yaqindan xamkorlik qilish bo'yicha memorandumlar imzolab, keng qamrovli ishlar olib bormoqda.

Chirchiq oliy tank ko'mondon muhandislik bilim yurti Chirchiq shahrini ramziga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Nafaqat O'zbekistonda, butun mustaqil davlatlar xamdo'stligi mamlakatlarida ham bu shaharni nomini to'g'ridan-to'g'ri bilim yurti nomi bilan ataydilar. Bilim yurti shaxsiy tarkibi mamlakatimiz Prezidenti, Quroli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning "Amalga oshirayotgan sa'y-

harakatlarimiz, armiya va xalqning faol hamkorligi natijasida Qurolli Kuchlarimiz tom ma'noda jamiyatning ajralmas qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylanib bormoqda",- degan so'zlariga munosib bo'lish uchun sidqidildan harakat qilmoqdalar.

Kelgusida bu keng qamrovli xamkorlik ishlari bundanda rivoj topib, mamlakatimiz tarixida yangi O'zbekistonni barpo etishda kamarbasta bo'ladi degan umiddaman.

**Нодира Холикова**
ЧДПУ Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти, ф.ф.д.

## СИДҚИЙ ХОНДАЙЛИҚИЙНИНГ "РУСИЯ ИНҚЛОБИ" ДОСТОНИДА ИЖТИМОИЙ-МАЪРИФИЙ МАЗМУН ВА АДАБИЙ-ЭСТЕТИК ХОССАЛАР

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада Сидқий Хондайлиқийнинг "Русия инқилоби" достони мисолида XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-сиёсий вазият, ижодкорнинг 1916-1917 йил воқеаларига муносабати таҳлилга тортилган. Асардаги тарихий шахслар ва ижодкорнинг адабий-эстетик идеали орасидаги тафовутлар, чор подшоси хонадонидаги маънавий-ахлоқий муҳит, жадидлар кўзлаган мақсад ва чоризм сиёсати, хотин-қизларнинг озодлик учун бош кўтариши ва мардикорликка қарши қўзғолон асоратлари каби тарихий жараёнларнинг бадиий инъикоси тадқиқ этилган.*

***Калит сўзлар:*** *инқилоб эйфорияси, Николай фармони, Распутин, экстрасенс, мақбул қурбонлар, пафос.*

Сирожиддин Сидқий Хондайлиқий[4] (1884-1934) ижодининг ўзига хос жиҳати шундаки, у замонавий ижтимоий мавзуни анъанавий жанрларда маҳорат билан ифодалади. Сидқий адабиётимиз тарихида биринчилардан бўлиб, миллий ва ижтимоий озодлик кураши воқеаларини кенг кўламда тасвирловчи "Русия инқилоби" асарини яратди.

Достонда 1917 йилги Февраль инқилоби ва у билан боғлиқ воқеалар изчил акс этгани боис бу асар жанр эътиборига кўра лиро-

[4] Сидқий, шунингдек, Шавкат, Шеван, Искандар, Шавкат Искандарий, Шуун каби тахаллуслар билан ҳам ижод қилган.

эпик хроника, деб эътироф этилган[5]. Дарҳақиқат, бу фикрни достон бобларининг номланиши ҳам тасдиқлайди. Достон “Сабаби назми инқилоб”, “Петроградда воқеалар нечук бошланди ва не равишда ўсди?”, “Вазирларнинг қамалуви. Прўтапўпўф”, “Подшоҳнинг тахтдан тушуви”, “Янги подшоҳ”, “Янги Русия – янги ҳаёт”, “Улуғ кеноз Михаил Александрович тахтни қабул этмади”, “Мақбул қурбонлар”, “Распутин ила махлуъ подшоҳ хоними”, “Дин душмани – мисйўнерлар фирқасининг бадомоли”, “Тафриқалар кўтарилуви”, “Хоин, золим, қароқчи эски амалдорлардин фарёд ва тазаллум”, “Шўройи исломияға тарғиб, илмға ташвиқ, жаҳолатдан таҳзир”, “Иттифоқ замони”[6] каби боблардан ташкил топган.

Сидқийнинг “Русия инқилоби” достони 1917 йилда – мардикорлар ўз юртига қайтган, “эски ҳукумат” ағдарилган, муваққат “янги ҳукумат” ўрнатилган, Февраль инқилоби юз берган ва Октябрь тўнтариши содир бўлиши арафасида ёзилган эди. Уруш бошланган кезлари ватанпарварлик ғояси кўпчилик аҳолини ҳукумат билан яқинлаштирган бўлса, 1917 йилга келиб ватанпарварлик туйғуси ҳукумат билан халқ ўртасида “конфронтация” (қарама-қаршилик, адоват)нинг кучайишига олиб келди ва халқ, энди мамлакатни подшо эмас, инқилоб қутқариб қолишига ишонган эди.

1917 йилнинг баҳорида миллионлаб россияликлар ва мустамлака халқларни чулғаб олган “инқилоб эйфорияси” муайян вақтгача давом этди[7]. Сидқий ҳам бошқа ижодкорлар сингари жамиятдаги ўзгаришларни, сиёсий воқеа-ҳодисаларни англаб етишда ва уларга муносабат билдиришда айрим чалкашликларга йўл қўйган. Баъзида таъқибларга ҳам учраган[8]. Ҳар қандай таъқиб ва тазйиқлардан қатъи назар, шоир халқнинг дарди билан яшаб ижод этди.

Сидқий “Русия инқилоби” достонига 1917 йил Февраль инқилоби воқеаларини асос қилиб олар экан, ундаги алоҳида бобни

---

[5] Раҳимжонов Н. Лирик ва эпик ифода мутаносиблиги / Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 1-жилд. Эпос. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 205.

[6] سراج الدين مخدوم صدقى. روسيه انقلابى - تاشكند: رونق كتبخانه سى ، ١٩١٧ - صحيفه ١-٤٨

(“Русия инқилоби” достонидан олинган иқтибосларнинг саҳифаси бундан кейин қавс ичида “Р.и.” ҳарфлари билан кўрсатилади)

[7] Қаранг: Мировые войны XX века. Книга 1. Первая мировая война. – М.: Наука, 2002. – С. 382; 386.

[8] Қаранг: Асилов А. Шоир Сидқий Хондайлиқий ҳаётидан лавҳалар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1979. - № 6. – Б. 231.

“Мақбул қурбонлар”[9] деб атади. Бу боб, нафақат, Тошкент, балки бутун Ўрта Осиё ва, ҳатто Россия ҳудудидаги халқ ғалаёнлари тасвирини ўз ичига олади. Адибнинг бобни “Мақбул қурбонлар” деб аташига асос кўп эди. Худди шу мавзуда Мунавварқори мақола ёзган. Бизнингча, Сидқий Мунавварқорининг “Мақбул қурбонлар” мақоласини қўллаб-қувватлаб, шу мавзуда бадиий асар яратган[10]. 1916 йил воқеаларида Мунавварқори каби жадидларнинг ғоявий раҳнамолиги, амалий фаолияти ўзига хос аҳамиятга эга. Жадидлар билан яқин алоқада бўлган Мўминжон Тошқин “Турмуш уринишлари” китобида 1916 йил воқеалари хусусида фикр юритар экан, бундай ёзади: “Сўнгра Туркистоннинг ҳар ерида работчиға жўнатиш комитетлари тузилди, шул комитетларнинг бошлиғи, Тошкентда Убайдуллахўжа ва унинг муовини Мунавварқори бўлғон эди”[11].

Халқнинг аскарликка эмас, мардикорликка олинишини аждодларимиз ҳақорат дея қабул қилгани ҳақиқатга яқиндир. Бироқ Туркистон халқи ўша пайтда аскарликка тайёр эмас эди. Туркистон жадидчилиги раҳнамоси Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳам бу борада фикр билдириб, бундай деган: “...то халқ ўрганиб, бир оз аҳвол ўзгаргунча умумий аскар олинмай, кўнгилли тариқинда тарғиб ва ташвиқ билан ҳам халқнинг аҳволига қараб олинса эди”[12]. Чорасиз вазиятда қолган жадидлар юртдошларимизни мардикорликка сафарбарликка даъват этар экан, улар бир неча мақсадларни кўзда тутган эдилар. Жумладан, мардикорлик даврида юртдошларимизнинг, аввало, бошқа миллатларнинг ишчи батальони, турли партиялари билан танишиш, фронт ортида ҳарбий тайёргарлик кўриш ҳамда ҳарбий саводхонлигини ошириш имконияти бўлиши мумкин эди. Заки Валидийинг таъкидлашича, “...миллатимиз русларнинг туркистонликлардан аскар олмаслигини ўзларига “оқ подшоҳнинг буюк иноятi” ва “берган имтиёзлари”, деб талқин қилган. Лекин 1916 йилда ва инқилоб даврида Туркистоннинг бошига келган

[9] سراج الدين مخدوم صدقى. روسيه انقلابى - تاشكند: رونق كتبخانه سى ، ١٩١٧ - صحيفه ٢٤-١٨

[10] Бундай тахмин қилинишига сабаб шуки, иккала асар ҳам бир вақтда нашр қилинган. Сидқийнинг “Русия инқилоби” достони 1917 йилнинг март ойида “Равнақ” матбаасида чоп этилган бўлса, Мунавварқорининг “Мақбул қурбонлар” мақоласи 1917 йил 26 мартда “Нажот” газетасида эълон қилинган.

[11] مؤمن جان تاشقن. تورمش ٔورينشله رى – سمرقند تاشكند ، ١٩٢٦. – صحيفه ٣١١

[12] Беҳбудий М. Ғалла, аскарлик, ер ва тазминоти ҳарбия // Меҳнаткашлар товуши. – Самарқанд, 1918, 2-август.

балоларга, очликка ва русларнинг тажовузига қарши муқобиллик мажбуриятини ҳис қилган миллат (аввало, жадидлар – Х.Н.) қурол ишлатиш ва аскарликнинг бутун бир асрий тажрибасини ўрганиш лозимлигини тушуниб етди”[13]. Содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар “замонавий ҳарб усули”ни ўрганишни тақозо этар эди. Адабиётшунос Н.Каримов тўғри таъкидлаганидек: “Чор ҳокимиятининг немислар билан урушда ҳоли танг келиб қолганини кўрган жадидлар яқин йиллар орасида мустақиллик учун ҳаракат бошланиши мумкинлигини сезиб, Биринчи жаҳон уруши фронтларида бўлажак ўзбек миллий қўшинини яратишни орзу қилганлар. Улар мўлжалига кўра, қурол-яроғ билан муомала қилишни ўрганган ўзбеклар яқин вақт ичида миллий инқилобни амалга ошириши мумкин эди”[14]. Дарҳақиқат, бундай имконият туркистонликлар учун 1916 йилда пайдо бўлган эди. Биринчи жаҳон уруши даврида “мағлубиятга учраш ва бутун дунё олдида шармандаи шармисор бўлиш хавфи “оқ подшо”ни 1916 йили нафақат мусулмон ўлкаларидаги 19 ёшдан 43 ёшгача бўлган эркакларни мардикорликка олишга мажбур этди, балки Марказий Россиядаги олий ўқув юртларида таҳсил кўраётган мусулмон талабаларнинг ҳам ҳарбий хизматга чақирилишига сабаб бўлди. 1916 йил июлида учинчи курс талабаси Назир Тўрақулов ҳам Минск бўсағасидаги ғарбий фронтга йўриқчи сифатида сафарбар этилди”[15]. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, аслида фронт орти ишларига сафарбар этилган туркистонликлар (4 минг киши) уруш майдонига жўнатилгани, уларнинг кўпчилиги немис аскарлари томонидан ўлдирилгани ҳақида маълумотлар учрайди[16]. Жадид зиёлилари кўзлаган мақсадлар қанчалар амалга ошган ёки ошмаганига тарих гувоҳдир.

Тарихдан аёнки, ҳуррият ва озодликка ҳеч қачон қурбонсиз эришилмаган. Ҳоким мутега озодликни ҳеч қачон ўз ихтиёри билан қўшқўллаб топширмаган. У фақат куч билан, қон билангина олинган. Сидқий ушбу тарихий ҳақиқатни “Мақбул қурбонлар”да қуйидагича ифодалайди:

[13] Қаранг: A.Zeki Velidî Togan. Bugünkü türkili (Türkistan) ve yakın tarihi. Cilt I. Batı ve Kuzey Türkistan. – Istanbul – 1981. – S. 579.
[14] Каримов Н. Жадидлар 1916 йилда // Миллий тикланиш, 1998, 22 сентябрь.
[15] Каримов Н. Атоқли журналист ва дипломат // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2005. - № 2. – Б. 114.
[16] Бу ҳақда қаранг: Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви материаллари. Фонд № 461, рўйхат № 1, йиғма жилд № 919. Сведения по панисламизму.

*Ҳуррият олинмади қурбонсизин*
*Ки тарихларнинг сўзидир чунин.*
*Қачонким ҳурриятдин ўлса нишон,*
*Билинг олдилар тўкушуб неча қон. (Р.и. 18-19)*

Асарни ўқир эканмиз, кўз ўнгимизда жаллодлар тиғидан қон томган, озодлик, ҳуррият талаб қилганларнинг "аёғига кишан, қўлларига занжир урилган, Сибирга сургун" қилинган оғир бир давр, кесилган бошлар, ҳасратда хун бўлган ёшлар, зиндонларда тани чириган файласуфлар, озодлик учун кўксини ўққа нишон қилган қаҳрамонлар гавдаланади. Ниҳоят, туркистонликларнинг ҳам ҳуррият талаб қилиб майдонга чиқадиган вақти келди. Халқимиз "эски ҳукумат шоҳи"нинг олий фармони чиққан кундан бошлаб ҳурриятчилар сафига қўшилди.

*Баногоҳ эски ҳукумат шаҳи*
*Бу ён золимона жафо айлади.*
*Ки фармони оли(й) син эълон этиб,*
*Халойиқни хор этти сарсон этиб.*
*Етиб зулм ислом элин жониға,*
*Қўшулди ҳурриятчилар сониға. (Р.и. 20)*

1916 йил 25 июнь куни подшо эълон қилган фармон ҳеч қандай «қолип»га сиғмас эди. Подшо ҳукумати маҳаллий халқни аскарликка олишга ҳақли бўлмаган. Чунки ўртада 50 йил давомида туркистонликларни ҳарбий сафарбар этмаслик ҳақида битим имзоланган эди. Иккинчидан, чоризм ерли халқнинг ҳарбий салоҳиятини оширишдан эмас, фронт ортидаги оғир, машаққатли ишларни бажаришидан манфаатдор эди. Фармонда мардикорларнинг қайтиб келиш муҳлати ҳам, адади ҳам кўрсатилмагани бунинг исботидир:

*На фармонда бор мардикорға адад,*
*На одамни ҳозирламоқлиққа ҳад.*
*На бор эрди фармон аро муҳлати,*
*На бор эрди анда ҳақи, хидмати.*
*"Фрўнт орқасида фақат ўр қазур",*
*Дебон олди хидматчини зўр базўр. (Р.и. 20)*

Мардикорликка олиш ҳақидаги подшо фармони қарийб ярим аср мобайнида таҳқирланиб келган, мустамлака кишанлари исканжасида, тинимсиз меҳнат, очлик, қашшоқлик азобида эзилган

халқнинг қўзғолон кўтаришига сабаб бўлди. Бу озодлик ҳаракати халқнинг қудратини, унинг нималарга қодир эканини намойиш этди. 1916 йилги миллий озодлик ҳаракатининг муҳим томони шундаки, унда бош кўтарган омма, аввало, ўзбек аёллари эди. Тошкент қўзғолонини ўз кўзи билан кўрган Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек ўша кунларни хотирлаб, «Болалик»да жўраси Турғуннинг қуйидаги сўзларини келтиради: "...Лекин хотинлар бўш келмади. Иккита аёлга ўқ тегиб, қонга беланиб қолишди. Ҳа, ўзим аниқ кўрдим. Халқ мажақланди, кўплари отларнинг туёқлари остида майиб бўлди. Ўққа учганлар озмунчами!.."[17] Дарҳақиқат, озмунча одам қурбон бўлмаган.

Зулму ситам пичоғи мазлум халқнинг суягига бориб қадалган эди. 1916 йили кўтарилган қўзғолон қай тарзда якун топишидан қатъи назар, содир бўлиши муқаррар эди. Аммо мустабид ҳукумат мустамлака халқнинг ўз эркини қўлга киритишига қарши барча "чора"ларни кўрди. Сиёсий ва марказлашган раҳбарликсиз бошланиб, тарқоқ, аммо оммавий тарзда кечган бу қўзғолон кучлар нисбати тенг бўлмагани сабабли шафқатсизлик билан бостирилди. 17 июль куни жазо отряди командири полковник Иванов бутун Жиззах уезди қўзғолончиларига қарши аёвсиз юриш эълон қилди. 18 июль куни эски шаҳар бутунлай қўлга олинди. Ҳарбийлар эски Жиззахга ўт қўйиб, ер билан яксон қилдилар[18].

*Совурди Жиз(з)ахни кулин кўк сари,*
*Кабоб ўлди ул ўтда ёшу қари. (Р.и. 22)*

Қўзғолончилар шу қадар қийин аҳволга тушишига қарамай, куч тўплаб, босқинчи қўшинларга қарши ҳужумни давом эттирадилар. 21 июль куни Қили[19] ёнидаги жанг босқинчиларга қарши сўнгги жанг бўлди[20]. Ҳамид Олимжоннинг онаси Комила ая хотираларида келтиришича, уларнинг оиласи Қилига бадарға этилган: "Бизни олиб бориб ташлаган жойлари сувсиз, экинсиз ер эди, "Қили" деб атар эдик"[21]. Жиззахликлар ўн кун давомида ўша ерда кун кечиришган. Ёзувчи Назир Сафаров "Кўрган-

[17] Ойбек. Болалик хотираларим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 168.
[18] Қаранг: Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 424.
[19] Қили – Жиззахдаги чўл номи. Ҳозирда бу чўл ерлари ўзлаштирилган.
[20] Кўрсатилган манба. – Б. 424.
[21] Азимов С. Абадият. Сайланма. 2 томлик. – Тошкент: Адабиёт васанъат, 1988. Т. 2. – Б. 41-42.

кечирганларим”ида ҳам шу фактни келтириб ўтади: “Каппон саҳнида (ҳамма жиззахликлар аввал шу ерга ҳайдалган) тўлғоқ тутиб, кўзи ёриган аёллар ҳам бўлган экан. Аммо чор маъмурлари ҳатто “киндик кесишга” ҳам рухсат беришмаган. Шундан сўнг “Тошкент частидаги фуқаро” Қили чўлига, “Ўратепалик частидаги фуқаро” Ўратепа чўлига бадарға қилиниши ҳақида ҳукм ўқилган. Ҳамма ҳайдалган. “Бошпанасиз бу чўлу биёбонда қандай кун кечирамиз?”[22] – деган саволни одамлар бир-бирига бериб қолаверишган.

Жиззах қўзғолони иштирокчиси Тўра Норбоев ҳарбийларнинг ваҳшиёна ҳаракатларини қуйидагича ҳикоя қилади: “Ўликларни йиғиб кўмиш учун кечаси чакалак ва қамишзорларни ахтардик. Бир хотин ўлиб ётибди. Унинг эмизикли боласи бор экан. Бола йиғлаб тирмашиб, онасини эмарди. Болани олиб қарасак, ўнг билагига ўқ тегиб, суягини мажақлаб кетибди. Болани кейин табиблар тузатди. Оти Хонимқул Норбой ўғли, Жиззах туманининг Навоий номли жамоа хўжалигида ишлайди. Қулоғи гаранг, тили чучук, ўнг қўли ишга яроқсиз, жамоа хўжалигида подачилик қилади” (1996 йил маълумоти)[23]. Дарҳақиқат, машъум воқеа не-не инсонларнинг тақдирида “доғ” қолдирмаган, дейсиз.

Сидқий достонида ҳам айни шу воқеалар тасвири ўз ифодасини топган.

*На уйларда қолди хотун бирла қиз,*
*Аларға ҳазорон сойилди бигиз.*
*Ўпоқлар била чолу кампирлар*
*Отилди, чопилди ҳама сарбасар. (Р.и. 22)*

Ушбу воқеаларга гувоҳ бўлганларнинг хотираларида таъкидланишича, устма-уст қилинган ваҳшийликлари етмаганидек, чор ҳукумати аскарлари халқнинг рўзғор ашёларигача талаб, энг қимматли ипак сўзаналарини, атлас ва шоҳи кўрпаларини отларининг устига ёпиб кетган. Аслида, “Мардикорлар қўзғолони” деб аталмиш 1916 йилги миллий озодлик ҳаракатида қурбонлар жуда кўп бўлган. Манбаларда қайд этилишича, ҳалок бўлганлар сони миллиондан ошган. Туркистон аҳолисидан 673 минг киши ўлдирилган, 300 мингдан ортиқ аҳоли хорижга чиқиб кетган, 1

[22] Сафаров Н. Кўрган-кечирганларим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968. – Б. 191.
[23] Ҳайдаров Ҳ. Жиззах вилояти тарихи. – Тошкент: Меҳнат, 1996. – Б. 94.

миллион кишининг мол-мулки талон-тарож қилинган, аҳолидаги отларнинг 50 фоизи, қўй ва эчкиларниг 50 фоизи ўлган ва мусодара қилинган[24]. Бу қурбонлар ҳақида Сидқий "Русия инқилоби" достонида бундай ёзади:

*Худо даргоҳида бу қурбон ҳама*
*Ки мақбул бўлмишдур, эй жон, ҳама. (Р.и. 23)*

Шоир таъкидлаганидек, ҳуррият учун берилган қурбонлар Худо даргоҳида мақбул бўлмиш, яъни улар "мақбул қурбонлар". Мунаввaрқори Абдурашидхоновнинг қуйидаги сўзлари ҳам буни тасдиқлайди: "Алҳосил, Туркистон мусулмонлари зулм панжасининг остида шул қадар эзилдилар ва ҳуррият, ҳуқуқ йўлида шул қадар кўп қурбон бердиларки, бир-икки ой ичида бошқа миллатларнинг 145 йил ичида берган қурбонларига қувлаб етишдилар. Мана бу қурбонлар жаноби Ҳақ даргоҳида энг мақбул қурбонлар бўлди..."[25]

Шунча қурбонлар, шунча ваҳшийликлардан сўнг ҳам халқимиз мустабид ҳукумат тазйиқидан қутула олмади. Чунки қўзғолон бостирилгач, минглаб кишилар осилиб, қамалиб, бадарға қилинди, мардикорликка сафарбарлик ишлари амалга оширилди.

Сидқий Хондайлиқийнинг "Русия инқилоби" достонида ўндан зиёд мустамлакачи номи қайд қилинган. Хусусан, Прўтапўпўф, Добровольский, Мақореф, Сухўмлинеф, кеноз Шаховски, Михаил Александрўвич, Распутин ва Астрамуф шулар жумласидандир. "Мақбул қурбонлар"да эса шоир Колкин, Калисникўф, Мачалўф, Иванўф каби чор ҳарбийларининг ёвузликларидан сўз очиб, уларни лаънатлайди. Шу ўринда "Русия инқилоби"даги образлардан бири Распутин ва унинг прототипи ҳақида фикр юритиш зарурати туғилади.

Распутин, аслида, саводсиз, бироқ экстрасенс қобилиятига эга, шунингдек, халқ табобатидан хабардор шахс эди. Бундай қобилият қария учун шаҳзода Алексейнинг тузалмас гемофилиясини енгиллатишда жуда қўл келган ва унинг подшо хонадонидаги мавқеини сақлаб турган. Распутинни "авлиё шайтон" (святой чёрт)

[24] Қаранг: Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 425.

[25] Мунаввaрқори Абдурашидхонов. Мақбул қурбонлар // Нажот. – Тошкент, 1917, 26 март. Мунаввaрқори Абдурашидхоновнинг "Мақбул қурбонлар" мақоласи Сидқийнинг "Мақбул қурбонлар"и билан моҳиятан уйғун. Мақолада ҳам, достонда ҳам бизга таниш бўлган воқеа тасвирланади.

деб аташган[26]. Унинг яна бир “ажойиб фазилати” аёлларни ўзига ром қила олиши эди[27]. Распутин иккинчи Николайнинг хотинини ҳам, эҳтимол, сеҳрлагандир. Распутин ўлдирилгач[28], унинг уйидан бир неча сурат ва хатлар топилади. Бу хатлар ичида иккинчи Николай хотинининг Распутинга ёзган ишқий номалари ҳам бор эди:

*Ки хат ичра дебдурки, “Эй Распутин!*
*Манга энг биринчи керак нарса – сен!*
*Менинг жисму жоним хаёлингдадур,*
*Хаёлим ҳамиша висолингдадур.*
*Ўпарман сени борибон зудроқ,*
*Ўшал дамда хандон ўлуб манга боқ!..” (Р.и. 26)*

Бутун Россия ихлос қўйиб ишонган подшонинг хос хонадонидаки шундай фаҳш ишлар оддий ҳолга айланган бўлса, қолганлардан нимани кутиш мумкин? Сидқий келтирган ишқий мактублар ҳақидаги маълумот француз элчиси Морис Палеолог[29]да ҳам учрайди[30]. Чиндан ҳам, катта бир империя, чор тузуми ич-ичидан зил кетган, чириган, ахлоқий-маънавий инқирозга юз тутган эди[31]. Кўпчилик учун яхши таниш бўлган “Кеча ва кундуз” романида ҳам нойиб тўра Мирёқуб билан бўлган суҳбатда империянинг “чириб” , ичдан емирилаётгани ҳақида сўз очади: “... бу буюк империя даҳшатли тўлқинлар ичида зулматга, белгисизликка, йўқликка қараб кетаётир”[32]. Ахлоқнинг бу қадар тубанлашуви, шубҳасиз, ёмон оқибатга олиб келиши муқаррар эди. Распутин ўлимидан сўнг “хоним” эл-халқ олдида шармисор бўлиб, ёзган ишқий номаларини газеталарда ўқиш “бахти”га муяссар бўлади. Шуни таъкидлаш лозимки, бу ҳодиса “Русия инқилоби” достонида бутун мураккаблиги, зиддиятлари билан бадиий реалистик талқин этилган.

---

[26] Қаранг: Мировые войны XX века. Книга 1. Первая мировая война. – М.: Наука, 2002. – С. 378.
[27] Бу ҳақда қаранг: Радзинский Э. Распутин... // Аргументы и факты. – М., 2003. - № 44. – С. 26.
[28] Қаранг: Мировые войны XX века. Книга 1. Первая мировая война. – М.: Наука, 2002. – С. 381; Керенский А.Ф. Царская семья и временное правительство. – Махачкала: Дагестанское кн. изд-во, 1991. – С. 9.
[29] Палеолог Морис Жорж (1893-1944) – француз дипломати. 1893-1907 йилларда Марокаш, Италия ва Хитойнинг Франция дипломатик ваколатхоналарида фаолият кўрсатган. 1914-1917 йилларда Франциянинг Россиядаги элчиси. Биринчи жаҳон урушида Россиянинг ҳарбий кучи максимал даражада фаоллашуви учун ҳаракат қилган.
[30] Бу ҳақда қаранг: Палеолог М. Царская Россия во время мировой войны. – М.: Международные отношения, 1991. – С. 108.
[31] Қаранг: Политический словарь. – М.: Политическая литература, 1958. – С. 421.
[32] Чўлпон. Яна олдим созимни. Кеча ва кундуз. Роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 146.

Кўриб турганимиздек, маънавий-ахлоқий бузуқлик катта бир империяни таназзулга олиб келган сабаблардан бири бўлган. Сидқийнинг қуйидаги хулосаси Распутингагина эмас, барчага бирдай тегишли огоҳлантириш дейиш мумкин:

*Киши ўтса ўз ҳаддидан бир қадам,*

*Йиқилса юзи бирла ерга не ғам?! (Р.и. 26)*

Сидқий асарда Распутин ва бошқа прототипларнинг бадиий тимсолини яратар экан, бундан муайян мақсадларни кўзлаган. Шоир Распутин воқеасининг бадиий талқини орқали маънавият жамият равнақида нечоғли муҳим ўрин тутишини, ахлоқсизлик алоҳида шахсни ҳам, жамиятни ҳам муқаррар таназзулга олиб боришини таъкидлайди. Одамларни комил ахлоқ эгаси бўлишга даъват этади.

1916 йилги қўзғолон фожиалари, мардикорликка жўнатиш, юртдан айрилиқдаги ҳаёт изтироблари воқеанинг бадиий талқинига мисол бўлса, Николай, Распутин, Иванов, Мочалов каби образларда прототиплар ва уларнинг хатти-ҳаракатлари ифодаланган. Сидқийнинг миллий озодлик билан боғлиқ эстетик идеалини акс эттирувчи ғоявий-эмоционал тасвир эса реалистик пафосни юзага келтирган. Сидқийнинг “Русия инқилоби” достонида фожиавий, сатирик, танқидий пафос етакчи ўрин эгаллаган. Ижодкор ўз қаҳрамонларига ғоявий-эмоционал муносабатда бўлиб, унинг эҳтироси асарга шу даражада сингиб кетганки, тарихий воқеликни тасвирлашда пафос алоҳида аҳамият касб этган.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Раҳимжонов Н. Лирик ва эпик ифода мутаносиблиги / Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 1-жилд. Эпос. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 205.

سراج الدين مخدوم صدقى. روسيه انقلابى - تاشكند: رونق كتبخانه سى ، ٤٨-21 صحيفه - ١٩١٧

3. Мировые войны XX века. Книга 1. Первая мировая война. – М.: Наука, 2002. – С. 382; 386.

4. Асилов А. Шоир Сидқий Хондайлиқий ҳаётидан лавҳалар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1979. - № 6. – Б. 231.

مؤمن جان تاشقن. تورمش نورينشله رى – سمرقند تاشكند ، ١٩٢٦. – صحيفه ٥٣١١

6. Беҳбудий М. Ғалла, аскарлик, ер ва тазминоти ҳарбия // Меҳнаткашлар товуши. – Самарқанд, 1918, 2-август.

7. A.Zeki Velidî Togan. Bugünkü türkili (Türkistan) ve yakın tarihi. Cilt I. Batı ve Kuzey Türkistan. – Istanbul – 1981. – S. 579.

8. Каримов Н. Жадидлар 1916 йилда // Миллий тикланиш, 1998, 22 сентябрь.

9. Каримов Н. Атоқли журналист ва дипломат // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2005. - № 2. – Б. 114.

10. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви материаллари. Фонд № 461, рўйхат № 1, йиғма жилд № 919. Сведения по панисламизму.

11. Ойбек. Болалик хотираларим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 168.

12. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 424.

13. Азимов С. Абадият. Сайланма. 2 томлик. – Тошкент: Адабиёт васанъат, 1988. Т. 2. – Б. 41-42.

14. Сафаров Н. Кўрган-кечирганларим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968. – Б. 191.

15. Ҳайдаров Ҳ. Жиззах вилояти тарихи. – Тошкент: Меҳнат, 1996. – Б. 94.

Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 425.

16. Мунавварқори Абдурашидхонов. Мақбул қурбонлар // Нажот. – Тошкент, 1917, 26 март.

17. Мировые войны XX века. Книга 1. Первая мировая война. – М.: Наука, 2002. – С. 378.

18. Радзинский Э. Распутин... // Аргументы и факты. – М., 2003. - № 44. – С. 26.

19. Мировые войны XX века. Книга 1. Первая мировая война. – М.: Наука, 2002. – С. 381;

20. Керенский А.Ф. Царская семья и временное правительство. – Махачкала: Дагестанское кн. изд-во, 1991. – С. 9.

21. Палеолог М. Царская Россия во время мировой войны. – М.: Международные отношения, 1991. – С. 108.

22. Политический словарь. – М.: Политическая литература, 1958. – С. 421.

23. Чўлпон. Яна олдим созимни. Кеча ва кундуз. Роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 146.

**Оксана Пуговкина**
Национальный центр археологии АН Республики Узбекистан
ведущий научный сотрудник

## ГЕОГРАФИЯ С ИСТОРИЕЙ. ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ ТАШКЕНТА В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ Н.Г. МАЛЛИЦКОГО

***Аннотация.*** *Россияда Туркистоншуносликнинг тарихи 150 йилдан зиёд даврни қамраб олади. Бу соҳада Туркистон ўлкаси ҳамда кейинчалик Совет Ўзбекистонида фаолият юритган таниқли географ, педагог ва жамоат арбоби Н.Г. Маллицкийнинг илмий мероси алоҳида ўрин тутади. Унинг илмий қизиқишлари орасида Марказий Осиё географияси ва этнографиясига оид масалалар муҳим ўрин эгаллаган. Айниқса, у Тошкент шаҳрини ҳар томонлама ўрганишга - унинг географик тавсифи, аҳолининг этнографияси ва турмуш тарзига - алоҳида эътибор қаратган.*

***Калит сўзлар:*** *Россия Туркистоншунослиги, Туркистон ўлкаси, Марказий Осиё, Тошкент, география, илмий мерос, Н.Г. Маллицкий*

История российского туркестановедения вот уже на протяжении более чем 150 лет продолжает привлекать внимание исследователей. Собранный российскими туркестановедами огромной эмпирический материал охватывает различные области научного знания – историю, археологию, этнографию, лингвистику, нумизматику, географию, ботанику, зоологию, геологию и др. Определенный пласт этого материала уже был проанализирован и включен в научный дискурс, значительная же его часть пока не востребована исследователями.

В ряду таких исследований, пока мало затронутых исследованиями, находится богатое научно-историческое наследие русского и советского географа Н.Г. Маллицкого. Стоит отметить, что за последние 25 лет интерес к личности Н.Г. Маллицкого сохраняется. Отечественные и зарубежные исследователи обращаются не только к жизненной истории Н.Г. Маллицкого и членов его семьи, профессиональной деятельности в Ташкенте (как

учителя, редактора «Туркестанских ведомостей», городского головы Ташкента), взаимоотношениям с научным сообществом [1], но и активно изучают, анализируют и интерпретируют оставшееся его научно-историческое наследие, как опубликованное, так и хранящееся в архивах [2].

Из имеющегося официального описания его научных трудов – 116 наименований, 62 – работы посвящены изучению разнообразных явлений физической географии Средней Азии, истории и археологии, 15 – этнографии, а также вопросам демографии, статистики, лингвистики, экономики [3].

Но с Ташкентом у Н.Г. Маллицкого сложились особые отношения. Именно с этим городом были связаны его профессиональные и научные достижения. По его собственным воспоминаниям: «Перед самым окончанием (учёбы – *О.П.*) передо мной (Н. Маллицким – *О.П.*) открылась возможность отправиться в Среднюю Азию... Отказавшись от предложения остаться в институте… я принял скромное место учителя истории и географии в Учительской семинарии в Ташкенте, куда и прибыл по окончании Историко-филологического института, в 1895 году» [4]. С первых же дней приезда в Ташкент, Н.Г. Малицкий изучает и сам город, его историю быт жителей, географию, экономическую жизнь, управление – все это находит отражение в десятке его исследований: «О вакфах на территории Ташкента», «О ташкентском городском общественном управлении для Туркестанского землячества», «О колебании туркестанского климата, о значении Ташкентской обсерватории» и др. [5].

Эти исследования позволили говорить о нем, как об одном из лучших знатоков города. Они были основаны на богатом фактическом материале, полученном в результате постоянных командировок и разъездов, личных наблюдений, были написаны в конце XIX – начале XX века, когда он занимал должность главного редактора «Туркестанских ведомостей», а затем стал и городским головой Ташкента.

По приезду в Ташкент в 1895 году Н.Г. Маллицкий, сразу же заинтересовался староузбекской частью города, которая носила в то время все черты типичного мусульманского Востока. И уже через три года, в 1898 году, публикует свою первую работу, посвященную

узбекской части города. В последующие годы он тщательно изучил эту старую узбекскую часть города, собрал значительный фактический материал по исторической топографии Ташкента. Он был положен в основу такой его работы как «Ташкентские махалли и мауза». Н.Г. Маллицкий приводит составленные списки нескольких сот названий городских кварталов и пригородных участков с целью отметить в этих наименованиях «воспоминания о различных племенах, эпохах, воспоминания о различных исторических событиях и личностях». К этой работе им был приложен и тщательно составленный эскизный план города Ташкента и его окрестностей.

Совершенно иначе и очень широко был задуман и построен его «Исторический очерк Ташкента». В этой работе он проследил процесс заселения области Шаша и последовательную смену этнолингвистического состава населения Ташкента на всём протяжении его существования.

Заслуживают внимания и такие его работы, как «Обычное водопользование в Ташкентском уезде и отношение к шариату», «Система наименования у коренного населения Ташкента», «Ташкент. Исторический очерк», «Система наименования у коренного населения Ташкента» и др. [6].

Так и неопубликованным остался его очерк по географии города – «Физико-географический очерк города Ташкента», подготовленный специально для юбилейной брошюры «Ташкент – столица Узбекской ССР» [7]. Архивные материалы позволяют судить, что Н.Г. Маллицкий постоянно вносил изменения и дополнения в основной текст. В этом очерке Ташкент рассматривается как большой городской центр, узел важнейших путей Средней Азии, описываются окружающие его минеральные богатства, водные системы, климат. Ташкент, как отмечал Н.Г. Малицкий – «самый значительный город Средней Азии», «по количеству человек… с ним может соперничать только Стамбул…. Бомбей в Индии и Бейпин в Китае…» [8].

Над исследованиями, посвященными Ташкенту, Н.Г. Маллицкий работал более 40 лет. Профессор Л.В. Ошанин, характеризуя Н.Г. Маллицкого как исследователя писал, что «он никогда не бросал раз начатого вопроса, а продолжал расширять и углублять его в течение всей последующей жизни, не упуская его из

поля зрения, несмотря на чрезвычайную насыщенность этого поля целым рядом других физико-географических, этнографических, исторических, археологических вопросов и проблем» [9].

**Список использованной литературы и источников.**

1. Флыгин Ю. С. Тернистый путь Н.Г. Маллицкого, одного из основателей университета в Ташкенте // Материалы Республиканской научно-практической конференции, посвящённой 90-летию со дня образования Национального университета Узбекистана им. Мирзо Улугбека. Ташкент, 2008. С. 250; Пуговкина О.Г. «Туркестанские ведомости»: штрихи к портрету главного редактора Н.Г. Маллицкого // Вторые востоковедные чтения памяти Н.П. Остроумова. Ташкент, 2010. С. 295-300; Она же. Николай Маллицкий: на службе империи и науки // История и историки Узбекистана в XX столетии. Ташкент, 2014. С. 52-77; Котюкова Т.В. «Путь редактора провинциальной газеты в Ташкенте не усеян розами». Письмо академика В.В. Бартольда Н.Г. Маллицкому. 1901 г. [публикация Т.В. Ктюковой] // Исторический архив. 2014. № 6. С. 191-192; Она же. «…горел как свеча»: Николай Гурьевич Маллицкий в воспоминаниях Надежды Николаевны Остроумовой и Ольги Юрьевны Пославской // Электронный научно-образовательный журнал «История». 2020. Т. 11. Выпуск 5 (91). URL: https://history.jes.su/s207987840010385-2-1/. DOI: 10.18254/S207987840010385-2; Пуговкина О.Г. Первая мировая война в дневниковых записях сестры милосердия О.Н. Маллицкой // ВЕСТНИК Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. № 3 (272). Нукус, 2023. С. 68-72.

2. Маликов А.М. Н.Г. Маллицкий (1873-1947) и его вклад в изучение этнической истории и этнонимов народов Центральной Азии // Материалы международной научной конференции «Личность и время. Николай Остроумов: востоковед, просветитель, летописец эпохи». Ташкент, 2017, С. 102-110; Отарбаева Г.К., Косанбаев С.К., Камалдинов Р.А. Отражение культуры и быта казахского народа в трудах Н.Г. Маллицкого // Вестник Омского университета. Серия «Исторические науки». 2017. № 4 (16). С. 248–256.

3. Национальный архив Узбекистана (далее - НАУз) Ф - 2231, оп. 1, д. 301, л. 29.

4. НАУз Ф-2231, оп. 2, д. 31, л. 2.
5. НАУз Ф-2231, оп. 1, д. 68, д. 69, д. 73а и др.
6. НАУз Ф-2231, оп. 2, д. 2, д.3, д.6, д.8 и др.
7. НАУз Ф-2231, оп. 1, д. 37а, л.1-7.
8. НАУз Ф-2231, оп. 1, д. 37а, л.1.
9. НАУз Ф-2231, оп. 1, д. 301, л. 60-61.

**Yuldashov Shukurjon Anvarjon o‘g‘li**
*O’zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti*
*1-bosqich tayanch doktoranti*

## O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI SHARQIY TURKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA O‘ZBEK MA’RIFATPARVARLARINING XIZMATI

***Annotatsiya.*** *Maqolada XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkistonda ta’lim tizimi va uning turlari, jadid maktablarining paydo bo‘lishi, davriy matbuotning ma’rifiy hayotdagi o‘rni yoritiladi. Unda O‘rta Osiyo va Qrim-tatar jadidlarining — xususan, Ismoil G‘aspirali — Sharqiy Turkiston taraqqiyparvarlik harakatiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, Aka-uka Musaboyevlar kabi boy savdogar ziyolilar, Abduvali Domulla, Bilol Aziziy, Ta’lat Nosiriy kabi mahalliy va o‘zbek ziyolilarning o‘lkani ilm-ma’rifat bilan yuksaltirish yo‘lidagi faoliyati tahlil qilinadi. Maqola Sharqiy Turkiston ma’rifiy harakatining tarixiy va madaniy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Sharqiy Turkiston, ta’lim tizimi, jadidchilik, davriy matbuot, Musaboyevlar, Abduvali domulla, XX asrning birinchi yarmi, Ta’lat Nosiriy, Bilol Aziziy.*

XIX asrning oxirgi choragida Qozon va Qrim-tatarda boshlangan jadidchilik harakati O’rta Osiyo hududida yashovchi turkiy xalqlarga katta ta’sir qildi. Ijtimoiy islohot, ma’rifatchilik, milliy ong, hozirgi zamon ta’limi hamda taraqqiyoti o‘lkada o‘zgarishlar qilishga sabab bo‘ldi. Ismoil G‘aspirali birinchi mash’alani ko‘targan jadidchilik – yangilash harakatining asoschi bo‘lib, u Qrim yarim orolidagi Bog‘chasaroyda dastlabki jadid maktabini tashkil qildi. Bu esa tezlikda musulmonlar dunyosiga ta’sir qildi. Xususan, turkiy tilda so‘zlashaydigan O’rta Osiyo musulmonlari orasida, Kavkaz va Qora dengiz bo‘ylarida hamda Tangri tog‘larning janub va shimolidagi uyg‘urlar vatanida alohida ta’sir ko‘rsatdi.

Sharqiy Turkistondagi jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi haqida turli fikrlar mavjud bo‘lib, yapon olimi Oishi Shinichiro o‘zing bu haqida tadqiqotlarida: “Rossiyaga qo‘shni Shinjongning Qoshg‘ar, G‘ulja kabi katta shaharlarida 1910 – yillari atrofida yerlik turkiy xalq “usuli – jadid” ma’orifini yo‘lga qo‘ygan” deb ko‘rsatsada [6: 5], aslida 1906-yili o‘zbek ziyolilari tomonidan G‘uljada ochilgan “Namuna” maktabi Sharqiy Turkistonda ochilgan ilk jadid maktabi sifatida keltirilgan[1: 99]. 1912-yilda Abduqodir domulla tomonidan jadid maktabi tashkil qilindi va u yerda o‘quvchilar Istanbul, Qozon va Ufaga yuborildi. Abduqodir domulla zamonaviy bilim va taraqqiyotga intilgan ziyolilardan biri edi. Bundan tashqari 1908-yilda G‘uljadagi tatar savdogarlari qizlar uchun turk tilida dars beradigan maktab ochdilar[7:23]. Tatar jadidchilari tomonidan “usuli – jadid” ta’limi yo‘lga qo‘yilishidan oldin uyg‘ur o‘lkasida 3 turdagi bir-biriga o‘xshamagan ta’lim sistemasi mavjud bo‘lgan. Ulardan biri, an’anaviy madrasa ta’limi: bu uyg‘urlar o‘lkasida XX asrning boshlariga qadar davom etgan ta’lim tizimi hisoblangan. Ushbu ta’lim tizimi butkul islom dunyosi keng umumlashgan, an’anaviy diniy ta’lim andozasi edi. Unda “Qur’on”, “Hadis” hamda islom aqidasiga doir arabcha, forscha va turkiy tildagi asarlarni o‘rganish asos qilingan. Yana biri, xitoycha “Sho‘tang” ta’limi: bu 1884 – yili Manjuriya sulolasi uyg‘urlar yurtini rasmiy holda “Shinjong o‘lkasi” deb nomlagandan keyin uyg‘urlar orasida majburiy tarzda yo‘lga qo‘yilgan xitoycha ta’lim tizimi edi. Ma’lumki, Yoqubbek tomondan “Qoshg‘ariya” deb atalgan davlat 1877 – yilda manjurlar sulolasi tomonidan qulatilganidan keyin Manjuriya sulolasi istilo qilgan bu yangi yerlardagi musulmon aholi orasida xitoy tilidagi ta’limni yo‘lga qo‘yishni zarurligini his qilishgan. Bunining natijasida uyg‘urlar yurtining har qaysi hududlarda katta shahar, bozorlarda “Sho‘tang” nomi bilan hukumat boshqaruvi ostida maxsus maktablar ochila boshlagan. Bu maktablarga ko‘pincha hukumat tomonidan maosh oladigan yerlik oqsoqollarning bolalari majburiy tarzda qabul qilingan. Ammo yerlik aholining katta qismi bolalarini “Sho‘tang” maktablarida o‘qitishni xohlamagan. “Sho‘tang” maktablarning o‘qitish dasturi butunlay xitoy an’anaviy ta’lim usuli ya’ni konfutsiylik ta’limoti asos qilib o‘qitilgan. Uning ustiga bu maktablarda majburiy tarzda qabul qilingan uyg‘ur bolalarining xitoycha kiyim kiyib, uzun soch qo‘yishi hamda butlarga ta’zim qilish talab qilingan. Bu holat tabiiy tarzda yerlik uyg‘ur aholining qarshiligiga uchragan. Shu sababdan garchi hukumat bu xildagi “Sho‘tang”

maktablarni kengaytirishni kuchaytirib tashviq qilgan bo‘lsa ham lekin mahalliy xalq ichidagi faoliyati muaffaqiyatli bo‘lmagan. Shuningdek, an’anaviy madrasa ta’limining o‘rnini to‘la egallay olmagan. Shunday bo‘lishiga qaramay “Sho‘tang” ta’lim sistemasi tor doirada uyg‘urlar yerida ma’lum darajada saqlanib qolgan[6: 5-8]. Uchinchisi, xorijiy missionerlar ochgan xristian maktablari edi. XIX asrning oxirgi choragidan boshlab Angliyaning “Ichki Xitoy missionerlar jamiyati” bilan Shvetsiya missionerlari uyg‘ur xalqining janub va shimolida xristian g‘oyalarini tarqatish bilan shug‘ullana boshladi. Ayniqsa shved missionerlari 1892-yildan 1938-yilgacha uyg‘ur xalqining janubidagi Qoshg‘ar, Yakan va Yengsor kabi shaharlarda din tarqatish nuqtalarini qurib, mahalliy uyg‘ur musulmonlari orasida xristian dinini tarqatish faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Ular o‘z maqsadlarini muaffaqiyatli holda amalga oshirish uchun dastlab maktab va shifoxona ochib uyg‘ur aholilari orasida ommaviy asos yaratishning muhimligini tushunib yetgan. Buning bilan shved missionerlarining maktablari Qoshg‘ar, Yakan va Yeksor kabi joylarda ketma-ketlikdan ishlashni boshlagan. Uyg‘ur jamiyatidagi yetim-yesir va kambag‘allarning farzandlari bu maktablarga jalb qilingan. Bu turdagi maktablarning o‘qitish dasturi va darsliklari Yevropa ta’limining andozasi bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lsada, lekin o‘quvchilarga xristian dini ta’limotlari singdirish muhim ekanligi, mahalliy yuqori qatlam uyg‘ur musulmonlarining kuchli qarshiligiga uchradi. Shuning uchun, shved missionerlarining maktablarida o‘qigan bolalar faqat yetim-yesir va kambag‘al bolalar bilan shakllangan edi. Bundan tashqari uning taraqqiyoti ham ancha muaffaqiyatli bo‘lmagan[11: 94]. Ta’kidlab o’tganimizdek, XIX asrning oxirlaridan boshlab, uyg‘ur jamiyatiga jadidlarning ta’sir kuchayib borishiga sabab sifatida, shuni aytish lozimki, o‘lkada xitoy tili, ta’lim bilan xorijiy missionerlar ochgan xristian maktablari oldindan faoliyat ko’rsatib kelgan an’anaviy islom madrasa ta’limiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Buning natijasida bir qism ko‘zi ochilgan o‘qimishli kishilar, taraqqiyparvar boy savdogarlar hamda chet ellarda o‘qib kelgan ziyolilar jiddiy harakatga kelib, an’anaviy madrasa ta’limini qanday qilib isloh qilish, uni davrga qanday moslashtirish shuningdek, yot millatlar ta’limidan kelayotgan bosim va salbiy holatlarni oldini olish masalalari haqida izlanisha boshlaydi. Bu holatda ular diqqat-e’tiborini o‘zlariga qo‘shni bo‘lgan Rossiya tarkibidagi O‘rta Osiyoga qaratadi. Chunki O‘rta Osiyodagi mahalliy turkiy

musulmonlar rus madaniyati va ma’orifining kun sayin kuchayotgan bosimi ostidan qanday qilib o‘zini saqlab qolish va chiqish yo‘lini izlash holatida edi. Shunday qilib tatar jadidchilarining ta’siri ostida maydonga kelgan O‘rta Osiyodagi milliy uyg‘onish va ma’rifatchilik harakatlari uyg‘urlar vataniga ijobiy ta’sir qila boshlaydi. Turli yuqori qatlam bilan bir qism taraqqiyparvar savdogarlar tatar uslubidagi “usuli – jadid” ta’limini millatni ilmli qilishning eng samarali yo‘li deb bilishgan. Ismoil G‘aspiralining bosh muharrirligi ostida nashr qilingan “Tarjimon” gazetasi orqali bizgacha yetib kelgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘lishicha, uyg‘urlar o‘lkasida 1899-1900-yillari orasida aka-uka Musaboyevlarning tashabbusi va qo‘llab-quvvatlashi natijasida dastlabki “usuli – jadid” maktablarining ochilganini qiyos qilishdi[2]. Tatar ziyolilaridan biri Mirqosim G‘usmonovning izlanishlariga qaraganda, uyg‘urlar vatanidagi yangicha ma’orif tatar jadidchilarining bevosita ta’sir bilan XX asrning dastlabki yillarida boshlangan.[3]. Yaponiya olimi Oishi Shinichiro “Vaqt” gazetasiga bosilgan maqola xabarlariga asoslanib uyg‘urlar vatanida 1907-1908-yillari “usuli – jadid” maktablarining ochilganligini shuningdek, bir qism uyg‘ur yoshlarining bu maktablarda tarbiyalana boshlaganini ta’kidlaydi[4: 23]. “Vaqt” gazetasining 1909-yili 23-iyundagi sonida bu haqida maxsus bir xabar chiqqan. Bu xabar G‘uljadan yuborilgan bo‘lib, unda bunday deyilgan: “Musoboyevlar jamiyati ochgan maktabda o‘qiyotgan 27 nafar bolalardan imtihon olindi. Bulturgidek, Ustoz Sora xonim ularni yaxshi tarbiyalab har xil hunar, san’at, hisob, jug‘rofiya, qoidalar hamda Qur’on Karimdan saboq berdi. Bu yerdagi boylar yana “Dorulshafqat” nomli kambag‘allar uyini ochdi. Bu yerda bolalarga hisob, jug‘rofiya o‘qitilgan.”. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarga qaraganda, Musoboyevlar jamiyatining mehnatsevarligi ostida Artushning Eksoq degan joyda qurilgan birinchi “usuli – jadid” maktabining oldingi uyg‘urcha maqolalarda qayt qilinganidek 1885-yili emas, balki 1899-yili kuzda qurilganligi ilgari surilmoqda[5: 136]. Bundan tashqari, o’zbek taraqqiyparvarlari ham Sharqiy Turkiston diyorida ilm-fan va ma’orifning yuksaltirishda ma’lum daraja hissa qo‘shishgan. Shulardan biri Bilol Aziziy bo‘lib, U Andijonda tavallud topgan bo‘lib, 1931-yil oilasi bilan Qoshg‘arga ko‘chib kelgan, keyinchalik esa Xo‘tanga borib joylashgan. Bilol Aziziy 16 yoshidan ijod qila boshlagan, she’rlari Xuton, Urumchi va Oqsuvdagi gazetalarda chop etilgan [9].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik xalqni ma’rifatli qilish bilan bir qatorda, ularning ong-shuurini yuksaltirish, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shaydigan insonlar qilib tarbiyalash asosiy masalasiga aylangan edi. Qrim-tatar diyorida boshlangan jadidchilik O‘rta Osiyo hududlariga keyinchalik esa qo‘shni Sharqiy Turkiston diyorlarigacha bordi, Bu yerdagi ma’rifatparvar insonlar xalqni qoloqlik botqoqidan qutqarish uchun yangi usul maktablarini tashkil qilishdi, bu esa xalqning ziyoli qatlamini kengaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, turli ta’lim tizimi mavjud bo‘lishi ham uyg‘ur xalqini islohotlar tomon borishga undadi. Shuningdek, O‘rta Osiyo hududidagi taraqqiyparvarlik harakati ham ijobiy ta’sir kor‘rsata oldi. Albatta, hammasi umumlashgan holda Sharqiy Turkiston diyorida yangi usul maktablari, ziyolilar qatlamini shakllanishiga sabab bo’ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ئۆزبېكلەرنىڭ قىسقىچە تارىخى. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى، 1988. 99 – بېت

2. «تەرجۈمەن» گېزىتى، 1899- يەل 10-دېكابىر؛ 1900- يەل 16- يانۋار؛ 1900- يەل 29- ئاپرىل؛ 1902- يىل 3- ئاۋغوست

3. مرقاسىم غوسمان، «شەرقىي تۈركستاندكى ئۇيغۇر مائارىپى ۋە ئىسمائىل غاسپىرالى»، «ئىسمائىل غاسپىرالى» (تارىخي دوكۇمېنتال توپلام)، قازان، «جىيىن» نەشرىياتى، 2006- يىل نەشرى

4.ييگىچە مائارىپ «شىنجاڭ تەزكىرەچىلى»، ئۈرۈمچى، 2000-يىللىق 2-سان، 23ئبەت. ئوئىش شىنجىرۇ، قەشقەردە جەدىدىزم: مۇسابايلار جەمەتى ۋە

5. يالقۇن روزى، «ئۇيغۇر هازىرقىنزامان پەنني مائارىپى قاچان باشلانغان»، «لاي قەلئەنىڭ سىرى – يالقۇن روزى ئەسەدلىرى (2)»، ئۈرۈمچى: شىنجاڭ پەن- تېخنىكا نەشرىياتى، 2012- يىل نەشرى، 135-136-بەتلەر

6. 罗绍**文**，**«杨增新统治时期的新疆教育»**, **«西北史地»**，1993:49, pp. 5-8

7. A.Tohti, Kashqarning Yeqinki ve Hazirqi Zaman Maarip Tarihi (Education History the Modern and Contemporary Kashgar) Kashgar Halq Neshiryati/Kashgar Peoples Press, 1986, pp.23

8. Edward Allworth ed., Tatars of the Crimea: Their Struggle for Survival, Durham and London: Duke University Press, 1988, p. 13

9. Fazliddin Jalolov, Qodir Akbar. Shinjongdagi o’zbeklar tarixidan. Andijon. 2011.

10. Fredrik Fallman, Swedish missionaries, modernization and cultural exchange in China: The Mission Covenant Churche of Sweden

work in Hubei and Xinjiang, jidujiao yu Zhongguo Wenhua Congkan, Vol. 5, Hubei Jiaoyu Chubanshe, Wuhan, 2003, pp. 335-353.

11. Gunnar Jarring, Return to Kashgar: Central Asian memories in the present, Durham: Duke University Press, 1986, pp. 94.

**Nurmanova Zamira Davurovna**
Chirchiq shahar tarixi muzeyi san‘at va etnografiya bo‘limi mudiri,
**Tuychiboyev Xursandbek Abdimuminovich**
Chirchiq shahar tarixi muzeyi bosh muhofizi

## QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI TOSHKENT VOHASI ARXEOLOGIYASI

***Annotasiya:*** *Ushbu maqola yoritilgan mavzu orqali, qadimgi Toshkent viloyati hududi o‘rganilishida arxeologik tadqiqotlarning o‘rni va ilmiy izlanishlar, tosh davri madaniyatlari, ilk migrasiyalar hamda O‘rta Osiyo hududidagi ilk poleolit davri yodgorliklarining tasnifi, madaniy – davriy xosligi kabi masalalar haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chichiq, Choch, Andronov, Petrov, Fedorov, Sargari – Alekseev, Childuxtarontepa, Dodakatim*

Markaziy Osiyo ko‘hna sa’natning muhim qismi joylashgan mintaqa hisoblanadi. Ushbu bebaho moddiy boyliklar rang – barangligi, har bir tasvirning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Chirchiq Toshkentning go‘zal go‘shalaridan O‘zbekistonning katta hududiga kiradi. Bu zaminda xalqlarning madaniyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu yerning afzalligi qishloq xo‘jaligi va qora mollarga katta e'tibor buning yaqqol dalilidir. Ota-bobolar o‘tgan jannatmakon yerlarimizda ko‘pincha qiyin, tushunmovchiliklar, ba’zida bosqinchilik va ko‘p hollarda tinch yo‘l bilan kelishmovchiliklarni oldini olingan.

Ilk o‘rta asrlarda Choch vohasiga turkiy etnik qabilalarning kelishi, ayniqsa Chochning Turk xoqonligi tarkibida bo‘lishi, uning madaniyati rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu jarayon ushbu makonda turk-so‘g‘diy etnomadaniy hududning shakllanishiga olib kelgan. Choch eroniy tilli aholining turkiylashish jarayoni jadal kechgan maskanga aylanadi. Bu jarayonlar, ayniqsa, arxeologik materiallarda yaxshi kuzatiladi va yozma manbalar orqali ham tasdiqlanagi. Muarrix Tabariyning (863-923) ma’lumotlatiga ko‘ra VII-VIII asrlarda Shosh vohasi aholisining asosiy

qismini turkiy qabilalar tashkil etgan. Chirchiq (Paroq) daryosining bir o‘zani Biskam (Pskem)dan, ikkinchi tarmog‘i Chitgil (Chaqal) Jidgil Chotqoldan iborat edi.

So‘nggi bronza davrida (m.a. III-II mingyilliklar chegarasi – m.a. XIV asrning ikkinchi yarmi) Yevroosiyo qit’asi hududida Atlantik bosqichining iqlim optimum vaqti tugagandan so‘ng boshlangan sovuqlik Volga bo‘ylari va Qozog‘iston cho‘llarida iqlimning aridizasiyasiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun o‘rta Osiyo hududiga Andronov madaniy tarix birlashmasining chorvador qabilalari kirib keladi. Andronov qabilalarining xo‘jaligi asosan chorvachilik yo‘nalishida bo‘lgan.

Shunung uchun Volgadan Irtishgacha yoyilgan cho‘l hududlaridagi sovuq qishlar chorvadorlarini shu mavsumda janubda O‘rta Osiyo vohalarining hududida va daryolari bo‘ylarida yaylov izlashga majbur etgan. O‘sha davrda, Toshkent vohasining iqlimi hozirgidan kam farq qilgan. Uning tog‘lari va adirlari archa va boshqa daraxt turlari o‘rmonlari bilan qoplangan. Daryolarning vohalarini zich to‘qay o‘simlikari bilan qoplangan va yovvoyi hayvonlar ko‘p bo‘lgan. Vohaning cho‘l hududlari ham o‘simliklarga boy bo‘lgan. Mintaqada nihoyat darajada tabiiy boylikar oltin, kumush, mis, feruza mo‘l edi. Bu ham Andronov qabilalarining qiziqishiga sabab bo‘lgan. Chunki ularning xo‘jalik hayotida mis konchiligi, metallurgiya va metallga ishlov berish muhim o‘rin egallagan.

Toshkent vohasining hududida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra so‘nggi bronza davrida hudud Petrov, Fedorov, Sargari – Alekseev madaniyatlarining chorvador qabilalari tomonidan o‘zlashtirilgan. Bu qabilalar O‘rta Osiyoda odatda qishda yarim yerto‘la turidagi vaqtinchalik uy- joy qurishgan. Yozda ular kappa turidagi yengil karkaslik inshootlar qurishgan. Shu sababdan bu madaniyatlarning qishloqlari juda ham kam topiladi. Ularning qabrlari xazinalari va tasodifiy topilmalari ko‘proq uchraydi.Yangiyo‘l shahridan janibi-g‘arbda Jo‘n arig‘i sohilida Andronov madaniyatining bitta qabri T.G.Obolduyeva tomonidan o‘rganildi. Fedorov madaniyatiga mansub bo‘lgan boshqa qabr Iskandar qishlog‘ida o‘rganildi. Bu qabrda beshta quyma bronza, tarnovsimon birlashmagan kengaygan uchlari monolit spiralsimon shoxchalari bilan bezatilgan bilakuzuklar topilgan.

Toshkent shahrining hududida “Nikiforov yerlari” deb nomlangan joyda Andronov idishi topilgan. Mingo‘rik yodgorligi hududida joylashgan. Childuxtarontepa qabristonida yer chuqurlarida uchta Andronov qabri

o‘rganildi. Qoraqamishsoy vohasida Andronov sopol idishlarining parchalari topilgan. Shoshtepa makonida qayta quyilgan holatda dumaloq bronza taqinchoq topildi. Bu taqinchoq tarnov kuvisimon metall parchasidan qilingan, uchlari kengaytirilgan, o‘rta qismi bir yarim buralgan va oltin folga bilan qoplangan. Shunga o‘xshash taqinchoqlar m.a. II ming yillikning birinchi uchdan bir qismida Qozoq‘iston va O‘rta Osiyo Olako‘l va Fedorov madaniyatlarining chorvador qabilalaridan tarqalgan edi.

Bronza davriga oid Kavardon qabristoni maydonida Sargari – Alekseev madaniyatlarinig qabri o‘rganildi. Shu yodgorliklarning qazishmalari birida “So‘x taroz toshi” dek xuddi o‘sha xlorit toshidan qilingan muhr – tumor topilgan. Ushbu buyum m.a. III-II ming yilliklar chegarasiga mansub bo‘lishi mumkin. Ushbu topilma Petrov qabilalari Namozgoh V-VI turidagi o‘troq dehqonchilik madaniyatlar aholisi bilan bo‘lgan madaniy aloqalar to‘g‘risida guvohlik berishi mumkin. [2-9]

Toshkent vohasidagi Andronov qabilalarining madaniyatini Chimboylik va Burchmullo xazinalarining topilmalari keng yoritadi. Chimboylik xazinasi Chirchiq daryosiga Chimboyliksuv qo‘shilishi o‘rnida joylashgan shu nomli qishloq yaqinida topilgan. Topilmalar orasida “vislo obushnoy” bolta, to‘rt qirrali bigiz, bargsimon shakldagi pichoq va 580 grammlik bronza parchasini tadqiqotchilar Petrov madaniyatiga mansub deb hisoblanadi va III- II ming yilliklar bilan sanalashtirishadi. [2-9]

Burchmullo qishlogo‘ida topilgan Burchmullo xazinasi nayza-uchi – boltadan, to‘rtta vutulkalik kamon o’qining uchidan va tugmalardan iborat. Xazina buyumlari tadqiqorchilar tomonidan Sargari – Alekseev madaniyatiga taalluqli va bronza davrining final bosqichiga tegishli deb hisoblanadi. Toshkent vohasining so‘nggi jez davri materiallari guvohlik beradiki, m.a. III-II ming yilliklarning chegarasidan boshlab ushbu hudud So‘g‘d va Baqtriya urbanizasiyalashgan qadimgi o‘troq dehqonchilik viloyatlari bilan madaniy aloqalar o‘rnatilgan Andronov chorvador qabilalari tomonidan to‘liq o‘zlashtirilgan. [2-10]

Toshkent shahrining sharqiy- shimoli – sharqiy tomonidan 100 km uzoqlikda joylashgan Bo‘stonliq tumaning Burchmulla qishlog‘i yaqinida joylashgan topilgan Obi-Rahmat paleolit davri manzilgohi A.R. Muhammadjonov tomonidan 1962 yilda ochilgan bo‘lib uning birlamchi qazish ishlari M.M.Gerasimov va X.K. Nasriddinovlar rahbarligida olib

borilgan. 1964- 1965 yillardan boshlab esa mazkur faoliyatga R.X. Sulaymonov rahbarlik qilgan. .[2-5]

Markaziy Osiyoning tosh davri tarixiga tegishli bo‘lgan joylari ichida, ayniqsa, uning o‘rta paleolit davri oxiri va yuqori paleolit davri boshiga taalluqli yodgorliklari ichida Obi- Rahmat g‘ori noyobligi bilan o‘z-o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Paleolit davrining madaniy qoldiqlari hamda yuqori darajada boyitilgan yer qatlamlarining mavjudligi qadimgi odamga xos moddiy madaniyat taraqqiyoti doirasida kechgan evolyusion o‘zgarishlarni bir necha o‘n ming yilliklar davomida kuzatish imkoniyatlarni yaratadi. Olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida g‘orning stratigrafik ketma-ketligining davomiy bir jinsli ekanligi tasdiqlangan, uning asosida esa so‘nggi o‘rta paleolit davrining plastiksimon texnologiyasi bilan birgalikda uncha ko‘p miqdorda bo‘lmagan levalluaz texnikasining qorishmasi mavjudligi aniqlandi. Obi – Rahmat yodgorligiga tegishli bo‘lgan ishlab chiqrishning o‘ziga xos xususiyari uning barcha qatlamlarida namoyon bo‘lgan yuqori paleolit davriga taalluqli xarakteristikada ham texnologik ham tipologik darajada mavjudligi hisoblanadi. Davrlashtirishning rang-barang absolyut metodlari qo‘llanilishi Obi- Rahmat kompleksining faoliyat olib borgan davri hududlarini 60 m.y.i (minimum) – 40 m.y.i. interval orasida belgilash imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, Obi – Rahmat yodgorligining kelib chiqishi yangi madaniyatning ilk shakllanish davrlariga borib taqaladi.[2-5]

2003 yilning yoz mavsumida yodgorlikning qariyb 60 m.y.i. yoshga oid qatlamida qadimgi odamning suyak qoldiqlari topildi. Buning natijasida o‘tish davri industriasini aniq belgilangan jismoniy odam tipi bilan solishtirish va bog‘lash mumkin bo‘ladi, chunki bugungi kunda dunyo miqiyosida mazkur o‘tish davriga xos bo‘lgan qadimgi odamga tegishli qoldiqlar borasida bir necha tarqoq ma’lumotlargina saqlangan xolos. Shunday qilib, Obi-Rahmat yodgorligida topilgan odam ko‘rinishi neandartal tipidagi odam va zamonaviy odamlar qiyofasining qorishma-aralashma tipini namayon qiladi. Obi- Rahmat odami qiyofasining ko‘pchilik parametrlari esa bugungi kundagi mavjud paleantropologik ma’lumotlar ichida o‘xshashi yo‘q va takrorlanmas hisoblanadi. Shu bilan birga, bugungi kunda bunday o‘ziga xoslik va takrorlanmaslik, mavjud xususiyatlarning qorishmaligi nimalar asosida vujudga kelgani va

nimalarga asoslanishi ham aniq izohlashning imkoniyati mavjud emas. [3-32]

Obi-Rahmat yodgorligi atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar mazkur hudud tosh davrida ibtidoiy odamlar tomonidan faol ravishda o‘zlashtirilganligini ko‘rsatdi. 2005 yildan Pal’tau daryosining yuqori oqimida ko‘pqatlamli Dodakatim paleolit davri yodgorligi o‘rganilmoqda. Mazkur yodgorlik O‘zbekiston qadimgi tarixining eng kam o‘rganilgan davriga aloqador bo‘lib, yuqori paleolitning o‘rta bosqichiga tegishlidir.

Bo‘zsuv makonlari Bo‘zsuv – kanali yonida joylashgan ibtidoiy odamlar makonlari. Toshkent shahridan 12-15 km shimoli-g‘arbda joylashgan. Makonlardan biri – Shoimko‘prikni P. A. Pavlov (1901), ikkinchisi - Sho‘ralisoy yoqasidagini O. I. Islomov (1955) topgan. Shoimko‘prik makonini G. V. Parfenov, Sho‘ralisoy yoqasidagi makonni A. P. Okladnikov o‘rgandi. Har ikkala makondan muste va yuqori paleolit davriga xos pichoqsimon plastina, qirg‘ich, nukleus, chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar va turli hayvon suyaklari topildi. Bo‘zsuv kanali yoqalab olib borilgan keyingi tekshirishlar natijasida paleolit davriga oid Bo‘zsuv III, IV va V kabi yangi makonlar ochildi. Bo‘zsuv makonlarida olib borilgan ilmiy tekshiruv ishlari bu yerdagi ibidoiy odamlar muste va yuqori paleolit davrida yashagan bo‘lib, yodgorlikning yuqori paleolit bosqichida uning aholisi urug‘ jamoasi bo‘lib yashaganligini ko‘rsatdi.[4-30] Hozirgi paytda Bo‘zsuv manzilgohidan arxeologlar tomonidan topilgan 58 dona tosh va suyaklardan yasalgan qadimiy odamlarning mehnat qurollari Chirchiq shahar tarixi muzeyining ekspozitsiya zalidan joy olgan. Ushbu quyidagi rasmlardagi ashyolarni 1959 yil aprel oyida O‘zSSR Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti tomonidan muzeyga topshirilgan.



Pichoqsimon plastina



Uchrindi (отщеп)



Keski (резец)



Nukleus



Keskich (долотце)



Keskich (долотце)

Arxeologik kolleksiyaning dastlabki o‘rganilishi natijalari shuningdek, uning absolyut yoshini aniqlash bo‘yicha olingan (21-23 m.y.i.) Markaziy Osiyoda mikrolitik an’analar belgilanganidan ancha oldinroq paydo bo‘lganligini, shuningdek, O‘zbekiston hududida mezolit madaniyati shakllanishiga doir ilk o‘choqlarni mavjudligini tasdiqlaydi. Bu esa O‘zbekiston hududida eng qadimiy madaniyatlar genezisining regional o‘chog‘i mavjud bo‘lganligini ilmiy asoslash uchun imkoniyat beradi.[2-6]

Toshkent vohasi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mazkur hudud odamning paydo bo‘lish masalasiga aloqador bo‘lgan o‘ziga xos takrorlanmas va qiziqarli o‘choqlardan biridir. Ko‘lbuloq, Obi-Rahmat va Dodakatim kabi ko‘pqatlamli yodgorliklarda o‘tkazilgan qazilma ishlari bu hudud ashel’ davrlaridan boshlab qadimgi odamlarning uzluksiz va davomiy qo‘noq va manzil joyi bo‘lganligini ularning esa so‘nggi paleolit davriga qadar evolyusion rivojlanib va o‘zgarib borganlikarini tasdiqlaydi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. “ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИЯСИ” илмий конференцияси. (Тарих, археология, туризм, этнография ва ижтимоий соҳаларга оид илмий, илмий оммабоп мақолалар тўплами) Termiz 2022 yil 189 bet.

2. Тошкент воҳаси археологияси. , 1-10 b.

3. IBRAGIMOV RAXMON “ARXEOLOGIYA” Toshkent – 2022. 32-bet.

4. Kabirov J.Sagdullayev A. “O‘RTA OSIYO ARXEOLOGIYASI” Toshkent “O‘qituvchi” – 1990. 30-31 bet.

**Nurmuhammedova Nozima Nodir qizi**
Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistri

## QADIMIY SHOSHTEPA

***Annotatsiya:*** *Shoshtepa arxeologik yodgorligi, o’zining qadimiy madaniy qatlamlari va topilgan eksponatlari bilan Toshkentning tarixiy rivojlanishini o’rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyolar, Shoshtepa hududining qadimdan madaniy va savdo markazi sifatida rivojlanganligini ko’rsatadi. Shuningdek, konservatsiya va restavratsiya ishlari, yodgorlikni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va uning tarixiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Shoshtepa haqida umumiy malumotlar keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Shoshtepa, N.P. Ostroumov, G.V. Grigoryev, N.I. Krasheninnikova, F.Dadaboyev, Jo’n kanali.*

Shoshtepa — O’zbekistonning qadimiy tarixini o’rganishda muhim o’rin tutadigan arxeologik yodgorliklardan biridir. U Toshkent shahrining Sergeli tumanida, Jo’n kanali bo’yida joylashgan bo’lib, miloddan avvalgi IX-XVI asrlarga oid qadimiy shahar xarobalarini o’z ichiga oladi. Shoshtepa hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar Toshkentning 2200 yoshini belgilashga imkon beradigan topilmalarni keltirib chiqardi.

Shoshtepa ikki asosiy tepalikdan iborat bo’lib, ulardan biri tik va baland, ikkinchisi esa yassiroq shaklga ega. Umumiy maydoni taxminan 25 gektarni tashkil etadi. Dastlabki arxeologik kuzatishlar 1896-yilda N.P. Ostroumov tomonidan amalga oshirilgan bo’lib, keyinchalik G.V. Grigoryev (1934), N.I. Krasheninnikova (1956), F.Dadaboyev (1970) kabi olimlar

tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. 1978-yildan boshlab Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan muntazam arxeologik qazishmalar o'tkazilgan.

Shoshtepaning dastlabki davri miloddan avvalgi IX–VI-asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda hududda Burganli madaniyati asosida o'troq dehqonchilik rivojlangan. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan shug'ullangan aholi o'zining mehnat faoliyati orqali hududda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlagan.

Milodiy I–II-asrlarda Shoshtepa ilk shaharcha qiyofasiga kirib, Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Qang' davlatining dasht bilan Toshkent vohasiga tutashib ketgan chegarasidagi istehkom, hunarmandchilik markazi, ko'chmanchi chorvador aholi bilan o'troq dehqonlar o'rtasida olib boriladigan o'zaro savdo bozori vazifasini o'tagan.

V-asr o'rtalarida chorvador eftaliylarning janubga tomon siljishi oqibatida Shoshtepada qadimdan butparastlik ibodatxonasi bo'lgan xoch shaklidagi markaziy bino qabristonga aylantirilgan. VI–VIII-asrlar boshlarida Shoshtepada hayot yana ancha yuksalgan.

Arab xalifaligi istilosi natijasida Shoshtepa vayron bo'lgan. XI–XII-asrlarda undagi hayot birmuncha jonlansada, ammo XVI-asrda Shoshtepa deyarli xarobaga aylangan.

Shoshtepa hududida olib borilgan qazishmalar natijasida bir qancha arxeologik topilmalar aniqlangan. Bu topilmalar orasida qadimiy kulolchilik buyumlari, zargarlik asarlari, qurol-yarog'lar va kundalik hayotda ishlatilgan turli buyumlar mavjud. Shuningdek, Shoshtepadan topilgan xoch shaklidagi markaziy bino, ehtimol, Zardushtiylik diniy ibodatxonasining qoldiqlari bo'lishi mumkin.

Shoshtepa arxeologik yodgorligi 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat muhofazasiga olingan. Shundan so'ng, yodgorlikni saqlab qolish va konservatsiya qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2021-yilda Madaniy meros agentligi tomonidan konservatsiya ishlari boshlanishi e'lon qilingan. Bundan tashqari, Shoshtepa hududida turizmni rivojlantirish maqsadida rekonstruksiya va restavratsiya ishlari olib borilmoqda.

Shoshtepa O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorlik orqali hududda yashagan qadimiy aholi turmush tarzi, madaniyati, diniy e'tiqodlari va iqtisodiy faoliyatlari haqida

qimmatli ma’lumotlarga ega bo’lish mumkin. Shuningdek, Shoshtepa arxeologik yodgorligi Toshkent shahrining 2200 yillik tarixini tasdiqlovchi muhim dalil bo’lib xizmat qiladi.

Shoshtepadagi eng qadimgi madaniy qatlamlar Burgulyuk madaniyatiga tegishli bo’lib, bu madaniyatga oid ashyolar, asbob-uskunalar, pichoq, nayza uchlari, keramika buyumlar va boshqa turli predmetlar topilgan. Bu topilmalar, Shoshtepa hududining qadimgi dehqonchilik madaniyati markazi bo’lganligini ko’rsatadi

Milodiy X–XII asrlarga oid bo’lgan Shoshtepa keramika buyumlari orasida hayvon tasvirlari va epigrafik naqshlar bilan bezatilgan idishlar mavjud. Bu topilmalar, Shoshtepa hududining o’rta asrlarda ham madaniy va savdo markazi sifatida rivojlanganligini ko’rsatadi.

N.P. Ostroumov 1896-yilda Shoshtepa hududida birinchi marta tizimli arxeologik qazishmalarni boshlagan. U, Shoshtepaning qadimiy yodgorliklarini o’rganib, bu yerda mavjud bo’lgan madaniy qatlamlar va tarixiy materiallarni kashf etdi.

Bu qazishmalar natijasida Shoshtepa hududining qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog’liq faoliyatlari haqida muhim ma’lumotlar topilgan.

Ostroumov, Shoshtepadan topilgan keramika buyumlari, idishlar, qurol-aslahalar va boshqa turli predmetlar haqida batafsil tahlil olib borgan. Ularning ko’pchiligi, Shoshtepa hududining miloddan avvalgi va milodiy asrlar davomida madaniyat va savdo markazi sifatida faoliyat yuritganligini ko’rsatadi.

Ostroumov, bu topilmalarni tahlil qilib, Shoshtepaning iqtisodiy va madaniy aloqalar o’rnatgan hudud sifatida o’zining ahamiyatini ko’rsatgan.

N.P. Ostroumov, Shoshtepa hududining tarixiy roli haqida muhim xulosalarga kelgan. U, Shoshtepaning o’rta asrlar va undan oldingi davrlarda yirik savdo va madaniyat markazi bo’lib, uning strategik joylashuvi tufayli ko’plab boshqa mintaqalarga ta’sir ko’rsatganini ta’kidladi[33].

Shuningdek, Ostroumov Shoshtepaning boshqa qadimiy shaharlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarini o’rganib, uning o’z davrida mintaqaviy va xalqaro savdo yo’llaridagi muhim o’rinini aniqladi.

[33] Vishnyakov, M. Shoshtepa: Yodgorlikning Arxeologik Tadqiqotlari. Moskva: Akademiya. 2001.

N.P. Ostroumovning 1896-yildagi tadqiqotlari, Shoshtepa haqidagi ilk tizimli ilmiy ishlar bo'lib, bu asar keyingi arxeologik va tarixiy tadqiqotlar uchun asos yaratgan. Ostroumovning ishlari Shoshtepa hududining qadimiy tarixini, madaniyatini va iqtisodiy ahamiyatini tushunishda katta hissa qo'shgan.

G.V. Grigoryev 1934-yil Shoshtepa hududini qazishgan va bu yerdan topilgan arxeologik materiallarni tasniflagan. U, asosan, miloddan avvalgi VI-asrga oid ko'plab ashyolarni topgan.

Shoshtepadagi qazishmalar natijasida, har xil turdagi keramika buyumlari, asbob-uskunalar, zamonaviy ko'rinishda bo'lgan hayvon tasvirlari va boshqa tarixiy predmetlar topilgan.

Grigoryevning tadqiqotlari Shoshtepa hududining qadimdan rivojlangan madaniy markaz bo'lganligini ko'rsatadi. U, bu yerda ishlab chiqarish va savdo faoliyati mavjud bo'lganligini isbotladi.

Bu asar, Shoshtepa hududining o'rta asrlar va keyingi davrlar davomida ham ahamiyatini saqlab qolganini ko'rsatadi.

Shoshtepadan topilgan arxeologik materiallar (keramika, qurol-aslahalar, idishlar, uy-ro'zg'or buyumlari) G.V. Grigoryev tomonidan tahlil qilingan va ular Shoshtepaning tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan. Grigoryev, Shoshtepa hududining qadimiy savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlanganini ta'kidlagan.

Grigoryevning 1934-yildagi tadqiqotlari Shoshtepa haqidagi dastlabki asosiy ilmiy ishlardan biri bo'lib, bu asar, hozirgi kunda ham arxeologik va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Krasheninnikova Shoshtepadagi qazishmalarni davom ettirgan va 1950-yillarning boshlarida bu hududda ko'plab qadimiy qatlamlar va madaniy materiallarni aniqlagan.

U, miloddan avvalgi V–IV-asrlarga oid yodgorliklarni va qadimiy uy-joylarni qazib chiqargan. Bu materiallar, Shoshtepa hududining uzoq tarixga ega ekanligini isbotladi.

Krasheninnikova tomonidan topilgan ashyolar orasida keramika buyumlar, qurol-aslahalar, dehqonchilik asboblari va boshqa turli xil predmetlar mavjud edi. Ularning ko'pchiligi Shoshtepaning qadimiy dehqonchilik va savdo markazi sifatidagi rolini ko'rsatadi.

Krasheninnikova topgan buyumlar orasida bir qator idishlar, silindrsimon idishlar va hayvon tasvirlari bilan bezatilgan keramika

buyumlar mavjud bo'lib, ular Shoshtepaning madaniyati va iqtisodiy faoliyatini tasvirlaydi.

Krasheninnikova, Shoshtepa hududining madaniy merosini chuqur tahlil qilib, bu yerdagi arxeologik qatlamlarning juda qadimiyligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, Shoshtepa o'z vaqtida yirik madaniy markaz bo'lib, uning hududida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo faoliyati rivojlangan.

Asarda, Shoshtepaning boshqa qadimiy shaharlar bilan madaniy aloqalari haqida ham so'z boradi. Bu aloqalar orqali Shoshtepa hududi boshqa mintaqalar bilan ham savdo va madaniyat almashishining markazi bo'lgan.

Krasheninnikova (1956) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Shoshtepa haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etgan va bu arxeologik yodgorlikni ilmiy jamoatchilikka tanitishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning ishlarida Shoshtepaning qadimiy tarixi, madaniyati va iqtisodiy hayoti haqida yangi dalillar keltirilgan, bu esa keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo'lgan.

F. Dadaboyev, Shoshtepa hududida qazishmalarni davom ettirib, ko'plab arxeologik materiallar va tarixiy ashyolarni topgan. Tadqiqotlar davomida topilgan qatlamlar, hududning qadimiy tarixini, madaniyatini va iqtisodiy faoliyatini ko'rsatgan.

Uning qazishmalari natijasida Shoshtepa hududining qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq faoliyatlari haqida yangi ma'lumotlar olingan.

F. Dadaboyev, Shoshtepadan topilgan keramika buyumlari, qurol-aslahalar, hayvon tasvirlari bilan bezatilgan idishlar, yirik dehqonchilik asboblari va boshqa madaniy artefaktlar haqida batafsil tahlil olib borgan.

Bu materiallar, Shoshtepaning nafaqat o'z davrida madaniyat markazi, balki savdo va iqtisodiy aloqalar uchun muhim bo'lgan hudud ekanligini ko'rsatadi.

Dadaboyev o'z asarida Shoshtepa hududining tarixiy ahamiyatini ta'kidlagan. U Shoshtepaning o'rta asrlarda savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlanib, boshqa mintaqalar bilan aloqalarni kuchaytirganini ko'rsatgan.

Tadqiqotlar Shoshtepaning miloddan avvalgi va milodiy asrlar davomida madaniy, iqtisodiy va siyosiy markaz sifatida rivojlanib, bir nechta madaniyatlarni birlashtirganini isbotlaydi.

F. Dadaboyevning 1970-yildagi tadqiqotlari Shoshtepa arxeologiyasiga katta hissa qo'shgan. Uning ishlari, Shoshtepa hududining qadimiy tarixini, madaniyatini va iqtisodiy rivojlanishini yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratdi. Bu asar, Shoshtepaning o'rta asrlarda va undan oldingi davrlarda qanday madaniy va savdo markazi sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi[34].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Shoshtepa arxeologik yodgorligi O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Hududda olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali Shoshtepaning ilmiy va madaniy ahamiyati yanada oshmoqda. Shu bilan birgalikda Toshkent shahrining 2200 yillik tarixini tasdiqlovchi muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahrarov, Sh. Shoshtepa: Arxeologik Tadqiqotlar. Toshkent: Fan. 1987.
2. Ergashev, A. Shoshtepa va uning Atrofidagi Yodgorliklar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. 1990.
3. Rakhmatullaev, S.. Shoshtepa: Qadimgi O'zbekiston Tarixi va Madaniyati. Toshkent: Sharq. 1998
4. Vishnyakov, M. Shoshtepa: Yodgorlikning Arxeologik Tadqiqotlari. Moskva: Akademiya. 2001.
5. Hasanov, M.. Shoshtepa va uning Ijtimoiy Ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. 2010.
6. Turayeva, N.. Shoshtepa Yodgorligi: Qadimiy O'zbekiston Madaniyati Va Tarixi. Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti. 2015.

**Usarov Umidjon Abdimavlyanovich**
O'zMU O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti

## XX ASRNING 40-YILLARI IKKINCHI YARMI – 80-YILLARI OXIRLARIDA O'ZBEKISTON SSR HUDUDIDAGI SUV OBORLARINING BARPO ETILISHIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada sovet hokimyatining O'zbekiston SSRda XX asrning 40-yillari ikkichi yarmi–80-yillari oxirlariga qadar olib borgan agrar siyosati mazmun-mohiyatini qishloq xo'jaligi tarmoqlarini

[34]Ahrarov, Sh. Shoshtepa: Arxeologik Tadqiqotlar. Toshkent: Fan. 1987.

o‘z manfaati yo‘lida rivojlantirishga harakat qilganligi ochib berilgan. Shuningdek respublika hududida paxta yakkahokimligini kuchaytirish uchun suv omborlari va turli gidrotexnik ishoatlarini qurishga e’tiborini qaratganligiga ham alohida tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, sovet hokimyati, paxta, qishloq xo‘jaligi, suv ombori, to‘g‘on, kanal, irrigatsiya inshoati, sug‘orish, yer, ekin maydoni.

XX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekiston SSR hududi ittifoq Markazi tomonidan xalq xo‘jaligining, xususan, qishloq xo‘jaligini har tamonlama qayta tiklash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston SSR hududi bu davrda agrar munosabatlarga moslashtirilgan bo‘lib, uni besh yillik davlat dasturi ya’ni davlat rejasi asosida bajarish amalga oshirildi. Bu davrda O‘zbekiston SSRda yil sayin paxta yakkahokimligi kuchayishi oqibatida yangi yerlarni o‘zlashtirish va ularni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ayniqsa paxta ekish uchun moslashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab, sovet hokimyati O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini jadal sur’atda jonlantirish uchun zahira suv manbalarini to‘plash maqsadida ko‘plab tug‘on va suv omborlari qurishni boshlagan. Jumladan, respublika xududida 1950-yildan boshlab sug‘oriladigan yer maydonlarini kengaytirish, ulardan foylanish sharoitini yaxshilash va yangi sug‘orish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog‘istonning shimoliy va janubi-g‘arbiy rayonlarida yagona kompleks asosida Amudaryoda Taxiatosh to‘g‘onini qurish bo‘yicha qator tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, 1950-yilning 12-sentabrida SSSR Ministrlar Sovetining “Bosh turkman kanalini qurish to‘g‘risida, G‘arbiy Turkmanistonni, Kaspiyning janubiy rayonlarini, Quyi Amudaryo va Qoraqum cho‘lining g‘arbini sug‘orish to‘g‘risida”gi Qarori e’lon qilindi [5, 410; 4, 14.]. Natijada bu davrdan boshlab respublika hududida ko‘plab gidrotexnik inshootlarni qurish yanada jonlandi.

XX asrning 50–60-yillar oxirlariga kelib, O‘zbekiston SSR hududidagi o‘zlashtirilgan qo‘riq yerlar hisobidan 160 ta davlat xo‘jaliklari hisoblangan savxozlar tashkil etildi. O‘zlashtirilgan yerlarda asosan paxtazorlar, bog‘lar bunyod etildi, oziq-ovqat ekinlari yetishtirildi. Qo‘riq yerlarda yirik qishloq xo‘jalik tumanlari vujudga keltirildi, yangi shaharlar qad ko‘tardi[6, 547].

Shu bilan birga, XX asrning 50–80-yillari oralig‘ida O‘zbekiston SSRda paxta yakkahokimligi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Yildan-yilga tobora ko‘payib borayotgan paxta ekin maydonlarini sug‘orish uchun respublikaning turli hududlarida yangi suv omborlari qurilib foydalanishga topshirildi. Ular qatoriga 1946–1965-yillar oralig‘ida Toshkent vohasini suv bilan ta’minlash uchun O‘rta Osiyoda eng yiriklaridan hisoblangan Chorvoq suv ombori hamda Tuyabo’g’iz va Robot suvomborlari[2, 229], 1958-yilda Buxoro viloyatining Quyimozor va Kogon temir yo‘l bekatlari oralig‘ida joylashgan Zarafshon daryosining quyi qismida Quyimozor suv ombori[1, 103], Surxondaryo viloyatining katta qismini suv bilan ta’minlovchi 1954-yil qurilishi boshlangan Uchqizil suv ombori, 1958–1967-yillar oralig‘ida Janubiy Surxon suv ombori[5, 471] va 1882–1986-yillarda To‘palang suv ombori[7], 1960-yillarda Qashqadaryo viloyatini suv bilan ta’minlash uchun Chimqo‘rg‘on (1963) va Pachkamar suv omborlari hamda 1988-yilda Kasbi tumanida viloyatning bir necha tumanlari yerlarni suv bilan ta’minlash uchun Talimarjon suv ombori[1, 106], 1965-yil yilda Sirdaryoning o‘rta oqimida Jizzah viloyatining bir qismini sug‘orish uchun Chordara suv ombori[5, 471], 1970–1983-yillar oralig‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati bir qismini suv bilan ta’minlash uchun Amudaryoning quyi oqimidagi Tuyamo‘yin tor darasida Tuyamo‘yin suv ombori[3, 505-506], 1959-1966-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysini katta qismini suv bilan ta’minlash uchun Quvasoy daryosining vodiysida Isfaramsoy tizimida Karkidon suv ombori[1, 106] va 1982-yilda Qoradaryodan suv oladigan Andijon suv ombori, va boshqalar bunyod etilgan[5, 471].

Undan tashqari bu davrga qadar qurilishi boshlangan bir qator suv omborlari faoliyati ishga tushirilgan hamda ularning hajmi qayta qurilish o‘tkazilishi natijasida oshirilgan. Masalan, Samarqand viloyatida Kattaqo‘rg‘on va Farg‘ona vodiysida esa Kasonsoy va boshqalar. Natijada bu vaqtga kelib respublika hududidagi juda katta yerlar qishloq xo‘jalik foydalanishga kiritildi[6, 546].

O‘rganilayotgan davrda O‘zbekiston SSR hududidagi qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun bunyod etilgan gidrotexnik inshootlar ishga tushirilishi natijasida 1946–1965-yillarda 600 ming gektar yangi yer o‘zlashtirilgan bo‘lsa, 1966–1985-yillarda 1,6 million gaktar yangi yer o‘zlashtirildi Bundan tashqari, 6,9 million gektar yerdagi yaylovlarga suv chiqarilgan[6, 546]. Masalan birgina, 1982-yilda qurilgan Andijon suv

ombori sig‘imi qariyb 2 milliard metr kub tashkil etgan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidagi eng yirik suv ombori hisoblangan[5, 139].

O‘zbekiston xalqlarining fidokorona mehnati tufayli 1985-yilda respublikada 900 ta sug‘orish tizimi, 92 ta gidrotexnika inshooti qishloq xo‘jaligi uchun ishlayotgan edi. Shu bilan birga respublikada 23 ta sun’iy dengiz – suv ombori suvsizlikka mustahkam to‘siq bo‘lib, ularda yerlarni sug‘orish uchun kariyb 10 milliard kub metr suv jamlangan edi[6,546]. Shuningdek, 1985-yilga kelib, O‘zbekiston SSRda sug‘orish kanallari soni ham ortdi. Bu kabi irrigatsiya inshootlarining kengayib borishi xalq xo‘jaligi uchun birmuncha iqtisodiy samara bergan bo‘lsa ham, biroq uning salbiy oqibatlari yana ham og‘irroq bo‘ldi. Chunki cho‘llarni o‘zlashtirish, sug‘orish ishlari intensiv yo‘l bilan emas, balki ekstensiv yo‘l bilan amalga oshirildi. Suvdan foydalanishda katta isrofgarchilikka yo‘l qo‘yildi[5, 139]. Buning oqibatida keyinchalik respublikaning katta hududida suv mammolarining keltirib chiqarishga olib kelgan.

Umuman olganda, sovet hokimyatining XX asrning 40-yillari ikkichi yarmi–80-yillari oxirlarida O‘zbekiston SSRda olib borgan agrar siyosatining tag zamirida ittifoq markazi manfaati uchun keng ko‘lamli xomashyo manbasiga ega bo‘lish yotar edi. Bu borada urushdan keyingi yillarda butun ittifoq hududida bo‘lgani kabi O‘zbekiston SSR hududida ham qishloq xo‘jaligi va agrosanoat tarmoqlarining barcha tarmoqlarini paxta yakka hokimligi ostida ixtisoslashtirgan xolda kompleks rivojlantirishga harakat qilgan. Aynan shuning uchun respublikaning bir qancha hududlarida suv omborlari va turli gidrotexnik inshoatlar qurilishiga o‘z e’tiborini qaratgan.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мухамедов А.К., Бегматов И.А. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш. – Тошкент; ТИМИ, 2014. – 103 б.

2. Комилов О. Ўзбекистонда суғориш тизими ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар (1951-1990). – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 229 b.

3. Сагдуллаев А.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд. Ўзбекистон тарихи ва манбалари. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2023. – 505-506.

4. Султанова С. Каракалпакстан в 1946–1960 годах: узловые проблемы истории. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Нукус, 2001. – С. 14.

5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 2. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда / масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2019. – 139, 410, 471 б.

6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 546-547 б.

**Жамшид Адилов**
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Миллий археология маркази катта илмий ходими

## ТОШКЕНТ ШАҲРИ ГЕРБИ: ЯРАТИЛИШ ТАРИХИ ВА УНИНГ СЕМАНТИКАСИ

***Аннотация:*** *Мақола Россия империяси томонидан Туркистон генерал-губернаторлигида гербларни жорий қилиниши Тошкент шаҳри герби мисолида кўриб чиқилган. Тошкент шаҳри гербини яратилиши ва унинг семантикаси геральдика қоидалари нуқтаи назаридан таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар****: Туркистон генерал-губернаторлиги, Тошкент, герб, геральдика, семантика, Марказий Осиё, Сирдарё вилояти*.

Россия империясининг босқинига қадар, Марказий Осиё учун геральдиканинг тадқиқот объекти бўлган мумтоз герб тушунчаси бегона бўлган. Гербларнинг вазифасини минтақада қадимдан мавжуд бўлган ва ривожланган турли белгилар, тамғалар ва туғролар – монограммалар бажарган[2]. Тўғри, ўлка учун давлатчиликнинг янги рамзи бўлган герблар бир қарашда Россия империяси давлатчилиги анъаналарини ўзида мужассам этган. Аммо гербларнинг чуқур таҳлили шуни кўрсатадики, улардаги тасвир ва рамзларнинг семантикасида маҳаллий давлатчилик белгиларининг айрим жиҳатлари сақланиб қолинган. Бу даврда Туркистон генерал-губернаторлигидаги маъмурий бирликлар (шаҳарлар, вилоятлар ва ўлка) гербларининг шакли ва кўриниши, уларнинг тузилишини таҳлил этиш орқали метрополиянинг ўлкага бўлган муносабати, ўлканинг империя олий амалдорлари тасаввурида гавдаланиши

ҳақида маълумот олишимиз мумкин. Бу жиҳатдан империянинг маҳаллий амалдорлари ва маъмурларининг фикр ва қарашлари уларнинг метрополиядаги ҳамкасбларидан фарқ қилиши билан диққатга сазовордир.

Герб бирон бир мамлакат ёки ҳудуднинг сиёсий ва тарихий характердаги ғоялари мажмуасини, ўзига хос табиий ва хўжалик хусусиятларини, табақавий тавофутларини, шахс, уруғ ва бошқаларнинг шажараларини ифодаловчи алоҳида рамзий белгидир. Ўз навбатида эса, герблар давлатлар, уларнинг алоҳида қисмлари (вилоят, округ, штат ва ҳ.к.), шаҳарлар, сулолар ва алоҳида шахсларга тегишли бўлиши мумкин. Гербларни ўрганувчи фан геральдикадир. Геральдика махсус тарихий фан бўлиб, у маълум бир қоидалар асосида тузиладиган рамзий белгилар – гербларни ва улар ҳақидаги маълумотларни ўрганади[1, 1; 7, 40]. Тарихий тадқиқотларда геральдика методларини қўллаш аввало, манбаларнинг санасини аниқлаш, уларнинг у ёки бу даврга оидлигини кўрсатиш учун хизмат қилади. Шунингдек, геральдика воситасида у ёки бу манбанинг тегишлилигини, қаерда ва ким томонидан яратилганлигини, қолаверса, қандай аҳамиятга эга эканлигини (ҳужжатнинг статусини) аниқлаш мумкин. Бунда бевосита манбада акс эттирилган гербнинг мавжудлиги бош омил ҳисобланади. Герб билан боғлиқ ҳолда тарихий манбаларни ўрганиш, тадқиқ этиш ва улар орқали маълум бир даврнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий аҳволини очиб бериш, ҳукмдорлар, сулолалар, шахслар, воқеаларни даврлаштириш мумкин.

Шу ўринда муаммонинг бугунги кунга қадар деярли ўрганил-маганлигига алоҳида тўхталиб ўтиш лозим. Умуман олганда, давлатчилик тарихининг муҳим бир таркибий қисми бўлган гербларга доир тадқиқотларни Ватан тарихи тарихшунослигида ҳам камлиги масаланинг долзарблигини янада оширади. Бугунги кунга қадар айнан Туркистон генерал-губернаторлиги геральдикаси тарихига доир фақатгина илмий-оммабоп, тавсифий хусусиятга эга бир қанча ишлар мавжуд[6; 8, 15; 10; 11; 12].

Россия империяси, Марказий Осиё ҳудудини босиб олиш жараёнидаёқ, бу ерда ўз маъмурий тизимини ўрната бошлайди. Шунингдек, ўлкада Россия империяси томонидапҳн давлатчилик белгилари – байроқ, герб, пул ва ҳ.қ.лар жорий этила бошлайди.

Хусусан, Тошкент шаҳри учун 1866 йилдаёқ шаҳар герби лойиҳаси ишлаб чиқилди. Бу лойиҳа маълум бир сабабларга кўра қабул қилинмай қолган бўлса-да, у ўлкада айнан биринчи ўзига хос геральдиканинг шаклланишидаги дастлабки қадам эди.

Туркистон ўлкасининг Россия империяси томонидан босиб олиниши жараёни давомида ўлканинг маъмурий-ҳудудий тузилиши, чегаралари ва уларнинг мақоми ўзгариб туриши баробарида, бу ерда империя рамзи сифатида шаҳарлар, вилоятлар ва ўлка гербидан иборат Туркистон генерал-губернаторлиги геральдикаси шаклланган. Маълумки, 1867 йилда дастлаб икки вилоятни – Еттисув ва Сирдарёни ўз ичига олган Туркистон генераль-губернаторлиги ташкил этилган. 1868 йилда Зарафшон округи, 1876 йилда эса Фарғона вилояти, 1887 йилда Зарафшон округи ўрнида Самарқанд вилояти ташкил қилинди. 1897 йилда Туркистон ўлкасига Каспийорти вилояти ҳам қўшилди. Айнан шу йили, 1882 йилда Дашт генерал-губернаторлиги тассаруфига ўтказилган Еттисув вилояти Туркистон генерал-губернатолигига қайтарилди. Ўлка ҳудуди ва чегараларининг ўзгариб туриши, ҳудуддаги маъмурий бирликлар мақоминиг маълум бир давргача ноаниқ бўлганлиги, қолаверса, Россия империясининг маъмурий-бюрократик аппаратида иш юритиш жуда секин амалга оширилганлиги ўлкада расман тасдиқланган гербларнинг шаклланиш жараёнини ортга сурди. Натижада генерал-гебернаторлик ва унинг таркибидаги вилоятлар герблари XIX асрнинг 80-90-йилларидагина расман тасдиқланди ва жорий этилди.

Герблар кейинчалик Туркистон ўлкасидаги шаҳарлар учун ҳам жорий этилади. Шу ўринда шаҳарлар гербларини ҳар қандай герб каби нафақат тарихий манба ёки санъат асари сифатида, балки уларни ҳужжатлар билан биргаликда тадқиқ этиш орқали минтақанинг ижтимоий-сиёсий тарихини ўрганишда хизмат қилувчи восита сифатида баҳолашимиз лозим[9, 5]. Шунингдек, шаҳарлар гербларини тарихий манба сифатида ўрганишимиз ушбу шаҳарларнинг ривожланиш тарихи, марказий давлат муассасаларининг фаолияти, маҳаллий маъмуриятга ва ушбу ҳудудга (шаҳарга) олий ҳукумат органлари ва вакилларининг муносабатини аниқлаш имконини беради. Фикримизни тасдиқловчи ёрқин мисол

сифатида мустамлака даврдаги Тошкент шаҳрининг герби яратилиши ва жорий этилиши тарихини келтириш мумкин.

Маълумки, 1865 йилда Тошкент шаҳри Россия империяси қўшинлари томонидан босиб олинган бўлиб, кейинчалик шаҳар Оренбург генерал-губернаторлиги таркибидаги Туркистон вилоятига киритилган. 1866 йилдаёқ Тошкент шаҳри гербининг биринчи лойиҳаси ишлаб чиқилган бўлиб, ундаги тасвирга кўра, “Кумуш қалқон тўқ қизил (червлёный) хоч билан тўрт қисмга бўлинган. Ҳар бир қисмда яшил узум новдаси билан тасвирланган. Қалқоннинг эркин қисмида Туркистон вилояти герби жойлаштирилган”. Шунингдек, қалқон уч буржли қалъа минораси кўринишидаги кумуш тож ва икки ён тарафида Александр тасмаси билан бирлаштирилган узум новдалари билан безалган[16] (I расм).

Кейинчалик Туркистон вилоятининг 1867 йилда Туркистон генерал-губернаторлигига айлантирилиши ва унинг маъмурий маркази сифатида Тошкент шаҳрини белгиланиши билан бу герб лойиҳаси расман тасдиқланмаган. Бу герб лойиҳаси долзарблигини йўқотади. Бир вақтнинг ўзида Тошкент Сирдарё вилояти ва унинг таркибидаги Тошкент уезди маркази ҳам ҳисобланган. Шунингдек, у ўлка генерал-губернатори ва Туркистон ҳарбий округи қўмондонинг қароргоҳи, Ўрта Осиё темир йўлининг муҳим станцияси ва йирик маъмурий, савдо-саноат маркази бўлган.

Аммо юқорида таъкидланган анчагина баланд статусга қарамай шаҳар расмий равишда фақатгина 1909 йилнинг 21 апрелида ўз гербига эга бўлади. Тошкент шаҳри герби Сирдарё вилоятининг бошқа шаҳарлари герблари билан Олий даражада тасдиқланган бўлиб, қуйидаги кўринишда бўлган: “Олтин қалқон ўртасида ҳаворанг (лазурный) тўлқинсимон тасма жойлаштирилган. Унинг юқори ва пастки қисмида яшил чалқанча жойлаштирилган узум барглари тасвирланган. Қалқон уч буржли қалъа минораси кўринишидаги олтин тож ва икки ён тарафида Александр тасмаси билан бирлаштирилган узум новдалари (арматура – *Ж.А.*) билан безалган” [14] (II ва III расмлар). Тошкент герби рус геральдикаси анъанасига мувофиқ шакилга эга бўлиб, герб қалқони – жанговар қалқон, француз қалқони шаклида – тўғри бурчакли, пастки чеккалари овал шакилда ва ўрта пастки қисми учли қилиб тасвирланган.

Ушбу гербдаги ҳаворанг (лазурный) тўлқинсимон тасма шаҳарни “янги” ва “эски” қисмларга ажратиб турувчи, ҳамда унинг асосий сув манбаларидан бири Бўзсув каналининг ўнг тармоғи бўлган Анҳор каналининг рамзи бўлган. Узум барглари ва умуман узум қадимги даврдан серҳосиллик ва тўкин-сочинлик рамзи, шунингдек, ҳаётий куч ва қувноқлик рамзи бўлган. Узум новдаси эса ўтроқ маданият рамзи бўлган.

Шунингдек, Россия империясининг 1857 йил 16 апрелдаги “Губерниялар, шаҳар ҳокимликлари, шаҳарлар ва посадлар шаҳарлари ҳақида”ги фармонига[13] кўра уч буржли қалъа минораси кўринишидаги олтин тож губерниялар маркази ҳисобланувчи шаҳарлар гербларида қўлланилган. Герб арматурасидаги Александр тасмаси – қизил рангда бўлиб, вилоятлар, шаҳар ҳокимликлари ва уезд маркази ҳисобланувчи шаҳарлар гербларни безатишда қўлланилган. Александр тасмаси иккита узум новдаси билан виночилик билан шуғулланувчи шаҳарлар герби арматурасида ишлатилган[15].

Шу ўринда 1909 йилгача амалда бўлган Тошкент шаҳар герби вазифасини 1878 йил 5 июлда (№58684 қонун) тасдиқланган Сирдарё вилояти герби бажарганлигини таъкидлаш лозим. Кейинчалик шаҳар герби қалқони тўлиқ ҳолда вилоят герби қалқонини такрорлаганини кўришимиз мумкин. Аммо Сирдарё вилояти герби рус геральдикаси қоидаларига кўра Қадимги Подшоҳлик тожи ҳамда Александр тасмаси воситасида бирлаштирилган олтин эман барглари билан безатилган[5, 149] (IV расм). Бунда герб ўртасида тасвирланган ҳаворанг (лазурный) тўлқинсимон тасма – вилоятдаги ҳаёт ва ҳосилдорлик манбаи бўлган Сирдарё дарёсини англатса, узум барглари ва новдалари вилоятдаги узумчилик хўжалиги ривожини англатар эди[3, 96-97].

Сирдарё вилояти шаҳарларининг 1909 йили тасдиқланган гербларини П.П. фон-Винклер томонидан 1900 йили тузилган машҳур – “Гербы городов, губерний, областей и посадов Российской империи” нашрига табиийки киритилмаган. Улар фақатгина 1912 йили “Россия империяси қонунларни тўлиқ тўплами”да эълон қилинган.

Россия империяси даврида тасдиқланган барча гербларни Совет Иттифоқида де-факто ўз кучини йўқотган ва бекор қилинган деб ҳисобланса-да де-юре улар расмий равишда ҳеч ким бекор қилмаган

эди. Хусусан, Тошкент шаҳар герби ҳам 1917 йил ноябрда шаҳарда совет тузуми қарор топгунча амалда бўлган. Кейинчалик бу герб “аввалги тузум” рамзи ва “синфий нотенглик” белгиси сифатида унитилган эди. Шаҳар ўзининг кейинги расмий гербига фақатгина 1981 йилда эга бўлган эди.

Шундай қилиб, шаҳар гербларини ҳам биз учун Туркистон генерал-губернаторлиги ва умуман мустамлака даврида ўлкада қарор топган Россия империясининг давлатчилик рамзи ва империя олий ҳокимиятининг ўлка шаҳарларига бўлган муносабатини кўрсатувчи манба бўлиб хизмат қилади. Ушбу герб бизга олий ҳокимият вакилларини шаҳарга ва умуман ўлкага бўлган муносабатини ва уларни Россия империяси давлатчилик тизимидаги ўрнини кўрсатади. Шунингдек, ушбу герб ўзида шаҳарнинг маъмурий статуси, географияси, табиати ва хўжалиги каби амалий маълумотларни ҳам мужассам этган[4, 37-41].

Хулоса қилиб айтганда, Туркистон генерал-губернаторлиги геральдикасини тадқиқ этиш ушбу даврда ўлка тарихи, алоҳида вилоятлар ва шаҳарлар тарихини тадқиқ этишда муҳим манба бўла олади. Шунингдек, ушбу гербларни у ёки бу архив ҳужжатлари ва манбаларнинг яратилган санаси ва жойини аниқлашда ёрдам беради. Қолаверса, ушбу гербларни семантикасини таҳлил этиш мустамлака давридаги давлатчилик масалалари тарихини ёритувчи манба бўла олади. Фикримизча, бугунги кунда ушбу манбаларни – гербларни тасвирини таҳлил этиш минтақа тарихини ҳали тадқиқ этилмаган жиҳатларини ёритиш учун хизмат қилади.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arthur Charles Fox-Davies. A complete guide to heraldry. London, Edinburgh: T.C. & E.C. Jack, 1909.

2. Ottfried Neubecker. Heraldik. Wappen – Ihr Ursprung, Sinn und Wert.Frankfurt am Main: Krüger, 1977.

3. Адилов Ж.Х. История создания городского герба Ташкента *(вторая половина 60-х годов XIX века – начало XX века) //* Вспомогательные исторические дисциплины в современном научном знании: Материалы XXVIII Междунар. науч. конф. Москва, 14-16 апр. 2016 г. М.: Аквилон, 2016.. С. 96-97.

4. Адилов Ж.Х., Усаров У.А. Гербы – как важный источник по истории Туркестанского генерал-губернаторства *(на примере Ташкентского городского герба)* // Ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XIII илмий-амалий конференцияси тезислари. Тошкент, 2016. С. 37-41.

5. фон-Винклер П.П. Гербы городов, губерний, областей и посадов Российской Империи, внесенные в Полное Собрание законов с 1649 по 1900 год. СПб., 1900.

6. Гербы Средней Азии // URL: https://mytashkent.uz/2013/02/24/gerby-srednej-azii

7. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. и др. Введение в специальные исторические дисциплины. М.: Изд-во МГУ, 1990.

8. Рево О. Гербы городов Сырдарьинской области Российской империи // Наука и жизнь. 1998. № 4.

9. Соболева Н.А. Российская городская и областная Геральдика XVIII-XIX вв. М.: Наука, 1981.

10. Туркестан и Средняя Азия в составе Российской империи // URL: http://www.heraldicum.ru/uzbekstn/gubernii.htm;

11. Тутов А. Герб Туркестанского генерал-губернаторства // URL: https://mytashkent.uz/2012/09/18/gerb-turkestanskogo-general-gubernatorstva;

12. Арапов А. Первый герб Ташкента (1909 год) // URL: https://mytashkent.uz/2012/09/14/pervyj-gerb-tashkenta-1909-god;

13. Указ № 32037 от 4\16.07.1857 г. «О гербах губерний, областей, градоначальств, городов и посадов» // **URL:** http://goldarms.narod.ru/status2.htm

14. URL: http://geraldika.ru/symbols/9109

15. URL: http://statesymbol.ru/dictionaries/20070

16. URL: http://www.heraldicum.ru/uzbekistan/towns/tashkent

**Илова**



I расм. **Тошкент шаҳри герби лойиҳаси (1866).**



II расм. **Тошкент шаҳри герби (1909).**



III расм. **Тошкент шаҳри герби (1909).**



IV расм. **Сирдарё вилояти герби (1878).**

**Hamrayev Sunnatillo**
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

## BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARIDA TOSHKENTNING AHAMIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘ratsidagi diplomatik munosabatlarida Toshkentning bosib olinishi masalasining ahamiyati yoritilgan. Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga nisbatan Buxoro amirligining munosabatni*

*tadqiqotlarda yoritilishi, mazkur masala yuzasidan turli qarama-qarshi yondashuvlar tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, Toshkent, diplomatik munosabatlar, M.G. Chernyayev, yondashuvlar.*

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlarda doim Toshkent muhim o‘rin tutgan. Jumladan Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga harbiy yurishi jarayonida Buxoro amirligi Toshkentning bosib olinishiga nisbatan qarshi chiqqanligi ma’lum. Toshkent egallanishiga nisbatan Buxoro amirining munosabati va shu bilan bog‘liq tarixiy voqeliklar xususida Buxoro-Rossiya munosabatlari va Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi tarixini o‘rganilishi jarayonida murojaat qilingan[8, B. 54]. Ushbu jarayonda ko‘plab tarixchilar tomonidan bir qator yondashuvlar ilgari surilgan.

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olinishini yoritgan M.N. Pokrovskiy Rossiya imperiyasining Toshkentning egallanishidan keyin Buxoro amirligi bilan olib borilgan diplomatik muzokaralarga e’tibor qaratgan. Xususan, Rossiya imperiyasining bosqini davomida Buxoro amiri Rossiya generallari bilan muzokaralar olib borgani, Rossiya armiyasining Qo‘qon xonligi bilan urishlari va Toshkentga hujumi davomida M.G. Chernyayevning xatti-harakatlariga amirning norozilik bildirishi va bunga M.G. Chernyayevning shu zahoti Qo‘qon xonligini Rossiya va Buxoro o‘rtasida bo‘lish taklifi bilan javob berganligi kabi ma’lumotlar keltirilgan[3, B. 326-327]. U o‘z fikrini davom etar ekan, M.G. Chernyayev Buxoro amiriga “Toshkentda nima qilishni bilmaymiz vasiyligimiz ostidagi alohida xonlik bo‘ladi” deb tushuntirish berdi[3, B. 326-327]. Shundan keyin, amir o‘z huquqlarini ko‘rsatish uchun Aleksandr II ga elchi yubordi, elchilik birinchi rus shahridan o‘ta olmadi va o‘sha yerda hibsga olinib qamaldi. Buxorolik savdogarlar ham qamoqqa olindi. Amir bunga javoban rus savdogarlarini va shu paytda M.G. Chernyayevning Buxoroda bo‘lib turgan elchisini qamoqqa oldi va urushga tayyorgarlik ko‘ra boshladi deb, ta’kidlaydi[3, B. 326-327]. M.N. Pokrovskiy ushbu ma’lumotlar bilan davlatlarning o‘rtasidagi munosabatlar doirasida diplomatik qoidalarga zid harakat bo‘lganligini, ya’ni, Rossiya imperiyasi o‘z manfaatlari uchun elchining daxlsizlik maqomini buzib, diplomatik muzokaralarga to‘sqinlik qilganligi kabi tarixiy voqealarni ochiq yoritgan.

A.L. Popov esa o‘z tadqiqotida M.N. Pokrovskiyning Rossiya imperiyasining tashqi siyosatini o‘rganishining “mustamlakachilik

yondashuvini" inkor etadi va M.N. Pokrovskiyning Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyoning bosib olinishi to‘g‘risidagi fikrlarini tanqid qiladi. Xususan, M.G. Chernyayevning amirga "Toshkent bosib olinganidan keyin nima qilishni bilmasligi" to‘g‘risidagi gapi asossiz ekanligi, bu masaladagi rejalar 1858-yilda aniq bo‘lganligini ta'kidlagan[4, B. 319]. Qolaversa, ushbu masalada Buxoro-Rossiya munosabatlarida yuzaga kelgan vaziyat xususida "Muxtasar qilib aytganda, xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo M.N. Pokrovskiy nazarda tutgan kulrang dog‘ga umuman o‘xshamadi. Bu jihatlarni hisobga olmagan holda, M.N. Pokrovskiy Rossiya imperiyasining harbiy operatsiyalari ketma-ketligini tushuna olmaydi, deb baho bergan"[4, B. 319]. A.L. Popov o‘z fikrlarida Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosatini tan oladi. Ammo, shu bilan bir qatorda M.N. Pokrovskiy qarashlarini inkor qilib, uni Markaziy Osiyoni bosib olinish tarixini o‘rganishda na ichki, na xalqaro siyosatni, na o‘zbek xonliklari o‘rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratmaganlikda ayblaydi[4, B. 319]. Shuningdek, "Pokrovskiy mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish, uning Metropol uchun ahamiyati ortib borishi va Markaziy Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakatlari masalalariga e'tibor bermaydi. O‘zi ilgari surgan "progressivlik" tezisini unutib, u asosiy e'tiborni butunlay boshqacha narsaga qaratadi" deb, baholagan[4, B. 321]. A.L. Popov Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishining progressiv ahamiyatini ta'kidlab, masalaga shu nuqtayi nazardan qarash lozim deb hisoblagan. Umuman olganda A.L. Popov tadqiqoti o‘z oldiga M.N. Pokrovskiy ishlarini tanqid qilishni asosiy masala sifatida qo‘ygan.

R. Xoliqova ham o‘z tadqiqotida rus harbiy amaldorlari N.G. Chernyayev, N.A. Krijanovskiy, D.I. Romanovskiy, K.P. Kaufman bilan Buxoro amiri o‘rtasida Toshkent masalasi va urushning oldini olish, maqsadida natijasiz muzokaralar bo‘lganligini bayon qiladi[7, B. 100-106, 114-116.]. Shu o‘rinda ta'kidlash joizki, R. Xoliqovaning tadqiqoti Buxoro amirligining Toshkent masalasida Rossiya imperiyasi bilan olib borgan muzokaralariga oid ma'lumotlarni to‘ldiradi. Jumladan, amirning Qo‘qonni egallashi va Xudayorxonni o‘z vakili qilib tayinlab Buxoroga qaytganidan keyin o‘z fuqarolarining (elchilari – H.S.) general Chernyayev tomonidan ushlanganligi to‘g‘risidagi xabarni eshitishi bilanoq darhol butun Buxoro amirligi hududidagi barcha rus savdogarlarini mollari bilan birga qamoqqa olishni buyuradi. 1865 yilning sentabr oyida Buxoro amaldorlaridan Rustambek Chirchiqorti o‘lkasi hududiga hujum

uyushtiradi. Rustambekning hujumi va ushbu hududni ship-shiydon qilib ketishi general Chernyayev ahvolini bir qadar og‘irlashtirib qo‘yadi[7, B. 102]. *Mazkur ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, Buxoro amirligi Toshkent masalasida Rossiya imperiyasi bilan ham diplomatik, ham harbiy harakatlar orqali kurash olib borgan.*

Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi Buxoro-Rossiya diplomatik munosabatlarini buzganligi va amirning bu masaladagi kurashi Buxoro amirligiga qarshi hujum boshlanishiga sabab bo‘lgani xususidagi qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, S.V. Timchenko, “Toshkent bosib olingandan keyin Rossiya-Buxoro munosabatlari yomonlashdi. Buning sababi M.G. Chernyayevdan amirga yuborilgan rus zobitlarining Buxoroda hibsga olinishi edi deb, hisoblaydi. Buxoro amirining harakatlariga javoban M.G. Chernyayev Buxoroga qarshi harbiy hujum boshladi”[5, B. 122-137] deb, ta’kidlaydi. Ushbu qisqa ma’lumotlar bilan muallif, tarixiy jarayonlarni to‘liq ko‘rsatmay Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga hujum boshlashida amirning harakatlarini asosiy sabab sifatida talqin qilmoqda. Vaholanki, dastlab Buxoro amirligi tomonidan elchilar yuborilgan bo‘lib, Rossiya imperiyasi amirning elchilarini hibsga olib diplomatik munosabatlar tartibini buzgan edi. Ta’kidlash joizki, ushbu fikrlar sovet davrining 60–80-yillarida shakllangan va o‘rnatilgan yondashuvlarning o‘zgacha talqini hisoblanadi.

Toshkentni bosib olinishiga Buxoro amirligining ijobiy munosabati haqidagi qarashlar ham mavjud. Masalan, P.P. Ivanov “Buxoroliklar aytadi, ular Toshkentning ruslar tomonidan bosib olinganidan juda mamnun bo‘lgandilar, shunda bizga Qo‘qonni bosib olish oson bo‘ladi” ilgari ya’ni, 1858-yil Buxorodan Rossiyaga qaytgan (N. Ignatyev elchiligi orqali – S.H.) xabardagi harbiy rejalardan biri edi[2, B. 146]. Bu tafsilotlar, Amir Nasrulloning hamda uning o‘g‘li va vorisi bo‘lmish Muzaffar (1860–1885)ning siyosiy faoliyati bir-biriga juda mos kelishini ko‘rsatadi[2, B. 146]. Ushbu qarashlar o‘zbek xonliklari o‘rtasidagi siyosiy vaziyatni, hamda bu yerdagi davlatlarning Rossiya imperiyasiga nisbatan munosabatlari qay tarzda bo‘lganligini izohlaydi. Ammo, Buxoro amirligining Toshkent masalasidagi pozitsiyasini buzib talqin qilgan deb ta’kidlash mumkin. Zero, Amir Muzaffar Qo‘qon xonligini bosib olishga harakat qilish bilan bir qatorda Toshkentning Rossiya imperiyasi nazoratiga o‘tishiga ham qarshilik ko‘rsatganligini yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkin. Tadqiqotchi shu o‘rinda Rossiya

imperiyasining Qo‘qon xonligiga qarshi bosqinchilik harakatlaridan Buxoro amirligi ham manfaatdor ekanligini ta’kidlab, Rossiya hukumatini o‘z asl maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida Buxoro hukumatining chalg‘itilganligi xususidagi tarixiy faktni “e’tibordan chetda qoldiradi”.

Shu kabi fikrlar N.A. Xalfin tomonidan ham ilgari surilgan. Muallif, ushbu masala yuzasidam Mirzo Abdulazim Somiyning so‘zlarini keltirib, “Chernyayevning tajovuzkor harakatlariga bilvosita Buxoro amiri Muzaffar yordam bergan. U Toshkent aholisining bir qismi yordam so‘rab qilgan iltimoslariga javob bermaygina qolmay, balki Qo‘qon xonligi tushgan og‘ir ahvoldan foydalanib, unga zarba bergan. “Toshkent aholisi amir Muzaffarga yordam so‘rab qancha xat yozishmasin, bu hech qanday natija bermadi. Bundan tashqari, amir Xo‘janddan chiqib, katta qo‘shin va gumburlagan to‘plar bilan Qo‘qonga yurish qildi” deb, ta’kidlaydi[6, B. 195]. Umuman olganda, N.A. Xalfin Buxoro amirligi Toshkentning bosib olinishiga nisbatan jiddiy qarshilik bildirmaganligi to‘g‘risidagi fikrlarni qo‘llab quvvatlaydi.

Mazkur masalaga S.N. Brejneva ham O‘zbek xonliklari o‘rtasidagi munosbatlar nuqtayi nazaridan yondashgan. Uning ta’kidlashicha N.P. Ignatyevning Xiva va Buxoroga qilgan missiyasining vazifasi “O‘zbek xonliklarining birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun Buxoro amirini Xiva va Qo‘qon xoni bilan urushtirishdan iborat edi. Bundan tashqari, agar Rossiya Buxoro amiriga Qo‘qon xoniga qarshi urushda yordam ko‘rsatgan bo‘lsa, Rossiya Buxorodan Toshkent va Turkistonni berishni talab qilishi mumkin edi” deb ta’kidlaydi[1, B. 44]. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, muallif tomonidan bildirilgan ushbu fikrlar biryoqlama qarash bo‘lib, kamida N.P. Ignatyev va undan keyingi Buxoro-Rossiya munosabatlarida Rossiya imperiyasiga Toshkent va Turkistonning berilishi masalasida tarixiy haqiqat buzib talqin qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishi va unga Buxoro amirligining munosabati tarixiga nisbatan qarashlarni ikki asosiy guruhga ajralganligi kuzatiladi. Birinchisi, Buxoro amirligi Toshkent masalasida Rossiya imperiyasi bilan diplomatik kurash olib borilganligini ta’kidlasa, ikkinchi guruh mualliflari Buxoro amirligi Qo‘qon xonligidagi siyosiy vaziyatdan foydalanib xonlikni bo‘ysundirganligi e’tirof etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Брежнева С.Н. Историографи проблемы присоединения Туркестанского края к России (вторая половина XIX в. – начала XXI в.): Автореф. дисс. док. ист. наук. – Москва, 2005. – С. 44.
2. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии XVI – середина XIX в. – Москва, 1958. – С. 146.
3. Покровский М.Н. Дипломатия и войны царской России в XIX столетии. Сборник статей. – Москва, 1923. – С. 326-327.
4. Попов А.Л. Внешняя политика русского царизма в XIX веке в кривом зеркале, М.Н. Покровского // Против антимарксистской концепции М.Н. Покровского. – Москва-Ленинград, 1940. – С. 319.
5. Тимченко С.В. Среднеазиатский вопрос в англо-русских отношениях в конце 50 х – начале 60 х гг. XIX в. // Международные отношения в Центральной Азии: история и современность. Материалы научной конференции. – Барнаул, 2008. – С. 122-137.
6. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.). М.: Наука, 1965. – С. 195.
7. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 100-106, 114-116.
8. Hamrayev S.A. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi elchilik munosabatlari tarixshunosligi. Tarix fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2025. – 54 b.

**Toshtemirova Saodat Abdurashidovna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

**CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI**

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola Chirchiq shahrining 1930-yillardan boshlab XXI asrgacha bo‘lgan bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonini tahlil qiladi. Maqolada sanoatlashuv, Ikkinchi jahon urushi davridagi evakuatsiya va harbiylashuv, sovet davrining urushdan keyingi kengayishi, 1980-yillarda kuzatilgan turg‘unlik va 1991-yildan so‘nggi bozor iqtisodiyotiga moslashuv jarayonlari tarixiy-taqqosiy uslubda o‘rganildi. Maqolada kimyo, energetika, metallurgiya kabi tarmoqlarning shakllanishi, demografik tarkibning ko‘p millatli modeldan mahalliylashuvga o‘tishi, ekologik muammolar va ularning bosqichma-bosqich bartaraf etilishi yoritildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, pedagogika va*

*sport oliy ta’lim muassasalarining ko‘chirilishi hamda yangi sanoat zonalarining tashkil etilishi Chirchiqning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini tubdan o‘zgartirgani ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijasida shahar rivojida uzviylik va uzilishlarning o‘zaro uyg‘unligi aniqlanib, Chirchiq tajribasi boshqa sanoat markazlari uchun ham model bo‘la olishi xulosa qilindi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chirchiq, sanoatlashuv, Ikkinchi jahon urushi, sovet davri, mustaqillik, ijtimoiy transformatsiya, demografiya, ta’lim, ekologiya, erkin iqtisodiy zona*

Chirchiq shahri Toshkent viloyatidagi yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi XX asr davomida sodir bo‘lgan keng ko‘lamli tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Sovet davrida sanoatlashuv va aholi ko‘payishi, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi strategik rol, shuningdek, mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlar Chirchiqning bugungi qiyofasini belgilagan omillardir.

Chirchiq shahri tarixi 1930-yillarda, Sovet Ittifoqining sanoatlashuv siyosati doirasida boshlanadi. 1932-yil 28-apreldagi qaror bilan Chirchiq daryosida yirik GESlar kaskadi va elektroximyo kombinati qurilishi boshlab yuborildi. Bu loyiha natijasida bir nechta ishchi posyolkalar birlashib, 1935-yil 1-may kuni Chirchiq shahri rasman tashkil topdi.

1935–1940-yillarda Chirchiqda dastlabki sanoat infratuzilmasi shakllandi. Xususan, Chirchiq gidroelektr stansiyasi hamda Chirchiq elektroximyo zavodi (elektrokimyo kombinati) ishga tushirilib, azotli o‘g‘itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. 1940-yilda foydalanishga topshirilgan ushbu Chirchiq elektroximyo kombinat O‘zbekiston SSR dagi eng birinchi yirik sanoat korxonasi bo‘lib, respublika qishloq xo‘jaligini kimyoviy o‘g‘it bilan ta’minlashga xizmat qildi.

1930-yillarning oxiriga kelib Chirchiqda zavod-fabrikalar atrofida yangi turar-joy massivlari, madaniy-maishiy obyektlar paydo bo‘ldi. Shahar bosh rejalari (1933–1936-yillarda Moskvaning “Gidroproyekt” instituti tomonidan ishlab chiqilgan) asosida to‘g‘ri to‘r ko‘cha rejalashtiruvi, tipik uy-joylar qurilishi boshlandi. Natijada 1939-yilga kelib shahar aholisi 15 mingdan oshdi, Chirchiq sanoat shaharchasi qiyofasini ola boshladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945) Chirchiq Sovet ittifoqining g‘arbiy hududlaridan ko‘chirilgan zavodlarni qabul qilib, strategik sanoat markazlaridan biriga aylandi. 1941-yilda urush boshlangach, jami 143 ta sanoat korxona O‘zbekistonga evakuatsiya

qilingan bo‘lib, ulardan eng yirklari Chirchiq, Qo‘qon, Bekobod kabi shaharlarga joylashtirildi. Chirchiqda evakuatsiya qilingan uskunalar negizida qisqa fursatda “Chirchiqselmash” (qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodi), “O‘zbekximmash” (kimyo mashinasozlik zavodi), Chirchiq transformator zavodi hamda Issiqlikka chidamli metallar kombinati (UzKTJM) kabi yangi yirik zavodlar qurilib ishga tushirildi. 1940-yillar davomida Chirchiqda jami 12 ta yangi sanoat korxonasi foydalanishga topshirilib, 1950-yilga kelib shahardagi sanoat korxonalari soni 20 tadan oshdi.

Urush davrida Chirchiq zavodlari front ehtiyojlariga yo‘naltirildi. Chirchiqselmash zavodi qishloq xo‘jaligi texnikasini emas, balki harbiy texnika uchun zarur jihozlar tayyorlashga moslashtirildi. Transformator zavodi front uchun elektr uskunalar yetkazib berdi. Elektroximyo kombinati esa portlovchi moddalar va o‘g‘it sifatida foydalaniladigan kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarib, qishloq xo‘jaligini ham qo‘llab-quvvatladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, urush yillarida Chirchiq sanoati mahsulot hajmi keskin oshib, butun respublika mudofaa sanoatining muhim qismi aynan shu shaharga to‘g‘ri kelgan. Masalan, 1943-yilda Chirchiq kimyo zavodida ammiak selitrasi ishlab chiqarish rejalari oshirilib, mahsulot front ortiga uzluksiz yetkazib berildi (manbalar bilan tasdiqlanishi lozim).

Chirchiq kimyo kombinati urush davrida nafaqat oddiy mahsulot, balki yangi strategik materiallar ishlab chiqarish bo‘yicha tajriba maydoniga aylangan. Jumladan, 1945-yilda mazkur kombinat negizida og‘ir suv (deyteriy oksidi) olish uskunasini ishga tushirib, yadro tadqiqotlari uchun yuqori sifatli grafit elektrodlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Bu ishlar Sovet Ittifoqining akademik I.V. Kurchatov rahbarligidagi atom loyihasi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, Chirchiq korxonasi yadro quroli yaratish bo‘yicha dastlabki ilmiy-texnik sa’y-harakatlarda muhim vazifalarni bajargan.

Urush yillarida shaharda sanoat bilan bir qatorda harbiy infratuzilma ham rivoj topdi. Xususan, 1941-yilda Toshkent oliy tank qo‘mondonlik bilim yurtining Chirchiqda filiali (Tankchilar bilim yurti) ochilib, front uchun tank komandirlari va muhandis-mutaxassislar tayyorlangan. Shuningdek, Chirchiqda joylashgan aviatsiya-ta’mirlash zavodi urush davrida frontdan keltirilgan MI-8/MI-9 harbiy vertolyotlarini ta’mirlash bilan shug‘ullangan. Bular shaharning urushdagi hissasini yana-da oshirdi.

Chirchiq aholisi ham fidokorona mehnat qilib, front ortida “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiori ostida ishlagan.

Urushdan keyin Chirchiq sanoati tinch maqsadlarga yo‘naltirilib, yanada kengaydi. 1950–1960-yillarda shaharda kimyo sanoati bilan bir qatorda ferroqotishmalar ishlab chiqarish, qurilish materiallari va yengil sanoat korxonalari ham rivoj topdi. Masalan, 1957-yilda Chirchiq elektroximyo zavodida yangi sexlar qurilib, vodorod sulfid ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, “Chirchiqgidrolis” zavodi texnik spirt mahsulotini chiqarishni boshladi. Bu davrda Chirchiq kimyo kombinati ittifoqdagi eng yirik va ilg‘or korxonalardan biriga aylangan edi. 1960-yillarga kelib Chirchiq “Kimyogarlar shahri” nomini olib, u yerdagi kimyo korxonasi quvvati yil sayin oshib bordi. 1970-yillarda shaharda metallurgiya (tugoplavkich metallar kombinati), mashinasozlik, qurilish industriyasi (temir-beton konstruksiyalar) va oziq-ovqat (go‘sht kombinati va b.) sanoatlari parallel ravishda faoliyat ko‘rsatgan.

Sanoat tarmoqlarining tez rivojlanishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqardi. 1940-yillarning oxirida Chirchiq zavodlarida texnik jihozlanish darajasi pastligi tufayli mahsulot sifati past bo‘lgan. 1948–1949-yillarda o‘tkazilgan tekshiruvlarda shahardagi 45 ta sanoat obyektidan faqat 3 tasida oqova suvlarni tozalash tizimi to‘liq ishlashi aniqlangan, qolgan korxonalarda chiqindilarni tozalash e’tibordan chetda qolib, Chirchiq daryosining ifloslanishiga olib kelgan. Natijada 1949-yilda shaharda ichak kasalliklari (dizenteriya, tif) darajasi keskin oshib, aholining 40% ga yaqini zaharlanish bilan shifoxonalarga murojaat qilganligi qayd etilgan. Bu holatlar sanoat rivojiga ekologik nazorat zarurligini ko‘rsatdi. 1960-yillardan boshlab hukumat qarori bilan Chirchiq kimyo kombinati va boshqa zavodlarda eskirgan uskunalarni yangilash, filtrlash inshootlari qurish choralari ko‘rildi. Masalan, 1960-yil 4-oktabrdagi O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti qarori asosida Chirchiqdagi og‘ir sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish dasturi amalga oshirildi (manba keltirilishi mumkin). 1970-yillarga kelib ayrim ekologik yaxshilanishlar kuzatilsa-da, umumiy holda Chirchiq sanoatidan chiqayotgan chiqindilar Toshkent viloyatining suv va havosiga zararli ta’sir ko‘rsatishda davom etdi.

1950–1980-yillarda shahar aholisi tez ko‘payib, yangi mahallalar bunyod etildi. 1959-yilgi aholini ro‘yxatga olishga ko‘ra Chirchiq aholisi 65 ming kishidan oshgan bo‘lsa, 1979-yilga kelib 131 ming nafardan ziyod

kishini tashkil etdi. Bu o‘sishga sanoat korxonalariga butun Ittifoqdan kelgan malakali ishchilar va muhandis-texnik xodimlar sabab bo‘ldi. Shahar aholisi tarkibida rus, ukrain, tatar, koreys va boshqa millatlar ulushi anchagina bo‘lib, ko‘p millatli muhit shakllangan (1970-yillarda aholi tarkibida mahalliy o‘zbeklardan tashqari rus va qozoq millatlari ham salmoqli o‘rin tutgan. Ijtimoiy sohada Chirchiqda uy-joylar, maktablar, kasalxonalar va madaniyat saroylari qurildi. 1960-yilda shahar madaniyat saroyi, kutubxonalar, kinoteatrlar faoliyat yurita boshladi. Chirchiq shahar o‘lkashunoslik muzeyi tashkil etilib, shaharning sanoat tarixi va jangovar shon-shuhratini aks ettiruvchi ekspozitsiyalar yaratilgan. Aholining turmush sharoiti o‘sib, shaharda toza ichimlik suvi tarmoqlari, jamoat transporti (avtobus yo‘nalishlari) yo‘lga qo‘yildi. Biroq, sanoat chiqindilarining atrof-muhitga ta’siri va ekologik muammolar (masalan, Chirchiq daryosining ifloslanishi) shaharliklar salomatligiga tahdid solib, 1960–1980-yillarda sog‘liqni saqlash masalalarini kun tartibiga chiqardi. Shu boisdan, ijtimoiy siyosat doirasida aholining sog‘ligini yaxshilash, dam olish maskanlari (Chorvoq dam olish zonasi yaqinligi)dan foydalanish targ‘ib qilindi.

1980-yillar Sovet Ittifoqida turg‘unlik davri sifatida e’tirof etilib, bu holat Chirchiqning sanoat rivojiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu yillarda shahardagi asosiy korxonalar eski quvvatlar bilan ishlashda davom etdi, jahon ilm-fan yutuqlarini joriy etish sustlashdi. Buning oqibatida mahsulot sifati va raqobatbardoshligi masalalari keskinlashdi. Jumladan, 1983-yilda o‘tkazilgan tekshiruv “Elektroximprom” (Chirchiq kimyo kombinati) korxonasini eng yirik atrof-muhit ifloslantiruvchi manbalardan biri deb topdi. 1980-yillarning oxiriga kelib Chirchiq kimyo va metallurgiya sanoati atrof-muhitga zarar ko‘rsatayotgan eng yirik korxonalar ro‘yxatiga kiritilgan. Bunday muammolarni hal etish uchun kech bo‘lsa-da, yangi filtrlar o‘rnatish, chiqindi suvlarni tozalash loyihalari boshlangan edi. 1980-yillarda SSSRda boshlangan qayta qurish jarayonlari Chirchiq shahrida ham aks etdi. Korxonalarda xo‘jalik hisobiga o‘tish, ijodkorlik va tashabbusni rag‘batlantirishga harakat qilindi. Biroq, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli 1980-yillar oxirida ayrim ishlab chiqarish hajmlari pasaydi, mahsulot tayyorlashda tanaffuslar yuz berdi. Shahar aholisi soni 1989-yilda eng yuqori ko‘rsatkich – 156,6 ming kishi ga yetdi, ammo bandlik masalasi keskin turdi. Ishlab chiqarish pasayishi va umumittifoq bo‘ylab taqchillik tufayli shaharda ishsizlik va ijtimoiy tanglik kuchaya

bordi. Shu bilan birga, perestroyka davrida jamiyat ochiqligi oshishi natijasida ekologik muammolar va ijtimoiy muhofaza mavzulari koʻtarila boshlandi: masalan, mahalliy matbuotda “Chirchiq” rus tilidagi gazetasi sahifalarida atrof-muhit masalalari yoritildi.

1990–1991-yillarda Sovet Ittifoqi yemirila boshlagan bir paytda, Chirchiq shahar hokimiyati mahalliy boshqaruv tizimiga oʻtish va bozor iqtisodiyotiga moslashish choralarini koʻrdi. 1990-yilda shaharda ilk bor xalq deputatlari Sovetiga alternativ saylovlar oʻtkazilib, unda mahalliy muammolar muhokamasi jonlandi (manba orqali tasdiqlash mumkin). Mustaqillik arafasida, shuningdek, shahardagi yirik sanoat korxonalarining kelajagi noaniq boʻlib turgan edi, ularni xususiylashtirishmi yoki davlat tasarrufida qoldirish masalalari kun tartibida boʻldi. Koʻplab slavyan millatiga mansub mutaxassislar vatani Rossiyaga koʻchib keta boshladi, bu esa kadrlar tanqisligiga olib keldi. Umuman olganda, 1980-yillar oxiri – 1991-yil Chirchiq uchun muhim burilish davri boʻlib, shahar mustaqillikning yangi talablariga tayyorgarlik koʻrish bosqichida edi.

1991-yilda Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, Chirchiq shahrining boshqaruv tizimi va iqtisodiy munosabatlarida keskin oʻzgarishlar boshlandi. Sobiq davlat korxonalari bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat koʻrsatishga oʻtishga majbur boʻldi. 1990-yillar boshida Chirchiq kimyo kombinati, mashinasozlik zavodlari va boshqa sanoat obyektlari ishlab chiqarish hajmini saqlab qolishga qiynaldi; ba’zilari vaqtincha toʻxtab qoldi, boshqalari esa yangi sheriklar izlashga majbur boʻldi. Bu davrda xususiylashtirish jarayonlari boshlanib, ayrim korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi (masalan, Chirchiq “Elektroximprom” zavodi “Maksam-Chirchiq” AJ sifatida qayta tashkil topdi). Iqtisodiy inqiroz tufayli shaharda ishsizlik ortdi, bozorlar va kichik biznes paydo boʻla boshladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Chirchiqning ijtimoiy tarkibida sezilarli demografik siljishlar roʻy berdi. 1989–1999-yillar orasida shahar aholisi 156 mingdan 146 mingga kamaydi, buning asosiy sababi rus, ukrain, tatar kabi aholi qatlamlarining chiqib ketishi va tabiiy oʻsishning pasayishi edi. Natijada 1990-yillarning oxiriga kelib shahar aholisi tarkibida oʻzbeklar ulushi keskin oshdi, rus tilli aholi kamaydi. Shu bilan birga, shaharda tarixan yashab kelgan qozoq, koreys, tatar va boshqa millatlar ham mavjud boʻlib qoldi, lekin etnik muvozanat mahalliy aholi foydasiga oʻzgardi.

Mustaqillik bilan birga Chirchiq shahrining mafkuraviy hayoti ham yangilandi. Sovet davridagi kommunistik g‘oya va “internatsional tarbiya” o‘rnini milliy g‘oya va qadriyatlar egallay boshladi. Shahardagi ko‘chalarning nomlari qayta ko‘rildi: ilgari Lenin, Oktyabr, Frunze kabi sovet davri nomlari milliy qahramonlar va tarixiy shaxslar nomlariga (Masalan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Rashidov kabi) o‘zgartirildi. Yoshlarga vatanparvarlik va mustaqillik g‘oyalarida tarbiya berila boshlandi. Diniy erkinlik oshishi natijasida Chirchiqda yangi masjidlar ochildi, mavjud masjidlarda namozxonlar soni ko‘paydi. Xususan, 1990-yillarda shahar markazida jome masjidi qayta ta’mirlanib, faoliyatini davom ettirdi. Ma’naviy hayotda islom dini va milliy an’analar nufuzi ortdi. Bu davrda Ramazon va Qurbon hayitlari, Navro‘z bayrami kabi tadbirlar rasmiy nishonlana boshlandi. Shu bilan birga, og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jinoyatchilik va ishsizlikning ko‘payishi, yoshlarda ijtimoiy befarqlik kabi muammolar ham yuzaga chiqdi. Shahar hokimiyati va jamoatchilik bu muammolarni engillatish maqsadida mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni jonlantirishga intildi. 1990-yillarda “Mahalla” instituti roli kuchaytirilib, har bir mahallada fuqarolar yig‘inlari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tarbiya masalalarini o‘z zimmasiga ola boshladi.

Mustaqillik yillarida Chirchiq shahri aholisi orasida o‘z tarixiy merosini anglash, shahar tarixi va faxri bilan qiziqish ortdi. 1995-yilda Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 50 yilligi nishonlanar ekan, shaharda “Komsomol shuhrati shahri” sifatida e’tirof etilgan Chirchiqning urush davridagi hissasi esga olindi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun urush faxriylari bilan uchrashuvlar, muzeylarda ko‘rgazmalar tashkil etildi. Shuningdek, 1990-yillar oxirida Chirchiq shahar tarix muzeyida mustaqillik davri yutuqlari aks ettirilgan yangi bo‘limlar yaratildi. Madaniy hayotda milliy san’at va qo‘shiqlar, an’anaviy bayramlar qayta tiklanib, konsert va teatrlashtirilgan tomoshalar uyushtirila boshlandi. Masalan, Navro‘z bayrami endi ochiq maydonlarda, ko‘cha sayillari tarzida keng nishonlanib, shaharliklarning ijtimoiy birligini mustahkamlovchi omilga aylandi.

Sovet davrida Chirchiq shahrida bir qator oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan edi. Ulardan eng muhimlaridan biri Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti bo‘lib, u 1930-yillarda Toshkentda tashkil topib, keyinchalik Chirchiqda joylashgan edi.

Mustaqillikdan so‘ng, 1990-yillar boshida ushbu harbiy akademiya tugatildi yoki O‘zbekiston Mudofaa vazirligi tasarrufiga o‘tkazilib, faoliyati qisqartirildi (aniq yili va qaror bilan tasdiqlash lozim). Shuningdek, Sovet davridan beri Chirchiqda ishlagan Toshkent politexnika instituti kechki fakulteti 1995-yilda qayta tashkil etilib, Chirchiq davlat texnik kollejiga aylantirildi. Natijada u oliy o‘quv yurtidan o‘rta maxsus ta’lim muassasasiga aylanishi ta’lim sohasidagi pasayish belgilari edi. 2010-yillarga kelib, davlatning hududlarda oliy ta’limni rivojlantirish siyosati doirasida Chirchiq shahrida bir nechta yirik oliy o‘quv yurtlari yangi boshdan tashkil qilindi yoki ko‘chirib keltirildi. Birinchidan, 2017-yil 27-iyulda Prezident qarori bilan Toshkent viloyati Xalq ta’limi tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash maqsadida ushbu yangi oliy o‘quv yurti, Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil qilindi. Chirchiq davlat pedagogika instituti qisqa muddatda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yib, 2017/2018-o‘quv yilidan talabalarga dars bera boshladi. Bu viloyat miqyosida pedagog kadrlar tayyorlashni yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim qadam bo‘ldi. Ikkinchidan, 2017-yil 10-avgustda imzolangan qarorga muvofiq, O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport instituti Toshkent shahridan Chirchiqqa ko‘chirildi. Institutning butun moddiy bazasi Chirchiq shahriga ko‘chib o‘tkazildi, shuningdek Chirchiqdagi Olimpiya zaxiralari kolleji negizida institut bilan integratsiyalashgan sport bazasi yaratildi. Bu qaror natijasida Chirchiqda Jismoniy tarbiya va sport universiteti (keyinchalik universitet maqomini oldi) paydo bo‘lib, u butun mamlakat uchun sport murabbiylari va mutaxassislarini tayyorlaydigan yetakchi maskanga aylandi. Ushbu institutga kerakli o‘quv binolari va hatto sobiq “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”ning Chirchiqdagi bo‘sh turgan dam olish maskani ham berildi.

Yangi oliy o‘quv yurtlari paydo bo‘lishi bilan Chirchiq shahrida ta’lim infratuzilmasi sezilarli kengaydi. Endilikda shaharda pedagogika, sport kabi sohalar bo‘yicha oliy ma’lumot beruvchi muassasalar bilan bir qatorda, ilgari mavjud bo‘lgan Chirchiq sanoat texnikumi, tibbiyot kolleji, akademik litsey kabi o‘rta maxsus ta’lim maskanlari ham faoliyat yuritmoqda. Bu esa Chirchiqni Toshkent viloyatidagi ta’lim markazlaridan biri sifatida shakllantirdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida shaharda talabalar soni oshib, ilmiy-intellektual muhit jonlandi. Yangi institutlar o‘z professor-o‘qituvchilari tarkibini shakllantirish jarayonida Toshkent va boshqa hududlardan malakali mutaxassislarni jalb qildi. Bu esa o‘z

navbatida shahardagi ijtimoiy hayotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ijaradorlar bozori, xizmat ko‘rsatish sektori rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Chirchiq davlat pedagogika instituti hamda Jismoniy tarbiya va sport universiteti tashkil etilgach, shaharda ilmiy tadqiqotlar faollasha boshladi. Pedinstitut qoshida pedagogika va ijtimoiy fanlar yo‘nalishida ilmiy ishlar yo‘lga qo‘yildi, yosh olimlar yetishib chiqmoqda. Sport universitetida esa sport tibbiyoti, jismoniy tarbiya metodikasi bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu dargohlarda magistratura va doktorantura dasturlari yo‘lga qo‘yilib, natijada Chirchiqda oliy ta’limdan keyingi ilmiy kadrlar tayyorlash imkoni paydo bo‘ldi. Shahar ilmiy-ma’rifiy hayotining jonlanishi ma’naviy muhitga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, yoshlarning ta’lim va fan sohasiga qiziqishi ortdi. Yangi muassasalar mahalliy maktab va kollejlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Masalan, Chirchiq pedagogika instituti viloyatdagi maktablar uchun amaliyot bazasi vazifasini o‘tamoqda. Sport universiteti esa Chirchiq va qo‘shni tumanlardagi bolalar sport maktablari bilan integratsiya bo‘lib, yosh iqtidorli sportchilarni aniqlash va tayyorlash tizimini shakllantirmoqda. Umuman olganda, 2000-2010-yillarda ta’lim sohasidagi bu strukturaviy o‘zgarishlar Chirchiqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yangi davrni boshlab berdi, shahar endi nafaqat sanoat, balki ta’lim maskani sifatida ham tanila boshladi.

Hozirgi kunda Chirchiq shahri iqtisodiyoti tarixiy sanoat bazasiga tayanib, bir vaqtning o‘zida modernizatsiya va diversifikatsiya bosqichidan o‘tmoqda. Shahardagi eng yirik korxona – sobiq elektroximyo kombinati, hozirgi “Maxam-Chirchiq” AJ – xorijiy investitsiyalar yordamida qayta jihozlanib, azotli o‘g‘itlar, ammiak va portlovchi moddalar ishlab chiqarishda davom etmoqda. Mazkur korxona O‘zbekiston kimyo sanoatida haligacha muhim o‘rin tutadi va yiliga minglab tonna mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga yetkazib bermoqda. Bundan tashqari, Chirchiq transformator zavodi, “O‘zbekhimmash” va metallurgiya yo‘nalishidagi Issiqlikka chidamli qotishmalar kombinati kabi Sovetdan meros korxonalar ham xususiylashgan holda faoliyatini davom ettirmoqda. Ushbu zavodlar 2020-yillarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, mahsulot sifatini oshirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda. Misol uchun, Chirchiq transformator zavodi yaqin yillarda yevropalik hamkorlar bilan birga yangi energiya tejamkor transformatorlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi (manba bilan ifodalash mumkin). Shuningdek, shahar iqtisodiyotiga kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik sektori qo‘shilmoqda: oziq-ovqat qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarda yangi kichik zavod va sexlar ochilgan. Davlat 2019–2022-yillarda Chirchiq shahrini kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirib, yangi sanoat loyihalarini qo‘llab-quvvatladi (masalan, bo‘sh turgan ba’zi sobiq zavod binolarida yangi ishlab chiqarish liniyalari joylashtirildi). Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil mart oyida Chirchiqqa tashrifi chog‘ida ta’kidlanganidek, Toshkent shahridagi ayrim sanoat korxonalarini Chirchiqqa ko‘chirish va shu orqali poytaxtning yuklamasini kamaytirish g‘oyasi ilgari surildi. Bu rejalar amalga oshsa, yaqin kelajakda Chirchiqda yangi ish o‘rinlari yaratilib, uning sanoat salohiyati yanada ortishi kutilmoqda. Umuman, bugungi Chirchiq sanoati tarixiy uzluksizlikni saqlagan holda, bozor sharoitlariga moslashgan va iqtisodiy jihatdan tiklanish yo‘lida. Mustaqillikning dastlabki og‘ir yillaridan so‘ng, 2000-yillar va ayniqsa 2016-yildan keyin O‘zbekistonda boshlangan islohotlar doirasida Chirchiq shahrining ijtimoiy infratuzilmasi sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Davlat dasturlari asosida shaharda uy-joy kommunal xo‘jaligi, yo‘l-transport, issiqlik va suv ta’minoti tizimlari modernizatsiya qilinmoqda. 2019–2021-yillarda “Obod shahar” dasturi doirasida Chirchiqning bir qator mahallalarida ko‘p qavatli uylar ta’mirlandi, fasadlar yangilandi, ichki yo‘laklar asfalt qilindi. Masalan, “Iftixor” mahallasida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivida zamonaviy ko‘p qavatli uylar, bog‘cha va maktab qurilishi jadal davom etmoqda. Bu yangi massiv yuzlab oilalarni uy-joy bilan ta’minlab, shaharning bosh rejasiga ko‘ra aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Shuningdek, ko‘p yillar davomida eskirgan markaziy qozonxonalar o‘rniga yangi zamonaviy qozonxona qurilmoqda – Turkiya texnologiyasi asosida quvvati 75 MVt bo‘lgan issiqlik markazi bunyod etilib, 175 ta ko‘p qavatli uy va 19 ta ijtimoiy obyekt barqaror issiqlik bilan ta’minlanadi. Bu loyiha Jahon banki krediti yordamida amalga oshirilayotgani va natijada yiliga minglab kub metr gaz va suv tejalishi kutilayotgani mahalliy matbuotda yoritildi. Ichimlik suvi ta’minoti ham bosqichma-bosqich yangilanib, shahardagi eski quvurlar almashtirilmoqda – buning samarasida Toshkent shahri va viloyatning janubiy hududlariga suv beruvchi Chirchiq daryosi inshootlari samaradorligi ortadi. Ijtimoiy sohada 2020-yilda tasdiqlangan kompleks reja asosida shaharda bir nechta yangi maktab, bolalar bog‘chalari va poliklinikalar qurildi yoki kapital ta’mirdan chiqarildi. Jumladan, 2021-

yilda 2 ta yangi umumta'lim maktabi foydalanishga topshirilib, o'quvchilarga zamonaviy sharoitlar yaratildi (kompyuter sinflari, sport zallari bilan). Sog'liqni saqlash tizimida esa shahar markaziy shifoxonasi qayta ta'mirlanib, yangi diagnostika uskunalari bilan jihozlandi. Bularning barchasi aholining farovonlik darajasini oshirish va migratsiya oqimini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi Chirchiq aholisi soni yana o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021-yil hisobiga taxminan 163 ming kishiga yetgan. Demografik o'sish asosan ichki tabiiy ko'payish evaziga bo'lib, shaharda tug'ilish ko'rsatkichi barqaror ortib bormoqda. Aholi etnik tarkibida o'zbeklar mutlaq ko'pchilikni tashkil etadi, qozoq, qirg'iz, koreys, rus va boshqa milliy ozchilik guruhlar ham mavjud. Ko'p millatli muhit saqlanayotgan bo'lsa-da, kundalik hayotda davlat tili – o'zbek tili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shaharda 2000-yillardan buyon o'zbek tilida ta'lim beradigan maktablar soni oshdi, rus tilidagi maktablar soni esa kamaygan. Biroq, aholi orasida rus tilini bilish hanuz yuqori darajada bo'lib, bu sanoat va ilmiy kadrlarga xos xususiyatdir. Urbanizatsiya jarayonida Chirchiq Toshkent shahri yaqinidagi yoqimli maskanga aylanyapti – so'nggi yillarda poytaxtdan ko'chib kelayotgan yoki qatnovchi aholi ham uchramoqda. Shahar yaqinidagi Chimyon-Chorvoq dam olish hududlari ham aholining vaqtincha ko'payishiga (turistlar oqimi) sabab bo'ladi. Demografik siyosat nuqtai nazaridan, Chirchiq viloyat markazi emas, ammo uning aholisi soni Toshkent viloyatidagi eng yirik shaharlardan biri sifatida qolmoqda va mehnat resurslari salohiyati yuqori baholanadi.

Zamonaviy Chirchiq ma'naviy hayoti barqarorlashgan va boyigan. Shaharda madaniyat markazi, san'at maktablari faoliyat yuritib, yoshlarning ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Teatr binosi bo'lmasa-da, viloyat teatr jamoalari va poytaxtdan gastrol truppalari muntazam ravishda kelib, konsert va spektakllar namoyish etadi. Ommaviy axborot vositalari orasida "Chirchiq tongi" gazetasi chiqib turibdi, shuningdek mahalliy televideniye va internet saytlari orqali shahar yangiliklari yoritilmoqda. Ma'naviy muhitda dinga e'tiqod erkinligi ta'minlanib, shahar bo'ylab bir nechta masjid, cherkov va ibodatxona erkin faoliyat yuritadi (pravoslav cherkovi, protestant jamoalar va b.). Xususan, Avliyo Georgiy cherkovi shahardagi pravoslav jamoasi maskani bo'lib, uning tarixi 1940-yillarga borib taqaladi va hozirda restavratsiya qilingan. Mahalliy mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida ma'naviyat va ma'rifat markazlari tuzilib, aholi

o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, milliy urf-odatlarni targ‘ib qilish ishlari olib borilmoqda. Jamoat hayotida yoshlarning roli oshib, ko‘ngillilar harakatlari, sport musobaqalari va tadbirlarda ularning ishtiroki sezilarli. Chirchiq endilikda sport shahri sifatida ham nom qozonmoqda. Aholining ijtimoiy faolligi ham ortib, shaharni obodonlashtirish aksiyalari, daraxt ekish, hasharlarda ishtirok etish kabi tadbirlar keng quloch yoygan. Huquq-tartibot va xavfsizlik holati barqaror: so‘nggi yillarda jinoyatchilik darajasi pasayish tendensiyasida, bu ham ijtimoiy-ma’naviy muhit yaxshilanayotganidan dalolat.

Hozirgi Chirchiq shahrida uning tarixiy rivojlanish bosqichlaridan qolgan meros va bugungi yangilanishlar uyg‘unlashgan. Shahar manzarasida ham eski sanoat ob’ektlari bilan bir qatorda yangi zamonaviy binolar, xizmat ko‘rsatish maskanlari paydo bo‘lgan. Masalan, shaharning markaziy qismida hali ham 1930–40-yillarda qurilgan Navoiy prospekti bo‘ylab barpo etilgan tarixiy bino va yodgorliklar (masalan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga o‘rnatilgan yodgorlik) mavjud, ular yonida esa mustaqillik yillarida qurilgan yangi banklar, savdo markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu uzviylik shaharning o‘ziga xos identitetini shakllantiradi. Chirchiq bir vaqtning o‘zida “kimyogarlar shahri” degan tarixiy sha’nini saqlagan holda, bugungi kunda “talabalar shaharchasi” va “sportchilar shahri” sifatida ham tanilmoqda. Ushbu ko‘p qirralik va tarixiy xotira hamda zamonaviy yangilanishlarning birgalikda mavjudligi Chirchiq shahrini Toshkent mintaqasidagi noyob fenomenga aylantiradi.

Xulosa sifatida atish mumkinki, Chirchiq shahri misolida industrial shaharning shakllanish va rivojlanish jarayoni uzviylik tamoyili asosida ko‘rindi. Maqolada tahlil qilinganidek, shahar Sovet industrializatsiyasi davrida paydo bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi davrida kuchli sur’atda rivojlandi va keyingi o‘n yilliklarda yirik sanoat markazi sifatida mustahkamlandi. Sovet davrida yaratilgan sanoat, infratuzilma va kadrlar salohiyati keyinchalik mustaqillik yillarida Chirchiqning iqtisodiy tiklanishiga zamin bo‘ldi. Mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlar esa shaharga yangi ruh bag‘ishladi: milliy tiklanish, ta’lim va sport sohalarining rivoji, fuqarolik jamiyati institutlarining paydo bo‘lishi shahar aholisining hayot sifatini oshirdi. Chirchiqning zamonaviy qiyofasi uning tarixiy ildizlaridan uzilmagan holda shakllangan. Sovet davridan qolgan zavod-fabrikalar bugungi kunda ham faoliyat ko‘rsatmoqda (ko‘pchiligi yangi texnologiyalar bilan yangilandi), shaharsozlik rejalari

eski rejalar asosida davom ettirilgan. Tarixiy tahlil shuni koʻrsatadiki, Chirchiq rivojida uzluksizlik bilan bir qatorda ayrim uzilish davrlari ham mavjud boʻldi. Urushdan keyin va 1990-yillar boshidagi iqtisodiy qiyinchiliklar shaharning vaqtincha tanazzulini keltirib chiqargan boʻlsa-da, keyinchalik davlat koʻmagida va ichki salohiyat evaziga tiklanish boshlandi. Xususan, 1990-yillarda sanoat tanazzulga yuz tutgan paytda, 2000-yillarda investitsiya jalb etish va xususiy sektorni rivojlantirish evaziga sanoat qayta jonlandi. Ta'lim sohasidagi uzilish ham koʻzga tashlanadi. Sovet tugashi bilan oliy harbiy bilim yurti va ba'zi filiallar yoʻqolgan boʻlsa, oradan 25 yil oʻtib yangi pedagogika va sport oliygohlari paydo boʻldi. Demak, tarixiy merosning qayta tiklanishi va yangicha mazmun bilan boyishi kuzatilgan.

Chirchiq shahri tarixi va bugungi rivojlanish tajribasi Oʻzbekistonning boshqa industrial shaharlari (Angren, Olmaliq, Bekobod va b.) uchun ham qiyosiy ahamiyatga ega, bilamizki sanoat shaharlari oʻz rivojida koʻp qirrali omillarga tayanadi: markaziy hukumat siyosati, urush va inqiroz kabi favqulodda omillar, mahalliy aholi va kadrlarning salohiyati, vaqt oʻtishi bilan sodir boʻladigan ijtimoiy-mafkuraviy oʻzgarishlar va hokazo. Chirchiq misolida uzoq muddatli strategik rejalashtirish va moslashuvchanlik muhim ekanligi yaqqol namoyon boʻldi – shahar bir necha marta oʻz funksional yoʻnalishini diversifikatsiya qildi.

Chirchiq shahri tarixini bosqichma-bosqich oʻrganish natijasida kelgusida quyidagi yoʻnalishlarda tadqiqotlarni davom ettirish tavsiya etiladi:

Chirchiq sanoatining har bir tarmogʻi (kimyo, metallurgiya, mashinasozlik) boʻyicha alohida tarixiy-tahliliy tadqiqot olib boorish, bu tarmoqning rivojlanishdagi muammolar va yutuqlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi;

Chirchiqning ijtimoiy tarixi, xususan, shahardagi mehnat muhojirlari va ularning shaharga qoʻshilishi masalalarini oʻrganish, chunki shahar koʻp millatli boʻlib shakllangan va integratsiya tajribasi qiziqarli ilmiy xulosalar berishi mumkin;

Mustaqillik davrida Chirchiqda amalga oshirilgan shaharsozlik loyihalari (yangi uy-joy massivlari, infratuzilma) samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Shunday qilib, Chirchiq shahri oʻzining 90 yillik tarixida murakkab, lekin mantiqiy bosqichlarni bosib oʻtdi. Bugungi kunda u – tarix va zamon

tutashgan maskan. Sanoatlashuv va urush davri shaharga bergan qudrat, mustaqillik esa yangicha ruh bag‘ishladi. Keltirilgan tarixiy manbalar va tahlillar asosida aytish mumkinki, Chirchiqning shakllanishi va rivojlanishi O‘zbekistonning umumiy modernizatsiya jarayonlari ko‘zgusidir. Shu sababdan, Chirchiq tajribasi kelgusida sanoat shaharlari rivoji bo‘yicha strategiyalar tuzishda, shuningdek, tarixiy shahar merosini asrab-avaylash va undan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutadi. Shahar rivojining uzviyligi uning kelajagi uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi, bugungi avlodlar esa bu poydevor ustida yanada ravnaq topgan, farovon Chirchiqni barpo etishi kutiladi.

**Foydalanilgan manbalar ro`yhati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. (2022, 23 iyun). “Yangi O‘zbekiston” massivi — o‘z nomiga monand oshiyonga aylanmoqda [Veb-sahifa]. https://old.gov.uz/oz/news/view/34607

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**.** (2020, 13 mart). 2020–2022-yillarda Toshkent viloyatining Chirchiq shahrini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (152-son qaror). LexUZ. https://lex.uz/uz/docs/-4763225

3. Давыденко П.С. (1972). Партия карорларининг ижросини текшириш: Чирчиқ “Узбекхиммаш” заводи партия қомиси тажрибасидан [Partiya qarorlarining ijrosini tekshirish: Experience of the party committee at Chirchiq “Uzbekhimmash” plant] (A. D. Ivakhnenko, Mas’ul red.). Toshkent: O‘zbekiston.

4. G‘afforov, Sh. (2022, 23 iyun). “Yangi O‘zbekiston” massivi — o‘z nomiga monand oshiyonga aylanmoqda [Veb-sahifa]. Yuz.uz. https://www.yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-massivi--oz-nomiga-monand-oshiyonga-aylanmoqda

5. Кузнецова Р.В. (2010). И не было большего долга: Академик И. В. Курчатов — научный руководитель советского атомного проекта (1942–1960) [I ne bylo bol’shego dolga: Academician I. V. Kurchatov — scientific head of the Soviet atomic project (1942–1960)] (Monografiya). Moskva: RNTs «Kurchatov institut». https://elib.biblioatom.ru/text/kuznetsova_i-ne-bylo-bolshego-dolga_2009/

6. Rakhimova, G. (2020). History of industrial enterprises in Chirchik. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(8), 301–304. https://doi.org/10.36713/epra2016

7. Vaxabov, A. (1985, 8 yanvar). Совместными усилиями: Борьба с нарушителями обществ, порядка в г. Чирчике [With joint efforts: Combating public-order violators in Chirchiq]. Ташкентская правда.

8. Yaqubov, F., & Salimov, T. (1970). Chirchiq: qisqacha ma'lumotnoma yo'l-ko'rsatkich [Brief guide]. Toshkent: O'zbekiston. 77 b.

9. Chirchiq (shahar). (n.d.). RuWiki entsiklopediya. https://ru.ruwiki.ru/wiki/Чирчик_(город)

10. Daryo. (2017, 28 iyul). Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etiladi [Veb-sahifa]. https://daryo.uz/2017/07/28/chirchiq-davlat-pedagogika-instituti-tashkil-etiladi

11. **Индустриальный техникум. (н.д.).** В *Большой советской энциклопедии*. https://slovar.cc/enc/bse/2059258.html

12. The Editors of Encyclopaedia Britannica**.** (n.d.). Chirchiq. In Encyclopaedia Britannica. https://www.britannica.com/place/Chirchiq

***Мавлуда Рахманова***
*Ўзбекистон Фанлар Академияси*
*Тарих институти таянч докторанти*

## ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИГА МАЖБУРИЙ КЎЧИРИЛГАН ХАЛҚЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ АҲВОЛИ (1944-1948 ЙИЛЛАР)

***Аннотация:*** *Мақолада Иккинчи жаҳон урушининг сўнгги даврида Тошкент вилоятига Қирим ва Грузия ССРдан мажбурий кўчириб келтирилган халқлаарнинг вилоят ҳудудига жойлаштирилиши ҳамда уларнинг 1944-1948 йиллардаги ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги муаммолари очиб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *иккинчи жаҳон уруши, халқлар депортацияси, мажбурий кўчириш, Грузия ССР, Қирим АССР, ижтимоий-иқтисодий ҳаёт, тоталитар режим.*

Совет давлатида XX асрнинг 30 – 40-йилларида амалга оширилган халқларнинг мажбурий кўчириш сиёсати натижасида бутун совет давлати бўйича олтмишга яқин этник ва миллий озчиликни ташкил қилувчи халқлар большевиклар юритган зўравон тоталитар сиёсатнинг аянчли қурбонига айланди. Ўзбекистон ССРнинг Тошкент вилоятига 1944 йилда Қирим АССР ва Грузия ССР минтақаларидан жами 54 344 нафар турли миллат вакиллари

мажбурий равишда депортация қилинади [1]. Мажбурий кўчирилган халқларни қабул қилиш ва жойлаштириш бўйича ушбу давда вилоят етакчи ҳудуд ҳисобланган.

Совет даврида мажбурий кўчирилган аҳоли фарзандларини ўқишга қамраб олиш ва таълим беришда бир қатор муаммолар юзага чиқади. Ўзбекистон ССР бўйича уруш даврида махсус кўчирилган умумий 170 071 кишининг 83 441 нафари яъни, 49 фоизи 16 ёшга кирмаган болалар эди. Ушбу болаларнинг 40 560 нафари яъни 48,6 фоизии мактаб ёшидаги болалар ҳисобланган. Дастлабки даврда фақатгина 17 697 нафари, яъни уларнинг 43,7 фоизи ўқишга қамраб олинган [1]. Бу ерда республика бўйича 62,3 фоиз болаларнинг ушбу даврда мактабга бормаганлиги маълум бўлади. Болаларнинг таълимга тўлиқ қамраб олинмаганлигигинг асосий сабаби уст ва оёқ кийимларинг етишмаганлигидан эканлиги вилоят кўчириш гуруҳи инспектори ҳисоботларида акс этган.

1945 йил Тошкент вилояти бўйича ўқувчиларнинг мактабга қамраб олиш кўрсаткичи бор-йўғи 39 фоиз бўлган [2]. 1947 йилда бу кўрсаткич 40 фоизга ошган, яъни 14 139 нафар мактаб ёшидаги болаларнинг 11 174 нафари (79 фоизи) мактабга, фабрика-завод мактаблари ва ҳунармандчилик билим юртларига 455 нафари ўқишга жалб қилинган. Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолига ҳам ёрдам кўрсатиш тадбирлари ушбу вилоятда 1947 йилда ҳам тўлиқ амалга ошмаган бўлиб, 2019 нафар қаровсиз етим қолган болаларнинг бор йўғи 915 нафари болалар уйига жойлаштирилган, 104 нафари эса махсус кўчирилган оилаларга асраб берилган.

Ўзбекистон ССР ХКС ва Ўзбекистон КП(б) МҚнинг 1944 йил 30-ноябрдаги 1228-159с-сонли “Махсус кўчирилган қирим татарларининг хўжалик ва иқтисодий тузилиши тўғрисидаги” махфий қарорига асосан Ўзбекистон ССР Маориф халқ комиссарлиги томонидан 1945 йили 1534 нафар ота-онаси бўлмаган махсус кўчирилганлар фарзандларини болалар уйларига жойлаштирилган ва Тошкент вилоятида 3 та янги болалар уйи фойдаланишга топширилган [3].

Қирим ва Грузия ССРдан Тошкент вилоятига махсус кўчирилган аҳолининг 1946 – 1947-йилги хўжалик ва маиший шароитлари ҳақидаги маълумотномада келтирилишича, вилоятда 14 518 оиланинг меҳнат фаолияти йўлга қўйилган бўлиб, уларнинг

11 609 нафари Қирим минтақаси, 2911таси Грузия минтақасига мансуб бўлган. Вилоятда умумий 51 288 нафар махсус кўчирилган аҳоли мавжуд эди. Улардан 5120 оила жамоа хўжаликларига, 4955 оила давлат хўжаликларига, корхона ва қурилишларга 1208 оила меҳнат қилиш учун бириктирилган. Колхозчилар орасида стахановчилар кўп бўлиб, кунлик меъёрларни ишчилар 100-200 фоизи бажариб, юқори даромадга эга чиққанлар ҳам бор. Барча колхоз ва совхозларга жойлаштирилган оилалар турар жой, алоҳида ва жамоавий томорқа ерлари билан таъминланган. 1945 йилдан 1947 йил декабр ойигача махсус кўчирилганлар учун шахсий фойдаланиши учун 482 та турар жой берилган, 604 та квартира капитал, 3191 таси жорий ёки ўрта таъмирдан чиқариб берилган. Шунингдек, вилоятдаги 972 та ногирон шахсларнинг 271 нафари ногиронлик уйига жойлаштирилган ҳамда уларнинг 493 нафарига нафақа тайинланган [4].

Грузиялик махсус кўчирилганларни чорва моллари билан таъминлаш 1945 йилда 45,5 фоиз бажарилган бўлса [5], 1947 йилга келиб бу тадбир Тошкент вилояти бўйича тўлиқ якунланган, шунингдек, оилаларнинг 743 нафари шахсий фойдаланиш учун чорвага эга бўлишган [6]. 1946 – 1947-йилларда вилоятда махсус кўчирилган оилаларга турар жойлар ва хўжалик иншоотлари қурилиши учун 5270 минг рубл узоқ муддатли ссуда, ўта мухтож оилалар учун 592 минг рубл қайтарилмайдиган моддий ёрдам берилган. Бундан ташқари буғдой, мева сабзавотлар ва шакар билан, кийим-кечаклар билан, шунингдек, махсус кўчирилган оилаларни қабул қилган колхозларга 315 бош от ва 17 бош эшак етказилган.

Шунга қарамасдан, вилоятда махсус кўчирилган оилаларнинг ижтимоий зарур эхтиёжлари тўлиқ қоплаб берилмаган. Мажбурий кўчирилган халқларнинг ижтимоий ҳаётидаги энг катта муаммолардан бири бу – турли юқумли касалликларнинг тарқалиши ва бунинг оқибатида кўплаб инсонларнинг жабр кўриши эди. 1944-1945 йилларда Тошкент вилояти ва шаҳри безгак касаллиги тарқалиш ўчоғига айланиб қолган [7]. 1945 йилда барча аҳолининг 40 фоизи ушбу касалликка чалинган, 1944 йилда эса бундан 15-20 фоизга кўп бўлган [8]. Ушбу даврда вилоятга мажбурий кўчирилган халқларда ҳам бундай юқумли касалликларга чалиниш ҳолатлари кўпая борган. 1944 йилнинг июн ойи бошидан 2 сентабргача бўлган

3 ойлик вақт ичида биргина Тошкент вилоятининг ўзида махсус кўчирилган 1025 киши, Ўзбекистон ССР бўйича 2679 киши турли касалликлардан вафот этган [9].

609 та махсус кўчирилган оила жойлашган “Ўзбекистон ССРнинг 5 йиллиги” 10-давлат хўжалигида 1947 йил 2 октябригача, сил касаллиги билан 27, пилагра билан 33, дистрофит билан 1 та, бошқа касалликлар билан 160 кишининг касалланиш ҳолатлари юз берган. Тиббий жиҳатдан муҳтож оилаларга ўз вақтида зарурий ёрдам кўрсатилмаган. Махсус кўчирилган оилалар яшаётган уйлар таъмирлаб берилмаган, жамоат ва санитар бинолари мумтазам ишламаган ҳамда аҳолининг шикоятлари ўз вақтида кўриб чиқиб ҳал этилмаган [10]. 1947 йил ноябр ойида Тошкент вилоят ижроия қўмитасидаги муҳокамадан кейин вазият бироз ижобий томонга ўзгарган.

Шундай қилиб айтганда, совет ҳокимияти халқларни депортация қилиш сиёсатини амалга ошириш тадбирлари давомида бир қатор ташкилий масалаларни олдиндан тайёргарлик кўрмасдан, мавжуд имкониятларни ҳисобга олмасдан бажаришга киришади. Ўзбекистон ССРга депортация қилинган халқлар юқоридаги муаммолар туфайли жуда оғир синов ва қийинчиликларни бошидан ўтказишига тўғри келди. Турар-жой ва томорқа ер билан таъминлаш масаласи улар мажбурий кўчирилган вақтдан бошлаб бир неча йиллар давомида ҳал қилинмасдан қолди. Қурилиш учун моддий ресурслар ва техника воситалари етишмаслиги жараённинг ортга сурилишидаги асосий сабаблардан бири эди. Бундан ташқари, яшаш бинолари қуриши учун ажратилган маблағлар мажбурий кўчирилганлар учун эмас, республика ҳудудидаги ички режали кўчирилганлар учун ишлатиб юбориш ҳолатлари ҳам рўй берган. Режали кредит маблағлари билан таъминлаш масаласида йўл қўйилган хато ва камчиликлар ҳамда ажратилган молиявий ресурсларнинг ўзбошимчалик билан ўзлаштирилиб юборилиши туфайли мажбурий кўчирилган аҳоли вакилларига пул ёрдамлари ўз вақтида кўрсатилмади. Бунинг салбий оқибатлари натижасида, аҳолининг иқтисодий турмуши оғирлашди ва хўжалик фаолиятининг тикланишида қийинчиликлар юзага келди.

**Фойдаланилган манбалар**

1. Ўзбекистон миллий архиви (ЎзМА). Р-314-жамғарма, 7-рўйхат, 5-йиғмажилд, 162-варақ.
2. Тошкент вилояти давлат архиви (Тошкент ВДА). 652-жамғарма, 1-рўйхат, 473-йиғмажилд, 117-варақ.
3. ЎзМА. Р-314-жамғарма, 7-рўйхат, 5-йиғмажилд, 136-варақ.
4. ЎзМА. Р-314-жамғарма, 7-рўйхат, 13-йиғмажилд, 320-321-варақлар.
5. Тошкент ВДА. 652-жамғарма, 1-рўйхат, 473-йиғмажилд, 117-варақ.
6. ЎзМА. Р-314-жамғарма, 7-рўйхат, 13-йиғмажилд, 320-321-варақлар.
7. Тошкент шаҳар марказий давлат архиви (Тошкент ШМДА). 10-жамғарма, 18-рўйхат, 507-йиғмажилд, 58-59-варақлар.
8. Тошкент ШМДА. 220-жамғарма, 1-рўйхат, 120-йиғмажилд, 1-варақ.
9. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги архиви. 32-жамғарма, 1-рўйхат, 45-йиғмажилд, 25-варақ.
10. ЎзМА. Р-314-жамғарма, 7-рўйхат, 13-йиғмажилд, 320-321-варақлар.

**S.A.Toshev**
ChDPU Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi

## “MAXAM-CHIRCHIQ” AJ FAOLIYATINING TARIXIY-EVOLYUTSION TAHLILI

O‘zbekiston sanoat taraqqiyoti tarixida Chirchiq elektr kimyo kombinati, hozirgi “Maxam-Chirchiq” AJ, markaziy o‘ringa ega. 1930-yillarda Sovet Ittifoqi industrializatsiya siyosatining mintaqaviy loyihalaridan biri sifatida boshlangan bu loyiha O‘zbekiston kimyo sanoatining tayanch nuqtasiga aylangan. O‘tgan qariyb bir asrlik faoliyati davomida mazkur korxona texnologik, iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan chuqur transformatsiyalardan o‘tdi. Ushbu maqola aynan shu transformatsiyalarni davrlar kesimida tahlil qiladi.

1932-yilda Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilishi to‘g‘risida qaror qabul qilinishi bilan mintaqada og‘ir sanoatning kimyo yo‘nalishida yangi davr boshlandi. Maqsad – suv elektrolizi orqali vodorod va havodan azot ajratib, azotli o‘g‘itlar (ammiak, selitra) ishlab chiqarish edi. Bu qaror

Sovet Ittifoqining oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash va harbiy salohiyatni oshirish siyosatining uzviy qismi edi. 1932-yil 8-aprelda o‘sha paytdagi Mehnat va Mudofaa Soveti qishloq xo‘jaligiga juda muhtoj bo‘lgan Chirchiqda ikkita elektrostansiya va azotli o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi zavod qurish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1940 yil 30 sentyabrda bitta generator, 10 oktyabrda ikkinchi generator ishga tushirildi. GES qurilishi bilan bir qatorda zavod ham qurildi. 1940 yil oxiriga kelib korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar sobiq Ittifoqning barcha mamlakatlarida talabga ega edi[35].

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘rta Osiyoga 308 ta turli korxonalar evakuatsiya qilindi, ularning bir qismi “Elektroximprom” korxonasi tarkibiga kirdi. Bunday o‘zgarishlar yangi mutaxassislarni tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu maqsadda Buz-suv massivida zavod maktabi tashkil etilib, bu yerda yosh mutaxassislar mehnatini to‘xtatmasdan tayyorlandi. Urush yillaridagi qiyinchiliklarga qaramay, mehnatkashlar bir qancha bolalar bog‘chalari qurib, yordamchi xo‘jalik tashkil etishga muvaffaq bo‘ldilar, bu nafaqat kombinat xodimlarini, balki chirchiqliklarning ko‘pchiligi va evakuatsiya qilingan aholini ham zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minladi. 1941–1945 yillar davomida korxona urush ehtiyojlari uchun strategik resurslar – ammiakli selitra va nitrat kislota ishlab chiqardi. Ayniqsa, 1942-yilda kuchli nitrat kislota sexining ishga tushirilishi front kimyoviy materiallar bilan ta’minlanishini kuchaytirdi. 1944-yilga kelib konversion usul bilan ammiak ishlab chiqarish joriy etildi, bu esa yuqori quvvatli va barqaror ishlab chiqarishni ta’minladi.

Urushdan keyingi yillarda ishlab chiqarish asosan Kuzbassdan olib kelingan ko‘mirga asoslangan gazifikatsiya yo‘li bilan davom etdi. Bu jarayonlar energetik jihatdan og‘ir bo‘lib, katta texnologik xizmat ko‘rsatishni talab qilar edi. 1958-yilda ho‘l plenkali filtrli GIAP generatorining ishga tushirilishi bilan gaz tozaligi oshdi. Urushdan keyin zavod bilan birga shahar ham rivojlandi. 1947-yilda foydalanishga topshirilgan “Ximik” stadionida Chirchiq tarixida ilk bor futbol bo‘yicha shahar chempionati bo‘lib o‘tdi. Zavod ishchilari uchun yaratilgan sharoitlar ham yaxshilandi. 1949 yilda zavodda nikel-xromli katalizatorlar sexi ishga tushirildi. 1956 yilda esa “Elektroximprom” to‘g‘ridan-to‘g‘ri Buxorodan keladigan gazga to‘liq o‘tdi. Korxona ishchilari ishlab

[35] https://yuz.uz/ru/news/maxam-chirchiq-kak-vse-nachinalos

chiqarishdan chalg'imasdan hasharlarda, madaniy-maishiy inshootlar qurilishida faol qatnashdilar: 1959 yilda ular kimyogarlar madaniyat saroyi, poliklinika, shuningdek, korxona ishchilarining farzandlari uchun “Oqtosh” dam olish maskani qurdilar.

Ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar bilan bir qatorda zavodni modernizatsiya qilish ham davom etdi: 1960-1975 yillarda korxonada metanni qayta ishlash sexi, MEA tozalash sexi va boshqalar ishga tushirildi.

O‘zbekiston tabiiy gaz zaxiralaridan – Buxoro konidan foydalanish asosida 1961-yilda butun ammiak ishlab chiqarish tabiiy gazga o‘tkazildi. Bu qaror texnologik jihatdan inqilobiy bo‘lib, quyidagilarga olib keldi: Energiya sarfining kamayishi; Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi; Ekologik yuklamaning kamayishi.

Yangi konversion sexlar, monoetanolamin bilan tozalash sexi, suv tozalash va qozonxona sexlarining modernizatsiyasi ushbu o‘zgarishni qo‘llab-quvvatladi.

III. Yirik sanoatlashtirish va integratsiya bosqichi (1970–1990 yillar)

3.1. Integratsiya va ishlab chiqarish tarmoqlarining ko‘payishi

1975-yilda korxona “Elektrkimyosanoat” ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirildi. Bu esa yangi yirik quvvatli ishlab chiqarish liniyalarining ishga tushishiga yo‘l ochdi:

- AK-72 nitrat kislota agregati (1972)
- AM-76 ammiak sexi (1984)
- Kaprolaktam ishlab chiqarish (1980)

Yangi sexlar mahsulot tannarxining pasayishiga, ishlab chiqarish hajmining ortishiga xizmat qildi.

Ushbu bosqichda korxonada ekologik barqarorlik yo‘nalishidagi faoliyat boshlangan edi. Oqova suvlarni tozalash, azotli chiqindilarni kamaytirish, suv aylanish sikllari joriy etilishi atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirdi. Shuningdek, eski sexlar o‘rnini zamonaviy AK-72M va AKK-M-80 agregatlari egalladi, bu esa resurslardan yanada tejamkor foydalanishga olib keldi.

1981 yilda “Elektroximprom”da suyuq ammiak ishlab chiqarish bo'yicha birinchi bo'lgan AM-76 qurilmasining qurilishi boshlandi; 1983 yilda Ammiak-2 sexi to'liq quvvat bilan ishlay boshladi. Xuddi shu davrda korxona ishchi va quruvchilari tomonidan bir nechta ko‘p qavatli uylar, bitta poliklinikalar foydalanishga topshirildi, hashar asosida qishloq

xo‘jaligi ishlariga muntazam chiqdi. Yordamchi dehqonchilik ham faol rivojlanib, ishchilarga muntazam ravishda oziq-ovqat mahsulotlarini bepul olish imkoniyati yaratildi; korxona pansionatlari, sanatoriy va bolalar bog'chalari to'liq ta'minlandi.

2002-yilda korxona OAJ shaklini oldi, 2007-yildan boshlab “Maxam-Chirchiq” AJ deb nomlandi. Bu davrda Ispaniyaning MAXAM Corp. kompaniyasi bilan hamkorlikda:

- Past zichlikdagi ammoniy nitrat sexi (2010)
- Nasos parklarining zamonaviylashtirilishi (2004)
- AM-76 agregatining modernizatsiyasi (2009)

kabi investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

4.2. Avtomatlashtirish va raqamlashtirish

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab korxonada avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etila boshlandi. Bu:

- Ishlab chiqarish xavfsizligini oshirdi;
- Inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirdi;
- Resurslar sarfini optimallashtirdi.

Suveren O‘zbekistonning tashkil topishi shahar va kombinat taraqqiyoti davrida yangi va muhim qadam bo‘ldi. Mustaqillik yillarida korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat xorijiy mamlakatlarga, balki Yevropaga eksport qilina boshladi va bir qator yuksak xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘ldi (masalan, 1994-yilda “Sifat uchun xalqaro olmos yulduzi”). 2002 yilda zavod negizida “Elektrokimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi.

| Davr | Asosiy o‘zgarish | Strategik qiymati |
|---|---|---|
| 1932–1945 | Kombinat qurilishi, urush ta’minoti | Harbiy sanoat bazasini yaratish |
| 1946–1970 | Energetik asosda o‘zgarish | Ko‘mirdan gazga o‘tish |
| 1970–1990 | Yirik integratsiya | Tarmoqli ishlab chiqarish |
| 1991–2020 | Bozor iqtisodi va investitsiya | Xalqaro hamkorlik va raqamlashtirish |

“Maxam-Chirchiq” AJ – bu nafaqat yirik ishlab chiqarish korxonasi, balki O‘zbekistonning texnologik transformatsiya tarixini o‘zida mujassam etgan ob’yektdir. Korxona o‘z faoliyatida bir necha bor keskin texnologik

burilishlar yasagan va xalqaro standartlarga moslashgan. Kelgusida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish – AI asosida ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari;
2. Yashil energiyaga o‘tish strategiyasi – vodorod texnologiyalari, quyosh panellari;
3. Xalqaro sifat sertifikatlariga ega bo‘lish – ISO 9001, ISO 14001;
4. Mahalliy va xalqaro bozorga eksportni kengaytirish – mahsulot diversifikatsiyasi orqali.

Hozirda “Maksam-Chirchiq” AJ dunyoning turli mamlakatlariga mahsulot eksport qilmoqda (2007 yilda kompaniya aksiyalarining ma’lum qismini Ispaniya sotib olgani eksport hajmini oshirish imkonini berdi).

Bugungi kunda korxona ishchilari nafaqat ishlab chiqarish faoliyati, balki shaharning ijtimoiy hayotida ham faol: musobaqalar, tadbirlar o‘tkazilmoqda, 2019-yilda aksiyadorlik jamiyati xodimlari uchun to‘rt va to‘qqiz qavatli binolar qurildi, Oqtosh majmuasi qayta tiklandi, bu yerda bugun nafaqat xodimlar, balki ularning oila a’zolari ham dam olib, kuch-quvvatga ega bo‘lmoqda.

2022-2023-yillar qish faslidagi sovuq havoda elektr ta’minoti va issiqlik ta’minoti sexi tomonidan ko‘plab avariya-tiklash ishlari amalga oshirildi, bu esa favqulodda vaziyatlarni tezda mahalliylashtirish, maktablar va ko‘p qavatli uylarda elektr va issiqlik ta’minotini tiklash imkonini berdi. Korxona xodimlari “Yashil Makon” milliy loyihasi doirasida shaharni ko‘kalamzorlashtirish maqsadida muntazam ravishda ko‘chatlar ekmoqda. Joriy yilda korxona hududida vodorod ishlab chiqarish sexi qurilishi boshlandi. Bugun biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Chirchiq va “Maksam-Chirchiq” AJ bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, korxona ma’muriyati shaharga turli tadbirlarni o‘tkazishda faol yordam berayotganini alohida ta’kidlash joiz. Bugun ko‘plab chirchiqliklar ota-ona izidan borib, korxonada mehnat qilmoqda. “Maksam-Chirchiq” AJga yanada ravnaq va ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman!

**Foydalanilgan adabiyotlar**

“Maxam-Chirchiq” AJ arxiv hujjatlari va rasmiy hisobotlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Kimyo sanoati agentligi axborot byulleteni
2. UNIDO hisobotlari – “Chemical Industry Modernization in Central Asia”, 2020

3. FAO (2022). Sustainable Fertilizer Strategies for Central Asia.
4. “Kimyo texnologiyalari asoslari” – O‘zbekiston Milliy universiteti, 2019

**Boyqabilov Norpulot Bozarovich**
Oriental universiteti II kurs magistranti

## AMIR TEMUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON SHAXSIYATLARI HAMID ZIYOYEV TALQINIDA

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek milliy tarixshunosligining ulug‘ vakili, buyuk ma’rifatparvar olim, donishmand inson, o‘zbek milliy tarixshunosligining yirik vakili Hamid Ziyoyev ilmiy tadqiqotchilik faoliyatidagi eng dolzarb mavzu milliy tariximizdagi ikki dudratli sarkarda, buyuk davlat arboblari shaxsiyatiga haqqoniy yondashganligi hamda bu haqida olimning ilmiy mulohazalari orqali ko‘rib o‘tamiz...*

***Kalit so‘zi:*** *Amir Temur tarixiy siymosi. Amir Temur saltanati. Amir Temurning dunyo tarixidagi o‘rni. Muhammad Shayboniyxon siymosi va shaxsiyati. Olim Hamid Ziyoyev ilmiy faoliyati.*

Milliy tariximizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, avvallo, yuksak sivilizatiyalar (Biror bir shahar-davlatning yoki yuksak bir madaniyatning vujudga kelishi jarayoni bilan bog'liq tushuncha, atama) ni ham, tanazzulga yuz tutgan davrlarni ham ajdodlarmiz ko'p ko'rishgan. Shunday yuksak tamaddunlardan biri bu vatanimiz tarixidagi buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi Amir Temur tomonidan asos solingan qudratli davlat birlashmasi hamda Temuriylar davri madaniyatidir. Bundan tashqari temuriylar saltanatini zavolga yuz tutdirgan dashtiy turkiylarning qipchoq urug'i sardori Muhammad Shayboniyxon va bu tarixiy shaxs haqidagi turli tarixiy yondashuvlar (Ba'zi tarixiy manbalarda salbiy xususiyat sohibi bo'lsa, ba'zi tarixiy manbalarda esa ma'lum ijobiy xususiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan) ham mavjuddir mana shunday ikki qudratli sarkarda va davlat arbobi haqida ko'plab tarixshunos olimlar, yirik tarix ilmi mutaxassislari ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida ilmiy jihatda tadqiq etib o'rganganlar. Shunday zabardast tarixshunos olimlardan biri bu yetuk olim, benazir inson Hamid Ziyoyev ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Olim Hamid Ziyoyev haqiqiy ilm-fan egasi bo'lib, o'zbek milliy tarixining va tarixshunoslik ilmining rivojiga o'zining

beqiyos hizmatlari bilan ham ajralib turadi hamda domla haqiqiy ilm-fan fidoyisi bo'lib, sobiq sho'rolar davrida nomlari "qora ro'yxat" ga kiritilgan tarixiy shaxslar haqida xolis turib, haqqoniy tarzida yondashishdan sira ham cho'chimagan zabardast olim edi. Bilamizki , sobiq ittifoq davrida kommunistik sotsializm mafkurasiga ko'ra ittifoq tarkibidagi 15 ta milliy "respubliklar" o'zlarining milliy qadriyatlari bilan faxrlanish tuyg'usidan benasib edi, chunki bu sobiq sovetlar hukmati olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga zid g'oya va qarashlar hisoblanar edi. Shu sababli ham O'zbekiston SSR da milliy haqqoniy tarix va qadriyatlar ustida mustabid sovet hukumati senzurasi (Adabiyotga, tarixga, ilm-fanga, san'atga qo'yilgan davlatning kuchli nazorati) o'rnatilgan edi. O'tgan asrimizning 40-50-yillarida O'zbekiston SSR da Amir Temur shaxsiyati borasida turli salbiy qarashlar va uning shaxsiyatiga qarshi ko'plab, nohaq ayblar taqash kuchayib ketdi. Mustabid sovet hukumati tomonidan nomi "qora ro'yxat"ga kiritilgan asosiy shaxs bu Amir Temur va uning shaxsiyati bilan bog'liq qarashlar edi. Chunki mustabid sovet hukumati olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga ko'ra har qanday milliy g'oya ular uchun xavfli edi, bundan juda cho'chir edi ( Chunki inson o'zining milliy tarixi hamda qadriyatlarini qanchalik kuchli bilsa, u insonda o'ziga bo'lgan ishonchi ortib boradi, bu esa uning qultabiatlilikdan, manqurtlikdan saqlab qoladi hamda o'zining haqi-huquqi uchun kurash tuyg'usi shakllanadi, bu esa bora-bora insonda erk-ozodlik g'oyasiga borib ulanar edi), nihoyatda qo'rqar edi. Shuning uchun ham mustabid sovet hukumati davrida Amir Temur va uning shaxsiyati faqat va faqat "qora ranglar" bilan berib, borildi. Chunki mustabid sovet hukumati ayniqsa turkiy xalqlar, qavmlar va ularning o'tmishdagi shonli tarixidan judayam nafratlanar edi. XX asr 30-40-yillarida SSSR xalqlari dohiysi Stalin (Jugashveli Iosif Vesionorovich) tomonidan eng ko'p qirg'inga va ta'qibga uchragan xalqlar - mana shu turkiy xalqlar bo'ldi. Olim Hamid Ziyoyev esa XX asrning 50-60-yillarida mustabid sovet hukumati tomonidan ta'qiqlangan mavzu - Amir Temurning hayoti va uning shaxsiyati haqida ilmiy izlanishlar qilishga kirishadi. O'zbek taricxhi va faylasuf olmilaridan birinchilardan bo'lib, Amir Temur shaxsiyatiga murojaat qilgan zabardast olim va faylasuf inson, olim Hamid Ziyoyevning dastlabki maslakdoshi hamda ustozi Ibrohim Mo'minov hisoblanadi. Olim Hamid Ziyoyev o'z maslakdoshi faylasuf olim Ibrohim Mo'minovning Amir Temur va uning shaxsiyati bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarini davom ettirdi. Shuning uchun ham olim Hamid

Ziyoyev mustabid sovet hukumati davrida Amir Temur shaxsiyatini haqqoniy holda ochib bera boshlaydi. Avvallo, olim Hamid Ziyoyev Amir Temurni XIV asr sharoyitida parchalanib ketgan Movaraunnahr, Sharqiy Turkiston, Xorazm hududlarida hukmronlik qilgan mo'g'ullarning istibdodiga, ular shu hudud aholisiga nisbatan jabr-zulmiga nuqta qo'yib, bu hududlarini birlashtirib, qudratli davlat birlashmasiga asos solgan buyuk davlat arbobi sifatida bilar edi. Bundan tashqari olim Hamid Ziyoyev Amir Temurdan tashqari hali hech kim bunday murakkab davrda yashab, qutratli davlat birlashmasini tuza olmaganiligini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Chunki XIV asrning 30-40-yillarida Movaraunnahr, Xorazm, Sharqiy Turkiston hududlari feodal tarqoqlik davrida edi Mana shunday murakkab bir davrda tarix maydoniga Amir Temur kirib keldi hamda feodal tarqoqlikni boshidan kechirayotgan Movaraunnahr, Sharqiy Turkiston, Xorazm hududlarini birlashtirib, ishni dastlab o'zining ichki g'animlarini tor-mor etishdan boshlaydi: Amir Bayon Sulduz, Amir Xoji Barlos, Amir O'ljayatu Sulduz, Amir Zinda Chashm, Amir Yasavuriy kabi ichki g'animlarini birin-ketin yengib, 1357-yildan to 1370-yilgacha bo'lgan davrda 13 yil ichida Movaraunnahr, Sharqiy Turkiston, Xorazm, Xuroson hududlarini birlashtirib qudratli Temuriylar saltanatiga asos solgan edi. Olim Hamid Ziyoyev Amir Temurni aynan shu jihatini ya'ni tarqoq va parchalanib ketgan davlatni birlashtirib, markazlshgan qudratli davlati tashabbuskori ekanligiga alohida urg'u bergan edi. Bundan tashqari Amir Temurning buyukligi va mohir sarkardalik qobliyati, uzoqni ko'ra oluvchi inson hamda bunyodkor inson ekanligiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Mustabid sovet hukumati davrida nomi va shaxsiyati faqat "qora bo'yoqlar" da berilgan bu buyuk ajdodimizning shaxsiyatini oqlash uchun mustabid sovet hukumati tazyiqlaridan cho'chimadi hamda Amir Temur va uning shaxsiyatini turli salbiy qusur va bo'xtonlardan oqlashga qisman bo'lsa-da, erishadi (Shu yerda bir tabiiy savol tug'iladi, mustabid sovetlar aynan turkiy xalqlarning tarixidagi buyuk davlat arboblari, yirik sarkardalari, mashhur shaxslarning shaxsiyatini atayin "qora bo'yoq" larda ko'rsatib, uni yer bilan bitta qilishga bunchalik orzumand bo'lishgan?!!! Masalan, SSSR xalqlari orasidagi ulug' "katta og'alar" deya o'zlarini shu maqomda tutgan rus millati tarixidagi XVI asrda hukmronlik qilgan Ivan IV Grozniy o'z xalqiga qarshi shafqatsiz terror va qirg'in siyosatini boshqarmadimi, natijada minglab begunoh odamlar qatl etildi va ta'qib etildi. Bundan tashqari 1556-yil Qozon xonligini, 1557-1558-

yillarda esa Astraxan xonligini (Xojitarxon), 1582-1583-yillarda esa Sibir xonliklarini bosib olish mobaynida qanchadan qancha begunoh odamlarning qoni to'kildi, qirib tashlandi. Mana shu haqqoniy tarixiy ma'lumotlarni iloji boricha olib tashlab, unga ijobiy "sayqal" berishadi hamda bu haqida hech kimga gapirtirishmaydi, faqat va faqat turkiy xalqlarning shonli tarixini loyga chaplash bilan ovora bo'lishadi.....Izoh ) Amir Temurning hayoti faoliyatida 1370-yildan to 1404-yilga qadar bo'lgan davrda 34 yillik hukmronlik davrida 27 ta davlatni buysundirib, qudratli yirik saltanat (Imperiya) ga asos soladi hamda o'z zamonasining eng qudratli qo'shinlari deya tan olingan Oltin O'rda va Oq O'rda mo'g'ul-tatar qo'shinlarini ( 1389-yilda Jizzaxning Achchiq mavzesidagi jangi, 1392-yildagi Qunduzcha jangi, 1395-yildagi Shimoliy Kavkazning Terek daryosi bo'yidagi janglarda), Misr mamluk qo'shinlarini (1400-yildagi jangida), Usmonli Turk sultonining qudratli qo'shinlarini (1402-yil 20-iyundagi Anqara jangida) mag'lubiyatga uchratganligini olim Hamid Ziyoyev ilmiy izlanishlari orqali Amir Temurning buyuk sarkardalik harbiy yurishlarini mustabid sovet hukumatidan qo'rqmasdan keltirib o'tadi. Bundan tashqari milliy tariximizda yana bir qudratli sarkarda borki, uning shaxsiyatiga ham mustabid sovet hukumati tomonidan o'zlarining salbiy xususiyatlaridan holi bo'magan tarixiy shaxs, XVI asrda yashagan yirik davlat arbobi Muhammad Shayboniyxondir. Bu tarixiy shaxs haqida ko'plab tarixshunos olimlar turlicha yondashishgan (Ham ijobiy, ham salbiy munosabat berishgan). Olim Hamid Ziyoyev Muhammad Shayboniyxon shaxsiyatini, avvallo, bir jihat bilan qoralaydi, ya'ni Muhammad Shayboniyxonni Amir Temurga nisbatan solishtirib ko'rar ekan. Bunda ,eng avvallo, qudratli Temuriylar saltanatini zavolga yuz tutdirgan shaxs sifatida ko'radi (Buning sababi aynan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi dashtiy turkiylarning qipchoq urug'i va boshqa turkiy qabilalardan tashkil topgan yirik jangovar qo'shinlar Temuriylar saltanatini zavolga uchratadi hamda Amir Temur va Temuriylar davridagi yuksak tamaddunga xolis baho bera olmaganidan so'ng ko'plab tarixiy binolarni, yuksak san'at na'munalarni vayron qilishadi hamda Temuriylarga munosib voris bo'la olmaganidan olim Hamid Ziyoyev domla shunday munosabatda yondashgan bo'lsa kerak). Albatta, Muhammad Shayboniyxon Temuriylarga munosib voris bo'la olmadi, buni tan olishimiz kerak. Biroq bir haqiqatni tan olishimiz kerak, ya'ni Amir Temur vafotidan keyin uning vorislari-nabiralari o'rtasida

o'zaro toji-taxt uchun qonli urushlar boshlab yuboriladi hamda uzoq vaqt 1405-yildan to 1410-yilgacha o'zaro qonli urushlarga sabab bo'ladi. Faqat Amir Temurning kenja farzandi Shohruh Mirzo otasi hokimiyatini qayta tiklab temuriylar saltanatini 40 yillar boshqaradi. Biroq uning ham o'limidan so'ng saltanat toji-taxti uchun temuriy shahzodalar o'rtasida o'zaro kurash boshlanib ketadi hamda oddiy fuqarolarning tinchligi buzilib, ularning mol-mulki talanishi, ko'plab shahar va qishloqlar, binolar vayron qilinishiga olib keladi. Mana shu vaziyatda mamlakat aholisi bundan judayam norozilik keltirib chiqarilganligiga sabab bo'lganligini ham tan olishimiz kerak. Biz xolisona bitta haqiqatga e'tibor qaratmog'imiz lozim, ya'ni o'sha davr muarrixlarining bergan tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Temuriylar saltanatini zavolga yuz burilishiga asl sababchilar: temuriy shahzodalar o'rtasidagi saltanat toji-taxti uchun o'zaro qonli urushlari bo'lgani natijada esa yurt fuqarolarining bundan esa jonidan o'tar darajaga borib yetganligini qayd etib o'tadi. Mana shunday sharoitda yurt tinchligini ta'minlay oladigan qudratli bir yo'lboshchiga muhtoj edi. Shu qulay vaziyatda kurash maydoniga Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi dashtiy ko'chmanchi turkiylarning qipchoq urug'-qabilasi va boshqa turkiy qabilalardan iborat birlashgan kuchli jangovar qo'shinlari bilan Sharqiy Turkiston orqali Movaraunnahr sarhadiga bostirib kiradi va temuriy shahzodalarning o'zaro nizolaridan va ittifoqligi, birligi yo'qligidan unumli foydalanib, temuriylar saltanati hududini birin-ketin qo'lga kiritadi ( 1500-yilda Samarqand, 1502-1503-yillarda Toshkent va Shohruxiya 1504-1505-yillarda Buxoro, 1505-yilda Xorazm, 1506-yil Xirot egallanadi). Muhammad Shayboniyxon o'zbek davlatchiligi tarixida buyuk davlat arbobi Amir Temurdan so'ng tanazzulga uchrayotgan davlatni birlashtirib markazlashgan qadratli davlatga asos sola olgan mashhur sarkarda va davlat arbobi sifatida baho bersak, adolatli bo'larmidi. Olim Hamid Ziyoyev Muhammad Shayboniyxon shaxsiyati hamda shayboniylarga nisbatan qarashlarida ham asli haqiqat ham bor edi, chunki shayboniylar temuriylar davrdagi yuksak madaniyatga munosib baho bera olishmadi va munosib voris bo'la olishmgan edi. Aynan shayboniylar davrida temuriylar davridagi adabiyot, san'at, ilm-fan, madaniyatga ko'plab zarar yetkazildi. Bu ham asli haqiqat!!! Umuman xulosa o'rnida shuni aytadigan bo'lsak, o'zbek davlatchiligi tarixida ikki buyuk tarixiy shaxs, buruk davlat arboblari

bo'lgan Amir Temur va Muhammad Shayboniyxon shaxsiyatiga xolisona va haqqoniy baho bershimiz kerak....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. “Hamid Ziyoyevning ilmiy-pedogogik faoliyati” 2003-yil “Toshkent”. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti. (Mualliflari: A.Sharafiddinov. Z. Fayziyeva. L.Kravets)
2. “Tarixning ochilmagan sahifalari”. 2003-yil . Toshkent- “Mehnat”- Nashriyoti. (Hamid Ziyoyev)
3. “Sibir, Volga, Ural bo‘yidagi o‘zbeklar”. Mas’ul muharir: A.Sharafiddinov. T.: - “Sharq”, 2003. – 416 b
4. Www.ziyo.net
5. Www.wikipedia.uz

**Jalilova Charos Komiljon qizi.**
ChDPU Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.
Jalilovacharos22@gmail.com.

## O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN KO‘CHIRISH SIYOSATI (CHIRCHIQ SHAHRI MISOLIDA)

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O‘zbekistonda, xususan, Chirchiq shahrida amalga oshirilgan ko‘chirish siyosati tarixiy asoslar, sabablar va natijalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Sovet davridagi sanoatlashtirish jarayonlari, harbiy-texnik infratuzilmaning shakllanishi hamda demografik o‘zgarishlar ko‘chirish siyosatining asosiy omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu siyosatning mahalliy aholi hayoti, urbanizatsiya va madaniy muhitga ta’siri yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chirchiq, ko‘chirish siyosati, sanoatlashtirish, urbanizatsiya, Sovet Ittifoqi, demografiya.*

O‘zbekistonning zamonaviy tarixida ko‘chirish siyosati muhim o‘rin egallaydi. Bu siyosat Sovet Ittifoqi davrida, ayniqsa 1930–1950-yillarda faol amalga oshirilgan bo‘lib, maqsad qilingan hududlarda sanoat markazlarini tashkil qilish, mehnat resurslarini taqsimlash va harbiy strategik nuqtalarni mustahkamlash edi. Chirchiq shahri bu siyosatning aniq namunalaridan biri hisoblanadi.

Chirchiq shahri 1935-yilda tashkil topgan bo‘lib, bu jarayon O‘rta Osiyoda sanoatlashtirish va gidrotexnik infratuzilmani rivojlantirish bilan

chambarchas bog‘liq edi. Ayniqsa Chirchiq GES (Gidroelektr stansiyasi) qurilishi bu yerda sanoat markazini shakllantirishni taqozo etdi. Sovet hukumati ushbu hududga Rossiya, Ukraina, Belorussiya va boshqa hududlardan minglab ishchilarni ko‘chirish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini tez sur’atlarda shakllantirishga kirishdi.

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida Sholichilikni rivojlantirish maqsadida bir qancha etnik koreyslar Uzoq Sharqdan O‘rta Osiyoga ko‘chirildi. Jumladan, 1933-yilda Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanida 22 ta, 1934-yilda 30 ta koreys xo‘jaligi bo‘lgan.

Urush yillarida sanoat korxonalarini ko‘chirish ikki bosqichda amalga Oshirildi: 1) 1941-yil iyundan 1942- yil fevralgacha bo‘lgan davrda; 2) 1942- yil Bahor va kuz oylarida. Arxiv manbalariga ko‘ra, birinchi davrda O‘zbekiston SSSRga 93 ta korxona ko‘chirilgan. Ular respublikaning quyidagi viloyatlarida joylashtirilgan edi: Toshkent va Toshkent viloyatida – 66 ta, Farg‘ona viloyatida –14 ta, Andijonda – 4 ta, Namanganda – 1 ta, Samarqandda – 5 ta, Buxoroda – 2 ta, Surxondaryoda – 1 ta. Poytaxt va poytaxt viloyatiga ko‘chirilgan korxonalar Sonining ko‘pligi – qariyb 70 foizi bu hududning yaxshi iqtisodiy salohiyatga ega ekanligi bilan izohlangan. Toshkent shahrida asosan og‘ir sanoat, elektroenergetika va mashinasozlik korxonalari joylashgan bo‘lsa, yengil va kimyo sanoati Korxonalari Farg‘ona viloyatida, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro va Surxondaryoda joylashgan edi.

Ijodkor ziyolilar ko‘chirilishi taniqli rassom, shoir va yozuvchi, bastakor, musiqachi, kino va teatr aktyorlarini ko‘chirish orqali amalga oshirildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1942 - yilda O‘zSSRga 96 nafar rassom ko‘chirilgan bo‘lib, ulardan 57 nafari Toshkentda, qolgan 39 nafari Samarqandda joylashtirilgan. 1943- yilga kelib ko‘chirib keltirilgan rassomlar soni 206 kishini tashkil etdi. 1941- yil oktabrida yozuvchilarni ko‘chirish ishlari boshlandi. Yozuvchilarning asosiy qismi, xususan 200 ga yaqin badiiy adabiyot namoyandalari Toshkentga yuborildi. 1942 -yilda Toshkentga Ukraina, Belorussiya, Moskva, Leningraddan bastakor va musiqashunoslar ko‘chib kela boshladi.

1945- yil Toshkent viloyati bo‘yicha o‘quvchilarning maktabga qamrab olish ko‘rsatkichi bor-yo‘g‘i 39 foiz bo‘lgan. 1947- yilda bu ko‘rsatkich 40 foizga oshgan, ya’ni 14 139 nafar maktab yoshidagi bolalarning 11 174 nafari (79 foizi) maktabga, fabrika-zavod maktablari va hunarmandchilik bilim yurtlariga 455 nafari o‘qishga jalb qilingan. Ijtimoiy

himoyaga muhtoj aholiga ham yordam koʻrsatish tadbirlari ushbu viloyatda 1947 yilda ham toʻliq amalga oshmagan boʻlib, 2019 nafar qarovsiz yetim qolgan bolalarning bor-yoʻgʻi 915 nafari bolalar uyiga joylashtirilgan, 104 nafari esa maxsus koʻchirilgan oilalarga asrab berilgan.

Qrim va Gruziya SSSRdan Toshkent viloyatiga maxsus koʻchirilgan aholining 1946–1947-yilgi xoʻjalik va maishiy sharoitlari haqidagi maʼlumotnomada keltirilishicha, viloyatda 14 518 oilaning mehnat faoliyati yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, ularning 11 609 nafari Qrim mintaqasi, 2911 tasi Gruziya mintaqasiga mansub boʻlgan. Viloyatda umumiy 51 288 nafar maxsus koʻchirilgan aholi mavjud edi. Gruziyalik maxsus koʻchirilganlarni chorva mollari bilan taʼminlash 1945 -yilda 45,5 foiz bajarilgan boʻlsa, 1947- yilga kelib bu tadbir Toshkent viloyati boʻyicha toʻliq yakunlangan, shuningdek, oilalarning 743 nafari shaxsiy foydalanish uchun chorvaga ega boʻlishgan. 1946–1947-yillarda viloyatda maxsus koʻchirilgan oilalarga turar joylar va xoʻjalik inshootlari qurilishi uchun 5 270 ming rubl uzoq muddatli ssuda, oʻta muhtoj oilalar uchun esa 592 ming rubl qaytarilmaydigan moddiy yordam berilgan. Bundan tashqari, bugʻdoy, meva-sabzavotlar va shakar bilan, kiyim-kechaklar bilan, shuningdek, maxsus koʻchirilgan oilalarni qabul qilgan kolxozlarga 315 bosh ot va 17 bosh eshak yetkazilgan.

1988-yil 29-noyabrda Toshkentda koreys jamoatchiligining kengaytirilgan yigʻilishi boʻlib oʻtdi va unda koreys madaniyat markazini tashkil etish boʻyicha tashkiliy qoʻmita tuzildi. Unga Toshkent madaniyat instituti rektori, falsafa fanlari doktori, professor Xan Sergey Mixaylovich rais etib saylandi. Tashkiliy qoʻmita mahalliy milliy madaniy markazlarning shakllanishida muhim rol oʻynadi. 1989-1990 yillarda Toshkent, Nukus, Toshkent viloyati shaharlari (Oqqoʻrgʻon, Olmaliq, Bekobod, Chirchiq) va Oʻzbekistonning barcha viloyat markazlarida koreys madaniyati markazlari tashkil etildi. 1991-yil 12-yanvarda Toshkentda Oʻzbekiston koreys madaniyati markazlari Uyushmasini tashkil etish boʻyicha Taʼsis konferensiyasi boʻlib oʻtdi. Tarix fanlari doktori, Professor Sergey Aleksandrovich Xan uyushmaga rais etib saylandi. Mustaqillik xalq anʼanalari, urf-odatlari va tilining saqlanishi hamda diasporaning yanada hamjihat boʻlishi uchun yangi imkoniyatlar yaratib berdi. 1991- yilda tashkil etilgan Oʻzbekistondagi Koreys madaniy markazlari uyushmasining Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Fargʻona, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpogʻiston

Respublikasida 23 ta bo‘linmasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 1994-yilda Toshkent viloyatida koreys madaniyati va san’ati respublika festivali tashkil etilib, unda O‘zbekistoning barcha viloyatlaridan diaspora vakillari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Janubiy Koreyadan kelgan mehmonlar ishtirok etdi. 2017-yil 17-noyabr kuni Toshkentda O‘zbekistonda koreys millatiga mansub fuqarolar Istiqomat qilayotganining 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev koreys diasporasi vakillariga: «umumiy uyimiz — jonajon O‘zbekistonimiz taraqqiyoti va farovonligi yo‘lidagi fidokorona va samarali mehnatingiz uchun Samimiy minnatdorlik bildiraman», — deya tabrik yo‘lladi. 2022-yil 25-noyabr Toshkentda O‘zbekistondagi koreys diasporasining 85 yilligi hamda Koreys madaniyat markazlari assotsiatsiyasi tashkil etilganligining 30 yilligi munosabati bilan “O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan koreyslarning 85 yilligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya o‘tkazildi. Konferensiyani O‘zbekistondagi Koreys madaniyat markazlari Assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis deputati Viktor Pak ochdi. Xulosa qilib aytganda ko‘chirish siyosatining Chirchiq shahri misolida o‘rganilishi, tarixiy jarayonlarning mahalliy darajadagi ta’sirini anglashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu mavzu bo‘yicha izlanishlar davom ettirilishi, ayniqsa, arxiv hujjatlari va guvohlarning og‘zaki tarixiy xotiralari asosida chuqur tahlil qilinishi lozim deb bilaman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O‘zbekiston, 1999.
2. G‘aniyev A.A. Sovet mustamlakachilik siyosati va uning O‘zbekistondagi oqibatlari. – T.: Sharq, 2005.
3. Qodirov A.M. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi (XX asr). – T.: Fan, 2003.
4. Xolbekov M. O‘zbekistonning demografik rivojlanish tarixi. – T.: O‘zMU nashriyoti, 2012.
5. Pohl M. Soviet Deportation and Displacement in Central Asia: Chirchik in Context. – Central Asian Survey, 2015.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi fondlari. – F. R-1236.

**Yoriqulova Sevinch Boburovna.**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarix yo'nalishi talabasi
**sevinchyoriqulova5@gmail.com**

## TOSHKENT VILOYATINING TURIZM TARIXI

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Toshkent viloyatining turizm tarixi va uning rivojlanish bosqichlarini o'rganishga bag'ishlangan. Toshkent viloyati o'zining qadimiy tarixi, tabiiy manzaralari va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Maqolada viloyatning tarixiy obidalari, qadimiy savdo yo'llari, shuningdek, mustaqillik yillarida turizm infratuzilmasining rivojlanishi yoritiladi. Shuningdek, turizmning iqtisodiy va madaniy ahamiyati, sayyohlik yo'nalishlari va ularni targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Toshkent viloyati, turizm tarixi, Ipak yo'li, qadimiy shaharlar, madaniy meros, tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, mustamlaka davri, mustaqillik yillari, sayyohlik infratuzilmasi, me'moriy yodgorliklar, ziyorat turizmi, xalqaro savdo yo'llari, an'anaviy hunarmandchilik.*

Toshkent viloyati O'zbekistonning eng qadimiy va tarixiy jihatdan boy hududlaridan biridir. Bu mintaqa asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashgan bo'lib, Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq, madaniyat va ilm-fan almashinuvining markazi bo'lgan. Tarixiy manbalarda Toshkent va uning atrofidagi hududlarning qadimiyligi miloddan avvalgi davrlarga borib taqalishi haqida ma'lumotlar mavjud. Bu yerda qadimgi shaharlar, savdo markazlari va me'moriy obidalar shakllangan bo'lib, ularning izlari hozirgacha saqlanib qolgan.

Toshkent viloyatining turizm tarixi aynan shu qadimiylik va boy madaniy meros bilan chambarchas bog'liq. VII–VIII asrlarda arablar bosqini natijasida Islom madaniyatining tarqalishi, keyinchalik esa mo'g'ullar hukmronligi bu hududning rivojlanishiga turli ta'sirlar ko'rsatgan. Amir Temur davrida esa Toshkent va uning atrofidagi shaharlar ilm-fan, hunarmandchilik va me'morchilik markazlaridan biriga aylangan. XVI–XVII asrlarda Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalari hukmronligi ostida Toshkent o'zining muhim siyosiy va iqtisodiy mavqeini saqlab qolgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining bu hududni egallashi bilan Toshkent viloyatida infratuzilma rivojlana boshladi. Temir

yo‘llarning qurilishi, yangi mahalliy boshqaruv tizimining joriy etilishi sayyohlar va tadbirkorlarning hududga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Sovet davrida esa Toshkent viloyati sanoat, fan va madaniyat markazlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu davrda zamonaviy turizm sohasi shakllana boshladi.

Mustaqillik yillarida Toshkent viloyatining turizm salohiyati yanada rivojlandi. Qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va tabiiy manzaralar ichki va xalqaro sayyohlarni o‘ziga jalb eta boshladi. Bugungi kunda viloyatning turizm tarixi nafaqat uning boy madaniy merosi, balki zamonaviy infratuzilma va ekoturizm imkoniyatlari bilan ham o‘ziga xosdir.

**Toshkent viloyatining turizm tarixi va uning ilk asoslari.**

Toshkent viloyati hududi qadimdan ko‘chmanchi va dehqonchilik madaniyatining kesishgan nuqtasi hisoblangan. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda bu yerda ilk shahar madaniyati shakllangan. Jumladan, Shosh (hozirgi Toshkent) shahri ilk bor miloddan avvalgi III asrda Xitoy manbalarida tilga olingan (Bichurin, 1950).

Milodiy I–IV asrlarda bu hudud Qang‘ davlati tarkibida bo‘lib, aynan shu davrda savdo yo‘llari rivojlangan va ilk turizm shakllana boshlagan. O‘rta asrlarda esa Toshkent arab geograflari tomonidan "Movarounnahr gavhari" deb atalgan (Ibn Havqal, 977). Bu davrda hududda ilm-fan va madaniyat rivojlangan, bu esa sayyohlar va olimlarning e’tiborini tortgan. Masalan, Ibn Battuta (XIV asr) va Klavixo (XV asr) Toshkent hududi haqida o‘z asarlarida qayd etganlar.

**O‘rta asrlar: Sayyohlik markazi sifatida Toshkentning rivojlanishi.**

IX–XII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar hukmronligi ostida Toshkent nafaqat iqtisodiy va savdo markazi, balki diniy va madaniy turizm nuqtai nazaridan ham ahamiyat kasb eta boshladi. Barakxon madrasasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Zangiota majmuasi kabi me’moriy obidalar aynan shu davrda bunyod etilgan bo‘lib, hozirga qadar sayyohlarni jalb etib kelmoqda.

XIV asrda Amir Temur davrida Toshkent va uning atrofidagi hududlar ilm-fan va me’morchilik markaziga aylandi. Temuriylar davridagi mahobatli binolar va masjidlar O‘rta Osiyodagi madaniy turizmning rivojlanishiga zamin yaratgan. Misol uchun, Toshkentning Islom

madaniyatidagi o‘rni muhim bo‘lib, hozirda mavjud bo‘lgan Qur’oni Karimning eng qadimgi nusxalaridan biri – Usmon Qur’oni – aynan shu hududda saqlanib kelmoqda.[1]

**XIX–XX asr: Toshkent viloyatida turizmning yangi bosqichi**

XIX asrda Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga kirib kelishi bilan Toshkent viloyatida yangi infratuzilmaviy o‘zgarishlar ro‘y berdi. 1865-yilda Toshkentning Rossiya imperiyasiga qo‘shilishi bilan yangi mehmonxonalar, savdo rastalari va temir yo‘l tizimi qurildi [2] Bu jarayon turizmning zamonaviy shakllarining rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Toshkent yirik transport markaziga aylanganidan so‘ng, Yevropadan kelgan tadbirkorlar va sayyohlar bu hududga ko‘proq e’tibor qaratdi.

Sovet Ittifoqi davrida Toshkent viloyatida sanoat va urbanizatsiya rivojlandi. Sovet hukumati davrida ko‘plab sanatoriyalar, dam olish maskanlari, madaniy obidalar va yodgorliklar tiklandi. 1966-yilgi Toshkent zilzilasi tufayli shahar qayta qurildi va zamonaviy turizm infratuzilmasi shakllandi [3] Shu bilan birga, Chimgan va Beldersoy kabi tabiiy turizm maskanlari mashhurlikka erishdi.

**Mustaqillikdan keyingi davr: Zamonaviy turizmning shakllanishi.**

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Toshkent viloyati turizm sohasida yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. 1990-yillardan boshlab hukumat tomonidan tarixiy obidalarni rekonstruksiya qilish, zamonaviy mehmonxona va turistik majmualarni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirildi [4]

Bugungi kunda Toshkent viloyati turizmning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha rivojlanmoqda: madaniy-tarixiy turizm, ekoturizm va tog‘ turizmi, ziyorat turizmi, tibbiy va dam olish turizmi.

Quyida madaniy-tarixiy turizm markazlari keltirib o’tilgan.

1. Baroqxon madrasasi - XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida qurilgan bo‘lib, u Toshkentning diniy va ilmiy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu madrasa Movarounnahrning yirik ulamolari va dinshunoslari tahsil olgan ilmiy maskan bo‘lgan. Hozirgi kunda Toshkent shahri Hazrati Imom majmuasida joylashgan. Hozirda madrasada diniy meros muzeyi joylashgan bo‘lib, bu yerga ko‘plab ziyoratchilar tashrif buyuradi.

2. Ko‘kaldosh madrasasi - Toshkentning eng yirik madrasalaridan biri bo‘lib, u Abdullaxon II hukmronligi davrida qurilgan.

Ya’ni XVI asrda qurilgan madrasa hisoblanadi. Bu madrasa faqat ta'lim markazi bo‘libgina qolmay, balki o‘rta asrlarda Toshkentdagi eng muhim siyosiy va ijtimoiy markazlardan biri bo‘lgan. Hozirgi vaqtda Toshkent shahri Eski shaharda joylashgan. Hozirgi kunda madrasa tarixiy-madaniy yodgorlik sifatida sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

3. Hazrati Imom majmuasi Toshkentning eng qadimiy va muqaddas ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi. Bu majmua IX -XIX asrlarda qurilgan hisoblanadi. Majmua tarkibiga Hazrati Imom maqbarasi, Baroqxon madrasasi, Tillashayx masjidi va Abu Bakr Qaffol Shoshiy maqbarasi kiradi. Aynan shu yerda Islom olamidagi eng qadimiy Qur’on nusxalaridan biri – Usmon Qur’oni saqlanmoqda.

**Ekoturizm va tog‘ turizmi:**

**1. Ugom-Chotqol milliy bog‘i** - Toshkent viloyati Bo’stonliq tumanida joylashgan ushbu milliy bog’ maydoni 574 ming gektar. Ushbu milliy bog‘ Toshkent viloyatidagi eng yirik tabiiy qo‘riqxona bo‘lib, unda O‘zbekistonning noyob flora va faunasi saqlanib qolgan. Bu yerda noyob yovvoyi hayvonlar, jumladan, qor barsi, tog‘ echkilari va turli xil qushlar uchraydi. Sayyohlar bu yerga tog‘ yurishlari (trekking), tog‘ velosipedi, chodirli dam olish (camping) va fotosafari uchun kelishadi.

**2. Chotqol biosfera qo‘riqxonasi –** Toshkent viloyati Bo’stonliq tumanida joylashgan. UNESCOning biosfera qo‘riqxonalari ro‘yxatiga kiritilgan ushbu hudud tabiiy xilma-xilligi bilan mashhur. Qo‘riqxonada ekoturizm yo‘nalishlari bo‘yicha ekskursiyalar tashkil etilib, tabiatni asrash va mahalliy ekotizimni o‘rganish imkoniyati mavjud.

**3. Chimyon tog‘lari -** Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanida joylashgan. Eng baland cho‘qqisi: 3,309 metr. Chimgan tog‘lari O‘zbekistonning eng mashhur dam olish maskanlaridan biri bo‘lib, bu yerda yil bo‘yi sayyohlar oqimi kuzatiladi. Yoz faslida tog‘ yurishlari (trekking), ot minish va veloturizm mashhur bo‘lsa, qishda chang‘i sporti va snoubord uchish ommaviy ravishda rivojlangan. Hukumat tomonidan 2016-yildan boshlab turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qator qonunlar qabul qilindi va xorijiy sayyohlarni jalb etish uchun viza tizimi soddalashtirildi[5]. Toshkent viloyati turizm tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu hudud ming yillar davomida madaniy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Qadimgi davrlardan boshlab, Buyuk Ipak yo‘li ta’sirida shakllangan sayyohlik markazi o‘rta asrlarda ilm-fan va me’morchilik markazi sifatida rivojlangan, XIX–XX asrlarda esa zamonaviy

infratuzilma bilan boyitilgan. Mustaqillik yillarida esa Toshkent viloyati turizm sohasida jadal rivojlanib, xalqaro darajadagi sayyohlik maskaniga aylanishga intilmoqda. Kelajakda hududda turizmni yanada rivojlantirish uchun tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish, ekoturizmni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim vazifalar hisoblanadi. Toshkent viloyatining boy tarixiy-madaniy merosi va tabiiy imkoniyatlari ushbu mintaqani jahon miqyosida turizm markaziga aylantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bartold, V.V. (1927). «O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha tadqiqotlar.»
2. Ibn Battuta (1355). «Safarnoma.»
3. Fedchenko, A.P. (1878). «Turkiston bo‘ylab sayohat.»
4. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (2020). «O‘zbekistonda turizm industriyasi rivojlanishi.»
5. Ш. Б. Жумаева «Тошкент вилояти зиёратгоҳлари: ривожланиш босқичлари ва ўзига хос хусусиятлари» Toshkent -2021
6. D. Alimova va M.Filanovich «Toshkent tarixi». Toshkent-2009.

**Xurramova Zahro Farhod qizi**
CHDPU Tarix yo’nalishi talabasi

## TOSHKENT VILOYATIDAGI YANGI SHAHARLARNING RIVOJLANISHI (CHIRCHIQ SHAHRI MISOLIDA)

***Anotatsiya:*** *Maqolada Toshkent viloyatidagi yangi shaharlarning rivojlanishi Chirchiq shahri misolida tahlil qilinadi. Chirchiq shahri innovatsion va investitsion markazga aylantirilmoqda, bu esa zamonaviy infratuzilma va yuqori qavatli turar-joylarning qurilishi orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, shaharda sport turizmini rivojlantirish uchun zamonaviy sport arenasi qurilishi rejalashtirilgan. Yangi Toshkent shahri esa "yashil shahar" konsepsiyasida barpo etilib, ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chirchiq shahri, Yangi Toshkent, shahar rivojlanishi, innovatsion markaz, investitsiya, sport turizmi, yashil shahar, ekologik barqarorlik.*

Toshkent viloyati shaharlarining rivojlanishi uzoq tarixga ega bo'lib, ularning shakllanishi va taraqqiyoti turli davrlarda turlicha kechgan. Qadimgi shahar xarobalarida o'tkazilgan qazilmalar shaharlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va kengayishi har xil tarzda kechganligini ko'rsatadi. Shaharlar poytaxt bo'lgani, karvon yo'llari ustiga joylashgani, konlardan yaxshi foydalangani va chorvador ko'chmanchi xalqlar bilan aloqada bo'lgani uchun rivojlangan.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida, ya'ni Sovet hokimiyati davrida, Toshkent viloyatida sanoat shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi kuzatildi. Bu davrda aholi soni dinamikasi, milliy tarkibidagi o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari sezilarli darajada o'zgardi

Shuningdek, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining o'zaro chegaradosh bo'lgan tumanlari hududlarini o'zgartirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, poytaxtdan Toshkent viloyatiga 1010 gektar, viloyatdan poytaxtga 8371 gektar yer maydoni o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Toshkent viloyatida yangi shaharlarning rivojlanishi doirasida Chirchiq shahri misolida amalga oshirilayotgan loyihalar alohida e'tiborga loyiqdir. C hirchiq shahrining tarixi 1932-yil 28- aprelda SSR Mehnat va Mudofa Kengashi qarori bilan elektrokimyoviy va Chirchiq Bo’suv GES kaskadlari, qurishni boshlagan payt boshlangan. 1934-yil 27-aprelda O’zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo’mitasi Prezdumening qarori bilan Chirchiq shahar kengashi tuzildi va 1934-yil 1-mayda shaharni qurish marosimi bo’lib o’tdi.Shaharning rasmiy tug’ilgan kuni 1935-yil 1-may.

Shahar O’zbekiston hududining shimolida ,Toshkent viloyatining eng suvli vodiysida joylashgan bo’lib Chirchiq (tarjimasida –“shovqinli”) daryosi nomini olgan.

XX asrning 40-yillari o’rtalarida “Maxam Chirchiq “ kimyoviy zavodida SSR da akademik I.V.Kurchatov boshchiligida atom loyihasi bo’yicha olib borilgan ilmiy tatqiqotlar va loyihalash ishlari doirasida juda murakkab va ma’suliyatli ishlarni amalga oshirdi.Shahardagi mudofa sohasi obyektlari orasida Mi-8 va Mi-9 harbiy vertalyotlarini ta’mirlash va tiklash bilan shug’illangan Chirchiq aviatsiya mexanik ta’mirlash zavodi mavjud.

Chirchiq shahri innovatsion va investitsion markazga aylantirilmoqda, bu esa zamonaviy infratuzilma va turar-joylar qurilishi

orqali amalga oshirilmoqda.Shaharni rivojlanishida qurilish asosiy o'rin tutadi .Bu borada hozirda ko'pdan ko'p loyihalar amalga oshirilmoqda .Xususan, shaharning "Shodlik" mahallasida 4 ta 16 qavatli uy qurilib, jami 288 xonadon foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Bu uylar zamonaviy Hi-Tech usulida bunyod etilib, zilzilabardoshlik kabi xavfsizlik talablariga javob beradi.

Chirchiq shahrida aholi demografiyasining rivojlanish: Chirchiq shahri O'zbekistonning Toshkent viloyatida joylashgan bo'lib, uning aholisi yildan-yilga o'sib bormoqda. Shaharning demografik rivojlanishi turli omillar, jumladan, tabiiy o'sish, migratsiya va iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq.

Shaharda asosan o'zbek va qozoq millati vakillari istiqomat qiladi . Shuningdek ,qirg'izlar,ruslar,ukrainlar,armanlar va boshqa millat vakillari tinch va totuv yashab kelmoqdalar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Chirchiq shahri aholisi 169 944 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-oktabrda bu ko'rsatkich 171 608 kishiga yetgan. Bu shahar aholisining muntazam o'sib borayotganini anglatadi. O'tgan yillarda ham aholi sonining barqaror oshib borishi kuzatilgan bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri tug'ilish darajasining o'lim darajasidan yuqori ekanligidir.

Shahar aholisining zichligi ham yuqori bo'lib, har kvadrat kilometrga 5 771 kishi to'g'ri keladi. Bu esa Chirchiqning aholi zich joylashgan hududlardan biri ekanini ko'rsatadi.

Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari

Demografik o'sishning asosiy omillaridan biri tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqdir. 2023-yilning birinchi yarmida:

Tug'ilishlar soni – 2 274 nafar

O'limlar soni – 461 nafar

Bu ko'rsatkichlar tabiiy o'sish ijobiy ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, shaharda nikoh va ajralish darajalari ham demografik jarayonlarga ta'sir qilmoqda. 2023-yilda nikohlar soni 434 tani, ajralishlar esa 182 tani tashkil etdi

Migratsiya jarayonlari: Chirchiq shahrida migratsiya ham aholi sonining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shaharga ichki migratsiya orqali ko'chib keluvchilar soni ortib bormoqda. Bunga sabab sifatida shaharning sanoat markazlaridan biri ekanligi va ish o'rinlari mavjudligini

keltirish mumkin. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati va ta’lim muassasalarining mavjudligi migratsiyani rag‘batlantiradi.

Shuningdek, Chirchiq shahrida sport turizmini rivojlantirish maqsadida xalqaro sport musobaqalari va madaniy tadbirlarni o'tkazishga mo'ljallangan zamonaviy sport arenasini qurish rejalashtirilgan. Bu loyiha shaharning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi

. Chirchiq shahrida aholi demografiyasining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omillar quyidagilardir:

1. Iqtisodiy rivojlanish – Sanoat korxonalarining kengayishi, ish o‘rinlarining ko‘payishi va tadbirkorlikning rivojlanishi aholining o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi.

2. Ta’lim va infratuzilma – Shaharda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining mavjudligi yoshlarning Chirchiq shahrida yashashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

3. Tibbiy xizmatlar – Sog‘liqni saqlash tizimining yaxshilanishi tug‘ilish ko‘rsatkichlarini oshiradi va o‘lim darajasini pasaytiradi.

Sanoat va iqtisodiy rivojlanish: "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki tashkil etilishi: Shaharda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish maqsadida "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki ochildi. Ushbu texnoparkda Rossiya, Germaniya, Koreya, Turkiya, Xitoy kabi davlatlardan keltirilgan zamonaviy asbob-uskunalar o‘rnatilib, ekologik talablarga javob beruvchi sanoat tarmoqlari faoliyat yuritadi.

Chirchiq industrial texnoparki loyihasi: Shaharda foydalanilmayotgan 60 gektar yer maydonida Chirchiq industrial texnoparkini tashkil etish taklifi ishlab chiqildi. Bu loyiha orqali hududga 300 million AQSH dollari miqdorida qo‘shimcha investitsiya jalb qilinishi, 2 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratilishi va har yili qo‘shimcha 2-3 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Infratuzilma va kommunal xizmatlar: Issiqlik ta’minoti yaxshilanishi: Chirchiq shahridagi 200 ga yaqin ko‘p kvartirali uylar markazlashgan issiqlik energiyasi bilan ta’minlanmoqda. Bu chora-tadbirlar uzoq yillar davomida aholining issiqlik bilan bog‘liq muammolarini hal qilishga xizmat qilmoqda.

Qurilish ishlari hajmining oshishi: 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida shaharda jami 1 143,2 milliard so‘mlik qurilish ishlari amalga

oshirildi. Ushbu ko‘rsatkich shahar infratuzilmasining jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy va madaniy soha: Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish: Shaharda "Milliylik - qonimizda" shiori ostida targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib, milliy qadriyatlarimizni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sport tadbirlari tashkil etilishi: "Chirchiq futbol ligasi" musobaqasi o‘tkazilib, unda jamoalar o‘z mahoratlarini namoyish etdilar. Bu kabi tadbirlar yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Chirchiq shahri Toshkent viloyatining sanoat, ilm-fan va infratuzilma jihatdan rivojlangan shaharlaridan biri bo‘lib, uning o‘sishi viloyatdagi umumiy urbanizatsiya jarayonining bir qismi hisoblanadi. Shahar sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi, transport va ta’lim tizimining rivojlanishi orqali mintaqaviy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Chirchiqning rivojlanish omillari orasida qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga yaqinligi, infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilishi va aholi turmush darajasining oshishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, shahar ekologik muammolar, aholining tabiiy o‘sishi va migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan infratuzilma bosimi kabi muammolarga ham duch kelmoqda. Kelajakda Chirchiq shahrining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun sanoat korxonalarining ekologik xavfsizligini oshirish, transport va kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, yashil hududlarni kengaytirish va aholi uchun qulay urbanistik muhit yaratish zarur. Bu nafaqat Chirchiq, balki Toshkent viloyatining boshqa shaharlarining ham rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1.https//www toshvilstat.uz Chirchiq shaharlarining asosiy iqtisodiy ko’rsatgichlari.

2.https//www asr.gov.uz.. Chirchiq shahrining salohiyati o’rganildi va o’sish nuqtalari belgilandi-O’zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Strategik islohotlar agentligi.

3.https//www xs.uz. Chirchiq shahri inovatsiya va investitsiya shahriga aylanadi- Xalq so’zi.

4.https.//.gazita.uz.2022/05/01. Chirchiq.

5.https//www toshvilstat.uz .Chirchiq shahri demografiya.

***Do'smuratov Raximjon Baxtiyor o'g'li***
Chirchiq shahar 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

## CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya****. Chirchiq shahrining tarixi 1932-yilda elektroximik kombinatining qurilishi bilan boshlandi. Shahar hozirgi kunda sanoat va ta'lim markaziga aylangan. U Toshkent viloyatining eng muhim shaharlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Chirchiqning tarixiy rivojlanishi, uning sanoati va iqtisodiyoti, shuningdek, ta'lim va ijtimoiy infratuzilmasi tahlil qilinadi. Shahar bugungi kunda o'z sanoatini rivojlantirib, transport va ta'lim tizimini modernizatsiya qilmoqda.*

***Kalit so'zlar*** *:Chirchiq, elektroximik kombinat, sanoat rivoji, ikkinchi jahon urushi, transport tizimi, ta'lim muassasalari, shahar arxitekturasi, o'zbekistondagi shaharlar.*

Chirchiq shahrining tarixi 1932 yil 28-aprelda boshlandi, chunki SSSR Mehnat va mudofaa kengashi o'z qaroriga asosan elektroximik kombinatining qurilishini boshladi (hozirgi «MAXAM-CHIRCHIQ» AK) va Chirchiq-Bozsuy GES kaskadi qurilishi boshlangan. 1934 yil 27-aprelda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining qarori bilan Chirchiq shahri kengashi tashkil etildi va 1934 yil 1-mayda shahar qurilishining tantanali boshlanishi bo'lib o'tdi. Shahrning rasmiy tug'ilishi 1935 yil 1-may deb hisoblanadi. Shahar O'zbekistonning shimolida, Toshkent viloyatining eng ko'p suvi bo'lgan Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan (Chirchiq — «shovqinli», «g'alvir» deb tarjima qilinadi) va shu daryo nomidan o'z nomini olgan. Daryoning vodiysi tektonik kelib chiqishga ega bo'lib, Karzhantau va Chatkal tog' tizmalarining oralarida joylashgan. Shahar Toshkent markazidan 32 km shimoli-sharqda temiryo'l stantsiyasi mavjud. Shaharda qurilish sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud, jumladan, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari, go'sht kombinati va boshqalar.

Ikkinchi jahon urushi (1941—1945) davrida shahar mashinasozlik markaziga aylandi. Evakuatsiya qilingan korxonalar uskunalari asosida «Chirchiqselsmash», «Uzbekkhimmash», Chirchiq transformator zavodi, «UzKTJM» qattiq va yuqori haroratli metallurgiya kombinati qurildi.

Shuningdek, shaharda AO «Maxam-Chirchiq» (avvalgi «Elektroximprom») katta kimyo zavodi mavjud.

1940-yillarning o‘rtalarida bu korxona, SSSRda atom loyihasi doirasida ilmiy-tekshirish va loyihaviy ishlarni amalga oshirishda, akademik I.V. Kurchatov rahbarligida juda murakkab va mas’uliyatli ishlarni bajardi.

Shaharda mudofaa sanoati bilan bog‘liq ob’ektlar ham mavjud. Chirchiq aviatsiya-texnik ta’mirlash zavodi, Mi-8 va Mi-9 (Mi-8IV) harbiy vertolyotlarini ta’mirlash va restavratsiya qilish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, Chirchiq tankni ta’mirlash zavodi ham mavjud bo‘lib, u tank ta’miri bilan shug‘ullanadi. Shahar hududida 15 DShBR (o‘ttiz to‘qqizinchi mikrorajonda, sobiq 467-yadroli maxsus kuchlar bo‘linmasi bazasida) joylashgan, shuningdek, og‘ir polk, aerodromni xavfsizligini ta’minlovchi polk, tank brigadasi mavjud. Shuningdek, shaharning Azadbash qishlog‘ida (shahardan 4 km uzoqlikda, transformator zavodi tomonda) 15-O‘BRSpN bazasida antiterroristik ta’lim markazi joylashgan. Shaharning shimol-sharqiy chiqishida (uchinchi mikrorajondan keyin) shturmaviya va qiruvchi aviatsiya (shu jumladan, vertolyotlar) uchun harbiy aerodrom mavjud.

Shuningdek, shahar hududida «Tavaksay» qattiq jazolar zonasi ham mavjud bo‘lib, bu Bostanliq tumanining Tavaksay qishlog‘ida joylashgan (shahardan 15 km masofada). Chirchiq tankli oliy komandirovka va muhandislik maktabi (ChVTMK) mavjud. Sovet davrida bu maktab marshall Ryibalkoning nomini olgan edi. Avvaliga bu maktab Toshkent Tankli oliy komandirovka maktabi nomini olgan. Chirchiqda bir qancha ta’lim muassasalari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- Chirchiq davlat pedagogika instituti,
- O‘zbekiston davlat fizkulturasi va sport universiteti,
- Chirchiq davlat texnik kollej,
- Akademik litsey,
- Chirchiq iqtisodiy-ijtimoiy kollej,
- Industriyal kolleji,
- Tibbiyot kolleji,
- 26 o‘rta maktab.

Shaharda shuningdek, san’at maktablari ham mavjud, jumladan, M. Ashrafi nomidagi 3-sonli bolalar san’ati maktabi, P. I. Chaykovskiy nomidagi 15-sonli bolalar san’ati maktabi va Xamza nomidagi 7-sonli

san’at maktabi. Shaharda asosiy transport vositalari bo‘lib, xususiy marshrut taksilar va Isuzu NP37 avtobuslari xizmat ko‘rsatadi. Shaharda 20 ga yaqin shahar yo‘nalishlari mavjud. Shuningdek, Toshkent, Gazalkent, Charvak va Yangibozor bilan o‘rtasidagi uzoq masofali avtobuslar qatnovi mavjud. Qisqa masofalarda esa Daewoo Damas mikroavtobuslari va «Gazel» mikroavtobuslari ishlatiladi. Chirchiqdan Toshkent — Xodjikent temir yo‘l yo‘nalishi o‘tadi. Shaharda uchta temir yo‘l stantsiyasi («Boz-su», «Chirchiq» va «Aranchi») va ikki bekat mavjud. Bu stantsiyalar «Maxam-Chirchiq» va Chirchiq transformator zavodlarining mahsulotlari va xom ashyosini yetkazib berishda faol foydalaniladi. Shaharda shuningdek, Toshkent — Xodjikent elektrichkasi mavjud bo‘lib, xalqaro yo‘nalishda Chirchiq — Almaty reysi amalga oshiriladi. Chirchiq shahrining tuzilishi to‘rtburchak shaklida bo‘lib, keng ko‘chalarga va standart turdagi uylar qurilgan. Shahar rejalari (1933-1936 yillar, «Gidrostroyproyekt», Moskva, arxitektorlar — G. M. Orlov, M. I. Tarakanov, V. A. Lavrov va boshqalar, V. A. Vesnin bilan maslahatlar; 1964 yil, «Uzgosproyekt», bosh arxitektor — P. A. Duda-Dudinskiy) asosida shahar qurilishi amalga oshirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Chirchiq shahri O‘zbekistonning shimoliy qismida joylashgan va 1932-yilda elektroximik kombinati qurilishi bilan tarixiy rivojlanish jarayonini boshlagan. Shahar tashkil topganidan so‘ng tezda sanoat markaziga aylangan bo‘lib, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davrida uning sanoat salohiyati kuchaygan. Bugungi kunda Chirchiq nafaqat sanoat, balki ta’lim va ijtimoiy infratuzilma sohalarida ham muhim o‘ringa ega. Shahar iqtisodiyoti, ayniqsa, kimyo sanoati, mashinasozlik va metallurgiya sohalarida o‘sib bormoqda. Chirchiqda joylashgan AO «Maxam-Chirchiq» (avvalgi «Elektroximprom») kabi yirik sanoat korxonalari, shahar iqtisodiyotining asosiy lokomotivlariga aylangan. Shuningdek, shaharda ko‘plab texnik va pedagogik ta’lim muassasalari faoliyat yuritib, yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni qondirishga xizmat qilmoqda. Shaharning transport tarmog‘i ham o‘sib bormoqda, shahar ichida va tashqi hududlar bilan bog‘lanish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Chirchiqning rivojlanish istiqbollari, uning sanoat va ta’lim tizimlarini modernizatsiya qilish orqali, nafaqat Toshkent viloyati, balki O‘zbekistonning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga hissa qo‘shishda davom etmoqda. Shahar bugungi kunda o‘zining sanoat salohiyatini

yanada mustahkamlash, infratuzilmasini kengaytirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo‘lida izchil ishlamoqda. Bu jarayonlar, albatta, shahar aholisining turmush darajasini oshirishga, shuningdek, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Chirchiq shahrining kelajakda yirik sanoat va ta’lim markazlaridan biriga aylanishi kutilmoqda, bu esa uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining davomiyligini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi. (2023). Chirchiq shahrining sanoati va iqtisodiyoti haqida ma’lumotlar.
2. Maxam-Chirchiq aktsiyadorlik kompaniyasining rasmiy veb-sayti. (2023).
3. Shahar arxitekturasi va rejalari: Orlov, G.M., Tarakanov, M.I., Lavrov, V.A. (1933–1936). Gidrostroyproyekt, Moskva.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2022). Chirchiq davlat pedagogika instituti tarixi.

**Sa’dulloyeva Dilobar Nurullo qizi**
CHDPU magistri.
dilobarsadulloyeva@gmail.com

## CHIRCHIQ SHAHAR VA SANOAT KORXONALARI TARIXI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Chirchiq shahrining tashkil topishi va uning sanoat korxonalari bilan bog’liq tarixiy jarayonlar tahlil qilinadi. Chirchiq shahri XX asrning birinchi yarmida energetik va kimyo sanoati negizida shakllangan bo’lib, uning rivojlanishi O’zbekistonning industriallashuvi bilan chambarchas bog’liqdir. Maqolada Chirchiq GES qurilishi, kimyo, metallurgiya, elektrotexnika sanoati zavodlarining barpo etilishi, ularning Sovet davridagi va mustaqillikdan keyingi iqtisodiy-ijtimoiy o’rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, shahar sanoatining hozirgi holati va istiqbollari haqida ham fikr yuritiladi.*

***Kalit so’zlar:*** *Chirchiq shahri, sanoat tarixi, Chirchiq GES, kimyo sanoati, Sovet davri, transformatsiya, industrial rivojlanish, iqtisodiy islohotlar.*

Chirchiq shahri O’zbekiston Respublikasining Toshkent viloyatida joylashgan bo’lib, mamlakat sanoatining muhim markazlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi bevosita XX asr sanoatlashuv jarayonlari bilan bog‘liq.Uning ijtimoiy hayoti tarixiy jihatdan rivojlanishi yirik sanoat korxonalarining paydo bo’lishi bilan bog’liq holda taraqqiy etdi.Ushbu maqolada Chirchiq shahrining vujudga kelishi, asosiy zavodlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilib, hamda unda Chirchiq shahrining sanoat salohiyati, unda paydo bo’lgan tarixiy sharoitlar va zamonaviy rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi.

Chirchiq shahrining vujudga kelish tarixi:Chirchiq shahri O’zbekiston Respublikasining Toshkent viloyatida, Chirchiq daryosi bo’yida, Toshkent shahridan taxminan 32 km shimoli-sharqda joylashgan. Shahar Tyan-Shan tog’ tizmasining etaklarida, dengiz sathidan 600–800 metr balandlikda joylashgan bo’lib, bu hududni tabiiy go’zalliklar va sernam iqlimi bilan ajratib turadi. Shahar atrofida ko’plab tog’li manzaralar, o’rmonzorlar va rekreatsion zonalar mavjud.Chirchiq shahri 1935-yilda Chirchiq daryosi bo’yida qurilgan yirik gidroinshoot – Chirchiq-GES (gidroelektr stansiyasi) bunyodkorligi bilan bog’liq holda paydo bo’lgan[1]. Dastlab bu hudud kichik ishchilar posyolkasi sifatida shakllandi. GESning qurilishi SSSRning energetik siyosati doirasida amalga oshirilgan bo’lib, bu loyiha Markaziy Osiyoda elektr energiyasi bilan ta’minot muammolarini hal qilishga qaratilgan edi[2]. 1935-yilda 1-mayda Chirchiq shahri sifatida rasman tashkil topdi. Shaharning dastlabki rivojlanishi GES faoliyati va unga xizmat qiluvchi infratuzilmalar bilan bog‘liq holda rivojlanadi.. Sanoat korxonalarining shakllanishi: Chirchiq shahri o’zining sanoat salohiyatini aynan XX asr o’rtalarida kuchaytirdi. Quyidagi asosiy sanoat korxonalari bu yerda barpo etilgan: Chirchiq elektroximzavodi – kimyoviy mahsulotlar, ayniqsa xlor, ammiak va mineral o’g’itlar ishlab chiqaruvchi zavod.Chirchiq transformator zavodi – elektr uskunalari va transformatorlar ishlab chiqarishda respublikadagi yetakchi korxonalardan biri. Metallurgiya va traktor ehtiyot qismlari zavodlari – og’ir sanoat tarmog’iga xizmat ko’rsatgan yirik ishlab chiqarish obyektlari mavjud. Bundan tashqi shaharda “Chirchiqqishloqmash”, “Transformator”, “O‘zbekkimyomash”, “Elektrkimyosanoat” (mineral o‘g‘itlar), qattiq qotishmalar va o‘tga chidamli metallar kabi korxonalar ishlab turibdi. 26 ta qo‘shma korxona (shu jumladan, “Kibo”, “Chirkom”, “Uzmetalltexnolodji”, “Bursel—Tashkent—Tekstil”, 850 dan ziyod kichik

korxona faoliyat ko‘rsatadi. Qurilish materiallari, temirbeton konstruksiyalari ishlab chiqariladi. G‘isht, asfaltbeton zavodlari, go‘sht, non ktlari, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari mavjud. Chirchiq shahrida 1940-yillardan boshlab bir necha yirik sanoat korxonalari faoliyat yurita boshladi. Eng muhimlaridan biri – “Elektroximzavod” bo’lib, u kimyo sanoatining asosiy markazlaridan biriga aylandi. Bu zavod avvaliga harbiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqargan bo’lsa-da, keyinchalik turli turdagi mineral o’g’itlar, xlor va boshqa kimyoviy moddalarga ixtisoslashdi[3] Chirchiq elektr kimyo kombinatining birinchi navbatini rasmiy ishga tushirish 1941 yil 25 yanvarida amalga oshirildi. “Maxam Chirchiq” AJ O’zbekistonda kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalardan biri bo’lib, mamlakatdagi birinchi azot zavodi bazasida tashkil etilgan. Korxona O’zbekistonda 80 yildan ortiqroq vaqt mobaynida mineral o’g’itlar va boshqa kimyo mahsulotlarini yirik ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. “Maksam Chirchiq” zavodi (sobiq “Elektroximzavod” yoki “Chirchiq elektroxim kombinati”) O’zbekiston sanoat tarixida muhim o’rin egallagan sanoat majmuasidir. Quyida uning tarixi, faoliyati va bugungi holati haqida batafsil ma’lumot beraman: Tashkil topishi: Zavodning asoslari 1930-yillarda, O’zbekistonning elektr energetikasi va sanoatini rivojlantirish siyosati doirasida Chirchiq daryosi bo’yida Chirchiq gidroelektr stansiyasi (GES) qurilishi bilan bir vaqtda qo’yilgan. Bu sanoat majmuasi dastlab “Chirchiq elektroxim kombinati” nomi bilan tanilgan. Zavodning qurilishi 1934-yilda boshlangan va u 1937-yilda ishga tushirilgan. Zavod asosan azotli o’g’itlar, xlor, sulfur kislotasi kabi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan edi. Bu mahsulotlar nafaqat qishloq xo’jaligi uchun, balki harbiy sanoat uchun ham strategik ahamiyatga ega edi.

1941–1945 yillardagi urush davrida Chirchiq elektroxim zavodi Sovet Ittifoqining harbiy ehtiyojlarini ta’minlovchi asosiy sanoat obyektlaridan biriga aylandi. Bu davrda zavod harbiy portlovchi moddalar, metallar va xususan, kimyoviy komponentlar ishlab chiqardi. Natijada, zavod davlat maxfiyligi ostiga olingan va strategik ob’ekt sifatida muhofazasi portlovchi moddalar, metallar va xususan, kimyoviy komponentlar ishlab chiqardi. Natijada, zavod davlat maxfiyligi ostiga olingan va strategik ob’ekt sifatida muhofaza qilinardi.

Sovet Ittifoqi parchalangach, 1990-yillarda iqtisodiy inqirozlar va modernizatsiyaga bo’lgan ehtiyoj sababli zavod faoliyati qisqardi. Biroq,

2000-yillardan boshlab “Maksam” nomli turk kompaniyasi bilan hamkorlikda zavod qayta modernizatsiya qilindi va “Maksam Chirchiq” nomi ostida faoliyatini davom ettira boshladi.

Bugungi kunda “Maksam Chirchiq” AJ O’zbekistonning eng yirik kimyo sanoati korxonalaridan biri hisoblanadi. U quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi:

Karbamid (mochevina) – azotli o’g’itlar,Ammofos – fosforli o’g’itlar, Ammiak, Suyuq azot va boshqa kimyoviy mahsulotlar. Mahsulotlar ichki bozorga yetkazib berilishi bilan birga, qo’shni davlatlarga (Qozog’iston, Tojikiston, Afg’oniston va boshqalar) ham eksport qilinadi.

Zavod shahar aholisining katta qismini ish bilan ta’minlaydi va Chirchiqning iqtisodiy hayotida hal qiluvchi rol o’ynaydi. Shu bilan birga, sanoat chiqindilari va atrof-muhitga ta’siri bo’yicha ekologik muammolarni hal qilish zarurati ham mavjud. So’nggi yillarda ekologik tozalash inshootlari va chiqindilarni kamaytirish texnologiyalariga sarmoya kiritilmoqda. Shuningdek, “Chirchiq transformator zavodi” va “Chirchiq metallurgiya zavodi” ham respublika miqyosida muhim rol o’ynagan. Bu zavodlar elektr jihozlari va metall mahsulotlar ishlab chiqarishda mamlakat ehtiyojlarini ta’minlab kelgan[4]. Sovet Ittifoqi davrida Chirchiq zavodlari ittifoq ahamiyatiga ega bo’lgan korxonalar sirasiga kirardi. Bu zavodlarda minglab ishchilar mehnat qilgan bo’lib, ko’plab ijtimoiy infratuzilma – maktablar, madaniyat uylari, sport majmualari ham aynan zavodlar tomonidan qurilgan[5]. Bu davrda Chirchiq shahri “ishchilar shahri” sifatida tanilgan.Sovet davrida Chirchiq shahri harbiy va iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega hudud sifatida e’tiborga olinib, bu yerda harbiy-texnik mahsulotlar ham ishlab chiqarilgan. Ko’plab ishchilar va mutaxassislar bu hududga ko’chib kelib, shahar aholisi keskin oshgan. Ijtimoiy infratuzilma – maktablar, bog’chalar, madaniyat markazlari zavodlar tomonidan qurilib, xodimlarga xizmat qilgan.Sovet Ittifoqi davrida Chirchiq zavodlari ittifoq ahamiyatiga ega bo’lgan korxonalar sirasiga kirardi. Bu zavodlarda minglab ishchilar mehnat qilgan bo’lib, ko’plab ijtimoiy infratuzilma – maktablar, madaniyat uylari, sport majmualari ham aynan zavodlar tomonidan qurilgan[5]. Bu davrda Chirchiq shahri “ishchilar shahri” sifatida tanilgan.

1991-yildan keyin Chirchiq sanoati xususiylashtirish, bozor iqtisodiyotiga o’tish jarayonini boshdan kechirdi. Ko’plab eski korxonalar qisqartirildi yoki yangidan texnologik jihatdan jihozlandi. Hozirda

Chirchiqdagi kimyo zavodi, transformator zavodi va boshqa texnologik bazalar eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, Chirchiq shahrining sanoati bozor iqtisodiyotiga moslashish davrini boshdan kechirdi. Ko'plab zavodlar xususiylashtirildi yoki restrukturizatsiya qilindi. Shunga qaramay, Chirchiq Kimyo sanoati va Chirchiq traktor ehtiyot qismlari zavodi kabi korxonalar faoliyatini davom ettirib, eksport imkoniyatlariga ega bo'ldi[6].

Xulosa: Chirchiq shahri O'zbekiston tarixida sanoatlashuvning jonli namunasi sifatida e'tiborga loyiq. U nafaqat gidroinshoot asosida paydo bo'lgan, balki o'ziga xos sanoat tizimi va urbanistik madaniyatga ega shaharga aylangan. Uning tarixi mintaqadagi iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy bosqichlar va texnologik taraqqiyotlarni o'zida mujassam etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Raxmatov, Sh. (2005). O'zbekiston sanoati tarixi. Toshkent: Fan.
2. Glinkin, P. (1979). Energetika va taraqqiyot. Moskva: Nauka.
3. Karimov, B. (2010). "Chirchiq kimyo sanoati tarixidan". // Iqtisodiy izlanishlar jurnali, №4.
4. "O'zbekiston sanoati: tarix va istiqbol" (2016). Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. Xudoyberdiyev, M. (2000). Sanoat shaharlari va ijtimoiy infratuzilma. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar qo'mitasi hisobotlari, 2020–2023.

**Jumabaev Temur**
CHDPU Tarix yo'nalishi talabasi

**CHIRCHIQ SHAHRI: KECHA VA BUGUN**

***Annotatsiya.*** *Ushbu ishda Chirchiq shahrining tarixi, rivojlanish bosqichlari, bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holati va kelajakdagi istiqbollari yoritilgan. Shahar sanoat, ta'lim, madaniyat va turizm sohalarida muhim o'ringa ega bo'lib, uning geografik joylashuvi va tabiiy resurslari hududning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ishda shuningdek, shahar infratuzilmasining zamonaviy holati, amalga oshirilayotgan loyihalar va istiqboldagi rejalar tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chirchiq shahri, tarix, sanoat, infratuzilma, iqtisodiyot, rivojlanish, istiqbol, urbanizatsiya, Toshkent viloyati, ijtimoiy soha, ta’lim, turizm, geografik joylashuv, tabiiy resurslar, modernizatsiya.*

Chirchiq shahri Tarixi, Bugungi Holati va Istiqbollari Tarixiy Ma'lumotlarChirchiq shahri O‘zbekistonning Toshkent viloyatida joylashgan bo‘lib, u tarixiy va madaniy jihatdan muhim hududdir. Shaharning tarixi qadimgi zamonlarga borib taqaladi va bu yerda ko‘plab qiziqarli voqealar sodir bo‘lgan. Chirchiq hududi odamlar yashash uchun qadimdan qulay bo‘lib, asrlar davomida qishloq xo‘jaligi va savdo-sotiqning markazi sifatida rivojlangan.Chirchiq nomining kelib chiqishi haqida bir necha nazariyalar mavjud. Ba'zi manbalarga ko‘ra, "Chirchiq" so‘zi "chiroyli" yoki "chiroqlik" ma'nosida kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, bu esa shaharning go‘zalligi va tabiati bilan bog‘liq. Bugungi Holati Hozirgi vaqtda Chirchiq shahri, Toshkent shahridan taxminan 35 kilometr masofada joylashgan. Shaharda yashovchi aholi soni taxminan 200,000 dan ortiq. Shaharning iqtisodiyoti matbaa, neft-kimyo, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi sohalariga tayanadi. Shu bilan birga, Chirchiq shahri transport sohasida ham muhim o‘rin egallaydi, chunki u Toshkent va boshqa viloyatlar o‘rtasidagi transport yo‘llarining kesishgan joyidir.Chirchiqda boshqa shaharlardek ko‘plab ta'lim muassasalari, tibbiyot markazlari va madaniy markazlar mavjud. Shaharda tarixiy obidalar, masjidlar va jamoat joylari mavjud bo‘lib, ular mahalliy aholi va sayyohlar uchun qiziqarli.Istiqbollari Chirchiq shahri kelajakda rivojlanish istiqbollariga ega.

O‘zbekiston hukumati, shaharning infratuzilmasini yaxshilash, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va mahalliy aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan ko‘plab loyihalarni amalga oshirmoqda.Shahar atrofidagi hududlar, jumladan, qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida investitsiyalarni jalb etish uchun sariq strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Jamoat transporti, yo‘llar va aloqa tizimlarini modernizatsiya qilish, shaharni turistik markaz sifatida rivojlantirish, shuningdek, ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, Chirchiqning tabiiy resurslari va geografik joylashuvi uni qishloq xo‘jaligi uchun qulay manzilga aylantiradi. Bu erda agrar innovatsiyalarni joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud.XulosaChirchiq shahri o‘zining boy tarixi, hozirgi zamon iqtisodiyoti va kelajak istiqbollari bilan, O‘zbekistonning

muhim shaharlaridan biri sifatida rivojlanishda davom etmoqda. Shahardagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar uni tadqiq qilish va rivojlantirishda yana koʻplab imkoniyatlaringizni ochadi.

Chirchiq Shahri TarixiChirchiqning tarixi qadimiy xalqlar va madaniyatlar bilan bogʻliq. Shaharning nomi koʻplab tarixiy manbalarda uchraydi va bu hudud turli davrlarda turli xalqlarning yashash joyi boʻlgan. 1.Qadimiy davrlar: Chirchiq hududi, qadimda Oʻrta Osiyoning savdo yoʻllaridan biri boʻlgan. Bu yerda Oʻrta asrlar davomida turli savdogar va sayyohlar toʻplangan. Qadimda, bu yerda yashagan xalqlar ovchilik va qishloq xoʻjaligi bilan mashgʻul boʻlganlar. 2 .Oʻrta Osiyo imperiyalari Chirchiq, asosan, Temuriylar imperiyasi davrida rivojlangan. Bu davrda shahar savdo va madaniyat markazi sifatida tanilgan. Shaharda Qur'on va boshqa diniy kitoblar yozilgan, bu esa vaqti-soati kelganda ilm-fan va madaniyat rivojiga katta ta'sir koʻrsatgan .3 .20-asr tarixi: 20-asrda, Soviet Ittifoqi davrida Chirchiq sanoat rivojlanishi bilan tanilgan. Shahar oʻzining neft-kimyo, matbaa va oziq-ovqat sanoati bilan mashhur boʻldi. 1970-yillardan keyin, Chirchiq aholi punktining rivojlanishi davom etdi, yangi aholi joylari, infratuzilmalar va ijtimoiy ob'ektlar barpo etildi.Bugungi Holati1.Iqtisodiy vaziyat:

Hozirgi paytda Chirchiq shahri iqtisodiy jihatdan oʻsishda davom etmoqda. Shaharta neft-kimyo, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi koʻplab korxonalar mavjud. Shaharda kichik va oʻrta bizneslar rivojlanmoqda, bu esa ish oʻrinlarini yaratishga yordam bermoqda. 2. Aholi: Chirchiqda aholi soni 200,000 dan oshadi. Aholining koʻpchiligi qishloq xoʻjaligi, sanoat va xizmat koʻrsatish sohalarida ishlaydi. Shaharda yoshlar va talabalarning koʻpligi ta'lim muassasalarining rivojlanishiga imkoniyat yaratmoqda.3.Ijtimoiy infratuzilma: Chirchiqda ta'lim muassasalari, kasalxonalar, sport infratuzilmalari va madaniyat markazlari mavjud. Shahar oʻzining sport bilan shugʻullanishi va fitnes markazlari bilan tanilgan. Shaharda shuningdek, kutubxonalar, konsert zallari va teatrlar mavjud boʻlib, bu ular foydalanishi uchun qulay sharoit yaratilgan.Madaniyat va San'atChirchiq madaniy va san'at salohiyati bilan ham ajralib turadi.1.Milliy urf-odatlar va bayramlar: Chirchiqda turli milliy bayramlar va tadbirlar nishonlanadi. Oʻzbekistonning jamoaviy bayramlari, xususan, Mustaqillik kuni va Navroʻz, Shaharda keng nishonlanadi. Mahalliy urf-odatlar va an'analar hali ham aholi tomonidan saqlanib kelinmoqda . Shaharda mahalliy ijodkorlar tomonidan yaratilgan

san'at asarlari, qo‘ng‘iroq va musiqalar mavjud. Salohiyatli san'atkorlar o‘z asarlarini xalq orasida namoyish etishmoqda. Chirchiq, muzeylar va galereyalar bilan ham boyitilgan, bu esa madaniy hayotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.IstiqbollariChirchiq shahrining istiqbollari ta'lim, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida rivojlanishni davom ettirishda ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Iqtisodiy rivojlanish: Shaharni sanoat markazi sifatida yanada rivojlantirish, yangi investitsiyalar jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash rejalashtirilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun, yangi korxonalar ochish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Infratuzilma: Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo‘llar, ko‘priklar va jamoat transporti tizimini yaratish rejalashtirilgan. Bu aholi turmush tarzi va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Turizm sohasini rivojlantirish orqali, sayyohlarni jalb qilish, madaniy va tarixiy obidalarni saqlash va rivojlantirish rejalashtirilmoqda. 3. Ta'lim va inson kapitali: Ta'lim tizimini yangilash, yangi o‘quv dasturlarini joriy etish va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali tayyorlangan mutaxassislarni yetishtirish rejalashtirilgan. Yoshlarning malakasini oshirish va ish bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida ta'lim muassasalarini rivojlantirish ustida ishlamoqda.

Chirchiq shahri O‘zbekistonda ahamiyatli joylardan biri bo‘lib, uning tarixi, madaniyati, iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollari O‘zbekistonning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shaharning bevosita aholisining hayoti, ularning an'analari va madaniyati shaharni yanada buyuk qiladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyot, kuchli ta'lim tizimi va boy madaniyat kelajakda Chirchiqni yanada jozibador shaharga aylantirishi kutilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston tarixi (Milliy ensiklopediya) – O‘zbekistonning turli davrlardagi tarixi va madaniyati haqidagi kiritmalar.

2. Toshkent viloyati tarixi. Toshkent viloyatining tarixi, uning shahar va qishloqlari haqida ma'lumotlar.

3. Internet resurslari: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi - Aholi soni, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqa statistik ma'lumotlar.

4. Qodirova M. O‘zbekiston tarixi: XX asr – hozirgi davr. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020. (Sovet davridagi Chirchiq shahri haqida tahliliy ma’lumotlar)

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. (Bugungi O‘zbekiston va shaharlarning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti haqida umumiy qarashlar)

**Bafoyev Jahongir O‘tkir o’g’li**
*CHDPU (Tarix) yo’nalishi*
*1-bosqich magistri*.

## CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI YOXUD O’TMISHDAN BUGUNGACHA

***Annotatsiya:*** *Chirchiq shahri — O’zbekistonning Toshkent viloyatida joylashgan, sanoat va madaniyat markazi sifatida rivojlanib kelayotgan yirik shahar hisoblanadi. Shahar o’zining boy tarixi, sanoat salohiyati va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Chirchiqning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi holati haqida batafsil ma’lumot beriladi.*

***Kalit so’z:*** *Chirchiq, Troitskiy, Georgiy monastiri, muzey, korxona, transport, millat, eksponat.*

Chirchiqning tarixiy ildizlari XIX asr oxirlariga borib taqaladi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil topishi bilan, Bo’zsuv daryosiga rus ko’chmanchilari intila boshlagan. Ular daryo bo’yida joylashib, Troitskiy qishlog’ini yaratgan. Qishloqning o’z maktabi bo’lib, unga Toshkentlik bir shaxs homiylik qilgan, bu maktabning o’qituvchisi — Belotserkovskiy esa qishloq feldsheri va kotibi ham bo’lgan. 1890-yillarda qishloq aholisi cherkov qurish haqida o’ylashni boshlaydi, chunki bu vaqt davomida ular hatto ruhoniysiz yashadilar[36]. Troitskiy qishlog’idagi Georgiy monastiri haqidagi birinchi eslatma 1895-yilga to’g’ri keladi. Mahalliy aholi cherkovni o’zlari qurishadi. 1897-yilda qishloq aholisi qurilish ishlarini yakunlaydi va yangi cherkov ruhoniylar Yevstafiy Lyubimskiy va Konstantin Stoberskiy ishtirokida rasman ochiladi.

Chirchiq shahridagi Troitskiy qishlog’ida joylashgan Troitskiy Georgiy monastiri, Markaziy Osiyodagi eng qadimgi pravoslav monastiri sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

[36] Ziyoyev, H. Chorizm istilosi. T: Fan nashriyoti. 1990-yil.

1900-yilda to'liq qurib bitkazilgan cherkov, 1931-yilda Sovet hukumati tomonidan yopilgan va turli maqsadlarda ishlatilgan. 1945-yilda monastir qayta ochilgan va 1996-yilda to'liq qayta tiklangan. 2004-yilda esa rasmiy ravishda monastir maqomini olgan.

Monastirning arxitekturasi rus pravoslav cherkovlarining klassik uslubida qurilgan. Bino ikki qavatli bo'lib, yuqori qavatida oltin rangli kupol va cherkov xochi joylashgan. Binoning ichki qismi ham bayramona bezatilgan bo'lib, ikonalar va freskalar bilan bezatilgan.

Troitskiy Georgiy monastiri nafaqat pravoslav jamoasi uchun, balki butun Markaziy Osiyo hududidagi diniy va madaniy markaz sifatida xizmat qiladi. Monastirda o'tkaziladigan dini marosimlar, bayramlar va madaniy tadbirlar mahalliy aholi va mehmonlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirda Troitskiy Georgiy monastiri faoliyat ko'rsatmoqda. U yerda muntazam ravishda ibodatlar o'tkaziladi, diniy ta'lim beriladi va turli madaniy tadbirlar tashkil etiladi. Monastirga tashrif buyuruvchilar uchun tarixiy ekskursiyalar ham o'tkaziladi.

Troitskiy Georgiy monastiri Chirchiq shahridagi Troitskiy qishlog'ida joylashgan bo'lib, uning tarixi, arxitekturasi va madaniy roli Markaziy Osiyodagi pravoslav jamoasi uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu monastir nafaqat diniy markaz, balki madaniy merosni saqlovchi muhim inshootdir.

1932-yilda Chirchiq shahri tashkil topdi. Shahar elektrkimyo sanoati rivojlanishi bilan sanoat markaziga aylandi. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o'sdi: 1939-yilda 15 ming, 1959-yilda 65 ming, 1970-yilda esa 107,4 ming kishiga yetdi. Shu davrda ko'p qavatli yirik panelli binolar, madaniyat saroylari, maktablar va poliklinikalar qurildi

Mustaqillikdan so'ng Chirchiq shahri o'zining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta e'tibor qaratdi. Shahar infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, yangi ta'lim muassasalari ochildi, sog'liqni saqlash tizimi mustahkamlandi. Chirchiqda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti joylashgan bo'lib, bu shaharning sport salohiyatini yanada oshirdi.

Chirchiq shahri sanoat sohasida muhim o'rin tutadi. Shaharda "Chirchiqqishloqmash", "Transformator", "O'zbekkimyomash", "Elektrkimyosanoat" kabi yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, 26 ta qo'shma korxona va 850 dan ortiq kichik korxona mavjud. Qurilish materiallari, temirbeton konstruksiyalari ishlab

chiqariladi, g'isht, asfaltbeton zavodlari, go'sht, non va poyabzal fabrikalari faoliyat yuritadi.

Chirchiq shahri ta'lim va madaniyat sohasida ham rivojlangan. Shaharda 25 ta umumiy ta'lim maktabi, 7 ta o'rta maxsus ta'lim muassasasi, 12 ta kutubxona, 3 ta madaniyat muassasasi, muzey va madaniyat bog'i mavjud. 2017-yilda Chirchiqda yangi Pedagogika instituti ochildi**.**

Chirchiq shahri ko'p millatli jamiyatga ega. Aholisi 170 ming nafardan ortiq bo'lib, o'zbek, qozoq, tojik, rus, tatar, qoraqolpoq, qirg'iz, koreys va boshqa millat vakillari tinch-totuvlikda yashaydi. Aholining aksariyati o'zbek, rus va qozoq tillarida so'zlashadi.

Chirchiq shahri transport tizimi yaxshi rivojlangan. Shahardan Toshkent shahriga avtobuslar va mikroavtobuslar qatnaydi. Shahar ichida 26 ta yo'nalishli avtobus va mikroavtobuslar mavjud. Shuningdek, shahardan poyezd yo'li ham o'tadi.

Shu o'rinda Chirchiq shahar tarixi muzeyi haqida gapirmaslikning iloji yo'q. Chirchiq shahar tarixi muzeyi 1957-yilda tashkil etish taklifi bilan chiqqan bir guruh shahar aholisining tashabbusi bilan boshlangan. 1958-yil 3-fevralda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Chirchiq shahrida muzey tashkil etish to'g'risida farmoyish chiqardi. Shu yilning aprel oyida muzey shtatlari tasdiqlanib, smeta ajratildi. Muzey 1959-yil 1-mayda ilk tashrif buyuruvchilarni qabul qildi va bu shahar madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. O'sha paytda muzey fondida 816 nomdagi moddiy ashyolar saqlangan edi[37].

Muzey binosi 1942-yilda qurilgan bo'lib, "O'zbekximmash" zavodining sobiq klubi bo'lgan. Binoning shakli "olti burchakli" bo'lib, umumiy maydoni 577 kvadrat metrni tashkil etadi. 1960-yilda binoning birinchi qavati kengaytirilgan, 1961-yilda esa ikkinchi qavati qurilib, unda respublikada birinchi "Planeriya" ochilgan. 2017-yilda muzey ta'mirlangan, 2018-yilda esa Chirchiq shahar O'lkashunoslik muzeyi Chirchiq shahar tarixi muzeyiga aylantirildi. 2018-2019-yillarda davlat dasturi asosida mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Chirchiq shahar tarixi muzeyida bir nechta asosiy bo'limlar mavjud bo'lib, ular shaharning tarixini, madaniyatini va rivojlanishini aks ettiradi.

1. Chirchiqqurilish Bu bo'lim shaharning qurilish tarixi haqida ma'lumot beradi. "Chirchiq GESi va kanali qurilishi" dioramasi bu

[37]N. Sodikova. Madaniy yodgorliklar xazinasi. T.1981 yil.

bo‘limning markaziy eksponatidir. Bu yerda Chirchiq daryosi vodiysida ulkan qurilish maydoni hosil qilgan “Chirchiqqurilish” xaritasi namoyish etiladi.

2. Chirchiq vodiysi qadimiy tarixi. Bu bo‘lim kishilik jamiyatining paleolit davridan to XX asr boshigacha bo‘lgan evolyutsion rivojlanishini aks ettiradi. Tosh va suyak mehnat qurollari, bronza va quldorlik davri sopol idishlari, ilk feodalizm davri metall otish vositalari, Qo‘qon xonligi aholisining o‘rta asrlar etnografiyasi va maishiy buyumlari bu bo‘limning asosiy eksponatlari hisoblanadi.

3. Chirchiq Ikkinchi jahon urushi yillarida. Ushbu bo‘lim urushda qatnashgan kishilarning shaxsiy buyumlari va shu yillarda Chirchiq hayotidan hujjatli lavhalarni namoyish etadi.

4. Mustaqillik yillarida Chirchiq**.** Bu bo‘limda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Chirchiqning rivojlanishi, shahardagi so‘nggi yillardagi korxonalar, ularning rivojlanish bosqichlari, erishilgan yutuqlari haqida ma’lumotlar taqdim etiladi.

5. Bugungi Chirchiq shahri**.** “Bugungi Chirchiq shahri” dioramasi tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi. Bu dioramada Chirchiq shahridagi barcha mavjud uylar, ko‘chalar, yodgorliklar yuqori aniqlikda ko‘rsatilgan bo‘lib, uning jamiki ajoyibotlarini ko‘rish mumkin.

6. Landshaft**.** Muzeyda “To‘qay”, “Tog‘”, “Yong‘oq-mevali o‘rmonlar” kabi uchta landshaftli diorama namoyish etiladi. Ular o‘lkaning flora va faunasini, unda hayvonlar va qushlar, sudralib yuruvchilarni, shuningdek O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan, kamayib ketgan hayvon turlarini aks ettiradi.

Hozirgi paytda muzeyda jami 34 873 ta eksponat saqlanmoqda, shularning 34 302 tasi asosiy fond, 571 tasi ilmiy yordamchi, 236 tasi arxeologiya, 1199 tasi numizmatika, san’at, 537 tasi etnografiya va maishiy buyumlar, 743 tasi fotosuratlar, 9853 tasi hujjatlar, 2705 ta va 19029 tani boshqa bo‘limlar tashkil etadi. Muzey xodimlari ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi eksponatlar yig‘ish va ularni ilmiy tavsiflash bilan shug‘ullanadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak Chirchiq o‘zining boy tarixi, tabiiy go‘zalligi va iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadi. Bu shahar 1930-yillarda qurila boshlangan bo‘lib, bugungi kunda zamonaviy infratuzilma, yirik sanoat korxonalari, ta’lim muassasalari va madaniy markazlarga ega. Chirchiq nafaqat texnik taraqqiyot balki madaniy-ma’rifiy rivojlanishda

ham muhim o'rin tutadi. Shahar tarixi va taraqqiyotini aks ettiruvchi muzeylar, jumladan Chirchiq shahar tarixi muzeyi, uning o'ziga xos merosini saqlab qolishda katta ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ziyoyev, H. Chorizm istilosi. T: Fan nashriyoti. 1990-yil.
2. Raxmatov, Sh.. O'zbekiston sanoati tarixi. T: Fan nashriyoti 2005-yil.
3. Даниелян В. "Есенин в Ташкенте" Т. 1985
4. N. Sodikova. Madaniy yodgorliklar xazinasi. T.1981 yil.
5. UzPedia. (2023). Chirchiq shahri. O'zbekiston Erkin Ensiklopediyasi. Olingan: https://uzpedia.uz/pedia/chirchiq_shahri
6. "Chirchiq shahar tarixi muzeyi" (2023). Rasmiy veb-sayt: https://chirchikmuseum.uz (Chirchiq tarixiy muzeyida jamlangan tarixiy ma'lumotlar asosida)
7. Ruli How the arts and culture economy develops in the city of lower Chirchik.T: 2023

**Ирискулов Олимжон Жахонгирович**
СамДУ доценти

## XIX АСРНИНГ ОХИРИ -XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДА САВДО МУНОСАБАТЛАРИ

Россия империяси босқинидан кейин минтақада нафақат сиёсий, ижтимоий, маданий-маърифий соҳалардан ташқари иқтисодий соҳаларда ҳам ўзгаришлар содир бўлган. Иқтисодий ҳаётнинг ажралмас қисми бозорлар ҳисобланади. Бозорларни тарихий ва архив манбалари асосида тадқиқ қилиш орқали ўша давр аҳолисининг ижтимоий ҳаёти ҳамда империя ҳукуматининг олиб борган сиёсати очиб беришда алоҳида аҳамият касб этади. Шу боисдан, ушбу мақолада Туркситон бозорларининг умумий тавсифи ва савдогарларниг фаолияти ўрганиш иқтисодий жараёнлар тўғрисидаги умумий ҳолатни гавдалантиришда долзарб жиҳатдир.

Бозорларда энг аввало маҳаллий аҳоли томонидан тайёрланган сифатли товарлардан: ошланган терилар, пичоқлар, машҳур қоракўл терилар, чиройли гул безаги берилиб, ипак иплар билан тикилган халатлар, беқасам чопонлар, газламалар, бешиклар ва от эгарлари ҳамда бошқа кўплаб буюмлар сотилган. Самарқанд, Ургут, Челак,

Пайшанба, Даҳбед ва Катта-қўрғон бозорларида жун ва пахтали иплардан тўқилган, уйга тўшаладиган, олачалар ва қаламалар жуда харидоргир бўлган. Биринчи навбатда улар ўзининг сифатининг юқорилиги ва ташқи кўринишининг бежиримлилиги билан ажралиб турган [15.511-514]. Бундан ташқари, Жиззах, Тошкент, Хўжанд, Қарши ва Бухородан келтирилган турли рангдаги қимматбаҳо гилам ва кигизлар, яна Бухородан келтирилган нафис ипак иплар, Ўратепадан келтирилган қишлик мовут чекмонлар сотилган[14.147].

Пилла савдоси айниқса, Самарқанднинг якшанба ва чоршанба кунлари ишлайдиган пилла бозори жуда машҳур бўлган. Пилла кўпроқ, Муҳаммад Карим деган киши саройида сотилган. Ҳар бир бозор куни фақат Самарқанд шаҳрининг ўзида 700 тиллога, бир ойда эса 5000 тиллога пилла сотилган. Самарқанд бозорларидаги сотилган пилланинг миқдори бир йилда 6 минг пудни ташкил этган [15.515-525].

Ички савдо соҳасидаги ҳал қилувчи ўрин бозор савдосига тегишли эди. 1872 йилга келиб Зарафшон округида 33 та бозор мавжуд бўлган ва бу бозорларда 3166 киши доимий равишда савдо билан шуғулланиб турганлар. 1898 йилга келганда эса, фақат Самарқанд уездининг ўзидаги мавжуд 26 та бозорларда 6500 дан кўпроқ кишилар доимий савдо билан шуғулланганлар. Олди сотди ишларининг барчаси савдогарлар томонидан Самарқанд шаҳридаги карвонсаройларда амалга оширилган. Самарқанд шаҳри марказий бозоридаги нархлар бутун Зарафшон округи бозорлари учун амал қилинадиган баҳо бўлиб хизмат қилган [11.28-30].

Бозордаги нарх масаласига келсак, уларнинг турли жойларда ўша жойлардаги ғаллачилик ривожланиши ва ҳосилдорлик ҳажмига қараб турлича белгиланганлигини кўрамиз. Масалан 1900 йилда Каспий орти вилоятида бир пуд буғдой 80 тийин (копеек) бўлган ҳолда, Самарқандда унинг нархи 1 сўмдан 1 сўм 20 тийингача, арпа эса 50 тийиндан то 70 тийингача сотилганлигини кўриш мумкин [10.124].

Самарқанд уездида бир пайтда бир хил ўлчамдаги ва ҳар хил аҳамиятга эга бўлган 26 та бозорлар мавжуд бўлган. Бозорлар асосан ҳудудларнинг аҳоли зич жойлашган қисмида жойлашган. Даҳбед, Лойиш, Қарқарали, Янгиқўрғон, Челек, Яканшайх, Чукур, Жомбой ва

Бойғатепа, Жумабозар, Ёртепа, Давул ва Жума каби бозорлар шулар жумласидан [8.27].

Келтириб ўтилган бозорларда кўпинча тарозининг оғирлик тошлари йўқлиги сабабли, уларнинг ўрнига мос ўлчамдаги ва оғирликдаги тош қўйилган. Бозордаги ўлчов билан боғлиқ маълумотлардан бири, тарозичилар деярли ҳар доим, кам миқдорда харид қиладиган ҳаридорлар ва деҳқонлардан тўловни пул билан эмас, балки натура шаклида амалга оширишни талаб қилишган. Бунинг натижасида маҳсулотнинг тўлов ўрнини босадиган қисми бутунлай ўзбошимчалик билан сотувчининг истагига қараб қатий белгилаб қўйилмаган миқдорда тортиб олинган.

Тарозилардан фойдаланганлик ва ижаралардан олинган солиқлар асосан бозорларни ободонлаштиришга йўналтирилган. Масалан, Самарқанд уездидаги йирик бозорлардан ўртача учун 20514 рубл (1897 йил), 23058 рубл (1898 йил) миқдордаги маблағ йиғиб олинган. Масалан, Байғатепа ва Яканшайхдаги бозорлар 30 ва 36 рубл (1897 йил), 33 ва 25 рубл (1898 йил) миқдордаги маблағ йиғилган. Шунингдек, бозорни ободонлаштириш, яъни янги дренажларни қазиш, ғалла бозори учун 2 ёки 3 та ғиштдан ясалган шийпон қуриш ва савдогарлар учун тахта қаторларини қуриш ҳар қандай ҳолатда ҳам 3000-4000 рублдан ошмаганлигини инобатга олсак, юқорида келтирилган маблағларнинг аначагина катта миқдор эканлигини кўрамиз. Юқоридаги маълумотларга қарамасдан кўп ҳолларда солиқчилар йиққан солиқларининг аниқ рақамини ошкора этмаган.

Нисбатан тўлиқ сақланиб қолган маълумотда 1869 йил январь – ноябрь ойларига доир бозор тушими йиғувчилари кўрсатмалари асосида тўпланган, 92 бозор кунларида Самарқанд шаҳри бозорларида 1838 қорамол, 17720 қўй ва эчки, 3380 эшак сотилгани кўрсатилади[18.65].

Бозорлардаги умумий ҳолатни янада аниқроқ билиш учун, савдогарларнинг фаолиятини ўрганиш муҳим ҳисобланади. Хусусан, савдогарлар орасида қассоблар муҳим ўрин эгаллаган. Савдонинг бу тармоғи бутунлай маҳаллий аҳоли (тожиклар ва ўзбеклар) назоратида бўлган. Улар асосан уезднинг жанубий қисмидаги бозорларда устунлик қилган ва шимолий бозорларда ҳам вақти-вақти билан савдо қилишган. Ёки, бўлмаса Самарқандда дўконлари

бўлган самарқандликлар ва бозор кунлари шаҳарга энг яқин бўлган йирик уезд бозорлари бўйлаб саёҳат қилишган. Қассобларни сониига асосан солиқлар таъсир кўрсатган. Натижада, солиқнинг баландлигига қараб, қассоблар сони ҳар йили жуда ўзгариб тураган. Масалан, қассоб сифатида 1897 йилда жами 434 киши рўйхатга олинган бўлса, 1898 йилда бу рақам 381 тага камайган. Фикримизча, солиқларнинг миқдори 12 рублга етганлиги 53 нафар қассобни касодга учрашига сабаб бўлган ва улар фаолиятини тўхтатишган[9.74].

Самарқанд уездидаги барча бозорларни гўшт савдоси хусусиятига кўра икки гуруҳга бўлиш мумкин: жануби-ғарбий ва шимоли-шарқий [3.201].

Бозордаги муҳим тармоқлардан бири атторлар ҳисобланади. Атторлар - жуда ўзига хос маҳаллий характерга эга савдогарлар. Бу ном кичик безак ва тўқимачилик буюмларини сотувчиларга берилган. “Аттор” сўзи арабча бўлиб, аслида зираворлар сотувчиси деган маънони англатади; Тарихий манбаларда қайд этилишича, араблар ҳукмронлиги даврида ҳам минтақанинг йирик шаҳарларида уларнинг махсус бозорлари бўлган[4.38]. Тадқиқ қилинаётган даврда уларнинг асосий маҳсулоти мунчоқлар, иплар, тўрлар, металлдан ясалган безаклар, кичик ойналар, баъзан бош суяги қалпоқлари; қишлоқ аҳолиси орасида жуда кенг тарқалган швед гугуртлари, қалампир, хушбўй ўтлар, бўёқлар ва бошқалар. ниҳоят, маҳаллий дори-дармонлар, уларнинг таркиби сири ҳозиргача жуда кам ўрганилган; ушбу дориларни тайёрлаш ва улардан фойдаланиш усулларидан иборат. Ушбу касб отадан ўғилга ўтади ва одатда бегоналардан сир сақланади [2.86]. Охирги ҳолат туфайли, атторлик касби энг барқарор ҳисобланади, кўпинча умр бўйи давом этади ва бундай савдонинг унчалик катта бўлмаган рентабеллигига қарамай, кетма-кет ўтади; Бунга асосан маҳаллий аҳоли орасида атторлар нисбатан юқори даражадаги билимга эга деб ҳисобланиши ва натижада базолар билан биргаликда бозор аристократиясини ташкил этувчи ҳурматга сазовор бўлганлиги ёрдам беради. Таърифланган турдаги савдо бутунлай маҳаллий тожиклар, асосан самарқандликлар қўлида; Ўзбеклар кам, ҳаттоки иккита йирик савдо нуқталарида - Янгиқўрғон ва Даҳбедда. Туманда 1897-йилда 193, 1898-йилда эса 205 нафар аттор рўйхатга олинган [21]. Ҳар бир

атторнинг ўртача айланмаси 800-900 рублдан ошмайди, рентабеллик ҳар йили 20-25% гача.

Туз савдосининг икки тури ёки тоғларда ушбу маҳсулотни тўғридан-тўғри қазиб олиш натижасида олинган бўлаклар мавжуд - Бухоро хонлиги (пушти туз, марганец билан бўялган), шунингдек, Жиззах туманидаги Тузкапа шўр кўлидан кўл тузи келтирилган. Уларнинг йиллик айланмаси 300-400 рублгача. Йилига ва 25% гача фойда беради. 1897 йилда 53 та савдогар, 1898 йилда 52 та; Савдогарлар орасида қирғиз миллатига мансублар ҳам борлигини кўришимиз мумкин.

Ўрта Осиё ҳудудида, чой савдоси азалдан алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Энг аввало бу маҳаллий халқнинг чойга бўлган талабининг юқори эканлиги билан боғлиқдир. Шу сабабли ҳам рус ҳукумати рус корчалонларининг манфаатини ҳимоя қилиб дастлабки вақтларданоқ чой билан савдо қилишни ўз қўлларига олдилар.

1906 йилга келганда Самарқандда чой билан кўтара савдо қиладиган 13 та фирма Отто Вогау, ака-ука К ва С.Поповлар, Бауэр, Ганшин, Прохоров, Гусев, Данилов, Шаровский, “Циндель и К”, “А. Кузнецов и К” фирмалари, Филатов ва ака-ука Каменскийлар каби рус ва Пинхасев, Муллакандов, Қалантаров каби маҳаллий яҳудий ва Ризаев каби эрони савдогарлар қўлида эди. Самарқандда чой савдоси билан икки пешаворлик (Ҳиндистон) савдо фирмаси шуғулланганлиги ҳақида ҳам маълумотлар бор[1.44].

Келтирилган чойлар Самарқанд шаҳрида қадоқланиб, сўнгра 3/2 қисми Фарғона вилоятига ва 1/3 қисми Самарқанд ва Сирдарё вилоятларига тақсимланган. 1897 йилга келиб Самарқанд шаҳридан ташқарига 1751 684 пуд қора ва кўк чой савдо учун чиқарилган. Чой қадоқлаш ишларининг барчасини маҳаллий аҳолига мансуб (уларнинг кўпчилиги эронийлар эди) 731 та ишчилар бажаришган. Уларга ойига 1 сўмдан (болаларга) 30 сўмгача (катталарга) маош берилган [5.27].

Қишлоқ бозорларида чой савдоси анча ривожланган, бу маҳсулот аҳолиси учун асосий эҳтиёж бўлиб, камбағал ва ўртаҳол оилалар чойнинг қуйи навлари истеъмол қилишган ва унинг нархи 1 рублдан ошмаган. Таърифланган турга қўшимча равишда, бозорларда чой савдоси бошқа кўринишда тақдим этилган - булар чойхоналар, маҳаллий таверналар бўлиб, улар жойида чой ичиш учун

хизмат қилади, шунингдек, ташриф буюрувчиларга чилим ҳам таклиф этилган бир фунт учун 50 копейкни тайкил қилган.

Туркистон генерал-губернаторлиги томонидан айрим чеклашларга қарамасдан. Самарқанднинг Шарқ мамлакатлари ва хорижий Европа мамлакатлари билан савдо алоқалари тўхтаган эмас. Хитой, Туркия, Эрон ва Афғонистон фуқаролари бу ерда доимий савдо-тижорат ишлари билан шуғулланиб келишган. Хитойдан келган савдогарлар, асосан уйғурлар бўлиб, уларнинг кўпчилигининг Самарқанд шаҳрида ўзлари ва моллари учун доимий манзиллари бор эди [19.].

Умуман олганда Туркистоннинг савдо соҳасидаги фаолиятини ўрганиш ички савдо соҳасида анча юксалиш бўлганлигини кўрсатсада, афсуски ташқи савдо соҳасида худди бутун ўлка сингари бу ер ҳам Россиянинг саноат товарларини сотиш бозорига айланганлигини кўрсатади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Алимов А. Развитие торговли в Туркестане конца XIX века // Общественные науки в Ўзбекистане. 1969. №6. С.44.
2. Ахмаджанова З.К. Экономические, политические и военно-стратегические последствия первых железных дорог в Средней Азии (80-90-е годы XIX в.) // Ученые записки Ташкентского гос. пед. института им. Низами.– Ташкент, 1960. – Вып. 23; ч. 3. – С. 86.
3. Губаревич-Радобыльский А. Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса, Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. СПб, 1905, - С.201.
4. Материалы по вопросу о торговыхъ путяхъ въ Среднюю Азию. – СПб., 1869. – 38 с.
5. Обзор Самаркандской области за 1887-1908. Самарканд-Ташкент, 1888-1910.
6. Обзор Самаркандской области за 1902 г. Самарканд, 1903, С.25.
7. Обзор Самаркандской области за 1906 г. Самарканд. 1901. С.54; Саидкулов Т.С. Указ. соч. с.153-154;
8. Обзор Самаркандской области за 1908 г. С. 27.
9. Путеводитель по Туркестану и СреднеАзиатской железной дороги. С.-Петербург.1902.С.74.

10. Путеводитель по Туркестану и Средне-Азиатской железной дороги. С.Петербург.1903.С.124.
11. Русский Туркестан, Вып. 1. М., 1872. С.28-30; Справочная книжка Самаркандской области за 1898 г. Самарканд 1899. С. 96, 104.
12. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX - начале **XX** веков. С.31.
13. Справочник Самаркандской области на 1901 г.вып. III. Самарканд., 1901. С.54:
14. Туркестанский сборник. 1869. Т. 24. С.Петербург. 1870, с.147.
15. Туркестанский сборник. Т.52. 1873. С.511-514.
16. Туркестанский сборник. Т.53. С.515-525.
17. Туркестанский сборник. Т.67. С.65.
18. Туркестанский сборник… Т.67. С.64.
19. Ўз. МА. Ф.И.-1, Оп.1, Д.145, л.88.
20. Ўз.МА. 5 фонд, 34 руйхат, 12 иш,124 – варақ
21. https://archive.org/details/1873_20220416

**Ирискулов Б. Ж.**
Ўзбекистон-Финландия институти ўқитувчиси

## ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИ БЮДЖЕТИ ВА УНИНГ МУСТАМЛАКАЧИЛИК МОҲИЯТИ

Шубҳасиз, империя маъмурияти ўлкани ўз мустамлакасига айлантиргандан сўнг капиталистик муносабатларни ривожлантиришдан манфаатдор эди. Боиси, империя томонидан ўлкани мустамлакага айлантириш сабабларидан бири ҳам айнан шунда эди. Россия империяси томонидан Ўрта Осиёнинг мустамлака этилишига ҳарбий ва иқтисодий сабаблари билан бир қаторда енгил саноат учун пахтага бўлган эҳтиёж ҳам муҳим рол ўйнади[38]. Империя маъмурияти вакилларидан бири таъкидлаганидек, “рус саноатининг эҳтиёжлари Осиё томонидан қондирилади, Ўрта Осиёнинг қиматбаҳо табиий бойликлари Россия империяси учун ўта муҳим аҳамият касб этади[39]”.

[38] История народов Узбекистана. т.II. – Т: изд. АН УзССР, 1947. – С. 227.
[39] Экономические задача России в Средне-азиатских владениях. – Т., 1891. – С. 188.

Россия империясида 1861 йилги ислоҳотлардан сўнг ишлаб чиқаришда капиталистик муносабатлар шиддат билан ривожланиб борди. Империя томонидан Ўрта Осиё ҳудудларининг истило этилиши капитализмнинг янги ҳудудларга тарқалишига туртки бўлди. Ўз навбатида кўп миллатли ўлкаларнинг Россия империяси мустамлакасига айлантирилиши империя иқтисодиёти учун катта аҳамиятга эга бўлди. “Бу Россия империяси халқ хўжалиги ва мустамлака давлатларнинг мустаҳкам иқтисодий алоқалари асоси бўлиб хизмат қилди[40]”.

Бошқа чора-тадбирлар билан бир қаторда Россия империяси мустамлака ҳудудларда иқтисодий тизимни яратишга ҳам алоҳида эътибор қаратди. Мазкур масалага қаратилган биринчи қадамлардан бири 1868 йил Иқтисодий қўмитанинг ташкил этилиши бўлиб, қўмита томонидан давлат даромадлари ва харажатлари тўғрисидаги Низом ишлаб чиқилди. Ислоҳотлар давом эттирилиб, 1869 йилда Туркистон ғазнаси палатаси ташкил этилади. Палата 1869 йил 14 октябрда очилган. 1886 йилгача Давлат палатаси ҳам иш ҳақи, ҳам иш ҳақи бўлмаган тўловларни бошқарган. Палатанинг асосий вазифалари давлат солиқларини тартибга солиш ва йиғиш, барча давлат муассасалари учун кредитларни қайта тайинлаш, ғазначилик бўйича умумий ҳисоб-китобни юритиш ва бошқалардан иборат бўлган.

1868 йилдан бошлаб палата давлат даромадлари ва харажатлари рўйхати юритила бошланади, шунингдек йиллик рўйхат ижроси бўйича хисобот олиб борилади. Шу йилдан бошлаб Туркистон генерал-губернаторлиги даромадлари ва харажатлари Россия империяси рўйхатига киритилади[41]. Ғазна очилишидан олдин барча молиявий операциялар биринчи навбатда ҳарбий губернаторда тўпланган эди. Туркистон вилояти, кейин Туркистон генерал-губернаторлиги ҳузурида молия бўлими ва Сирдарё вилояти ҳокимлигида махсус иш юритиш ва бухгалтерия ҳисоби бўлган. 1889 йилда солиқ инспекцияси жорий этилди[42].

Ўрта Осиёнинг истило этилган ҳудудларида даромад ва харажатлар рўйхатининг юритилиши хонликлардагига ғазначилик

[40] Лищенко И. Многонационльная системе российского капитализма и образование СССР // Вестники СССР – №1. – 1948. – С. 84.
[41] Блиох И. Финансы России 19 столетия. История и статистика. Т.3. – СПб., 1882. – С. 207.
[42] ЎзМА, И.9-фонд, 3-рўйхат, 99-иш, 135-варақ.

бошқарувига нисбатан кескин ўзгариш ясади. Ўрта Осиё хонликларида шу давргача бюджет, кирим-чиқим каби тушунчаларга фақат ҳукумдорнинг манфаати нуқтаи-назаридан аҳамият берилиб, давлат хазинаси хоннинг шахсий мулки ҳисобланган.

Айтиш жоиз, Туркистон генерал-губернаторлигида давлат харажатлари ва даромадлари рўйхати умуман олганда давлат бюджети шакллантирилган бўлса-да, у ўз хусусиятига кўра Туркистон ўлкаси аҳолиси учун эмас балки, империя манфаатларига хизмат қилган.

Айтиш жоиз, Туркистон генерал-губернаторлигининг ҳисоб-китобларидаги асосий харажатлар зўровонлик аппарати ҳисобига ўсиб борувчи харажатлар эди. Маълумки, Россия империяси ҳудуди 1862–1865 йилларда ҳарбий вазир Д.Милютиннинг ташаббуси билан ҳарбий округларга тақсимлаб чиқилиб, Туркистоннинг империя томонидан дастлабки эгаллаб олинган ҳудудлари ва ундаги ҳарбий қисмлар Оренбург ҳарбий округи таркибига киритилди[43]. Лекин империя Оренбургнинг ўлкадан узоқлиги, Туркистонни тўла эгаллаб, ўз таъсирида сақлаб туриш, бошқа давлатларнинг Туркистонга бўладиган даъволарига қарши тура олиш учун ўлканинг ўзида марказлашган ҳарбий бошқарув ва мунтазам қўшинга эҳтиёж сезган. Шуларни инобатга олиб 1867 йил 13 июлдаги Александр II нинг 44844-сонли буйруғига биноан алоҳида Туркистон Ҳарбий Округи ташкил этилди. Ҳарбий Округ ташкил этилган вақтда қуролли кучлар таркибида 13 та баталён, 30 та казаклар юзлиги, артиллерия бригадаси, сапёрлар ротаси, 5 та ҳарбий кема мавжуд бўлиб, уларнинг ўзак қисми (10 та баталён) Сирдарё вилоятида жойлашган эди. Сирдарёдаги қўшинлар таркиби 1869 йил 17506 нафар ҳарбийдан иборат эди: пиёдалар 258 та офицер, 12138 та оддий аскар, отлиқлар 89 та офицер, 4693 та казак, Орол флотида 8 та офицер ва 320 та аскар хизмат қилган[44].

1879 йилга келиб Туркистон ҳарбий округи қўшинлари сони XIX асрдаги энг катта миқдорга етади. Шу йили округда 25 та баталён, Оренбург, Сибир, Еттисув, Урал казакларининг 8 та полки ва 88 та артиллерия тўплари мавжуд бўлиб, уларнинг таркибида 47 867

[43] Boxodirov I. Turkiston harbiy okrugining o‘lkada mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi faoliyati (1867–1917-yy.): Tarix fanlari bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2023. 13-bet.
[44] ЎзМА, И.1396-фонд, 2-рўйхат, 6-иш, 233-варақ.

та ҳарбий: 1402 та офицер ва 46 465 нафар аскарлар хизмат қилган. XIX асрнинг 80-йилларида Туркистондаги ҳарбийлар миқдори камайиб бориб 1887 йил 30012, 1889 йил 27484 нафарга тушиб қолади. 1896 йилга келиб Туркистон ҳарбий округида 1 та ўққи ва 3 та линия бригадаси, 5 та кадр баталёнлари, 5 та маҳаллий команда, 1 та сапёр баталёни, 4 та казаклар полки, 9 та артиллерия батареяси, 4 та қалъа артиллерия роталари мавжуд эди[45]. Ҳарбийларнинг кўпайиши ўз навбатида генерал-губернаторлик давлат бюджетининг катта қисмини ҳарбий ишларга сарфаланишига сабаб бўлди. Буни империянинг бошқа давлат органларига нисбатдан ҳарбий вазирликка ажратилган маблағлар мисолида ҳам кўриш мумкин.

Империянинг ўлкадаги ҳарбий соҳага ажратган харажатлари нафақат Туркистоннни босиб олиш даврида балки ундан кейинги йилларда юқорилигича қолган. Бу жиҳатни Россия империяси Туркистонни ўз таркибида ушлаб туриш учун доимий шай ҳарбий вазиятда туришга мажбур бўлганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Генерал-губернаторликнинг бўйсундириш ва ҳарбий бошқарув аппарати харажатлари 40 йил давомида яъни 1868 йилдан 1913 йилга қадар 80% дан юқори эди (1881–1886 йиллар бўйича маълумотлар мавжуд эмас). Фақатгина 1902–1905 йиллар давомида 60% дан кам маблағ ажратилган. Бошқармага ажратилган мағбалағларнинг камайишига асосий сабаб темир йўл қурилишига, ҳарбий-стратегик иншоотларни бунёд этилишига маблағ ажратилиши билан изоҳлаш мумкин. Таққослаш учун генерал-губернаторлик харажатларининг 90 % ҳарбий харажатлар билан қўшиб хисобланса, сўнгги йиллардаги зўровонлик, бостириш ва эксплутация аппаратига тўғри келади. Яна шуни эътиборга олиш зарурки, империя марказий маъмурияти Туркистон генерал губернаторлигида ўлкани бошқаришни ҳарбий бошлиқлар қўлига топширган эди.

Қўшинларнинг таъминот ишларини бошқарувчи ҳарбий идоралар, подшоҳлик қўшинлари, Ўрта Осиё темир йўл полиция бошқармалари ва бошқаларни таъминлаш учун сарфланадиган пул маблағлари 1903 йилда 4.853.830 рублни, 1914 йилда эса 8.888.827 рублни ташкил этиб, аввалги кўрсаткичдан деярли икки баробар

[45] ЎзМА, И.1396-фонд, 2-рўйхат, 293-иш, 15-17-варақлар.

ошиб кетган[46]. Бу кўрсаткичлар ўлкада империя ҳукуматининг барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш учун маҳаллий солиқ тўловчилар ҳисобидан йирик пул маблағлари сарфланганидан дарак беради. Мустамлака Туркистон ҳудудини қамраб олган маъмурий-полиция маҳкамаларини таъминлаш учун ажратилган пул ва махсус маблағлар айланмаси юқоридаги маблағлардан ҳам анча юқори бўлиб, 1903 йилда 95.144.330 рублни ташкил этган[47].

1886 йил Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисида Низом қабул қилиниб, Низомга кўра, ўлка бошқаруви император томонидан тайинланган ва лавозимидан озод этилган генерал-губернатор бўйсунадиган Ҳарбий вазирликнинг юрисдикцияси остида қолдирилди. Шу муносабат билан 2-Давлат Думаси бюджет комиссияси ҳисоботи лойиҳасида шундай дейилган эди: “бу бой ҳудуд Россияга қўшилганига ўнлаб йиллар ўтди ва у ҳозиргача ҳарбий бошқарув асосида бошқарилмоқда”[48]. Туркистон ўлкасининг ҳарбий вазирликда бўлган муддатининг ўзи ҳам бу бошқарув тизимининг муваффақиятсизлигидан далолат беради[49]. Империя ҳукуматининг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати унинг умумий харажатлари ҳажми ва динамикасида ҳам яққол кўзга ташланиб туради.

Статистик маълумотлар шуни кўрсатадики, Давлат Ғазнасининг Туркистон бўйича харажатларининг асосий қисми қўшинларни таъминлашга сарфланган бўлиб, бу харажат сметанинг 2/3 қисмини ташкил қилган. Қўшинларга сарфланаётган харажатлар ўлканинг эҳтиёжлари билан эмас, балки рус давлати эҳтиёжлари билан белгиланган.

[46] ЎзМА, И.88-фонд, 1-рўйхат, 203-иш, 16-варақ.
[47] ЎзМА, И.88-фонд, 1-рўйхат, 203-иш, 20-варақ.
[48] Логанов Г. Россия в Средней Азии / Вопросы колонизации: периодический сборник / под ред. Г.Ф.Чиркина и Н.А.Гаврилова. – № 4. – 1909. – С. 35.
[49] Мерьяхине Г. Бюджет и национальный вопрос в СССР. – М: Госфиниздат, 1939. – С. 11.

**B.N. Mirzayev**
*Qarshi DU tadqiqotchisi,*
*University of Business and Science Toshkent filial dotsenti*

## ASHTARXONIY MALIKA ZUHROBEGIM – TADBIRKOR AYOL SIFATIDA

***Annotatsiya.*** *Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvida malikalarning oqilona tadbiri va shahzodalarga bergan tarbiyasi muhim o`rin tutgan. Maqolada Xon avlodiga mansub bo‘lgan Zuhrobegimning o‘z davridagi diniy, dunyoviy ilmlardan xabardor bo‘lganligi hamda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan fozila ayollardan biri ekanligi haqida yoritiladi.*

***Kalit so’zlar:*** *sulolaviy nikohlar, Temuriylar, “Humoyunnoma”, Shayboniyxon, Ashtarxoniylar, legitimlik.*

Mustaqillik yillarida vatanimizning qadimiy va boy tarixini o’rganishga bo’lgan e’tibor yanada ortib bormoqda. Zero, buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini kuchaytirishni talab etmoqda [1]. Shundan kelib chiqib, davlat boshqaruvida ayollarning har jihatdan muhim o`rin tutishi va ayollar mayda va yirik mulklarga ega bo‘lib, qonuniy asosda qurultoylarda, muhim davlat qarorlarini qabul qilishda ishtirok etganliklarini o`rganish muhim ahamiyatga ega. [2, 139.].

Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvi davri (1601-1756) davlatchiligimiz tarixida alohida o‘rin egallaydi. A.Ziyo “Silsilot as salotin” asarida “urus (nomila) mashhur nasroniylar bosqini dastidan (qochib) Yormuhammad farzandlari Joni Muhammad sulton, Abbos sulton, Tursun Muhammad sulton, Pir Muhammad sulton va ahli ayoli bilan Movarounnahrga kelgan”ligini yozadi [3, 286].

Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvi davri (1601-1756 yy) Jo’jixon naslidan bo’lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Ashtarxon (Hoji Tarxon, Astraxanь) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556-yilda Rusiya Astraxanni bosib olgach, ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oila a’zolari va qarindosh-urug’i bilan Buxoroga keladi. Urug’ning eng yirik vakili bo’lgan Yormuhammad va uning yaqinlari Buxoro xonligi hududlariga kirib kelgan davrdan

boshlab, bu yerlarda mustahkam o'rnashish maqsadida mahalliy aslzodalar bilan quda - andachilik rishtalarini bog'lashga kirishgan.

Turkiy xalqlar ayollariga xos bo'lgan xislat va ma'suliyat naslu avlodni farovon jamiyatda yashashi va ular mavqeini saqlashdan iborat bo'lgan. Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish lozim, nasl aslligini saqlashda nikoh masalalari jiddiy e'tibor talab qilgan. Ashtarxoniylar bu masalaga davlat siyosati darajasida yondoshganligi ular hokimiyatini tarix sahnasiga olib chiqdi.

Astraxan tomonidan kirib kelgan ashtarxoniylarning yoshi ulug'i bo'lgan Yormuhammadxon Buxoroga kelib, shayboniy Iskandarxon (Minyonqol hukmdori)ning qizi Ma'suma sulton xonimga uylanadi. Iskandarxon jo'ybor shayxlari bilan yaxshi munosabatda bo'lganligi sababli bevosita, Yormuhammadxonning ham Buxoro amiru amaldorlari va zodogon tabaqalari orasida tanilishiga ta'sir ko'rsatdi.

Yormuhammad xonlik hayotida ta'sir kuchiga ega bo'lgan oila vakillari bilan ham nikoh munosabatalarini o'rnatdi. Shoh begim va Shayx begim degan ayollar shunday ayollardan bo'lgan. Shoh begim (taniqli Hoja Mir Haydar avlodidan bo'lib) bilan nikohdan ashtarxoniylarning mavqeini mustahkamlashda xizmat ko'rsatgan farzandlar: Muhammad sulton, Rahimquli sultonlar dunyoga kelgan. Buxoro xonligida urug'larning ham ta'siri kuchli bo'lganligi ma'lum. Shayx begim o'zbeklarning qo'ng'irot urug'idan bo'lib, bu nikohdan Malik sulton, Tursun Muhammad sultonlar dunyoga kelgan[4].

Yormuhammadning nikohiga kiritgan ayollari orasida Ma'suma sulton xonimning obro'si baland edi, u Iskandarning qizi bo'lib, bu nikohdan yangi sulola vakillarining yangi avlodi Joni Muhammad, Abbos sulton va Oysha sulton xonim, Munida xonim degan farzandlar dunyoga keladi [5, 111]. Joni Muhammad shayboniyzoda tog'alarining ta'sirida voyaga yetadi. Bu farzandlardan eng to'ng'ichi Joni Muhammad bo'lib, o'rta asrlar tarixidan ma'lumki, to'ng'ich farzandning boshqa farzandlarga nisabatan vakolati kengroq bo'lgan.

Yormuhammadxon bilan shayboniyzoda Ma'suma sulton xonimning to'ng'ich farzandi bo'lgan Joni Muhammad Buxoro xoni Abdullaxon singlisi Zuhrobegim bilan turmush quradi. Yangi sulolaning hokimiyatga olib chiquvchi shahzodalar Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad [6, 73] va Alim Muhammadlar tug'iladi.

Shuningdek, ularning Ajab xonim va Ammaxonim ismli qiz farzandlari bo‘lib, ular malikalar qatorida o‘rin egallaydi [5, 117].

Ajab xonim Zuhrobegimning to‘ng‘ich qizi bo‘lib, uni mahalliy zodogonlardan Abduxoja bilan turmush qurgan. Aynan shu shaxs ashtarxoniylarni hokimiyatga olib kelishini ta’minlashda moliyaviy yordam ko‘rsatganligini manbalarda qayd etiladi. Ularning nikohidan Ibodulla xoja degan farzand dunyoga kelgan. Ajabxonim Abduxojaning vafotidan keyin, o‘rta asr taomiliga ko‘ra, shahzoda Abdulaziz sultonga turmushga chiqqanligi xususida ma’lumot mavjud.

Zuhrobegimning ikkinchi qizi Ammaxonim bo‘lib, u Tursun sulton xoja bilan nikohda bo‘lgan. Tursun sulton xojaning vafotidan keyin u Toyibxoja binni Kalonxuja jo‘yboriga turmushga chiqqan. O‘rta asr jamiyatida ayollarni ta’minotsiz qoldirmaslik maqsadida beva qolgan ayolni boshqa bilan nikohga kirishiga ruxsat etilgan.

Xon avlodiga mansub bo‘lgan Zuhrobegim haramdagi barcha ayollardan farq qilib, o‘z davridagi diniy, dunyoviy ilmlardan xabardor bo‘lgan hamda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan fozila ayollardan biri sanalganligi shubhasiz. Islom dinida ayol kishi erkaklar bilan ta’lim olish va dunyo qarashini kengaytirishda teng huquqqa ega bo‘lganligini hisobga olganda [7, 52], Zuhrobegim bilimli, did-farosatli, tadbirkor ayol bo‘lgan deyish mumkin bo’ladi. “Qur’oni Karim”da bay’at qilish huquqi erkaklar bilan bir qatorda ayollarga ham berilganligi ma’lum. Islomda davlat rahbarini saylash, unga itoat etishga ahdlashish “bay’at” deyilgan. Oqila, zukko bu ashtarxoniy xonim bay’at yig‘inlarida doimo ishtirok etgan va farzandlarini davlat boshqaruvchisi qilib tarbiyalagan. Uning farzandlari mamlakatning yetakchi hududlarini boshqarib turgan. Zuhrobegim ularga doimo dono maslahatlari bilan yordam berib turgan. Shuning uchun uning bir necha farzandlari va nabiralari ketma-ket Buxoro taxtini uzoq boshqarib turishga muvaffaq bo‘lgan.

O‘rta asrlar jamiyatida Payg‘ambar avlodlarining vakillari bo’lgan sayidlar uchli ta’sirga ega bo‘lib, juda ko‘p masalalar ular maslahatlari bilan amalga oshirilgan. Hattoki, davlat boshqaruvida amal va mansablarga kimsalarni tayin etish masalalari ham ular ishtirokida hal etilgan. Zuhrobegimning to‘ng‘ich farzandi Dinmuhammadxon sayidlar xonadonidan bo‘lgan imom Rizo avlodlarining boshlig‘i Mirzo Abu Tolibning qizi Shahribonu begimga uylantirilgan [8]. Ba’zi manbalarda bu

ayolning nomi Bonu begim deb ham keltiriladi [9]. Nikoh munosabatlari Shahribonu begimning ikkinchi farzandi Boqi Muhammadxonning 1601-1606 yillarda Buxoro xonligi taxtiga kelishini va xonlikning shimoliy chegaralarini ko‘chmanchi qabilalardan himoya qilishiga qaratilishi va mazkur yillar Buxoro xonligi taxtida ashtarxoniylar sulolasining rasmiy boshqaruvi boshlanganligi bilan izohlash mumkin.

Boqi Muhammadxonning vafotidan keyin hokimiyatga Vali Muhammadxon (1607- 1711yy) keladi. Zuhrobegim valiahd shahzodalarga tarbiyasida jiddiy e’tibor qaratib kelgan.

Vali Muhammadxon Buxoro taxtini egallagandan keyin 1598-1628 yillarda hukmronlik qilgan qozoq sultoni Eshim sultonning qizi Oyxonimga uylangan. Vali Muhammadxon o’ldirilgan keyin Oyxonimning shar’iy iddasi (kamida uch oy) tugagach, Imomqulixon ham aynan shu ayolga uylangan. Bunday nikohga kirishishning birinchi jihati Oyxonimning oqila va go’zalligi bo’lsa, ikkinchi jihati shimoliy chegara sarhadlaridagi tinchlikni saqlashga qaratilganligi edi.

Zuhrobegim sulolaning davomiyligini ta’minlash maqsadida nabiralarining ta’lim – tarbiyasida sobit turganligi yuqorida ko`rsatib o`tildi. Fikrimizcha, saltanatni uzoq muddat sulola qo‘lida mustahkam tutib turilishini ta’minlagan bo’lishi mumkin.

Ma’lumki, shayboniyxonlar davridan an’ana sifatida o‘tib kelayotgan qozoq sultonlari bilan quda - andachilik rishtalari davom etib kelmoqda edi. Shayboniylar davrida qozoq sultoni Burunduqxonning qizi Mixr sulton xonimni Samarqand shahriga kelin qilib olib kelingan [10,354]. Uning nomi Samarqand tarixiga zamonasining eng mulkdor ayoli sifatida kirdi.

Mazkur an’ana Ashtarxoniy sulolasi vakillari davrida ham davom ettirilgan. Shu o’rinda, yuksak e’tiborga sazovor bo‘lgan Oyxonim ismli go‘zal qozoq ayoli haqida to‘xtalib o‘tish joiz.

Ma’lumot o‘rnida, Oyxonim 1598-1628 yillarda hukmronlik qilgan qozoq sultoni Eshim sultonning qizi bo‘lgan [5,117]. Barcha zamonlarda bo‘lgani kabi, farzandlarga chiroyli ism tanlash muhim sanalgan. Musulmonlarda tabiatan oyning chiqishi va to‘lishi yangi sahifalarni ochishga xizmat qilganligini hisobga olsak, ismlarga “oy” qo‘shimchasini qo‘shib aytish xayrli hisoblangan. Shu jihatdan, Oyxonim ismi sara ismlar sifatida qadrlangan bo‘lishi tabiiy. “Xonim” so‘zi qadimgi turk-mo‘g‘ul xalqlarining aslzoda ayoliga yoki qiziga tegishli bo‘lgan qo‘shimcha

sifatida ishlatilgan. O‘tkir zehnli, husni latofatda tengi yo‘q bo‘lgan Oyxonim qozoq sultonlari va o‘zbek xonlarini birday o‘ziga rom qilib kelgan. Vali Muhammadxon Buxoro taxtini egallagandan keyin Oyxonimga uylangan va u haramdagi eng suyukli ayol bo‘lgan. Vali Muhammadxon ustidan g‘alaba qilgan Imomqulixon Vali Muhammadxon o‘ldirilgan keyin Oyxonimning shar’iy iddasi (kamida uch oy) tugagach, unga uylanadi. Bu nikoh birinchidan, Oyxonimning oqila va go‘zalligiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi jihati shimoliy chegara sarhadlaridagi tinchlikni saqlash muddoasi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Dinmuhammadxonning Zubayda bonu va Shamsiya bonu ismli qizlari bo‘lib, ular Buxoro xoni Imomqulixon va Nadr Muhammadxonlarning onasi boshqa singillari bo‘lgan. Afsuski, ular shaxsi haqidagi ma’lumotlar juda kam. Uzuq-yuluq ma’lumotlarga ko’ra, Imomqulixonning kichik singlisi Shamsiya bonu jo‘ybor hojilardan Tojiddinga turmushga chiqqanligi va Imomqulixon unga murid bo‘lganligi haqida so‘z yuritilgan [4]. Yozma manbalar hoji Tojiddinni katta mulk egasi bo‘lganligi va o‘z zamonasining tib ilmini yaxshi egallagan yetuk kishisi bo‘lganligini ma’lum qiladi. Nadr Muhammadxoning Zubayda bonu ismli singlisi Poyanda Muhammad sultonga turmushga chiqqan. Poyanda Muhammad sultonning Nadr Muhammad bilan munosabatlari mustahkam bo‘lgan va unga Qunduz viloyati hokimligi boshqaruvi berilgan [15, 53-54].

Qizig‘i shundaki, nikohdan faqat shahzodalargina emas, balki zamonasining eng yetuk avlodlari ham dunyoga kelgan. Poyanda Muhammad va Zubayda bonudan tug‘ilgan Muhammad sulton Hoji Mir Muhammad Salimning bobosi edi. Hoji Mir Muhammad Salim “Silsilot us salotin” (Podshohlar sisilasi) asari muallifi hisoblanadi [11].

Ashtarxoniy xonimlar orasida Shamsiya bonu xonim haqidagi yana bir ma’lumot uchraydi. Bu yuqorida tilga olingan Shamsiya bonu xonim emas, balki unga ammasining nomi havas qilib qo‘yilgan ismlardan bo‘lishi mumkin (xalqimizning havas qilganlarga qarab ism qo‘yish odatlari mavjud) [12, 40-42].

Ashtarxoniylar hayotida mulkdor ayollarning alohida o’rini bo‘lganligini anglatadi. Erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham vaqf mulklariga egalik qilgan bo’lib, yirik yer maydonlari, bir qancha madrasa va qator do‘kon egasi hisoblangan Shamsiya bonu shunday tadbirkor ayollardan biri bo‘lganligini ko’rsatadi [10, 354].

Umuman olganda, ayol faqat nikoh vositachisi emas balki, mulkiy munosabatlarini harakatga keltiruvchi kuch sifatida ham o‘zini namoyish etganligini ko`rish mumkin. Tarixiy hujjatlarda Ashtarxoniylar davri mulkdor xonimlari haqida ma’lumotlar saqlanadi. Bu hujjatlar asosan boshqa davrlarga nisbatan tinch davr sifatida qaralgan Imomqulixon davriga to‘g‘ri keladi. Nodir devonbegi tog‘ayi (Imomqulixonning tog‘asi bo‘lganligidan tog‘ayi deb yuritilgan) ning qizi Og‘ajon bibiga tegishli bo‘lgan bir nechta hujjatlar saqlanib qolingan [13, 34]. 637 tanob yerga egalik qilgan ushbu mulk egasining yana boshqa mulklari haqida ham mavjud bo‘lgani ma’lum bo‘ladi. Ushbu xonimlar ilmu ma’rifatga homiylik qilganlar qatorida tarixda o‘z nomlarini qoldirgan [14]liklari diqqatga sazovordir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, turkiy xalqlar boshqaruvida ayollar muhim o‘rin egallagan. Sulolalar o‘rtasida ittifoqchilik ishlari ularning ishtirokidagi nikoh rishtalari bilan mustahkamlangan. Nikoh rishtalari diniy va chegara majorolarini hal etishda muhim omil bo’lib xizmat qilgan. Yana bir muhim jihat shundaki, hokimiyatga kelishning qonuniy asosi da’vogar sulolaning hokimiyat tepasidagi sulola bilan nikoh vositasida ta’minlagan. Nikoh munosabatlari jamiyatda oilani shakllantiribgina qolmasdan, balki kuchli davlatlarni tarix sahnasiga olib chiqargan muhim omil sifatida ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etish lozim.

Ashtarxoniy malikalarning oqilona tadbiri va shahzodalarga bergan tarbiyasi tufayli ashtarxoniylar sulola boshqaruvini bir yarim asr davomida saqlab turishiga xizmat qilgan.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР:**

1. Taraqqiyot yo‘limizning shiddati oshaveradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so‘zi gazetasi. 2018-yil 28-dekabr.

2. Sangirova D. Ashtarxoniy xonimlar tarix sahnasida. / Tarih Sahnesinde Türk Dünyası Kadını Uluslararası Sempozyumu /Turk Dunyosi Ayollari Tarix Sahnasida Ellararo Ilmiy Yig‘ini / The International Symposium Women of the Turkic World at the Stage of History. 22-23 Haziran 2023, İzmir. P. 149-156. https://www.academia.edu

3. Азамат, Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимдан Россия босқини даврига қадар. Тошкент: Шарқ, 2001.

Сангирова Д.Х. Аштархоний хонимларнинг давлат бошқарувидаги ўрни //Шарқшунослик. 2017, №1. – Б. 88-96. / https://www.wikiwand.com/uz

4. Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Темуридов. По метериалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар.— С.Петербургского университета, 2006. – 229 с.

5. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. (Перевод с таджикского с примечаниями А. А. Семенова). Ташкент: Издательство АН УзССР Р.Г.Мукминова, 1966.

6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон. Тошкент: Sharq. 2010.

7. Муким-ханская история. (Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семенова). Ташкент: Изд-во АН УзССР. 1956. / Сангирова Д., Мирзаева Н. Аштархоний хонимлар// “Тарих ва ҳозирги замон” республика илмий амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 115.

8. Анке фон Кюлеьген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произвидениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алматы: Издательство “Дайк-Пресс”, 2004. – 516 с. / Qodirova L.B., Jo’raboyev Sh. Xonliklar davri nikoh munosabatlari / Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№10 (81), 2021. – 337-341.

9. Мукминова Р.Г. К истории аграрых отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме». Ташкент: Фан. 1966.

10. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература XVI – XVIII вв. (Письменные памятники). Ташкент: Фан. 1985. Б. 101-110; Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Тошкент: Фан. 1992. Б. 201-204.

11. Бегматов Э. Исмларнинг сирли олами. Тошкент: Ўзбекистон. История Узбекистана. (1993). XVI первая половина XIX века. Т.III. Ташкент: Фан. 2014.

12. Сангирова Д.Х. “Архив ҳужжатларида аёлларнинг мулкка эгалик қилиш масаласи”. “Ўзбекистонда архив соҳаси ривожланиши истоқболлари ва илмий-амалий тадқиқотлар” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман мақолалари тўплами. 2020-йил 15 май. Тошкент. 32-34 с.

13. Ўзбекистон Миллий Архиви, Ф. И- 323, 1 рўйхат, й.ж. 923/4.

14. Бобожонов Ш.У. Бухорода ҳукмдорларни дафн этиш анъанаси. Монография. – Тошкент, “Pages Print”, 2024.

**Jamolidinova Pokiza Davronbek qizi**
Toshkent shahar 244-umumta`lim maktabi o’qituvchisi.

## TOSHKENT SHAHRIDAGI MAKTABLARGA PEDAGOGIK NAZARIYALAR VA METODLARNI JORIY QILISH

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Toshkent shahridagi umumta’lim maktablariga zamonaviy pedagogik nazariyalar va metodlarni joriy qilishning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni hal etish yo’llari yoritilgan. Maqolada konstruktivizm, interaktiv o’qitish, muammoli ta’lim kabi ilg’or nazariyalar va faol metodlar o’quvchilarning bilim olishga bo’lgan motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan.*

***Kalit so’z:*** *Toshkent, Pedagogik metod, Pedagogik nazariya, AKT, maktab. Vigotskiy.*

Bugungi kunda dunyo bo’ylab ta’lim tizimida katta o’zgarishlar sodir bo’lmoqda. O’zbekiston ta’lim tizimi ham zamon talablariga javob beruvchi, innovatsion va samarali yo’nalishga intilmoqda. Biroq, ushbu jarayonda bir qator pedagogik muammolar mavjud bo’lib, ularni chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish zarur. Pedagogik muammo — bu ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan, o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan holatlardir.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi doimiy rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Ayniqsa, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagogik yondashuvlarning yangilanishi, o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy qarashlari va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Toshkent shahrida joylashgan umumta’lim maktablariga ilg’or pedagogik nazariyalarni joriy qilish masalasi bugungi kunda dolzarb bo’lib, ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun aniq yondashuv va metodologik asos zarurdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy rivojlanishni talab etadi. O’zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, umumta’lim maktablarida sifatli va raqobatbardosh bilim berish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Toshkent shahri —

mamlakatimizning ilmiy, madaniy va iqtisodiy markazi sifatida pedagogik yangiliklar joriy etilishida ilg'or hududlardan biri bo'lishi lozim. Shu bois maktablarda zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish bugungi kundagi muhim vazifalardan biridir.

Pedagogik nazariyalar — ta'lim jarayonini tushunish, rejalashtirish va takomillashtirishda foydalaniladigan ilmiy asoslangan qarashlar tizimidir. Konstruktivizm, sotsiokultural yondashuv (Vigotskiy), tajriba asosidagi o'qitish (Dyuining pragmatizmi) kabi nazariyalar zamonaviy ta'limda asosiy o'rinni egallaydi[50].

Aksariyat maktablarda an'anaviy o'qitish uslublari ustuvor bo'lib qolmoqda. Bunda o'qituvchi asosiy bilim manbai sifatida qaraladi, o'quvchi esa passiv tinglovchiga aylanadi. Bunday yondashuv XXI asrning kreativ, interaktiv va texnologik bilimlarga asoslangan ta'lim talablariga mos kelmaydi.

**Pedagogik nazariyalarni joriy qilishdagi muammolar quydagilardan iborat:**

✓ O'qituvchilarning yangi pedagogik nazariyalar bo'yicha bilim darajasining pastligi;

✓ Amalga oshirish mexanizmlarining yetarli emasligi;

✓ O'quv dasturlarining zamonaviy nazariyalarga moslashtirilmaganligi;

✓ Resurslar, jumladan, didaktik materiallar va texnologik vositalarning yetishmasligi.

**Joriy etish strategiyalari va tavsiyalar quydagilardan iborat:**

✓ **O'qituvchilarni qayta tayyorlash:** pedagoglar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilish orqali yangi pedagogik yondashuvlarni o'rgatish.

✓ **Pilot loyihalar:** ayrim maktablarda tajriba tariqasida konstruktivistik va interaktiv metodlarni joriy etish.

✓ **Hamkorlikda o'rganish:** o'qituvchilar, metodistlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida doimiy aloqalarni yo'lga qo'yish.

✓ **Raqamli texnologiyalar integratsiyasi:** zamonaviy pedagogik nazariyalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish.

[50]Maqsudov, N. Zamonaviy pedagogik nazariyalar. Toshkent: O'qituvchi. 2020

Pedagogik metod — bu o’quvchilarga bilim berish, ko’nikma va malakalarni shakllantirish, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning uslubiy yo’llaridir. Ular quyidagicha tasniflanadi:

- An’anaviy metodlar: ma’ruza, tushuntirish, savol-javob;
- Faol metodlar: muammoli o’qitish, loyiha usuli, munozara, rolli o’yinlar;
- Interaktiv metodlar: klaster, “aql hujumi”, “sinqush”, guruhli ishlar, debatlar;
- Axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosidagi metodlar: multimedia vositalari, onlayn darslar, test platformalari.

Ko’pchilik maktablarda o’quv jarayoni hali ham asosan an’anaviy uslublarga tayangan holda olib borilmoqda. Shu bilan birga, ayrim ilg’or maktablarda innovatsion yondashuvlar, AKT vositalari va zamonaviy metodlar qo’llanila boshlagan.

Xulosa qilib aytadiga bo’lsak Toshkent shahridagi maktablarga pedagogik nazariyalarni joriy qilish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o’quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va hayotga tayyorlik kabi ko’nikmalarni rivojlantiradi. Bu boradagi islohotlar izchil va tizimli yondashuvni talab qiladi. Davlat siyosati, pedagoglarning faolligi va ilmiy asoslangan metodikalar bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi.

Pedagogik muammolarni hal etish ta’lim tizimining rivoji uchun hal qiluvchi omildir. Har bir pedagog o’z faoliyatini tahlil qilishi, yangiliklarga ochiq bo’lishi va o’z ustida doimiy ishlashi zarur. Davlat siyosati, jamoatchilik va pedagoglarning hamkorligi orqali maktab ta’limida sifatli o’zgarishlarga erishish mumkin. Shunday ekan, har bir muammoni imkoniyat sifatida qabul qilish va undan yechim topishga intilish — bugungi kun pedagogining asosiy vazifasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ismoilov, S. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: Ta'lim. 2018
2. Maqsudov, N. Zamonaviy pedagogik nazariyalar. Toshkent: O‘qituvchi. 2020
3. Vigotskiy, L. Psixologiya va ta'lim. Moskva: Pedagogika. 1978
4. Dyu, J. Pedagogik yondashuv va faol ta'lim metodlari. Toshkent: Fan va ta'lim. 2015

5. Pikuleva, M. Pedagogik metodlarning o‘zgarishi va innovatsion pedagogika. Moskva: Yuridik va iqtisodiy bilimlar. 2017
6. Kahneman, D. Tez va sekin fikrlash. Moskva: Aletheia. 2011
7. Rasmussen, T. Interaktiv ta'lim metodlari. London: Routledge 2019.
8. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., & Foy, P. TIMSS 2015: International Results in Mathematics and Science. Boston: International Association for the Evaluation of Educational Achievement. 2016
9. Shon, S. Pedagogik jarayon va metodlarni boshqarish. Toshkent: Akademiya. 2021

**M. Eshonov**
Toshkent arxitektura qurilish universiteti o‘qituvchisi

## SAMARQAND VILOYAT DAVLAT ARXIVI: YUZ YILLIK TARIX VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Samarqand viloyat davlat arxivi faoliyatining yuz yillik tarixiy jarayonlari, uning shakllanish bosqichlari, davlat boshqaruvi tizimlaridagi o‘zgarishlar bilan uyg‘unligi, hujjatlar saqlanishi va raqamlashtirish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, arxiv fondlarining boyitilishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va xizmat ko‘rsatish sifatining oshirilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola davomida arxivshunoslik sohasidagi global yondashuvlar bilan mahalliy tajribalar solishtirilib, istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Samarqand viloyat davlat arxivi, arxivshunoslik, tarixiy hujjatlar, raqamlashtirish, arxiv fondi, davlat boshqaruvi, Scan Snap SV600.*

Arxivlar jamiyat tarixini, uning siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Har bir davlatning milliy xotirasi arxiv hujjatlari orqali avloddan avlodga yetkaziladi. Samarqand viloyat davlat arxivi ana shunday tarixiy xotirani o‘zida jamlagan va yuz yillik faoliyati davomida davlatimiz tarixida muhim o‘rin egallagan muassasalardan biridir.

Ushbu maqolada viloyat davlat arxivining tashkil topish tarixi, faoliyat bosqichlari, zamonaviy infratuzilmasi hamda xalqaro tajribalarga mos ravishda olib borilayotgan raqamlashtirish ishlari yoritiladi.

Samarqand viloyat davlat arxivi o‘z faoliyatini 1921-yil aprel oyida boshlagan. Biroq uning ildizlari undan ham avvalgi qaror va farmonlarga borib taqaladi. Jumladan, 1919-yil 5-noyabrda Respublika Markaziy Ijroiya

Qo‘mitasi tomonidan arxiv ishlarini markazlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilingan bo‘lib, bu qaror asosida yagona arxiv boshqarmasi tuzilgan.

Keyinchalik 1921-yil 25-yanvarda Respublika Xalq Komissarlari Sovetining "Viloyat arxiv fondlari to‘g‘risida"gi qarori arxiv tizimining rasmiylashtirilgan huquqiy asosiga aylandi. Shundan so‘ng, hududlarda mahalliy davlat arxivlari tashkil etila boshlandi. Samarqand viloyat arxivi dastlab Xalq Maorifi Komissariyati tarkibida faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1922-yil 14-mayda Markaziy arxiv boshqarmasi bilan birgalikda undan ajratildi.

1924–1940-yillar oralig‘ida arxiv byurosining nomi va mansubligi bir necha bor o‘zgardi. Jumladan: 1924-yilda – viloyat davlat arxivi byurosi, 1927-yilda – Samarqand okrugi Ishchi, Dehqon va Askarlar Soveti Ijroiya Qo‘mitasi qoshidagi arxiv byurosi, 1938-yildan esa – Samarqand viloyat arxiv boshqarmasi deb ataldi.

1944-yilda esa Samarqand shahar davlat arxivi tashkil etildi. 1961-yilga kelib arxivlar Ichki ishlar vazirligi tizimidan viloyat Kengashi ijroiya qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazildi. 1962-yil viloyat tumanlarida tumanlararo arxivlar tashkil qilinib, ular 1965-yilga kelib viloyat arxiv tizimiga birlashtirildi.

Bugungi kunda Samarqand viloyat davlat arxivida quyidagi saqlov birligi mavjud: 589 672 hujjat birligi, 84 000 gazeta va jurnal nashrlari, 26 200 fotosuratlar, 183 826 kitob-albomlar.

Ushbu ko‘rsatkichlar arxiv fondlarining boyligi, ularning ilmiy, tarixiy va madaniy ahamiyatining yuqoriligini ifodalaydi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi, Sovet davrining turli ijtimoiy-siyosiy bosqichlariga oid qimmatli hujjatlarning saqlanishi tarixiy tadqiqotlar uchun noyob manba bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda viloyat davlat arxivida raqamlashtirish ishlari jadallashdi. 2018-yilda Yaponiya ishlab chiqaruvchisi tomonidan ishlab chiqarilgan “Scan Snap SV600” skanerlovchi qurilmasi olib kelingani bu boradagi muhim qadam bo‘ldi. Ushbu qurilma yordamida: 5 soniyadan kam vaqt ichida skanerlash, Hujjatlar nuqsonlarini avtomatik tuzatish.

Bir tugma orqali boshqarish imkoniyati mavjud. Bunday texnologiyalar hujjatlarning uzoq muddat saqlanishi, tezkor xizmat ko‘rsatish va xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2021-yil 1-yanvardan buyon faqat Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi orqali 4000 dan ortiq fuqarolardan ish staji va oylik

maoshi bo‘yicha so‘rovlar qabul qilinib, tezkor javob berilgan. Bu holat arxivning fuqarolarga xizmat ko‘rsatish borasidagi salohiyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xodimlar salohiyati ham e’tiborga loyiq: arxivda 30 dan ortiq xodim ishlaydi, ularning aksariyati ko‘p yillik tajribaga ega mutaxassislar hisoblanadi.

Samarqand viloyat davlat arxivi nafaqat tarixiy hujjatlarni saqlovchi, balki jamiyatda ilmiy va ma’naviy merosni asrab-avaylovchi muhim muassasa sifatida o‘z o‘rniga ega. Uning yuz yillik faoliyati davomida to‘plangan tajriba, raqamlashtirish sohasida erishilgan natijalar va fondlarning boyligi nafaqat mahalliy, balki xalqaro arxivshunoslik mezonlariga javob bera oladi. Kelgusida arxiv faoliyatini yanada takomillashtirish, elektron xizmatlar tizimini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar uchun ochiq manba sifatida foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “2020–2025 yillarda arxiv islohoti va raqamlashtirish strategiyasi to‘g‘risida” // Respublika axborotnomasi, 2020.
2. Xaydarov, M. (2015). O‘zbekiston arxivlarining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Karimov, N. (2019). Tarixiy hujjatlar va arxivshunoslik asoslari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. Qo‘chqorov, S. (2016). “Arxiv ishi va hujjatlar bilan ishlashda raqamlashtirishning ahamiyati” // Ilmiy-amaliy axborotnomasi, №4, 27–33-betlar.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Архив ишини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2017 йил 11 апрел, №195.
6. Самарқанд вилояти давлат архиви – расмий маълумотлар. Samarqand viloyat arxiv boshqarmasi hujjatlari. (2021). [Ichki foydalanish uchun arxiv hujjatlari.

***Terkashev Anvar Zafarovich***
Bo'stonliq tumani 6-maktab
Tarix fani o'qituvchisi

## QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI

***Annotatsiya****.Maqolada qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari ko'rib chiqiladi. Arxeologik qazilmalar, yozma tarixiy manbalar, geosiyosiy omillar asosida Toshkentning qadimiy shahar sifatida shakllanishi, arablar istilosidan to Temuriylar va Shayboniylar hukmronligigacha bo'lgan davrlardagi o'zgarishlar tahlil etiladi. Toshkent vohasining Sharq sivilizatsiyasidagi o'rni, uning xalqaro savdo yo'llaridagi mavqei asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Toshkent vohasi, Shosh, Choch, qadimgi sivilizatsiya, arab istilosi, islomiy madaniyat, Temuriylar, Shayboniylar, arxeologik yodgorliklar.*

Toshkent vohasi O'rta Osiyodagi qadimiy sivilizatsiyalar shakllangan hududlardan biri bo'lib, uning tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Strategik geografik joylashuvi, iqlimiy sharoitlari, yerlarining unumdorligi, suv manbalariga yaqinligi sababli Toshkent qadimdan boshlab aholi zich joylashgan, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan hudud sifatida tanilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlariga oid arxeologik qazilmalarda Toshkent vohasida dehqonchilikka asoslangan manzilgohlar mavjud bo'lgani aniqlangan. Qovunchitepa, Minguriktepa, Aktepa, Shoshtepa kabi joylardan olingan topilmalar bu yerda qadimiy aholi punktlari, qal'alar, madaniy hayot rivojlanganini tasdiqlaydi. Milloddan avvvalgi 6—4 asrlarda Qorasuv, Salor va Jo'n arig'i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko'targan. Shulardan biri Jo'n arig'i bo'yidagi Shoshtepaning ostki qatlamidan qazib ochilgan qal'a xarobasidir. 1980—82 yillarda olib borilgan qazish ishlari uning mil. av. 6—4-asrlar va 2—1-asrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Bir tomoni Jo'n arig'iga yondoshgan bu qadimgi joy atrofi dastavval tuproq, marza bilan o'ralib, qal'a, istehkom qiyofasini olgan. Miloddan avvalgi I asr — milodiy III asrlar orasida Choch (Shosh) mustaqil siyosiy birlik bo'lib, Xitoy, So'g'd, Baqtriya va Xorazm davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy aloqada bo'lganQadimgi Xitoy manbalarida Toshkent "Yuni" deb atalgan va u Chjan Szyan yurishlari chog'ida eslatilgan. Milodning 1-asriga

kelib Chirchiq, Salor, Qorasuv bo‘ylaridagi vohaning qariyb yarmidan ko‘prog‘i o‘zlashtirilib obod etilgan. Salor yonida joylashgan Choch shahri bu davrda har tomonlama yetakchi mavqega ega bo‘lib, uni muarrixlar haqli ravishda milodning boshlaridagi Toshkentning asosi deb hisoblaydilar. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan

Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o‘ynagan. Bu shahar 6—8 asrlarda, ayniqsa, ravnaq topgan. Shaharning Turk xoqonligi tarkibiga kirishi, uning Qoramozor tog‘laridagi konlar yaqinida joylashganligi, hunarmandchilik mahsulotlariga doimo muhtoj dasht ko‘chmanchilarining yondoshligi, shuningdek, asosiy karvon yo‘llari, xususan, Buyuk ipak yo‘li vohaning shimoliy hududlaridan o‘tishi uni tezda Choch davlatining poytaxti bo‘lib qolishiga imkon berdi. Shahar atrofi kuchli mudofaa devorlari bilan o‘rab olinib, maxsus saroyqal’a qurilgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va uyro‘zg‘or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo‘lganidan dalolat beradi. Manbalarga ko‘ra, shahar, ichida saroy, ibodatxona bo‘lgan ark, amaldorlarning uylari joylashgan shahriston, hunarmandlar mahallalari o‘rnashgan ichki va tashqi rabodlardan iborat bo‘lgan.

Shahar atrofida ozod jamoalarning keng ekinzorlari, qishloqlari, ilk zamindorlik dehqonlarining qo‘rg‘on va bog‘-rog‘lari, istehkomlari paydo bo‘lgan. Ekinzor yerlar va bog‘lar chekkasida — ko‘chmanchilar dashtiga tutash chegaralarda mudofaa istehkomlari qurilgan. Arab manbalarida bu shahar Chochning poytaxti — „Madinat ash Shosh“ (Shosh shahri) deb atalgan.

Choch poytaxti hunarmandlari metalldan mehnat qurollari, yarog‘-aslahalar, zeb-ziynat va ro‘zg‘or buyumlari yasashgan, ko‘nchilik bilan shug‘ullanishgan, paxta va junshisha idishlar, zargarlik buyumlari yasab, ichki va tashqi savdoni ta’minlashgan.Shahar qizg‘in savdo markazi ham bo‘lgan. G‘arbda Vizantiyadan tortib, sharqsa Xitoygacha bo‘lgan davlatlarning Toshkent hududidan topilgan tangalari shundan dalolat beradi. Choch hokimi ham o‘z tangalarini zarb qildirgan. IV—VII asrlarda Chochda kumush tangalar chiqaradigan zarbxona bo‘lgan.Qadimgi Choch hukmdorlari old tomoniga mulkdorning surati, orqa tomoniga hujumga tayyorlanib turgan qoplon tasviri yoki sulolaviy ayri tamg‘a tushirilgan pullarni zarb etgan. Chochning huddi shu davrda zarb etilgan ba’zi tangalari orasida hukmdor bilan yonma-yon turgan malika tasviri

tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu shubhasiz, Chochning ilk o‘rta asr ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy hayotida hukmron tabaqa ayollarining yuqori nufuzga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ular „Sho‘rxon xotun“ va „Kabachxotun“ (uy malikasi) kabi sharafli nomlar bilan ulug‘lanib, shahar tashqarisida joylashgan so‘lim qarorgohda istiqomat qilganlar. Bunday oyimlar yashagan joy „Achabat“ (Katta ona qo‘nog‘i) deb yuritilgan. Savdosotiq va hunarmandchilik bilan birga madaniyat ham yuksalgan. Manbalarga ko‘ra, tasviriy san’at va, ayniqsa, musiqa rivoj topgan.

VIII asr boshlarida arablar Movarounnahrga yurishlar boshladi. 713-yilda Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab lashkarlari Chochni egallaydi. Islom dini bilan birga arab tili, yangi qonun-qoidalar (shariat), masjid va madrasa qurilishi, arab yozuvi, adabiyot va ilm-fan rivojlandi. IX–X asrlarda Shosh vohasida ko‘plab islomiy olimlar yetishib chiqdi. Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida Toshkent siyosiy barqarorlikka erishdi, xalqaro savdo rivojlandi, madaniy hayot yuksaldi. Shahar atrofida qishloq xo‘jaligi kengaydi, me’moriy yodgorliklar vujudga keldi. 1220-yilda Chingizxon lashkarlari tomonidan Toshkent vayron qilindi. Temuriylar davrida shahar qayta tiklandi, iqtisodiy va harbiy markazga aylandi. Temuriylar me’morchiligi va ilm-fan rivoji Toshkentda sezilarli iz qoldirdi. 1503-yilda Shayboniy Muhammad Toshkentni egalladi. Shahar asta-sekin yarim mustaqil hokimlikka aylana boshladi. XVI asrda Toshkentda islomiy ilm-fan, savdo, dehqonchilik rivoj topdi.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent vohasi uzoq tarixiy davr mobaynida O‘rta Osiyo hududining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida shakllangan. Arxeologik topilmalar Toshkent hududi hali miloddan avvalgi davrlardayoq taraqqiy etgan sivilizatsiyalarga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shosh yoki Choch nomi bilan mashhur bo‘lgan bu voha qadimdan boshlab xalqaro savdo yo‘llari kesishgan joyda joylashgani bois iqtisodiy hayot, hunarmandchilik va ilm-fan sohalarida yuksak taraqqiyotga erishgan. Islom dinining kirib kelishi bilan Toshkentda yangi siyosiy va diniy institutlar shakllandi, yangi madaniy qatlam paydo bo‘ldi. Bu davrda yetishib chiqqan olimlar, madrasalar va diniy yodgorliklar shahar hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida Toshkent vohasida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalish jarayonlari kuchaydi.Mo‘g‘ullar istilosi shahar taraqqiyotiga katta zarba bergan bo‘lsa-da, Temuriylar davrida

Toshkent qayta tiklandi. Temuriylar Toshkentni strategik va ilmiy-ma'rifiy markazga aylantirishga harakat qilishgan. Shayboniylar davrida esa Toshkent nisbatan mustaqil hokimlik sifatida shakllanib, o‘ziga xos siyosiy va madaniy hayotga ega bo‘lgan.Shunday qilib, Toshkent vohasi tarixi ming yilliklar davomida uzluksiz rivojlanib, Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin egallagan. Uning tarixiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy Toshkent taraqqiyotining ilmiy asoslarini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barthold V.V. Turkiston tarixi. Toshkent: Fan, 1994.
2. Xorazmiy A.R. O‘rta asrlar Toshkent shahri. Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
3. Aripov A. Toshkent tarixi: qadimdan to XVIII asrgacha. Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
4. Rashididdin. Jome’ at-tavorix (fors tilidan tarjima).
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.
6. Sultonov A. Toshkent tarixining asosiy bosqichlari. O‘zFA, 2002.
7. Tursunov B. O‘rta asrlar arxeologiyasi. Toshkent, 2010.

***Mirzaxmatov Rixsinboy Farxadjan o‘g‘li***
Bo’stonliq tumani 6- maktab
Tarix fani o’qituvchisi

## XIX – XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI:ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada XIX–XX asrlarda Toshkent vohasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid zamonaviy tarixiy tadqiqotlar va ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasi istilosi, Sovet davridagi islohotlar, urbanizatsiya jarayonlari hamda zamonaviy tarixshunoslikdagi yondashuvlar asosida Toshkent vohasida yuz bergan ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar****. Toshkent vohasi, Rossiya imperiyasi, Sovet davri, urbanizatsiya, tarixshunoslik, modernizatsiya, ijtimoiy o‘zgarishlar.*

Toshkent vohasi XIX–XX asrlarda Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Xususan, 1865-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub burilish yasadi. Keyinchalik Sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan Toshkent butunlay yangi siyosiy, iqtisodiy va madaniy makonga

aylana boshladi. Mazkur davrlardagi o‘zgarishlar bugungi zamonaviy Toshkentning shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bois, bu davrni o‘rganish, turli yondashuvlar asosida tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. 1865-yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirildi. Bu davrda rus mustamlaka boshqaruvi joriy etilib, yangi boshqaruv tizimi, soliq siyosati, savdo-sanoat infratuzilmasi shakllantirildi. Toshkent vohasi qishloq xo‘jaligi uchun muhim manba bo‘lib, paxta yetishtirish markaziga aylandi. Bu esa, iqtisodiy ixtisoslashuvga va tashqi savdo aloqalariga turtki berdi.1917-yildan keyin Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan Toshkent vohasida keng ko‘lamli modernizatsiya jarayonlari boshlandi. Sanoatlashtirish, kollektivlashtirish, maorif va sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi voha hayotida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Toshkent shahri yirik sanoat markaziga aylanishi, transport va kommunikatsiya tizimlarining kengayishi urbanizatsiyani kuchaytirdi. Bugungi tarixiy tadqiqotlarda Toshkent vohasining XIX–XX asrlardagi rivoji nafaqat siyosiy voqealar, balki ijtimoiy dinamikalar, madaniy almashinuvlar, mahalliy aholining hayoti va qadriyatlari asosida o‘rganilmoqda. Postkolonial yondashuv, ijtimoiy tarix, madaniy antropologiya kabi ilmiy metodlar yordamida voha tarixining ko‘plab muhim jihatlari qayta talqin qilinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX–XX asrlarda Toshkent vohasi tarixida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar O‘rta Osiyo mintaqasining umumiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiya imperiyasining bosib olishi vohaning butun ijtimoiy tuzilmasini o‘zgartirib yubordi, natijada yangi boshqaruv shakllari, iqtisodiy ixtisoslashuv va demografik o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Toshkentning Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylanishi uning siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini oshirdi. Bu davrda shahar infratuzilmasi rivojlandi, yangi sanoat va transport tarmoqlari vujudga keldi.

Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan Toshkent vohasida yanada keng qamrovli modernizatsiya jarayonlari boshlandi. Kollektivlashtirish, sanoatlashtirish, maorif va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar ijtimoiy tuzumni tubdan o‘zgartirdi. Toshkent shahri Sovet ittifoqi davrida nafaqat O‘zbekistonning, balki butun mintaqaning eng muhim sanoat, ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Bu o‘zgarishlar urbanizatsiya

jarayonlarini tezlashtirdi va zamonaviy shaharlik madaniyatining shakllanishiga olib keldi.

Bugungi tarixshunoslikda Toshkent vohasi tarixini o‘rganishda faqat siyosiy voqealargagina emas, balki ijtimoiy qatlamlar, mahalliy jamiyatlar va madaniy almashinuvlar kabi muhim omillarga ham e’tibor qaratilmoqda. Postkolonial tahlillar, antropologik yondashuvlar va zamonaviy metodologiyalar Toshkent vohasining tarixini yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkonini bermoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu hududning tarixiy merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Shu sababli, Toshkent vohasi XIX–XX asrlarda keng ko‘lamli siyosiy va madaniy transformatsiyalarni boshidan kechirgan noyob tarixiy makon sifatida, nafaqat o‘tmishni, balki bugungi zamonaviy shahar hayotining shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu jarayonlarning murakkab va ko‘p qirrali jihatlari yanada kengroq yoritilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ziyayev H. Toshkent tarixining zamonaviy tahlili. Toshkent, 2015.
2. Gadoev S. Rossiya imperiyasi davrida O‘rta Osiyo. Samarqand, 2007.
3. Bekmurodov R. Sovet davrida Toshkent: iqtisod va jamiyat. Toshkent, 2012.
4. Saidov A. Urbanizatsiya jarayonlari va Toshkent. Ma’naviyat, 2019.
5. Karimov O. Tarixshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.

**Samandarova Ruxshona Ro’zmammat qizi**
CHirchiq davlat pedogogika Universiteti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

## TOSHKENT DARVOZALARI

***Annotatsiya****: Toshkent darvozalari — shahar tarixining muhim qismlaridan biridir. Ushbu maqolada qadimiy darvozalar haqida, ularning vazifasi, nomlari va shaharning rivojlanishidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so’zlar:****Qadimiy darvozalar,symbol of Tashkent,oltin kalitlar,golden keys, tarixiy izlar,forgotten destinations,devor va*

Toshkent darvozalari tarixiy manbalarda Binkat darvozalaridan ma’lum. Ibn Havqalning yozishicha, Binkat ark, shahriston, ichki va tashqi raboddan iborat bo‘lib, ularning har biri mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Arkning 2 darvozasi, shahristonning Abbos (Abul Abbos), Kesh

(Qasr) va Junayd (Gunbaz) deb atalgan 3 ta darvozasi bo‘lgan. Ichki rabodning Raboti Hamdeyn (Xumdon), Ohanin (temir qoplangan), Mir (amir), Farkon (Anhor bo‘yi), Surkada, Karmanj, Ko‘yi Saxl, Roshidizak, Ko‘yi Xoqon, Ko‘shki Dehqon deb atalgan 10 ta darvozasi, tashqi rabodning esa Fag‘kat (Parkat), Xaskat (Xushkat), Sandijak (Sangdizak), Ohanin, Bakrdizak, Sakrak, Sag‘rbod (Bofaryad) deb atalgan 7 darvozasi bor edi.

Shahar hududining kengayishi bilan shahar devori xam, u bo‘ylab o‘rnatilgan darvozalarning o‘rni va nomlari ham o‘zgarib turgan. Shahar yagona mudofaa devori bilan o‘rab olinib, mustahkam istehkomga aylangan. Tarixchi Muhammad Solihnint yozishicha, XIV asr oxirida shaharning 12 darvozasi (Qiyot, Turk, O‘zbek, Taxtapul, Qorasaroy, Chig‘atoy, Su’boniyon (Sag‘bon), Ko‘kcha, Kamondaron, Qang‘li, Beshog‘och, Qatag‘on) bo‘lib, ularni qo‘riqlash ma’lum bir qabila vakillariga topshirilgan, shu tufayli darvozalar qabila nomlari bilan atalgan.

Abdullaxon II 1580-yil Toshkentni qamal qilganda shaharga 6 tarafdan hujum qilishga farmon bergan. „Abdullanoma“ da shaharning Farkat, Shibli, Ko‘kcha, Turkiston (yangi qurilgan), Samarqand, Registon kabi darvozalari bo‘lganligi qayd etilgan. Keyingi asrlarda shahar mudofaa devori tashqi dushmanlar hujumlari ta’sirida vayrona holiga kelgan. Yunusxo‘ja davrida qayta tiklangan. Qo‘qon xonligi Toshkentni xonlikka qo‘shib olgach (1810-yil), Lashkar qushbegi tomonidan shahar devori qayta ta’mirlanib, har yer, har yerda minoralar qurilgan, yangi darvozalar o‘rnatilgan.

Toshkent darvozalari – bu qadimiy shahar darvozalarining tarixiy va madaniy ahamiyatini aks ettiruvchi inshootlardir. Ular shaharni tashqi tahdidlardan himoya qilish, savdo yo‘llarini tartibga solish va ma’muriy nazoratni amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Har bir darvoza ma’lum bir yo‘nalishni anglatgan bo‘lib, ular xalq orasida nomi va joylashuvi bilan mashhur bo‘lgan. Bugungi kunda bu darvozalar tarixiy yodgorlik sifatida o‘rganilib, Toshkentning boy merosini ifodalaydi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Axmedov, A. Toshkentning qadimiy darvozalari. – Toshkent: Fan, 1985.

2. Karimov, S. Eski Toshkent: Tarixiy-me’moriy yodgorliklar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

3. Rasulov, N. Toshkent shahrining shakllanishi va rivojlanish tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001

4. Qodirov, M. Toshkent tarixi sahifalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

5.Hofiz Tanish alBuxoriy, Abdullanoma, 1 va 2j., T., 1999—2000;

O‘rinboyev A., Bo‘riyev

***Parmonov Sharofiddin Shavkatovich***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Tarix kafedrasi o`qituvchisi,*

## TOSHKENT SHAHRIDA JOYLASHGAN JO‘RABEK QABRISTONI VA MAQBARASI TARIXI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada General mayor Jo`rabek Qalandar qori o`g`lining XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda bo`lgan ma’rifatchilik jarayonlarida va jadidchilik harakatlardagi ishtiroki, Turkistonga tashrif buyurgan ma’rifatparvarlar bilan uchrashuvlari tafsilotlari yoritilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Markaziy Osiyo, Turkiston, Buxoro amirligi, Shahrisabz bekligi, Kitob bekligi, Sirdaryo viloyati Toshkent, Qorasuv, SAGU (O‘zMU), «Tarjimon» gazetasi, Sven Gedin, Lev Tolstoy, Furqat Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li, Fansurullohbek, kenagaslar.*

Kitobning sobiq begi, keyinchalik general-mayor Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘li 1840-yilda Kitob tumani yaqinidagi Taroxli (Gulgunpo‘sh) qishlog‘ida kenagas urug‘iga mansub oilada dunyoga keladi. Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘li 1860-1870-yillarda Kitob bekligini boshqargan. Buxoro amirligining 1870-yilda Ruslar yordami bilan Kitob bekligi egallangandan so‘ng Qo‘qon xonligi hududidan panoh topgan Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘lini Xudoyorxon tomonidan xoinlarcha tutib fon Kaufmanga topshiriladi. Natijada Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘li 1870-1906-yillarda Turkiston general gubernatorligiga xizmat qiladi.

Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘li xizmat davrida Sirdaryo oblasti gubernatoridan tortib Turkiston general-gubernatorlari bilan ham ko‘p martalab sovuq munosabatda bo‘lganligi, ulardan har birining muomalasiga yarasha muomala qilishdan aslo tap tortmaganligi haqidagi dalillar arxiv materiallari orasida bot-bot uchrab turadi. Jo‘rabekning isyonkorlik tabiati, mustamlaka ma’murlari Turkistonda yurgizgan

siyosatdan noroziligi ayniqsa 1905-yil 9- yanvar voqeasi o‘lkada aks-sado bergan oylarda yaqqol ko‘zga tashlandi.

Professor Sharif Yusupovning ta’kidlashicha, 1905-yil “Qonli yakshanba” ta’sirida Toshkentda ommaviy ish tashlash va namoyishlar kuchaygan bir paytda ya’ni 15-noyabr hamda 15, 22 va 29-dekabr kunlari Jo‘rabek boshchiligida yig‘inlar o‘tqazilib, mamlakatda vujudga kelgan murakkab vaziyatdan foydalanish va o‘lkani chidab bo‘lmas darajadagi og‘ir ahvoldan olib chiqish choralari ko‘rish masalasi kun tartibiga qo‘yiladi. Jo‘rabek boshchilik qilgan bu ish Turkiston general-gubernatori jo‘natgan bir maxfiy hujjat quyidagicha baholangan: “Yerliklar orasida o‘zlarining turmushini yaxshilash to‘g‘risida hukumatga ariza berish uchun harakatlar bo‘lib turibdi. Shu sababli yerli xalq o‘zining maqsadiga erishish uchun Rossiya hukumatining hozirgi qiyin ahvolidan foydalanmaydi, deb bo‘lmaydi” [1, 89].

Lekin Jo‘rabek boshchiligida o‘tkazilgan so‘nggi norozilik yig‘inidan so‘ng (u 29 dekabr kuni o‘tganini ilgariroq aytgan edik) uch-to‘rt hafta o‘tar-o‘tmas, 1906-yilning 24-yanvaridan 25-yanvariga o‘tar kechasi u o‘zining Qorasuvdagi bog‘ida noma’lum shaxslar tomonidan sirli bir vaziyatda o‘ldirib ketildi.

Jo‘rabekning vahshiyona o‘ldirilganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan jiyani Mahmudbek Haydarov (u vaqtda 5 yoshda bo‘lgan) 1978-yil 10-dekabrda Professor Sharif Yusupov bilan suhbatida quyidagicha hikoya qilib bergan: «Dodxoh tog‘amiz haqidagi xunuk xabarni eshitgan zahoti otam yetaklab olib bordi. Uy ichiga kirgach meni onam qo‘liga ko‘tarib turdi. O‘ng yelkasidan chopilgan tog‘amiz katta zal yonidagi kichikroq xonada karavotda yotar, ustidagi oq choyshab qip-qizil qonga bo‘yalgani hali- hali ko‘z oldimdan ketmaydi. Tog‘amizni Qorasuvdagi o‘z bog‘laridan qabr qazib, yuzlarcha qorilar duo- tilovati bilan, ketidan to‘plardan o‘q otilib dafn etdik. Keyinroq, katta bo‘lganimda u kishining qabr toshlariga bitilgan «Amir Temur avlodi kenagas qabilasining urug‘idan», deb yozilgan so‘zlarni qayta-qayta o‘qirdim»[1,90].

General Jo‘rabekning bevaqt o‘limi nafaqat Turkistonda, balki imperiya markazida ham juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan. Buning isboti sifatida "Исторический вестник" tarixiy-badiiy jurnalining 1906-yildagi sonida chop etilgan "General-mayor Jo‘rabek" sarlavhasi ostida kattagina ta’ziyani keltirish mumkin.

Unda shunday so‘zlarni o‘qiymiz: General-mayor Jo‘rabek fojiasining tafsilotlari shunday, marhumning uyi shahardan besh verst uzoqlikda, kimsasiz bir maskanda edi.

Yarim kechasi soat ikkilarga yaqin, yomg‘ir bir maromda yog‘ayotgan zulmatli tunda qotillar bog‘ tomondagi ayvon derazasi orqali general faqat xizmatkori bilan yashayotgan uyga bostirib kiradi. Xo‘jayini yonidagi xonada yotgan xizmatkori bosqinchilarni sezib qolib, Jo‘rabekni ogohlantirish uchun katta hovliga otilib chiqadi, ammo shu ondayoq qattiq yaralanib, hushini yo‘qotadi.

Bu shovqindan uyg‘onib ketgan xizmatkorlar xo‘jayini yotgan uyga kirganlarida qotillar allaqachon g‘oyib bo‘lgan, general esa katta javon yonida polda qoniga belangan holda yotardi. Uning boshiga uch marta nima bilandir qattiq urish-gandi. Jo‘rabekni xizmatkorlari krovatga yotqizishgach, u suv so‘raydi. Suvni ichgach, shahardagi ma’murlarga xabar berishni buyurdi-yu, shu lahza larda joni uzildi.

Marhumning dushmanlari yo‘q edi. Bosqinchi qotillar uning kattagina boyligi bor deb o‘ylashgan, negaki, general chor ma’murlaridan maosh olar, ammo bu mablag‘ga ko‘p sonli, katta oilasini boqar, hech qachon katta miqdorda puli bo‘lmagan. O‘n kun oldin Buxoro amiriga bog‘ini sotgan, undan olgan pulni yaqinlariga taqsimlab bergan edi.

Qotillar javon, stol g‘aladoni va boshqa barcha joylarni obdon titkilagan, general yaqinlariga tarqatganidan qolgan arzimagan pul hamda bir nechta qimmatbaho buyumdan boshqa narsa topa olmagan. Qotillar ko‘pchilik bo‘lishganini dala hovliga har tomondan bir vaqtda yopirilib kirganidan anglasa bo‘ladi. Qotillarga qattiq qarshilik qilganlardan biri generalning eski xizmatkorlaridan biri Boycha bo‘lgan. O‘zining aytishicha, o‘q ovozini eshitishi bilan o‘rnidan sapchib turgan, fonarni yoqqan va hovliga chiqib yerda cho‘zilib yotgan boshqa xizmatkorni ko‘rgan. Boycha qotillar ochiq qoldirgan eshik orqali xo‘jayini yotgan xonaga kirgan va yarador holda yotgan generalni ko‘rgan. Shundan so‘ng u tezkor otga mingancha shaharga jo‘nagan va generalning o‘g‘liga mash’um xabarni yetkazgan[2,257].

Bosqinchilik maqsadida sodir qilingan qotillik haqida shu-yilning fevral oyida "Новий вестник" gazetasida "Ashxabod gazeti"dan ko‘chirib olingan axborotda hech bir asossiz general-mayor Jo‘rabek qasos olish maqsadida o‘ldirilgan degan fikr ilgari surilgan. Bu mutlaqo noto‘g‘ri taxmindir. Yana o‘sha xabarda aytiladiki, bir necha-yillar oldin

musulmonlarning Qurbon bayrami kunlarida Kitob hokimi bo‘lgan Jo‘rabek yerlik odamlardan birisining o‘g‘lini o‘ldirgan emish.

Jo‘rabek Kitob hokimi vaqtida xalqning mehri-e’tiborini qozongan edi. U beklikni adolat bilan boshqargan, hech kimga nohaq jazo bermagan. Agarda u nohaq biror ish qilganida o‘rnini ko‘zlab, xato qilishini poylab yurgan boshqalarga qo‘l kelar, uni o‘sha vaqtda-yoq mansabidan tushirgan bo‘lardi. Bu to‘qib chiqarilgan afsona xolos.

General-mayor Jo‘rbekning dafn marosimi 26-yanvarda bo‘lib o‘tadi. Bu vaqtga kelib, mintaqaning harbiy va fuqarolik ma’muriyatining ko‘plab yuqori vakillari, marhumning ko‘plab muxlislari va do‘stlari, kuchli yomg‘irga, uzoq va qiyin yo‘lga qaramay, ko‘pchilik yig‘ilgan mahalliy aholi haqida gapirmasa ham bo‘ladi, marhumning yozgi uyiga to‘planishdi. Marhum General-mayor Jo‘rbekning jasadi uyining yonidagi dala burchagidagi qabrga qo‘yiladi[2,259].

Jo‘rabek vafoti haqidagi xabar uni bilgan va tanigan barcha ilg‘or kishilarni qayg‘urtirdi. Nafaqat mahalliy gazetalar, hatto markaziy nashrlardan biri «Вест-ник Европы» ham ta’ziyanoma e’lon qildi[3,25]. General-mayor Jo‘rbekning vafoti XX asr boshlaridagi Turkiston o‘lkasida yuz bergan muhim siyosiy voqea bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Turkiston o‘lkasi va Buxoro amirligining turli shaharlaridan kelgan ko‘plab musulmon nufuzli va faxriy shaxslar, musulmonlarning urf-odatlariga ko‘ra, sovet davrigacha ham uning qabriga ziyorat qilish uchun kelishganligi tarixiy ma’lumotlarda keladi, bu esa marhumning mahalliy aholi orasida cheksiz hurmatini yana bir bor isbotlaydi va shuning uchun uni qasos olish uchun o‘ldirish haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Mahalliy aholi shu qadar achinarli va bevaqt -yovuzlar qo‘lida vafot etgani, ular orasida shunday sharafli va hurmatli odam, O‘rta Osiyo musulmonlarining birinchi xizmat ko‘rsatgan harbiy generalining taqdiri shunday yakun topgan edi.

Oradan ko‘p o‘tmasdan, avvalo, uning avlodlari va yaqinlari general bobolari yoniga dafn qilishni oldindan vasiyat qilishgan. Shu zayl bog‘ ichida kichik qabriston paydo bo‘lgan. Keyinchalik Jo‘rabekning o‘g‘li Olloqulibek otameros bog‘idan 1.4 gektar yerni qabriston uchun ajratib bergan. Bu qabristonda Xusravxon ibn Fansurullohbek ham dafn etilgan[4,639] bo‘lib Jo‘rabek Qalandarqori o‘g‘lining nabirasi hisoblanadi. Xusravxon ibn Fansurullohbek 1896 – 1926-yillarda yashagan To‘ra Suchuk oyimning katta o‘g‘li bo‘lgan.

Mahalliy mullaning aytishicha, 2015 -yilgacha Jo‘rabek nomi masjid, unga tutash mahalladagi kichik qabriston Jo‘rabek nomi bilan atalgan. Yangidan qurilgan masjidga Islom Ota masjidi deb nom berilgandan so‘ng, "Jo‘rabek" nomi hali ham mahalla va qabristonga saqlanib qolgan. "Ilgari general Jo‘rabek masjid hududida dafn etilgan edi", dedi mulla. "Ammo respublika mustaqilligining dastlabki kunlarida, taxminan 1991-1992-yillarda, qabr joylashgan maqbara buxgalteriya xonasi qurish uchun kerak bo‘lib qoldi va generalning qabri uning nomi bilan atalgan qabristonga ko‘chirildi[5]. Biroq, bugungi kunda qabristonda generalning qabri topilmadi. Mahalliy ishchining so‘zlariga ko‘ra, qayta ko‘milganidan deyarli darhol bu joy yo‘qolgan. Qanday bo‘lmasin, qabriston rahbariyatidan hech kim bu haqda hech narsa bilmaydi. 1988-yilda Hamdam Sodiqovning “Fan va turmush” jurnaliga berilgan Rossiya xizmatidagi beklar maqolasida General mayor Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘lining qabri surati[3,25] ilova qilingan. Bundan ko‘rinib turibdiki qabr mustaqillikdan keyin g‘oyib bo‘lgan.

Bir paytlar bu joyda Jo‘rabekka tegishli qabr bo‘lgani haqida gap-so‘zlar yurardi. Keyinchalik buzilganmi yoki boshqa joyga ko‘chirilganmi, to‘g‘risi, hozirgacha bexabarman deydi qabriston xizmatchisi Murodjon aka. Hozirgi kunda Qabriston xalq orasida „Jo‘rabek“ nomi bilan tanilgan bo‘lib, 1910-yilda tashkil topgan. Qabriston Jo‘rabek Qalandarqori o‘g‘li sharafiga shunday nomlangan. Maydoni 1,38 gektarni tashkil qiladi[6]. Dafn marosimidan keyin o‘tgan davrda Turkiston o‘lkasining eng uzoq burchaklaridan yuzlab odamlar marhumga hurmatlarini bajo keltirish uchun uning qabriga kelishdi va xotirlashdi. Musulmoncha o‘tkazilgan marosimlarida ham son-sanoqsiz odamlar qatnashdi. Bu Jo‘rabekning obro‘si qay darajada ekanligini ko‘rsatib turibdi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ш. Юсупов. Худоёрхон ва Фурқат. -Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1995.

2. "Исторический вестник" тарихий-бадиий журналининг 1906 йил июлдаги сони. С. 257-266.

3. Ҳ. Содиқов. Россия хизматидаги беклар // Фан ва турмуш, 1988, № 11, 25-27 б.

4. Ш. Умаров Худоёрхон авлодлари тарихи. – Т.: «Турон замин зиё», 2014. 639 б.

5. https://fergana.agency/photos/110334/

6.„Toshkent shahridagi qabristonlarning sanitariya holatini yaxshilash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida". *lex.uz*

**MuhammadYusuf Meyliqul o'g'li Nomozov**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

## O'RTA ASRLAR TOSHKENT VOHASI TARIXIY OBIDALARI

***Annotatsiya****. Ushbu maqolada Toshkent viloyati hududida joylashgan qadimiy qadamjolar, ziyoratgohlar va maqbaralar haqida ma'lumotlar beriladi. Bunda birinchi galda Zangiota maqbarasi va uning atrof ansanbili yoritib beriladi. Bundan tashqari boshqa tarixiy obidalar tarixi ham ushbu maqoladan o'rin olgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Toshkent vohasi, Tarixiy qadamjolar, Maqbara, Obidalar ansanbili, Zangiota, Cho'ponlar piri, Anbar Bibi maqbarasi, Shayx Xovandi Tohur, Qaffol Shoshiy, Umar Vali Bog'istoniy maqbarasi.*

Islom kirib kelgan davrdan jonli mavjudodlarni tasvirlash taqiq etilgach, ularning o'rnini geometrik-girix , o'simlik-islimiy va epigrafik-xattotiy naqshlar egallaydi. Movarounnahrda islomning diniy inshootlari-masjid va minoralar, somoniylar (IX-X asrlar) davrida esa madrasa va maqbaralarning ahamiyati ortadi. Ta'kidlash joizki, IX va X asrda bunyod etilgan binolar-karvonsaroylar, jome masjidlar, madrasalar, memoriy yodgorlik majmualari va qator saroylarga hovlili kompozitsiya xos bo'lgan. Hovlili kompozitsiya deganda ichki hovlidan iborat bo'lgan va mazkur hovli aylanasiga turar joy va xo'jalik xonalari-hujralar (madrasalarda, karvonsaroylarda va saroylarda) yoki ravoq-ustunli galeriya ( jome masjidlarda) bilan qurilgan kompozitsiya tushuniladi.

O'zbekistonning barcha mintaqalari kabi Toshkent viloyatida ham asosan avliyolar qabrlari yonida bunyod etilgan me'moriy inshootlar hozirgacha yetib kelgan.

Zangiota ziyoratgohi binolar rejasi va tarkibiy tuzilishi jihatidan Movarounnahrdagi avliyolar, asosan sufiy shayxlar qabrlari yonida qurilgan ko'p hovlili memoriy majmualarning yorqin namunasi hisoblanadi. XIV asrda sufiylarning memorial-diniy (ziyoratgoh) majmualari keng tarqalgan. Ular hovuzi bor soya-salqin hovli atrofida bunyod etilgan: avliyo maqbarasi va chillaxonasi, marosim o'tkaziladigan zal va kichikroq masjid, shayx va uning oilasi istiqomat qiladigan xonalar, Qur'on qiroat etish va tehsil oladigan xonalar, muridlar xujralari, g'arib va

miskinlar uchun bepul boshpana va ovqat beriladigan xujralar mavjud bo'lgan. Zangiota ziyorotgohi ham shular jumlasidandir.

Majmua XII asr oxiri-XIII asrning birinchi yarmida yashagan va xalq orasida Zangiota deb tanilgan mashhur sufiy Oyxoja (yoki Emin bobo) qabri yonida bunyod bo'lgan (u 1258 yilda vafot etgan). Bu zot Xo'ja Ahmad Yassaviy ta'limotining izdoshi hamda Sulaymon Boqirg'oniy ( Hakim ota) ning shogirdi edi. Rivoyatlarda unga "Zangi" deb nisbat berilishi terisi to'q ranghda bo'lgani va bu uning arablarga mansub ekanligidan dalolat berishi ta'kidlanadi. Unga "himmatli" (mehr-saxovatli) nisbati ham berilgan. Zangi ota islom dinining taniqli targ'ibotchisi, miskin, xastaliklardan forig' etadigan zot bo'gan, shuningdek cho'ponlar piri hisoblangan. Yuksak xurmat-etibot va shuhratga qaramasdan, ul zot cho'ponlik ortidan kun kechirgan.

XIV-XIX asrlarda shakllangan Zangiota majmuasi uch hududdan tashkil topgan: hovuz va ayvonchalardan iborat keng bog'; Zangiota maqbarasini o'z ichiga olgan trapetsiya shaklidagi hovli va uning tevaragida qurilgan asosiy inshootlar; Anbar Bibi maqbarasini o'z ichiga olgan ko'xna qabriston.

Qishloq tarafidan majmuaga kichkina peshtoqli-gumbazli darvozaxona orqali kirib boriladi. Darvozaxonadan ikkinchi-asosiy hovligacha ziyoratchilar hordiq chiqaradigan bog' bo'ylab uzunligi 22 metrli yo'lakdan yurib boriladi. Bog'da hovuz (12x17 m) qurilgan bo'lib, XX asr boshlarida uning bo'yida tomi zamonaviy tusda-ikki tomonga og'gan va osma shifti chiroyli bezatilgan ustunli ayvonga o'xshash shiypon qurilgan. Bayram kunlari zangi otaning hoki poyini ziyorat qilish ommaviy tus olgan. Bu yerda choy, polov darmon-dorilar, meva-cheva sotilgan, turli o'yinlar polvonlar va akrobatlar chiqishlari, darvishlarning suhbatlari uyushtirilgan. Kuz mahali Zangi ota qabri yonida darveshlar zikirlari o'tkazilgan. Rivoyat qilishlaricha, qabr ichidan ham baland ovozda aytilayotgan zikir-"jahir" eshitilib turgan. Ayniqsa, Qurbon hayit kuni Zangiota mozoriga ko'p ziyoratchi tashrif buyurgan, xalq sayllari o'tkazilgan.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Zangiotaning padari buzrukvori Tojxo'ja Ahmad Yassaviyning shogirdi, bobakoloni (otasining bobosi) – avliyo Mansur ota (1197 yilda vafot etgan) esa ul zotning (ya'ni Yassaviyning) birinchi muridi bo'lgan. O'z navbatida Zangiotaning bobakoloni (Mansur otaning padari buzrukvori) Arslon bobo Yassaviyning

birinchi piri hisoblangan. Zangiotaning o‘zi Ahmad Yassaviyning xalifasi-o’rinbosari bo‘lgan Sulaymon Boqirg‘oniyning (1186 yilda vafot etgan) muridi hisoblangan.

Maqbara taxminan 1390-yilda Amir Temur farmoni bilan qurilgan.

XV asrning birinchi yarmida Mirzo Ulug‘bek tomonidan maqbaraga maxobatli kirish peshtoqi va uning janub tarafida xalimxonaning yana bir peshtoqli-qubbali binosi qurdirilgan. Maqbaraning kirish peshtoqi, devorlar va to’ridagi mehrob o’yma bezaklarining ayrim joylari oltin bilan ziynatlangan.

Go‘rxonadagi Zangiotaning oq marmardan yasalgan o‘yma qabirtoshi sufa ustiga o‘rnatilgan baland parallilipeped ko‘rinishidadir. Binoning umumiy hajmi18x13.8 (peshtoq bo‘yicha), kengligi 9 m (ziyoratxona bo’yicha) ziyoratxona gumbazining balandligi -18.5 m, Peshtoqning balandligi-10 m, peshtoq orqa oralig’I -6.6 m, Zangi ota qabrining o’lchami- 1.55x1.05, balandligi sokol bilan birga 1.3 m.

XIV-XV asrlarga oid Anbar Bibi (Anbar ona) maqbarasi Zangiota qabridan 80 metr janubi-g‘arbda joylashgan. Unda Sulaymon Boqirg‘oniyning rafiqasi, uning vafotidan keyin Zangiotaga turmushga chiqqan Anbar ona dafn etilgan. Rivoyatlarga ko’ra uning yonida Sulaymon Boqirg‘oniyning onasi- Ulug‘ podshoning qabri joylashgan.

Maqbaraning burchaklari kesilgan kubsimon binosi baland silindirik asos-poyigumbazga o‘rnatilgan gumbaz bilan yopilgan. Maqbara tashqi devorlarining har bir qirrasida bezak sifatida yassi tokchalar joylashtirilgan. Maqbara devorlari va peshtoqning tepa tomonga og‘ib torayib borishi, hamda poyigumbaz aylana diametrining tepaga qarab konus shaklida torayib borishi binoni mahobatliroq ko‘rsatib, e’tiborni jalb etadi. Maqbaraning tomi ravoqli bog‘allar (paruslarga) tayangan ikki qatlamli gumbaz bilan yopilgan. Uning poyigumbazi dastlab Temuriylar davri yodgorliklari singari jimjimador naqshlar bilan bezatilgan edi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonov , R. Toshkent viloyati: Tamaddun tarixi va Taraqqiyot istiqbollari. O‘zbekiston , Ma’naviyat, 2014.
2. www.Arxiv.uz
3. www.udu.uz
4. www.ziyo.uz

***Abuyev Husan Odilovich***
*Navoiy davlat universiteti dotsenti*

## SSSR BOSHQARUV ELITASIDA SIYOSIY QARAMA QARSHILIK VA UNING O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI (XX asr 80-yillari)

XX asrning 80-yillari boshlarida sovet jamiyati ikki yildan sal ortik fursat ichida (1982 yil noya br 1985 yil mart) uch nafar KPSS Markaziy Komiteti Bosh sekretari ning vafoti siyosiy ziddiyatlarni yana ham kuchaytirdi[51].

1982 yil 10 noyabrda KPSS MK Bosh sekretari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi kasalmand Leonid Ilich Brejnev 76 yoshida vafot etdi. U uzok yillar davomida surunkali kasal bo‘lishiga karamasdan 18 yil davomida partiya va mamlakatni boshqargan edi. 1982 yil 12 noyabrda bo‘lgan KPSS MKning navbatdan tashqari plenumida Yuriy Vladimirovich Andropov 68 yoshida KPSS MK Bosh sekretari lavozimiga saylandi[52]. U keyinchalik SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimini ham egalladi. Y.V. Andropov 15 yil davomida (1967 1982 yillar) SSSR Davlat Xavfsizlik komiteti raisi lavozimida ishlab, amalda mamlakatda kommunistik partiyadan keyingi ikkinchi tashkilotni boshqardi.

Y.V. Andropov KPSS va SSSR rahbari bo‘lgach, mamlakatda kommunistik fundamentalizmni karor toptirishga urindi. Bu jihatdan olganda KPSS MKning 1982 yil 22 noyabrda bo‘lgan plenumi katta rol o‘ynadi. Unda partiyaning yangi yetakchisi qilgan ma’ruzada davlat va mehnat intizomini hamda ijrochilik intizomini mustahkamlash, ishda uyushkoklik va ishchanlikni oshirish zarurligi aytildi[53]. Mamlakatda o‘n yillardan keyin yana kuch ishlatuvchi organlarning mavqei oshdi. Jamiyatda yangi tartib o‘rnatishga kirishildi va odamlar o‘rtasida qo‘rquv va xavotirlik boshlandi.

Y.V. Andropov mamlakatda boshkaruvning ma’muriy-buyrukbozlik usulini qayta tiklab, Stalin zamonida amal qilgan, biroq Xrushchyov davrida, xususan Brejnev davrida ancha bo‘shashgan holatga kaytarishga harakat qildi. Bu jarayonlar O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

[51] Bu xakda karang: O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkita kitob. Ikkinchi kitob. 1939 1991 yillar. Mas’ul muharrirlar: R. Abdullayev, M. Ralimov, Q. Rajabov Toshkent: O'zbekiston, 2019.-B.134-146
[52] Pixoya R.G. Sovetskiy Soyuz: istoriya vlasti. 1945-1991 2-izdaniye. Novosibirsk: "Sibirskiy xronograf", 2000. -C 375-376.
[53] "Sovet O‘zbekistoni" (Toshkent) 1982 Ail 23 noyabr

1984 yil 9 fevralda Y.V. Andropov ham 70 yoshida og‘ir xastalikdan so‘ng vafot etdi. 1984 yil 13 fevralda bo‘lib o‘tgan KPSS MKning navbatdan tashqari plenumida 73 yoshga kirgan kasalmand Konstantin Ustinovich Chernenko KPSS MK Bosh sekretari kilib saylandi[54]. U 1984 yil 11 aprelda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi lavozimini ham egalladi.

Bu davr mamlakat siyosiy elitasining yetakchilari bo‘lgan ko‘plab qariyalar, masalan, 1980 yil yanvarda A.N. Kosigin, 1982 yil yanvarda M.A. Suslov, 1983 yil mayda A.Y. Pelshe, 1984 yil dekabrda D.F. Ustinov ham vafot etishdi. Mamlakat bo‘ylab noxush latifalar ko‘chib yurardi: SSSRda yangi sport turi dafn marosimi poygasini o‘ylab topishdi[55].

1985 yil 10 martda K.U. Chernenko ham og‘ir kasallikdan so‘ng vafot etdi. KPSS Markaziy Komitetining 1985 yil 11 martda bo‘lgan navbatdan tashqari plenumida KPSS Markaziy Komiteti Bosh sekretari lavozimiga nisbatan yosh va g‘ayratchan Mixail Sergeyevich Gorbachyov saylandi. Uning tashabbusi bilan L.I. Brejnev davri (1977 yil)dan boshlab amal kilib kelayotgan an’ana partiya va davlatdagi oliy lavozimlar bir kishining qo‘lida to‘planmay, muayyan muddatga ikkiga ajraldi. 1985 yil 2 iyulda SSSR Tashqi ishlar ministri, 76 yoshni to‘ldirgan Andrey Andreyevich Gromiko SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi qilib saylandi.

Xullas, 1982 1985 yillarda Markazda siyosiy qarama-qarshilik va hokimiyat uchun kurash kuchaydi. KPSS MK Siyosiy byurosida "qariyalar va yoshlar" o‘rtasida L.I. Brejnev vafoti arafasi va undan keyin qariyb uch yil mobaynida kechgan bu kurashda A.A. Gromikoning yordamida Siyosiy byuroning eng yosh a’zosi M.S. Gorbachyov (bu paytda u 54 yoshda edi) g‘olib chiqdi. Mazkur yillarda jamiyatda umid uyg‘otgan "sotsializmni isloh qilish" niyatlari amalga oshmadi. Biroq Andropov davridagi qo‘rquv va qatag‘onlar to‘lqinidan sovet jamiyati asta-sekin o‘ziga kela boshladi. Bu yillarda nafaqat SSSR, balki butun dunyoda ham hayot o‘zgara boshlagan edi.

Aslini olganda Sovet Ittifokida hokimiyat tuzilmalari ayniy boshladi. Siyosiy elita boshqaruvidagi tartibsizliklar hokimiyatning o‘rta va kuyi bo‘g‘iniga o‘ta boshladi. Ushbu holat yana ham murakkab sharoitda Markazning doimiy nazorati ostida bo‘lgan O‘zbekiston SSRdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

[54] "Sovet O‘zbekistoni", 1984 yil 14 fevral.
[55] Pixoya R.G. Sovetskiy Soyuz: istoriya vlasti. 1945-1991.-S. 399.

Bu davrda mamlakatda yuz bergan bir qator voqealar O‘zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Ana shunday noxush voqealardan biri sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga kiritilishi bo‘ldi. O‘zbekistonning o‘sha paytdagi birinchi siyosiy rahbari bo‘lgan Sharof Rashidov sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga kiritilishi va u yerdagi harbiy mojarolarga aralashishiga qattiq qarshilik ko‘rsatgan.

Ko‘p yillik urush SSSR va Afg‘oniston iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. Ma’lumotlarga qaraganda, urushdan Afg‘oniston 20 mlrd dollar miqdorda moddiy talafot ko‘rdi, unda 1 mln nafar afg‘onistonliklar halok bo‘ldi, 4 mln kishi xorijga ketishga majbur bo‘ldi. Ularning orasida afg‘onlardan tashqari o‘zbeklar, tojiklar va turkmanlar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi.

Bundan tashqari XX asr 80-yillarida nafaqat Afg‘onistondagi janglarda qatnashib halok bo‘layotgan, balki ulkan mamlakat hududida sovet armiyasi saflarida tinchlik sharoitida harbiy xizmatni o‘tayotgan paytda o‘ldirilgan va halok bo‘lgan yuzlab va minglab o‘zbek yigitlarining jasadlari solingan "temir tobutlar"ning kelishi O‘zbekistondagi ijtimoiy vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha paytda jurnalist Karim Bahriyevning matbuotda yozishicha, 1990 yilning 9 oyi mobaynida o‘zbek xonadonlariga 167 ta, 1991 yilda esa 430 ta tobut keldi[56]. Bu holat kommunistik mafkura ta’kidlab kelgan sovet armiyasidagi "millatlararo totuvlik, xalklar do‘stligi va baynalmilal g‘oyalar" aslida deklarativ xususiyatga ega bo‘lganligi, bu paytda armiya ich-ichidan yemirilib, aynib ketayotganligi, askarlar o‘rtasida tinchlik sharoitida ham milliy va diniy nizolar asosida turli to‘qnashuvlar kelib chiqishi kuchayganligini ko‘rsatadi.

Mazkur davrda o‘zbek qishloqlaridagi og‘ir maishiy hayot, paxta ishi munosabati bilan sovet tergovchilarining zug‘umlari, xo‘rlik va haqoratlariga chiday olmagan hamda oilada moddiy kelishmovchiliklar va turli janjallar bois o‘z-o‘zini o‘ldirish kuchayganligini ham ta’kidlab o‘tish joiz. Xususan, yuzlab o‘zbek ayollari namoyishkorona tarzda o‘zlariga o‘t qo‘yib, fojiali tarzda halok bo‘ldi yoki bir umrga nogiron bo‘lib qoldi. Xullas, o‘zbek ayolllari maishiy turmush hamda jamiyat va tuzumga qarshi o‘z noroziligini ana shunday fojiali namoyish qildi.

[56] Bahriyev K. Oy borib, omon kaytmagan bolam // "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati" (Toshkent). 1990 yil, Fitna san’ati. I kitob. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: A. Meliboyev, S. Ahmad. Toshkent: Fal, 1992. - B.226.

XX asrning 80-yillari boshlariga kelganda sovet rejimi, uning siyosiy tizimi va xo‘jalik yuritish usullari o‘zining rivojlanish imkoniyatlarini tugata boshladi. O‘zbekiston SSR iqtisodiyoti ham, katta xom ashyo va tabiiy boyliklar zaxirasiga ega bo‘lishiga qaramasdan, SSSRning markaziy hududlaridan juda tez ortda qola boshladi.

XX asrning 80-yillari o‘rtalarida O‘zbekiston SSRda mahalliy aholi orasidagi ishsizlarning o‘rtacha yillik soni 1 mln kishidan ortiq bo‘lib, ularning yarmi yoshlar edi. Xususan, kishloq tumanlarida ishsizlik darajasi yana ham yuqori bo‘lgan. Ishsizlar soni ana shunday ko‘p bo‘lgan bir sharoitda ish kuchini respublikaga to‘xtovsiz ravishda chetdan keltirish davom etardi. Navoiy, Zarafshon, Uchkuduk, Chirchik, Bekobod, Angren shaharlaridagi ishchilarning aksariyati SSSRning markaziy rayonlaridan keltirilgan rusiyzabon aholi edi. Masalan, 1981 - 1985 yillarda Toshkentda ish bilan band bo‘lmagan mehnatga qobiliyatli o‘rtacha 200 000 nafardan ortiq kishi bor bo‘lgani holda yangi ishga tushirilgan korxonalarga 125 000 nafar ishchi va mutaxassislar RSFSR, Ukraina va Belorussiyadan jalb qilindi[57]. Shaharlarda, xususan, respublika poytaxti Toshkent shahrida yashovchi mahalliy aholining uy-joyga ehtiyoji yuqori bo‘lsa ham eng avvalo ko‘chirib keltirilgan aholining maishiy sharoitlari yaxshilangan.

O‘zbekistonda 1980 yili o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar tayyorlaydigan texnikumlar soni 44 taga yetgan. 1985 yilda respublika qish- loq xo‘jaligida 10 000 nafardan ortik o‘rta maxsus ma’lumotli va 5000 nafardan ziyod oliy ma’lumotli mutaxassis faoliyat ko‘rsatgan. Biroq mutaxassislar son jihatdan o‘sib borsa ham ularning malakasi yetarli darajada emas edi. Oliy o‘quv yurtlari va texnikumlarning talabalari, shuningdek, qishloq maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari uzoq muddatli qishloq xo‘jalik, xususan, paxta hosilini yig‘ishtirib olishga jalb qilingan. O‘quv dasturlari esa haddan tashqari mafkuralashtirilib, marksizm-leninizm ta’limoti kommunistik g‘oya talablariga bo‘ysundirilgan.

O‘zbekistonda mazkur davrda har yili kuz mavsumi va hatto dekabr oy ida tinchlik sharoitida ham xuddi frontda bo‘lgani singari bir holat hukm surgan. O‘zbekistonning deyarli barcha aholisi paxta yig‘im-terimiga jalb qilingan. Bu paytda universitet va institutlar, texnikumlar, maktablar yopilib, barcha talaba va o‘quvchilar hamda o‘kituvchilar paxta terish

[57] Alimov I., Rajabov Q. O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy inkirozning kuchayishi va iqtisodiy turg‘unlik (1971-1985 yillar) // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. O‘zbekiston Respublikasi. Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2006.- B.

uchun dalalarga jo‘natilgan. Boshka davlat muassasalari xodimlari ham ommaviy ravishda "oq oltin"ni terishga safarbar qilingan. Biroq paxtadan olingan asosiy daromadning huzurini Markaz ko‘rgan, o‘zbek dehqonlari esa asosan qora mehnat bilan shug‘ullangan.

Bu davrda O‘zbekistonda paxta yakkahokimligi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Yildan-yilga tobora ko‘payib borayotgan paxta ekin maydonlarini sug‘orish uchun yangi suv omborlari va kanallar qurilishi ham avjiga chiqdi. Qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish kuchaydi. 1982 yilda Qoradaryodan suv oladigan, sig‘imi qariyb 2 mlrd $m^3$ bo‘lgan eng yirik Andijon suv ombori kurildi. Xullas, 1985 yilga kelib, O‘zbekiston SSRda 20 dan ortiq suv omborlari mavjud bo‘lgan. Shu bilan birga kanallar soni ham ortdi. Bu kabi irrigatsiya inshootlarining kengayib borishi xalq xo‘jaligi uchun birmuncha iqtisodiy samara bergan bo‘lsa ham, biroq uning salbiy oqibatlari yana ham og‘irroq bo‘ldi. Chunki cho‘llarni o‘zlashtirish, sug‘orish ishlari intensiv yo‘l bilan emas, balki ekstensiv yo‘l bilan amalga oshirildi. Suvdan foydalanishda katta isrofgarchilikka yo‘l qo‘yildi.

Sovet jamiyatida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi salbiy jarayonlar siyosiy tizimda ham to‘laligicha aks etdi. Sovet jamiyatining siyosiy tizimiga kommunistik partiya, sovetlar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari (komsomol) va boshqa jamoat tashkilotlari kirar edi. Partiya o‘zini jamiyatning rahbarlik qiluvchi va yo‘naltiruvchi kuchi deb hisoblar va sovetlar hamda jamoat tashkilotlariga o‘z xohish-irodasini amalda zo‘rlik bilan o‘tkazar edi.

1983 yil 31 oktabrda ertalab soat 05:00 da O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari, KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi a’zoligiga nomzod Sharof Rashidovich Rashidov respublikadagi paxta yig‘im-terimidagi ahvolni nazorat qilish maqsadida Qoraqalpog‘iston ASSR va Xorazm viloyatida xizmat safarida bo‘lganida Nukus shahridagi hukumat qarorgohida 66 yoshida infarkt natijasida to‘satdan vafot etdi[58]. SH. Rashidov qariyb chorak asr davomida (1959 1983 yillar) O‘zbekiston partiya tashkilotiga rahbarlik qilgan, undan avval 9 yil davomida (1950-1959 yillar) O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimida ham ishlagan edi.

Sharof Rashidov o‘z davrining farzandi edi. U zukko siyosatchi va atoqli davlat rahbari, mashhur yozuvchi sifatida shu zamonga, uning

[58] Karang: Razzakov F. Korrupsiya v Politbyuro. Delo "krasnogo uzbeka". Moskva: "Algoritm-Eksmo", 2009. - S. 454-455.

g‘oyalari va ehtiyojlariga xizmat qildi. Ammo Sh. Rashidovning butun faoliyati shundan dalolat beradiki, u sovet tuzumi va kommunistik mafkura imkoniyat bergan darajada bir umr, eng avvalo, O‘zbekiston va o‘zbek xalki manfaatlari uchun kurashdi. Sharof Rashidov davrida O‘zbekiston ilm-fani, adabiyoti, san’ati, xullas, milliy madaniyati o‘zining eng yuksak namunalari bilan jahon madaniyatini boyitdi. O‘zbekiston shahar va qishloqlarining qiyofasi tubdan o‘zgardi. Bu davrda respublika poytaxti Toshkent Sharqning eng go‘zal shaharlaridan biriga aylandi. Navoiy, Guliston, Yangiyer, Zarafshon va Uchkuduq kabi yangi shaharlar qad ko‘tardi. O‘zbekistonda zamonaviy sanoatning ko‘plab sohalari ham shu davrda shakllandi, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirishda katta yutuqlarga erishildi, xalq farovonligi oshdi.

1983 yil 3 noyabrda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari qilib 53 yoshga kirgan Inomjon Buzrukovich Usmonxo‘jayev (1930-2017) saylandi[59]. U 1978 1983 yillarda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimida ishlagan edi. I.Usmonxo‘jayev 1988 yil yanvar oyiga qadar O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimida faoliyat ko‘rsatdi.

1984 yil 23 iyunda Toshkentda O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi bo‘ldi. Plenum ishida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari I.B. Usmonxo‘jayev "Partiya va davlat intizomini, kadrlar bilan ishlashni hozirgi zamon vazifalari darajasiga ko‘taraylik” mavzusida ma’ruza qildi.[60] Unda Markazdan yuborilgan KPSS Markaziy Komitetining sekretari YE.K. Ligachyov qatnashdi va nutq so‘zladi. Aynan ushbu plenum qarorlari bilan Markaz tomonidan O‘zbekistonda boshlangan paxta ishi deb atalgan siyosiy qatag‘onlar kuchaydi. Keyinchalik bu jarayon respublikaning o‘sha paytdagi sobiq va birinchi rahbarlarini ham chetlab o‘tmadi.[61]

Xullas, Moskva tashabbusi va ko‘rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar dastlab O‘zbekiston SSRda, so‘ngra butun Sovet Ittifoqida o‘zbek xalqini asossiz badnom etish kampaniyasini boshlab berdi. Xususan, Moskvadan maxsus yuborilgan YE.K. Ligachyov o‘z nutqida Kreml ko‘rsatmalari izchillik bilan bajarilishini talab qildi.

[59] "Sovet O‘zbekistoni", 1983 yil 4 noyabr.
[60] "Sovet O‘zbekistoni", 1984 yil 25 iyun.
[61] Rajabov Q., Qandov B., Shoymardonov I. O‘zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). 5-nashr. Toshkent: "O‘zbekiston", 2012.- B. 236.

Shuningdek, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi respublikadagi iqtisodiy qiyinchiliklarni faqat partiya, sovet, kasaba uyushmalari, komsomol, ma’muriy va xo‘jalik tashkilotlaridagi qat’iyatsizlik, sustkashlik, sotsialistik mulkni talon-toroj qilish, poraxo‘rlik, chayqovchilik, ko‘zbo‘yamachilik, qo‘shib yozish kabi holatlar bilan bog‘ladi.[62] I. Usmonxo‘jayev o‘z ma’ruzasida iqtisodiy inqirozning sabablari hamda ildizi "sotsialistik tuzum" ekanligini anglamasdan, go‘yoki u yaqin o‘tmishda bu qiyinchiliklardan bexabar bo‘lgan hamda o‘zini gipnoz qilingan holatda bo‘lganini e’tirof etib, "respublikadagi iqtisodiy kiyinchiliklar faqat O‘zbekistonga xos bo‘lgan xususiyat, bunday vaziyatga ta’sir etishning asosiy yo‘li esa kadrlar bilan ishlash, ularning faoliyatidan to‘g‘ri foydalanish ekanligini, bu masalaga sinfiy yondashish urush yillaridek zarurligini" ta’kidladi.[63] Plenumda nutq so‘zlagan O‘zbekiston Kompartiyasi MK ideologiya sekretari R. Abdullayeva sanoat korxonalari, kolxozlar, sovxozlar, boshqa tashkilotlarning rahbarlik lavozimida ishlayotganlarning yoshi 50 yoshgacha bo‘lib, shuningdek, rayon partiya komiteti (raykom) va shahar partiya komiteti (gorkom) sekretarlaridan mavjud 583 sekretarning 488 nafari ham shu yoshda bo‘lib, ularning dunyokarashi tinchlik davrida shakllanganligi, ular bevosita "sinfiy kurashlar maktabini o‘tamagan kishilar" ekanligi hamda fashizmga qarshi kurash maktabini ko‘rmaganligini ta’kidlab, respublikaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi barcha o‘pirilishlar mahalliy rahbarlarning aybi bilan yuzaga keldi, degan qat’iy fikrga keldi.[64] Biroq bu noto‘g‘ri xulosa edi.

XVI plenumdan so‘ng go‘yoki O‘zbekistondagi vaziyatni izga solish maq- sadida Markazdan, eng avvalo RSFSR va boshqa respublikalardan oddiy partiya va sovet kadrlari respublikaga yuqori rahbarlik lavozimlarini egallash uchun jo‘natildi. Natijada O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti, O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti, O‘zbekiston SSR Prokuraturasi, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar ministrligi kabi respublikadagi muhim oliy boshqaruv organlari Markaz kadrlari qo‘liga tushib qoldi. O‘zbek xalki bunday kadrlarni kinoya bilan “desantchilar" deb nomladi. Desantchilar respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana bordilar.

[62] Q. Rajabov., H.Abuyev. O‘zbekiston SSRda sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish siyosatining tanazzuli (1985-1991 y.) // - Toshkent: “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2022.
[63] Shu joydan. 52-b.
[64] Q. Rajabov., H.Abuyev. O‘zbekiston SSRda sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish siyosatining tanazzuli (1985-1991 y.) // - Toshkent: “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2022.

"O‘zbekiston tergov usullari tajribasi o‘tkaziladigan ulkan maydon"ga aylanib qoldi.[65]

Xullas, O‘zbekiston Kompartiyasining XVI plenumi va unda qabul qilingan qarorlar o‘zbek xalqi tarixida mash’um rol o‘ynadi.

Bu paytlarda O‘zbekistonga Markazdan yuborilgan desantchilar faoliyati kuchaydi. Ular respublika partiya, sovet, hukumat idoralarida, xususan, sud va kuch ishlatish tizimida yukori lavozimlarni egallashdi. Bundan tashqari Markazdan ataylab yuborilgan Telman Gdlyan va Nikolay Ivanov boshchiligida maxsus tergov guruhining O‘zbekistonda qatag‘on faoliyati boshlanishi ham aynan shu yillarga to‘g‘ri keladi. Gdlyan guruxi faqat paxta ishi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqmasdan, O‘zbekistonda, xususan, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Namangan, Surxondaryo, Xorazm oblastlarida gunohsiz kishilarni ham qamoqqa olish va qiynash, ularga tan jarohati yetkazish va o‘limga hukm kilish bilan tahdid qildilar.[66]

O‘zbekistonda aholi salomatligi muammolari, xususan, yosh bolalar o‘limi bu paytda ortib bordi. Buni rasmiy ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Bu davrda ham hayot bir joyda to‘xtab qolmadi. Respublika ma’mu riy va hududiy bo‘linishida ham ayrim o‘zgarishlar yuz berdi. 1982 yil 20 aprelda O‘zbekiston SSR tarkibida Navoiy oblasti tashkil qilindi. O‘zbekistondagi eng kenja viloyat Buxoro oblasti va qisman Samarqand oblasti xududlarining bir qismidan tuzildi.[67] (1988- 1991 yillarda Navoiy oblasti ma’muriy birlik sifatida asossiz tarzda tugatilgach, u 1992 yil 5 fevralda qayta tashkil qilindi.)

1982 yilda Xorazm oblasti Hazorasp tumanidagi Drujba (hozirgi Pitnak) shahri yaqinida Amudaryo atrofida Tuyamo‘yin GES qurildi. 1983 yil sentabrda O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrining 2000 yilligi keng nishonlandi va rus tilida "Toshkent" ensiklopediyasi nashr etildi.

Shu bilan birga 1982 1985 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida ma’lum jonlanishlar kuzatildi. 1984 yil yanvarda Sirdaryo GRES bilan Toshkent shahri o‘rtasidagi 164 kilometrli yangi gaz magistrali ishga tushirildi. Xullas, Sho‘rtan gazi (Qashqadaryo oblasti G‘uzor tumani hududida topilgan yirik gaz koni) Toshkent shahriga yetib keldi. 1984 yil 19 fevralda Gazo‘chok (Turkmanistonning Chorjo‘y oblasti) Oqqamish (Qoraqalpog‘iston ASSR) yangi temir yo‘l tarmog‘i ishga tushdi va

[65] Qarang: Xalq hakikatni bilmog‘i zarur // "Qishloq hakikati", 1990 yil 30 yanvar: "Toshkent haqikati", 1990 yil 3 fevral,
[66] Qarang: Razzoqov F. Sharof Rashidov: hayot va mamot. Toshkent: O'zbekiston, 2020. - B.452-470.
[67] "Sovet O‘zbekistoni", 1982 yil 22 aprel.

poyezdlar to‘g‘on orkali o‘tishni boshladi. Keyinchalik yangi tarmoq To‘rtko‘l yaqinida qurilayotgan temir yo‘l stansiyasiga qadar qad uzaytirildi. 1984 yili Toshkent metropoliteni ikkinchi yo‘lining 1-liniyasi (5 ta bekat) foydalanishga topshirildi. Shu yili yana Qashqadaryo oblastining Bahoriston tumanida Ko‘kdumaloq neft-gaz kondensat koni ishga tushirildi.

O‘zbekiston SSRning yangi rahbariyati bu yillarda respublika aholisi, xususan, ziyolilar va xo‘jalik xodimlari bilan jonli mulokotga kirishishga ham harakat qilgan. 1984 yil 1 martda, o‘n birinchi chaqiriq SSSR Oliy Sovetiga saylovlarga 3 kun qolganda, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari I.B. Usmonxo‘jayev O‘zbekiston ijodkor ziyolilarining namoyandalari bilan uchrashdi. Bu uchrashuvda o‘zbek ijodkorlari oldida turgan muhim vazifalar haqida gaplashib olindi.[68]

1985 yil 2 martda Toshkentdagi V.I. Lenin nomli SSSR xalqlari do‘stligi (xozirgi Xalqlar do‘stligi) saroyida O‘zbekiston paxtakorlari, g‘allakorlari, chorvadorlari va qishloq xo‘jaligi boshqa tarmoqlari xodimlarining an’anaviy kengashi (kurultoyi) o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari I. B. Usmonxo‘jayev ma’ruza qildi. O‘sha paytda respublika birinchi rahbari bevosita jonli o‘zbek tilida qurultoy qatnashchilari bilan muloqot qilishi, bu holat O‘zbekiston televideniyesi orqali xalqqa namoyish qilinishi O‘zbekiston aholisi, xususan, o‘zbek xalqi o‘rtasida katta jonlanishga sabab bo‘ldi. Chunki bundan oldingi turli katta majlislarda nafaqat respublika rahbari, barcha majlis qatnashchilari rus tilida gapirardi. O‘zbek tili esa O‘zbekistonda ikkinchi darajali tilga aylanib, u asosan, oilada yoki bozorda ishlatilgan, xoloc.

Xullas, 1982-1985 yillarda Markazda siyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi O‘zbekistonga ham o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat bu yillarda tobora keskinlashdi. Buning ustiga o‘zbek xalqi boshiga sovet rejimi yuborgan qatag‘onlarning yangi to‘lqini kela boshladi.

[68] Rajabov Q.. Qandov B., Rajabova S. O‘zbekiston tarixining muxim sanalari. 6-nashr. B. 242-243.

**Erkinova Mehribon Polvonnazar qizi**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

## TOSHKNETNING VOHASINING QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDAGI MANZLGOHLARI

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada qadimiy Toshkent vohasi hududida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni boshlanishi, paleolitni turli davrlardagi ijtimoiy hayotni shakillanishi va rivojlanishi, qadimiy manzilgoh va yodgorliklarni paydo bo‘lishi, arxeolog olimlarning manzilgohlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlari va ularning batijalari qisqacha yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Obirahmat, Xo‘jakent, sopol idishlar, manzilgohlar, paleolit*

Toshkent vohasi paleolit davrini dastlabki bosqichlaridayoq insonlar tomonidan o‘zlashtira boshlangan. Shu davrda yashagan ibtidoiy odamlar hududlarda manzilgohlar, chaqmoqtosh qazib olish va uni qayta ishlash konlari, toshdan yasalgan mehnat qurollari vohaning turli davlar jumladan poleolit, mezolit va neolit davrlariga oid tarixiy manbalar arxeolog olimlar tamonidan topilgan. Ana shunday tarixiy yodgorliklardan biri nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo xalqlari uchun mashhur, o‘rta poleolit davriga mansub Obirahmat yodgorligidan 2003-yilda bundan 70 ming yil oldin yashagan odam suyaklarining topilishi Toshkent viloyati qadimiy sivilizatsiya makonlaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Mutaxassislar Obirahmat g‘oridan topilgan odam qoldiqlari ham neandertal, ham zamonaviy odam belgilarini o‘zida mujassam etgan, degan xulosaga kelgan. Demak, Markaziy Osiyoda 70 ming yil oldin zamonaviy Homo sapiens aylangan neandertal odam evolyutsion tarzda rivojlanib borgan hududlar sirasiga kiradi. Ajdodlarimiz Chirchiq (Turk, Barak yoki Parak, Chir) daryosi havzasi vodiysida joylashgan, daryo irmoqlari va anhorlar orqali mo‘l-ko‘l sug‘oriladigan, chorvachilik yaylovlari, dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun yaroqli serhosil tuprog‘i bo‘lgan vohada har tomonlama buyuk tamaddunga tamal toshini qo‘ydi. Qadim-qadim zamonlarda Toshkent (turkiyda-Choch; xitoychada-Yuyni, Chjeshi, Shi, Tashigan; arab tilida-Shosh, Shoshkand) Chirchiq va Ohangaron daryolari vodiylarini, ularga tutashib ketgan bepoyon Dashti Qipchoq kengliklari va Movarounnahr dehqonchilik vohasi o‘rtasida yastanib yotgan Sirdaryo chap qirg‘og‘i tog‘ va dasht tumanlarini egallagan edi. Qulay iqlim, boy foydali qazilmalar (oltin, kumush, temir, qo‘rg‘oshin,

feruza va boshqalar) va serunum tuproq vohaning iqtisodiy taraqqiy etishiga, ayni chog‘da, ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq dehqonlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq va madaniy aloqlari markaziga aylantirdi. Antik davrlardayoq Ko‘lbuloqda oltin, Lashkarakda kumush, Ungurlikonda feruza qazib olingan. Birinchi ming yillik boshidayoq Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘lidagi eng muhim markazlardan biriga aylanib bo‘lgan edi. Toshkentning qadim va buyuk tarixi to‘g‘risida qadimgi va o‘rta asrlarga oid yuzlab qo‘rg‘onlar, shaharchalar hamda me’morchilik tarixiy obidalari ma’lumot beradi. O‘lka tarixi boy va xilmaxil bo‘lib, juda ko‘plab tarixiy manbalarda qayd etib o‘tilgan. Jumladan, musulmon malakatlarini kezib chiqqan arab, fors olim va geograflari Al-Istahriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy tomonidan Shosh tarixiy viloyati quyidagicha ta’riflangan: ”Xuroson va Movarounnahrda jome masjidlari, obod qishloqlari ko‘pligiyu, zaminlari kengligi va imoratlari ko‘pligi-aholisining kuch-quvvati va jasurligi borasida bu kabi boshqa bir mamlakat uchramaydi.

**Toshkent vohasidagi tarixiy makonlar- Obirahmat yodgorligi —** must’e madaniyatiga doir ibtidoiy davr odamlari manzilgohi. Toshkentdan 100 km shimoli-sharqda, Ko‘ksuv tizmasi etagidagi Paltovsoyning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Obirahmat yodgorligi keng yoysimon shaklda bo‘lib, eni 20 m dan ortiq; u quruq va yorug‘, sharqiy chekkasidagi qiyadan chuchuk suvli sharshara oqib tushadi. G‘orning og‘zi janub tomonga qaragan. Manzilgohda uzoq vaqt davomida hosil bo‘lgan 21 ta madaniy qatlamning umumiy qalinligi 10 m. Olib borilgan arxeologik qazishlar davomida manzilgohdan nayzasimon qurollar, nukleuslar, turli xildagi tosh kesgichlar, *ponasimon qurollar, bigizlar topilgan. Topilmalar O‘rta Osiyoda tosh davrining eng boy kolleksiyalaridan birini tashkil qiladi6. 1962-yilda Bo‘stonliq arxeologik otryadi tomonidan aniqlanb, 1962–1970-yillarda Obirahmat poleolit otryadi tomonidan o‘rganilgan7birahmat g‘ori yumaloq shaklli ohaktosh qoyasida shakllangan ayvon bo‘lib, og‘zi janubga qaragan: eni 20 m, chuqurligi 9 m, shiftining maksimal balandligi 11,8 m. Qatlamlarining qalinligi 10 m va ular 21 ta litologik qatlamga ajratilgan. Qatlamlarning paleolit davriga oid qalin madaniy qoldiqlarga egaligi qadimgi odamlarning bir necha o‘n ming yilliklar davomida moddiy-madaniy jihatdan dinamik evolyusiyasini kuzatish imkonini beradi.*

Xo‘jakent manzilgohi: Yuqorida ta’kidlaganidek, Bo‘stonliq tumani hududida poleolit davridayoq insonlar tomonidan o‘zlashtirila boshlangan,

ana shunday makonlardan yana biri Xo‘jakent manzilgohi bo‘lib, Xo‘jakent qishlog‘ining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan, balandligi 2,5 metr bo‘lgan unchalik chuqur bo‘lmagan g‘or. Kirish qismining kengligi 6 metr, uzunligi 4 metrdan iborat g‘or old qismida ibtidoiy odamlar mehnat qurollari topilgan maydon joylashgan. 1959-yilda A. P. Okladnikov rahbarligida olib borilgan arxeologik qazish jarayonida madaniy qoplamlarda ko‘plab tosh qurollari, hayvon suyaklari topilgan. Olimlar tomonidan mazkur manzilgoh qadimgi tosh asri must’e davri yodgorligi ekanligi aniqlangan.

Xo‘jakent g‘orining pastki qismida joylashgan qoyatoshlarda aks etgan petrogliflar 1957-yilda G. V. Parfenov tomonidan o‘rganilgan. Petrogliflar davri qadimgi tosh asri, bronza bilan belgilangan bo‘lib, toshga o‘yib bitilgan. Ilgari Chirchiq vodiysidagi eng yirik shaharlardan biri hozirgi Xodjikent qishlog‘i hududida joylashgan edi. Chirchiqning chap qirg‘og‘ida, ko‘prik yaqinida qal’a tipidagi qadimiy istehkom bo‘lgan Oqtepa tepaligi qoldiqlari (o‘lchamlari 30×20 m, balandligi – 7 m. gacha) hozirgacha saqlanib qolgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida VI–XII asrlarga oid sopol buyumlar aniqlangan. Katta formatdagi g‘ishtlar (48x26x10 sm), don qirg‘ichlari bo‘laklari topilgan. Chirchiqning ro‘parasida, o‘ng qirg‘og‘ida “Hojikent bozorboshi” nomli arxeologik yodgorlik saqlangan. 1961–1962- yillarda mazkur aholi punkti V. I. Lenin nomidagi Toshkent Davlat universitetining arxeologiya kafedrasi xodimlari, 1964- yilda esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Chorvoq arxeologik guruhi tomonidan o‘rganilgan. S. B. Lunina shahar aholisi hayotidan dalolat beruvchi turli xil keramika materiallari – xumlar, ko‘zachalar, qozonlar, piyola va boshqa ko‘plab narsalarni oldi. Mazkur arxeologik ashyolar VI–XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Qadimgi shahar Chirchiqning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan edi, chunki qadimda Binketdan (Toshkent) tog‘li hududlarga boradigan yo‘l aynan Chirchiqning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan. O‘ng qirg‘oqda, tog‘ etaklarida o‘rta asrlarga oid Xondayliq, Sayliq, Chimboylik va boshqa qal’alar bo‘lgan. Chap qirg‘oqqa olib boradigan yo‘l Xodjikent bozorboshida joylashgan ko‘prik orqali davom etdi. “Eshak ko‘prigi” deb nomlangan ushbu ko‘prik XX asr boshlarida saqlanib qolgan. “Xojikent bozorboshi” aholi punkti o‘rnida qadimda Xargankent yoki Xardjankent degan shahar bo‘lib, u yerda XV asrgacha hayot davom etgan.

Qadimgi shahar Chirchiqning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan edi, chunki qadimda Binketdan (Toshkent) tog‘li hududlarga boradigan yo‘l aynan Chirchiqning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan. O‘ng qirg‘oqda, tog‘ etaklarida o‘rta asrlarga oid Xondayliq, Sayliq, Chimboylik va boshqa qal’alar bo‘lgan. Chap qirg‘oqqa olib boradigan yo‘l Xodjikent bozorboshida joylashgan ko‘prik orqali davom etdi. “Eshak ko‘prigi” deb nomlangan ushbu ko‘prik XX asr boshlarida saqlanib qolgan. “Xojikent bozorboshi” aholi punkti o‘rnida qadimda Xargankent yoki Xardjankent degan shahar bo‘lib, u yerda XV asrgacha hayot davom etgan. 1897-yilda TKLA (Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to‘garagi) a’zosi N. G. Mallitskiy Hojikentda bo‘lib, bu yerda 7 ta qabr toshini topdi. Mahalliy aholining aytishicha, avvallari ularning 8 tasi bo‘lgan, biroq yaqinda Toshkentga olib ketilgan. Biz uchun qiziq jihati, ushbu qabr toshlari (arxeologik adabiyotlarda ularni “qayroq” yoki “qayraktosh” deb atashadi) yer yuzidagi qabr toshlari tarixini yoritib turadi.

1974- yilda Pskom arxeologik otryadi nomonidan Chuqursoy va Qoraqiyasoy daryolari hamda Kul degan joyda ham qoyatosh suratlar topilgan. Keying o‘n yilliklar mobaynida amalga oshirilgan izlanishlar jarayonida ushbu hududning bir qator manzillarida mavzu boyligi, syujetlarning o‘ziga xosligi va yuksak badiiy jihatlari bilan ajralib turgan qadimiy qoyatosh suratlar kashf qilingan. Ular dengiz sathidan 2500 metr balandlikdagi xushmanzara darada joylashgan.

Bu yerda tim- qora qumloq toshlar va granitning silliq yuzasida odamlar, tog‘ echkilari, tog‘ qo‘ylari (arxarlar), ho‘kizlar, tuyalar, otlar, itlar, yirtqich hayvonlar, ilonlar va turli belgilar aks ettirilgan suratlar topilgan. Suratlardagi guruhiy sahnalar yanada rang- barangdir. Mohiyatiga ko‘ra, ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Oddiy kompozitsiyali suratlarda tuya va otlarni yetaklab borayotgan odamlar, chavondozlar, kamonchilar aks ettirilgan. Murakkab kompozitsiyali suratlarda ov jarayoni, karvon, aravalar yurishi, raqs va hokazo sahnalarni ko‘rish mumkin.

Ushbu suratlarda xo‘jalik-maishiy turmush va marosimlar bilan bog‘liq sahnalar ham ko‘p uchraydi. Mazkur san’at namunalari o‘zida mazkur tog‘larga xos bo‘lgan hayvonot dunyosi deyarli to‘liq aks ettirilganligi bilan diqqatni tortadi. Qiziq jihati shundaki, bu yerda asosan, Osiyo va Yevropaning baland tog‘li hududlariga xos bo‘lgan yulduzlarga oid timsollar ham ko‘p uchraydi.

**Xulosa**: Umuman olganda Toshkent vohasi tarixi juda qadimiy va boy tarixga egaligi koʻpgina arxeolog olimlar tamonida qayd etilgan jumladan, Toshkent vohasi hududidan topilgan arxeologik topilmalar ibtidoiy odamlar paleolit davrining dastlabki davlardayoq boshlanganidan dalolat beradi. Toshkent vohasi hududi iqlimi moʻtadil boʻlgan, tabiati juda goʻzal boʻlib yavoiy hayvonlarni yashashi koʻpayishi uchun juda qulay sharoit boʻlganligi bois turli xil sut-emizuvchilar, qushlarni yashash manziliga aylangan. Tarixiy manzilgohlardan topilgan arxeologik topilmalar voha tarixini yanada chuqurroq oʻrganishni, turli davlarda yashagan insonlarni hayoti bilan tanishish va yosh avlodga yetkazib berish dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.

2. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар.(2016) Тошкент шаҳри Т: UZBEKISTON TODAY, 9-б.

3. Эшмирзаева З. А. Шош ва Илоқ йўлларида. Тошкент вилояти зиёратгоҳлари ва қадамжолари. – Т.: Press Oltin Meros, 2020. – Б. 8.

4. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древных городов Ташкентского оазиса.Т.: 1975.-С.13.

5. Буряков Ю Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области. – Т.: Фан, 1973. – С. 20.

6. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / Под. ред. А. А. Семенова., Д. Г. Вороновского. – Т.: Изд. Ан УзССР. – 1963. Т.VI. – С. 34–36

7. Бундан кейин «СВР»); Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История / Сост. Д. Ю. Юсупова., Р. П. Джалилова. – Т.: Фан, 1998 (Бундан кейин «СВР. История»). – Т.: Фан, 1998. – С. 212–214; 8. Стори Ч. А. Персидская литература / Пер. с. англ. перераб. и дополн. Ю. Э. Брегель (Бундан кейин «Стори Ч.А.»). – М.:, Наука, 1972, Ч.2. – С. 1199–2000; Ўринбоев А. Тошкандий Тошкент зилзиласи ҳақида // Фан ва турмуш. – 1966. – №6. – Б. 5; Ўша муаллиф. Тошкент солномаси // Гулистон. – 1982. – №3. – Б. 9. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбашунослиги. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – Б. 44. 5 Тарихи жадида. – 972а, 973а, 97 6аб ва кейинги варақлар.

***Oybek Rashidov***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*
*tarix fanlari doktori (DSc), professor*

## JADIDLAR ILMIY MEROSINI TADQIQ ETISH VA MILLIY O‘ZLIK

O‘zbekistonda sovet boshqaruvi davrida yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunoslar, san’atkorlar, olimlar va boshqa ziyolilar o‘zlarining ijodlari orqali proletariat mafkurasiga xizmat qilishlari belgilangan. Proletariat mafkurasi negizida asrlar davomida yaratilgan milliy meros tamomila o‘z o‘rnini sotsialistik madaniyatga bo‘shatib berishni ko‘zda tutar edi. Sovet davrida o‘tmishda yaratilgan va o‘zbek xalqining ma’naviy xazinasiga aylangan nodir asarlarni o‘rganish eski davrga qaytish sifatida qaralib, ularning mualliflari esa eski ziyolilar yoki yot fikrlovchilar deb ataldi. Shu jumladan, jadidlar va ularning ilmiy merosi ham bolsheviklarning tanqid nishoniga aylandi.

Taraqqiyparvar ajdodlarning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XIX asr oxiri - XX asrning birinchi choragida jadidlar tomonidan barpo etilgan milliy davlatchilik asoslarining konseptual xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagilar tadqiqotning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- jadidlarning dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy nuqtai nazardan ilmiy baho berish;

- o‘lkada milliy madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan harakat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda ushbu madaniyatni g‘arb madaniyati bilan uyg‘unlashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad qanday xarakterga ega bo‘lganligini ob’ektiv xulosalar asosida ochib berish;

- jadid ma’rifatparvarlik harakatining mohiyatini ochib berish orqali mustaqil Turkiston davlatini idora qilishga qaratilgan g‘oyalar negizida ilg‘or Evropa mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy tizimining maqbul jihatlariga tayangan milliy ziyolilarning huquqiy-demokratik jamiyatni barpo etish yo‘lidagi faoliyatini tahlil qilish;

- Yangi O‘zbekiston va uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi, yoshlarda boy o‘tmishimizga nisbatan g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirish bilan

bog‘liq masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan tarixiy aspektda tadqiq etishdan iborat.

Jadid (arabcha “jadid”-yangi)-yangilanish, yangi ma’nolarini anglatib, zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo‘llari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy musulmon o‘lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo‘yi-Bulg‘or va Janubiy Ural havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muxitida vujudga kelgan. U o‘sha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik xarakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustakillik mafkurasi vazifasini bajardi.

O‘sha davrda musulmonlar, qolaversa, turkiylar dunyosining jahon taraqqiyotidan uzilib qolganligini, buni g‘oyat hafvli holga barham berish kerakligini hamda umumturkiy qavm, el-yurtlaridagi jaholatni yo‘q qilib, ma’rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlariga tenglashish zarurligini birinchi bo‘lib qrim-tatar halqi farzandi Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914 yy) tushunib etdi.

Turkiy xalqlarda uzoq o‘tmishdan toki shu kungacha hamjihatlikda, tinch-totuv yashab, ozod va qudratli davlat tuzish g‘oyasi ustuvorlik qilib keldi. CHor Rossiyasi tomonidan xonliklarning birin-ketin bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishining asosiy sababi o‘zaro ichki kelishmovchiliklardan iborat bo‘ldi. Oktyabr to‘ntarishidan keyin o‘lkaning ilg‘or ziyolilari, milliy kadrlari Turkistonning yaxlitligini saqlab qolish va uning ozodligini qaror toptirish uchun jiddiy kurashga kirdilar. Jadidchilik harakati asoschisi Ismoilbek Gasparali turkiy xalqlarning tarixiy vatanlari haqida shunday degan edi: “Biz – turkiy xalqlar qadim-qadimdan Marmar dengizidan Xitoy devorigacha yoyilgan yirik bir tarixiy-etnografik birlik o‘laroq yashab keldik va xuddi shunday yashamog‘imiz kerakdir”[1].

XIX asr oxirlarida jadidchilik harakati Ismoil Gaspirinskiy g‘oyaviy rahnamoligida Turkiston o‘lkasiga yoyildi. O‘lkada jadidchilik harakati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yuq, albatta. Uning vujudga kelishi uchun ma’lum muayyan ob’ektiv sharoit va sabablar mavjud edi. Jadidchilik harakati, avvalo, siyosiy oqim sifatida vujudga keldi. Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman imperatorga yozgan maktublarining birida istilo O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyatini, ijtimoiy taraqqiyotini uch yuz yilcha orqaga surib yuborganligini qayd etadi. SHubhasiz, inqilobdan avval masjid, maktab, madrasalarda o‘qishlar chegaralangan, arab, fors-tojik va turkiy xalqlarning noyob qo‘lyozmalari chor ma’muriyati tomonidan yo‘q

qilingan va olib ketilgan. Inqilobdan keyin Stalinning qirg‘inbarot davrida esa ma’rifatparvarlar bilan birga eski kitoblar ham yo‘q qilingandi. Istilo siyosati oqibatida Turkistonliklarni milliy ezish va ijtimoiy hayotning oyoqosti qilinishi ularning milliy ongini kuchayishiga olib keldi. Istilodan so‘ng rusparvarlik siyosatiga qarama-qarshi o‘laroq millatparvarlik siyosati maydonga chiqdi. Natijada CHor Rossiyasi davrida turkiy, islomiy madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan milliy harakat tobora kuchayib borayotgan rus madaniyati ta’siriga qarshilik ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan Turkiston jadidchilik harakatiga aylandi [2].

Turkistondagi jadidchilik harakati tom ma’noda rus hukmdorligi yoki madaniyatini qabul qilish uchun emas, balki rus bosqinchilariga qarshi kurashda milliy ruhni yangilash, mamlakatni zamonaviylashtirish va G‘arb mamlakatlaridagi kabi mustaqil davlat barpo etish uchun yuzaga kelgan harakatdir. SHu boisdan jadidlarning faoliyati Turkistonning barcha hududlarida namoyon bo‘la boshladi. XIX asrning o‘rtalari va XX asrning boshida jamiyatda yangilanish zarurati tug‘ildi. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy muammolar paydo buldi. Ularni hal etish uchun bel bog‘lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida “jadidlar” deb tan olindi. SHunday qilib, XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda “jadidchilik” yoki “milliy uyg‘onish davri” boshlandi. Professor Begali Qosimov bu davr xususiyatlarini tadqiq etib, shunday xulosaga kelgan edi: “Turkistonni savodli va ma’rifatli, to‘q va farovon, ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo‘lish jadidchilik harakatining asosiy maqsad-vazifasini tashkil qilar edi” [3].

Ozodlik va mustaqillikka feodal qoloqlik, jaholatdan qutulgandagina erishish mumkin bo‘lgan. Buning uchun jamiyatdagi mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim bo‘lib, buni amalga oshiruvchilar qotib qolgan, daqqi kuchlarga, ya’ni «qadim» (eski)larga qarshi turuvchi «jadid» (yangi)lar sifatida maydonga keldi. SHu bois jadidlar Misrda ham, Turkiyada ham, Turkistonda ham siyosiy oqim sifatida paydo bo‘ldi. Qayd etish kerakki, ularning shakllanganlik, taraqqiy topganlik darajasi bir xil emasdi. Rossiya tomonidan bosib olingan o‘lkalarda ham XIX asr oxiriga kelib paydo bo‘lgan milliy ozodlik harakatlari oxir-oqibatda jadidlarni tarix sahnasiga chiqardi. Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg‘otish,

millatning o‘zligini anglab etishuviga erishish lozim edi. Qulning qul ekanligini anglab, ozodlikka chiqishi uchun unda o‘z ahvoliga ongli nazar tashlash qobiliyatini hosil etish talab qilinardi [4].

Ma’lumki, jadidchilik harakati o‘z tarixi davomida ikki bosqichni bosib o‘tdi. 1917 yildan keyin Turkiston jadidlari bolsheviklar diktaturasi sharoitida ishlashga majbur bo‘lishgan. Kommunistlar esa 1918 yil fevralida Turkiston muxtoriyatini qurol kuchi bilan tugatganlaridan keyin maktab va maorif tizimiga rahbarlik qilishni o‘z qo‘llariga olishdi. SHunday sharoitda jadidlar oldida turgan asosiy vazifa kelajakda fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan siyosatga qarshi kurashish, navqiron avlodda til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, milliy urf-odatlar va san’at turlarini saqlab qolish va mustaqillikka erishish g‘oyalarini yoshlar shuuriga singdirish edi [5].

Bolsheviklar tomonidan jadid adabiyoti feodalizm qoldig‘i sifatida baholandi. Jadidlar maktablarida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jabhalarda kurashuvchilar tayyorlab chiqarishda, ushbu adabiyotning o‘rni katta bo‘lganligi keltirilgan. “Madrasa adabiyoti”ning mavqeini olish va unga zarba berish maqsadi bo‘lgan “jadidlar adabiyoti” Oktyabr inqilobi arafasida har jihatdan o‘zini o‘nglab olganligi qayd etiladi. SHuningdek, jadid adabiyoti chuqur ma’noli asarlar maydonga chiqara olmaganligi, milliy sarmoyadorlarning mafkuralarini tarqatishga katta tashviqotchi bo‘lib ishlaganligi hamda mazmun va shakl jihatdan usmonli va tatar adabiyotining izidan ketishga uringanligi ta’kidlangan [6].

Jadidchilik yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldi. Uyqudagi SHarqni uyg‘onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g‘urur, o‘z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta’limoti o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. CHunki u ilg‘or fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo‘ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib etilgan ijtimoiy vazifalarni evolyusion-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o‘zgartirishlarni, mustamlaka tuzumini tubdan yo‘qotishning maksimal darajada samarali yo‘llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning konseptual g‘oyalari hozirgi o‘zgarishlar amaliyotining ma’naviy darakchisi, bugungi kundagi

strategiya va keng qamrovli islohotlar jarayonining genetik asosi bo‘lib xizmat qildi [7].

Jadidlar milliy til, matbuot, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish orqali jamiyatda erkin fikr va milliy uyg‘onish g‘oyalarini shakllantirishni maqsad qilgan edilar. Ular millatning turli qatlamlari orasida bilim va ma’rifatni tarqatish orqali umumiy milliy g‘oyani shakllantirishga harakat qilgan. Bu esa, o‘z navbatida, ularning mustaqillikka bo‘lgan intilishlarini kuchaytirdi.

Yangi O‘zbekistonda yangicha dunyoqarashning shakllanishida, millatning milliy o‘zligini anglashida ma’naviy va madaniy merosimizning, milliy qadriyatlarimizning o‘rni va rolini yana bir bora yosh avlod orasida keng yoyish va targ‘ib qilish muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. SHu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid CHo‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar”[8].

Turkistonda jadidlik harakatining oqibatlari o‘ta fojiali bo‘ldi. Jadidlarning o‘zi qatag‘onga uchradi va yo‘q qilindi. Jadidchilik harakatiga bolsheviklar tomonidan barham berildi. CHunki ushbu harakatning tub mohiyatida jamiyatni mustamlakachilik asoratidan olib chiqish va milliy davlat qurilishi konsepsiyasi ilgari surilgan bo‘lib, bu sovet tuzumiga va uning qulashiga tahdid solayotgan edi. O‘zining fojiali yakuniga qaramasdan, jadidlar tomonidan asos solingan milliy ozodlik harakati, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga ko‘mak berdi hamda milliy ozodlik g‘oyalarining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o‘ynadi.

Xullas, jadidchilik g‘oyalarining faol targ‘ibotchisi bo‘lgan ziyolilar o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishi yo‘lida jiddiy kurashgan edilar. Ularning asarlari va matbuotda e’lon qilgan maqolalari bolsheviklar tomonidan

muttasil tanqid qilib turildi. Bolsheviklarning milliy ziyolilarga qarshi qaratilgan har qanday urinishlari ularni ona Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashidan qaytara olmadi. YOzuvchilar, ziyolilar, adabiyotshunoslar milliy mafkuraning proletariat mafkurasi bilan o‘zgartirilishiga qarshi turdilar va bu yo‘lda sezilarli ishlarni amalga oshirdilar. Sovet adabiyoti o‘zidan ilgarigi “feodal-klerikal” deb atalgan va milliy burjaziyaga borib taqalishi aytilgan jadid adabiyotidan o‘zining g‘oyaviy jihatdan ustun ekanligini ko‘rsatishga harakat qildi. Jadid adibiyoti namoyandalari garchi jamiyatni o‘zgartirish tarafdori bo‘lgan bo‘lsalar-da, ular mavjud ijtimoiy tuzumning tub mohiyatini to‘g‘ri anglamaslikda hamda ekspluatatsiyani saqlab qolishni ko‘zda tutayotganlikda ayblandi.

**Adabiyotlar ro‘yxati.**

1 Қосимов Б. Исмоилбек Гаспарали: (Таништириш йўлидаги бир тажриба). – Тошкент: “Ғафур Ғулом”,1992. –Б.5.

2. G‘oyibova SH. O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy - falsafiy qarashlari. 09.00.03 - Falsafa tarixi. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 1996. –B.37.

3. Қосимов Б. Жадидчилик, — Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. –Тошкент, 1993. –Б. 21- 22.

4. Дустқораев Б. Туркистон жадидларининг йирик сиймоси. “Жаҳон адабиёти” журнали, 1998, 3-сон, 146-бет.

5. Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2002. –Б. 176.

6. O‘zbek adabiyotining oktabr inqilobidan so‘ngi davriga bir qarash // “Alanga” jurnali. 1928 yil iyul-avgust. 10-11-son. 3-bet.

7. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Тошкент: “Университет”, 1999. –Б.42.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2020 yil 1 oktyabr, № 207 (7709) soni.

***Yolg'oshov Ravshanbek Otabek o'g'li***
*ChDPU Tarix yo'nalishi talabasi*

## ALIQULI AMIRILASHKARNING TOSHKENT MUDOFASIGA QO'SHGAN HISSASI

***Annotatsiya:*** *Bu maqolada Rossiya Imperyasini O'rta Osiyoga qilgan yurishlari va o'sha hududlarni elalashi. Keyinchalik Toshkentga yurishi va unda Toshkent mudofasi ruslarga qarshi qanday qarshilik qilganliklari va Aliqulini Toshkent mudofasiga qo'shgan hissasi ruslarga qarshi olib brogan janglari haqida keng doirada malumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Rossiya, Toshkent, Sirdaryo, Aliquli, O'rta Osiyo, Qo'qon, Buxoro, Xiva, Qozog'iston, Oqmasjid.*

Rossiya imperiyasining Qo`qon xonligiga yurishlari boshlanishi arafasida Qo'qon hukmdori Sulton Sayidxon va lashkarboshi Alimqul yurt barqarorligini ta'minlash uchun ayrim choralami amalga oshirishga urinishdi. Bu jihatdan xonning qozoq biylariga yoilagan murojaatnomasi diqqatga sazovordir. Unda xususan bunday deyilgan: «Xudoyi taologa shukrlar boisinki, shariat qonunlari asosida tinch-farovon hayotga erishdik. Endilikda 92 qavnr birlashib bir xalqni tashkil etdi. Shu ravishda bizning sodiq fuqarolarimiz tinchlandi, tarafdorlarimiz uzoq-yaqin joylardan kelishib, bizning xursandchiligimiz va marhamatimizdan bahramand boimoqdalar. Sizlar ham dinimiz va ona-yurt hurmati yuzasidan huzurimizga tashrif buyurishingizni hamda oliy iltifotimizga musharraf boiishingizni soiaym iz». Alimqulning buyrugiga k o ia , Nurmuhammad qushbegi Avliyo otaga borib Talas daryosining yuqori oqimida istiqomat qilib turuvchi qirgizlarning sardorlarini y ig ib ular bilan suhbatlashdi. U tashqi dushmanga qarshi kurashda ulami hamkor boiishga undab, Katta va 0 'rta juz qozoqlarini ham shu ittifoqqa tortish zarurligini uqtirdi. Alimqulning bunday siyosati ms amaldorlarini tashvishga soldi. Ular o'z tasarmflaridagi qirgiz mulklari sardorlari bilan uchrashib, ularning Qo'qon xonligi tarafiga ko'chib o'tmasliklarini alohida buyurdilar. Toshkent mudofaasi va Aliquli Amirulashkari jasorati O'rta Osiyoda mustaqillik uchun kechgan mardonavor kurash lavhasi. XIX asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda imperiya Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatini anglab, bosib olish harakatlarini jadallashtirgan edi. Ayniqsa, Toshkent shahri o'zining strategik joylashuvi

va iqtisodiy salohiyati bilan Rossiyaning diqqat markazida bo‘ldi. 1865-yilgi Toshkentga yurish va uning mudofaasi bu davrning eng muhim sahifalaridan biri hisoblanadi.

Toshkent sari yo‘l Rossiya imperiyasi 1864-yilning oxirida general Mixail Grigoryevich Chernyayev boshchiligida Toshkentga qarab yurish boshladi. Dastlabki bosqichlarda Chimkent va Turkiston shaharlari bosib olindi. Keyin esa navbat Toshkentga keldi. 1865-yil bahorida rus qo‘shinlari shaharga yaqinlashdi. Ularga zamonaviy to‘plar, o‘qotar qurollar va harbiy tayyorgarlik jihatdan ustunlik berib turardi.

Aliquli Amirulashkari – mudofaaning bosh qahramoni Toshkentni bosib olish rejalariga qarshi Qo‘qon xonligi shaharni himoya qilish uchun o‘zining harbiy boshlig‘i – Aliquli Amirulashkarini yubordi. U malakali sarkarda, qat’iyatli va vatanparvar shaxs sifatida xalq orasida katta obro‘ga ega edi. U Toshkent devorlarini mustahkamlash, qo‘shinlarni safarbar qilish, xalqni jangga tayyorlash ishlarini olib bordi. Shiddatli janglar va qamal 1865-yil iyun oyida Chernyayev Toshkentni qamal qildi. Shaharning asosiy darvozalari oldida qattiq janglar bo‘ldi. Rus qo‘shinlari bir necha bor hujum qilgan bo‘lsada, Aliquli boshchiligidagi himoyachilar bu hujumlarni qaytarishga muvaffaq bo‘lishdi.

Shahar ahli ham bu kurashda faol ishtirok etdi – ayollar va qariyalar ham tosh, suv va boshqa vositalar bilan mudofaga hissa qo‘shgan.

Xiyonat va halokatli yakun Afsuski, shahar ichida birlik yo‘q edi. Ba’zi boylar, amaldorlar va mulkdorlar ruslar bilan yashirin kelishuvlarga borib, mudofani ichkaridan yemira boshladi. 28-iyun kuni ertalab rus qo‘shinlari poytaxt darvozalaridan biri orqali shaharga kirib keldi. Ko‘cha-ko‘cha bo‘lib qattiq janglar davom etdi.

Aliquli Amirulashkari jang maydonini tark etmadi. U qahramonlarcha kurashdi, lekin jang vaqtida halok bo‘ldi. Uning o‘limi bilan Toshkent mudofaasi tugadi. Natija va tarixiy ahamiyat Toshkentning bosib olinishi Rossiya imperiyasi uchun O‘rta Osiyoda katta strategik yutuq bo‘ldi. Shahar 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirildi.

Ammo bu tarixiy sahifada Aliquli Amirulashkari va Toshkent mudofachilarining mardlik, jasorat va Vatanga sadoqat bilan kurashgani asrlar osha hurmat bilan yod etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "O‘zbekiston tarixi" (akademik nashr), 3-jild – Ushbu jildda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi harbiy yurishlari, xususan, Toshkentning egallanishi haqida batafsil ma’lumotlar mavjud.
2. Bartold V.V. – "Turkiston tarixi" – Mashhur sharqshunos olim tomonidan yozilgan ushbu asarda Toshkent va butun Turkistonning Rossiya tomonidan egallanishi tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.
3. Abdurauf Fitrat – "Tarihi muxtasari Islam" – Fitrat asarlarida o‘sha davrdagi siyosiy o‘zgarishlar va Toshkentdagi ijtimoiy hayot aks ettirilgan.
4. S.G. Glinka – "Opisanie zavoevaniya Tashkenta" (Toshkentning bosib olinishi tavsifi) – Ushbu rus tilidagi manba Toshkentni zabt etish jarayonini bevosita guvoh sifatida tasvirlaydi.
5. M. Saidov – "Toshkent tarixidan lavhalar" – Toshkentning qadimiy davridan tortib Rossiya imperiyasi tomonidan egallanishigacha bo‘lgan davrga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.
6. A. A. Semyonov – "Zavoevaniye Sredney Azii i borba narodov protiv kolonializma" – Bu asarda Rossiyaning Markaziy Osiyoni bosib olishi va mahalliy aholi qarshiligi haqida ma’lumot beriladi, shu jumladan Toshkentdagi voqealar ham yoritilgan.

**Norboyev Sarvar Qahramon o’g’li**
Toshkent Davlat Texnika Universiteti 3-kurs doktoranti

## TURLI MANBALARDA QADIMGI SUG‘DGA DOIR MA‘LUMOTLAR

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Qadimgi O‘rta Osiyo hududidagi tarixiy-madaniy viloyatlardan biri Sug’d tarixi, aholisi va moddiy madaniyatini yozma manbalardagi bayoni tahlil qilingan. Turli yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar doirasida Qadimgi Sug’d aholisining hududiy chegaralari va xalqaro savdo, iqtisodiy munosabatlardagi faol ishtiroki, qo’shni mamlakatlar bilan o’zaro munosabatlari, va bu hududning turli manbalarda turlicha nomlanganligi, O’rta Osiyodagi ilk davlat birlashmalari paydo bo’lganda Sug’dning o’rni alohida qayd etib o’tilgan.*

***Kalit so‘zlar****: Sug’d, Avesto, Behustun yozuvlari, yunon-rim tarixchilari asarlari, xitoy manbalari, qadimgi bitiklar.*

Ilk davlat uyushmalari taxminan mil. av. IV–III ming yilliklarda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoyda vujudga kelgan. Mazkur

davlatlarda muqaddaslashtirilgan hukmdor shaxsi davlatni jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi siymo bo‘lib, u ilohlar va fuqaro orasida “vositachi” hisoblangan hamda o‘zining xarizma xususiyati bilan jamiyat barqarorligi hamda ravnaq topishini ta’minlagan [1, 14]. Qadimgi Sharqdan farqli ravishda O‘rta Osiyo hududida ilk davlatchilik alomatlari bronza davrida aholining mulkiy tengsizligiga asoslangan munosabatlar negizida vujudga kelgan. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va jamiyatning taraqqiy etishi natijasida Markaziy Osiyoda shaharlar rivojlandi hamda o‘troq vohalarda kengayib, voha-davlatlari vujudga keldi.

Bu davrning yana bir muhim xususiyati O‘rta Osiyo xududida bir qancha tarixiy-madaniy viloyatlar shakllanib, ularning ayrimlari yirik davlatlar uyushmalariga birlashadilar [2, 35]. Shunday yirik tarixiy-madaniy viloyatlardan biri Sug‘d (So‘g‘diyona) edi. Ma‘lumki, Sug‘d miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida O‘rta Osiyoda shakllana boshlagan ilk davlatlar (“shahar – davlat”, “voha davlati”) dan biri sifatida qadimiy eroniy bitiklarda Suguda, yunon manbalarida Sogdiana shaklida tilga olinadi.

“Sug‘d” atamasi uzoq vaqt davomida turli tilli manbalarda uchrab kelgan. V.Tomashek bu so‘zni umumeroniy tillardan kelib chiqib, “porlamoq”, “yonmoq”, “yarqiramoq” (tojik tilidagi “suxtan” – “yonmoq” so‘zining negizini tashkil etadi) deb izohlaydi. Forsiy yoki tojik tillari lug‘atida esa bu atama – “suv to‘planadigan pasttekislik” ma’nosini beradi. Sug‘d qadimgi yozma manbalarda Sugda yoki Suguda (qadimgi forsiy), Sugda va Suxda (“Avesto”), šu-ug-da (elam), su-ug-du (akkad) tarzida qayd etilgan. “Avesto” kitobida Gava o‘lkasida sug‘diylar yashaydi” deb keltiriladi. Antik davr manbalarida ham Sogdiane o‘lkasi (Sug‘d) va sogdianoi axli (sug‘diy) haqida tafsilotlar keltirilib, A.Otaxo‘jayev o‘z tadqiqotida R.Frayga suyangan xolda, sug‘diylarning bu hududga joylashuv tarixi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi va I ming yillik boshlari deb keltiradi [3, 64].

Sug‘d to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlat Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da, shuningdek yunon va rim tarixchilarining asarlarida turli nomlar bilan tilga olinadi. Sug‘d tarixi bevosita bizni mintaqamizga bostirib kelgan, Ahamoniylar sulolasi vakillari, Makedoniyalik Aleksandr va uning vorislari tomonidan amalga oshirilgan siyosatida muhim rol o‘ynaganlar. Xususan mil avv 540-yilda

Ahamoniylar hukmdori Kir II tomonidan Sug‘diyona bosib olinib, bu hududda shaharga asos soladi, keyinchalik bu shaharni o‘zining sharafiga Kiropolis, bu shahar Kurushkat (sog. Kuru(š)-kankhā- 'Kir shahri, Kyra Eschata) deb nom berdi.

Sug‘diyona Ahamoniylar imperiyasining shimoli-sharqiy chegaralarini tashkil etgan, bu shaharning xarobalari hozirgi kunda Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahri yaqinida joylashgan. Sug‘d atamasi Ahamoniylar hukmdorlar qoldirgan mixxat yozuvlar, xususan Behistun yozuvlarida boshqa davlatlar qatori Sug‘diyona ham eslatib o‘tiladi. “Podsho Doro ayturki: Ahuramazdaning xohishi bilan men quyidagi davlatlarga ega bo‘ldim va ularga podsholik qildim: Fors, Elam, Sug‘diyona [4, 93]”

Yunon-rim tarixchilaridan O‘zbekistonning qadimgi xalqlari haqida dastlabki ma’lumotlar bergan muarrix Gerodot (mill avv Vasr) bo’lib, u “Tarix” asarida boshqa xalqlar qatori sug‘diylar va Sug‘d haqida ham eslatib o‘tadi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra Sug‘diyona ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan bo‘lib, parfiyaliklar, xorasmiylar va oriylar bilan birgalikda XVI o‘lka-satrapiyani tashkil etgan.

Ahamoniylar sulolasi hozirgi Markaziy Osiyoning katta qismini bosib olgandan keyin, bu yerda o‘zlarining boshqaruv tizmini o‘rnatdi, ya’ni bu hududlarni satraplik (viloyat) larga bo‘lib boshqargan. Har bir satraplik aholisi soliq to‘lashdan tashqari, majburiy harbiy xizmatga chaqirilgan va turli hududlardagi garnizonlarda xizmat qilishgan. Ahamoniylar sulolasining so‘nggi hukmdori Doro III (336-330- yillar) da yunon-makedonlar bilan bo‘lgan oxirgi 3 ta kata jangda mag‘lub bo‘ldi va sharqqa tomon siljiy boshlagan, mil avv 331-yilda Gaugameliya (hozirgi Iroq Kurdistonidagi Duxok yaqini)da ahamoniylar mag‘lubiyatga uchraydi [5, 7]. Bu g‘alabadan so‘ng Aleksandr o‘z yurishlarini sharqqa tomon boshlaydi, bu yerda u katta qarshilikka uchraydi. Qadimgi Sug‘diyona tarixi, madaniyati, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida ma’lumotlar beruvchi yozma manbalar haqida gap ketar ekan yunon-rim mualliflarining asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aleksandning rejasiga ko‘ra, uning “g‘alabali yurishlar” tarixchi va yozuvchilar tomonidan yozib olinishi ko‘zda tutgan holda bir qancha tarixchilarni bu yurishlarga olib boradi, tarixchilar ichida Aristobul, Ptolemey, Sitseron bo‘lib, ular bizga qadimgi tariximizni o‘rganishimizda muhim ma‘lumotlarni yozib qoldirgan [6, 36]. Aleksandrning sharqqa

yurishlari haqida Arrian (milodiy II asr), Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr) kabi tarixchi olimlar ham muhim ma‘lumotlar yozib qoldirishgan. Bizgacha yetib kelgan asarlar orasida ayniqsa Arrianning “Aleksandr anabasisi” (Aleksandrning harbiy yurishlari) asari bo‘lib, bu asar 7 kitobdan iborat bo‘lib, unda Aleksandrning shaxsiy maktublari, saroyda saqlanayotgan kundaliklari, yurish qatnashchilari va boshqa qimmatli ma’lumotlar yozilgan.

Arrian o‘z asarida Aleksandrning Sug‘diyonaga qilgan yurishlari bilan bog‘liq ko‘pgina voqealar, shaharlar, qal’alar haqida eslatib o‘tadi. Bu asarda jumladan, Sug‘diyonaning poytaxti Maroqanda, Aleksandrga Sug‘ddagi tog‘li o‘lkada qattiq qarshilik ko‘rsatilganligi, Spitamenning qo‘zg‘olon ko‘targanligi, “Sug‘d qoyasi” hamda ko‘plab boshqa ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Kvint Kursiy Ruf Sug‘diyona haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tgan bu hududning shimolidagi Ksenippa viloyati bo‘lib, “Bu viloyat Skifiya chegarasida joylashgan va unda ko‘p aholli qishloqlar, hosildor yerlar borki, ular nafaqat tub aholini, balki, chetdan kelgan kishilarning ham diqqatini jalb etadi”.

Avestoda viloyatning nomi ikki xilda ko‘rsatilgan- Gava Sug‘da va alohida Sug‘da. Gerodot esa sug‘diylarni ikki marotaba, -Ahamoniylar davlatining XVI satrap-o‘lkasidagi xalqlarni sanab o‘tganda (Gerodot III, 93) va forslarning qo‘shinlari safida jangchi-sug‘diylarning o‘rnini ko‘rsatib berganda tilga olgan. Ammo, tarixchi Sug‘d shaharlari, daryolari, tog‘lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday ma’lumot qoldirmagan.

Makedoniyalik Aleksandr davri va so‘nggi yunon-rim tarixshunoslari asarlarida Sug‘dga tegishli ma’lumotlar keng yoritilib berilgan. Xususan, Sug‘diyonadagi alohida joylar, viloyatlar, qal’alar-Nautaka, Ksenippa, Maroqanda, Basileya - “Podsho shahri”, Politemet-Zarafshon, “Oksiart, Sug‘d qoyasi” va boshqa ma’lumotlarni keltirilib o’tilgan.

Bu davr haqida ma’lumotlarni shuningdek Strabonning “Geografiya” nomli asarida uchratishimiz mumkin. Strabon yurtimiz qadimgi shaharlari haqida quyidagilarni yozib o’tgan: “Aytishlariga ko‘ra, Aleksandr Baqtriya va Sug‘diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko‘plarini vayron qilgan. Vayron qilganlari jumlasidan Baqtriyadagi Kariata (bu yerda Kallisfen qo‘lga tushib qamoqqa olingan), Sug‘diyonadagi Marokanda va Kira-Yaksart daryosidagi Kir tomonidan

qurilgan oxirgi shahar bu fors davlatining chekkasi bo‘lgan. “Sug‘diyona ichidan oqayotgan daryoni Aristobulning aytishicha, makedonlar Politimet deb atashgan. Oriylar yeridan oqayotgan Ariy daryosiga o‘xshab bu daryo ham mamlakat yerlarini sug‘orib, dasht va cho‘l hududlargacha yetib borgan”.

Qadimgi Xitoy bilan qo‘shni yoki nisbatan yaqin masofada joylashgan hamda u bilan turli munosabatlar doirasida bo‘lgan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti xususida xitoy yilnomalaridan yetib kelgan ma’lumotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, xitoy yilnomalarining sug‘diylar, Sug‘d o‘lkasi haqidagi xabarlari ham shunday qimmatga ega. Xitoy manbalarini o‘rgangan mutaxassislarning fikriga ko‘ra, xitoy yilnomalarida Sug‘d tarkibiga kirgan hududlar turli nomlar bilan tilga olinib alohida iyeroglif sifatida yozilganligini aniqlashgan. Xususan, Samarqand (Kan), Buxoro (An, Ansi), Kesh/Shaxrisabz (Shi, Shi), Nasaf/Karshi (Nashebo, Nashebolo), Maymurg‘(Mi), Ishtixon (Sao/Kushoniya (Xe) hukmdorliklarining geografik joylashuvi tabiati, aholisi, ularning iqtisodiy va siyosiy hayoti hamda madaniy maishiy turmushining ayrim qirralari haqida so‘z yuritiladi [7, 77].

Xitoyliklar milodning boshlarida va ilk o‘rta asrlarda o‘z davlatlarining ma’muriy bo‘linishini o‘rganish ehtiyoji tufayli unga chegaradosh bo‘lgan hududlarni xaritalarga tushirganlar. Bu esa Sug‘d tarixining yilnomalarda aks etishiga sabab bo’lgan. Xitoy manbalarining aksariyati Sug‘d muhitidan tashqarida yozilgan bo‘lsa-da, muammoga doir boshqa turkum manbalarga (sug‘diy hujjatlarni hisobga olmaganda-G‘oyibov B) nisbatan ma’lumotlarning izchilligi va boyligi bilan ahamiyatlidir. Buning sababini Xitoyning G‘arbdagi xalqlar bilan aloqa qilishga bo‘lgan azaliy intilishlari bilan ham izohlash mumkin [8, 17].

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Sug‘d hududi hozirgi kunda ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Buning asosiy sababi deb Sug‘d haqida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar turli yozma manbalarda turlicha tus olganligini ko‘rsatishimiz mumkin. Qolaversa Sug‘d hududini o‘rganish bizga ilk davlatchilik masalalariga yondashuvga ham olib keladi va buni yosh avlod tushunib yetishi mamlakatimizni qadimgi davr tarixini yoritishga bo‘lgan qiziqishi orqali biz madaniy merosni asrab avaylaymiz. Chunki, bu madaniy meroslar bizni buyuk o‘tmishimizdan saboq beradi.

**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми: тарих фанлари доктори автореферати. – Тошкент: 2012. – Б. 14; Крадин Н.Н. Кочевые империи: генезис, расцвет, упадок // Восток. – М.: 2001. – № 3. – С. 21-32.

2. Сагдуллаев А. С. Кадимги Ўрта Осиё тарихи. - Ташкент: Университет, 2004. - Б.35-47.

3. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиѐ цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. ... – Б. 64; Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981. – С. 347; Авесто: Видевдот китоби. М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: ТДШИ, 2007. – Б. 10; Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции. Источниковедческий анализ. – М.: ИВЛ РАН, 1997. – С. 342).

4. Дишмаев М \ Иран при nepei \ Ахеменидах., стр.93.

5. Rupert Matthew Battle of Gaugamelia article page 4-7. 2015.

6. Richard Foltz. "A history of the Tajik: Iranians of the East" book page 36-37. 2019.

7. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: тексты и исследование. - Новосибирск: 1989. - С. 77.

8. Гойибов Б. Сугд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва таназзули. Тар.ф.д. дисс. –Б.17-18 b. Samarqand: 2017.

**Homidjonov Nodir Bahodir o'g'li**
CHDPU 1-bosqich magistri.

## TOSHKENTDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING NAMOYANDALARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Toshkentdagi jadidchilik harakatlari haqida ma'lumot berilgan. Toshkent jadidchilik harakatining beqiyos markazi sifatida milliy uyg'onish, o'zlikni anglash va zamonaviylik sari intilishda tarixiy burilish nuqtasiga aylandi. Bu yerda yetishib chiqqan ma'rifatparvarlar nafaqat o'z davrining, balki bugungi O'zbekiston ma'naviyatining poydevorini yaratdilar. Ularning ilm-fanga, ta'limga, millatga, vatanparvarlikka qaratilgan xizmatlarini chuqur o'rganish va qadrlash bugungi avlodning tarixiy burchidir.*

***Kalit so'z:*** *Toshkent, Jadid, Taraqqiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Usmonxo'ja Polvonov, Turon.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dunyo bo'ylab sodir bo'layotgan o'zgarishlar ta'siri Ostona, Qozon, Boku va Istanbul singari shaharlarda bo'lgani kabi Markaziy Osiyoning yuragi – Toshkentda ham yangi fikrlar, yangi g'oyalar harakatiga sabab bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Toshkentda ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar jarayonida yuzaga kelgan jadidchilik harakati bu mintaqaning taraqqiyoti va ma'rifatparvarlik ruhida shakllanishida beqiyos o'rin tutadi. Jadidchilik harakati Sharq va G'arb g'oyalarining sintezi asosida rivojlangan bo'lib, o'z oldiga jamiyatni uyg'otish, islohotlar orqali uni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish kabi maqsadlarni qo'ygan edi. Toshkent bu harakatning muhim markazlaridan biri bo'lgan. Aynan shu davrda musulmon dunyosida yangilanish, islohot va modernizatsiyaga asoslangan jadidchilik harakati shakllandi. Toshkent esa bu harakatning nafaqat geografik markazi, balki ma'rifatparvarlik, matbuot, teatr, siyosiy ong va ta'lim islohotlarining poytaxti darajasiga ko'tarildi.

"Jadid" so'ziga keladigan bo'lsak arabcha so'z bo'lib, "yangilik", "zamonaviylik" degan ma'noni anglatadi. U XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Tatariston, Kavkaz va Boshqirdiston musulmonlarining yangi usuldagi maktablarni joriy etish harakatiga nisbatan qo'llanila boshlandi. Keyinchalik esa bu so'z butun bir madaniy-ma'rifiy harakatning umumiy nomiga aylandi.

Jadidchilar esa o'zini "yangi usul" tarafdorlari sifatida tanitganlar. Ular eski, an'anaviy maktab-ta'lim tizimining samarador emasligini ko'rsatib, yangi usulda ta'lim berishni taklif etganlar.

Jadidchilik harakatining eng muhim jihati bu – ta'lim tizimini isloh qilish edi. Jadidlar e'tiqod qilganlaridek, xalqning orqada qolishining asosiy sababi — savodsizlik va eskicha, samarasiz ta'lim tizimi edi. Shuning uchun ular eski usul maktablar o'rniga "usuli jadid" – yangi usulda o'qitish maktablarini tashkil etdilar. Yevropa pedagogikasidan o'rganilgan darsliklar, sinf tizimi, yoshga qarab ta'lim berish, interaktiv metodlarni joriy etdilar. Darslarda faqat diniy emas, balki matematika, geografiya, tibiiyot, tarix, ona tili, adabiyot, axloq kabi fanlarga ham e'tibor berdilar. Ta'lim islohoti orqali xalq ongini o'zgartirish, jamiyatni uyg'otish jadidlar uchun eng muhim maqsad edi.

Jadidlar matbuotni ijtimoiy ongni shakllantirishning asosiy vositasi deb bildilar. Birinchi marta o'zbek tilida ommaviy gazetalar — "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat", "Shuhrat", "Najot" va boshqalarni chop etdilar. Matbuot orqali xalqni dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardor qilib bordilar. Ayollar huquqlari, bolalar tarbiyasi, vatanparvarlik, ilm-fan, axloq-odob, siyosiy ong, milliy g'oya haqida maqolalar yozdilar. Matbuotni savodsizlikka qarshi "qalam bilan qilinadigan jang" deb bildilar.

Jadidlar xalqning ongini o'zgartirishda sahna san'ati va adabiyot imkoniyatlaridan keng foydalandilar. Jadid teatri orqali ayollar erkinligi, savodsizlik, zo'ravonlik, johillik, eskilikka tanqidiy munosabat bildirildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar pyesalar, romanlar, hikoyalar orqali millat taqdirini ko'rsatdilar. Ular adabiyot orqali yangi inson — zamonaviy, ma'rifatli, vatanparvar, faol shaxsni tarbiyalashni maqsad qilishdi.

Toshkent jadidchilik harakatining eng faol markazlaridan biri bo'lib, bu yerda yangi usul maktablari, gazeta-jurnallar, teatrlar va siyosiy tashkilotlar faoliyat yuritgan. Shaharda savodxonlik darajasi boshqa hududlarga qaraganda yuqori bo'lgani va Rossiya imperiyasi bilan bevosita yaqinlikda bo'lgani bois bu yerda jadidchilik tezroq shakllandi.

Toshkentda 1901-yildan boshlab Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan birinchi yangi usul maktablari ochildi. Bu maktablarda ona tili, adabiyot, arifmetika, geografiya, axloq, tarix, arab va fors tillari bilan bir qatorda rus tili o'qitilar edi. 1905–1910-yillar oralig'ida Toshkentda 10 dan ortiq, 1917-yilga kelib esa 20 dan ziyod jadid maktabi faoliyat yurita boshladi. Ular Shayxontohur, Sebzor, Qorasaroy, Yahyoobod, Kukcha va boshqa mahallalarda joylashgan edi[69].

Toshkentda jadidlar birinchi o'zbek tilidagi gazetalarni nashr etila boshlandi. Bularga misol qilib "Taraqqiy" (1906–1908) – Ismoil Gasprinskiy ta'sirida chop etilgan, "Sadoi Turkiston" – milliy uyg'onish, ta'lim, tarixiy o'zlik haqida yozgan, "Hurriyat", "Shuhrat", va boshqa gazetalarda xalqni uyg'otish maqsad qilingan.

Shu bilan birgalikda Toshkentda 1913-yilda Abdulla Avloniy boshchiligida "Turon" teatri tashkil etildi. Unda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Avloniyning "Zaharli hayot", Qodiriyning

[69] Sattorov, M. "Toshkentdagi jadid maktablarining tarixi" // O'zbekiston tarixi jurnali, 2019, №4.

“Juvonboz” kabi spektakllar sahnalashtirildi. Bu teatrlar orqali ijtimoiy adolatsizlik, xotin-qizlarning ahvoli va zamonaviylik targ’ib qilindi.

Toshkentda mashhur jadidlar xalqni ma’rifatli qilish uchun xarakat qildilar. Bularga misollar keltiradigan bo’lsak Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878–1931) U Toshkent jadidchiligini asoschilaridan biri bo’lib, “Usuli savtiya” (yangi usul) maktablarining faol tashkilotchisi va birinchi o’qituvchilaridan bo’lgan. Munavvar Qori “Tarbiyai atfol”, “Adabi muallimin”, “Tuhfai atfol” kabi darsliklar muallifi hamdir. Shuningdek, u “Shuhrat” gazetasi va “Muallimlar jamiyati” tashkiloti orqali o’z g’oyalarini tarqatgan. U 1931-yilda Sovet repressiyasi qurboni bo’ldi.

Avloniy 1878-yil 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida to‘quvchilar oilasida tug’ilgan. Avloniy shoir, pedagog, jurnalist va ijtimoiy arbob sifatida tanilgan. U “Turon” teatrining asoschilaridan biri bo’lib, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni”, “Milliy tarbiya” kabi asarlari bilan jadidchilik ta’limi rivojiga ulkan hissa qo’shgan. U ham Sovet davrida qatag’onga uchragan.

Usmonxo’ja Polvonov (1880–1937) Toshkentda siyosiy va ma’rifiy jadidlar orasida muhim o’rin tutgan. 1917–18-yillarda Turkiston Muxtoriyatining faol qo’llab-quvvatlovchisi. Matbuotda faol chiqish qilgan, o’zining vatanga, millatga fidoyiligini amalda ko’rsatgan.

Sovet hokimiyatining mustahkamlanishi bilan jadidchilik harakati taqiqlana boshlandi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda yuzlab jadidlar “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, qatl etildi yoki surgun qilindi. Shu tariqa bir davrlar Toshkentni ma’rifat va uyg’onish markaziga aylantirgan jadidlar fojiali tarzda tarix sahnasidan olib tashlandi.

Xulosa qilib aytganda Toshkentdagi jadidchilik harakati Markaziy Osiyo uyg’onish tarixining eng yorqin sahifalaridan biridir. U o’z davri uchun jasorat, ziyolilik va milliy uyg’onish ramzi bo’lib xizmat qilgan. Bugun biz ushbu harakatni o’rganish va qadrlash orqali, tarixiy xotirani tiklash, ma’rifiy yondashuvlarni yangilash va mustaqil fikrlashga yo’l ochishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ziyodov, N. O‘zbek jadidchiligi: Ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat sifatida. – Toshkent: Fan, 2000.
2. Abdullaeva, M. O‘zbek jadidlari: hayoti va faoliyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014.

3. Hojiahmadov, B. Jadidlar va istiqlol g‘oyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Tursunov, H. Jadidchilik va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
5. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish va jadid adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
6. Sattorov, M. "Toshkentdagi jadid maktablarining tarixi" // O‘zbekiston tarixi jurnali, 2019, №4.
7. Xoldorova, S. "Munavvar Qori Abdurashidxonov va yangi usul maktablari" // Ma’naviy hayot jurnali, 2021, №1.
8. Ortiqxo‘jayev, D. "Jadidchilik harakatining Toshkentdagi o‘rni va roli" // Tarix va haqiqat, 2020.
9. Yusupova, M. “Toshkent jadidlarining matbuotdagi faoliyati” // Matbuot tarixi jurnali, 2018, №3

***Nuriddinova Sanobar Obidjon qizi***
*O‘zbekiston Milliy universiteti*
*Tarix fakulteti 1-bosqich magistranti*

## XIX-XX ASRLARDA TURKISTON O‘LKASIGA YANGI PAXTA NAVLARINING JORIY ETILISHIGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining eng og‘ir mustamlakachilik jihati, ya’ni iqtisodiy manfaatlari yuzasidan paxtachilik sohasiga qaratilgan e’tibor tahlil qilingan. Shuningdek, O‘rta Osiyo hududi paxtaga ehtiyoji yuzasidan bosib olingani, iqtisodiy manfaatlar yuzasidan mustamlakachilik siyosati olib borilgani, hosildorlikni va olinadigan foydani oshirish maqsadida yangi paxta navlarini joriy qilgani, mahalliy va xorijiy paxta navlarining turlari, amerika paxta navi qancha maydonlarga ekilgani tahliliy asosda bayon qilindi.*

***Kalit so‘zlar:*** *paxtachilik, pud, desyatina, amerika paxta navi, sur’at paxta navi, “Upland”, uyezd, mustamlakachilik, Turkiston.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududi Rossiya imperiyasi uchun muhim iqtisodiy va agrar islohotlar maydoniga aylandi. Ayniqsa, paxtachilik sohasida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrda sanoatning rivojlanishi, to‘qimachilik fabrikalarining ehtiyojlari va tashqi bozordagi raqobat paxta yetishtirish hajmini oshirishni talab qilar

edi. Maqolada o‘zbek xalqining qadimiy dehqonchilik tajribasiga xorijdan keltirilgan paxta navlari kirib kelishini tahlil qilamiz.

Dastlab savdo va elchilik aloqalari orqali kirib kelgan Rossiya imperiyasi sekin-asta bosqinchilik faoliyatini ham olib boradi va xonliklarga tegishli ko‘plab hududlarni bosib oldi. 1867-yil iyul oyida Rossiya imperatori Aleksandr II ko‘pchilik komitet a’zolari fikriga asoslanib, egallangan hududlar o‘rnida Rossiya imperiyasi tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tuzish bo‘yicha qaror qabul qildi [1, 41].

O‘sha davrda XIX asr o‘rtalarida Rossiya sanoati AQShdan keladigan paxta hisobiga rivojlanar edi. 1860-1861-yillarda AQShdan keladigan paxta miqdori 6 barobarga kamaydi. Shu yillarga kelib O‘rta Osiyodan ham paxta kelishi 3 martaga qisqaradi. Bir pud (16 kg) paxtaning narxi o‘sha yili 4-5 rubldan 7,5 rublga oshadi, 1862-yil 12-13 rubl, 1864-yil 22-24 rublga ko‘tariladi. 1866-yili Moskva universiteti qoshida Moskva qishloq xo‘jalik jamiyati va tabiatshunoslik ishqibozlari jamiyatining Turkiston o‘lkasi iqtisodiy zahiralariga bag‘ishlangan qo‘shma majlisida turli sanoat va savdo vakillaridan 500 dan ortiq vakil, yirik olimlar ishtirok etadi. Unda O‘rta Osiyoning iqtisodiy ahamiyati muhokama qilinadi. Shu yillarda O‘rta Osiyoni Rossiya imperiyasining paxta bazasiga aylantirish masalasiga doir maqolalar chop etila boshladi [2, 14-15]. Shu jihatdan Rossiya imperiyasi paxta xomashyosiga ehtiyojini qoplash maqsadida O‘rta Osiyo bilan savdo qilgandan ko‘ra bu hududlarni bosib olgan holda o‘zlari paxta yetishtirishni ko‘zlashadi. Bosib olingan hududlarda amalga oshirilgan siyosat va iqtisodiy manfaatlar yuzasidan islohotlar buning yaqqol tasdig‘idir.

Jumladan, Rossiya imperiyasining Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V.Kirivoshein Turkistondagi mustamlaka siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri “paxta” ekanligini ta’kidlagani tadqiqotlarda tahlil qilinadi [3, 161].

Rossiya imperiyasi tomonidan qishloq xo‘jaligida amalga oshirgan islohotlari iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan bo‘lib, bir yoqlama – paxtachilikka ixtisoslashtirilgan edi. O‘lkada yangi paxta navlarini ekib, hosil olishga ham harakat qilishadi. 1860-yillar oxiri -1870-yillarda Turkiston o‘lkasida yangi navlar ekish rejalari tuziladi va Amerika “Uplanda” navining “Sugarloof”, “Hogan”, “Veskts Shundret seed”, “Browncs seed”, “Bonapa”, “Prout”, “Mastodon”, “Prolific”, “Multibolus” kabi o‘nlab navlari yaratildi [4, 14]. Rossiya o‘lkaga kirib kelgunga qadar

ekilgan Toshkent-Qo‘qon, Buxoro, Xiva navlari [5, 843], yana “Jaydari”, “Malla g‘o‘za”, “So‘zana” navlaridan hosil olingan bo‘lsa, XIX asr oxiriga kelib o‘lkada 12 nomda mahalliy va xorijiy paxta navlari ekiladi. 1875-yilda Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdida, 1879-yilda Farg‘ona viloyati Namangan uyezdi Chust shahri yer uchastkasida, 1872-yilda Samarqand viloyati Samarqand uyezdi va Kattaqo‘rg‘on uyezdi volostlarida Amerikaning “Cossypinum Upland” paxta navi sinovdan o‘tkazildi. 1872-1878-yillarda “Sea Island”, “Petit Gylf”, “Golmes early prolific”, “Early chinese golden” (Xitoy), “VFC Slans”, “Hearlong”, “Boyd’s prolific u Upland” navlarini yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. O‘tkazilgan tajribalar va olingan hosilga ko‘ra mahalliy iqlimga moslashgan Amerikaning “Upland” navi yaxshi hosil bergan [6, 74-75].

Yangi paxta navlarining joriy etilishida bir necha sabablar bor edi. Birinchidan, mahalliy navlardan biri sur’at navli paxtaning sifati past edi: tolasi kalta (kamdan kam 2-3 dyum uzunlikda), tolasi mo‘rt va ingichka, yaxshi tozalanmasligi. Ikkinchidan, kata qoplarga solingan paxta Rossiyaga yetib borguncha qum va changga to‘lib, ba’zan 25%, ba’zan 50% miqdorda, o‘rtacha 35% paxta yaroqsiz holatga kelardi [7, 235].

Yangi paxta navlarini yaratish va ekishni yo‘lga qo‘yish borasida maxsus tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman o‘lkaga amerika paxta navini joriy qilish uchun 1868-yili Toshkent yaqinida maxsus paxta maydoni ajratib, olim K.N.Rayevskiyga amerika paxtasining urug‘ini ekish bo‘yicha ko‘rsatma beradi. Birinchi yildagi tajriba muvaffaqiyatsiz tugagach, M.I.Brodavskiy ba V.I.Samolevskiylar tajriba olishi uchun AQShga yuboriladi. V.I.Samolevskiy Toshkentga qaytib kelgach, paxtachilik bo‘yicha tajriba xo‘jaligini boshqaradi. Tajribalar va harakatlar natijasi o‘laroq yangi paxta navlarining maydoni kengaya boradi. 1883-yil bir necha desyatina maydonda amerika navidan hosil olingan bo‘lsa, 1884-yil 450 desyatina, 1885-yil 1100 desyatina, 1886-yil 12000 desyatina, 1887-yil 14500 desyatina maydonga ekiladi. Yillar sayin yangi texnika va texnologiyalar jalb qilinishi natijasida amerika paxta maydoni jadallik bilan kengayadi. 1888-yildan 1915-yilgacha Farg‘ona viloyatida 34,7 ming desyatinadan 336,5 ming desyatinaga, Sirdaryo viloyatida 25,8 ming desyatinadan 74 ming desyatinaga, Samarqand viloyatida 8 ming desyatinadan 55,6 ming desyatinaga ko‘payadi [8, 192-194]. Tabiiyki, ekilgan maydonlar kengaygani hisobiga olinadigan paxta hosili ham yildan yilga oshib borgan.

XIX–XX asrlarda Turkiston o‘lkasiga yangi paxta navlarining joriy etilishi nafaqat agrar sohada, balki butun hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur iz qoldirgan muhim tarixiy jarayonlardan biri bo‘ldi. Yangi navlarning joriy etilishi paxta hosildorligini oshirdi, ammo bu jarayon iqlim, suv ta’minoti va yer resurslarining haddan tashqari ekspluatatsiyasiga olib keladi. Tarixiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, paxtachilik sohasidagi islohotlar mustamlakachilik siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan. Bugungi ekologik muammolar va iqtisodiy raqobatning kuchayishi ro‘y berayotgan davrda o‘lkamiz hududida yangi paxta navlarining joriy etilganini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olib qaralganda, bu jarayonga doir tarixiy faktlar bugungi tarixshunoslik uchun nafaqat o‘tmishni o‘rganish vositasi, balki agrar sohadagi kelajak strategiyalarni belgilashda muhim ilmiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистон чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. 41 б.
2. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. - Тошкент: Шарқ, 2001. 14-15 б.
3. Usarov U. Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida agrar siyosatining shakllanishiga doir ba’zi mulohazalar // Society and innovations. 2024-yil mart. Issue – 5 № 2. 161 b.
4. Ҳайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири – XX аср бошлари): тарих фанл. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 2020. 14 б.
5. Исоков З. Россия империясининг Туркистон қишлоқ хўжалигида ўтказган ислоҳотлари // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022-йил июнь. № 2 (6). 843 б.
6. Усаров У.А. Россия империясининг Туркистон ўлкасидаги ер-сув муносабатларига оид сиёсати: тарих фанл. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. 74-75 б.
7. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Кириш, инглиз тилидан қисқартирилагн таржима, изоҳлар ва қўрсаткичлар муаллифи З.А.Саидбобоев. – Toshkent: O‘zbekiston, НМИУ, 2019. – 235 б.

8. Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (Тош даври охирларидан – XX аср бошларига қадар). – Тошкент: Фан, 2005. 192-194 б.

***Murodov Halim Salimovich***
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

## O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMINI TIKLASH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI (1990-2007 yillar)

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada turizm sohasida ma'lum vaqt turg'unlik davri kechganligi va uning salbiy ta'sirida ba'zi turlar rivojlanmasadan qolib ketgan. Jumladan, O'zbekistonda sport turizmini turlariga mustaqillikning dastlabki choragida yetarli darajada e'tibor berilmaganligi, shuningdek, sport turizmi federatsiyasi tuzilsin, sport turizmining holati va uni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'zgarishlar hamda muammolari masalalari tahliga tortilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *O'zbekturizm, V.N.Shiryayev, sport turizmi, Chotqol, mehmonxona, Ipak yo'li, Farg'ona, Tashselmash, TTZ*

Jamiyatning yangi davri talablari va ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilgan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishining 67-maqsadida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish va natijada bu borada muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish, respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish kabilar belgilanishi jarayonida O'zbekistonda sport turizmini rivojlantirish zarurati ham kelib chiqadi[1]. Bu borada istiqboldagi vazifalar O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 30-oktabrda (PF-6099-sonli) qabul qilingan "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish orqali Respublikada istiqomat qilayotgan har bir fuqaroda kasalliklarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan, yomon odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, restavratsiya va reabilitatsiya ishlarini tizimli va

samarali tashkil etish, jismoniy faoliyat uchun ommaviy tadbirlar, sohalariga tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratildi.

Bugungi tadqiqotda turizm sohasida ma'lum vaqt turg'unlik davri kechganligi va uning salbiy ta'sirida ba'zi turlar rivojlanmasadan qolib ketgan. Jumladan, O'zbekistonda sport turizmini turlariga mustaqillikning dastlabki choragida yetarli darajada e'tibor berilmadi. Ya'ni, 1991-2006 yillarda O'zbekiston Respublikasida sport-sog'lomlashtirish turizmi tizimi tegishli tashkilot nazaridan chetda qoldi. Biroq, "O'zbekistonning eng boy turistik imkoniyatlaridan sport sayohatlarini o'tkazish uchun qay darajada foydalaniladi, respublikada sport turizmi qay darajada rivojlangan?" degan savol tug'iladi. Axir imkoniyatlarga ega bo'lish boshqa, ulardan foydalanish boshqa. Shu kungacha mamlakatda Sport turizmi federatsiyasi tuzilmagan(2007 yil holatda). Maqsadlariga ko'ra sport, ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ekologik, harbiy-amaliy va harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi va ularning kombinatsiyasiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish konsepsiyasi ham mavjud emas. O'z vaqtida tashkil etilgan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi mamlakatimizda turizmni ko'p qirrali rivojlantirish masalalarini to'liq ishlab chiqa olmagan edi. 2006 yil dekabr oyida mazkur davlat tashkilotiga yuborilgan "O'zbekistonda sport turizmini rivojlantirish bo'yicha takliflar" e'tiborsiz qolgan edi. Jumladan, 2006 yilga qadar ham tog'li hududlarning katta qismi sayyohlar uchun yopiqligicha qolayotgan edi[2]. Shaharlar va viloyat markazlarining turistik klublari, jismoniy tarbiya jamoalarining turistik seksiyalari, respublika va viloyat sport turizmi federatsiyalari faoliyati tugatildi. Bolalar va o'smirlar turizmi katta qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Sayyohlik tashkilotchilari, dam olish kunlari sayohatlari rahbarlari, toifadagi marshrutlar va turizm bo'yicha o'qituvchilarning keskin etishmasligi mavjud. Turistik aktivlarni tayyorlash bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlari, turistik anjomlar bo'yicha musobaqalar, sport mahoratini oshirish maqsadida o'tkaziladigan uzoq sayohatlar o'tmishda qoldi. Mavjud vaziyat sport turizmi bo'yicha tajribali mutaxassislar va sport sayohatlarini amalga oshirish uchun ko'nikma va bilim olishni xohlovchi va daraja standartlariga javob beradigan yoshlar o'rtasida katta yosh farqiga olib keldi. Ushbu tendentsiyalarning yanada rivojlanishi O'zbekistonda o'tgan yillarda to'plangan tajribani butunlay yo'qotish xavfini kuchaytirmoqda.

Ayrim sayyohlik agentliklari tomonidan tijorat ekskursiyalarini o‘tkazish uchun gidlar tayyorlash O‘zbekiston aholisi uchun zarur bo‘lgan ommaviy turizm muammolarini to‘liq hal eta olmaydi. 20 milliondan ortiq aholiga ega mamlakat uchun sport turizmini chuqur inqirozdan olib chiqa oladigan turli yondashuv va mexanizmlar zarurdir. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston o‘z vaqtida sobiq SSSRda sport turizmini rivojlantirish markazlaridan biri bo‘lgan[3].

Turizmning mazkur turi bo’yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning yuqoridagi kabi elemenlari keyinchalik sobiq SSSRning ko'plab mintaqalarida keng tarqaldi. Farg‘ona viloyat turizm va ekskursiya kengashida turli yillarda kompleks tog‘ sayohati yetakchilari va tog‘ turizmi bo‘yicha instruktor va metodistlar tayyorlash bo‘yicha umumittifoq o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi. O‘zbekistonlik tog‘ sayyohlari bir necha bor ko’plab musobaqalarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishgan va tog‘da yurish bo‘yicha chempion bo‘lishgan. Ular bu yurishlar bilan Tyan-Shan, Pomir va Kavkazning baland tog'li hududlarini o'zlashtirdilar. O‘zbekistonlik suv sayyohlari O‘rta Osiyo daryolari bo‘ylab bir qator birinchi mashg’ulotlarlarni amalga oshirdilar. Ular orasida eng murakkab yo'nalishlar mavjud: Norin, Ugom-Oxangaron (to’plami), Qorako'lja-Turduk-Qorasuv (bog’lami) tog'li daryolarida rafting. Ommaviy oqizish uchun Sirdaryo, Chirchiq, Aris va Talas daryolari bo‘ylab marshrutlar ishlab chiqilgan. Suv sportchilarimiz Oltoy, Sayan, Zabaykaliya va Kola yarim orolining ko'plab tog'li daryolaridan muvaffaqiyatli o'tishdi. Har yili “O‘zbekiston fizkulturisti” gazetasining “O‘zbekiston fizkulturachisi” sovrini uchun “Bahor suvlari” suv turizmi musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda. O‘zbekistonning barcha viloyat markazlarida turizm va ekskursiya bo‘yicha kengashlar faoliyat yuritib, ular rejali turizmni rivojlantirish bilan bir qatorda shahar va tuman turistik klublari faoliyatini ham muvofiqlashtirib turdi. Yirik va o‘rta sanoat korxonalari, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va hatto kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya jamoalarining turistik seksiyalari: TAPOiCH, PO Tashkabel, Tashselmash, TTZ, Samarqand liftsozlik zavodlarida, Kinap; SamDU, Toshkent davlat universiteti va boshqalarda faoliyati yo’lga qo’yilgan edi.

Turizm-ekskursiya kengashlari va sayyohlik klublari tomonidan taqdim etilgan davlat va jamoat turizm tashkilotlarining tarmoqli tarmog‘ini yaratish, kasaba uyushmalari rahbarligida faoliyat ko‘rsatgan

federatsiyalar, turizm turlari va ish bo‘limlari bo‘yicha komissiyalar O‘zbekiston aholisining keng qatlamini sport turizmiga jalb etish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan sport ustalari, xalqaro toifadagi instruktorlar, respublika va umumittifoq toifadagi musobaqalar hakamlari, shuningdek, yuqorida aytib o'tilgan tadbirlar muvaffaqiyatli tayyorlanayotgani bu ish natijalaridan dalolat beradi. Ayni paytda turizm masalalari muhokama qilinadigan turli darajadagi yig‘ilishlarda, xorijiy davlatlar vakillari bilan suhbatlarda kompaniyalar O‘zbekiston tabiatining go‘zalligi, ekstremal sport sayohatlari uchun Respublikaning qanday ajoyib marshrutlari borligi, ekoturizm rivoji haqida doimo tilga olinadi. Va bu haqiqatan ham haqiqatdir. Turizmning turli turlari va qiyinchilik toifalari bo‘yicha marshrutlarning mavjudligi O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari va kollejlarning turizm bo‘limlarida hozirda tahsil olayotgan o’rgatuvchilar, instruktorlar, turistik tashkilotchilar va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash, yuqoridagi kabi ommaviy turizm uchun qulay shart-sharoit yaratadi. O‘zbekiston shaharlarida sayyohlik va sport marshrutlarining ekskursiya dasturlari bilan uyg‘unligi nafaqat mamlakat tabiatini ko‘rish, piyoda sayohat qilish mahoratingizni oshirish, to‘siqlarni yengib o‘tishning yangi texnik-taktik usullari bilan bilimingizni boyitish, balki ular xalqning tarixiy merosi, qadimiy va o‘rta asr me’morchiligining nodir durdonalari bilan tanishish imkonini beradi.

Ushu masalada sport turizmining jonkuyari bo’lgan “Asia Raft” turistik kompaniyasi prezidenti V.N.Shiryayevning O‘zbekistonda sport turizmini tiklash va rivojlantirish muammolari va ularni hal etishning ayrim yo‘llari haqidagi fikrlari ham juda dolzarb bo’lib, mazkur sohadagi faoliyatga e’tibor qaratilish fuqarolarning ma’naviy va jismoniy kamoloti bilan bog’liq ekanligi qayd etgan holda O‘zbekiston Respublikasida sport-sog‘lomlashtirish turizmini qayta tiklash uchun quyidagilar zarurligini asoslaydi[4]:

1. O‘zbekiston sport turizmi federatsiyasi tuzilsin, sport turizmining holati va uni rivojlantirish masalalari bo‘yicha davlat tashkilotlari va idoralariga mustaqil ravishda murojaat qilish, chegaradosh hududlarga borish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish huquqiga ega bo’lishi kerak.

Federatsiyaning quyidagi vazifalarini ko'rib chiqing:

Jamoat turizmi xodimlarini tayyorlash:

Barcha darajadagi sayohatlar rahbarlari, turizm bo'yicha instruktorlar, turizm musobaqalari hakamlari;

Ommaviy turistik tadbirlar: mitinglar va turistik ko‘pkurashlar bo‘yicha musobaqalar, shu jumladan O‘zbekiston hududida xalqaro musobaqalar va respublikamizdan tashqarida jamoalarimizning ishtirokini o‘tkazish;

Sport piyoda yurish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi chempionatlarini o‘tkazish, sport turizmi bo‘yicha Rossiya va MDH davlatlarining ochiq chempionatlarida jamoalarimiz ishtirok etishi;

O‘zbekiston Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari bilan maxsus kuchlar qo‘shinlari, bo‘linmalari va bo‘linmalarining tog‘ va havo-desant tayyorgarligi masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorligi;

qutqaruv guruhlarini tayyorlash;

Oliy o‘quv yurtlari va o‘rta ta’lim muassasalariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish ya’ni, bolalar va o‘smirlar ijodiyot markazlari, korxona va tashkilotlarga jamoat turizmi kadrlarini tayyorlash, sayyohlik va ko‘rik-tanlovlar o‘tkazishda;

Ma’rifiy va turistik-sport tadbirlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirishga erishish uchun kasaba uyushmalarini qayta tiklash zarurligi aniq;

Mamlakatda turistik va sport harakatini boshqarish amaliyoti. ko‘rib chiqish va tegishli tashkilotlarga yuborish. Turizm bo'yicha sport unvonlarini berish uchun nomzodlar: “Xizmat ko'rsatgan sport ustasi”, “O‘zbekiston xalqaro toifadagi sport ustasi”, “O‘zbekiston sport ustasi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan murabbiy”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jismoniy tarbiya xodimi”, shuningdek, respublika va xalqaro musobaqalarda hakamlik qilish uchun unvonlar.

Sport-sog'lomlashtirish turizmining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

Millatning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi, piyoda yurish mahorati va instruktorlar malakasini oshirish, sport unvonlari va unvonlari, sport-ilmiy va harbiy-amaliy faoliyat.

2. Xalq ta’limi tizimidagi 90-yillar oxirida tugatilgan Bolalar va o‘smirlar ijodiyot markazlarida turizm va o‘lkashunoslik to‘garaklari qayta tashkil etilsin. Maktab o'quvchilari va yosh talabalar bilan ona yurt bo'ylab sayohatlarni, musobaqalar va sayyohlik musobaqalarini davom ettiring.

3. Tog‘li hududlarda turistik marshrutlar, sport sayohatlari va ekskursiyalari geografiyasini tiklash. Tegishli bo'limlarda noyob geografik obyektlarga tashrif buyurish bilan bog'liq masalalarni tartibga solish:

Angren platosining Toshkent viloyatida, Ko‘ksu daryosi darasida o‘zining qudratli daralari va baland tog‘li ko‘llari bilan,

Qashqadaryo viloyatida Temur g‘ori, dinozavr platosi, go‘zal kanyonlar, Severtsev muzligi, Hazrat-Sulton cho‘qqisi kabi ekskursiya joylari joylashgan Oqsuv va Qizildaryo daralarida;

Surxondaryo viloyatida To‘po‘lang Sangardak daryolarida rafting, Hisor tizmasi va uning shoxlari bo‘ylab tog‘, piyoda va otda sayr qilish imkoniyati;

Zomin milliy bog‘ining Jizzax viloyatida Turkiston tizmasi bo‘ylab tog‘, piyoda va otda sayr qilish imkoniyati mavjud.

4. Xonabal va Andijon (O‘sh) orqali aylanma yo‘nalish qimmat, uzoq va turistlar uchun charchaganligi sababli, O‘zbekiston, MDH va Boltiqbo‘yi davlatlaridan kelgan turistik guruhlar, shuningdek, Qirg‘izistonning O‘zbekistonga tutash viloyatlarida Qosansayev chegara posti orqali ikki yo‘nalishda turistik, sport va ekskursiya yo‘nalishlarini amalga oshiruvchi boshqa xorijiy fuqarolarning davlat chegarasini kesib o‘tish masalasi hal etilsin.

5. O‘zbekiston fuqarolari uchun Tojikiston Respublikasiga turistik vizalar olishning (turistik kompaniyalar taklifnomalari orqali emas) ushbu respublikaning tog‘li hududlarida sport yo‘nalishlarini yakunlash uchun yanada soddalashtirilgan tartibi to‘g‘risidagi masala hal etilsin. Ayni paytda O‘zbekiston fuqarolari uchun faqatgina viza yordami va bu davlatga viza narxi 46 AQSh dollari, ro‘yxatdan o‘tish va boshqa to‘lovlar bilan esa 100 dollardan oshadi. Va bu sayohatning o'zi xarajatlarini hisobga olmaydi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, O‘zbekiston dengizga yoki okeanga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan kam sonli davlatlardan biri, ammo shunga qaramay suv turizmi uchun juda ko‘p qulay tog’ daryolari va ko’llar kabi joylar mavjud bo’lib, bu borada oxirgi o’n yildaa bir qator ijobiy ishlarning amalga oshirilishi o’tgan davr ya’ni 1991-2000 yillardagi bu sohadagi turg’unlik oqibatlarini bartaraf etishga yo’l ochdi. Bu borada turizmning asosiy manzillari – g‘arbiy Tyan-Shan etaklaridagi chuqur suv ombori, son-sanoqsiz jo‘shqin daryolar hamda Aydarko‘l, Sudochye va Toshkent dengizi kabilar hisoblanadi. Hozirgi kunda bu yerda dam olish

paytida skuterda suzishingiz yoki katamaranda atrofni o‘rganishingiz, zavq olishingiz mumkin, ekstremal dam olishni xush ko‘radiganlar uchun ko‘pchilik turoperatorlar Chotqol, Pskom, Ugom, Sirdaryo va boshqa ko‘plab joylarga rafting sayohatlarini taklif qilishadi. O‘zbekiston tog‘lari alpinizm, tog‘ turizmi va qoyaga chiqish kabi faol dam olish turlarini sevuvchilar uchun juda jozibador maskanlardir. Hozirda bu sohadagi islahotlar va davlat dasturlari ijrosi mahsuli natijasida O‘zbekistonning mashhur tog‘li hududidan biri – Chimyon tog‘larining ko‘plab toqqa chiqish yo‘llari, piyoda yurish, qoyaga chiqish yo‘llari, ot minish marshrutlari, tog‘ chang‘isi yo‘laklari va boshqalar uchun xizmat qilmoqda. Xullsa, O’zbekistonda kadrlar tayyorlash, bolalar turizmi va ommaviy sportini rivojlantirish, meyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, chegara rejimlarini yengillashtirish, avtomobil yo‘llari sifatini yaxshilash – bugungi kunda ham yechimini talab qilayotgan masalalar dolzarbligini yo’qotmagan. E’tiborli jihati, ekstremal va sport turizmi xizmatlarining turistik paketini ishlab chiqish bilan shug‘ullangan ixtisoslashgan nashrlarning ma’lumotlariga ko‘ra, sport sayyohining o‘rtacha hisobi yoki daromadi an’anaviy sayyohning o‘rtacha hisobiga nisbatan qariyb uch baravar yuqori. Faol va ekstremal turizmning jami jahon bozori turli ekspertlar tomonidan taxminan 400-500 milliard dollarga baholanmoqda. Sport turizmini rivojlantirish istiqbolli ekanligi bois bu sohada amaliy ishlarni ko’paytirish va kengaytirish lozimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. O‘zR MA, M-37-fond, 4-ro‘yxat, 1280-ish, 147- varaq
3. O‘zR MA, M-37-fond, 4-ro‘yxat, 1280-ish, 148- varaq
4. O‘zR MA, M-37-fond, 4-ro‘yxat, 1280-ish, 148-149- varaqlar
5. Murodov, H. (2024). BUXORO TURIZMI XIZMAT KORSATISH SOHASIDAGI IJOBIY O’ZGARISHLAR (2000-2016 yillar misolida). Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(12), 132-138.
6. Salimovich, M. H. (2024). TARAQQIYOT VA MARIFAT UCHUN KURASHGANLAR TAQDIRI.
7. Salimovich, M. H. (2024). HARAKATLAR STRATEGIYASI DAVRIDA VIZA SIYOSATI.
8. Salimovich, M. H. BUXORO TURIZMI XIZMAT KORSATISH SOHASIDAGI IJOBIY O’ZGARISHLAR (2000-2016 yillar misolida).

9. Murodov, H. (2024). BUXORO TURIZMI XIZMAT KORSATISH SOHASIDAGI IJOBIY O'ZGARISHLAR (2000-2016 yillar misolida). Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(12), 132-138.
10. Murodov, H., & Rabiyeva, Z. (2024). THE FATE OF THOSE WHO FOUGHT FOR DEVELOPMENT AND ENLIGHTENMENT. Modern Science and Research, 3(5), 840-843.
11. Murodov, H., & Sadriyev, M. (2024). KOREYA TARIXIGA BIR NAZAR. Modern Science and Research, 3(12), 817-822.

***Suyunov Behruz Turg'un o'g'li***
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

## ASRLAR MOBAYNIDA TOSHKENT NOMADIZIM TA'SIRIDA

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Toshkent tarixi uning ko'chmanchi etnoslar uchun to'tgan o'rni, ayanan ko'chamanchilarning o'lkada yaratgan madaniyati haqida. Toshkent vohasining turli nomlarini kelib chiqishi va Toshkent haqida tarixchi olimlarning fikr mulohazalari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Toshkent, ko'chmanchilar, "Choch", "Buyuk ipak yo'li", etnos, "Hindiston", Arab xalifaligi.*

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'lgan Toshkent o'zining 2000 ming yillik tarixi bilan cho'qur izqoldirgan shahar hisoblanadi. Turli davrlarda Toshkent yanada yuksalib boravirdi bunga sabab, birinchidan – qulay strategik ahamiyatga ega ekanligi bilan bo'lsa, ikkinchidan – shahar "Buyuk ipak yo'li" kesishgan joyda joylashganligi bilan, odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Toshkent ilmiy tarixiy asarlarda nomlari turlicha jaranglaydi, bu kabi holatlar ham insonni yanada Toshkent tarixini o'rganishga undaydi.

Xususan Toshkent o'z tarixi davomida: Choch, Shosh, Binkat, Shoshkent, Madinat ash – Shosh, Tarkan kabi turli nomlar ostida tarixi yuzini ko'rdi. Endi bu nomlar qayirdan kelib chiqdi, degan savolga to'xtalib o'tsak. Toshkent haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil. avv. II asr milodning IV asrlariga mansub Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida Toshkent viloyati qadimda Yuni, Chjesi va Shi deb nomlangan. Toshkentning qadimgi nomlaridan biri «Choch» bo'lgan.

Keyinchalik Toshkent arablar tasarrufiga o‘tgach, arab alifbosida «ch» xarfining yo‘qligi bois, arabiy asarlarda u «Shosh» deb yuritilgan 1. Chunki, arab alifbosida «ch» xarfining yo‘qligi bois, u «sh» bo‘lib o‘qiladi [1.300b]. Bu nom hali Toshkent shahri paydo bo‘lmasdan bir necha asrlar muqaddam Chirchiq va Ohangaron daryolari vodiylari va bu ikki daryoning suvi bilan obod etilgan Toshkent vohasiga berilgan bo‘lib, bu o‘lkaning qadimgi mahalliy aholisi tomonidan u “Choch” deb yuritilgan. Dastlab bu atama otashparastlarning kitobi Avestoda tilga olinadi. Bazi tadqiqotchilarning fikricha, bu nom miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida yuzaga kelgan bo‘lib, asli Orol dengizining qadimgi eron tilidagi “Chaechasta” degan nomidan kelib chiqqan. Ma’lumki, vodiy, voha yoki joy nomlari – toponimlar, odatda, ular joylashgan o‘lka tabiatning ayrim xususiyatlari yoki qadimgi aholisi va bazan qad ko‘targan aholi punktlarining soni va sifatlariga nisbatan beriladi. Shunday qilib, Toshkent vohasining tabiiy sifatlari asosida paydo bo‘lgan qadimgi “Choch” atamasi, avval toqqa, undan daryoga va vohaga o‘tib, so‘ngra bu obod vohada qad ko‘targan shaharga berilgan. Bo‘ndan kelib chiqib shunday xulosaga kelsa bo‘ladikiy – “Toshkentning bu nomlari turli davrlarda o‘lkaga kirib kelgan turli etnomadaniyat vakillarining turli lag‘chalarda so‘zlashishi o‘lkani shu kabi nomlar bilan atashlari natijasida yuzaga keldi va turli nomlar ostida talqin qilinishi oqibatida hozirgi nomi kelib chiqdi desak adashmagan bo‘lamiz”. Qadim davrlardan biri bu hududlarda yashab tarixan shakillanib kelgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmachi etnoslar istiqomat qilib, keldi – ularning butun o‘lka balki Toshkent tarixiga ham sezilarli ta’sir o‘tkazgani tabiiy xol, masalan sak – massagetlar qabilalari bu hududlarda muqim ta’sirga ega xalq edi. Toshkentga turkiy qabilalarning kirib kelishi oqibatida bu yerda ko‘chmanchi chorvador aholi kerib kelib sekin – astalik bilan o‘troqlasha bordi.

O‘rta Osiyo hududlariga turkiygo‘y xioniy, kidariy, eftaliylar va Turk xoqonligi kirib keldi va ular bilan birga kirib kelgan qabilalar tarkibida qarluq, chigil, tuxsi, arg‘in, turk, kaltatoy kabi turkiyzabon qabilalar ko‘pchilikni tashkil etardi. Yuqoridagi keltirilgan so‘zlarni isboti sifatida tarixchi Aleksandr Yakubovskiyning ta’kidlashicha, bu davrda turkiy qabilalar kirib bormagan O‘rta Osiyoning biror joyi qolmagan degan so‘zini keltirsa bo‘ladi. Shaharning Binkat nomi bilan yuritila boshlanishi VIII – asrning birinchi yarimida O‘rta Osiyoga Arab xalifaligining olib brogan to‘xtovsiz harbiy yurishlari va ularga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlari

davrida Movaraunnahrning boshqa koʻpgina oʻlkalari singari Shosh viloyati ham inqirozga yuz tutdi. Qadimdan xunarmandchilik, savdo-sotiq markazi boʻlib kelgan shaharning koʻpi vayron etilib, qolganlari ham ancha boʻshab qoldi. Konlarda ish toʻxtab, soʻgʻorish tarmoqlari suvsizlikdan qurib ketdi. Shoshning savdo – sotiq, yer – suvlari va chorvasidan olinadigan boj – xiroj va zakot soliqlarining hajmi nihoyatda qisqardi. Oʻrta asr tarixchisi Tabariyning xabar berishicha, bu ishni bu ishni amalga oshirish uchun xalifa Mu'tasim (833 – 842 yillarda hokimlik qilgan) xazinadan ikki million dirham mablagʻ ajratadi [2.36b].

Arab xalifaligi tomonidan shahar qayta tashkil qilinib Shosh viloyatining bosh shahri oʻrta asr arab geograflari asarlarida "Binkat" va bazan "Madinat ash – Shosh" nomlari bilan tilga olinadi. Mahmud Qoshgʻariy uni "Tarkan" degan nomini ham ham keltirib oʻtadi. Oʻlkaga koʻchib kelgan qabilalar xizmati birgina Toshkent nomining turli nomlar bilan atlishi emas, balki bu yerda koʻchmachi aholi oʻtroqlashib qasaba qoʻrgʻonlar, kichik qishloqlar, karvonsaroy, yirik savdo markazlariga ham asos solganligini koʻzatishimiz mumkin. Bu yerdan chitga koʻchmanchilar juda koʻplab teri koʻnchilik mahsulotlari, chorva mollarini olib chiqishgan va turli mahsulotlarga ayirboshlab bu yerlarga olib kelib sotishgan. Natijada oʻz – oʻzidan koʻrinib turadikiy bu yerda ishlab chiqarish yoʻlga quyilishi shaharning yanada ravnaq topishiga imkon beradi. Darhaqiqat, Buyuk ipak yoʻlida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib brogan turli aloqalarida muhim rol oʻnagan. Endi Toshkentning joylashuviga toʻxtalsak, bu qadimgi oʻlka sharqdan Chotqol – Qurama va Qorjantov tizmalari, janub va gʻarbdan Sirdaryo, shimoldan qadimda "Dashti qipchoq" deb atalgan Qozogʻistonning janubiy rayonlari oʻralib turadi [3.135b]. Uning bunday tabiiy sharoiti avvaldan oʻlkaning iqtisodiy hayotida, ayniqsa bu yerda ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilik xoʻjaliklarining vujudga kelishi varivojlanishida kata rol oʻynagan. Chotqol – Qurama togʻlari va togʻoldi zonalari chorvachilik keng yaylov, Chirchiq (Parak) va Ohangaron daryolari dehqonchilik uchun asosiy obihayot manbayi boʻlib xizmat qilgan boʻlsa, bu togʻlardan kavlab olinadigan turli xil ma'danlar oʻlkada qadimdan hunarmandchilik: chilangarlik, misgarlik, zargarlikni rivojlantirishga imkon bergan. Bu hududlar VI asrda turk xoqonligi tarkibiga qoʻshib olingandan soʻng turkiy koʻchmanchilar bu yerga oʻzlarining ta'sirini oʻtkaza boshladi. Xususan Turklar shaharni zabt etgach, uning atrofini kuchli mudofa devorlari bilan

o‘rab olganlar. Arxeologik qazish vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va ro‘zg‘or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo‘lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari Toshkent hududida VI – VIII asrlarga oid bir qancha qasrlar xarobasi (masalan, Toshkentning shimoli- sharqidagi Oqtepa tepaligida) saqlanib qolgan. Bu ham shaharning o‘sh davrdagi to‘tgan o‘rni yuqoriligini kursatib o‘tadi. Abu Rayxon Beruniy va Mahmud Qoshg‘ariylarning ma’lumotiga ko‘ra, shahar XI asrdan boshlab Toshkent deb atala boshlangan [4. 142B]. Abu Rayxon Beruniy bu haqida “Hindiston” asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to‘g‘risida so‘z yuritib, “Tosh” so‘zi asli turkcha bo‘lib, Shosh ko‘rinishini olgan. “Toshkand – toshli qishloq demakdir”, deb izohlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozir biz istiqomat qilayotgan Toshkent shahri o‘z – o‘zidan bunday qiyofaga kelgan emas, uning tarixiga nazar tashlasak bu yerda qadim davrdan yashab kelgan ko‘chmanchi aholilarning o‘lkaga ko‘chib kelib o‘rnasha boshlashi ularning uzoq yillar davomida bu yerda yuksak madaniyatga asos solishlariga imkoniyat yaratdi. Bu esa Toshkentning strategik jihatdan yanada ravnaq topishiga zamin yaratdi. Toshkentning o‘rta asrlarda turli nomlar bilan atalishiga to‘xtalsak, bu ham turli etnos vakillarning til xususiyatlarining har – xilligidan kelib chiqqan deyish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**:

1. A. S. Sagdullayev/ O‘zbekiston tarixi I kitob/ Toshkent/ “Donishmand ziyosi” 2021
2. A. Muhammadjanov/ Qadimgi Toshkent/ Toshkent.: O‘zbekiston CCP “Fan” nashriyoti. 1998
3. Bulatova V. A./ Buryakov Yu. F./ Qadimgi va hozirgi Toshkent/ T.: 1965
4. Suyun Qorayev/ O‘zbekiston viloyatlari toponimlari/ Toshkent.: 2005
5. Q. M. Hakimov/ Toponomika/ Toshkent/ “Tafakkur avlodi”. 2020

**Abdivaitov Sunnatillo Akmal o‘g‘li**
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
IGFO‘M(Tarix) 1-bosqich magistranti

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIX

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Toshkent shahrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va*

*madaniy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Poytaxt sifatida Toshkentning urbanizatsiya jarayoni, raqamli iqtisodiyot va sanoatning rivojlanishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, madaniy merosni asrash va rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar keng yoritiladi. Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlash, xalqaro madaniy aloqalarning kengayishi va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar haqida ham so‘z yuritiladi. Maqola Toshkent shahrining mustaqillik yillaridagi taraqqiyotini ko‘rsatuvchi ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:****Toshkent, mustaqillik, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy islohot, madaniy meros, urbanizatsiya, raqamli iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta’lim tizimi, madaniyat, barqaror rivojlanish.*

1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzum barpo etila boshlandi. Toshkent shahri - mamlakatning yuragi, bosh siyosiy va iqtisodiy markazi sifatida bu jarayonlarda yetakchi rol o'ynadi. Mustaqillik yillarida Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti mamlakatdagi islohotlarning samarali amalga oshirilishini yaqqol aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentabrda mustaqillikka erishgach, mamlakatda tub ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar boshlandi. Poytaxt Toshkent shahrining bu jarayondagi o‘rni beqiyos bo‘lib, u mamlakat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Mustaqillik yillarida Toshkent nafaqat O‘zbekistonning bosh siyosiy va iqtisodiy markazi, balki Markaziy Osiyodagi eng zamonaviy, ilg‘or infratuzilmaga ega bo‘lgan shahar sifatida shakllandi. 1990-yillardan boshlab Toshkentda sanoat va infratuzilma tarmoqlari qayta qurish va modernizatsiya qilish asosida rivojlantirildi. Sanoat salohiyatining oshishi zamonaviy texnoparklar, xususan, “Texnopark” majmuasining tashkil etilishi bilan izohlanadi. Ushbu texnoparkda elektronika, maishiy texnika, tibbiy uskuna ishlab chiqarish bo‘yicha yuzlab yuqori texnologiyali korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu nafaqat import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minladi, balki minglab yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga ham sabab bo‘ldi. Toshkent shahrining iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

“Tashkent City” xalqaro biznes markazi buning yorqin namunasidir. Mazkur loyiha doirasida turar-joy, ofis, mehmonxona va savdo markazlaridan iborat zamonaviy biznes makon vujudga keltirildi.

Shaharsozlik sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Urbanizatsiya jarayoni tezlashib, yangi turar-joy massivlari, jumladan, “Yashnobod City”, “Tashkent City”, “Yangi O‘zbekiston” kabi ko‘plab zamonaviy komplekslar barpo etildi. Ularning har biri infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar va ekologik barqarorlik talablariga mos ravishda rejalashtirilgan. Bundan tashqari, “aqlli shahar” (Smart City) kontseptsiyasi asosida raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilmoqda. Raqamli xizmatlarning kengayishi, xususan, davlat xizmatlarining “my.gov.uz” platformasi orqali ko‘rsatilishi Toshkent aholisi hayot sifatini oshirdi. Ijtimoiy sohalarda ham katta yutuqlarga erishildi. Ta’lim tizimida sifat jihatidan tub burilish ro‘y berdi. Toshkentda xalqaro talablarga javob beruvchi oliy ta’lim muassasalari – INHA universiteti, Yevropa universiteti, Yangi O‘zbekiston universiteti, “Team University” kabi nodavlat va xorijiy hamkorlikdagi oliygohlar faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, Toshkent shahrida 200 dan ortiq maktab va 500 dan ortiq maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati modernizatsiya qilindi. Sog‘liqni saqlash tizimi ham tubdan isloh qilindi. Onlayn klinikalar, telemeditsina xizmati, pandemiya davrida qisqa fursatda qurilgan zamonaviy shifoxonalar — bularning barchasi aholining salomatligini ta'minlashda muhim qadam bo‘ldi. Toshkent shahrining madaniy hayoti ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida poytaxtda ko‘plab teatr, muzey, galereya va madaniyat markazlari faoliyati yangilandi. “Sharq taronalari”, “Tashkent International Film Festival”, “Nafas” musiqa haftaligi kabi xalqaro darajadagi madaniy tadbirlar Toshkentni mintaqadagi madaniy diplomatiya markaziga aylantirdi. Unesco va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Toshkentning tarixiy obidalarini restavratsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Shayx Zayniddin maqbarasi, Ko‘kcha masjidi, Ko‘kaldosh madrasasi kabi tarixiy yodgorliklar qayta tiklandi va sayyohlar uchun ochiq holga keltirildi. Toshkent bugungi kunda ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan shahar sifatida ham shakllanmoqda. “Yashil makon” umumxalq harakati doirasida millionlab daraxt va ko‘chatlar ekildi, ekologik monitoring tizimlari joriy qilindi. Shahar havosining sifatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi raqamli xaritalar ishlab chiqilgan. Bularning barchasi Toshkent aholisining hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik yillarida Toshkent shahri O‘zbekiston taraqqiyotining bosh lokomotiviga aylanishi bilan ajralib

turadi. Poytaxt sifatida u mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy hayotining markaziga aylandi. Shu davrda Toshkentda shaharsozlikning yangi tamoyillari asosida keng koʻlamli infratuzilmaviy islohotlar amalga oshirildi, urbanizatsiya jarayonlari tezlashdi, zamonaviy turar-joy massivlari barpo qilindi va transport tizimi modernizatsiya qilindi. Bu esa poytaxtning tashqi qiyofasi va ichki salohiyatini tubdan oʻzgartirdi. Iqtisodiy sohada esa Toshkentda sanoatning yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlari vujudga keldi, xorijiy investitsiyalar jalb etilib, raqamli iqtisodiyot elementlari keng joriy qilindi. IT Park, Tashkent City va boshqa strategik loyihalar bu borada muhim rol oʻynadi. Toshkent aholisi uchun yangi ish oʻrinlari yaratildi, bandlik darajasi oshdi va aholi farovonligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Ta’lim va sogʻliqni saqlash tizimida olib borilgan chuqur islohotlar, xususan, xalqaro universitetlar, raqamli poliklinikalar, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining paydo boʻlishi Toshkentni bilim va sogʻliq markaziga aylantirdi. Aholining ijtimoiy himoyasi mustahkamlandi, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratildi, “Yoshlar daftari”, “Startaplar haftaligi” kabi dasturlar orqali ularning intellektual salohiyati qoʻllab-quvvatlandi. Madaniy hayotda ham yuksalish kuzatildi. Toshkentda milliy madaniyat va san’at rivoji bilan bir qatorda, xalqaro madaniy hamkorlik kuchaydi. Turli xalqaro festivallar, koʻrgazmalar, teatr va kino tadbirlari shaharning dunyo miqyosida tanilishiga sabab boʻldi. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar mustahkamlanib, Toshkent madaniy diplomatiya markaziga aylana boshladi. Ekologik barqarorlik masalasida ham shahar dolzarb qadamlar tashladi. “Yashil makon” tashabbusi asosida koʻkalamzorlashtirish ishlari jadallashdi, ekologik monitoring tizimlari va barqaror qurilish amaliyotlari joriy qilindi. Bu esa shahar muhitini sogʻlomlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa, Toshkent shahri mustaqillik yillarida Oʻzbekistonning zamonaviy, barqaror va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy makoniga aylanishi yoʻlida muhim tarixiy bosqichlarni bosib oʻtdi. U bugun nafaqat mamlakat, balki mintaqa miqyosida ilgʻor texnologiyalar, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy innovatsiyalar markazi boʻlib, Oʻzbekistonning kelajak taraqqiyotida asosiy oʻrinlardan birini egallab bormoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Karimov I.A. *Oʻzbekiston – bozor munosabatlariga oʻtish yoʻlida.* – Toshkent: Oʻzbekiston, 1993.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy nutqlari va ma’ruzalar to‘plami. – president.uz
3. Toshkent shahar hokimligi rasmiy axborotlari – toshkent.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi – stat.uz
5. “Tashkent City” xalqaro biznes markazi rasmiy sahifasi – tashkentcity.uz
6. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) yangiliklari – uza.uz
7. Soliyev A., Qodirov M. *O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tarixi.* – Toshkent: Fan, 2020.
8. Raximov R. *Toshkent tarixi: arxiv hujjatlari va tadqiqotlar.* – Toshkent: Sharq, 2018.
9. Unesco Uzbekistan vakolatxonasi rasmiy hisobotlari – uzbekistan.unesco.org
10. “IT Park Uzbekistan” rasmiy ma’lumotlari – itpark.uz

**Dilzoda Nurmatova**
O‘z XIA magistranti

## “FATAVOI SUFIYYA” ASARI TASAVVUF VA FIQH UYG’UNLIGI

Islom dinida iymon, amal va axloq o’zaro bir butunlikni kasb etishida tasavvuf va fiqh ilmlari uyg’unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ikki ilm bir-birini to’ldirib, quvvatlab keladi. Tariqat vakillarining “Shariatsiz tariqat, taqiratsiz shariat yo’q” kabi qavllari buning yaqqol isbotidir. Shariat bandaning zohiriy amallari qonun-qoidalarini qamrab olsa, tariqat insonning botiniy amallarini ado etish ko’rsatmalarini o’z ichiga oladi. Shunga ko’ra insonning zohiriy amallari mukammal bajarilmasa uning botiniy amallari ham takomiliga yetmaydi.

Dastlabki tasavvufiy asarlar orasida zoviyalar va tariqat vakillari uchun yozilgan fatvo hamda fiqhga oid kitoblar ko’zga tashlanadi. Ushbu asarlar tariqatda mazhab va shariatga oid tushunchalar yoritilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu uslubda yozilgan “Fatavoi sufiyya” asari bugungi kunda tariqat va shariat uyg’unligini tadqiq etishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

“Fatavoi sufiyya” asari Fazlulloh ibn Muhammad ibn Ayyub hanafiy ba’zi manbalarda Fazluddin Muhammad ibn Ayyub majuviy tomonidan yozilgan. Asarning to’liq nomi “Fatavoi sufiyya fiy toriyqot ul-bahoiyya”

( فتاوي الصوفية الـ بهائ ية قطريـ ق فـ ي )bo'lib, suhravardiyya taqriqatiga oid fatvolar to'plami hisoblanadi. Asar muallifining tarjimai holi haqida tabaqot va manoqib kitoblarida yetarlicha ma'lumotlar uchramaydi. Muallif hijriy 666-yilda (milodiy 1256-yil), ba'zi manbalarda hijriy 735-yilda vafot etgan bo'lib, asar muqaddimasida o'zini Maju shahriga nisbat beradi. Umar Rizoga ko'ra olim Mo'lton (Pokistonning Panjob viloyatidagi shahar) shahrida tavallud topgan. Faqih, usuliy, imom, "arbobul haqiyqat", sufiy kabi nomlar bilan ta'riflangan. Asli hanafiy fiqhi bilan shug'ullangan bo'lib, tasavvufda ham mohir edi. Shu sababdan ham manbalarda uning ushbu ikki ilmdagi faoliyati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Muallif haqida Abdul Hay Laknaviyning "Al-favaid al-bahiyya fiy tarojim al-hanafiyya" asarida Fazlulloh Muhammad (vaf. Nnn y.) "Jome al-mudammarot" asari muallifi Yusuf ibn Umar Sufiydan ta'lim olgani, tariqatdagi silsilasi Rukniddin Fayzulloh ibn Abu Mag'onim ibn Bahouddin Zakariyyo Mo'ltoniy, u otasi Sadriddindan, u otasi Shihobiddin Suxravardiydan, u Ziyo ibn Najibdan kelishi haqida ma'lumotlar mavjud. Ziyo ibn Najib esa o'z silsilasini Ahmad Razoliydan so'ng Junayd Bag'dodiydan Ali ibn Abu Tolibga bog'laydi[70].

Fazlulloh ibn Ayyub "Fatavoi Sufiyya"asaridan tashqari "Umdatul abror", "Umdatul axyor min rivatyat val axbor fi tasavvuf val ibadat", "Muqaddimatud din fiy ma'rifat val yaqiyn" kabi asarlarning ham muallifidir[71]. Shu bilan birga Umar Rizo Kahalaning "Mu'jamul muallifiyn tarojim musonnifiy al-kutubul arobbiyya" asarida " Umdatul asror" kitobi ham muallifga nisbat beriladi.

Bugungi kungacha ushbu asarning to'liq holda yetib kelgan qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, bulardan uchtasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutining "Nodir qo'lyozmalar" fondida 2981, 7132, 10477 invertar raqamlari ostida saqlanadi. 2981 qo'lyozma 386 varaqdan iborat bo'lib, o'lchami 18x27, nasx xatida ko'chirilgan. 7132 raqamli qo'lyozma 950-yilda Ma'badshoh tomonidan nasx xatida ko'chirilgan. O'lchami 18,5x30 bo'lib 390 varaqni tashkil etadi. 10477 o'lcham jihatdan nisbatan kichikroq bo'lib 14,5x21, 280 varaq bo'lib har bir betda 21 yo'ldan nastaliq xatida yozilgan.

Bundan tashqari, asar Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi Ibrohim Posho qismida hijriy 1067 yilda ko'chirilgan Inv 708, ushbu

[70] https://hadis.uz/term/486
[71] Ibrohim Posho. Hadiyyatul orifiyn. Tehron 1957, 2-j 168-b

kutubxonaning Fotih qismida Inv 2377, Hamidiya qismida Inv 597 raqami ostida to'liq holatda saqlanadi. Saudiya Arabistonining qirol Abdulaziz vaqf kutubxonasining elektron bazasida ham asarning qo'yozma nusxasi mavjud. Yevropa kutubxonalaridan Oksfordning Bodlean kutubxonasida Inv 321, Gollandiyaning Leyden universiteti kutubxonasida № 2251 inventar raqamlari ostida saqlanadi. Shimoliy Karolina universiteti kutubxonasida ham saqlanadi.

Asarning muqaddima qismi hamd-u sano va mundarijadan iborat. Har bir bob va ushbu boblar qamrab olgan fasllar haqida qisqacha ma'lumotlar taqdim etilgan. Asar 63 bobdan tashkil topgan bo'lib har bir bob bir nechta fasllarga bo'lingan. Masalan: 1- bob 6 fasldan iborat bo'lib, 1-fasl kitobning mashoyixlar va tariqat ahllari oldidagi e'tiborli jihatlari, 2-fasl zuhd ilmi haqida, 3-fasl olimlar martabasi, solih boy va solih faqir orasidagi farq, 4-fasl mashoyix va avliyolar, karomatni inkor qilish haqida, 5-fasl Hizr alayhissalom haqida, 6-fasl ahli sunna val-jamoa ulamolarining zikri bilan yakunlanadi.

Asar muqaddimasi yakunida muallif ushbu kitobni suhravardiylik tariqati zoviyalari, honaqohlari uchun yozgani va asar hanafiy mazhabiga oid ekani haqida ma'lumot keltiradi.

Ibn Kamol ushbu asarni fiqh ilmida inobatga olinmaydigan kitoblardan hisoblab, kitobda keltirilgan ma'lumotlar usuli fiqhga muvofiq bo'lsagina bu ma'lumotlarni e'tiborga olish mumkinligini bildirib, bu mavzuni o'zining "Nofe' al-kabir liman yutoliu Jome' as-sog'ir" asarida batafsil bayon qilganini yozadi. Ingliz ilohiyotshunosi Berkley ham yuqoridagi fikrlarni qo'llab quvvatlaydi.

Fatvolar matnida Tohir Ibn Ahmad Buxoriyning "Xulosatul fatavo" asaridan, "Bo'ston", "Risola Qushayriyya", "Jome", "Navodir al usul" kabi kitoblardan foydalanganini keltiradi.

Muallif asarning yozilishidan maqsadini quyidagicha bayon qiladi: "Yuqorida keltirilgan ikki bobdan anglashiladiki ilmni egallashdan asosiy maqsad unga amal qilishdir. Faxrlanish yohud (boshqalardan) yuksak ko'rinish uchun emas. Ilmiga amal qilib uni boshqalarga yetkazuvchi - olimdir. Haqning inoyati bilan tasavvuf ahliga amalda va istiqomatda davomli bo'lganliklaridan ularning ilmlari ilmi "ilm al-yaqin" (yaqinlik ilmi), "ayn al yaqiyn" darajasiga yetdi. Ular oxirat olimlari va dindorlar uchun ibratli namunaga aylandilar.

**Joldasov Ixtiyor Suyundikovich**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tarix” kafedrasi dotsenti

## CHIRCHIQ SHAHAR TOPONOMIKASI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Chirchiq shahrining toponomik shakllanishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va mahalliy nomlarning etimologiyasi ilmiy asosda tahlil etilgan. Chirchiq nomining kelib chiqishi qadimgi turkiy tillarga bog’lanib, “shovullab oqadigan suv” ma’nosini anglatishi izohlangan. Shahar tarixida to’rt bosqichli rivojlanish ajratilib, har bir bosqichdagi nom berish tamoyillari yoritilgan. Mustaqillik davridan so’ng nomlar milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar nomi bilan almashtirilgani ko’rsatilgan. Yapon harbiy asirlari ishtirokida barpo etilgan “Lager” hududi va xalq og’zaki tilidagi norasmiy nomlar toponomikaning og’zaki qatlamini yoritadi. Turnalar monumenti esa Chirchiqning tarixiy xotirasi va ramziy obidasidir.*

***Kalit so’zlar:*** *Toponomika, Chirchiq, Kichik Sir, Oktyabr, Kimyogarlar.*

Toponomika — bu geografik nomlarning kelib chiqishini, tuzilishini, tarixiy shakllanishini o’rganadigan fan. Har bir hudud nomi o’ziga xos tarixiy, madaniy va tilshunoslik jihatlariga ega bo’lib, u mahalliy aholi hayoti, madaniyati va tabiat bilan bog’liq bo’lgan qadimiy tushunchalarni o’zida aks ettiradi. Shu o’rinda, Chirchiq shahri toponomikasi ham bu jihatdan alohida e’tiborga loyiq.

Chirchiq shahi - Toshkent Chorvoq temir yo‘lidagi stansiya va avtomobil yo‘llari chorrahasida joylashgan. 1935-yil 1-may kuni Chirchiq shahar maqomini oldi. Bu kun Chirchiq shahrining tug’ilgan kuni sifatida qabul qilingan. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o‘sdi (1939 yil — 15 ming kishi, 1959 yil — 65 ming kishi, 1970 yil — 107,4 ming kishi). 1930 — 1940- yillarda esa Industrial texnikumi binosi, 1950- yillarda elektrkimyo korxonasining Madaniyat saroyi va boshqa jamoat binolari qurildi. 1966—1967 yillardan ko‘p qavatli yirik panelli binolar qad ko‘tardi. Chirchiq aholisi 170 000 ming odam atrofida sanaladi. Chirchiq ko’p millatlarni o’z bag’riga sig’dirgan shahar. Chirchiqda o’zbek, qozoq, tojik, rus, tatar, qoraqolpoq, qizg’iz, koreys va boshqa millat vakillari tinch totuvlikda hayot kechirmoqdalar. Chirchiq shahrining aholisi yildan yilga oshib bormoqda. Ohirgi yillarda yangi turar joylar qurilib shahar infrastrukturasi rivojlanmoqda. Aholisi asosan o’zbek, rus va qozoq tillarida gaplashishadi.

Chirchiq atamasining toponomikasiga kelib to’qtalsak,bu hudud to’g’risida bir nechta manbalar bor, Masalan:

"Chirchiq" nomi asosan Chirchiq daryosi bilan bog’liq. Bu daryoning nomi qadimgi turkiy tillarga borib taqaladi. "Chir" yoki "chirik" so’zlari eski turkiy tilida "qudratli", "suvli", "oqayotgan" degan ma'nolarni bildirgan. "Chiq" esa suv oqimini bildiruvchi tovushlar bilan bog’liq bo’lib, bu daryo nomi “oqayotgan suv” yoki “shovqinli daryo” degan ma’noni anglatgan.

Chirchiq – Sirdaryoning eng katta va eng ser suv o’ng irmog’i, Toshkent viloyatidagi daryo. Dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida ham daryoni Chir suvi nomi bilan qayd etadi. Ayrim manbalarda, “chir” so’zi gullagan, tezoqar, shovullagan degan fikrlar xam bor. Haqiqatan ham, bu daryo tez, ayniqsa, yuqori qismida toshdan toshga urilib, ko’pirib oqadi. Chiq qo’shimcha bo’lib, kichiklikni bildiradi. Demak, Chirchiq - kichkina, lekin shovullab oqadigan suv ma’nosidadir. S.Qorayev fikricha, Chirchiqni Sirchiq, ya’ni “kichik sir” deb izohlash to’g’ridir. Ayrim olimlarning fikricha, ana shu Chiyirchiq aynan Chirchiq,demak, Chirchiq Sirchiqning til taraqqiyoti davomida yuzaga kelgan fonetik varianti. Sir (Sirdaryo) fonetik o’zgarish bilan Chirga o’tgan. Keyinchalik kichik ma’nosini ifodalovchi -chiq aks etgan. [1] Bu holat turkiy tillarda daryo nomlarining shakllanishida fonetik qisqarish va suffiks qo’shilishi orqali yangi toponimlar yuzaga kelishining odatiy jarayoniga misol bo’ladi. Yana bir manbalarda, Chirchiq – Sirdaryoning o'ng irmog'i. Chirchiq gidronimi dastlab Temur tarixida tilga olingan. Bobur bu daryoni Chir siyi degan. Mug' tog'idan topilgan sug'd hujjatlarida (VIII asr) Shosh shahridan janubdagi hududlar haqidagi axborotlarda Chirchiq degan nom tilga olingan. Chirchiqni Sir – chiq, ya'ni «Kichik Sir (daryo)» deb atash to'g'ridir.[2]

Tarixiy manbalarda Chirchiq daryosi qadimdan sug’orish tarmog’ining muhim qismi sifatida eslatib o’tiladi. Chirchiq shahri Bo’stonliq, Yuqori Chirchiq va Qibray tumanlari bilan chegaradosh bo’lib, bugungi kunda aholisi 170 ming kishidan ortiq. Shaharda 44 ta mahalla fuqarolar yig’inlari tashkil etilgan.

Chirchuq shahrining toponomik shakllanish bosqichlari haqida aytib o’tsak,

Chirchiq shahrining shakllanishi va rivojlanishida to’rtta asosiy bosqichni ajratish mumkin:

1.Ilk bosqich (1930–1950-yillar): SSSR davrida Chirchiq sanoat shahri sifatida barpo etilgan. Shu bois, ko’chalarga ko’proq sotsialistik g’oyalarni aks ettiruvchi nomlar berilgan: Lenin, Kirov, Sovet, Oktyabr va boshqalar.

2.Iqtisodiy yuksalish davri (1950–1980-yillar): Shaharda yangi mahalla va uy-joy massivlari paydo bo'ldi. Bu davrda texnika, fan va mehnat bilan bog'liq nomlar ko'p tarqaldi: Metallurglar, Kimyogarlar, Energetiklar.

3.Mustaqillik davri (1991-yildan so'ng): Ko'chalarning nomlari milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar va qadimiy o'zbek terminlariga o'zgartirildi. Masalan: Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur, Istiqlol, Mustaqillik va boshqalar.

4.Zamonaviy bosqich (2020-yillardan hozirgacha): Hozirda Chirchiqda yangi massivlar paydo bo'lmoqda va ularning nomlari ham yangicha yondashuv asosida belgilanmoqda. Endilikda ekologik, madaniy va hududiy xususiyatlarni aks ettiruvchi nomlar ko'proq qo'llanmoqda: Bog'zor, G'alaba, Nurli yo'l va hokazo.

Masalan: Chirchiq shahridagi ko'plab mahalla va ko'chalarning nomlari mustaqillikdan keyin yangi nomga almashtirilgan.. Masalan, "Hayot guli" mahallasida 12 ta ko'cha bor: "Bog'ishamol" ko'chasi oldin Еделькин nomi bilan atalgan. A.Avloniy ko'chasi Amangeldi nomi bilan, M.Koshg'ariy ko'chasi Некрасов nomi bilan atalgan. "Ozodlik", Pushkin, "Paxta" ko'chalarining nomi o'zgarmagan. N.Kubro ko'chasi oldin Лермонтов, "Tashabbuskorlar" ko'chasi "Новый квартал", "Poyabzalchilar" ko'chasi "Обувная", H.Boyqaro ko'chasi "Огородная", "Qudrat" ko'chasi "Розета", Al-Buxoriy ko'chasi oldin Маяковский nomi bilan atalgan. "Mirzo G'olib" mahallasi joylashgan hudud Chirchiqning tarixiy aholi manzilgohlaridan biri hisoblanadi. Bu yerlar asosan Qipchoq nomi bilan mashhur bo'lgan. Xususan, ma'lumotlarga qaraganda, ushbu yerlar XVII asrdan Qipchoq deb yuritila boshlangan.

Chirchiq shahrining Troitsk hududida mahalliy xalq tilida aytiladigan "Лагерный" degan joy bor. Ushbu atamaning etimologiyasini ko'pchilik bilmaydi. Mazkur atamaning paydo bo'lishiga sabab, ushbu joyda yapon asirlari uchun urushdan keyin lager barpo qilingan bo'lgan. Hozirda bu joyda lager yo'q, ammo xalq tilida uning nomi saqlanib qolgan. Ikkinchi jahon urushida harbiy asirlikka tushgan yaponiyaliklar sobiq SSSR tarkibidagi mamlakatlarga qurilish ishlariga yuboriladi. Ularning bir qismi Markaziy Osiyoga, shu qatorda O'zbekistonga joylashtiriladi. O'zbekistonga 25 mingga yaqin yaponiyalik fuqarolar yuboriladi. Ularning mehnatidan qurilish va xo'jalik sektorida foydalanilgan. Shular qatorida ular Chirchiq shahrini obodonlashtirish, yangi binolar qurilishiga ham jalb etiladi.**[3]** Ko'p joylarning rasmiy nomi bilan bir qatorda xalq tomonidan qo'yilgan og'zaki mahalliy nomi ham bor. Masalan, shahardagi "Madaniyat" mahallasida harbiy qism

joylashganligi sababli mahallaning ko’p fuqarolari harbiylar hisoblanadi. Xalq tilida ushbu hududga “Harbiy shaharcha” (“Военный городок”) degan norasmiy nom ham berilgan.

“Iqbol” mahallasi hududida esa, Chirchiq shahrining ramzi sanalgan urush qurbonlariga bag’ishlangan, Turnalar monumenti bunyo etilgan. 1972-yil 8-may kuni shaharning Troitsk hududida Bo’zsuv kanali bo’yida Oqqovoq GES-i oldida Ikkinchi jahon urushida halok bo’lgan chirchiqliklarga bag’ishlangan “Turnalar monumenti” o’rnatiladi. Dunyoning 40 ga yaqin shaharlarida urushda halok bo’lgan askarlar uchun turnalar timsolida bunga o’xshash monumentlar o’rnatilgan. Bu tepalikda har bahor qizil rangdagi gullar gullashi uchun ularga alohida parvarish ko’rsatiladi. Bu qizil gullar ramziy olov bo’lib, ularning ichidan turli uzunlikdagi uchta oq rangdagi o’q uchib chiqadi. Turli uzunlikda bo’lishining sababi shundaki, har bir insonning taqdiri har xil va hayotdagi balandligi ham turli xil. O’q tepasida - 20 metr balandlikda ularga sal tegmasdan turnalar uchib o’tadi. Turnalar guruhi - bu umid va baxt timsoli. Agar yaxshilab ushbu kompozitsiyaga qarasa, turnalar o’rtasida bir joy tartibi buzilgandek, yana bir qush yetishmayotgandek ko’rinadi. Bu turna qush pastda yarador bo’lib uchib ketayotgan safdosh turnalariga qarab ulardan qolib ketgan tasvirdagi haykali o’rnatilgan. Ushbu turnalar guruhidan qolib ketgan yarador turna qushi boqiy qayg’u ramziy ma’nosini ifodalaydi.[4]

Ushbu yodgorlik Chirchiq shahrining tarixiy xotirasini saqlab qolishdagi muhim timsollardan biridir. U nafaqat urush qurbonlariga hurmat ifodasi, balki shahar ahlining birlik, sabr-toqat va insonparvarlik ruhini aks ettiradi.

Chirchiq shahri hududida joylashgan va hozirgi kunda "Troiska" nomi bilan tanilgan toponim esa, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida rus ko‘chmanchilari tomonidan asos solingan “Troitskoye” (ruscha: Троицкое) qishlog‘i bilan bog‘liq. Ushbu nom, o‘z mohiyatiga ko‘ra, pravoslav diniy an’analaridan kelib chiqib shakllangan bo‘lib, “Troitsa” (ruscha: Троица) - ya’ni Muqaddas Uch Birlik (Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh) tushunchasiga ishora qiladi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, XX asr boshlarida Toshkent vohasida rus ko‘chmanchilari tomonidan qator aholi punktlari tashkil etilgan. Ular orasida Bo‘zsuv daryosi bo‘yida tashkil topgan “Troitskoye” qishlog‘i muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu hududda 1895–1897-yillarda rus pravoslav cherkovi - Georgiyevskiy cherkovi qurilgan, bu esa qishloq nomining diniy mazmunini yanada mustahkamlagan. Zamonaviy Chirchiq hududida “Troitskoye” nomi o‘zbek tilida og‘zaki shaklda soddalashtirilib, “Troiska” tarzida talaffuz qilina boshlangan. 1935-yilda Chirchiq shahri tashkil etilganida, Troitskoye qishlog‘i shahar tarkibiga qo‘shilgan. Shundan so‘ng, bu

hududning nomi rasmiy hujjatlarda va xaritalarda “Troisk” shaklida ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Chirchiq shahrining toponomikasi uning boy tarixiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotini yaqqol aks ettiradi. “Chirchiq” nomining kelib chiqishi qadimgi turkiy tillarga borib taqalib, daryo va suv manbai bilan bog’liq bo’lgan tabiiy hodisalarga asoslanadi. Shahar shakllanishining turli bosqichlarida ko’chalarga berilgan nomlar ijtimoiy tuzum, siyosiy g’oyalar va milliy qadriyatlarning o’zgarishlarini ifoda etadi. Mustaqillikdan keyingi davrda esa milliylik va tarixiylik asosida yangicha nomlar berildi. Rasmiy nomlardan tashqari, xalq orasida saqlanib qolgan og’zaki toponimlar - “Harbiy shaharcha”, “Lager” kabi atamalar - mahalliy xotiraning tirik ifodasi bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, “Turnalar monumenti” kabi ramziy obidalar Chirchiq shahrining tarixiy xotirasi, urush qurbonlari xotirasiga hurmat va insoniy qadriyatlarni yuksaltirishda muhim o’rin tutadi. Demak, Chirchiq shahrining toponomik manzarasi shahar hayotining tarixiy, madaniy va ruhiy qatlamlarini yoritib beradi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. U.A. Maxmudov,. “O’zbekiston joy nomlarining izohli lug’ati” Toshkent. 2022 yil.
2. Z. Madrahimov. “Ma’ruza matni:, “Tarixiy toponomika”, Namangan – 2010 yil.
3. Самеджанов А., Таджибаев Ў. Чирчиқ шаҳар маҳаллалари тавсифи. – Т.: “Машҳур-пресс нашриёт”, 2021.
4. A. A. Abdullayev., “ChIrchiq shahri mikrotoponimlarining lingvomadaniy guruhlari” science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 5 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

**Joldasova Umida Turganaliyevna**
Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani
28 - umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi

## BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHLARIDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning samarali metod va vositalari tahlil qilinadi. Tarixiy bilimlarning o’quvchida tarixga qiziqish*

*uyg'otish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosalash qobiliyatini rivojlantirishdagi roli yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarixiy tafakkur, boshlang'ich sinf, metodika, tarixiy materiallar, o'quvchi faolligi.*

Tarix insoniyat tajribasining yirik ombori bo'lib, u yosh avlodga milliy o'zlikni anglash, tarixiy ongni shakllantirish va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim vositadir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida tarixiy tafakkurni shakllantirish — bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.Aslida o'zi tarixiy tafakkur tushunchasiga to'qtalib o'tsak,

**Tarixiy tafakkur** — bu tarixiy voqealarni vaqt, makon, sabab-oqibat nuqtai nazaridan tushunish, tahlil qilish va ularni hozirgi hayot bilan bog'lab fikr yuritish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisida bu tafakkurni rivojlantirish — voqealarning vaqt tartibini anglash, tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berish, tarixiy joylar haqida tasavvurga ega bo'lish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.Oquvchilarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishda bir nechta metodlarni qo'llash yaxshi natija beradi,bu metodlar quyidagilar:

Bu metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishda samarali hisoblanadi:

- **Suhbat va savol-javoblar:** Tarixiy voqealar haqida savollar berib, o'quvchining tarixiy tafakkurni mustahkamlash.
- **Taqdimot va hikoya qilish:** Tarixiy voqealarni o'qituvchi tomonidan jonli, obrazli tarzda bayon etish.
- **Rasmlar va xaritalardan foydalanish:** Tarixiy joylar, belgilar, shaxslar suratlari yordamida tasavvurni boyitish.
- **Rol o'ynash (dramatizatsiya):** O'quvchilarning tarixiy obrazlarda ishtirok etib, voqealarni "his qilishlari"ga imkon yaratadi.
- **Vaqt jadvali (xronologiya) tuzish:** Voqealarning vaqt tartibini tushuntirish orqali tarixiy tafakkurni mustahkamlash.

Bu mashg'ulotlarni olib borishda, o'quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O'qituvchi o'quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo'llarini o'rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha ko'rsatmalar beradi.[1]

Bu metodlar bilan ishlashda,o’qituvchi tarixiy materiallar tanlash tamoyillarini hisobga olish muhim.Buning uchun, boshlang’ich sinf uchun mo’ljallangan tarixiy materiallar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Yoshga moslik
- Tarbiyaviy ahamiyatga egalik
- Milliy qadriyatlar bilan uyg’unlik

Hozirgi kunda, boshlang’ich ta’lim bosqichida ―Atrofimizdagi olam va ―Tarbiya fanini o’rganish tavsiflash, tahlil qilish, umumlashtirish, asoslash kabi ko’nikmalarni shakllantirish kabi maqsadlarga erishishga qaratilgan. Bu fanni o’rganish natijasida o’quvchi Vatan tarixidan (turli tarixiy davrlardagi odamlarning hayoti, mehnati, urf-odatlari suratlari), ona yurt - Vatan tarixidan (xalq mehnati, kasbining o'ziga xos xususiyatlari, muhim tarixiy ma'lumotlar) ma'lum tarixiy dalillarni bilishga erishadi. Bu fanlarni o’zlashtirish davomida maktab o'quvchilari Vatan tarixidan alohida o'rganilgan voqealarni tasvirlay olishlari, davlat chegaralarini, aholi joylarini va hokazolarni xaritada, globusda ko'rsatishlari lozim bo’ladi.[2]

Bu ko’nikmalar nafaqat tarixiy materiallarni o’zlashtirishda, balki boshqa fanlarda ham o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.Bunda

tarixiy materiallarni o’rganish jarayonida o’quvchi:

1. Turli davrlardagi odamlar hayoti, mehnati va urf-odatlari haqida bilib oladi;

2. Ona yurt tarixidan muhim dalillarni eslab qoladi va ifoda eta oladi.

O’zi tarixiy materiallar bilan ishlash jarayoni faqatgina bilim berish emas, balki tarbiyaviy, axloqiy, milliy g’ururni shakllantirish vositasidir. O’qituvchi bu materiallarni tanlayotganda yuqoridagi tamoyillarga amal qilsa, o’quvchilar tarixni nafaqat o’rganadi, balki undan saboq oladi, o’z millatining o’tmishini chuqur anglab yetadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinf o’quvchisida tarixiy tafakkurni shakllantirish uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda o’quv materiallari, o’qituvchi faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim rol o’ynaydi. Tarixiy ongni erta bosqichda shakllantirish orqali yosh avlodda mustahkam dunyoqarash, milliy g’urur va yuksak ijtimoiy faollikni tarbiyalash mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. I. A. Elmurodova, “Interfaol ta’lim vositasida o’quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentli yondashuv”, “Zamonaviy boshlang’ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. 2023 y. 29-30 b.
2. S.A. Toshtemirova, “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishning nazariy jihatlari” Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 y. 892-293 b.
3. Joldasov I.S. Methodology for the formation of professional competence of future teachers // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. Volume 2, Issue 4, 2024..
4. Joldasov I.S. Tasks Implemented in Professional Schools to Send Students to Professions // International Interdisciplinary Research Journal:Vol 2. Issue 2. 2023.
5. Joldasov I.S. Elektron ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari// Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2024. – № 5/3. – Б. 129-134.

**Юлдашева Гулноза Шукуровна**
ассистент Ташкентский архитектурно
-строительный университет.

## "ЖЕНЩИНЫ-ИССЛЕДОВАТЕЛИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ИЗУЧЕНИЕ ФЛОРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1920–1970 ГГ.)"

**Аннотация:** Начало XX века, отмеченное масштабными социально-политическими преобразованиями, открыло новые возможности для образования и профессиональной деятельности. Это отражалось не только в повышении числа выпускниц высших учебных заведений, но и в активном вовлечении женщин в исследования уникальной флоры региона.

В первой половине XX века научное сообщество, особенно в рамках советского пространства, начало кардинально меняться: Флора Центральной Азии с её уникальным сочетанием пустынных, горных и степных экосистем всегда вызывала живой интерес

ученых.[72] В период с 1920-х по 1970-е годы значительный вклад в изучение разнообразия растений региона внесли женщины-учёные. Несмотря на социальные и институциональные сложности, они смогли создать прочную научную базу, которая стала отправной точкой для дальнейших исследований и практического применения знаний в сельском хозяйстве и охране природы. О также Возникали новые направления исследований, и одновременно происходил процесс социальной модернизации. Одной из ключевых областей стала ботаника Центральной Азии, где уникальное сочетание пустынь, степей и горных экосистем привлекало внимание исследователей. В этот период женщины-учёные, несмотря на гендерные стереотипы и институциональные сложности, сыграли важнейшую роль в изучении флоры региона. Их научный вклад оказал влияние не только на развитие ботаники, но и стал ярким примером борьбы за гендерное равенство в науке.

**Исторический контекст и условия научной деятельности**

Эпоха с 1920-х по 1970-е годы в СССР стала временем широких социальных преобразований. Государственная политика в области образования и науки нередко способствовала продвижению женщин в научной сфере. В регионах, таких как Центральная Азия, где традиционные установки постепенно уступали место современным научным подходам, женщины––большинство из которых получали высшее образование––начали активно участвовать в полевых экспедициях и систематизации уникальной растительности. Несмотря на недостаток современных технических средств и зачастую ограниченные ресурсы, именно в этот период сложилась база данных по флоре региона, благодаря кропотливой работе женщин-исследователей. В странах Советского Союза, куда входил и Центральноазиатский регион, государственная политика в области науки способствовала привлечению женщин к научной работе. Это отражалось не только в повышении числа выпускниц высших учебных заведений, но и в активном вовлечении женщин в исследования уникальной флоры региона. Современные

[72] **Никулиная, Е. В.** (1972). *Вклад женщин-учёных в изучение флоры Средней Азии*. Ташкент: Изд-во Академии наук Узбекистана. *Комментарий:* В монографии рассматривается роль женщин-исследователей, их вклад в полевые исследования и систематизацию растительного мира региона.

исследования подчеркивают, что уже тогда женский научный коллектив играл важную роль в развитии биологических наук.

**Научный вклад в изучение флоры Центральной Азии**

Женщины-учёные играли решающую роль в организации и проведении полевых исследований. Они собирали гербарные экземпляры, вели подробные описания новых таксонов, разрабатывали методики полевых наблюдений и систематизации данных, что в дальнейшем стало основой для создания обширных флористических каталогов. Например, монографии и статьи того времени (Никулина, Е. В., Сафонова, Л. А., Козлова, М. П. и другие) демонстрируют, как сложные условия Центральной Азии не помешали женщинам-исследователям проводить систематические исследования и формировать первые научные базы по флоре региона. Их усилия способствовали не только открытию и описанию новых видов, но и заложили фундамент для дальнейших экологических и сельскохозяйственных разработок.[73]Организация полевых работ, сбор гербарных образцов, систематизация и описание эндемичных видов стали основой для создания первых фаунологических и флористических каталогов региона. Благодаря кропотливому анализу собранного материала были выявлены новые таксоны, уточнены границы распространения известных видов и разработаны методики исследования биоразнообразия в условиях резко меняющегося климата.

**Преодоление барьеров и специфические трудности**

Несмотря на активное участие женщин в научной деятельности, они сталкивались с рядом трудностей, связанных с укоренёнными социальными представлениями о «традиционной роли» женщины. В условиях патриархальных традиций требовалось преодолевать не только технические и организационные трудности, но и гендерные предубеждения. Однако благодаря государственной поддержке науки и усилиям самих исследовательниц, многие из них смогли добиться высокого звена профессиональной признанности. Их успехи стали своего рода доказательством того, что научные таланты и стремление к знаниям не зависят от пола. Эти женщины

[73] **Сафонова, Л. А.** (1965). *Ботаника Центральной Азии: история исследований и современные тенденции*. Алма-Ата: Научное изд-во Казахского государственного университета. *Комментарий:* Работа посвящена эволюции ботанических исследований в регионе, акцентируя внимание на участии женщин-учёных в экспедиционных исследованиях.

создавали новые стандарты работы в условиях сложного климата и географических трудностей Центральной Азии, внося существенный вклад в борьбу за гендерное равенство в науке. О также работая в условиях ограниченного финансирования, дефицита современного оборудования и, нередко, жестких социальных стереотипов, женщины-учёные сталкивались с серьезными трудностями. Однако их самоотверженность, упорство и творческий подход позволили не только преодолеть гендерные барьеры, но и добиться значительных научных результатов. Эти исследовательницы зачастую организовывали экспедиционные группы, разрабатывали новые методики полевых исследований и парковали идеи, которые потом легли в основу советской ботанической науки.

**Гендерное равенство в науке: исторические уроки и перспективы**

Опыт женщин-учёных 1920–1970 гг. показывает, что равенство в науке требует не только юридических гарантий, но и культурных перемен, формирования нового отношения к роли женщины как равноправного участника научного процесса. Публикации в области гендерных исследований [74](например, работы Булатовой, Н. А.) подчеркивают, что достижение равенства потребовало преодоления множества социальных и методологических барьеров. Исторический опыт показывает, что модернизация научной политики, инициативы по повышению образовательного уровня и поддержка молодых исследовательниц стали залогом не только развития науки, но и формирования современной научной среды, где гендерное равенство занимает важное место.

**Маскулинность в научном контексте и трансформация стереотипов**

Научное сообщество того периода зачастую воспринимало «науку» как область, традиционно ассоциируемую с мужскими качествами – рациональностью, решительностью, склонностью к риску. Однако достижения женщин-учёных в изучении флоры Центральной Азии показали, что маскулинные качества не являются исключительной прерогативой мужчин. Современные исследования в области гендерной теории демонстрируют, что маскулинность и

[74] Булатова, Н. А. (2008). Гендерное неравенство в науке: вызовы и перспективы развития. Санкт-Петербург: Издательство РГГУ.

фемининность являются социально сконструированными явлениями. [75]В рамках научной деятельности на смену жестким представлениям приходят более гибкие модели, позволяющие учитывать личные особенности специалистов. Таким образом, преодоление традиционных маскулинных норм становится важной составляющей развития инновационной, инклюзивной научной среды.

**Наследие и перспективы**

Пионерские исследования, проведённые женщинами-учёными в середине прошлого века, создали прочную основу для дальнейших научных открытий. Их научное наследие не только определило направления последующих исследований, но и стало стимулом для появления новых поколений исследователей, особенно женщин, в области ботаники и экологии. Признание их заслуг сегодня важно для формирования исторической памяти и поддержки гендерного равенства в науке.[76] Современные проекты и инициативы часто называют их примером, вдохновляющим для преодоления текущих вызовов в изучении биоразнообразия.

**Заключение**

Научный путь женщин-учёных в изучении флоры Центральной Азии в период 1920–1970 гг. является ярким примером того, как преодоление традиционных стереотипов может привести к качественным изменениям в научном сообществе. Их вклад в систематизацию флоры региона, проведение полевых работ и разработку методик исследования не только обогатил отечественную ботанику, но и стал важным элементом борьбы за гендерное равенство в науке. Сегодня этот опыт служит вдохновением для новых поколений исследовательниц, а его изучение позволяет лучше понять процесс трансформации

[75] Роль женщин в науке: исторический контекст и философские аспекты Ссылка: https://cyberleninka.ru/article/n/rol-zhenschin-v-nauke-istoricheskiy-kontekst-i-filosofskie-aspekty Описание: В данной статье анализируется место женщин в научном дискурсе, приводятся исторические примеры и обсуждаются философские аспекты гендерных отношений в науке. Исследование затрагивает вопросы традиционных маскулинных норм, а также перспективы феминистского переосмысления научной деятельности.

[76] **Козлова, М. П.** (1968). «Роль женщин в изучении растительного мира Средней Азии». *Журнал ботанических наук, №4, с. 45–60. Комментарий:* Статья подробно описывает методологию полевых исследований, в которых принимали участие женщины, а также анализирует их вклад в систематику флоры региона.

социокультурных устоев в условиях научного прогресса. [77]Несмотря на многие трудности, они сумели внести значительный научный и практический вклад, открыв новые горизонты для изучения природы. Наследие этих пионеров продолжает жить в современных исследованиях, способствуя разработке эффективных мер по сохранению уникального растительного мира Центральной Азии. В дальнейшем исследования в области гендерных отношений в науке могут опираться как на традиционные, так и на современные методики, интегрируя социокультурные и философские подходы для более глубокого понимания феноменов маскулинности и фемининности. Примеры успешных проектов, где преодолеваются устоявшиеся стереотипы, являются отличной мотивацией для новых поколений ученых, стремящихся к переменам в научном сообществе.

**Список литературы и интернет-ресурсов**

1. Никулиной, Е. В. (1972). *Вклад женщин-учёных в изучение флоры Средней Азии*. Ташкент: Изд-во Академии наук Узбекистана.

2. Сафонова, Л. А. (1965). *Ботаника Центральной Азии: история исследований и современные тенденции*. Алма-Ата: Научное изд-во Казахского государственного университета.

3. Козлова, М. П. (1968). «Роль женщин в изучении растительного мира Средней Азии». *Журнал ботанических наук*, №4, с. 45–60.

4. Алимова, Г. Р. (1958). «Полевые исследования флоры Узбекистана: опыт участия женщин-исследователей». *Наука и жизнь*, №2, с. 30–37.

5. **Булатова, Н. А.** (2008). *Гендерное неравенство в науке: вызовы и перспективы развития*. Санкт-Петербург: Издательство РГГУ.

**Интернет-ресурсы:**

1. Женщины как фактор социально-экономического развития в Центральной Азии *Описание:* Материал рассматривает современные аспекты женской роли в регионах Центральной Азии и открывает интересный контекст для исторического анализа.

[77]**Алимова, Г. Р. (**1958). «Полевые исследования флоры Узбекистана: опыт участия женщин-исследователей». *Наука и жизнь, №2, с. 30–37. Комментарий:* В статье приводятся результаты полевых работ, проводимых женщинами, и обсуждаются специфика и сложности организации экспедиций в сложных природных условиях.

2. Роль женщин-учёных и гендерное равенство: современный взгляд на традиции *Описание:* Научная статья, анализирующая тенденции гендерного равенства в науке на примере Узбекистана.

3. Участие женщин в развитии науки Узбекистана *Описание:* Публикация освещает вклад женщин в различные научные направления, включая природоведческие исследования.

4. Архивные материалы по истории ботаники Центральной Азии *Описание:* Официальный ресурс Академии наук Узбекистана, содержащий архивные публикации и отчёты по исследованиям флоры региона.

**Тўраев Азамат Мақсудович**
ЧДПУ мустақил тадқиқотчиси

## БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯЛАШДА БЎШ ВАҚТ СОҲАСИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Ҳозирги вақтда дунёда юз бераётган глобаллашув жараёни мамлакатларда иқтисодий, сиёсий, ижтимоий-маданий ҳаётда шиддатли ўзгаришлар рўй бериши билан бирга шахснинг маънавий барқарорлиги, миллий қадриятларни асраб-авайлаш қобилиятининг пасайиши кузатилмоқда. Шу сабабли ёшларнинг маънавий ривожланиши ва жисмоний саломатлигини сақлаш, шунингдек, мустақил фикрлайдиган, фаол интеллектуал салоҳиятли ахлоқий тамойилларга эга фуқароларни тарбиялаш зарурияти мавжуд. Инсоният тараққиётининг муайян босқичида жамият тараққиёти қонуниятларининг моҳиятини акс эттирувчи бўш вақтни ўтказиш амалиётини ўрганиш педагогиканинг долзарб масалаларидан бири сифатида намоён бўлмоқда. Бугунги кунда ўсмир-ёшларнинг ўтказган вақтларини таснифлаш, ундан самарали фойдаланиш усуллари, бўш вақтни оқилона режалаштириш масаласининг илмий ўрганилишига эҳтиёж мавжуд.

Ҳозирги вақтда дунёда юз бераётган глобаллашув жараёни мамлакатларда иқтисодий, сиёсий, ижтимоий-маданий ҳаётда шиддатли ўзгаришлар рўй бериши билан бирга шахснинг маънавий барқарорлиги, миллий қадриятларни асраб-авайлаш қобилиятининг пасайиши кузатилмоқда. Шу сабабли ёшларнинг маънавий ривожланиши ва жисмоний саломатлигини сақлаш, шунингдек,

мустақил фикрлайдиган, фаол интеллектуал салоҳиятли ахлоқий тамойилларга эга фуқароларни тарбиялаш зарурияти мавжуд. Инсоният тараққиётининг муайян босқичида жамият тараққиёти қонуниятларининг моҳиятини акс эттирувчи бўш вақтни ўтказиш амалиётини ўрганиш педагогиканинг долзарб масалаларидан бири сифатида намоён бўлмоқда. Бугунги кунда ўсмир-ёшларнинг ўтказган вақтларини таснифлаш, ундан самарали фойдаланиш усуллари, бўш вақтни оқилона режалаштириш масаласининг илмий ўрганилишига эҳтиёж мавжуд.

Тадқиқот мавзусининг долзарблиги шундаки, ўқувчиларнинг бўш вақтини боланинг ёш ва индивидуал хусусиятларига мос равишда ташкил қилишнинг педагогик асослари (тавсиялари), ҳамда боланинг мактабдан ташқари бўш вақтини оқилона ташкил қилиш масаласининг кўплаб педагогик жиҳатлари кўриб чиқилмаган..

Маҳаллий тадқиқотчилардан *Ш.Мардонов, А.Халиков, А.Садикова, Ф.Ибрагимова, Н.Артикова, Р.Шерметов, Э.Ноқувватовлар* мактаб ўқувчиларининг синфдан ташқари ишларини, фаолиятини ташкил қилишнинг назарий асослари ва амалий жиҳатларини; О.Мусурмонова мактаб ўқувчиларида юксак ахлоқий сифатларни шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари; Н.М.Кошанова ўқувчи шахсини ҳар томонлама ривожлантиришда синф раҳбарларининг функциялари ва фаолият йўналишлари; С.А.Тоштемирова ўқувчиларнинг қобилиятларини эрта аниқлашда кластер ёндашуви имкониятлари, ўқувчиларнинг бўш вақтини унумли ташкил қилиш жараёнида таълим субъектларининг касбий компитенциявийлигини ошириш бўйича самарали илмий-тадқиқот ишларини олиб борганлар.

*МДҲ олимларидан* Г.Грушин, Г.А. Ефтеева, Б.И.Дубсон, В.В.Журавлев, Г.Е. Зборовский, С.А.Кравшенко, Л.К.Круглов, Е.В.Бондаревская, Л.И.Новиковалар умумтаълим мактаблари ўсмир-ёшлари бўш вақтининг фалсафий, шунингдек социологик жиҳатларини; Е.И.Григорева, Т.Г.Киселова, Ю.Д.Красилникова, А.Д.Жаркова, Н.Ф.Максютина, Е.В.Соколова ва бошқалар «бўш вақт» тушунчасининг мазмуни, “дам олиш маданияти” ва унинг субъектлари, тузилмалари, функциялари бўйича; К.Д.Ушинский, А.С.Макаренко, С.Т.Шатский, П.П. Блонский, А.В.Мудрик, Н.Л.Селивянова, Н.Крупская, К.С.Романова ва бошқалар бўш вақтни

ташкил этишнинг психологик-педагогик жиҳатлари, унинг шахсни ривожлантириш ва мактаб ўқувчиларининг дунёқарашини шакллантиришга таъсири; Н.Н.Водомеров, Ф.А.Гимадеева, С.Ш.Лукманова, М.В. Мухамедянова, Л.К.Петрова, Ш.А.Амоношвили, О.С.Газман, В.А. Краковский ва бошқалар ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил қилишнинг шарт-шароитлари ҳақида илмий тадқиқоьар олиб борилган.

“Бўш вақт” мураккаб ижтимоий, иқтисодий, фалсафий ва педагогик муоммодир. Бизнинг фикримизча, бўш вақт воқеликни билишнинг бошланғич нуқтаси эмас, балки жамиятнинг ривожланиши ва фаолиятнинг муҳим томони, чуқур ижтимоий алоқалар ҳамда муносабатларнинг синтези сифатида намоён бўлади. Ҳозирги техноген цивилизация даврида инсон бўш вақтини сезиларли даражада кўпайиши учун реал имкониятлар пайдо бўлди.

Бўш вақт шахсни шакллантиришнинг муҳим воситаларидан бири бўлиб ишлаб чиқариш ва меҳнат соҳасига бевосита таъсир қилади. Бўш вақт шароитида салбий жисмоний ва руҳий стрессни бартараф этишга ёрдам берадиган реакцион ва регенератив жараёнлар содир бўлади. Ёшларнинг бўш вақтларидан фойдаланиши маданиятнинг ўзига хос кўрсаткичи бўлиб, бўш вақтни ташкил этиш шакллари орқали ёшларнинг қадриятлар ҳамда уларнинг маданий даражасини тушуниши осонроқ бўлади. Ҳозирги кунда таълим субъектларининг энг қийин аммо муҳим вазифаси ўсмирларнинг бўш вақтларидан унумли, оқилона ташкил қилишга ўргатиш ҳисобланади.

Бугунги кунда Европа мамлакатларида бўш вақт соҳасининг мазмуни ва аҳамияти тўртта асосий тушунча асосида тавсифланади:

1. Фаолият тури.
2. Психологик ҳолат.
3. Вақтинчалик макон.
4. Яхлит турмуш тарзи. [2]

Ҳозирги замонавий, ўзгарувчан шароитда ўсмирларнинг бўш вақтларини ижтимоий-педагогик салоҳиятини тўлиқ, тизимли ва самарали амалга ошириш мактабдан ташқарида ишлашнинг одатий соҳалари ва шаклларини кенгайтириш зарурияти мавжуд.

**Бўш вақт иккита муҳим томони, яна вазифаси мавжуд:**

Биринчидан, бўш вақт инсоннинг жисмоний кучини тиклашга қаратилган дам олиш вақти.

Иккинчидан, инсоннинг шахсий фазилатлари жисмоний ва маънавий ривожланишини таъминлайдиган вақт.

Рус тадқиқотчиларининг таҳлили шуни кўрсатадики, бўш вақтнинг моҳияти ижодкорлик вақти ҳам бўлиб, бу орқали инсон ўзининг «мен»ини ифодалайди, атрофдаги воқеликни ўрганади ва ўзгартиради, илгари мавжуд бўлмаган нарсани яратади ҳамда ишлаб чиқаради. Рус тадқиқотчилари А.Ф. Воловик, В.А. Воловиклар мактаб ўқувчиларининг маданий ва бўш вақтида қуйидаги асосий даражани тавсифлайди :

- истеъмол қилиш;
- яратиш;
- экстериоризация (ижтимоий фаолият).[1]

Истеъмол, маданий ва дам олиш фаолияти қуйидаги шаклларда бўлади:

- индивидуал ёки қўшма;
- фаол, пассив ёки мақсадли фаол.

**Тавсиялар:**

1. Мактаб ўқувчиларининг бўш вақтини унумли ташкил этиш тизимини яратишда касб-ҳунар педагоглари ва ижтимоий фаолларини тайёрлаш эҳтиёжи мавжудлиги ҳисобга олиниши зарур.
2. Ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил этишда қўлланиладиган шакл ва усулларининг самарадорлигини жиддий ўрганиш, ижобий натижа берган тажриба намуналарини оммалаштириш ишлари олиб борилиши лозим.

Бу эса бўш вақт педагогикасининг энг муҳим вазифаларидан бири билим ва ўйин-кулгуни уйғунлаштиришга, иккинчисини мазмун ва маъно билан тўлдиришга имкон берадиган шундай йўллар, бундай шакллар, воситалар ва усулларни излашни келтириб чиқади.

Маданият даражаси юқори бўлмаган одамнинг бўш вақтини ўтказиш фаолияти асосан стреотип ва конформизм белгиларига эга бўлади. Бўш вақтда у билим ва ривожланишни эмас, балки ўйин кулгуни ва бундан ташқари минимал маънавий таранглиқни талаб қиладиган даражада излайди.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

**1.** Воловик А.Ф., Воловик В.А. Педагогика досуга : Учебник.-М.: Флинта: Московский психолого-социальный институт, 1998-с.50.(240с)
**2.** Мишутина О.В. Организация досуговой деятельности школьников// Учебно-методическое пособие для студентов педагогических учебных едений.-Балашев: 2006.-С.23.
**3.** Розова И.Н.Проблема оранизации свободного времени школьников в Г.Москве .//Таврический научный обозреватель .WWW/tavr/science №5(10)-май 2016.
**4.** Хусейнова, З. А. Образовательная среда по Л. С. Выготскому / З. А. Хусейнова. - Текст: непосредственно // Молодой ученый. - 2016. -

***Barotov Sirojiddin Bahridinovich***
ChDPU mustaqil izlanuvchisi

## XVII ASRNING O‘RTALARIGACHA BO‘LGAN DAVRDA BUXOR XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIY HAYOTI. NOROZILIK HARAKATLARI

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada XVII asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda Buxoro xonligi aholisining ijtimoiy hayoti va norozilik harakatlari tahlil etilgan. Siyosiy beqarorlik, soliq yukining og‘irligi va hukmdorlarning zulmkor siyosati natijasida aholi orasida norozilik kuchayib, ko‘plab qo‘zg‘olonlar yuzaga kelgan. Xususan, Balx va Toshkent shaharlarida sodir bo‘lgan isyonlar hukmronlik siyosatining qanchalik keskin bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada Imomqulixon va Nadr Muhammadxon davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, shaharlarning vayron bo‘lishi va aholi turmush darajasining yomonlashuvi tafsilotlari manbalarga asoslangan holda ochib berilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *ijtimoiy, siyosiy beqarorlik, po’ladchi, ko’kaldosh, Qoratog’, Ashpara, xarvar, uzangi*

XVII-asr boshlarda Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Xonlik viloyatlarida va yirik shaharlarda hukmron sulola vakillari o’zlarining mustaqil hukmronligini o’rnatishga intildilar. Yirik davlat amaldorlari va harbiy sarkardalar markaziy hokimiyatga bo’ysunmaslik yo’lini tutdilar. Tashqi kuchlarning davlat sarhadlariga hujumlari va siyosiy hayotda barqarorlikning bo’lmasligi oqibatida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tobora og’irlashib boraverdi. Bu esa, xonlikda istiqomat

qiluvchi aholi turmush-tarzining yomonlashishiga va vaziyatning keskinlashuviga olib keldi[1, 162]. Bundan tashqari aholidan yig'iladigan soliqlarning judayam ko'pligi va zimmasiga turli majburiyatlarning yuklanishi ularning ahvolini yanada og'irlashtirardi. Oqibatda, ashtarxoniylar davrida xonlikning turli hududlarida qo'zg'olonlar va norozilik harakatlari ko'tarilib turgan. Shunday qo'zg'olonlardan biri 1608-yilda xonlikning janubiy sarhadlarida joylashgan Balx shahrida ko'tarildi. Bu qo'zg'olonga sabab, o'zbeklarning *po'ladchi* qabilasidan bo'lgan amaldor Shohbek Ko'kaldoshning aholiga jabr-zulmi edi[2, 79]. Ma'lum bo'lishicha, Balx hokimi etib tayinlangan Shohbek Ko'kaldosh aholiga jabr-zulm o'tkazadi. Jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan aholi vakillarini turli qiynoqlarga solib, ularni tahqirlab kelgan. Bundan norozi bo'lgan aholi vakillari Balxni boshqarayotgan hukmron sulola vakillari bo'lmish Imomqulixon va Nadr Muhammad sultonlarga murojaat qilishadi. Ular Shohbek ko'kaldoshni lavozimidan ozod qilishni talab qilishgandi. Lekin, ularning murojaatlari qondirilmaydi. Natijada, bundan norozi bo'lgan Balx aholisi qo'zg'olon ko'taradilar. Muarrix Muhammad Yusuf Munshiy ma'lumotiga ko'ra, qo'zg'olonchilardan qo'rqqan Shohbek ko'kaldosh qochib Abdullaxon madrasasiga yashirinadi. U madrasa darvozalarini mustahkam yoptiradi va uni quvlab kelgan olomon ustiga o'q yomg'irlarini yog'diradi. Lekin, qo'zg'olonchilar ichidagi bir guruh yosh yigitlar tunda madrasa devorining bir qismini buzib, ichkariga kirishga muvaffaq bo'ldilar. Ular Shohbek ko'kaldoshni qo'lga tushirishib olomonni oldiga sudrab olib chiqadilar. Undan jabr-zulm ko'rgan qo'zg'olonchilar, uning o'limini dahshatli tarzda amalga oshirdilar. Avval uning boshi yirik buqalar yordamida tanasidan uzilib, so'ngra burdalangan tanasi qizdirilgan yog'ga tashlanadi[2, 80]. Shu tariqa Shohbek ko'kaldoshning Balxdagi zo'rovonliklari o'z nihoyasiga yetdi.

1611-yilda Vali Muhammadxondan keyin Buxoro xonligi taxtiga uning jiyani, sulolaning eng ko'zga ko'ringan vakili Imomqulixon(1611-1642) o'tirdi. U ukasi Nadr Muhammadxonni Balx noibi etib tayinlaydi. Imomqulixon o'ttiz yildan ko'proq vaqt davomida xonlik taxtini boshqargan, mamlakatda nisbatan osoyishtalikni ta'minlay olgan va davlatni ancha markazlashtirgan sulola vakili hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, uning davrida ham aholining norozilik chiqishlari sodir bo'lgan. Bu harakatlar Imomqulixonning mamlakat shimoliy-sharqiy chegaralariga xavf solib turgan qozoq va qalmoqlarga qarshi kurashidan so'ng sodir

bo'ladi. Xon 1612-1613-yillarda ularni ta'qib qilib Qoratog' va Ashparagacha boradi. Bu yurishlar vaqtida ko'chmanchilarning ko'pchiligi qirib tashlandi. Omon qolganlari esa, o'rmonlarga yashirindi, tog'larga qochib chiqdi[3, 261]. Bu harakatlar natijasida Toshkent va unga tutash hududlar Buxoro xonligi tasarrufiga o'tadi. Imomqulixon o'g'li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinlaydi. Iskandar sulton Toshkentni juda qattiqqo'llik bilan boshqaradi. Aholidan qo'shimcha soliq va to'lovlar undiriladi. Natijada, Toshkent aholisi Iskandar sultonga qarshi isyon ko'tardi. Bu isyon oqibatida, Iskandar sulton o'ldirildi. Bu xodisadan Imomqulixon juda qattiq ta'sirlandi. U inisi Balx hokimi Nadr Muhammadxondan harbiy yordam so'raydi. Balx va Badaxshondan kelgan yordam kuchlari bilan yurishga otlangan Imomqulixon Toshkent qamaliga tutinadi. Shahar aholisi qamalga uzoq bardosh bera olmaydi. Shahar darvozalaridan biri portlatilib, xon qo'shinlari shaharga kiradi. Shahar vayronaga aylantiriladi. Imomqulixon o'g'lining o'ldirilishi haqidagi xabarni eshitgach, juda qayg'uga tushib qolgandi va jahl ustida shahar aholisini qirib tashlashi, otining uzangisigacha qonga botmasa bu qirg'inni tugatmasligi haqida qasam ichadi. Imomqulixon ichgan qasamiga muvofiq, shahar aholisining ko'p sonli qismini qirib tashlaydi[2, 87]. Yosh-qari qilichdan o'tkazildi. Begunoh aholining katta qismi Imomqulixon ichgan qasam qurboniga aylandi. Qatl qilinganlar soni shu darajada ortib ketdiki, harbiy sarkardalar oddiy xalqqa rahmi kelganidan bu jarayonlarni to'xtatishni xondan iltimos qilishdi. Lekin, Imomqulixon isyonchilarning qoni otining uzangisigacha yetmagunicha to'xtatmasligi haqida qasam ichganligini va bu ish amalga oshmagunicha to'xtamasligini aytadi. Shundan keyin harbiy amaldorlar va amirlar bu masalani hal etish uchun yig'iladilar. Ular din ulamolariga murojaat qilishadi. Ulamolar bunga yechim sifatida quyidagi ishni qilish haqida fatvo beradilar: "xon oti bilan suvi otning uzangisigacha tegadigan hovuzga tushsin va bu suvga qatl etilganlarning qonini aralashtirilish lozim, shu yo'l bilan xonning qasami ado etiladi". Amirlar ulamolar fatvosi mazmunini Imomqulixonga yetkazadilar. Bu ish ular aytganidek, amalga oshiriladi. Shu tariqa xonning qasami ado etildi[2, 88]. Imomqulixon hukmronligining keyingi yillarida yirik qo'zg'olonlar va norozilik namoyishlari kuzatilmadi. Chunki, Ashtarxoniy hukmdorlar ichida hech kimning davrida Imomqulixon davridagichalik xalqning ijtimoiy ahvoli yaxshilanmagan. XVII asrning 40 yillari o'rtalarida Balxda aholi yana norozilik harakatlarini boshlaydi. Bu

harakatlar dastlab hukmdor Nadr Muhammadxon(1642-1645) siyosatiga qarshi boshlangan bo'lsa, keyinchalik boburiy shahzodalar Murodbaxsh va Avrangzeblarning Balxni qamal qilishlariga qarshi yo'naltirildi[4, 35]. Nadr Muhammadxon oliy hokimiyat tepasida uzoq o'tirmadi. Uning hukmronligi bor yo'g'i 3 yil davom etdi xolos[5, 309]. Akasi Imomqulixon erishgan barcha narsalarni yo'qqa chiqardi. Hokimiyatni o'ndan ortiq o'g'illari va jiyanlariga taqsimlab berdi. Nadr Muhammadxon 1645-yilning kuzida Buxoro taxtidan mahrum bo'ladi va Balxga qochib ketadi[1, 180]. Ammo, oradan uch oy o'tar-o'tmas xoinlikda ayblangan Nadr Muhammadxonga qarshi Balxda qo'zg'olon ko'tarildi. Chunki, Nadr Muhammadxon qo'ldan chiqarilgan hokimiyatni qaytarib olish uchun Boburiyzoda Shoh Jahonga yordam so'rab murojaat qilgandi[2, 97]. Lekin, Shoh Jahon bunday vaziyatda yordam berishdan ko'ra, bira to'la Balxni bosib olishni ma'qul ko'radi. Shu maqsadda ikki o'g'lini katta qo'shin bilan Balx tomonga yuboradi. Bunday vaziyatda Nadr Muhammadxon qochiq qoldi. Balx viloyati esa, 2 yil davomida talon-toroj qilindi va vayronaga aylantirildi. Balx aholisining ahvoli og'irlashib qashshoqlik darajasi oshdi. Bozorlarda narx-navolar qimmatlashib, ocharchilik boshlandi. Muhammad Yusuf Munshining ma'lumot berishicha, bir xarvar(bir eshak ko'tarishi mumkin bo'lgan 300 kgga yaqin og'irlikdagi yuk) bug'doyning narxi yuz ming rupiyagacha ko'tarilgan. Ko'pchilik fuqarolar o'z makonlarini tashlab Amudaryo orqali shimolga-Movaraunnahrning boshqa viloyatlarga qochib ketishga majbur bo'ldilar[5, 310]. Bunday og'ir sharoitda 1648-yilda Balx viloyatining turli tumanlarida bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida Buxoro qo'shinlarining boburiyzodalarga qarshi kurashida qo'l keldi[6, 180]. Shunday sharoitda Abdulazizxon katta qo'shin bilan Balxga keladi. U Balxni Shox Jahonning o'g'illari ta'siridan ozod qildi. Lekin, ko'p o'tmay Balxda yana Nadr Muhammadxon paydo bo'ladi. Bu safar uning hukmronligi uzoqqa cho'zilmaydi. Abdulazizxon otasiga qarshi ukasi Subhonqulixonni yuboradi. Shu kabi urushlar Balx aholisi ahvolini borgan sari og'irlashtirib boraverdi. Bundan tashqari qo'shni davlatlarning xonlik sarhadlariga tez-tez hujum qilib turishlari ham aholi ijtimoiy turmushini qiyinlashtirgan. Ayniqsa, XVII asrning 50-yillari o'rtalaridan e'tiboran Xiva xonligi qo'shinlarining Buxoro xonligi viloyat va tumanlariga tez-tez bostirib kirishlari va Balx bilan munosabatlarning yomonlashuvi og'ir oqibatlarga olib kelgan[7, 121-122]. Xonlikning iqtisodiy hayoti borgan sari izdan chiqib boraverdi. Bunday

vaziyatda oldingi davrlarda bo'lgani kabi davlat xazinasini to'ldirishning asosiy vositasi bu soliqlar va turli yig'imlardir. Soliqlarning asosiy qismi esa, oddiy xalq zimmasiga yuklanadi. Bu omillar oddiy xalqning sabr-kosasini to'ldiradi.

Xullas, Buxoro xonligi aholisining XVII asr oʻrtalarigacha boʻlgan ijtimoiy hayoti tarixiy davrning murakkab jarayonlarini aks ettiradi. Ushbu davrda xonlik ichki siyosiy tarqoqlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va xalq noroziligi bilan toʻqnash keldi. Markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlarda amaldorlar mustaqil hukmronlikka intilgan. Ogʻir soliqlar va zulmga asoslangan boshqaruv tizimi aholining noroziligini kuchaytirib, koʻplab qoʻzgʻolonlarga sabab boʻldi. Balx va Toshkent shaharlarida yuz bergan qoʻzgʻolonlar bunga yaqqol misol boʻlib, ular beqarorlikni yanada kuchaytirdi. Xususan, Imomqulixon va Nadr Muhammadxon davrida xalq noroziligi avj oldi. Toshkent isyoni va Balxdagi qoʻzgʻolonlar qattiq bostirildi, natijada, koʻplab begunoh insonlar halok boʻldi. Ushbu voqealar shuni koʻrsatadiki, Buxoro xonligida siyosiy barqarorlikning yoʻqligi, ogʻir soliq yuklamalari va hukmdorlarning oʻzaro kurashlari ijtimoiy hayotni izdan chiqargan. Shuningdek, qoʻshni davlatlarning hujumlari ham iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirgan.

Ushbu tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, Buxoro xonligining XVII asrdagi inqirozi, asosan, ichki ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bogʻliq boʻlgan. Shu jihatdan, mazkur davr nafaqat Buxoro xonligining ichki siyosati, balki uning ijtimoiy tuzilishi, xalqning chidamliligi va hukmdorlarning boshqaruv uslublarini tahlil qilish uchun muhim tarixiy tajriba sifatida oʻrganilishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

**1.** Ахмедов Б. А. История Балха. (XVI-первая половина XVIII в. ) Т., «Фан», 1982.

**2.** Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история (Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семёнова), Тошкент, 1956.

**3.** Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, "Шарқ". 2001.

**4.** Давидович Е. А. История монетного дела Средней Азии XVII-XVIII вв., Душанбе 1964

**5.** Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 2. Душанбе, 1989.

**6.** История народов Узбекистана. Кн 2. Ташкент, 1947.

**7.** Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений. Ташкент. “ФАН”. 1966.

***Z. Mahkamova,***
O‘zMU Tarix fakulteti 1-kurs magistranti.

## TURKISTON ASSRDA SOLIQ SIYOSATINING O‘zMA FONDLARI HUJJATLARI ASOSIDA YORITILISHI

O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) fondlarida saqlanayotgan hujjatlar mustamlaka davrida, ayniqsa, Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda olib borilgan iqtisodiy siyosat, ayniqsa, moliya va soliq siyosati, mintaqa aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Soliq siyosati orqali markaziy hokimiyat nafaqat iqtisodiy nazoratni amalga oshirgan, balki mahalliy boshqaruv tizimini ham shakllantirishga harakat qilgan. Turkiston ASSRning tashkil topishi (1918-yil) va uning sovet boshqaruv tizimiga kiritilishi bilan mintaqada yangi iqtisodiy siyosat asoslari joriy qilina boshlandi. Soliq siyosati ham ushbu o‘zgarishlarning muhim tarkibiy qismi bo‘ldi. O‘zMA fondlarida saqlanayotgan 17-fond (Turkiston ASSR Moliya xalq komissarligi hujjatlari[78]), 24-fond (Iqtisodiy siyosatga oid hujjatlar) va 57-fond (Statistika boshqarmasi ma’lumotlari) ushbu jarayonlarni yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Yangi sovet hokimiyati ilgari mavjud bo‘lgan an’anaviy soliqlarni (zakot, ushr, bojxona solig‘i va b.) bekor qilib, o‘rniga qishloq xo‘jaligi solig‘i, favqulodda yig‘imlar va mulkiy soliqlarni joriy qildi. Bu soliqlar maqsadga muvofiqlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, aholining mulkiy holatiga qarab belgilangan. Shu orqali sinfiy tafovutni kamaytirish va iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash maqsad qilingan. Masalan, 1921–1923 yillar oralig‘ida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga solinadigan natural soliq tizimi joriy qilindi[79]. Bu tizimda dehqonlar o‘z hosilining ma’lum foizini davlat foydasiga topshirishga majbur edi. Arxiv materiallarida bu soliqning taqsimoti, yig‘ish mexanizmi va hududlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlari aniq qayd etilgan. Shuningdek, arxiv hujjatlarida ko‘rsatilishicha, soliq yig‘imlarining markazlashuvi va uni nazorat qilish

[78] O‘zbekiston Milliy arxivi, 17-fond, 1-ro‘yxat, 41-ish
[79] O‘zbekiston Milliy arxivi, 17-fond, 1-ro‘yxat, 24-ish.

tizimi mintaqaviy idoralarda turli muammolarni yuzaga keltirgan. Ba'zi joylarda mahalliy rasmiylar soliq yig'ishda suiiste'mol holatlariga yo'l qo'ygan, bu esa aholining noroziligiga sabab bo'lgan. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Turkiston ASSRga oid hujjatlar soliqlarni amalda qanday tashkil etilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 17-fond (Moliya xalq komissarligi), 24-fond (Hududiy iqtisodiy bo'limlar), va 57-fond (Statistika) materiallari asosiy manba sifatida e'tiborga loyiqdir. Bu hujjatlar Turkiston ASSRda qanday soliqlar joriy qiilinganidan xabardor qiladi. Bularning birichisi bu Natural (natura) soliq hisoblanadi.

1921-yilda Turkiston ASSRda "qishloq xo'jalik natural solig'i" joriy qilindi. Bu soliq shaklida dehqonlar hosilining belgilangan qismini davlat foydasiga topshirishlari shart edi. Maqsad - ochlikni bartaraf etish, oziq-ovqat ta'minotini markazlashgan holda boshqarish va Sovet davlatining iqtisodiy imkoniyatlarini mustahkamlash edi. Arxivda topilgan hujjatlarda, masalan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida natural soliqning o'rtacha 8–12% gacha belgilangani ko'rsatiladi. Ikkinchisi esa Pul shaklidagi favqulodda soliq hisoblanadi. 1922-yilda joriy qilingan favqulodda pul soliqlari aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab belgilandi. Soliq ko'rsatkichlari mahalliy soliq komissiyalari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 24-fonddagi ko'rsatmalarda bu soliqlarning "aholining inqilobga sadoqatini sinovdan o'tkazish vositasi" sifatida baholanishi ham qayd etilgan[80]. Undan keyingisi esa Korxona va savdo soliqlari deb nomlangan. Yirik hunarmandlar, bozor savdogarlari va kichik korxonalar ham soliqqa tortilgan. Bular 1923–1924 yillarda "tijorat faoliyatiga solinadigan yig'imlar" deb yuritilgan. Arxivdagi hisobotlarga ko'ra, Toshkentdagi chakana savdo do'konlari daromadining 5–10 foizi soliq sifatida olinardi. Bu soliqlarning maqsadi - davlat byudjetini to'ldirish bilan birga xususiy sektorni cheklash edi. Shu bilan birga Ish haqi va uy-mulk soliqlari joriy qilingan.

1924-yilga kelib, Turkiston ASSRda ishchilar va davlat xizmatchilarining ish haqlaridan ma'lum foizda soliqlar ushlab qolina boshlandi. Bundan tashqari, shaharlarda ko'chmas mulkka solinadigan soliq ham joriy qilindi. 17-fonddagi ko'rsatkichlarga qaraganda, bu soliqlar asosan shahar aholisi va o'rta sinf vakillariga nisbatan qaratilgan bo'lgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan soliq turlari va ularning amaliyoti Turkiston ASSRda aholi turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatgan. O'zMA fondlarida

[80] O'zbekiston Milliy arxivi, 24-fond, 1-ro'yxat, 56-ish.

saqlanayotgan materiallar ushbu soliq siyosatining ijobiy va salbiy jihatlarini yoritadi.

Turkiston ASSRda yangi soliq tizimi sovet hokimiyatining iqtisodiy markazlashuvini kuchaytirish, davlat byudjetini shakllantirish hamda aholining mulkiy tabaqalanishini kamaytirish kabi maqsadlarga xizmat qilgan. Natural soliq, masalan, oziq-ovqat ta'minoti inqirozini yumshatishga yordam bergan. 24-fonddagi 1922-yilgi hisobotda yozilishicha, Samarqand va Farg'ona vodiylaridan yig'ilgan bug'doy va paxta miqdori Markaziy Rossiyaga yuborilgan oziq-ovqat yuklamasining 35 foizini tashkil etgan. Ammo bu siyosat aholining keng qatlamlarida norozilik tug'dirgan. Birinchidan, natural va pul soliqlari og'ir iqtisodiy sharoitlarda aholiga katta bosim bo'lgan. Ikkinchidan, soliq yig'ish tizimidagi adolatsizliklar, mahalliy mansabdorlarning suiiste'mollari va korrupsiyaga oid holatlar arxiv materiallarida qayd etilgan. 17-fonddagi 1923-yilgi maxfiy ma'lumotda Andijon tumanidagi soliqchilar tomonidan aholining ikki karra soliqqa tortilishi holati tilga olingan.

Bundan tashqari, soliq yukining ko'tarilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Dehqonlar hosilni yashirishga yoki ishlab chiqarishni qisqartirishga majbur bo'lgan. 57-fonddagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1923–1924 yillarda ayrim viloyatlarda bug'doy yetishtirish 15–20% ga kamaygan[81]. Turkiston ASSRdagi soliq siyosatini baholashda uni davr sharoiti va siyosiy jihatdan ko'rish lozim. Bu siyosat Sovet tuzumining sinfiy kurash konsepsiyasi asosida shakllantirilgan bo'lib, u iqtisodiy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan edi. Shunga qaramay, ko'plab hujjatlar bu siyosatning aholiga yetkazgan iqtisodiy zarbalari va ma'muriy nazoratdagi kamchiliklarni ochib beradi. Natijada, soliq siyosati qisqa muddatda moliyaviy resurslar ta'minlagan bo'lsa-da, uzoq muddatda ijtimoiy norozilik, iqtisodiy pasayish va islohotlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirgan. Turkiston ASSR tashkil topgan ilk yillarda Sovet hokimiyati hududda yangi iqtisodiy tizimni shakllantirishni boshladi. Bu islohotlarning asosiy yo'nalishi sobiq chor Rossiyasi davridagi iqtisodiy tuzumga barham berish, davlat mulkini kuchaytirish va xususiy ishlab chiqarish vositalarini milliylashtirish bo'ldi. Aynan shu siyosiy va iqtisodiy yangilanishlar soliq siyosatining ham mazmun va mohiyatini keskin o'zgartirdi.

[81] O'zbekiston Milliy arxivi, 57-fond, 2-ro'yxat, 13-ish.

Markaziy hokimiyat moliyaviy resurslarni to‘liq nazorat ostiga olish maqsadida soliqlarni sinfiy ajratishga asoslangan tartibda joriy etdi. Soliq yuklari asosan sobiq savdogarlar, boylar, yer egalari va xususiy sektor vakillarining zimmasiga yuklatildi. Bu esa soliq tizimini oddiy iqtisodiy vosita emas, balki ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishga yo‘naltirilgan siyosiy instrumentga aylantirdi. Iqtisodiy islohotlar natijasida dehqonlarning o‘z hosilining muayyan qismini topshirishga majbur bo‘lishi, ishlab chiqarish vositalarining davlatga o‘tishi va bozorlardagi faoliyatning keskin nazoratga olinishi soliq yig‘imlariga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1921–1923-yillarda joriy etilgan natural soliq tizimi orqali markaziy boshqaruv qishloq xo‘jaligini o‘z ehtiyojlariga moslab yo‘naltira boshladi. Bu siyosat ko‘plab hududlarda iqtisodiy pasayishga, ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga va aholining noroziligiga sabab bo‘ldi. Chunki soliqlar hayot darajasi past bo‘lgan qatlamlarga ham bir xilda yuklanar, bu esa aholining ijtimoiy tengsizligini yanada kuchaytirardi. Turkiston ASSRda yangi siyosiy tuzumni barpo etish bilan birga, sovet hokimiyati iqtisodiy qadriyatlarni tubdan o‘zgartirishga harakat qildi. Avvalo, iqtisodiy hayotni sinfiy yondashuv asosida boshqarish g‘oyasi ilgari surildi. Aholi mulkiy holatiga qarab turli toifadagi soliqlar joriy etildi, bu esa moliyaviy nazoratni kuchaytirish va jamiyatni siyosiy jihatdan bo‘ysundirishga xizmat qilgan[82].

Bu davrda ko‘plab tuman va viloyatlarda sobiq yer egalari, savdogarlar va mulkdorlar eng katta soliq yukini ko‘targan. Ularning mol-mulklari davlat tasarrufiga o‘tkazilib, soliq to‘lovlarini bajarmaganlar jazoga tortilgan. Soliq nazorati faqat byudjetni ta’minlash vositasi emas, balki siyosiy tozalashning vositasi sifatida ham ishlatilgan. Bu holat O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar bilan bir qatorda, davr matbuotida ham aks ettirilgan. Shuningdek, iqtisodiy siyosat orqali yirik ishlab chiqarish va savdo tizimlarini markazlashtirish, bozorlarda narx-navo ustidan bevosita nazorat o‘rnatish kabi choralar ham ko‘rildi. Bu tadbirlar esa, o‘z navbatida, soliqlar yig‘imini tartibga solish va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilgan. Biroq joylarda bu siyosat turlicha qabul qilindi. Ayrim mahalliy idoralar markaziy topshiriqlarni yetarli darajada bajarmasdan, soliqni noto‘g‘ri hisoblash, suiiste’mollik, poraxo‘rlik kabi holatlarga yo‘l qo‘ygan. Bu esa aholining davlat

[82] Sovet hokimiyatining dastlabki yillari va Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar // Ma’mun ilmiy-amaliy, adabiy-ma’rifiy jurnal, 2022-yil, 1-son.

boshqaruviga nisbatan ishonchini kamaytirdi va ayrim hududlarda yashirin iqtisodiyot shakllanishiga sabab bo‘ldi[83].

Turkiston ASSRda olib borilgan soliq siyosati, avvalo, sovet tuzumining iqtisodiy va siyosiy maqsadlarini amalga oshirish vositasi bo‘lgan[84]. O‘zbekiston Milliy arxividagi hujjatlar asosida aniqlanishicha, soliq siyosati nafaqat davlat byudjetini ta’minlash, balki sinfiy kurash g‘oyasini amaliyotga tatbiq etish uchun xizmat qilgan. Soliq tizimi orqali aholining mulkiy va ijtimoiy holatiga qarab bosim o‘tkazilgan, bu esa iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirgan, ijtimoiy norozilikni keltirib chiqargan. Siyosiy markazlashtirish sharoitida soliq nazorati va uni yig‘ish tizimi mahalliy boshqaruv organlari tomonidan turlicha talqin qilinib, ko‘plab nomuvofiqliklar va suiiste’molliklarga sabab bo‘lgan. Hududlar kesimida soliq siyosati yagona tizim sifatida qaralgan bo‘lsa-da, amalda u joylardagi iqtisodiy va ijtimoiy holatdan kelib chiqib amalga oshirilgan. Natijada bu tizimda adolatsizlik, tartibsizlik va samarasizliklar yuzaga kelgan.

Turkiston ASSRdagi soliq siyosati tarixiy jihatdan baholaganda, u o‘z davri uchun muhim iqtisodiy boshqaruv vositasi bo‘lgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmagan. Aksincha, iqtisodiy inqirozlarni chuqurlashtirgan, ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan va jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirgan. Shunday qilib, arxiv hujjatlariga tayangan holda aytish mumkinki, Turkiston ASSRdagi soliq siyosati tarixiy tajriba sifatida zamonaviy iqtisodiy boshqaruvda muhim saboqlardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu tajriba soliqlarni adolatli taqsimlash, hududiy sharoitlarni hisobga olish va boshqaruvning shaffofligini ta’minlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Milliy arxivi, 17-fond, 1-ro‘yxat, 24-ish – Turkiston ASSR Moliya xalq komissarligiga oid hujjatlar.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi, 17-fond, 1-ro‘yxat, 41-ish – Andijon va Farg‘ona viloyatlarida soliq yig‘imiga doir maxfiy hujjatlar.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, 24-fond, 1-ro‘yxat, 56-ish – Iqtisodiy siyosat bo‘yicha rasmiy ko‘rsatmalar va soliq tizimi bo‘yicha hududiy tafsilotlar.

[83] Arxiv hujjatlari asosida tarixiy haqiqatni tiklash masalalari // Ma’mun ilmiy jurnali, 2022-yil, 1-son.
[84] Turkiston ASSR iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga oid hujjatlar to‘plami. – Toshkent: O‘zR FA Tarix instituti nashriyoti, 2018.

4. O‘zbekiston Milliy arxivi, 57-fond, 2-ro‘yxat, 13-ish – Statistika boshqarmasining soliq yig‘imlari va ishlab chiqarish hajmi haqidagi hisobotlari.

5. Sovet hokimiyatining dastlabki yillari va Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar // Ma’mun ilmiy-amaliy, adabiy-ma’rifiy jurnal, 2022-yil, 1-son.

6. Arxiv hujjatlari asosida tarixiy haqiqatni tiklash masalalari // Ma’mun ilmiy jurnali, 2022-yil, 1-son.

7. Turkiston ASSR iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga oid hujjatlar to‘plami. – Toshkent: O‘zR FA Tarix instituti nashriyoti, 2018.

**Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti

## FORS KO‘RFAZIDAGI ARAB DAVLATLARI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING HUQUQIY ASOSLARI (Saudiya Arabiston podshohligi misolida)

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Fors Ko‘rfazidagi arab davlatlari (Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt, Qatar, Bahrayn va Ummon) bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning xalqaro huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif ikki tomonlama shartnomalar, hukumatlararo bitimlar, siyosiy maslahatlashuvlar va strategik hamkorlik memorandumlari asosida ikki mintaqa o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik va muvozanatga asoslangan tamoyillari kontekstida Fors Ko‘rfazi davlatlari bilan diplomatik aloqalarning istiqbollari ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *diplomatik munosabatlar, xalqaro huquq, ikki tomonlama shartnoma, Fors Ko‘rfazi, O‘zbekiston, siyosiy hamkorlik, tashqi siyosat, memorandum*

XX asrning oxiri hamda XXI asr boshlarida xalqaro maydonda yuz bergan chuqur geosiyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar globallashuv jarayonining jadallashuvi, shuningdek, jahon bozorida raqobatning keskin kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu omillar natijasida energiya resurslari,

ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Mazkur global tendensiyalar Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarining xalqaro-huquqiy asoslarini shakllantirishni dolzarb masalaga aylantirdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, Fors ko‘rfazi davlatlari tomonidan mamlakat suvereniteti va mustaqilligini tan olish, shuningdek, diplomatik aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha protokollar imzolandi. Ushbu diplomatik-huquqiy qadam ikki tomonlama siyosiy muloqotni boshlash, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun muhim huquqiy zamin bo‘lib xizmat qildi[3:112]. Jumladan, Saudiya Arabistoni va O‘zbekiston 1992-yil 20-fevralda esa ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar to‘g‘risida anglashuv memorandumi imzolandi[1:30], unda asosiy e’tibor iqtisodiy hamkorlik va sarmoyaviy yo‘nalishga qaratilgan.

2005 yil 6 fevralda Saudiya Arabistoni Podshohligi Tashqi ishlar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi o‘rtasida “Ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar to‘g‘risida anglashuv memorandumi” imzolangan bo‘lib[4:138], u ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy muloqotni institutsional asosda rivojlantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur hujjat ikki tomon tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, xalqaro tashkilotlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida o‘zaro pozitsiyalarni yaqinlashtirish va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Shu tariqa, memorandum O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy hamkorlikni tizimli asosda shakllantirishga zamin yaratdi va tomonlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning izchil rivojlanishida muhim bosqich sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni Podshohligi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar so‘nggi yillarda xavfsizlik, ta’lim va qurilish kabi strategik yo‘nalishlarda izchil va bosqichma-bosqich taraqqiy etib bormoqda. Jumladan, 2010 yil 27 noyabr kuni ikki davlat hukumatlari o‘rtasida “Terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanishi, shuningdek, boshqa turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi bitim imzolanishi ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikni

institutsional va huquqiy asosda mustahkamlashga xizmat qilgan muhim voqea boʻldi. Mazkur hujjat ikki davlat oʻrtasida xavfsizlik sohasidagi oʻzaro aloqalarning barqaror va tizimli shaklda rivojlanishi uchun normativ-huquqiy zamin yaratdi[3].

Bitim imzolangan davrdan boshlab, xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan cheklanmasdan, ikki tomonlama hamkorlik iqtisodiyot, savdo-sotiq hamda texnologik sohalarda ham sezilarli faollik kasb eta boshladi. Ayniqsa, 2010 yildan e'tiboran ikki davlat oʻrtasida iqtisodiy, savdo va investitsiyaviy aloqalarni tartibga solishga qaratilgan bir qator hukumatlararo hamda idoralararo bitimlar imzolandi. Bu esa Oʻzbekiston va Saudiya Arabistoni oʻrtasidagi strategik sheriklikning koʻp qirrali va kompleks tus olganligini yaqqol tasdiqlaydi.

2016-yildan boshlab esa ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga koʻtarildi. Bu davrdan e'tiboran siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va investitsiyaviy yoʻnalishlarda oʻzaro hamkorlikni institutsional va huquqiy jihatdan yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shu nuqtayi nazardan, 2016-yil 28-maydan 3-iyulga qadar boʻlib oʻtgan muzokaralar natijasida Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Saudiya Arabistoni Podshohligi Adliya vazirligi oʻrtasida huquqiy sohadagi hamkorlikni tartibga soluvchi memorandum imzolandi[2]. Mazkur memorandum mamlakatlar oʻrtasida huquqiy sohada doimiy asosda muloqotni yoʻlga qoʻyish, adliya organlari oʻrtasida doʻstona va professional asosdagi aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, huquqiy tizimlar oʻrtasida tajriba almashuvini yoʻlga qoʻyishga xizmat qiluvchi muhim hujjat sifatida baholanishi mumkin. Ushbu kelishuv ikki davlatning huquqiy-institutsional integratsiyasi sari intilayotgan sa'y-harakatlarini aks ettiradi hamda xalqaro huquqiy muloqotning muhim boʻgʻinlaridan biriga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda Fors koʻrfazi davlatlari bilan Oʻzbekiston oʻrtasidagi diplomatik va huquqiy-institutsional munosabatlarning XX–XXI asrlar davomida bosqichma-bosqich rivojlanib borgani kuzatiladi. Mustaqillik yillaridan boshlab, Oʻzbekiston tashqi siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida mazkur mintaqa bilan hamkorlik oʻrnatilishi ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham xavfsizlik sohalarida chuqur asosga ega boʻldi.

1992-yildan boshlab imzolangan ikki tomonlama bitim va protokollar, xususan 2005-yilgi siyosiy maslahatlashuv memorandumi,

2010-yildagi xavfsizlik bo‘yicha bitim va 2016-yilgi huquqiy hamkorlik memorandumi, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va institutsional asos yaratishda muhim rol o‘ynadi. Bu hujjatlar ikki tomonlama aloqalarni faqat diplomatik doirada emas, balki xavfsizlik, jinoyatchilikka qarshi kurash, iqtisodiy aloqalar va huquqiy hamkorlik sohalariga kengaytirishga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, Fors ko‘rfazi davlatlari bilan munosabatlar O‘zbekistonning islom dunyosidagi pozitsiyasini mustahkamlash, musulmon davlatlari bilan madaniy va diniy yaqinlikni rivojlantirishda ham muhim omil bo‘ldi. Diplomatik aloqalarning huquqiy bazasi hozirgi kunda O‘zbekiston tashqi siyosatining barqaror va uzoq muddatli istiqbolini ta’minlovchi tayanch omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *A.Shukurov. Kingdom of Saudi Arabia and the republic of Uzbekistan: a new perspective on relations//The American Journal of Political Science Law and Criminology.Vol.07 Issue02 2025.* https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajpslc/article/view/5918/5477
2. K. Rashidov. O‘zbekiston - Saudiya Arabistoni: hamkorlikning 30 yili//O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz/posts/399312 Qaraldi: 16.05.2025
3. Karimov, I.A. *O‘zbekiston – XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* – T.: O‘zbekiston, 1997.
4. Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномалари тўплами 2005 й. №1(5). Б. 138

**Илмуродова Феруза Шакировна**
ЧДПУ тарих фани ўқитувчиси

## ТАРИХИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ҚАЙТА ТИКЛАШДА 3D ТЕХНОЛОГИЯСИ АХАМИЯТИ

***Аннотация**: Мазкур мақолада тарихий-маданий обидаларнинг йўқолиб боришига сабаб бўлаётган омиллар ва бу борада халқаро миқиёсида қабул қилинган ҳуқуқий хужжатлар тахлил қилиниб, 3D замонавий технологиясининг тарихий обидаларни қайта тиклаш,*

*ҳамда мамлакатимизда мазкур технологиядан фойдаланишни имкониятлари ўрганилган.*

***Калит сўзлар**: глобаллашув жараёни, тарихий-маданий ёдгорликлар, антопоген таъсир, қуролли тўқнашувлар, табий офатлар, вандализм, 3D технологияси, реконструкция, рақамли археология.*

Бугунги глобаллашув жараёнида кишилик жамияти олдида кечиктириб бўлмас вазифалар номоён бўлмоқда. Антропоген ва табий таъсирлар натижасида инсоният тамаддуни жараёни намуналари, яъни тарихий-маданий ёдгорликлар йўқолиш хафига дучор бўлмоқда. Бу эса дунё мамлакатлари, ҳар бир миллат ҳалқ, фуқаро олдига ўз аждодлари тарихини асраб-авайлашдек маъсулиятли вазифани юклайди. Дунёда энг кўп тарихий-маданий ёдгорликларга зиён етиши, вайрон бўлиши асосан 2 жахон уруши йилларида юз берди. XX аср 2 ярмида турли диний, миллий, этник низолар, экстремизм ва терроризм хавфи халқаро миқисида ушбу масалага этибор қаратишини тақозо қила бошлади. Ушбу мақсаддан келиб чиққан холда 1954 йилда 21 апрелдан 14 майгача Юнеско ташаббуси билан Гаага шахрида 56 давлат иштирокида халқаро конференция бўлиб ўтди. Халқаро конференцияда "Қуролли тўқнашувлар пайтида маданий бойликларни мухофаза қилиш тўғрисида" [1] Гаага конференцияси қабул қилинди. 1954 йил 21 майда Гаага конвецияси билан бирга Биринчи протокол қабул қилинди[2]. Биринчи протокол фақат кўчар маданий ёдгорликлар хайкаллар, расмлар, турли кўчма экспонантларга нисбатан қўлланилади. Гаага конвенцияси ва унинг биринчи протоколидаги камчиликлар XX асрнинг 80-90 йиллардаги дунёдаги беқарор сиёсий вазият туфайли яққол кўзга ташланди. Натижада 1999 йил март ойида Иккинчи протокол қабул қилинди ва Гаага конвенцияси ва унинг биринчи протоколига қараганда маданий бойликларни кўпроқ химоя қилиш таъминланди. 1992 йилдаги Бакудаги миллий низолар туфайли муқаддас Бокира черкови бузиб ташланган бўлса, 2011 йилда Бахрайинда қўзғолон натижасида 43 та шиа масжиди жумладан Амир Мухаммад Брайги масжиди хукумат томонидан вайрон қилинди.

2011-2017 йилларда Ироқ ва Суриядаги экстреместик харакатлар натижасида ташкил топган ИШИД харакати туфайли

кўплаб тарихий, археолог, маданий ноёб ёдгорликлар тахминан 30 га яқин қадимий ибодатхона ва қадамжолар талон-тарож қилиниб вайронга айлантирилади.

Инсоният табий ва инсон характлари туфайли йўқолиб бораётган ёдгорликларни сақлаб қолишга ва келажак авлодга етказиб беришга бурчлидир. Бугунги кунда дунё олимлари масаланинг ечими сифатида ривожланган технологиялардан фойдаланишни ракамли сақлаш ва қайта тиклашни таклиф қилишмоқда. Ривожланган техника ёрдамида тарихий ёдгорликларни, айниқса йўқолиш хафи остида турган ёдгорликларни 3D форматида сақлаб қолиш мумкин. 3D моделлаштириш бу бирон бир меъморчилик режаси ёки артефикатнинг ўзи, чизмаси, тасвири ва бошқалар асосида уч улчовли лойихасини яратишди. 3D моделлаштириш орқали ҳар қандай уч ўлчовли материалнинг технологик тасвирини яратамиз, бундай техника архитектура, кино, мухандислик, тиббиёт ва кўплаб бошқа сохаларда қўлланилмоқда. Шунингдек, тархий-маданий ёдгорликларнинг қисимларини тиклашёки бутунлай қайта тиклаш орқали ёдгорликларни асраб қолишимиз, кенг жамоатчиликка намойиш этиш мумкин. Сақланиб қолмаган тархий-маданий ёдгорликларни вертуал моделларини яратиш орқали, уларнинг илмий тадқиқ этишда самарали фойдаланиш мумкин. Хозирда дунёда тарихий ва маданий меросларни вертуал 3D моделлари орқали ўрганиш, сақлаш, оммалаштириш кенг тарқалмоқда. Вертуал моделлаштириш дунёда энди ривожланаётган соҳа хисобланади. Ҳозирда бу сохада ўнлаб ишлар якунланган. Буни Гарворд Семитик музейининг бир нечта професорлари ва тадқиқотчилари янада кенгайтирдилар. Улар “Замонавий рақамли 3D визуализация бугунги кунда фақат шикастланган ёки қисман сақланиб қолган қадимий меъморий қолидқларни тўлқ миқиёсида вертуал реконструкция қилиш имконини беради[3]. Рақамли анимациядан фойдаланиб, ранг ва ёруғлик эфектларини қўшиш орқали ушбу сайтлар ва ёдгорликларни вақт ўтиши билан қандай ўзгарганини кўрсатиш мумкин, уларнинг асил қурилиш ва қадимий фойдаланишдан тортиб, охир оқибат тарк этилиши ва йўқ қилинишигача” кўрсатиш имконига эга эканлигини такидлайдилар.

Тарихий ёдгорликларнинг 3D моделларини яратиш учун бутун дунё ташкилотлари билан хамкорлик қилмоқдалар. Ҳоизда музей экспонатларини 3D моделаштириш кенг тарқалишига қарамасдан, йирик хажимли маданий-ёдгорликларнинг рақамли моделларини яратиш секинлик билан ривожланмоқда. Ўзбекистонда ҳам сўнги йилларда тарихий ёдгорликларни 3D форматида моделлаштириш асосида реконструкция моделларини яратишга алохида этибор берилмоқда. Мамлакатимизда 2018 йилда Полшанинг Любин технология университетида IT соҳаси мутахассислари билан хамкорликда “Ипак йўли 3D форматда” лойихаси иш бошлаган эди.

2021 йил 14 июндан юртимизда “Янги Ўзбекистон. Янги нигоҳ” дастури доирасида тарихий обида, ёдгорликларни 3D форматда рақамлаштириш бўйича янги лойиха ўз фаолиятини бошлади[4].

Тарихий – маданий ёдгорликлар инсониятнинг ривожланишида, маънавий комолотга етишида мухим ахамиятга эга. Ана шундай маданий меросларр туфайли аждодларимизнинг турмуш тарзи, хўжалик шакиллари, маданияти, санъати ҳақида билим ва тасавурга эга бўламиз. 3D технологияси ана шу тарихни янада ишончли ва тўлиқ акс этириш имконини беради, ҳамда маданий ёдгорликларни мухофаза қилиш узоқроқ муддатга сақлаб қолишда катта ахамиятга эга. Замонавий ривожланган технологиялар тез ва аниқлик билан юқори натижаларни бера олади.

Бутунлай йўқ бўлиб кетган давлат, шаҳарлар ва ёдгорликларнинг уч ўлчамли вертуал реконструкциялари ўз тархи хақида ҳикоя қилувчи ажойиб кўргазмали қўролларга айланди ва инсонларга тархи ҳақида батафсил маълумот бера олади. Демак тарихий маданий ёдгорликларнинг 3D моделларининг яратилиши келажак авлод учун маълумотлар мажмуасини яратиш имконини беради, ҳамда барча учун исталган жойда, йилнинг, кунни исталган вақтида тархий-маданий ёдгорликларни кузатиш, тадқиқ қилиш шароитини яратади. Аждодоларимиздан бизгача минг йиллар давомида етиб келган тарихий-обидаларни асраш ва келажак авлодга етказиб беришда, ҳамда дунёда энг сердаромад соҳалардан хисобланган туризм сохасини ривожлантиришда 3D модели имкониятлардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1.”Қуролли тўқнашувлар юз берганда маданий бойликларни химоя қилиш тўғрисидаги конвенцияга Протокол”. Портал.юнеско.орг.1-,3-моддалар.

2. 2347-сонли резолюция: Маданий меросни мухофаза қилишни глобал миқиёсида жорий этиш.

3. Кандулкова Е. “Маданий ёдгорликларни сақлаш учун ахборот технологиялари.2000. 263.

4. Xodjayeva M. Greatsion of 3D models of istorikal monuments application of digital technologies.2021.

5.Нурулин Т.С. Эрқўрғон қадимий манзилгохини 3D реконструкция қилиш.Т.2022.

**Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi

## SHAROF RASHIDOV - O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI RAISI

1949 yilning iyul oyida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Plenumi bo‘lib, unda Markazqo‘mning uyushma faoliyatini umuman yomon baholagan qarorining muhokamasi bo‘lgan edi. Plenumning uchinchi kuni Oybekni (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi) vazifasidan ozod qilishdi. Ilgari “Qizil O‘zbekiston” gazetasida muharrir bo‘lib ishlagan Sharof Rashidovni rais, Uyg‘un bilan Sheverdinlarni rais o‘rinbosarlari qilib sayladilar.

1950 yillar boshlarida ijodkor ziyolilarni qamashlar boshlandi. 1950 yilning 13-iyunida Til va adabiyot institutining ilmiy xodimi Abdurahmon Alimuhammedov, 28-noyabrda uning akasi Nabi Alimuhammedov, 29-noyabrda Hamid Sulaymon, 30-noyabrda Mirzakalon Ismoiliy hibsga olindi. Oradan qariyb ikki oy o‘tgach, 1951 yilning 25-yanvarida Shukrullo qamoqqa olindi. 10-fevralda Shuhrat, 26-fevralda Mahmud Murodov, 28-fevralda Meli Jo‘raning boshiga ham shunday kulfat keldi. Shu tarzda bir-birlari bilan u qadar yaqin bo‘lmagan sakkiz kishi ustidan tergov bir yilcha davom etib, 1952 yil 29-yanvar – 1-fevral kunlari bo‘lib o‘tgan sud ularni (aksilsovet millatchilik faoliyati olib borganlikda aybdor deb topib) hammasiga 25 yildan qamoq muddatini berdi.

Bulardan tashqari Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad va boshqalar qamoqqa olinib, ular ham 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi. Keyinchalik I. Stalin vafot etib, shaxsga sig‘inish qoralangach, ular 1955 yilda muddatidan oldin ozodlikka chiqarilib, reabilitatsiya qilingan.

1952 yil 21-22 fevral kunlari bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Konpartiyasi Markaziy Komitetining X plenumida O‘zbekiston Konpartiyasi MK birinchi sekretari A. Niyozovning “Respublikada mafkura ishining ahvoli va uni yaxshilash choralari to‘g‘risida” ma’ruzasi tinglandi va muhokama qilindi. Ma’ruzada O‘zbekiston ziyolilaridan bir guruhi (yozuvchilar, olimlar, shoirlar va b) noto‘g‘ri ravishda millatchilikda ayblandi. O‘zbek xalqining qatag‘on qilingan bu vakillarining asarlari va “Alpomish” dostoni ta’qiqlandi. Mazkur plenum va unda qabul qilingan qarorlar O‘zbekistonning ma’naviy hayotiga kuchli zarba bo‘lib tushdi. Ushbu plenumda bir necha yozuvchilar qatori Oybekning nomi ham tilga olinib, qattiq tanqid qilindi. Birinchi kotibning nutqida shunday so‘zlar bor edi: “Yozuvchi Oybek ham o‘z ijodida va maqolalarida jiddiy ideologik buzilishlarga yo‘l qo‘ydi. Uning “Navoiy” romanida feodal o‘tmish ideallashtirib ko‘rsatildi. Rashidov Oybekni nihoyatda hurmat qilardi. O‘zbekning shundoq mumtoz yozuvchisi borligidan quvonardi. “Oltin vodiydan shabadalar” romaniga o‘zi muharrirlik qilgandi. U Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan vaqtda (Oybekning raqiblari) romanga hujum qilishga botinmagandilar. Rashidov bunday qilishga yo‘l qo‘ymasdi ham.[85] Shoir Shuhratning o‘sha paytda aytishicha, Milchakov (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi partiya qo‘mitasi rahbari) boshchiligidagi bir guruh yozuvchilar Oybekni millatchi sifatida ayblovchi hujjatlarni to‘plab Aleksandr Fadeyevning (SSSR Yozuvchilar soyuzining bosh sekretari) huzuriga borishgan. Bundan qattiq aziyat chekkan Oybek qattiq betob bo‘lib qolib, uzoq muddatga safdan chiqdi, tildan ajraldi.

Respublikadagi vaziyatni yaxshilash uchun 1953 yil 18 aprelda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan O‘zbekiston SSR Madaniyat Ministrligi tashkil etildi.

1956 yil fevralda bo‘lgan KPSS 20 syezdida Stalin shaxsiga sig‘inish keskin qoralandi. Shaxsga sig‘inish va uning og‘ir oqibatlarini tugatish maqsadida respublikalar huquq va vakolatlarini kengaytirish, qonunlarga qat’iy rioya qilish, rejalashtirish tizimini qayta ko‘rib chiqish, demokratiya prinsiplarini tiklash tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirildi. Milliy

[85] Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. – Тошкент: Сано-стандарт, 2014. – Б. 18.

respubliklarning madaniy, qurilish sohalaridagi huquqlarini kengaytirishga doir bir qancha chora-tadbirlar ko‘rildi.

1956 yil 11-13 oktabr kunlari Toshkent shahrida O‘zbekiston ziyolilarining birinchi syezdi bo‘lib o‘tdi. XX asrning 30-50 yillarida qatag‘on qilingan ayrim davlat va siyosat arboblari, yozuvchilar, shoirlar, olimlar va san’atkorlar oqlandi.

1956 yilda Dehlida (Hindiston) Osiyo mamlakatlari yozuvchilarining uchrashuvi bo‘ldi. Bu yerda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining birinchi konferensiyasi Sovet Ittifoqida, Toshkentda o‘tkazishga qaror qilindi. 1958 yil yoz oylarida Toshkentda Osiyo va Afrika yozuvchilarining konferensiyasiga tayyorgarlik qo‘mitasi tuzilib, unga Sharof Rashidov rais etib tayinlandi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sh. Rashidovga yordamchi sifatida yozuvchi Odil Yoqubovni uning huzuriga yuboradi. Bu haqda yozuvchining o‘zi quyidagicha xotirlaydi: “Men o‘shangacha Sharof akani uzoqdan har-xil yig‘inlarda, majlislarda ko‘rib qolardim. Kelishgan, ko‘rkam odamligini bilardim. Yaqindan ko‘rsam yanada ko‘rkam, yanada xushsurat, xushmuomala inson ekanlar.

Sharof aka ijodim, oilam haqida bir-ikkita savollar berib, maqsadga o‘tdilar. Mening asosiy vazifam konferensiyani tayyorlash qo‘mitasiga xizmat qilish, qo‘mita a’zolarini kutib olish, mehmonxonalarga joylashtirish, muttasil o‘tadigan majlislarni tashkil etish, oliymaqom mehmonlarni o‘zbek xalqining hayoti bilan tanishtirish ekan.

Lekin siz bundan tashvish tortmang, -dedilar Sharof aka, - sizga juda ko‘p idoralar, Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat vazirligi va boshqa tashkilotlar yordam berishadi. Bu katta ahamiyatga molik tadbir. …Sal o‘tmay qo‘mita a’zolari ham kela boshladi. Ular orasida mashhur shoir K.Simonov, “Horij adabiyoti” jurnalining bosh muharriri A.Chaykovskiy, “Огонёк” jurnalining bosh muharriri A. Safronov, Yozuvchilar uyushmasining chet ellar bilan aloqa qiluvchi komissiyasining mas’ul xodimi K.Chugunov, bir guruh tarjimonlar, kotib va kotibalar bor edi. Sal o‘tmay ularga Muxtor Avezov, Rasul Hamzatov, keyin Xitoy, Indoneziya, Mo‘g‘uliston va Kichik Osiyo adiblari kelib qo‘shilishdi”.

Sharof Rashidov Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining konferensiyasi Toshkentda o‘tkazilishi O‘zbekistonni dunyoga tanitishda muhim voqea ekanligini teran anglaydi. “Bizning mehmonlarimiz Sovet O‘zbekistoni qisqa tarixiy davrda qanchalar zo‘r muvaffaqiyatlarga erishganligiga, chor asoratidan, mustamlaka zulmidan ozod bo‘lib, o‘z

baxtini o‘zi yaratayotganligiga guvoh bo‘ladilar. Fan, madaniyat, san’at va barcha boshqa iqtisodiy sohalarda katta taraqqiyot yo‘liga kirganligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar.

Bu vaqtga kelib O‘zbekiston yetuk va tugal savodxon, o‘qimishli respublikaga aylangan. O‘zbekistondagi 250 dan ortiq gazeta va 69 jurnal nashr etilgan. 19 teatr, filarmoniya, sirk, ashula va raqs ansambllari, xalq cholg‘u orkestrlari, estrada, bir qancha ,madaniyat saroylari faoliyat ko‘rsatar edi.

1958 yil 7-13 oktabr kunlari Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining konferensiyasi o‘tkazildi. Unda 50 mamlakat vakillari ishtirok etdilar: Osiyo va Afrikaning 37 mamlakatlaridan 196 delegat hamda Yevropa va Amerikaning 13 mamlakatlaridan 22 mehmon qatnashdi. Yozuvchilar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi Osiyo va Afrika xalqlari adabiyotlarining o‘sishi, milliy san’atlarining mustahkam zaminda rivojlanishi uchun ishonchli garov bo‘lib xizmat qildi.

1959 yil fevral oyida Moskvada o‘tkazilgan O‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasi arafasida Toshkentda Sharof Rashidov (“Bo‘rondan kuchli”), Abdulla Qahhor (“Sinchalak”), Pirimqul Qodirov (“Uch ildiz”), Sunnatilla Anorboyev (“Oqsoy”), Zulfiya, Mirtemir, Shuhrat, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Shukrullo, Sulton Akbariy, Uyg‘un, Mirmuhsin va boshqa yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarini muhokamaga qo‘yib, yozuvchilar o‘rtasida ijodiy bahslar bo‘lib o‘tadi. Bu ijodkorlarning asarlari rus tiliga tarjima qilinib, Moskvaga jo‘natiladi. Shu yili fevral oyida Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasida eng katta bahoni “Знамя” jurnalida chiqa boshlagan, atoqli sovet yozuvchisi Konstantin Simonov tarjima qilgan A. Qahhorning “Sinchalak” qissasi oladi. Zulfiya, Mirtemir, Shukrullo, Pirimqul Qodirovlarning asarlari ham yuqori baho oladi. Sharof Rashidov Oybekning sovet armiyasi jangchilari ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan mislsiz jasoratlari va fidokorliklari haqida hikoya qiluvchi “Quyosh qoraymas” romani qo‘lyozmasini dekada kunlari besh kun ichida kitob holida chop ettirib, romanning bir necha nusxasini Markaz yozuvchilari oldiga qo‘yib, Oybek o‘zining bu asari uchun maqtovlar eshitishiga sababchi bo‘ldi.

O‘zbek kinematografiyasi ekranlarga bir qator filmlarni chiqardi. Bular aktyorlar, ssenariychilar, rejissyorlarning mahoratlari tinimsiz oshib borayotganidan dalolat beradi. O‘zbek kinostudiyasining “Nasriddin

Buxoroda", "Xo'ja Nasriddin sarguzashtlari", "Alisher Navoiy", "Amirlikning yemirilishi", "Tohir va Zuhra" singari filmlari mamlakat tomoshabinlari tomonidan iliq kutib olindi. Kino ustalari dekadaga "Ibn Sino", "Alangali yillar" singari filmlar bilan keldilar.

Realist yozuvchi A.Qahhor o'sha vaqtda adabiyotda hukm surgan sotsialistik realizm asosida "Qo'shchinor" romanini qayta ishlab, "Qo'shchinor chiroqlari" deb nom berdi. Shundan keyin asarga Sh Rashidov ijobiy fikr bildirdi. "Qo'shchinor chiroqlari" romani 1951 yilda Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida yuksak baho oldi, o'zbek sovet adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

O'z navbatida A.Qahhor ham 1958 yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Sh.Rashidovning "Bo'rondan kuchli" romani muhokamasida asarning xomligini ochiq aytib, "asar lanj, dam yemagan oshga o'xshaydi, yegan odamning qornini og'ritadi" deb tanqid qiladi.

Abdulla Qahhor Sh.Rashidov haqida aytganlari uning shaxsiga emas balki ijodiga qarshi qarata aytilgan edi. Sh.Rashidov ham A.Qahhorga nisbatan o'zining rahbarlik burchini unutmagan holda muomalada bo'lgan edi.

Aslida, bu ikki shaxs bir-birini e'zozlagan paytlari ham bo'lgan. A.Qahhorning umr yo'ldoshi Kibriyo opaning eslashlaricha, Sh.Rashidov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining majlisida o'zi ishtirok etib "O'tmishdan ertaklar" qissasi uchun muallifni Hamza mukofoti nomzodligiga tavsiya etgan. 1966 yil A.Qahhorga Hamza nomidagi davlat mukofoti, 1967 yil esa O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.

1967 yil sentabrda Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida A.Qahhor tavalludining 60 yilligi tantanali nishonlandi. Unda O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi Sharof Rashidov, byuro a'zolari va Moskvadan kelgan mehmonlar qatnashadi. A.Qahhor o'z nutqida "Men partiyaning oddiy soldati emas, ongli a'zosiman", deb aytadi. Aynan shu holatni atoqli yozuvchi O.Yoqubov eslashicha, "Kengash a'zolari xo'mrayishgan, qovoqlaridan qor yog'adi. Ammo Sharof aka (irodasiga qoyil), boshda qanday o'tirgan bo'lsalar shunday o'tiradilar". Shuning o'zi Sharof Rashidovning irodasi kuchli, yuksak madaniyatli inson ekanligidan dalolat.

**Karshiyev Sherzod Saydaliyevich**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
sherzodkarshiyev81@gmail.com

# MILLATLARARO ZIDDIYATLAR VA ULARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI AYRIM IJTIMOIY OMILLAR

***Annotatsiya:*** *Millatlararo ziddiyatlar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun eng global muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammolar xali barcha davlatlarda ham to'liq o'z echimini topmagan. Millatlararo ziddiyatlar ko'proq o'zaro milliy manfaatlarning to'qnashuvidan kelib chiqadi. Bugungi kundagi yana bir muhim vazifa millatlararo totuvlik g'oyasining doimiy ustuvor bo'lishini ta'minlash bilan bog'liq. Jaxon va mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan siyosat va islohotlar mazmuni bo'yicha maqolada fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *millat, etnos, millatlararo munosabatlar, millatlararo ziddiyat, polietnik davlat, milliy-etnik jamoalar.*

Bugun millatlararo ziddiyatlarni ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan hal etish jahon xalqlarini, ayniqsa polietnik davlatlarni bezovta qilayotgan global muammolardan biridir. Ayrim davlatlarda millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar uzoq yillardan buyon davom etib kelmoqda. Jumladan, Angliyada Olster, Fransiyada Korsika, Ispaniyada Kataloniya, Italiyada Janubiy Tiroliya, Belgiyada Flamandiya, Xitoyda Uyg'ur avtonom tumani va Tibet, Bolgariyada turklar, Turkiyada kurdlar milliy nizolarga, siyosiy-ijtimoiy to'qnashuvlarga sabab bo'lib keladi. Sobiq ittifoqning tarqalishi bilan uning o'rnida paydo bo'lgan mustaqil davlatlarda, ayniqsa totalitar tuzum tazyiqi ostida bo'lgan Yugoslaviya, Ruminiya, Vengriya, Chexoslovakiyada millatlararo to'qnashuvlar avj oldi. Hattoki, eng rivojlangan AQShdek davlatda ham milliy-etnik muammolar mutlaq hal etilmagan. Birinchi prezident I.Karimov ta'biri bilan aytganda, "etnik o'zlikni anglashning o'sishi yana uzoq vaqt davomida hozirgi dunyo siyosiy taraqqiyotining dinamikasini belgilab beradi".

Millatlararo ziddiyatlar bu – milliy-etnik jamoalar yoki ular vakillari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Millatlararo ziddiyatlar o'zining tipologik xususiyatiga ko'ra eng avvalo ijtimoiy xarakterga ega. Uning sub'ekti bo'lib aniq bir ko'pmillatli davlatda, ijtimoiy tizimda manfaatlari bir biriga zid kelib qolgan turli etnik jamoalar hisoblanadi. Ayni vaqtda millatlararo

ziddiyatlar siyosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, hech bir millat yoki etnik guruh o‘zining siyosiy tashkiloti va o‘z davlatchiligisiz shakllanmaydi hamda rivojlanmaydi. Shuning uchun har qanday millatlararo ziddiyatlarning orqasida ma‘lum bir siyosiy kuchlar yoki davlatlar manfaatlari yotadi. Hozirgi kunda dunyoda millatlararo ziddiyatlar tobora ijtimoiylashib bormoqda va u milliy, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Olimlar millat, etnik guruh kabi tushunchalarga turli xil yondashadilar. Ayrimlar etnik guruxlar o‘zaro qo‘shilib, rivojlanib sekin-asta millatlar shakllangan degan fikni ilgari suradilar. Ayrim olimlar esa, bir etnik guruxning parchalanishi natijasida millatlar vujudga kelgan degan fikrni bildiradilar. Demak, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib etnik guruhlar birikishi natijasida ham millatlar shakllanishi yoki katta bir etnik guruhning parchalanib ketishi natijasida o‘ziga xos ijtimoiy jarayonlar asosida ham millatlar shakllanishi mumkin ekan.

Millat va etnos tushunchalari bir biridan keskin farq qilsada, shakllanish jarayonlari, belgilari, o‘zaro aloqalari qisman bir biriga o‘xshaydi. Etnos bu – bir geografik iqlim sharoitida yashagan kishilar jamoasidir. Millat esa – ijtimoiy-tarixiy vaziyat tufayli ma’lum bir hududda uzoq vaqt birga yashagan va o‘z siyosiy davlatchiligini shakllantirishi natijasida, turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari, tili, madaniyati, e’tiqodi umumiy bir bo‘lgan odamlarning katta jamoasidir.

Milliy – etnik ziddiyatlar o‘zining uzoq tarixiga ega. Uning kichik ko‘rinishi qadimgi davrdagi qabila va urug‘lar o‘rtasidagi ziddiyatlar bo‘lib u unchalik darajada halokatli emas deyish mumkin. Hozirgi paytdagi milliy-etnik nizolar nisbatan insoniyat va uning kelajagi uchun ancha xatarliroqdir. Chunki hozirda o‘rtacha eng kichik millat besh yuz mindan boshlanadi va eng kattalari milliarddan oshib ketadi hamda ular o‘ziga xos zamonaviy qirg‘in qurollarga ega ekanligini inobatga olsak uning qay darajada ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Undanda dahshatlisi, milliy-etnik ziddiyatlarni o‘z ichiga oluvchi dinlararo va konfessiyalararo ziddiyatlardir. Ushbu ziddiyatlar boshqalariga nisbatan keng ko‘lamligi, shafqatsizligi, ko‘p qurbonlar bo‘lishi, uzoq vaqt davom etishi mumkinligi bilan boshqalaridan keskin ajralib turadi.

Etno-milliy ziddiyatlar ko‘pqirrali masalalardan biri bo‘lganligi sababli ilmiy adabiyotlarda mualliflar turli xil nuqtai-nazarlarni ilgari surganlar. Xatto ularning ayrimlari bir-biriga qarama qarshi fikrlardan

iboratdir. Ularda mualliflar o‘zlarining dunyoqarashlaridan kelib chiqib millatlarning tabiatiga va ularning mavjudligiga o‘zlaricha baho berganlar. Masalan, bir paytlar milliy harakatning rahbarlaridan biri bo‘lgan Liviya rahbari M.Kaddafi “Milliy birlikni tashkil etuvchi va saqlab turuvchi asos bu – milliy o‘zlikni anglashdir” deb yozgan edi. Darhaqiqat millat birligining asosini ko‘proq milliy o‘zlikni anglash va yagona dinga e‘tiqod tashkil etadi.

Millatlararo ziddiyatlar tabiati bir jamiyatda yashayotgan turli xil millatlarning o‘zaro ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va o‘zaro ko‘pqirrali aloqalarining qay darajada yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Milliy manfaatlarning kamsitilishi faqatgina ijtimoiy sohadagina emas balki kundalik hayotning turli xil sohalarida bo‘lishi mumkin. Turli xil millatlar o‘rtasida xatto kichik bir anglashilmovchilik orqali bo‘lsada yuzaga kelgan ziddiyat asta-sekinlik bilan kengayib katta masshtabga aylanib ketishi ehtimoli mavjud.

Milliy harakatlarning ma’naviy asosi bu – milliy o‘zlikni saqlab qolish va anglash uchun shakllantiriladigan milliy g‘oyalardir. Milliy o‘zlikni anglash ko‘pchilik hollarda millatchilikni o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zida millatchilik belgilarini namoyon qiluvchi milliy g‘oya aniq bir millatning ehtiyojlari va manfaatlariga hizmat qiladi. O‘tmishga nazar tashlasak millatchilikning turli xil ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Masalan, Hindistonda millatchilik uch diniy jamoa ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Unga J.Neru shunday baho bergan: “Hindistondagi “haqiqiy” millatchilik boshqalaridan shu jihati bilan farq qiladiki, unda kichik jamoaning manfaatlari va pozitsiyasi emas, balki ko‘pchilik hind aholisining ruhiy holati va hulq-atvori namoyon bo‘ldi”.

XX asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshida sovet jamiyatida etno-milliy ziddiyatlar ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Birinchisi bu-ko‘pmillatli sovet davlatida asosiy hukmron millat hisoblangan ruslar bilan nomigagina bo‘lsada o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan ittifoqdosh 15 ta respublikaning mahalliy millatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Ikkinchisi, sobiq ittifoqdosh respublikalar o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng mahalliy millat vakillari hamda rus tilida so‘zlashuvchi va boshqa kamchilikni tashkil etuvchi millatlar o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

“Bu turdagi ziddiyatlarni asosan o‘z mustaqil milliy davlatchiligini shakllantirishga bo‘lgan intilish tashkil etadi. Ularda milliy davlatchilikni qurish g‘oyasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati Markazning totalitar

byurokratik diktaturasidan va ruslar ta‘siridan holi bo‘lish orqali o‘zlarining mustaqil demokratik davlatchiligini shakllantirishda namoyon bo‘ldi. Markazdan uzoqlashish va o‘z davlatchiligini qurishga bo‘lgan kurashning tezlashib ketishiga sabab bo‘lgan omillar bu turli xil millatga, dinga, urf-odatlarga, tilga mansub xalqlarning zo‘ravonlik, bir millat hukmronligi ostida zo‘rlab ittifoqqa birlashtirilganligidir.

Bugungi kunda jahonda millatlararo munosabatlarda bir-biriga qarama-qarshi ikki tendensiyani kuzatish mumkin. Biri mustaqillikka intilish va ikkinchisi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish. Ular jamiyatda turli xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Bir holatda millatlarning ma‘lum bir maqsadga erishishi uchun integratsiyalashuvi kuzatilsa, ikkinchisida esa alohidalikka intilishi natijasida yuzaga kelayotgan millatlararo ziddiyatlardir.

Har qanday ko‘pmillatli davlatda millatlararo munosabatlar holati mamlakatning ichki xavfsizligi va siyosiy barqarorligini belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Islohotlar davrida ayniqsa, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tayotgan davrda ko‘pmillatli davlatlarda milliy mansublikning turli tumanligi jamiyatning siyosiy yo‘nalishi va siyosiy jarayonlarini tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi xatto, uni parchalab yuboruvchi omillardan biriga aylanishi mumkin.

“Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar”. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kundagi yana bir muhim vazifa mamlakatimizda millatlararo totuvlik g‘oyasining doimiy ustuvor bo‘lishini ta’minlash bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda politeizm qaror topgan, aholining 95 foizdan ortig‘i islom diniga, qolganlari boshqa dinlarga e‘tiqod qiladi. Bizning mamlakatimiz azal-azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makon sifatida dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida mavqega ega. Bu muborak zaminda bizning ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan qaraganlar, mana shu yurt ozodligi yo‘lida ular bilan birga kurash olib borgani, elkadosh bo‘lib mehnat qilganini hech kim inkor eta olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘pmillatli jamiyatlarda barcha millat va etnik guruhlar manfaatlari qondirilishi adolatli tashkil etilgan bo‘lsa, ayniqsa, ular o‘rtasida huquqiy tenglik mamlakatning bosh qomusi bo‘lgan konstitutsiyasi va qonunlarida o‘z aksini topgan va amaliyotga tadbiq etilgan bo‘lsa, davlatda millatlararo mojarolar kelib chiqishining ehtimoli kamayadi. Bu o‘z navbatida jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Millat-lararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-munosabatlar-sohasida-ozbekiston-respublikasi-davlat-siyosati-kontseptsiyasini-tasdiqlash-togrisida.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 69 b.
3. Ал-Каддафи М. Зеленая книга, част третая. Общественный аспект третей Всемирной теории.
4. Д.Неру Взгляд на всемирную историю. М., 1981. Т.2.С.441.
5. Musaev O. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. Toshkent. “Ilm-ziyo-zakovat” 2021. – 87 b.
6. Karshiyev Sh.S. Yangi O’zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o’rni. “O’zbekiston sud ekspertizasi” xuquqiy itimoiy ilmiiy-amaliy jurnali, Toshkent., №2. 2023-yil, 66-69 betlar

**Арслон Камилович Нафасов**
*Чирчиқ давлат педагогика университети катта ўқитувчиси*

## ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ

***Annotatsiya:*** Мамлакатимиз истиқлоли шарофати туфайли барча фан соҳаларини ривожланган давлатларда тўпланган тажрибалар асосида таҳлил қилиш ва янада ўрганиш ҳамда хаётимизга татбиқ этиш даври келди. XX аср 30-йилларда "педагогик техника", “технология” тушунчалари махсус адабиётларда пайдо бўлди ва у ўқув машғулотларини аниқ ва самарали ташкил этишга йўналтирилган усул ва воситалар

йиғиндиси сифатида қаралди. Шунингдек, бу даврда ПТ деб ўқув ва лаборатория жиҳозлари билан муомала қилишни уддалаш, кўргазмали қуроллардан фойдаланиш тушунилди.Мазкур мақолада шу хақида бир қатор мулохазалар билдириб ўтилган.

**Калит сўзлар:**Педагогик технология, кўргазмали қуроллар, Педагогик техника ўқув-тарбиявий жараён, устувор методлар, билиш фаолияти, руҳий ривожлантириш.

Бугун мамлакатимиз истиқлоли шарофати туфайли барча фан соҳаларини ривожланган давлатларда тўпланган тажрибалар асосида таҳлил қилиш ва янада ўрганиш ва хаётимизга татбиқ этиш даври келди. Миллий дастурда таъкидланганидек якин келажакда "кадрлар тайёрлаш соҳасидаги ҳамкорликнинг халқаро ҳуқуқий базаси яратилади, халқаро ҳамкорликнинг устувор йўналишлари рўёбга чиқарилади, халқаро таълим тизимлари ривожлантирилади".

XX аср 30-йилларда "педагогик техника" тушунчаси махсус адабиётларда пайдо бўлди ва у ўқув машғулотларини аниқ ва самарали ташкил этишга йўналтирилган усул ва воситалар йиғиндиси сифатида қаралди. Шунингдек, бу даврда ПТ деб ўқув ва лаборатория жиҳозлари билан муомала қилишни уддалаш, кўргазмали қуроллардан фойдаланиш тушунилди.40-50-йилларда ўқув жараёнига ўқитишнинг техник воситаларини жорий этиш даври бошланди. Айниқса кино, радио, назорат воситалари, улардан фойдаланиш методикаси ПТга тенглаштирилди.

60-йилларнинг ўрталарида бу тушунча мазмуни чет эл педагогик нашрларда кенг мухокамага тортилди. 1961 йилдан бошлаб АқШда "Педагогик технология" (Educational Technology), 1964 йилдан Англияда "Педагогик технология ва дастурли таълим" (Technology and programmed Learning), Японияда эса 1965 йилдан "Педагогик технология" (Educational Technology) журналлари чоп этила бошланди. 1971 йилда худди шу номли журнал Италияда чиқарила бошланди. (20-бетдаги чизмага қаралсин)

ПТ муаммосининг ўта долзарблиги ҳисобга олиниб, унинг илмий асосларини тадқиқ қилиш мақсадида махсус корхоналар тузилди. Мисол учун, 1967 йилда Англияда педагогик технология Миллий Кенгаши (National council for Educational Technology) ташкил этилди ва 1970 йиддан бошлаб "Педагогик технология журнали" (Journal of Educational Technology) чиқа бошлади. АқШнинг қатор

университетлари ва илмий марказларида ҳам ПТ муаммоларига жиддий эътибор берилди. 1971 йилда махсус "Коммуникация ва технология Ассоциация"си (Association for Educational Communications and Technology) фаолият кўрсата бошлади. Ҳозирги кунда бу ташкилотнинг барча штатларда ва Канадада 50 дан зиёд филиаллари ишлаб турибди.

Японияда ПТ муаммолари билан тўртта илмий жамият шуғулланмоқда, фаол ҳаракатдаги педагогик технология Марказий Кенгашининг 22 та давлат университетларида марказлари мавжуд. Ҳар уч ойда япон тилида чиқадиган "Педагогик технология соҳасидаги тадқиқотлар" (Educational Technology Research) журналларида йирик олимларнинг илмий ишлари ўз ўрнини топмоқда. Яқинда Умумяпон педагогик технология Марказий Кенгаши (The Japanese Council of Technology Centers) тузилиб, бу соҳада халқаро алоқалар ўрганиш ишлари билан машҳур.

Дидактиканинг бу йўналишига эътибор нихоятда ошиб боришини 70-йилларда ўтказилган қатор халқаро конференциялар тасдиқлайди. Шундай халқаро конференциялар 1966 йилдан бошлаб ҳар йили баҳорда Англияда ўтказилиб келинади ва анжуман материаллари "Педагогик технология жиҳатлари" (Aspects of Educational Technology) номида нашр қилинади.

Шу ерда биринчи конференция материаллари (1966 йил) тўпламнинг кириш мақоласида ёзилган жуда муҳим далилни келтириш ўринлидир: "икки тушунча-"педагогика" ва "технология"ларни қўшиш мантиқи тортишувларга сабаб бўлаяпти. Чунки "технология" сўзи синф хонасига техникани киритиш ва "дегуманизация" (инсонпарварликдан воз кечиш) ғояси билан тавсифланиши педагогик касб вакилларини чўчитиши мумкин". Албатта, бу фикр маълум даражада тўғри бўлиши мумкин. Бироқ технократик фикрлаш (техниканинг инсон ва унинг қадриятлари устидан устунлиги) фанда қораланади ёки инсон хеч қачон "темир машина"га тобе бўлмайди, балки уни ўз акл-заковати билан яратади ва бошқаради. Бу муаммонинг психологик жиҳатлари бўлиб кам ўрганилган соҳа.

70-йилларнинг бошига келиб ўқув жиҳозларининг турли ҳилларини ва ўқитишнинг предметли воситаларини лойиҳалаш ва ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш зарурий шартлардан бирига

айланди, уларсиз илғор методика ва ўқитиш шакллари самарасиз бўлиши, таълим сифатига эришиб бўлмаслиги англаб етилди. Шу боисдан собиқ социалистик лагердаги давлатларда ҳам бу соҳада маълум хажмдаги ишлар амалга оширилди. 1973 йилда Венгрияда "Ўқиш технологияси Давлат Маркази" бевосита ЮНЕСКО ташаббуси ва дастури асосида ташкил этилди ва унинг асосий вазифаси ўқитиш технологиясининг янги қирраларини кашф этиш, мутахассислар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқотларни ривожлантириш каби масалалардан иборат бўлди.

ЮНЕСКО инсонпарвар ва тараккийпарвар ташкилот сифатида халқаро муаммоларни ўрганиш билан мунтазам шуғулланиб келмоқда. 1971 йилда ЮНЕСКО собиқ бош директори Рене Маис Франция Бош вазири Эдгаро Форага мурожаат қилиб махсус гуруҳга раҳбарлик қилишни, тезкор ўзгаришлар рўй бераётган бир шароитда жаҳон таълими олдига қўйилган мақсадни ва уни амалга ошириш учун ақлий ва моддий воситалар миқдорини белгилаб беришни илтимос қилди.

Шундай қилиб, 1972 йилнинг кеч кузида Буюк Британия ва Франция китоб дўконларида "Яшаш учун ўқиш. Дунё тарбияси бугун ва эртага" (Learning to be The world of edication today and tomorrow) китоби пайдо бўлди. Бу вокеага роппа-роса 35 йил вақт ўтган бўлсада, маърузанинг асосий ғояларини эслаш фойдадан холи бўлмайди. Боз устига бу китоб бошқалари каби мамлакатимиз кенг аудиториясига кириб келмади, кутубхоналаримиз бойлигига айланмаган.

Комиссия томонидан жаҳон таълимининг жорий ҳолати таҳлил қилиниб асосий йўналишлари белгиланди. Комиссия миллий Концепция, шунингдек маориф ва тарбияни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш учун ўз тавсияларини ифода этди. Бу концепциянинг бош ғояси: инсон бутун хаёти давомида тикланиш ҳолатида бўлади, демак у ўз потенциалини фақат узлуксиз таълим жараёнидагина амалга оширади-доимо янгиликларни билишга ва мавжуд тажрибаларини фаоллаштиришга интилади. Шу боисдан маълумотлилик фақат маълум хажмдаги билимларни узатиш билан боғлиқ ҳолда эмас, инсон ўз ҳаёти давомида тикланиш жараёнининг мантиқини аниқлайдиган омил сифатида тушуниш керак. Энг

асосийси, Эдгаро Фора томонидан "замонавий технология таълимни модернизациялашда ҳаракатланувчи куч" эканлиги қайд этилди.

Бу даврда таълим тизимидаги ўзгаришлар турли мамлакатларда турлича кечди: баъзи бирлари амалиётдаги мавжуд таълимни такомиллаштиришни афзал кўрсалар, бошқалари ўз олдиларига ҳозирги таълим тизимини янгисига алмаштиришни мақсад қилиб қўйди. Ниҳоят, учинчилари эса жамиятни ўзгартирмасдан туриб таълим тизимини ислоҳ қилиш мумкин эмаслигини, вақтни бой бермасдан ёшлар билан олиб бориладиган таълим-тарбиявий ишларнинг янги тизимини яратишга киришиш кераклигини эътироф этадилар.

Бугун Ўзбекистан демократик ҳуқуқий давлат ва адолатли фуқаролик жамияти қуриш йўлидан изчил бораётганлиги учун кадрлар тайёрлаш тизими тубдан ислоҳ қилинди, давлат ижтимоий сиёсатида шахс манфаати ва таълим устуворлиги қарор топди. Ўқув-тарбиявий жараённи илғор педагогик технологиялар билан таъминлаш зарурати ҳам Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини рўёбга чиқариш шартларидан биридир. Шу сабаб биз бу педагогик феноменнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш жараёнини ўрганишга тарихий ёндашмокдамиз.

1977 йилда Будапештда ўтказилган ўқитиш технологияси бўйича Халқаро семенарда таълимни технологиялаштириш жараёни билан боғлик омиллар рус олими С.Г.Шаповаленко томонидан қуйидагича белгиланди: техникани билиш ва мукаммал эгаллаш; аудиовизуал фонди билан таниш бўлиш; техник воситалардан фойдаланиш методикасини эгаллаш.

Бироқ бу фикрнинг бир ёқламалиги яққол кўзга ташланади. Ундан фарқли ўлароқ ғоялар шу семинар иштирокчилари томонидан айтилди. Мисол учун, венгер олими Л.Салаи ўқитиш технологияси доирасини бир мунча кенгайтиришга уринади: режалаштириш, мақсад таҳлили, ўқув тарбиявий жараённи илмий асосда ташкил этиш, мақсад ва мазмунга мос келадиган методлар, воситалар ва материалларни танлаш бевосита ПТни лойиҳалашдаги ўқитувчи фаолиятига хослигини таъкидлайди. Шунга яқин фикрлар, яъни ўқитиш технологияси ўзида ёрдамчи восита ва янги тизимни қамраб олган ҳолда ўқув жараёнини ривожлантиришга, унинг ташкилий шаклларини, методларини, мазмунини ўзгартирган ҳолда ўқитувчи

ва ўқувчиларнинг педагогик тафаккурлашига таъсир кўрсатиши Ж.Целлер томонидан таъкидланди. Бу маълумотлар шундан далолат берадики, 70-йиллар охирига келиб чет элларда техника ривожи ва таълимни компьютерлаш даражасига боғлик ҳолда ПТнинг иккита жиҳатлари алоҳида ажратилиб кўрсатилган ва тадқиқ қилинган: 1) ўқув жараёнига техник воситаларни жорий этиш; 2) амалий масалалар ечимини топишда билимлар тизимидан фойдаланиш. Мисол учун, Японияда бу даврда олиб борилган тадқиқотлар ўқув жараёнини техноло-гиялаштиришнинг биринчи йўналиши, яъни таълимнинг янги техник воситаларини яратиш ва ўқув жараёнига қўллаш билан бевосита боғлик бўлган (Noshinisono Harou, Edicational Technology in Japan, Audio shal Instinction, November, 1979).

Бундай ҳолат бошқа катор давлатлар учун ҳам ҳарактерли бўлиб, ПТнинг иккинчи йўналиши-назарий-дидактик жиҳатлари 80-йилларнинг бошида АқШ ва Англияда тадқиқот объектига айланди. Чунки "технология" сўзи кенг маънода назарий билимларни амалиёт мақсадига кўчириш, бу кўчиришнинг аниқ йўлларини ишлаб чиқиш зарурати эътироф этилди.

Шундай қилиб, 80-йилларда ПТнинг моҳиятини ойдинлаштиришга бўлган уринишлар янада давом эттирилди. Бу соҳа Россиялик педагог олимларнинг диққатини ҳам жалб эта бошлади. ПТнинг ривожланиш тарихи Т.А.Ильинанинг илмий мақолаларида буржуа дидактикасининг йўналиши сифатида талқин этилсада, у биринчилар қаторида ўз ҳамкасбларини бу муаммо билан шуғулланишга даъват этади ва чет эл мактаблари ва педагогикасида бу соҳадаги янги ва қизиқарли нашрларнинг барчасини кузатиш фойдали эканлигини алоҳида таъкидлайди. Шу боисдан 80-йилларнинг охири, 90-йилларда ПТнинг назарий ва амалий жиҳатларини тадқиқ қилиш Россияда кенг йўлга қўйилди. Академик В.П. Беспальконинг 1989 йилда нашр этилган "Слагаемне педагогической технологии" (5) китоби бу соҳадаги йирик тадқиқотларнинг натижаси ҳисобланади.

Хўш, ПТ мамлакатимиз таълим тизимида, қолаверса, педагогик нашрларда илмий тушунча тарзда қачон пайдо бўлди? Шубҳасиз, янги соҳа 1997 йилда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида долзарб тадқиқот объекти даражасига кўтарилди ва ижтимоий буюртма сифатида юзага қалқиб чиқди. Шу билан биргаликда

мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ бу муаммога қўл урилди, аниқроғи 1993 йилда "Халқ таълими" журналида чоп этилган мақолада биринчи марта ПТ тушунчаси моҳияти, унинг таърифи ва маълум педагогик тизим доирасидаги талқини ёритилди [20].

Бугун эса ПТ мавзуси бўйича мамлакатимизда назарий ва амалий конференцияларни уюштириш, вақтли матбуотларда мақолаларнинг тез-тез кўзга ташланиб туриши ижтимоий воқеликка айланиб бораётганлиги қувончлидир. 1997 йил май ойида Самарқанд Давлат университетида ўтказилган "Олий таълимнинг ҳозирги долзарб муаммолари" Олий ўқув юртлариаро илмий-методик конференциянинг ялпи йиғилишида "Педагогик технология: концептуал тахлил" мавзусида маъруза қилинди [21]. Маърузада таълимни технологиялаштириш жараёни ижтимоий буюртма сифатида мавжудлиги эътироф этилди, ПТ таърифи, моҳияти ва тарихи ҳамда замонавий лойиҳаси методологик ёндашувлар асосида таҳлил қилинди.

ПТ муаммоларига оид олимларнинг фикрлари вақтли нашрларда, "Маърифат", "Учитель Узбекистана" каби газеталарда мунтазам равишда ёритилиб турибди. Демак, бу мавзу назарияси ва амалиёти кўп минг сонли аудиторияга кириб бораяпти, ўқитувчилар кунлик фаолиятларида улардан фойдаланаётганлиги маълум.

XXI асрга қадам қўйиш арафасида Г.К.Селевко томонидан ПТга оид йирик методик асар - ўқув қўлланма яратилди ва унда педагогик технологиялар таснифи келтирилади [24]. Олим ПТларни ўн икки турга ажратган.

Шундай қилиб, ПТ концепциясининг ривожланиш тарихини кузатиш натижалари асосида бу соҳада сермашаққат изланиш-ларни олиб бораётган тадқиқотчиларни фаолият даражаларига боғлик ҳолда шартли уч гуруҳга ажратиш мумкин:

1. Баъзи "жонкуяр" олимларнинг ПТни педагогикадаги замонавий йўналиши, деб анъанавий ёндашишлари ва ўз имкониятлари доирасида муаммога илк бор қўл уришлари. Улар "тасодифий" гуруҳ вакилларидир.

2. Таълимнинг бугунги ахволига қайғурадиганлар ва уни информатика инқироздан қутқарувчи куч технологиялаштириш, деб қарайдиган "қисман ижодкор" гуруҳига мансуб тадқиқотчилар.

3. Бу гуруҳ аъзолари технологиялаштиришни объектив жараён, деб ҳисоблайдилар ва янги сифатий муаммоларни ечиш учун таълимни эволюцион жараёнга кўтариш шартларидан бири эканлигини эътироф этган ҳолда ижод қилмоқдалар. Улар "илмий" гуруҳни ташкил этадилар.

**Адабиётлар руйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2018 йил 5 июндаги "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-3775-сонли қарори.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом еттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон.. 2017.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.

4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент, “Ўзбекистон, 2019.

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021.

6. 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Тошкент: Маънавият, 2017.

7. Щуркова Н.Е. Педагогические технологии: учеб, пособие для академического бакалавриата /— 3-е изд., испр, и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2017. – С 12-55.

8.Бесполько В.П.Слагаемые педагогической технологии.М.Педагогика.1989 г

9.Зиёмухамедова Б. Педагогик маҳорат асослари.Т.”ТИБ-КИТОБ” 2009й.

10.Йўлдашев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари Т.”Ўқитувчи” 2004.

11.Назарова Т.С. Педагогические технологии:новый этап эволюции «Педагогика» 1997 .

12.Очилов М.Янги педагогик технологиялар.Қарши.”Насаф” 2000 й.

13.Сайидахмедов Н.Янги педагогик технологиялар. Т.”Молия” 2003.

14.Толипов Ў., Усмонбоева М.Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари.Т.”Фан”.2006.

15.Фарберман Б.Илғор педагогик технологиялар.Т.”Фан”.2000.

16.Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологиялар.2014.

**Sarvar Mahmudovich Qo‘ldoshev**
Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi
sarvarquldashev@mail.ru

## “DEVONU LUG‘ATIT TURKDA” QO‘SHIN

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ish Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lu’gotit turk” asarida keltirilgan ma’lumotlar asosida O‘zbek davlatchiligi tarixida hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasining harbiy qo‘shini tahlil qilinadi. Asarda qo‘shin, uning tarkibi, ta’minoti, jang qurollari, harbiy taktika, unvonlar kabi ko‘plab harbiy sohaga oid atamalar berilgan bo‘lib, bu maqolada faqat qo‘shin va unig tarkibiga oid qismigina bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** “Devonu lug‘otit turk”, bayroq, tug‘, nog‘ora, chaush, yezik, sokman, aqinchi, yotg‘oq, tutg‘oq, sog‘un, ay bitigi.

O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi davomida o‘z xarbiy salohiyatini saqlab kelgan. Bu Turkiston mintaqasida hukmronlik qilgan sulolalar davlatni boshqarishda, uni himoya qilishda, tinchlikni saqlashda harbiylarga tayanishgan. Bunday siyosat Qoraxoniylar davrida ham yuksak darajada taraqqiy etganligi shubhasiz. Boshqa tomondan, o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixida juda muhim davrni tashkil etuvchi bu sulola harbiy tashkilotining ba’zi diqqatga sazovor izlari keyingi davrda hukmronlik qilgan sulolalar harbiy tashkilotlarida ham borligi namoyon bo‘ladi. Binobarin, Qoraxoniylarning harbiy tashkiloti haqidagi manbalarimiz tomonidan berilgan ma’lumotlarni ochib berish nafaqat bu sulolaning harbiy tashkiloti mohiyatini anglash, balki o‘z davridagi ayrim harbiy iboralarning ma’no va kelib chiqishini aniqlashtirish nuqtai nazaridan ham foydali bo‘ladi.

“Devonu lug‘atit turk” sulolaning harbiy qudrati haqida tasavvur qilishimizga osonlashtiradi. Muallif o’zi guvoh bo’lgan voqealarni tasvirlaydi. Bu esa asarning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu asar usha davrda Yevroosiyoning katta qismida hukmronlik qilayotgan turkiy

sulolalar saljuqiylar, g‘aznaviylar va qoraxoniylarning harbiy kuchini namoyon etadi.

Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida albatta qo‘shin ahamiyati juda katta bo‘lgan. Lekin katta qo‘shin xarajatlari ko‘p bo‘lgani uchun faqat harbiy darvlardagina ularning xizmatidan foydalanishgan[3;69-70]. Tinchlik davrida qo‘shinlarga javob berilgan. Shunday bo‘lsada qoraxoniylar sulolasi davrida doimiy faoliyat yuritadigan qo‘shin bo‘lgan. Unga xoqonning shaxsan o‘zi qo‘mondonlik qilgan. Sulola vakillari armiyani kuchaytirish, unga rahbarlik qilish, urush tarixini va qonuniyatlarini o‘rganish masalasiga jiddiy e’tibor qaratishgan. Shu bilan birga harbiy qo‘shinlarga rahbarlik qiluvchilarga qo‘yilgan talablar ishlab chiqilgan. Mazkur talablarga ko‘ra, qo‘mondonlar o‘zlari qattiq imtizomli, dovyurak, kuchli, qobiliyatli, qurollarni yaxshi bilishdan tashqari, o‘qimishli va harbiy bilim ustasi bo‘lishi kerak. Qo‘shinda turli vazifalarni bajaradigan qismlarga bo‘lingan. Tartib intizom birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shuning uchun qoraxoniylar sulolasi qo‘shinida saflarni tartibga solish va asir olinganlarga nisbatan zulm qilishni oldini olish, askarlar dam olishi kabi vazifalarni tashkil qiluvchi lavozim bo‘lib u “Devonu lug‘otit turk”da Chaush deb keltirilgan[1;349].

Harbiy yurishlardan qo‘shinni g‘alabasini ta’minlaydigan eng muhim omillaridan biri bu ta’minot masalasidir. Harbiy ta’minoti yaxshi bo‘lgan qo‘shin uzoq vaqtga bardoshli bo‘lgan. Qoraxoniylar ham bu masalalar jiddiy qaraganlar, qo‘shinning qurol-yarog‘i, kiyim-kechagi, oziq ovqati, askarlarning sog‘lig‘i kabi masalalar bilan shug‘ullandigan lavozimlar bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy ham o‘z asarida bemorlar va yaradorlarni davolaydiglarni bir nechtasi keltirib o‘tgan. Emchi, otachi, sog‘un kabilar bunga misol bo‘ladi. Ulardan faqat sog‘un ham tabib ham qarluqlarning kattalaridan biri bo‘lgan[1;382]. Harbiy yurishlarda ishtirok etgan. U tog‘ridan-to‘g‘ri janglarda qatnashmagan, o‘zi boshqarayotgan hududdan jangchilarni safarbarlikka jalb qilgan, va jangda yaradorlarni davolagan.

Shuningdek askarlar ta’minotiga jiddiy e’tibor berishgan. Askarlarga xizmat xaqi o‘z vaqtida to‘lanishi nazorat qilinib borilgan. Arab xalifaligi keyinchalik Somoniylar davrida ham askarlarni ta’minoti uchun shug‘illangan maxsus devon bo‘lib ular manbalarda “Devoni arz” nomlar bilan tilga olingan. Xuddi shu devon Qoraxoniylar sulolasi hukmronligining dastlabki davrida bu lavozim “ay bitigi”[1;76] deb nomlangan. Ular askarlarni maoshlari, oziq-ovqat ta’minotlarini o‘zlarining daftarlarga

qayd etib borishgan. Bu devonda saqlanayotgan kitobga ay bitigi yoki shunchaki ay kabi turkcha nom berilganligi askarlarning maoshlari va taomnomalarini yozib olish vazifasi Qoraxoniylar davrida uzoq vaqtdan beri davom etayotgan jarayon bo‘lganligini ko‘rsatishi mumkin. Askarlarning oylik maoshlari har oyda bir marta to‘langanligi sababli. Agar ay bitigi nomi haqiqatan ham askarlarga oylik maosh to‘lanishidan dalolat bo‘lsa, bu qoraxoniylarning xalifalik misolidan ko‘ra o‘zlarining harbiy an’analariga amal qilganliklaridan dalolat beradi

Qo‘shin tarkibi da turli vazifalartiga qarab guruhlarga bo‘lingan. Janglarda o‘zini ko‘rsatgan jangchilarni alp[1;77], alpag‘ut[1;161] deb atalgan. Bunday unvon egalari jasurligi va jangovarligi bilan boshqa jangchilari ajralib turishgan.

Shuningdek dushman to‘g‘risida ma’lumot to‘plab shunga qarab jang rejalarini tuzib harakat qilish bu g‘alabani taminlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Qoraxoniylarda ham bu vazifani bajaradigan bo‘linma bo‘lib “Devon”da bu “yezik” atamasi bilan keladi[2;26]. Ular qo‘shinning oldida harakatlanib yo‘lda dushman mavjud yoki yo‘qligi, qayerda joylashgani, soni qanchaligi to‘g‘risida asosiy qo‘shinni xabardor qilib turgan.

Qoraxoniylar jang vaqtida dushmanga kutilmagan zarba berib ularning qo‘shinini sarosimaga solishga ahamiyat berishgan. Shuning uchun ularning safida dushma safini buzuvchi maxsus bo‘linmalari bo‘ib Mahmud Koshg‘ariy uni “sokman”[1;417] shaklida beradi. Ular og‘ir qurollar bilan qurollangan. Boshlarini “ashuq”[1;97] deb nomlanuvchi dubulg‘a, “kuba yariq” ataladigan temir zirx va “say yariq”[2;21-22] – ya’ni temir qalqon yordamida jangga kirganlar.

Bundan tashqari dushmanni sarosimaga solishda tungi hujumlardan foydalanishgan. Tunda hujum qiladiganlar asosan epchil, yengil qurollar bilan qurollangan bo‘limmalar iborat bo‘lib ularni Mahmud “aqinchi”[1;106] atamasi bilan tariflaydi.

Qoraxoniylarning asosiy qo‘shinidan biri bu saroy qo‘riqchilari bo‘lib ularning asosiy vazifasi saroy xavfsizligi uchun javobgardir. Mahmud Qoshg‘ariyning yozishicha saroy qo‘shininig orasida xonni muhofaza qiladiganni yotg‘oq deb atalgan[2;49]. Ularning asosiy vazifasi hukmdorni tunda qo‘riqlash, va uning xavfsizligiga javobgarlikdan iborat. Bu yotg‘oqlar haqida usha davr muallifi Yusuf Hos Hojib ham asarida ham keltirib o‘tilgan[4;157-159]. Bu harbiy amaldor G‘aznaviylarda hususan

sulton Mahmud G‘aznaviy qo‘shinda ham mavjud bo‘lgan[5;197]. Saljuqiylar sulolasida esa “mulozimi yatoq” shaklida bo‘lib uning vazifasi ham humkdorning tunda qo‘riqlash bo‘lgan[6;283-291].

Shuningdek hukmdorni kunduz kuni qo‘riqlaydigan maxsus qo‘riqchilar bo‘lib ular turg‘oq deb atalgan. Ular saroy va undan tashqarida ham hukmdorlarni himoya qilish vazifasi yukalatilgan. Afsuski tug‘roq haqida manbalar faqat Yusuf Hos Hojibning asarlarida keltirib o‘tilgan[4;160].

Boshqa tomondan, saroy tashkiloti zikr qilinganidek, hukmdorning qo‘mondonligi ostidagi qo‘shin a’zolari orasida tug‘chi, qushchi, kamonchi, o‘qchi, qurolchi va a’lamdorlar kabi harbiy amaldorlar bo‘lib ular saroyda ham, saroy tashqarisida ham alohida vazifalarga ega edi. Shu munosabat bilan, bu yerda kamonchilar haqida alohida so‘z yuritilganidan ko‘rinib turibdiki, saroy qo‘shining asosiy qismi piyoda bo‘lgan.

Hukmdorning xavfsizligi uchun ikkita yotg‘oq va turg‘oq kabi amaldorlar ma’sul bo‘lgan. Bu harbiy mansab qoraxoniylarning ilk hukmdori, islomni qabul qilgan Sotuq Bug‘raxon davrida boshlab shakllanib kelgan[7;131]. Bu harbiylar oddiy xalq orasidan baquvvat yigitlarni o‘smirligi paytidan tanlab olib tayyorlashgan. Eshik og‘aboshi bu harbiylarni boshqargan. Ularni kerakli joyga navbatchilikka qo‘ygan, vazifalarini begilab bergan. Shaxsan eshik og‘aboshi bu harbiylarni tayyorlagan. Bu harbiylar xoqonga sadoqat bilan xizmat qilishgan. Qachonki hukmdor vafot etsa ular undan keyingi hukmdorga xizmat qilishni davom ettirishgan. Saroy fitnasi tufayli hukmdor almashsa oldingi hukmdorga xizmat qilgan yotg‘oq va turg‘oqlarni ham jismonan yo‘q qilishgan yoki boshqa mintaqaga surgun qilishgan. 1055-1056-yillarda Qoraxoniylarda yuz bergan davlat to‘ntarishi natijasida ko‘plab yotg‘oq va turg‘oq boshqa hududlarga qochishgan. Shular qatorida Mahmud Qoshg‘ariyning oilasi bu fitnadan so‘ng boshqa hududlarga ketishga majbur bo‘lgan. Chunki uning ota-bobalari ham oldingi hukmdorga xizmat qilishgan edi[8;112]. Undan tashqari g‘arbiy qoraxoniylar 1068-yilda Shosh va Tunhasda ko‘tarilgan isyoni, xoqon o‘z qo‘riqchilari bilan borib tinchlik o‘rnatgan[9;38].

Yotg‘oq va tug‘roqlarning vazifalari umumiy bo‘lib quyidagilardan iborat.

Kunduz va tunda hukmdorni qo‘riqlash, Harbiy yurishlarda hukmdorni yonida jilmay uni himoya qilish, Hukmdor ovga chiqqanda

ularga hamrohlik qilish, Hukmdor uchun chavgon o‘yini tashkillashtirish, Vaziyat taqoza etsa xalq orasida tinchlikni saqlash.

Saroy qo‘riqchilari orasida yana boshqa harbiy amaldorlar ham bo‘lib ularga umumiy vazifalarini Eshik og‘aboshi tomonidan berilgan.

Qoraxoniylar sulolasi davrida harbiy sohaga oid ko‘plab atamlar “Devonu lug‘otit turk”da berilgan. Asar O‘zbek harbiy jang san’ati tarixini o‘rganishda ahamiyati beqiyosdir. Bu asar orqali XI asrda harbiy soha qanday bo‘lganligi tasavvur etishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adaiyotlar**

1. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. Нашрга тайёрловчи Солих Муталлибов. I том.Тошкент. 1960 й.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Нашрга тайёрловчи Солих Муталлибов. III том. 1963.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Нашрга тайёрловчи Солих Муталлибов. II том. 1963.
4. Аблат Ходжайев, Дилрабо Турдийева. Қорахонийлар хоқонлиги тарихи Хитой Халқ республикаси олимлари тадқиқотларида. Тошкент. 2021
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Саодатга йўлловчи билим). Таржимон ва нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. Тошкет. 1971..
6. Низам ал-Мулька. Сиасет-намэ. Москва-Ленинград. 1949
7. Genç R. Karahanlı Devlet Teşkilatı. Ankara. 2002 y.
8. Джамал ал-Карши. Ал-мулхакат би-с-сурах. 1 том. Алматы. 2005.
9. Omeljan Pritsak. “Karahanlılar”. İA. s. 251; C. E. Bosworth, The Islamic Dynasties. Edinburg 1967.
10. Erdoğan Merçil. Müslüman-türk devletleri tarihi. Istambul. 2006.
11. Kaşgarlı Mahmut. Divan-ı Lügat-it Türk. çev. Seçkin Erdi, Serap Tuğba Yurtsever. İstanbul. 2005.

**R.E.Norbekov**
ChDPU tadqiqotchisi

## BERUNIY OBRAZINING O‘ZBEK ADABIYOTIDA IFODALANISHI

***Annotatsiya*** *Mazkur maqolada har qanday davr va har qanday jamiyatda ham olim-u ulamolar, mutafakkir-u donishmandlarning o‘rni beqiyos bo‘lganligi, elyurt o‘zining shunday aziz va buyuk farzandlari, fidoyi o‘g‘lonlari, mutafakkir zotlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan olim-u ulamolar bilan haqli ravishda faxrlanashi keltirib o’tilgan. Yurtimizda tug‘ilib voyaga yetgan, o‘zining nihoyatda serqirra ilmiy-ijodiy faoliyati bilan dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk bobolarimiz nomi har birimizning qalbimizni faxr-u iftixorga to‘ldiradi. Mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liq. Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ahamiyatga molik merosini izchil o‘rganish va uni yanada kelajakda rivoj toptirish barcha ilm ahllari uchun, ayniqsa, yoshlarimiz uchun asosiy dasturulamal bo‘lmog‘i davr talabidir.*

***Kalit so’zlar:*** *mutafakkir, tamaddun, iftixor, buyuk ajdodlar, o’lmas meros, ilmiy-ijodiy faoliyat, yoshlar tarbiyasi.*

Bashariyatning eng ulug‘ va yorqin siymolaridan biri bo‘lgan buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy haqida gap ketar ekan, uning jahon ilm-fani, dunyo tamadduni hamda insoniyat oldidagi buyuk xizmatlari, ilm-fanga cheksiz sadoqati, qat’iyati hamda sobitqadamligini ta’kidlamay iloj yo‘q. Bu sifatlar har qaysi davrda, ilm yo‘lida xizmat qilaman, degan har qanday inson uchun ilm-fanga fidoyilikning yuksak namunasi bo‘lib qolaveradi.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag‘ishlangan ovro‘polik olimlar J.Reno, E.Zaxau, G.Zuter, E.Videman, K.Nallino, J.Sarton, R.Rayt, M.Meyerxof kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amrekalik tarixchi olim J.Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o‘z davrining jahondagi birinchi

donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V.R.Rozen esa, uning ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, unga hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhi xos ekanligini qayd etadi. Mamlakatimizda ham Beruniy hayoti va ijodini o'rganilib avlodlarga qoldirgan katta va boy ilmiy merosini tahlil qilib kelinmoqda. Uning asarlari astronomiya, matematika, fizika, geologiya, minerologiya, tarix va tibbiyot sohalarida dasturlamal vazifasida qo'llanib kelinmoqda. Badiiy adabiyotda ham Beruniyning hayot yo'li aks etgan qator asarlar yaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida o'sib kelayotgan yosh avlodni Beruniy shaxsini yaqindan tanishga yordam berib, ruhlari va ma'naviyatlarining Beruniy fazilatlaridan sug'orilgan holatda kamolga yetishishiga o'ziga xos vazifani ado etib kelmoqda. Abu Rayhon Beruniy obrazi, eng avvalo, xalq og'zaki ijodining qator rivoyat-u dostonlarida, qolaversa, Uyg'un, Pirmat Shermuhammedov, Tohir Malik, Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron va Isajon Sulton ijodida mohirona aks ettirib kelinmoqda.

**Xalq rivoyatlarida Beruniy obrazi:** Beruniy, o'z zamonida katta ilm-fan va madaniyat arbobi sifatida tanilgan. U O'rta Osiyo va Fors adabiyotida muhim o'rin tutadi. Xalq rivoyatlarida Beruniy obrazi ko'pincha donishmandlik, ilmga bo'lgan qiziqish va tabiatni o'rganish bilan bog'liq ravishda tasvirlanadi. Beruniy nafaqat astronomiya, matematik va geografiya sohalarida, balki tarix va falsafa bo'yicha ham chuqur bilimlarga ega edi. Xalq rivoyatlarida uning bilimdonligi va insoniyat uchun qilgan xizmatlari ko'pincha yuksak baholanadi. U ko'plab rivoyatlarda o'zining ilmiy izlanishlari, kashfiyotlari va xalq uchun foydali bo'lgan ishlari bilan tanilgan. Shuningdek, Beruniy obrazida sabr-toqat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar ham aks etadi. U o'zining yurtiga, xalqiga xizmat qilishni har doim birinchi o'ringa qo'ygan shaxs sifatida ko'rsatiladi.Xulosa qilib aytganda, Beruniy xalq rivoyatlarida nafaqat ilm-fan sohasidagi buyuk shaxs, balki o'z xalqiga sadoqatli, mehnatkash va donishmand inson sifatida tasvirlangan.Qalami o'tkir yozuvchilarimizdan Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" asarida ham Beruniy obrazi mohirona ochib beriladi. Ma'lumki Odil Yoqubovga eng katta shuhrat keltirgan asarlar tarixiy romanlari – «Ulug'bek xazinasi» bilan «Ko'hna dunyo» bo'ladi. Adabiy tanqidchilikning bahosiga ko'ra «Odil Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romanining markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirlari, ular yashagan davri turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib aktual ma'no

bag'ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo'yilmagan. Odil Yoqubov tarixni xuddi ko'rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlarga uzoq o'tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo'ladi. U tarixga bugungi nuqtayi nazaridan qaraydi»Bu so'zlarda «Ko'hna dunyo» romanining tub mohiyati ochib berilgan.

Darhaqiqat, bu roman, avvalo, ulug' allomalar Ibn Sino va Beruniy taqdiri, ular yashagan davr haqida bahs etadi. Ammo u bizdagi mavjud tarixiy-biografik romanlardan, jumladan, «Navoiy», «Yulduzli tunlar» poetikasidan farq qiladi. Xuddi avvalgi tarixiy romani «Ulug'bek xazinasi»da bo'lgani kabi bu yerda ham qahramonlari hayotini xronologik tarzda hikoya qilish yo'lidan bormaydi, ikkala alloma hayotidagi jiddiy bir palla – bor-yo'g'i bir oydan ortiq davr hodisalarini qalamga oladi. Qahramonlar hayotidagi bu palla shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun bosib o'tgan yo'li, o'tmish va kelajagi yaqqol ko'rinadi. Voqealar sodir bo'lgan maskan shunday bir bekatki, bu bekatda xilma-xil odmlar to'qnash keladilar, bu yerda umr bo'yi davom etgan ziddiyat, mojarolar muayyan intihosiga yetadi, dillarda armon bo'lib yotgan dard-u hasratlar to'kib solinadi.sir-u asrorlar oshkor bo'ladi, umrlar sarhisob etiladi, muallif personajlarga qo'shilib, hayot jumboqlari ustida qizg'in bahslar olib boradi. Ko'hna dunyo»dagi bu sujet katta ramziy – umumlashma xususiyatga ega. Haqiqiqy iste'dod sohiblar, chin zahmatkash daholar bu yoqd qolib, xor-u zor bo'lib, soxta, firibgar «ijodkor»larning obro' e'tibor qozonishi hamma davrlarga, ayniqsa, mustabit hukmronlar siyosatiga xos tarixning ajib bir sirli jumbog'idir. Roman ana shu sirli jumboq ustida istirob bilan o'ylashga, bahsga undaydi sizni.Ro'y bergan adolatsizlik ikki buyuk allomada ikki xil taassurot qoldiradi. Charxi kajraftorining xilma-xil o'yinlarini, jabr-u sitamlarini ko'p ko'rgan Ibn Sino bu telba dunyoning mudhish nayranglariga go'yo beparvodek qaraydi. Beruniy esa g'azab, afsus nadomatlardan o'zini qo'yarga joy topolmaydi.

Bu xildagi ziddiyatlar holat ham hodisaning dramasini yanada keskinlashtiradi, bahs ruhini kuchaytiradi.Ibn Sino bilan ustoz Beruniyning G'aznadagi uchrashuvi, Beruniy xonadonidagi muloqotlar, ko'ngil rozlari, ilm-fan, tabiat, koinot va jamiyat haqidagi bahslar ifodasi romanning eng jozibali, huzurbaxsh sahifalarini tashkil etadi. Bir vaqtlar

ustoz Beruniy bilan shogird Ibn Sino orasida jiddiy ilmiy tortishuvlar bo'lgan, ustoz shogirdning ayrim qarashlarini keskin tanqid ostiga olgan, bunda ba'zan adolatsizliklarga ham yo'l qo'ygan… mana endi o'sha bahslarga yakun yasash, oydinlik kiritish ko'ngildagi g'uborlarni ko'tarish, umuman ikki alloma hayotida tutgan yo'l, umr saboqlarini sarhisob etish, qarashlarni muvofiqlashtirish payti keladi. Shunisi muhimki, ikki alloma orasida qizg'in munozaralar, tanlangan yo'llarda, qarashlarda ayrim farqlar yuz bergan bo'lishiga qaramay ular aslida maslakdagi shaxs-siymolardir. Asarni o'qiganda siz buni butun qalbingiz bilan his etib turasiz. Garchi g'aznadagi uchrashuv yozuvchi ijodi fantaziyasining samarasi bo'lsa-da, tarixiy haqiqatda mosdir, chunki ikki buyuk alloma ilmiy ijodiy merosining tarixiy taqdiri, ular orasidagi mushtarakliklar bu haqiqatni to'la tasdiqlaydi.

Isajon Sulton qalamiga mansub "Abu Rayhon Beruniy" romani o'ziga xos tarzda yaratilgan qiziqarli sujetga ega ekanini ta'kidlagan holda aytishimiz joizki, muallif sujet liniyasini yaratish mobaynida tarixiy haqiqatni buzmasligi, biroq shu bilan birga quruq tarixning yorituvchisi ham bo'lib qolmasligi, badiiy to'qima bilan tarixiy reallikni bir tizginda ushlab, ikkalasini ma'lum bir izchillikda yorita bilishi joiz. "Abu Rayhon Beruniy" romanidagi ekspozitsiya tamoman yangicha ko'rinishga va maqsadga ega ekanligi bilan alohida tadqiq qilishni taqazo etadi. Aslini olib qaraganda, ekspozitsiya sujetning kirish, boshlanish nuqtasi bo'lib, kitobxonga asar mohiyatini ochib berish vazifasini bajaradi: asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar,voqelik va shart-sharoit bilan uquvchini tanishtiradi. Bu romandagi birinchi qism ekspozitsiya vazifasini bajaradi. muallif Sobiylar va Harroniylar, Zardushtiylar, Moniylar, Mazdakiylar,Bani Hanifa, Zavzan ahli, Oq kiyimlilar va Qarmatiylar tilidan asarga kirish qiladi. Asarning yaralish sabablarini, voqelik sodir bo'ladigan hudud va vaqtni, asarning bosh qahramoniga sari yo'nalishni belgilab oladi. Shu tariqa xronikali sujet tizimini harakatga keltirishni boshlaydi. Muallif ekspozitsiyani o'z nutqi orqali emas, qahramonlar nutqi orqali ochib berishni maqsad qiladi. Shu tariqa noan"anaviy ekspozitsiyani shakllantiradi. Bu holat xronikali sujet chizig'ini harakatlantirish uchun nihoyatda qo'l keladi. Voqelikni ekspozitsiyadan keyin asarning asosiy qismi bilan bog'laydi. Abu Fazl Rayyoniyning: Abu Rayhon ayni yigitlik chog'ida yozgan asarida, kelgusi avlodlarga ibrat bo'lsin, degan umidda insoniyat adashishlaridan xabar bergan bo'lsa, pirovardida taqdir uning

o‘zini ham o‘shanday kishilar yashaydigan o‘lkalarga uloqtirib yubordi va u aytganlaridan ham g’aroyibroq ishlarga guvoh qildi ifodasi ayni shu ekspozitsiyaning yakunini va sujetning asosiy qismi boshlanishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Odatda sujetga xarakterlar ikki xil holda olib kiriladi:

1. Rivojlangan, kamolotga erishgan, to‘liq shakllangan xarakterlar;
2. Sujet davomida asta-sekinlik bilan rivojlanib, o‘sib boradigan xarakterlar;

Roman sujetida xarakterlarning har ikki shakli ham uchrasada, sujet davomida asta-sekinlik bilan rivojlanib, o‘sib boradigan xarakterlar yaralishi yetakchilik qiladi. Jumladan, asarning bosh obrazi bo‘lmish Beruniy qiyofasini muallif ayni shu tarzda xronikal sujetga mos rivojlantirib boradi. Ya’ni obrazning ekspozitsiyasiga Beruniy xarakterining ilk bor o‘quvchiga tanishtirilishi, o‘sib borishi, rivojlanishi jarayonida guvoh bo‘lamiz. Bu obraz asar mobaynida chinakam xarakterga aylana boshlaydi. Muallif uning bolaligini tasvirlash jarayonida ham sujet chizig‘ini izchil rivojlantirgan holda turli xil, bir-biridan farq qiluvchi voqeliklardan, tasvirlardan, badiiy vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Beruniy xarakterining eng nozik qirralarini o‘quvchiga asta-sekinlik bilan namoyish qila boshlaydi: Abu Rayhon Beruniy yunon olimlarining yer yuzi tuzilishiga oid asarlarini ham o‘qib chiqdi. Qolaversa, uchburchak va to‘g’ri burchak nazariyasini ham o‘rganib oldi. Qachon qaramay uni hisob-kitoblar ustida ko‘rardim. Rum usturlobini o‘lchab, tekshirib ko‘rgach, temirchi bilan birga, qo‘llari kuya-kuya o‘z usturlobi va armilasini yasadi. Bu voqelik Beruniyning ustozi Mansur Ibn Iroq tilidan bayon etiladi. Bu o‘rinda ham sujetning yana bir oziga xos qirrasi ko‘zga tashlanadi. Sujet liniyasida voqeliklar qahramonlar tilidan hikoyatlar shaklida yoritiladi. Ba’zan hikoya ichida hikoya keltirish usulidan ham foydalanadi. Muallifning roviylarni so‘zlatishidan asosiy maqsadi bosh qahraomon xarakterini ochib berishdir.

Xulosa shuki Beruniy obrazi sujetning markazida turgan bosh qahramon xarakterini ochib berish vazifasi ayni shu tarzda ochib beriladi. Voqelik davomida boshqa qahramonlar tili orqali muallifning ham badiiy qarashlari, maqsadlari asta-sekinlik bilan namoyon bo‘lib boraveradi. Bir qancha personajlar, ularning tilidan bayon etiladigan bir qancha voqeliklar yagona tizimli sujet liniyasiga tiziladi va sujet dinamikasining badiiyatini ham ta’minlaydi.

**Adabiyotlar**

1.Boboyev T.Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. –B. 49

2.Қосимов Б. Салом, келажак. Каттабеков А. Тарих сабоқлари. Т.: Ғ.Ғулом, 1986. - Б. 143.

3. Anvar Allamberganov.O`zbek romanchiligida Abu Rayhon Beruniy obrazi talqini,2021.

**Феруза Амонова**
Тарих институти докторанти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

## ТОШКЕНТ – ТУРКИСТОН-ГЕНЕРАЛ ГУБЕРНАТОРЛИГИНИНГ САНОАТИ ШАҲРИ

***Аннотация.*** *Мақола Россия империяси даврида Тошкент шаҳрида ташкил топган саноат корхоналар, миллий мулкдорларнинг рус саноатида иштироки, саноатнинг қишлоқ хўжалигига таъсири ва оқибатлари архив манбалари асосида зритилган.*

***Калит сўзлар:*** *завод, фабрика, обжувоз, ширкат, уезд, рубл, пуд, берковец.*

Россия империяси Туркистон ўлкасида тўқимачилик фабрикаларини қуришдан манфаатдор эмас эди. Ўлкада тозаланган пилла ва пахтани империянинг марказий шаҳарларига жўнатиб хонликлар бозорини тайёр маҳсулотлар билан таъминлашга қаратилган эди. Европа товарларини Туркистон ҳудудига кириб келишини олдини олиш мақсадида рус заводчилари маҳсулотга дастлабки ишлов берувчи корхоналар шаклида технологиялар жалб қилди. Мустамлакачиликнинг дастлабки йилларида европалик ишлаб чиқарувчилар хонликлар ҳудудида заводлар қуришига рухсат берилмаган. Фақат дастлабки йилларда европалик саноатчилар ва қўшма ширкатлар маълум муддатда Туркистон генерал-губернаторлик ҳудудида тўқимачилик фабрикаларини қурган, аммо бу фабрикаларнинг фаолияти узоқ давом этмаган. Бунга Гурде (француз), И. Первушин ва Михайловларнинг ипак ўраш фабрикалари мисол бўла олади.

Юсуф Давидов Тошкент шаҳрида жойлашган ҳовлисига Росссиядан тик ва сурп тўқийдиган усталарни асбоблари билан олдириб ҳар хил рангли сурп ишлаб чиқарган. Бу корхонада

тайёрланган матолар Россияда ишлаб чиқарилаётган шу каби матолардан фарқи йўқлигини ва унда турли миллат вакиллари, жумладан, ўзбеклар, руслар ва яҳудийлар ишлагани ҳақида маълумотлар мавжуд.

1890 йилларда Тошкент шаҳридаги 58 та хонадон пиллачилик билан шуғулланган. 1903 йилда Тошкент шаҳрида 41 та хонадон (206 киши), Тошкент уездида 1264 та хонадон (2508 киши), пилла маҳсулотини етиштирган 1906 йилда Тошкент шаҳрида 50 та хонадон Тошкент уездида 1382 та хонадонда пилла тайёрлаган. Тошкент уезди 1910 йилда 1358 хонадон пиллачилик билан банд бўлган [1, 175].

Сирдарё вилоятида 1906 йилда 13 та завод ишлаб, шундан 6 таси Тошкент шаҳрида ва 2 таси Тошкент уездида жойлашган. 1910 йилда заводларнинг сони 36 тага етиб, уларнинг 10 таси Тошкент шаҳри ва уездида жойлашган. 1912 йилда вилоятдаги пахта тозалаш заводларининг сони 42 тага кўпайди, шундан 7 та завод Тошкент шаҳрига (ишчилар сони **68514**) ва 8 та Тошкент уездига (ишчилар **73253**) тўғри келган [2, 125].

Тошкент шаҳрида жойлашган кўнчилик фабрикалари канал ва ариқлар атрофида қурилган. Рисхабой Боймухаметбаев, Абдиазим Алимбоев, Миракзам Мираюбов, Муҳамед Умар Бобожонов, Нурманҳожи Нормагаметов, Иноғамбой Розиқбаев, Ибрагимҳожи Каримбоев, Муслимғожи Каримбаев, Қосимбай Бадалбаев, Умарбай Бобожонбоев, Қосимбой Юсуфқориев, Ахмедбобо Хонбаитсабоев, Ибрагим Каримжоновларга тегишли заводлар ишлаган. Бу заводларнинг бир нечтаси текширув инспексияси томонидан текширилганда шароит талаб даражасида эмаслиги, бинолари паст ва деразалари кичкиналиги сабабли қоронғи, шамоллаш мосламалари ўрнатилмаган, аҳоли турли касалликларга чалинаётгани қайд этилган [3, 1].

Совунпазлик билан шуғулланган заводчилар ички эҳтиёжни таъминлашда хизмат қилган. 1876 йилда Тошкент шаҳри Шайхонтоҳур даҳасида жойлашган шам ва совун фабрикаси бўлган бойлар Абдуҳалим Тошмуҳаммад, Миразимбой Мирзараим, Нодир Муҳаммад, Ислом Саид, Абдурашид Мирбадалов, Муқум Абдушукур, Азизмуҳаммед, Муҳаммад Раҳим, Атабой, Азим Шамақсут, Турди Муҳаммад, Хайрулла каби заводчилар ишлаб чиқарган маҳсулоти

Самарқанд, Фарғона вилоятлари ҳудудларига ва Бухоро амирлигига сотилган.

Рус савдогарлари ака-ука Каменскийлар биринчи рус совун ишлаб чиқарувчи заводчилардан бўлиб 1892 йилда Тошкентда ёғ заводини очган. Заводда чиғитдан чиққан чиқиндиларидан совун тайёрлаган. Рус совунпазлари совун тайёрлашда чўчқа ёғидан фойдаланган. XX аср бошларидан совун тайёрлашда пахта ёғидан фойдаланиш бошладилар. Заводчилар совун заводини қуриш учун 170 рубл, шам заводини қуриш учун 90 рубл маблағ сарфлаган [4, 37-38].

1901 йилда Тошкентнинг Сарикўл мавзёсида Мирсолиҳ Мирабдал ўғли ва Мирюсуф Иброҳимжон ўғли шерикликда 30 000 рублга яқин маблағ сарф этиб, чигитдан ёғ ишлаб чикариш заводи ишга туширди. Завод янги асбоб-ускуналар билан жиҳозлаган. Суткасига 150 пресс босиб 25-30 пуддан ёғ ишлаб чиқарган. Улар ишлаб чиқарган ёғнинг сифатига баҳо бериб кўк чойнинг рангидек ниҳоятда мусаффо ва тоза деб таърифланган. Заводда турли миллатга мансуб 14 киши ишлаб уларнинг маоши 15 – 50 рубл эканлиги қайд этилган [5, 1902].

1904 йилда Тошкент уездининг Қовунчи қишлоғида Туркистон қишлоқ хўжалиги саноат жамиятига тегишли шакар заводи қурилган. 1907 йилда 147 000 берковец [86] қайта ишланган лавлаги, 193 минг пуд шакар ишлаб чиқарилган. 1910 йилда завод 2200 гектар лавлаги экиб 200 000 берковец қанд ва 200 000 пуд шакар кукуни ишлаб чиқарди. Заводда 200 дан 240 нафаргача ишчи ишлаган [7, 275].

Сунъий муз тайёрлаш 1880 йилдан бошланган. Дастлаб муз пивахоналар учун тайёрланган. 1880-1894 йилларда Тошкент шаҳрида фаолият юритган Н.И.Ивановнинг муз фабрикаси замон талабига жавоб бермаган. Муз тайёрлаш жуда қимматга тушган. Тошкентда замонавий техник талабларга жавоб берадиган иккинчи муз завод 1904 йилда муҳандис П.И.Апрелков томонидан очилган. Заводнинг нархи 20 000 рублга баҳоланган. Унинг маҳсулдорлиги йилига 7000 дан 15000 пудгача бўлган. Заводда музни хонадонга етказиб бериш хизматини ҳам йўлга қўйган. Бир пуд муз 30-40

[86] Берковец – 10 пуд, 164 кг. Тенг бўлган эски рус масса ўлчов бирлиги. Бу ерда берковец 12 пуддан иборат бўлган.

копейкдан сотилган. Заводда муз қудуқ ариқ сувидан ва қисман ҳаддан ташқари қайнатилган сувдан тайёрлаган [394-395].

ХХ аср бошларида мева шарбати, квас ва минерал сув ишлаб чиқарадиган корхоналар вужудга келган. 1906 йилда бундай корхоналар сони 10 тага етди (Фарғона, Самарқанд, Тошкент). Бу корхоналарда 102 нафар ишчи банд бўлиб, улар 875,3 минг рубллик маҳсулот ишлаб чиқарган [9, 50].

Сунъий минерал сувлар ишлаб чиқарадиган кичик завод 1869 йилда Германия фуқароси Н.А.Гринберг томонидан очилган ва 5-6 йил давомида мавжуд бўлган. Гринберг сувлари жуда паст сифатга эга ва ниҳоятда юқори нархларда сотилган. Миллий тожирлардан тошкентлик бойлар Иноғом Раҳматуллинов 1902 йилда “Чумоли” белгиси остида, Ражаббой 1905 йилда “Асалари” белгиси остида, Абдуғани Раҳимбоев 1907 йилда “Булбул” ва Хўжа Хожинов 1909 йилда “Тараққиёт” белгиси билан минерал сув ишлаб чиқаришни йўлга қўйган [10, 395].

1898 йилда Туркистон ўлкасида техника жиҳатда юқори бўлган шоли тозалайдиган машинаси кириб келган ва ундан йирик рус тадбиркорлари фойдаланган. Машина соатига 15 - 20 пуд, суткасига 300 пуд шолини тозалаш имконига эга бўлган. Миллий тадбиркорлар машинанинг нархи жуда қиммат (1100 рубл) бўлганлиги учун фойдаланмаган. Улар маҳаллий обжувозда суткасига 75 пуд шоли тозалаган [11, 75].

Тошкент шаҳрида 1912 йилда агроном А.К. Яхимович томонидан сабзавотларни техника асосида консерва қиладиган фабрика очган. Тадбиркор томонидан керакли машина ва асбоб-ускуналар Германиядан, консерва солиш учун тунука идишлар эса Россиядан олиб келинган. Консервага кетадиган қишлоқ хўжалик *маҳсулотларини тадбиркор* фақат ***ўз*** боғларида етиштирган. *Бу* корхонада маринадланган баклажон, қовоқча (кабачки), булғор *қалампири* ва помидор пастаси тайёрлаган ҳамда ушбу маҳсулотлар биринчи ўринда Туркистон ички бозорида сотиш учун мўлжалланган [12, 11].

Хулоса. Туркистон минтақаси Россия империяси мустамлакасига айлангач, ундан ўз манфаати илинжида шиддат билан фойдаланди. Рус савдогарлари ва савдо ташкилотларининг сони кун сайин ортиб борди. Улар орқали рус сармоясининг кириб

келиш оқими кучайди. Рус рублининг муомалага киритилиши эса Туркистон минтақасининг иқтисодий қарамлигини кучайтиришга омил бўлди. Темир йўлларнинг қурилиши ўлкамизни тайёр маҳсулот бозорига айлантиришда катта ўрин тутди.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми — XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 2006. – 175-бет.
2. Обзор Сыр-Дарьинской области за 1911 г. – Ташкент. 1913, - 125-стр.
3. Ўзбекистон миллий архиви, И-1-жамғарма, 2-рўйхат, 965-йиғмажилд, 1-варақ.
4. Ўзбекистон миллий архиви, И-36-жамғарма, 1-рўйхат, 754-йиғмажилд, 37-38-варақлар.
5. Туркестанские ведомости / 19 февраля 1902 г.
6. Берковец – 10 пуд, 164 кг. Тенг бўлган эски рус масса ўлчов бирлиги. Бу ерда берковец 12 пуддан иборат бўлган.
7. Гейер И. Весь Русский Туркестан. - Ташкент, 1908 – 275-стр.
8. Добросмыслов А. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. - Ташкент, 1912. - 394-395-стр.
9. Туркестанский сборник. Том 512. – 50-стр.
10. Испытание рисоочистительной машины // Туркестанские ведемости. – 1889. - №75.
11. Ўзбекистон миллий архиви, И-17-жамғарма, 1-рўйхат, 575-йиғмажилд, 11-варақ.

**Жайнаров Обиджон Ҳамид ўғли**
Чирчиқ давлат педагогика университети доценти

## ТОШКЕНТ ВОҲАСИДА ЮРИДИК ХИЗМАТ ТИЗИМИ: АҲВОЛИ, ЎЗГАРИШЛАР ВА МУАММОЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)

***Аннотация.*** *Мақолада кенг турдаги бирламчи манбалар ва тарихий адабиётлардаги маълумотлар асосида Тошкент воҳасидаги XX аср 20-йилларида юридик хизмат тизимида рўй берган ўзгаришлар таҳлил қилинган.*

***Таянч сўзлар:*** *Туркистон АССР, Ўзбекистон ССР, Тошкент воҳаси, Адлия халқ комиссарлиги, судлар, нотариат тизими, жамоат оқловчилари, ҳимоячилар, Адвокатлар коллегияси, юридик ёрдам.*

Ҳар қандай ҳуқуқий давлатнинг асоси қонун устуворлиги ва адолатли ижтимоий тартиботдир. Бу тартиботнинг самарали ишлашида юридик хизмат тизимининг ўрни беқиёсдир. Юридик хизматлар фуқаролар, ташкилотлар ва давлат органлари ўртасидаги ҳуқуқий муносабатларни тартибга солади, жамиятда ҳуқуқий маданият ва онгни шакллантиришга хизмат қилади. Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ушбу тизимга ўзига хос жиҳатларнинг кириб келишига сабаб бўлди.

РСФСР Халқ Комиссарлари Совети томонидан 1917 йилнинг 24 ноябрида қабул қилинган “Суд тўғрисида”ги биринчи Декрет асосида Туркистон советлари томонидан ишлаб чиқилган 1917 йил 12 декабрда 17-сонли буйруққа кўра бутун ўлкада собиқ империя адвокатура органлари фаолияти тўхтатилиб, судларда фуқаролик ишлари буйича ҳимоячи ва вакил сифатида фақатгина номига доғ тушмаган шахслар иштирок этиши белгиланди[87]. Бунда уларнинг юридик маълумот даражаси ва оқловчи учун зарур бўлган бошқа факторларга умуман эътибор қаратилмади.

Тизимининг муҳим таркибий қисми ҳисобланган нотариат соҳасини кескин ўзгартириш бўйича кўрсатмалар белгиланмаган бўлса-да, большевиклар ҳукуматни қўлга олиши билан собиқ империя давридаги барча нотариал конторалар ва нотариал архивлар фаолияти тўхтатиш, Советларга қисқа муддатда янги Низомни ишлаб чиқиш бўйича кўрсатмалар берилди[88]. Нотариал идоралар фаолиятида чалкашлик ва зиддиятлар одатий ҳолга айланиб қолди. Буни Тошкент шаҳар фуқароси Б.Яхиннинг комиссарликка ёзган арзномасида ҳам кўриш мумкин. Арзномада нотариуслар ҳар қандай нотариал ҳаракатлар учун исталган миқдорда бож олишаётганлиги айтиб ўтилади[89].

Туркистон ХКСнинг 1919 йил 1 июндаги қарори билан вилоят ижроия қўмиталари ҳузуридаги ҳимоячилар коллегияси фаолияти қайта ташкил қилинди. Қарор бўйича Тошкент шаҳрида ҳимоячилар коллегияси аъзолигига жами 7 киши: И.Абрамов, Я.Бархам, Л.Герцен, Штейн, П.Иванов, А.Кгаевский, В.Осипов ва И.Чарковскийлар тайинланди[90].

[87] ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 19-иш, 33-варак.
[88] Еженедельник советской юстиции. – 1923. – № 44. – С. 1015.
[89] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 13-иш, 29-варақ ва унинг орқаси.
[90] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 48-иш, 22-варақ ва унинг орқаси.

РСФСР МИҚ томонидан 1920 йил 21 октябрда қабул қилинган Декретга кўра “ҳимоячилар, айбловчилар ва фуқаролик процессида тарафларнинг вакиллари коллегияси” фаолияти тугатилди[91]. ТАССР Адлия халқ комиссарлиги томонидан 1920 йил 28 ноябрда чиқарилган йўриқномада эндиликда суд жараёнида оқловчилик вазифасини адлия бўлимлари, халқ судлари, халқ судьялари кенгашлари, инқилобий трибуналлар, партия, касаба уюшмалари кенгаши ва бошқа совет ташкилотлари томонидан тузилган ҳамда вилоят, шаҳар ижроия қўмиталари томонидан йилда икки марта тасдиқланадиган рўйхатга киритилган фуқаролар томонидан амалга оширилиши кўрсатилди[92].

Совет давлати томонидан Туркистонда адвокатура фаолиятини йўлга қўйиш бўйича қатор табдирлар амалга оширилган бўлса-да, бу даврда ҳам уларнинг фаолияти қониқарсизлигича қолаверди. Фақат Тошкент шаҳрида ҳимоячилар фаолияти тўғри ташкил қилинганлиги, қолган уездларда уларнинг умуман мавжуд эмаслигини билдирган[93]. Ҳудудларда малакали ҳимоячиларнинг доимий етишмаслиги давом этган. 1922 йилда Туркреспубликада 5 та вилоят ҳамда 5 та уезд ҳимоячилар коллегиясида жами 113 нафар ҳимоячи бўлиб[94], шулардан Сирдарё вилояти таркибидаги Тошкент уездида 45 нафар адвокат иш олиб борган[95].

XX аср 20-йилларининг бошида совет адвокатураси ўз фаолиятини асосан иккита йўналишда олиб бориб, улардан бири юридик маслаҳат бериш ишларини ташкил қилишдан иборат бўлган. Маслаҳат пунктлари асосан бозорлар, қизил чойхоналар, завод ва фабрикалар, деҳқон уйлари, темир йўл клубларида ҳамда бошқа аҳоли гавжум жойларда ташкил қилинган. Туркистон ўлкасида адвокатлар томонидан фақатгина вилоят марказларидаги аҳолига юридик ёрдам кўрсатилган холос[96]. Хусусан, Тошкент уезди ижроия қўмитаси ҳузурида асосан маҳаллий аҳолига ҳафтада 4 маротаба юридик маслаҳат бериш ишлари йўлга қўйилди. Бунга коллегия

[91] Декреты Советской власти. Т. XI. – Москва: Политиздат, 1983. – С. 87.
[92] ЎзМА Р-38-фонд, 4-рўйхат, 4-иш, 16-17-варақлар.
[93] ЎзМА Р-38-фонд, 4-рўйхат, 6-иш, 74-варақнинг орқаси.
[94] ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 945-иш, 215-варак ва унинг орқаси.
[95] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 371-иш, 44-варақнинг орқаси.
[96] ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 1802-иш, 19-варак.

аъзолари Дўстмухаммедов, Ибрагимов, Чарковский, Бронштейнлар масъул қилиб тайинланди[97].

Кези келганда айтиш керак, аҳолига бепул юридик ёрдам бериш ишлари ўлканинг бошқа ҳудудларига нисбатдан Тошкент шаҳрида қисман яхши йўлга қўйилди. Хусусан, Асака кўчаси 10-уйда жойлашган маслаҳат маркази томонидан ҳафтада уч маротаба кечки соат 17:00 дан 20:00 га қадар аҳолига ҳуқуқий ёрдам кўрсатилган. Марказда 1924 йил январь ойи давомида 61 нафар фуқарого турли масалалар бўйича юридик маслаҳатлар берилиб, шулардан 51 таси бепул амалга оширилган.

Тошкентнинг янги шаҳар қисмида 1922 йилдан 2 та нотариат идоралари фаолияти йўлга қўйилди. Уларнинг бири Комиссарлик ҳузурида ташкил қилиниб, унга собиқ адлия ходими Беляев, Маҳрам кўчаси 15-уйда жойлашган 2-нотариал идорасига эса собиқ нотариус Спасибухов мудир этиб тайинланди[98]. Эски шаҳар қисмига шарқшунос-юрист Кассель, Тошкент уездига Тютюников, Чимкент уездига Харизоменов тайинланди[99]. Улардан фақат бир нафари маҳаллий аҳоли учун хизмат қилган.

Совет нотариал идоралари томонидан асосан келишув шартномалари, ишончномалар, турли хил актлар, гувоҳликлар ва бошқа ҳужжатлар нотариал тасдиқдан ўтказилган. Масалан, 1923 йил январь ойида Тошкентнинг янги шаҳар қисми нотариуслари Стромилов томонидан 472 та, Спасибухов томонидан эса 410 та турли нотариал ҳаракатлар амалга оширилди[100].

Ўрганилаётган даврда нотариал ҳаракатлардан олинадиган божлар масаласида қатор тушунмовчилик ва муаммолар бўлиб турган. Жумладан, халқ нотариуси Чернов томонидан ёзилган билдиргида Тошкент уезди собиқ халқ нотариуси Тютюников нотариал ишлар учун 10323 рубль йиғиб олганлиги, бироқ уларнинг тўлов квитанциялари йўқлиги ҳақида хабар беради[101]. Нотариус Стромилов эса 83114 рубль миқдоридаги йиғимларни Давлат

[97] Тошкент ВДА Р-282-фонд, 1-рўйхат, 27-иш, 6-варақнинг орқаси.
[98] ЎзМА Р-38-фонд, 4-рўйхат, 6-иш, 1-а-варақ.
[99] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 288-иш, 62-варақ.
[100] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 318-иш, 16-варақ.
[101] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 277-иш, 63-варақ.

банкига топширмасдан ўз хонасида сақлаётганлиги текширувлар давомида аниқланган[102].

Бу даврга келиб маҳаллий аҳолиниинг совет нотариал органларига нисбатан ишончини уйғотиш масаласига ишчи-деҳқон ҳукумати катта эътибор қаратди. Шу мақсадда қатор тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, биринчи галда нотариал органлар фаолиятига маҳаллий тилларни биладиган таржимонлар ва бошқа мутахассислар жалб қилиниб, уларнинг иш фаолияти қаттиқ назорат остига олинди. Хусусан, Тошкентнинг “эски шаҳар” қисми халқ нотариуси лавозимига тайинланган А.Кассел рус тилидан ташқари форс, турк, араб, француз тилларини билган. Шунингдек, нотариал органларига маҳаллий аҳолидан аризаларни ўз тилларида қабул қилиш бўйича кўрсатма берилди. Бу жараён айниқса Тошкентнинг “эски шаҳар” қисмида жадаллик билан амалга оширилганлигини кўриш мумкин. 1922 йил сентябрь ойида нотариал идораси маҳаллий аҳоли гавжум бўладиган Чорсу бозори ҳудудидаги “Осиё” меҳмонхонаси биносига кўчирилди[103]. Бундан ташқари идора фаолиятига маҳаллий аҳоли вакилларини кенг жалб қилди ҳамда барча фуқаролик ишлари бўйича аҳолига бепул юридик ёрдамни ташкил қилган[104]. Бироқ совет ҳукуматининг ўтказган бундай ислоҳотлари ҳам ўзининг кутилган самарасини бермади яни маҳаллий аҳолининг совет нотариал органларига муносабати ўзгармади. Хусусан, Тошкентнинг “эски шаҳар” аҳолисига хизмат қилган Чернов томонидан 4 ой давомида 91 та нотариал ҳаракатлар олиб борилган бўлса, “янги шаҳар” нотариуси Стромилов шу давр мобайнида 587 та нотариал ишларни амалга оширди[105].

Хуллас, XX аср 20-йилларида Ўзбекистонда бошқа ҳудудларга нисбатдан Тошкентда воҳасида юридик хизмат кўрсатиш тизими қониқарли аҳволда эди. Бунга биринчидан, ҳудуднинг маъмурий марказ сифатидаги ўрни бўлса, кейинги сабаб собиқ империя даврида соҳа вакилларининг катта қисми Тошкентда ўз фаолиятини юритган.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 19-иш, 33-варак.

[102] Ўша манба. 68-варақ.
[103] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 277-иш, 91-варақ.
[104] Вестник юстиции Узбекистана. – Ташкент, 1925. – № 2-3. – С. 31.
[105] ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 277-иш, 71-варақ.

2. Еженедельник советской юстиции. – 1923. – № 44. – С. 1015.
3. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 13-иш, 29-варақ ва унинг орқаси.
4. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 48-иш, 22-варақ ва унинг орқаси.
5. Декреты Советской власти. Т. XI. – Москва: Политиздат, 1983. – С. 87.
6. ЎзМА Р-38-фонд, 4-рўйхат, 4-иш, 16-17-варақлар.
7. ЎзМА Р-38-фонд, 4-рўйхат, 6-иш, 74-варақнинг орқаси.
8. ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 945-иш, 215-варак ва унинг орқаси.
9. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 371-иш, 44-варақнинг орқаси.
10. ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 1802-иш, 19-варак.
11. Тошкент ВДА Р-282-фонд, 1-рўйхат, 27-иш, 6-варақнинг орқаси.
12. ЎзМА Р-38-фонд, 4-рўйхат, 6-иш, 1-а-варақ.
13. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 288-иш, 62-варақ.
14. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 318-иш, 16-варақ.
15. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 277-иш, 63-варақ.
16. Ўша манба. 68-варақ.
17. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 277-иш, 91-варақ.
18. Вестник юстиции Узбекистана. – Ташкент, 1925. – № 2-3. – С. 31.
19. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 277-иш, 71-варақ.

***Нигматовг Алишер Хайруллович***
Преподаватель кафедры истории ЧГПУ

## СОТРУДНИЧЕСТВО ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ

***Аннотация.*** *В данной статье говорилось о сотрудничестве Шанхайской организации сотрудничества государств в области музыки, театра, изобразительного искусства, кинематографии, архивного, библиотечного и музейного дела, охраны объектов культурного наследия, народных промыслов, рукоделия, эстрадного и циркового искусства, а также других видов творческого искусства.*

***Ключевое слово:*** *декларация, музыка, театр, изобразительное искусство, кинематограф, архив, библиотека, музей.*

В декларации о создании ШОС государства-участники также заявили о необходимости развития культурного сотрудничества.

Министры культуры стран ШОС впервые собрались в Пекине 12

апреля 2002 года. Правительства стран активно поддерживали проведение Дней культуры, участие художественных коллективов и деятелей искусства. С этого времени постепенно стало развиваться культурное сотрудничество. Проводятся общие мероприятия, посвященные важным историческим датам государств-членов ШОС, осуществляется обмен студентами и преподавателями, предпринимаются попытки формирования общеобразовательных центров [1, 2007].

Статья освещена на основе общепринятых исторических методов-принципов историзма, сравнительно-логического анализа, последовательности, объективности.

Стремясь к дальнейшему расширению и укреплению выгодного партнерства на основе принципов равенства и уважения этнокультурной самобытности государств, сохраняя сотрудничество между государствами-членами Шанхайской организации сотрудничества в области культуры, учитывая классические тесные и плодотворные связи в области культуры, страны ШОС подписали 16 августа 2007 года в Бишкеке договор о совместной работе в области культуры [2, 167].

Стремление укреплять и развивать отношения дружбы и сотрудничества между народами государств-членов Шанхайской организации сотрудничества на основе взаимного уважения и равенства в соответствии с содержанием соглашения о сотрудничестве в области культуры между правительствами государств-членов Шанхайской организации сотрудничества, выражать приверженность целям и принципам Хартии Шанхайской организации сотрудничества от 7 июня 2002 г., поощрять сотрудничество между государствами-членами Шанхайской организации сотрудничества в области культуры придание важности подкреплению, учитывая традиционные тесные и плодотворные связи в сфере культуры, было уделено внимание дальнейшему расширению и укреплению взаимовыгодного сотрудничества на основе принципов равноправия и уважения этнокультурной идентичности государств-участников.[3, 2007-16] Соглашение, которое он подписал, включает 22 статьи. Они показывают следующее в культурном сотрудничестве:

В соответствии с договором стороны осуществляют связи в

сфере музыкального, театрального, изобразительного искусства, кинематографии, архивного, библиотечного и музейного дела, охраны объектов культурного наследия, народных промыслов, декоративно - прикладного, ручного труда, эстрадного и циркового искусства, а также других видов творческого искусства в соответствии с нормами международного права и государственным национальным законодательством своих стран [4].

Содействуют дальнейшему укреплению и формированию информационно-нормативной базы по проблемам взаимодействия стран-членов ШОС в области культуры в этих целях по мере необходимости.

Государства сотрудничают в области подготовки и повышения квалификации работников отдельных культурно-художественных специальностей на основе единых международных договоров и национального законодательства, а также поддерживают прямое сотрудничество между учебными заведениями культуры и искусства государств сторон.

Государства-члены Шанхайской организации сотрудничества обмениваются информацией о событиях культурной жизни (семинары, конкурсы, конференции, коллоквиумы, круглые столы, сессии, фестивали и другие формы обмена творческим и научным опытом), происходящих на их территории, и способствуют участию своих представителей в этих мероприятиях.

Государства в соответствии с нормами международного права и государственным законодательством своих стран в пределах своей компетенции формируют совместную работу по выявлению и возврату культурных ценностей, возникших в результате незаконного вывоза на территории государств-членов Шанхайской организации сотрудничества. Они также осуществляют мероприятия по предотвращению незаконного ввоза и вывоза культурных ценностей, предоставляют информацию по этим вопросам и способствуют возвращению незаконно вывезенных культурных ценностей.

В процессе сотрудничества будут проводиться совместные работы в области охраны, сохранения и реставрации монумент[5] и объектов культурного наследия. Содействуют взаимодействию стран-членов Шанхайской организации сотрудничества в рамках

реализации международных планов в области культуры. Формы сотрудничества, развитие групп специалистов, порядок деятельности формируются отдельными международными договорами и другими документами.

В соответствии со статьей 6 Договора стороны осуществляют совместную работу в области кинематографии, в том числе между государственными киноархивами (фильмофондами) своих стран. Поддержка в совместном проекте со следующими пунктами:

- Сотрудничество между дистрибьюторами фильмов, а также учреждениями и творческими объединениями работников кинематографии государств-членов Шанхайской организации сотрудничества;

- Участие фильмов, деятелей искусства и кинематографистов стран-членов Шанхайской организации сотрудничества в международных кинофестивалях, организуемых в государствах-членах Шанхайской организации сотрудничества, в соответствии с регламентом этих фестивалей;

- осуществление кинопроектов и обмен кинопродукцией между государствами Сторон на некоммерческой основе.

Партнеры содействуют связям в области традиционной культуры и художественных народных промыслов, организации выставок народных промыслов, фестивалей народного творчества, участию фольклорных коллективов в акциях, мероприятиях и народных праздниках, проводимых на территориях государств-членов Шанхайской организации сотрудничества.

Страны ШОС могут обмениваться архивными, научными и другими материалами, связанными с культурой, историей, географией, социальным развитием государств-членов Шанхайской организации сотрудничества на основе двусторонних соглашений с целью углубления партнерства в области культурологии.

Партнеры поощряют совместную работу в области издательского процесса, выпуска книг, переводов произведений художественной, научной и специальной литературы и другой печатной продукции, а также организацию и проведение книжных выставок-ярмарок на территориях государств-членов Шанхайской организации сотрудничества.

Формы сотрудничества формируются отдельными

международными договорами и другими документами.

Партнеры обмениваются информацией в области защиты авторских и смежных прав в рамках своей компетенции и в соответствии с законодательством штата своей страны.

Партнеры сотрудничают в реализации многосторонних проектов и планов в области культуры, связанных с формированием молодежного и детского творчества.

В целях реализации соглашения, согласования конкретных событий и координации общих операций по реализации в рамках партнерства в области культуры сторонами создана экспертная рабочая группа по формированию сотрудничества в области культуры стран-членов Шанхайской организации сотрудничества.

Экспертная рабочая группа проводит встречи не реже одного раза в год или по мере необходимости (по запросу двух или более стран) для выработки дальнейшей стратегии реализации соглашения [6, 2007-16].

Подписан в городе Бишкек 16 августа 2007 года, вступил в силу для Республики Узбекистан 24 апреля 2014 года. (Культурное сотрудничество)

В рамках подготовки к заседанию Совета глав государств-членов ШОС, которое состоялось 23-24 июня 2016 года в Ташкенте, министры обсудили текущее состояние и перспективы развития взаимодействия по различным направлениям деятельности организации, повышение ее роли и места в международных и региональных делах.

Отмечалось, что ШОС за 15 лет с момента своего основания зарекомендовала себя как один из влиятельнейших участников современной системы международных отношений, опираясь на "дух Шанхая", воплощающий взаимное доверие, взаимную выгоду, равенство, взаимное консультирование, уважение к многообразию культур и стремление к совместному развитию.

2-3 ноября 2016 года в г. Бишкек состоялось пятнадцатое заседание Совета глав правительств (премьер - министров) государств-членов Шанхайской организации сотрудничества (далее-ШОС или организация) под председательством Премьер-Министра Республики Казахстан Б.А. Сагинтаев, премьер-министр Государственного совета Китайской Народной Республики Ли Кэцян,

и. о. премьер-министра Кыргызской Республики S.Sh. Жеенбеков, Председатель Правительства РФ Д.А. Медведев, премьер-министр Республики Таджикистан К. Расулзода и первого заместителя Премьер-Министра Республики Узбекистан P.S.Азимов [7, 2016-2-3]. В процессе участия государства-члены ШОС обнародовали совместное коммюнике по итогам пятнадцатого заседания Совета глав правительств (премьер-министров). В ходе встречи было отмечено, что в культурной сфере:

Главы правительств подчеркнули важность дальнейшего развития форматов двустороннего и многостороннего сотрудничества в области культуры, образования, науки и техники, охраны окружающей среды, здравоохранения, спорта, туризма, изучения и сохранения культурного и природного наследия региона ШОС, включая исторический "Великий шелковый путь".

Главы правительств положительно оценили итоги заседания министров культуры государств-членов ШОС, направленного на практическую реализацию соглашения о сотрудничестве в области культуры между правительствами государств-членов ШОС.

Главы правительств приветствовали проведение II Всемирных игр кочевников (3-8 сентября 2016 года, Иссык-Кульская область, Кыргызская Республика). Они считают важным активное участие государств-членов ШОС в культурно-гуманитарных и иных мероприятиях, проводимых на их территории, укрепление традиционных дружественных отношений между странами и народами, а также развитие практики популяризации историко-культурных ценностей национальных видов спорта, традиций и культуры государств-членов ШОС.

По итогам заседания Совета глав государств-членов ШОС, состоявшегося 17 сентября 2021 года в городе Душанбе, в “душанбинской декларации”[8,2021-17] по культурно-гуманитарному развитию будет объявлено следующее:

Они уверены, что приоритетной задачей остается последовательное развитие культурно-гуманитарного сотрудничества в рамках ШОС. За прошедший период достигнут высокий уровень сотрудничества в области культуры, образования, науки и техники, здравоохранения, охраны окружающей среды, туризма и спорта.

Они подчеркивают, что культурное сотрудничество в рамках ШОС имеет большой потенциал как эффективный фактор укрепления взаимопонимания между народами. Они отмечают, что организация показывает мировому сообществу пример взаимного обогащения культур посредством уважительного, толерантного отношения к национальным традициям и ценностям друг друга, развития контактов в данной сфере.

Государства-члены ШОС принимают меры по углублению сотрудничества в области музыкального, театрального и изобразительного искусства, литературы, кинематографии, а также архивного, музейного, библиотечного дела.

Государства-члены ШОС будут и дальше развивать сотрудничество по совместной подаче заявок и продвижению памятников и объектов культурного наследия для совместной археологической работы, охраны и реставрации, включая их включение в список всемирного наследия ЮНЕСКО.

Подводя итог, можно сказать, что культурное сотрудничество в рамках государств ШОС имеет большой потенциал как эффективный фактор укрепления взаимопонимания между народами. Развитие связей государств в области музыкального, театрального, изобразительного искусства, кинематографии, архивного, библиотечного и музейного дела, охраны объектов культурного наследия, народных промыслов, рукоделия, эстрадного и циркового искусства, а также других видов творческого искусства, в свою очередь, служит укреплению всестороннего сотрудничества государств ШОС. Организация ШОС выражает мировому сообществу уважительное, толерантное отношение к национальным традициям и ценностям друг друга, взаимное обогащение культур через развитие связей в данной сфере. Государства-члены ШОС осуществляют сотрудничество по совместной подаче заявок и продвижению памятников и объектов культурного наследия для проведения совместных археологических работ, охраны и реставрации, включая их включение в список всемирного наследия ЮНЕСКО.

**Список использованной литературы**

1. Васильев Л.Е., Румянцев Е.И., Шанхайская организация сотрудничества. Док - ты и материалы. - М.: ИВДРАН, 2007

2. Соглашение между правительствами стран-членов Шанхайской организации сотрудничества о совместной работе в области культуры от 16 августа 2007 года. Ратифицировано Законом КР от 25 июля 2008 года № 167. ИСС «Токтом-Юрист», 2011.

3. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida Bishkek madaniyati bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim, 2007 yil 16 avgust // https://lex.uz/ru/docs/4979485

4. https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=18147

5. Монумент (лат. monumentum-йод — Горлик) - крупномасштабный памятник, скульптура, воздвигнутая в честь крупного исторического события, Великого общественного деятеля и др. Обычно монумент образует основу идейно-объемного пространства в архитектурном ансамбле или входит в состав скульптурного архитектурного комплекса

6. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida Bishkek madaniyati bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim, 2007 yil 16 avgust // https://lex.uz/ru/docs/4979485

7. СОВМЕСТНОЕ КОММЮНИКЕ по итогам пятнадцатого заседания Совета глав правительств (премьер-министров) государств-членов Шанхайской организации сотрудничества 2-3 ноября 2016 года

**F.Sodiqov**
Oriental universiteti dotsenti

## O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI VA MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARINING SHAKLLANISHI

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRning tashkil topishi natijasida mahalliy boshqaruv idoralarining shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va boshqaruv idoralaridagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan.*

Butuno‘zbek Sovetlarining 1925-yilning 17-fevralidagi I ta’sis qurultoyida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilindi[106]. Ushbu qurultoyda O‘zbekiston SSRning markaziy boshqaruv idoralari tuzildi. Oliy qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi idora O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi

[106] Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2384-иш, 154 варақ.

(O‘zbekiston MIQ) tuzildi. Uning birinchi raisi qilib Y. Oxunboboyev saylandi. Shuningdek, F. Xo‘jayev raisligidagi O‘zbekiston SSRnig ijro etuvchi hukumati – Xalq Komissarlari Soveti ham tuzildi. 1925 yil 15 martda O‘zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR tuzilganligi e’lon qilindi. Uning tarkibiga Turkiston ASSRdan sobiq Samarqand viloyati Samarqand va Xo‘jand uyezdlarining 12 volosti va Farg‘ona viloyati Pomir rayoni, BXSRning Garm, Hisor, Ko‘lob, Qo‘rg‘ontepa, Dushanbe va qisman Sariosiyo viloyatlaridan iborat Sharqiy Buxoroning deyarli hamma hududlari kirdi[107].

Sovetlar syezdi respublikada davlat hokimiyatining rahbar organi 160 a’zo va 44 kandidatdan iborat O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetini sayladi. Yo‘ldosh Oxunboboyev O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Raisi kilib saylandi.

O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari viloyat, uyezd, volost va shahar sovetlari syezdi va ularning ijroiya qo‘mitalaridan, qishloqlarda esa qishloq sovetlaridan iborat edi.

O‘zbekistonda yer-suv islohotini o‘tkazishga mahalliy sovetlar va “Qo‘shchi” ittifoqining xizmatidan keng foydalanildi. Mahalliy sovetlar yirik yer egalari, sudxo‘rlar, boy va savdogarlar hamda diniy ulamolarni aniqlab berish kabi vazifalarini bajargan. Shuningdek, sovet hokimiyatiga qarshi bo‘lgan kishilarni va qurolli harakatga har qanday aloqasi bo‘lganlarni aniqlashda ko‘maklashgan. 1926 yilning oxiriga kelib “Qo‘shchi” ittifoqi a’zolarining soni 120,7 ming kishiga yoki shu yil boshiga nisbatan 51,5 foizga ortgan[108].

Ayollar yer-suv islohotida targ‘ibotchi sifatida ishtirok etdi. Xotin-qizlarga berilgan erkinliklar mahalla tizimida o‘zgartirishlarni olib keldi. Masalan, 1926 yil Toshkent eski shahar xotin-qizlar bo‘limi mahalla komissiyalari tarkibiga mazkur mahalla ayollaridan bir vakil kiritish talabini qo‘ydi. Shunday qilib, ilk bor mahalla komissiyalariga o‘tkazilgan saylovlarda xotin-qizlar ishtirok eta boshladilar[109].

[107] Турсунов Х.Т. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. – Б. 149.
[108] Турсунов Х.Т. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. – Б.76.
[109] Маликова Г. Маҳалла институти ривожланишининг тарихий-ҳуқуқий масалалари. – Тошкент: Янги китоб, 2017. – Б. 39.

Shuningdek, qishloq sovetlarida ham ayollar safi oshib bordi. Masalan, 1925 yilda 6,4 foiz ayollar ushbu sovetlar a'zosi bo'lsa, 1926 yilga kelib bu ko'rsatkich 12,8 foizni yoki ikki barobar oshdi[110].

1926 yil 29 sentabrda O'rta Osiyoda iqtisodiy rayonlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Amalda bo'lgan 4 pog'onali (viloyat, uyezd, volost va qishloq soveti) ma'muriy bo'linishdan 3 pog'onali (okrug, rayon, qishloq soveti) ma'muriy bo'linishga o'tishga, volostlar va uyezdlar ortiqcha instansiya bo'lgani uchun ularni tugatishga va o'rniga zaruriy sondagi ma'muriyiqtisodiy markazlar barpo etishga qaror qilindi[111].

Yangi ma'muriy bo'linish loyihasi bo'yicha O'zbekiston SSRda sobiq 7 ta oblast o'rniga 10 ta okrug: Andijon, Buxoro, Zarafshon (O'rta Zarafshon), Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xo'jand va Xorazm okruglari barpo etildi (Tojikiston ASSRdan tashqari). Sobiq 23 ta uyezd o'rniga dastlabki 87 ta rayon (tuman) tashkil etildi. Respublikada 239 ta volost tugatildi, qishloq sovetlarining miqdori 1152 tadan 1720 tagacha ko'paydi, ya'ni 43,3 foizga oshdi. Bu paytda O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston ASSR hududi alohida Tojikiston milliy okrugiga ajratildi. U 12 ta rayon va 306 ta milliy sovetlardan tashkil qilinishi ko'rsatildi[112].

Shuningdek, respublika ma'muriy boshqaruvining to'rt bosqichli tizimdan uch bosqichli tizimga o'tilishi natijasida qishloq sovetlari sonining ortishiga va ularning boshqaruvdagi ayrim vakolatlarining oshishiga olib keldi. Xususan, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish, rayon budjetini tuzishda qatnashish, urug' jamg'armasini tuzish kabilar shular jumlasidandir[113].

1927-yil 30-mart kuni O'zbekiston SSR Sovetlarining II syezdida qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv okrug va rayon syezdlari hamda shahar va qishloq sovetlaridan iborat edi. Okrug va rayonlarda hokimiyat sovetlarning syezdlari qo'lida edi. Syezdlar yilda bir marta chaqirilgan bo'lib, okrug delegatlari 350 kishidan, rayonniki esa ko'pi bilan 200 kishidan tuzilgan. Syezdlar o'zining ijroiya qo'mitasini saylagan va mazkur ijroiya qo'mitalari syezdlar

[110] Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 53.
[111] Норматов О. Ўрта Осиёда 1926 йили ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий ва иқтисодий ҳаётига таъсири: тарих фанлари бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Тошкент: 2020. Б.18.
[112] Sodiqov F. O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917-1938 йиллар). – B.146-150.
[113] Sodiqov F. O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917-1938 йиллар). – B.148.

oralig‘ida ushbu hududlarni boshqargan. Okrug va rayon ijroiya qo‘mitalari doimiy ishlovchi prezidiumi(rayosat)ni saylagan. Prezidiumlar ijroiya qo‘mitalari majlislari oralig‘ida o‘ziga tegishli hududlarni boshqargan. Okrug va rayon ijroiya qo‘mitalari mahalliy boshqaruvning turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zining bo‘limlarini tuzgan[114].

Shahar va qishloq hududlarida hokimiyatni mazkur hudud deputatlarining sovetlari boshqargan. Shahar deputatlaring soveti 350 nafar, qishloqniki esa 50 nafar deputatdan iborat bo‘lgan. Ularning vakolat muddati bir yil bo‘lib, shahar deputatlari soveti kundalik doimiy ishlash uchun o‘zining ijroiya qo‘mitasini saylagan. Qishloq deputatlari sovetini esa mazkur sovet raisi boshqargan. Mazkur sovetlarning barcha deputatlari o‘zining saylovchilari oldida hisobdor bo‘lgan[115].

Konstitutsiya qabul qilingach, mahalliy boshqaruv idoralariga saylovlar bo‘lib o‘tgan. Unda oldingi yillarga qaraganda kambag‘al dehqonlar, batraklar va o‘rtahol dehqonlarning soni ko‘p bo‘lgan. Shuningdek, 1928/1929 yilga kelib qishloq sovetlari tarkibida batraklar va ishchilarning ortganini va aksincha, boshqa guruhlar (boylar, diniy ulamolar va hokazo)ning kamayganini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, qishloq sovetlari a’zolari soni ortganini ko‘rish mumkin[116].

Shuningdek, saylov tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan muhim jihat borki, bu saylovchilarning ijtimoiy tarkibi masalasi edi. Sovet hokimiyati doimiy ravishda bu masalada alohida e’tibor qaratib keldi. Bolsheviklarning g‘oyalariga nisbatan xayrixoh bo‘lmagan barcha ijtimoiy qatlamlarning siyosiy huquqlari cheklanib kelindi. Sovet hukumati mahalliy boshqaruv idoralari quyi bo‘g‘ini bo‘lgan volost va qishloqlarda ushbu qatlamlarning mavjudligi, sovet rejimiga qarshi olib borilayotgan qurolli harakatni bostira olmayotganligining asosiy sababi sifatida ham ko‘rsatadi[117].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston SSR tuzilgach markaziy boshqaruv idoralari va mahalliy boshqaruv idoralari shakllantirildi. Bunda sovetlar asosiy rolni o‘ynadi hamda respublika boshqaruv idoralarini nazorat qilib bordi.

[114] Советские Конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 2. СССР, 1922-1936 гг. – С. 273-274.
[115] Советские Конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 2. СССР, 1922-1936 гг.– С. 275.
[116] Қаранг: Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929 ). – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 77.
[117] Penati B. The reconquest of East Bukhara: the struggle against the Basmachi as a prelude to Sovetization. Central Asian Survey (December 2007) 26(4), - P.526.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2384-иш, 154 варақ.

2. Турсунов Х.Т. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. – Б. 149.

3. Маликова Г. Маҳалла институти ривожланишининг тарихий-ҳуқуқий масалалари. – Тошкент: Янги китоб, 2017. – Б. 39.

4. Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 53.

5. Норматов О. Ўрта Осиёда 1926 йили ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий ва иқтисодий ҳаётига таъсири: тарих фанлари бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Тошкент: 2020. Б.18.

6. Sodiqov F. O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917-1938 йиллар). – B.146-150.

7. Советские Конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 2. СССР, 1922-1936 гг. – С. 273-274.

8. Penati B. The reconquest of East Bukhara: the struggle against the Basmachi as a prelude to Sovetization. Central Asian Survey (December 2007) 26(4), - P.526.

**Горин Алексей Николаевич**
**Преподаватель кафедры истории ЧГПУ**

## Крепость Узундара – эллинистическая страж Бактрии

Трехвековой исторический период от царствования Александра Великого (336–323 гг. до н.э.) до римского императора Августа (31 г. до н.э. – 14 г. н.э.) традиционно называется эллинистическим, так же как и цивилизация, которая развилась в это время в греческом мире. Она отличаются как от предыдущих эпох, таких как древняя и классическая Греция, так и от последующих – времени господства Рима в Восточном Средиземноморье, Парфии и Кушанского царства на Среднем Востоке. При этом блестящая и многообразная эпоха эллинизма оставила свой неизгладимый след в истории данных регионов, предопределив во многом их дальнейшее развитие. В эллинистическом мире наблюдается одновременное сосуществование нововведений и преемственности, преданности традиции и поразительных новшеств, людей, привязанных к прошлому, и тех, кто был страстно устремлен в будущее. В результате походов Александра произошли кардинальные изменения в менталитете греков и многочисленных восточных народов, что способствовало подъему, который испытала тогда их культура, плодотворности открытий, которые совершили их ученые, мыслители, изобретатели и художники во всех областях жизнедеятельности. Как тонко отмечал в своей классической работе «Эллинистическая цивилизация» Уильям Тарн: «В эпоху эллинизма мир изменился и расширился. Хотя в реальной жизни партикуляризм греческого полиса сохранял значительную силу, в теории он уже потерпел крушение, будучи заменен универсализмом и связанным с ним индивидуализмом. Всплывает идея «ойкумены», или «обитаемого мира», как целого, общего владения цивилизованных людей» (Тарн 1949, 20).

Важно учитывать факт того, что история народов и стран, входивших эллинистическую ойкумену, сильно разнится. Ситуация на Западе, в Восточном Средиземноморье отличалась от той что сложилась к Востоку от Евфрата. Если до середины III в. до н.э. основная часть эллинистического Востока входила в состав государства Селевкидов и можно с уверенностью говорить об общности исторических судеб, то после указанного рубежа пути развития более восточной и более западной частей этого региона расходятся. Более восточная часть стала ядром Греко-Бактрийского царства, которое вскоре начало экспансию на юг, в сторону индо-пакистанского субконтинента. Конец эллинистической эпохи здесь приходится на вторую половину II в. до н.э. для Центральной Азии и вторую половину I в. до н.э. для Индии, когда кочевники, двигаясь с севера, завоевали одну за другой области, принадлежавшие грекам.

Практически на дальнем Востоке эллинистической ойкумены в горном массиве отрогов Западного Гиссара, на протяжении всего участка вдоль магистральной трассы М 39 от «Железных ворот» и Дарбанда и до Сайроба, вдоль восточного подножия горы Сузистаг располагался важный в военно-стратегическом отношении узел фортификационных сооружений. Он, в свою очередь, представлял собой краеугольный камень «Великой бактрийской стены». Так, с легкой руки академика Э.В.Ртвеладзе, была названа прослеженная и частью, исследованная им, цепь укреплений – от крепости и стены Кафыркала у к. Сина (Узбекистан) на Востоке и ущелье Бигляр в верховьях Кугитангдарьи (Туркменистан) и Керчакдарьи (Узбекистан, Туркменистан) на Западе. Именно с эпохи эллинизма, вероятно со времени Антиоха I (281–261 гг. до н.э.), возведенная для защиты Селевкидского и Греко–бактрийского государства от отражения кочевых народов с Севера и проведения по Западному Гиссару и его отрогам эта стена воспринималось как рубеж

между Бактрией и Согдом. Как административная граница между государствами Юга (Бактрия) и Севера (Согд, Канцзюй).

В 1991 г. начальником одного из отрядов Узбекистанской искусствоведческой экспедиции (УзИСКЭ – руководитель академик Г.А. Пугаченкова) Института искусствознания – Э.В. Ртвеладзе, на краю ущелья Узундара, рассекающего горный массив Сузистаг (расположен в Байсунском районе, Сурхандарьинской области), была найдена и обследована сложенная из камня крепость. В силу ряда причин вернуться к изучению данного памятника удалось лишь спустя 22 года.

Начиная с 2013 года и по сегодняшний день Тохаристанская археологическая экспедиция (ТАЭ) Инстиута искусствознания АН РУз под руководством академика Э.В. Ртвеладзе и Бактрийский отряд Среднеазиатской археологической экспедиции (БО САЭ) Института археологии РАН, возглавляемый к.и.н. Н.Д. Двуреченской, проводит работы по изучению этой горной крепости. В ходе работ здесь был впервые выявлен уникальный археологический комплекс времени раннего эллинизма.

Начиная с 2016 г. провдена серия рекогносцировочных маршрутов по гребню и восточному склону горы Сусизтаг, за это время был исследован участок горы протяженностью 16 км, на этом отрезке было выявлено 10 башен, 7 оборонительных стен общей протяженностью свыше 4 300 м и одно помещение. Таким образом, материалы, полученные в ходе разведок, могут поставить точку в спорах о северной границе Бактрии.

В крепости Узундара, наряду с комплексами керамики, вооружения, предметов быта и искусства, был также получен уникальный по своему составу нумизматический материал. На протяжении 11 полевых археологических сезонов 2013–2021 гг. здесь были найдены 222 монеты, из которых 185 эллинистических; из состава последних – две монеты

Александра Македонского посмертного чекана, 12 селевкидских монет, 171 греко–бактрийская монета. Кроме того, главным образом, в ходе планшетных сборов вокруг крепости 16 подражаний греко–бактрийским монетам, одна индо–скифская монета, 10 кушанских монет, 12 подражаний монетам Васудевы и одно подражание монетам Канишки II/III Уникальность монетного комплекса Узундары заключается в удивительной сохранности нумизматического материала, его необычайном обилии и разнообразном составе.

Долгое время наши представления о денежном обращении к северу от Амударьи в греко-бактрийское время основывались на сравнительно небольшом, в количественном отношении, числе монетных находок. Исследователи придерживались двух диаметрально противоположенных точек зрения. Некоторые из них полагали, что: «скорее всего, власть первых Селевкидов распространялась лишь на какую-то часть правобережной долины Амударьи, поскольку, по сведениям античных авторов, границей между Бактрией и Согдианой служила река Окс (т.е. Амударья с р. Вахш в качестве истока), но никак не на всю территорию Согдианы» (Зеймаль 1983, 29). А также, что открытые к северу от Амударьи археологические комплексы «никак не соответствуют нашим представлениям о расцвете эллинистической культуры в Греко-Бактрийском царстве, да и находок греко-бактрийских монет эти комплексы не дали... можно с уверенностью считать, что в Южном Таджикистане и в Южном Узбекистане под властью греко-бактрийских царей находились земли, непосредственно примыкающие к правому берегу Амударьи» (Зеймаль 1998, 365).

Монетные находки с Узундары, в свете вышеизложенного, позволяют пересмотреть данную тоску зрения. Дополнительным тому подтверждением служит факт находки монет сделанные в ходе маршрутных разведок Узбекско-Чешской экспедиции (Карлов

университет, Прага и Термезский государственный университет) археологических памятников в предгорьях Байсуна и Кугитанга. На семи, из исследованных этой международной командой ученых, памятниках, были найдены 84 эллинистические монеты (Stančo 2021, 81, tab. 2).

Таким образом можно полагать, что денежным обращением в эллинистический период была охвачена вся подвластная грекам территория к северу от р. Амударьи.

В целом же можно констатировать, что археологические исследования последних лет значительно изменили наши представления о судьбах эллинистического Востока.

**Список использованной литературы**

Зеймаль 1998

Зеймаль Е.В. Греко–Бактрия. Парфия (III–II вв. до н.э.). Политическая история. Социальные отношения // История Таджикского народа. Том I / Литвинский Б.А., Ранов В.А. (ред.). Душанбе, 1998. С. 338–376

Тарн 1949

Тарн В. Эллинистическая цивилизация / пер. с англ. С.А.Лясовского. М., 1949.

Stančo 2021

L. Stančo In the shadow Wall Hellenistic. Hellenistic settlement in the Baysun and Kugitang piedmonts. In: Havlík et al. 2021, 64-95.

**O.M. Xayritdinov**
Madaniyatshunoslik va nomoddiy Madaniy meros ilmiy tadqiqot Instituti tayanch doktoranti

## MADANIY XILMA XILLILIKNI SAQLASHDA NOMODDIY MADANIY MEROSNING AHAMIYATI

**Anntotatsiya**: Maqolada nomoddiy madaniy merosning mohiyati, uning madaniy xilma-xillikni saqlashdagi o‘rni va UNESCOning 2003-yilgi

Konvensiyasi asosida shakllangan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar qarashlari hamda raqamlashtirish, hujjatlashtirish va jamoa ishtirokiga asoslangan saqlash metodlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: nomoddiy madaniy meros, madaniy xilma-xillik, UNESCO, Konvensiya, raqamlashtirish, hujjatlashtirish, jamoa ishtiroki

Bugungi kunda globallashuv, tashqi migratsiyaning kengayishi, texnik taraqqiyot madaniy xilma xillik, ya’ni turli xalqlar va etnik guruhlarning noyob urf-odatlari, til va madaniyatini saqlab qolish muammosi kuchayib bormoqda. Nomoddiy madaniy meros esa aynan shu xilma xillikni qayta tiklash va mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy madaniyatshunoslik, antropologiya va merosshunoslikda “nomoddiy madaniy meros” tushunchasi tobora markaziy mavqega ega bo‘lib bormoqda.

Dastlab nomoddiy madaniy meros tushunchasi ta’rifiga to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Moddiy va nomoddiy meros o‘rtasidagi farqlar ko‘p bo‘lsada ularni tushunish ba’zida qiyinroq hisobanadi. Buni esa ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib brogan olimlar fikrlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Xususan, YUNESKOning Madaniyat bo‘yicha director o‘rinbosari M. Bouchenaki “Moddiy va nomoddiy meros o‘rtasida uzviy munosababtlar mavjuddir. Nomoddiy merosni moddiy meros shakl va ahamiyat kasb etadigan doira sifatida ko‘rish kerak”. Boshqa bir olim Arizpe ham xuddi shunday fikrga ega: “Biz insoniyatning barcha yutuqlari nomoddiy madaniy merosdan kelib chiqishini tan olishimiz kerak, chunki bu g'oyalar, istaklar va manfaatlar odamlarni moddiy yoki ijroiy meros yaratishga undaydi”.

Dastlab ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgan bu tushunchaning global miqyosda tan olinishi UNESCOning 2003-yildagi “Nomoddiy madaniy merosni saqlash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi qabul qilinishi va konvensiyaning dunyi mamlakatlari tomonidan huquqiy va siyosiy jihatdan e’tirof etishlari bilan uzviy bog‘liq. Konvensiyaga ko‘ra, nomoddiy madaniy meros — bu “jamoalar, guruhlar va ba'zan shaxslar o‘zlarining madaniy merosi deb tan oladigan urf-odatlar, ifodalar, bilimlar, ko‘nikmalar, shuningdek, ular bilan bog‘liq vositalar, buyumlar, asboblar va madaniy makonlar majmuasi”dir (UNESCO, 2003).

Amerikalik antropolog Richard Kurin nomoddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda tan olishga xizmat qilgan muhim nazariy asoslardan birini ishlab chiqqan olimdir. U o‘zining “Safeguarding Intangible Cultural Heritage” nomli fundamental ishida saqlash tushunchasini joriy etadi. Unga ko‘ra, saqlash bu – faqatgina madaniy an’analarni hujjatlashtirish emas, balki ularni hayotiy muhitda uzluksiz ravishda jamiyatlar orasida mavsud bo‘lgan faol jarayondir. Kurin ijtimoiy guruhlarning ichki madaniy ifodalarini tashqi kuchlar (masalan, hukumatlar yoki xalqaro tashkilotlar) tomonidan aniqlanishidan ehtiyot bo‘lish kerakligini ta’kidlaydi. U saqlashni “muzeylashtirish” yoki “standartlashtirish” emas, balki “madaniy xilma-xillikni hayotda saqlab qolish vositasi” deb hisoblagan. Sababi shundaki, xalqlarning nomoddiy madaniy merosi faqat uning o‘ziga tegishli, xalq yoki jamoa tomonidan uzoq yillar mobaynida avloddan avlodga o‘tib bugungi kungacha yetib kelgan o‘ziga xos merosdir.

Yana bir boshqa olim Barbara Kirshenblatt-Gimblett esa nomoddiy madaniy merosni “performativ”, ya’ni amaliyot orqali ifodalanadigan meros deb tushuntiradi. U madaniyatni faqat o‘tmishni eslash vositasi emas, balki hozirgi zamonda ijtimoiy identiklikni yaratish vositasi sifatida ko‘radilar. Bu yondashuv NMMni dinamik va doimiy ravishda o‘zgaruvchi jarayon sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Nomoddiy madaniy meros xalqlarning o‘zligini shakllanishida asosiy manbalardan biridir. Har bir til, urf-odat, marosim yoki xalq ijodiyoti shakli o‘ziga xos tarixiy tajriba va dunyoqarashni aks ettiradi. Demak, tilni, marosimlarni yoki diniy an’analarni saqlash — bu faqat “madaniyat”ni emas, balki insonni o‘zligini saqlash demakdir. Xususan, etnik ozchiliklar uchun nomoddiy meros ko‘pincha omon qolish vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekistonning tog‘li hududlarida yashovchi tojik, qoraqalpoq yoki qirg‘iz aholi o‘z milliy kiyim, xalq dostonlari va bayramlarini nishonlash orqali o‘z madaniyligini davom ettirib kelmoqda.

UNESCO nomoddiy merosning birinchi domeni sifatida “og‘zaki an’analar va ifodalar, shu jumladan til”ni ko‘rsatadi. Til madaniyatning eng chuqur qatlamini ifoda etadi — u orqali nafaqat aloqa amalga oshiriladi, balki dunyoqarash, qadriyat va bilimlar ham uzatiladi.

Tilning yo‘qolishi madaniy xilma-xillikning yo‘qolishiga olib keladi. S. Harrison bu borada quyidagi fikrlarni bilfirgan: “Har bir tilning yo‘qolishi bilan bir butun dunyoqarash, tasavvur va tarixiy xotira yo‘qoladi. Shu sababli, tilga asoslangan Nomoddiy meros shakllari — maqollar, ertaklar,

epik dostonlar — madaniy xilma-xillikni faol uzatish vositasi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, yoshlarga o‘z ildizlarini anglashda muhim rol o‘ynaydi.

Marosimlar (bayramlar, to‘ylar, dafn marosimlari) — bu jamoaning birligiga, urf-odatga asoslangan ijtimoiy institutdir. Ular nafaqat an’anani, balki jamoaviy eslab qolish va birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida ishlaydi. Masalan, Navro‘z faqat bir xalqka tegishli bo‘lgan bayram emas, balki Markaziy Osiyo xalqlari madaniy xilma-xilligini aks ettiruvchi regional hodisadir. Bu bayramda har bir etnos o‘ziga xos taom, kiyim, kuy va o‘yinlar orqali o‘z madaniyatini namoyish etadi. Bu esa o‘z navbatida hududiy birdamlikni mustahkamlash bilan birga, xilma-xillikni e’tirof etishni anglatadi.

So‘nggi yillarda raqamli platformalar — YouTube, TikTok, Instagram va podkastlar orqali nomoddiy madaniy meros global miqyosda targ‘ib qilinmoqda. Bu, bir tomondan, madaniy xilma-xillikni butun dunyoga ko‘rsatish imkonini bersa, boshqa tomondan, uning ommaviylashuvi va transformatsiyasiga olib keladi. Har bir raqamli ifoda yangi muhitda “madaniyat”ni qayta yaratishga xizmat qiladi.

UNESCOning 2003-yilgi Konvensiyasiga ko‘ra, merosni saqlashning asosiy usullaridan biri bu inventarizatsiya (ro‘yxatga olish) va hujjatlashtirish hisoblanadi. Ushbu usul orqali milliy darajadagi nomoddiy meros ob’yektlari aniqlanadi, tasniflanadi va davlat yoki jamoa tomonidan tan olinadi. R. Kurin (2007) bu jarayonni “madaniy xaritalash” deb ataydi va u orqali “biror xalqning madaniy landshaftidagi xilma-xillik manbalari sistematik tarzda aniqlanadi”.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar orqali nomoddiy merosni saqlash keng quloch yozmoqda. Videotasvir, audioyozuv, raqamli kataloglar, onlayn arxivlar yordamida og‘zaki an’analar, kuylar, marosimlar hujjatlashtirilmoqda. Bu metod xususan yashovchanlik darajasi past bo‘lgan meros unsurlarini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, raqamli saqlash xalqaro madaniy merosni ochiq qilish orqali, xilma-xillikni global kontekstga olib chiqishga xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekistondagi “Oltin meros” loyihasi doirasida xalq og‘zaki ijodi namunalarining raqamli arxivi yaratilmoqda va jahon jamoatchiligiga ochilmoqda.

Nomoddiy madaniy merosni saqlashda eng samarali yondashuv bu — mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtiroki asosida amalga oshirilgan tashabbusdir. UNESCO bu tamoyilni “bottom-up approach” deb ataydi. Bu

yondashuvda meros tashuvchilari o‘zlari nima saqlanishi, qanday ifodalanishi va qaysi sharoitda uzatilishi kerakligini o‘zlari hal qiladi. Mahalliy jamoalarning saqlash jarayonidagi faol ishtiroki madaniy xilma-xillikni to‘liq va chinakam tarzda aks ettirish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa ko‘p madaniyatli yoki ko‘p etnik hududlarda muhim ahamiyatga ega.

Nomoddiy madaniy merosni muzeyda saqlash yoki turizm vositasida targ‘ib qilish ko‘p hollarda madaniy xilma-xillikni ommalashtirish va iqtisodiylashtirishga xizmat qiladi. Biroq bu jarayon o‘z navbatida nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq bir qancha xavflarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Meros tijoratga aylanadi
- An’anaviylik yo‘qoladi
- Turizm talablari meros shaklini o‘zgartiradi

Bu borada S. Harrison bu holatni “performance for the market” deb atagan, ya’ni an’ana asl madaniy muhitni emas, balki auditoriya yoki mijoz uchun namoyish qilinadi. Shu bois turistiklashtirish, agar jamoa manfaatini hisobga olmasa, xilma-xillikni notekis ravishda taqdim etuvchi vositaga aylanishi mumkin.

Shunga qaramay, to‘g‘ri tashkil etilgan turizm, masalan, “etnoturizm”, “madaniy festivallar”, “o‘quv ekspeditsiyalari” nomoddiy madaniy merosni qo‘llab-quvvatlashi, mahalliy hunarmandlar va san’atkorlarga iqtisodiy mustaqillik berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S. Harrison How is England’s Intangible Cultural Heritage being safeguarded? , 2013, p. 52
2. KURIN, R. (2007) Safeguarding Intangible Cultural Heritage: Key Factors in Implementing the 2003 Convention. International Journal of Intangible Heritage. Vol. 02 2007
3. KIRSHENBLATT-GIMBLETT, B. (1995) Theorizing Heritage. Ethnomusicology, Vol. 39, No. 3 pp. 367-380
4. BOUCHENAKI, M. (2003) The Interdependency of the tangible and intangible heritage. ICOMOS 14th General Assembly and Scientific Symposium keynote address. http://openarchive.icomos.org/468/1/2_-_Allocution_Bouchenaki.pdf

5. ARIZPE, L. (2004) Intangible Cultural Heritage, Diversity and Coherence. Museum International. Vol. 56, No. 1-2.

UNESCO, 2003 a. Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Available at: https://ich.unesco.org/en/convention

**Qandov Bahodir Mirzayevich**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f. f.d., (PhD)

## NAZIR TO‘RAQULOV BIRINCHI O‘ZBEK DIPLOMATI VA DAVLAT ARBOBI SIFATIDA YAQIN SHARQDAGI FAOLIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat arbobi, publitsist, tilshunos olim, pedagog, mashhur diplomat Nazir To‘raqulovning Saudiya Arabistoni faoliyati tahlil qilinib, bugungi Yangilanayotgan O‘zbekiston tarixida tutgan o‘rni hamda ijtimoiy hayotidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek maqolada, Nazir To‘raqulov qisqa davrdagi sermahsul mehnati va samarali siyosiy faoliyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, ma’suliyatlilik, mehnatsevarlik, N.To‘raqulov, yangicha islohotlar.

Jahondagi yangi siyosiy vaziyatda mustaqil davlatlar suverenitetini saqlash va mustahkamlash, mustamlakachilikning turli yangi shakllariga qarshi kurash har bir davlatning ijtimoiy, iqtisodiy - madaniy siyosatida mamlakat xavfsizligi va xalqlarning tinch-totuv yashashiga xizmat qiladigan turli islohotlar o‘tkazish, xususan, ta’lim tarbiya sohasida ustuvor vazifalarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, jadid bobolarimizning milliy davlatchilikni qayta tiklash uchun olib borgan kurashlari keng o‘rganilmoqda. Jadidlarning ilmiy merosi hamda ularning taraqqiyot dasturi yurtimizda milliy mafkura sifatida qabul qilindi. 1920 yillar boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotining o‘ziga xos xususiyati o‘lka tub aholisining milliy o‘z-o‘zini anglashining izchil o‘sib borishi edi. Sovet milliy-davlat qurilishining aniq imperatorlik yo‘nalishi, keng xalq ommasi uchun qabul qilinmaydigan sotsialistik tizimni majburan o‘rnatish, iqtisodiyotdagi halokatli

muvaffaqiyatsizliklar va xalqning milliy qadr-qimmatining keng tarqalishi mintaqadagi siyosiy qarama-qarshilikning chuqurlashishiga yordam berdi. Shu jihatdan olganda Turkiston tarixini jiddiy o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqining Rossiya imperiyasi davridagi tarixida hayoti va faoliyati milliy iftixor manbai bo‘lgan ko‘plab yorqin shaxslar bor.

XX asr boshlarida Turkiston davlatchiligini rivojlantirish maqsadlarini belgilab bergan milliy manfaatlarga xizmat qilishning tarixiy namunasi bo‘lgan davlat arboblari va buyuk tarixiy shaxslari turibdi. Ana shunday siymolardan biri, atoqli davlat arbobi, yorqin diplomat, jurnalist, urushdan oldingi yillarda Sobiq SSSRning Hijoz (Hijoz – Saudiya Arabistonining Shimoli-G‘arbida joylashgan tarixiy viloyat.) Saudiya Arabistoni Podshohligi, Najd (Najd – Saudiya Arabistonidagi viloyati. V-VI-asr o‘rtalarida arablarning kinda qabilasi qo‘l ostida bo‘lgan. VII-IX-asrlarda Arab xalifaligi, keyinchalik Arabiston yarim orolida XVIII asrda vahhobiylar harakati markazi bo‘lgan. Ular bu yerda Najd amirligi XVIII asr oxiri – XX asr boshi, tanaffuslar bilan davlatlar tarkibida mavjud bo‘lgan Najd amirligi Shimoliy va Markaziy Arabistonni birlashtirish kurashiga rahnamolik qilgan, natijada Hijoz, Najd va 1932 yil 23 sentabrdan birlashgan viloyatlar davlati bo‘lgan Saudiya Arabistoni)dagi birinchi elchisi Nazir To‘raqulovdir va u qo‘shib olingan viloyatlardagi vakolatli vakilining faoliyati mahalliy diplomatlarning yangi avlodlari uchun munosib o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Har qanday davlatning tashqi siyosati o‘tmish tajribasiga asoslanib, o‘z diplomatik maktabining butun avlodlari tomonidan yaratilgan texnika va usullardan foydalangan holda samaraliroq bo‘ladi. Muayyan davlatga nisbatan siyosiy yo‘nalish ko‘p jihatdan uning joylarda kim va qanday amalga oshirilishiga bog‘liq. Nazir To‘raqulov Saudiya Arabistoni Podshohligida sakkiz yil (1928 – 1936; o‘sha davrdagi yuqori ko‘rsatkich) o‘z mamlakatini munosib himoya qildi. SSSR va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga olib chiqish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Nazir To‘raqulov Sovet diplomatiyasi shakllangan davrda Saudiya Arabistoni Podshohligidagi SSSR missiyasini boshqargan. Tashqi siyosatni amalga oshirish maxsus tashqi siyosat davlat organlarini shakllantirishni taqozo etdi. Ma’lumki, Sovetlarning II Butunrossiya qurultoyida L. Trotskiy boshchiligida Tashqi ishlar xalq komissarligi, 1922 yil 30 dekabrda SSSR tuzilgandan keyin esa SSSR Tashqi ishlar xalq komissarligi 1923 yil 6 iyulda tuzildi. Sovet Tashqi

ishlar vazirligi faoliyatining kengayishi qabul qiluvchi davlatning o‘ziga xosligini, chet tillarini biladigan, mintaqadagi ichki va tashqi siyosiy vaziyatni biladigan yangi kadrlarni talab qildi. Nazir To‘raqulov barcha bu talablarga javob berdi. Aynan shu lavozimda uning diplomat-davlat arbobi sifatidagi shaxsiy va kasbiy fazilatlari to‘liq namoyon bo‘ldi.

Davlat arbobi, publitsist, tilshunos olim, mashhur diplomat Nazir To‘raqulov 1892 yil oktabr oyida Qo‘qon shahrining Kalvak mahallasida yirik paxta savdogari oilasida dunyoga kelgan. U dastlab eski maktabda, so‘ng 1905-yildan Qo‘qondagi “yangi usul” - jadid maktabi hamda rus-tuzem maktabida maktabida olgan, sakkiz yillik, 1913 yili Qo‘qondagi kasb-hunar bilim yurtini tugatgan. Oliy ta’limni 1914 – 1916 yillarda (shuningdek, 1922 – 1923 yillarda) Moskva savdo institutining (hozirgi Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti) Iqtisod fakultetida tahsil olgan. Biroq 1916 yil Birinchi jahon urushi tufayli uchinchi kursdan boshqa talabalar qatorida 18 yoshli Nazir To‘raqulov mardikorlikka olib ketiladib G‘arbiy frontga Belorussiyaga yuborilgan. Bu yillarda Turkistonga birinchi rus inqilobi shamoli yetib keldi va “liberal musulmon burjuaziyasi” paydo bo‘lishiga olib keldi va aynan shu davrda bo‘lajak siyosatchi, jurnalist va diplomat Nazir To‘raqulovning ilg‘or qarashlari shakllana boshladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek 1914 yilda N. To‘raqulov Moskva tijorat institutiga (iqtisodiyot fakulteti) o‘qishga kirdi va u yerda nafaqat iqtisodiy bilimlar asoslarini puxta egalladi, balki chet tillarini ham yaqindan o‘rgandi. U rus tilini yaxshi biladi, shuningdek turk, fransuz va nemis tillarini biladi. Saudiya Arabistoni Podshohligidagi diplomatik faoliyati davomida arab tilini o‘rganmoqda. Moskvaga bergan hisobotlarida u shunday deydi: “U arabchada yaxshi gapira boshladi. 3-4 oy ichida men tarjimon xizmatidan xalos bo‘laman deb o‘ylayman, aks holda siz bir narsani aytasiz, ular boshqasini tarjima qiladi va “tuz” yo‘qoladi[1, 47,73]. Arab tilini bilishi uni Saudiya Qirolligidagi ko‘plab yevropalik diplomatlardan ajratib turdi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri, vositachilarsiz shoh va uning atrofidagilar bilan dolzarb masalalarni hal qila olardi, ulamolar bilan diniy mavzularda bahslasha olardi va diplomatik korpus nomidan arab tilida so‘zlay olardi. N. To‘raqulov Tashqi ishlar xalq komissarligiga bergan ma’ruzasida shunday deb yozadi: “Bizning shaxsiy aloqalarimiz tobora kuchayib, kengayib bormoqda. Bunga mening arab tilini bilishim ham yordam bermoqda”[1, 70]. Sovet vakolatli vakili “nafaqat nazariy, balki

amaliy jihatdan ham arab tilini biladigan" diplomatik kadrlar - arabchilarni tayyorlashdan xavotirda edi. N. To‘raqulov Tashqi ishlar xalq komissarligiga yozgan ilk maktublaridan birida ish uchun faqat adabiy arab tilining o‘zi yetarli emasligini hisobga olib, Sharqshunoslik instituti talabalarini Hijozga bir yillik til amaliyotiga yuborish masalasini ko‘tardi. U Jiddadan Moskvaga shunday yozadi: "Bu yerda Qur'on tili bilan aytganda, bozordan bir quti gugurt ham sotib olishning iloji yo‘q. Ayni paytda bizning o‘quv yurtlarimizda majoziy ma'noda aytganda, arabchilarni emas, faqat o‘liklar va farishtalar bilan muloqot qila oladigan Qur'onchilarni tayyorlashmoqda"[1, 73].

Nazir To‘raqulov 1916 yili Birinchi jahon urushi yillarida Butun Rossiya Zemstvo ittifoqida (Minsk G‘arbiy fronti qo‘mitasi va Baranovichi viloyati qo‘mitasi) yo‘riqchisi bo‘lib ishlagan, shu yili Minskda inqilobiy fikrlovchilarni birlashtirgan, talabalar va o‘qituvchilardan iborat "Erkin dala" yashirin tashkilotini tuzgan. 1918 yilda eserlar partiyasining a'zosi bo‘lgan. 1918 yil oktabrda Rossiya bolsheviklar kommunistik partiyasiga a'zo bo‘lgan va Qizil armiyaning otliq bo‘linmasi siyosiy boshqaruv boshlig‘i etib tayinlanadi. 1918 – 1919 yillarda Qo‘qondagi sovet idoralarida turli lavozimlarda ishladi. Keyinchalik Turkiston ASSR Maorif xalq komissari (1920), Turkiston ASSR MIK raisi (1920 yil sentabr – 1921-yil avgust), Turkiston KP MK mas'ul kotibi (1921 – 1922) bo‘lgan.

U 1921–1922 yillarda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi etib tayinlangan, 1923 yilda esa Moskvaga SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi huzuridagi Markaziy nashriyot raisi va Sharq xalq instituti rektori o‘rinbosari lavozimlariga ko‘chirilganida Nazir To‘raqulovning siyosiy faoliyatining eng yuqori cho‘qqisi sodir bo‘ldi. Uning har tomonlama bilimi, bilimdonligi, musulmon Sharqining urf-odatlari va nozik jihatlari va xorijiy tillarini bilishi uni SSSRning Saudiya Arabistonidagi vakolatli vakili lavozimiga 1924 yilda birinchi marta rasmiy aloqalar o‘rnatgan eng munosib nomzodga aylantirdi. Undan oldingi vakolatli vakil Karim Abdraufovich Hakimov lavozimidan ozod etilgandan so‘ng, Nazir To‘raqulovni lavozimga tayinlash masalasi darhol hal qilindi. 1928 yildagi Tashqi ishlar xalq komissarining o‘rinbosari Lev Karaxanning bevosita Stalinga tayyorlagan hisobotida Tashqi ishlar xalq komissarligi boshqarmasi "Musulmon dunyosini yaxshi biladigan, SSSRning arab dunyosida, jumladan Hijozda talab qilinadigan murakkab va nozik siyosatini amalga oshirishda munosib kadr"[2, 336] ekanligini bildiradi.

Partiya Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy byurosining majlisida nomzodlik ma’qullangandan so‘ng, SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumining 1927 yil 15-dekabrdagi farmoni bilan To‘raqulov SSSRning Saudiya Arabistonidagi vakolatli vakili etib tayinlangan. 1928 yil 3 oktabrda Odessadan Jiddaga deyarli 2 oylik dengiz safari yakunida To‘raqulov podsho Abdul Aziz as-Saudning o‘g‘li shahzoda Faysalga ishonch yorliqlarini topshirdi. 1928 yilda u atigi 36 yoshda edi. O‘sha yillardagi diplomatik amaliyotda yoshligida bunday mas’uliyatli lavozimga tayinlanish kamdan-kam uchraydi. Nazir To‘raqulovning diplomatik pasportida ko‘rsatilgan martabasi: “SSSRning Hijoz, Najd va qo‘shib olingan hududlardagi diplomatik agenti va bosh konsuli”[2, 98] (faqat 1932-yilda yuqorida tilga olingan qirollik Saudiya Arabistoni Qirolligi nomi bilan mashhur bo‘lgan) deb yozilgan.

Saudiya Qirolligi va SSSR o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning mustahkamlanishi o‘sha paytda Arabiston yarim orolidagi og‘ir siyosiy vaziyat bilan izohlanadi. Bu yosh Saudiya rejimining qudratli Buyuk Britaniyaning hiyla-nayranglaridan ehtiyot bo‘lish va Moskva timsolida qarshi vazn izlash zarurati bilan bog‘liq edi, negaki, aynan SSSR 1926-yil 15-fevraldagi nota bilan al-Saudni Hijoz podshohi, Najd sultoni va qo‘shib olingan viloyatlar sifatida birinchi bo‘lib tan olgan edi. Qirollikning Angliya bilan qarama-qarshiligining asosiy sababi Iroqning Najdga qarama-qarshi bo‘lgan chegarasini bir qator blok-xauslar qurish va shu tariqa Iroqni Yaqin Sharqdagi hujum operatsiyalari uchun baza sifatida mustahkamlashga urinishi edi. Ana shunday og‘ir siyosiy vaziyatda Nazir To‘raqulov o‘zining yangi vazifasiga tezda ko‘nikib, jiddalik siyosiy idora va savdogarlar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatdi. Nazir To‘raqulov Hijozdagi 8 yillik faoliyati davomida davlat asoschisi Abdul Aziz al-Saud, shuningdek, qirolning o‘g‘li amir Faysalning alohida iltifoti va qo‘llab-quvvatlashidan bahramand bo‘ldi. Podshoh Nazir To‘raqulov bilan har bir uchrashuvda o‘zining iliq tuyg‘ularini namoyon etib, uni birinchi bo‘lib tan olgan davlat SSSR bo‘lganini doim eslashini ta’kidlab, shunday ta’kidladi: “Agar og‘ir kunlar kelsa, SSSR, bilaman, mening qurol-yarog‘im bo‘ladi, Sovetlar meni SSSR va arablar manfaati yo‘lida xohlagancha tasarruf etishi mumkin”[2, 370]. Diplomat uning ishining samaradorligi ko‘p jihatdan qirol hokimiyatiga yaqinligi va ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb manfaatlarini vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri, eng samarali hal qilish qobiliyatiga bog‘liqligini yaxshi bilardi.

SSSRning Arabistondagi asosiy diplomatik maqsadlaridan biri N.To‘raqulovdan ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish bo‘yicha juda ko‘p tizimli ishlarni amalga oshirishni taqozo etgan siyosiy-savdo shartnomasini imzolash edi. Qirol SSSR bilan shartnoma imzolash masalasini muhokama qilishdan qochadi va “uning SSSR bilan munosabatlari shu qadar do‘stona munosabatda bo‘lganki, ular maxsus tuzatishni talab qilmaydi. Shu bilan birga, bizning SSSR bilan umumiy chegaramiz yo‘q. SSSR bizdan uzoqda. Bu yerda bizni har tomondan Angliyaning egaliklari va kuchlari o‘rab olgan hamda SSSR bilan shartnoma tuzish inglizlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri da’vo bo‘lishi mumkin”[2, 336]. Nazir To‘raqulov Tashqi ishlar xalq komissarligiga yo‘llagan ma’ruzasida shunday yozadi: “Qirol bilan suhbatlardan menda shunday taassurot paydo bo‘ldiki, inglizlarni g‘azablantirish qo‘rquvi har qadamda hamon o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, bu holat bizni ishbilarmonlik hamkorlikka, ularga ma’lum imtiyozlar berishga va ularni o‘zimizga ko‘niktirishga, muammolarimizni doimo, bosqichma-bosqich hal etishga majbur qiladi”[2, 370].

Arabiston zaminidagi sovet-ingliz raqobati nafaqat taxt atrofidagi makonga, balki sof protokol-diplomatik sohaga ham tarqaldi. Ana shunday holatda Saudiya qiroli va qirollik oilasi a’zolari mansabni deb o‘z diniy e’tiqodidan kechmagan Nazir To‘raqulovni qattiq hurmat qilishadi. To‘raqulov say-harakatlari natijasida SSSR bilan savdo-iqtisodiy aloqalar ancha yaxshilanadi.. Va bu yerda vakolatli vakilning o‘zi inglizlar bilan diplomatik korpusdagi ish staji bo‘yicha “tarixiy tortishuv” deb atagan tanlovdagi g‘alaba SSSR foydasiga yakunlandi. N. To‘raqulov diplomatik korpus dekani bo‘ladi va bu lavozimda diplomatik korpusdagi nizolarni hal qilishda hakamlik qiladi. Sovet vakolatli vakilining obro‘si va ta’siri arab monarxining saroyida akkreditatsiya qilingan xorijiy diplomatlar orasida ham tarqaldi.

Qirol al-Saud o‘zini topadigan mavqei undan tez-tez Londonga qarashni talab qiladi. SSSR bilan munosabatlarni huquqiy rasmiylashtirish va siyosiy shartnoma imzolashga borish inglizlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri da’vo qilishni anglatadi. Shuning uchun, 1929 yil dekabr oyida Tashqi ishlar vazirligi Jiddadagi vakolatxona maqomini oshirishga ko‘chib o‘tgandan keyingina, Hijoz hukumati Sovet missiyasini diplomatik missiyaga aylantirishga rozi bo‘ldi. 1930-yil 26-fevralda Makka shahrida N.To‘raqulov shahzoda Faysalga uni Muxtor vazir va Favqulodda elchi

(o‘sha paytdagi SSSRdagi eng oliy diplomatik lavozim) lavozimiga akkreditatsiya qiluvchi ishonch yorliqlarini topshirdi va Jiddadagi diplomatik korpusning raisi bo‘ldi.

N.To‘raqulov ham siyosiy, ham maishiy masalalarni, masalan, Arabiston qirolligi aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish kabi ko‘plab masalalarni birdek muvaffaqiyatli hal qildi. Yarim oroldagi juda noqulay epidemiologik vaziyat chet eldan ziyoratchilar tomonidan olib kelingan vabo va bezgak bilan bog‘liq traxoma va boshqa kasalliklar keng tarqalgan edi. Nazir To‘raqulov shifokor Jukov tomonidan vakolatli klinikada bemorlarni davolash va qabul qilishda yordam berdi. Bu mutaxassis o‘zining yuqori sifatli xizmati bilan shu qadar yuksak obro‘ qozonganki, “mahalliy aholi “bolshevik tabib” davosi bo‘lishni afzal ko‘rar va o‘z hukumati “tabib”ga murojaat qilish taklifi bilan tillarini chertib qo‘yar edi[2, 557].

1930 yil 16 aprel kuni Nazir To‘raqulov tashqi ishlar xalq komissari Maksim Litvinovga yozib yuborgan xatida Saudiyada uni ayricha hurmat qilishayotganini aytgan. Saudiya Arabistoni qiroli tomonidan o‘tkazilayotgan rasmiy tadbirlarda To‘raqulov SSSR elchisi sifatida safning eng old qatoridan joy olgan. Ingliz elchisi Rian ikkinchi, Fransiya elchisi Megre uchinchi, Eron elchisi Ainol-Molk to‘rtinchi bo‘lib joylashgan[2].

Nazir To‘raqulovning eng muhim yutuqlaridan biri sovet savdosining blokadasida “buzilish”ni ochgan “benzin shartnomasi” edi. Gap Saudiya davlatiga 150 ming dollarlik 50 ming “quti” benzin va kerosin yetkazib berish haqida ketayotgan edi, bu vakil tomonidan qirolning shaxsiy iltimosiga ko‘ra uyushtirilgan. Benzin iste’molining o‘sishi Yaqin Sharqda avtomobil davrining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq edi. “Muz darz ketdi”, deb ta’kidlaydi N. Tyuryakulov Markazga yo‘llagan hisobotida. Saudiyaning SSSR bilan savdosi bo‘yicha blokadaning buzilishiga ishora qilib. N. To‘raqulov Tashqi ishlar xalq komissarligiga bergan ma’ruzasida alohida ta’kidlaydi: “Biz qat’iy va aniq pozitsiyani egallashimiz, bizni qiziqtirgan masalalarni hal etishga qat’iy intilishimiz kerak. Vaqt va sharoitlar biz uchun ishlaydi. Gepra u yoki bu tarzda bizga keladi va bizning hamkorlikka intiladi. “Bizning ishbilarmonlik shoshqadamligimiz tengligimiz va savdo-siyosiy kelishuvimiz uchun kurashga to‘sqinlik qilishi mumkin edi”[2, 411]. N. Turyaqulov tashabbusi bilan 1934 yilda Sovet hukumati Saudiya Arabistonida birinchi avtomat telefon stansiyasini o‘rnatdi va unga xizmat ko‘rsatish uchun kadrlar tayyorladi. Telefon Saudiya hukumatiga sovg‘a

qilingan va qirolning iltimosiga koʻra Toifdagi yozgi saroyga oʻrnatilgan. Birinchi telefon suhbati qirol Faysal va SSSRning vakolatli vakili N. Tyuryakulov oʻrtasida boʻlib oʻtdi, qirol Sovet hukumatiga sovgʻa uchun minnatdorchilik bildirdi.

Bugungi kunda Saudiya Arabistoni qora oltin zahiralari va eksporti boʻyicha dunyoda birinchi oʻrinda turadi. Ammo u 1930-yillarda benzin va kerosinni import qilishga majbur boʻldi, ularning yetkazib beruvchilari Sovet Ittifoqi boʻlgan. Saudiya rejimi uchun juda muhim boʻlgan bu masalada N.Toʻraqulovning xizmatlari katta boʻlgan. Ammo, afsuski, uning oʻzaro savdo va boshqa aloqalarni faollashtirishga qaratilgan barcha say-harakatlari Markaz tomonidan munosib baholanmadi, chunki Sovet tashqi siyosatidagi urgʻu Gʻarbga qarata boshladi. N. Toʻraqulov Markazning Saudiya Arabistoni bilan keyingi savdo hamkorligiga nisbatan passivligidan xavotirda tashqi ishlar xalq komissarligiga shunday yozadi: “Men bu holatni nafaqat notoʻgʻri, balki bizning manfaatlarimizga ham zararli deb hisoblayman. Men hozir e’tibordan chetdaman. Tashqi ishlar xalq komissarligining Hijosdagi keyingi faoliyati haqida menga xabar berishingizni soʻrayman. Erishilgan pozitsiyani mustahkamlash uchun shunday boshlash kerak. Chiqish yoʻlini harakatda izlash kerak. Bir joyda turish va natijalarni kutish yaxshi emas”[2, 559-560]. Shunga qaramay, Moskva bu mintaqada savdo faoliyatini cheklash yoʻlini belgilab oldi. Xalq komissarligining dengiz sayohatlarini tugatish, 1934 yilgi savdo rejasini bekor qilish va savdo missiyalarini chaqirib olish toʻgʻrisidagi qarori Sovet Ittifoqining Yaqin Sharqdagi pozitsiyalarini taslim qilishiga olib keldi. Nazir Toʻraqulovni 1936 yilda Moskvaga chaqirib olishadi va oʻrniga Karim Hakimovni SSSRning Saudiyadagi elchisi etib tayinlandi. 1936-yildan Moskva Sharq xalqlari til va yozuv institutida (SSSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi Millatlar Kengashi huzuridagi Til va yozuv instituti) bir yilga yaqin ishladi. Ana shu davrda Tashqi ishlar xalq komissarligi boshligʻi Nikolay Yejov tomonidan SSSRda Qizil terror boshlab yuboriladi. Har kuni ittifoq boʻylab koʻplab odamlar hibsga olinib, uzoq yillarga qamalar yoki otib tashlangan. 1937-yil 15-iyul kuni u hibsga olinadi. U 30-yillarda siyosiy qatagʻon qurboni boʻldi. Nazir Toʻraqulov panislomizm, panturkizm va vatanga xiyonat qilishda ayblanadi. Qamoqqa olinganidan 3 oy oʻtib Nazir Toʻraqulov SSSR oliy sudi harbiy kollegiyasi hukmi bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 1, 8 va 11-qismlari bilan aybdor deb topilib, oʻlimga hukm qilinib 1937 yil 3 noyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy

kollegiyasi tomonidan otib tashlanadi[3;4]. Umri fojiali tarzda tugaganida N. To‘raqulov 45 yoshga ham kirmagan edi.

Nazir To‘raqulovning o‘ldirilgani haqidagi ayanchli xabar Saudiya Arabistoni qiroli Abdulaziz Al Saudni larzaga keltirdi, u Nazir To‘raqulovni juda hurmat qilgan. Qirol SSSRning Saudiyadagi elchisi Karim Hakimovga o‘z mamlakatida Sovet hukumatining boshqa vakolatli vakillarni ko‘rishni istamasligini tushuntirdi. 1936-yil yanvarida N.To‘raqulov o‘rniga vakolatli vakil etib tayinlangan K.Hakimov Jiddada bir yildan sal ko‘proq qoldi, shundan so‘ng uni Moskvaga chaqirib olishdi. Shundan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar to‘xtadi. 1938-yil mart oyida Saudiya Arabistonida XX – XXI asrlarda qirollikning gullab-yashnashiga asos bo‘lgan ulkan neft konlari topildi. Shundan so‘ng sovet hukumati nima qilib bo‘lsa ham bu davlat bilan avvalgi do‘stona aloqalarni tiklashga urinadi. 1938-yil 13-aprelda Ibn Saud Stalindan kelgan boshqa elchini qabul qilishdan bosh tortgani uchun SSSR Jiddadagi missiyani bekor qildi. 1938-yil 11-sentabrda SSSR missiyasi a’zolari Saudiya Arabistonini tark etishdi. O‘sha paytdan boshlab ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p yillar davomida amalda to‘xtatildi va faqat 1990 yilda to‘liq tiklandi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, xulosa qilib aytish mumkinki, bu munosabatlar “To‘raqulovchilik” davrida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. N.To‘raqulov Saudiya Arabistonidagi Muxtor Vakil sifatidagi 8 yil davomida Saudiya Arabistonida Sovet Ittifoqining bo‘lishi uchun eng qulay muhitni yaratishga intildi, siyosiy aloqalar o‘rnatdi, savdo aloqalarini rivojlantirdi, Vakolatli vakil idorasini jihozladi va diplomatik korpusda yetakchilikni qo‘lga kiritdi. U nafaqat Yaqin Sharqdagi, balki Yevropa va jahon arenalaridagi diplomatik kurashning barcha nozik tomonlarini juda yaxshi tushungan, buni Markazga yo‘llagan ma’ruzalari, eslatmalari, ma’ruzalari va sirkulyar maktublari ham tasdiqlaydi. Yuksak madaniyatli, bilimdon va poliglot odam Xudodan kelgan diplomat edi. Yakuniy natijaga e’tibor qaratish va o‘z davlatining milliy manfaatlarini himoya qilish, yuksak professionallik Nazir To‘raqulovga sovet diplomatiyasi tarixidan munosib o‘rin egallash huquqini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Nazir To‘raqulovning Yaqin Sharqdagi muvaffaqiyatli va samarali diplomatik faoliyati uning Markaziy Osiyoda ham, Moskvada ham avvalgi barcha faoliyatiga asoslanadi. O‘zbek xalqining ajoyib farzandi o‘zining serqirra ijodida chuqur bilim va

dunyoqarashlar kengligi bilan qurollangan chinakam marifatparvar ekanligini isbotladi. Hayot qiyinchiliklari uni o‘z qobiliyatiga ishonch bag‘ishladi, qalbida mas’uliyat tuyg‘usini barcha ko‘rinishlarida jasorat uyg‘otdi hamda Vatan manfaatlariga xizmat qilishga tayyorligini singdirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:**

1. Nazir Tyuryakulov – polpred SSSR v Korolevstv ye Saudovsk aya AraviY. [Pisma, dnevniki, otcheti 1928–1935 gg.]. – M., 2000. – S. 47, 73.

2. Mansurov T.A. Polpred Nazir Tyuryakulov. Diplomat, politik, grajdanin. - M., 2003. – S. 336.

3. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob [O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida]. - T.: “Sharq”, 2000.

4. Rajabov Q., Haydarov M., Turkiston tarixi (1917-1924-yillar). – Toshkent: Universitet, 2002.

## XORIJIY MATBUOT BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI TARIXI

**Kamol Ishankulovich Hazratqulov**
CHDPU tarix kafedrasi doktoranti
kamolmirzo62@gmail.com

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada Buxoro amirligida xorijiy matbuotning kirib kelishi va uning milliy matbuot shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asr boshlarida Buxoro hududiga kirib kelgan turli mamlakatlarda nashr etilgan gazeta va jurnallar – xususan, Ismoilbek Gasparali tomonidan chiqarilgan “Tarjumon”, Tiflisda nashr etilgan “Mulla Nasriddin”, Usmoniylar davlati, Eron, Hindiston va Misr matbuotining jadidlar dunyoqarashiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, bu nashrlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatish, ta’lim islohotlarini targ‘ib qilish, ijtimoiy tanqidni kuchaytirish hamda siyosiy va madaniy yangilanish jarayonlariga turtki berishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Maqolada xorijiy matbuot Buxoro jadidlarining milliy gazeta tashkil etish g‘oyasining shakllanishida muhim omil bo‘lgani asoslab berilib, bu jarayon pirovardida 1912 yilda “Buxoroyi Sharif” gazetasining tashkil topishiga zamin yaratgani ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Buxoro amirligi, xorijiy matbuot, jadidchilik harakati, Ismoilbek Gasparali, “Tarjumon” gazetasi, “Mulla Nasriddin” jurnali, ma’rifatparvarlik, matbuot tarixi, Buxoroyi Sharif gazetasi, jadidlar, ta’lim islohoti, milliy matbuot.

Buxoro amirligida milliy matbuotning vujudga kelishida bosmaxonalar moddiy-texnik zamin yaratgan bo‘lsa, xorijiy gazeta va jurnallar g‘oyaviy jihatdan yordamchi vazifasini bajargan. 20-yuzyillik boshida Buxoro amirligi hukumati yangilanishlarga xayrixohlik bildirib, islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga kirishdi. Jamiyatda eskicha an’anaga sodiq kishilar tomonidan islohtlarga qarshiliklar bo‘lsa-da, ular bosqichma-bosqich amalga oshib bordi. Shuningdek, gazeta va jurnallar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha xorijlik taraqqiyparvarlar bilan hamkorlik qildilar. Bu aloqalarning asosiy vositachilari, birinchi navbatda, yirik savdogarlar, Haj va boshqa muqaddas qadamjolarga boruvchi ziyoratchilar hamda Istanbul, Bog‘chasaroy, Qozon, Qohira va Bayrut ilm-fan markazlarida tahsil olib qaytgan buxorolik yoshlar bo‘lgan.

Bu davrda amirlik hududiga Rossiya imperiyasining boshqa hududlarida (Qrim, Qozon, Kavkaz) va xorijiy mamlakatlarda (Usmoniylar davlati, Eron, Hindiston, Misr) nashr etilayotgan, turli mafkuraviy yo‘nalishdagi gazeta va jurnallar kirib kela boshladi. Bu nashrlar Buxoro jadidlari uchun ilg‘or g‘oyalar manbai bo‘lib, eng asosiysi, o‘z milliy matbuotini yaratishda tajriba bo‘lib xizmat qildi.

Buxoro amirligidagi ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishiga Ismoilbek Gasparali tomonidan Bog‘chasaroyda (Qrim) nashr etilgan “Tarjumon” (1883-1918) gazetasi namuna bo‘lgan, deyish mumkin. Gazetaning “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida olib borilgan faoliyati uchta asosiy tamoyilga asoslanar edi:

Tilda birlik. Ismoilbek Gasparali Rossiya turkiy xalqlari uchun yagona, soddalashtirilgan adabiy tilni yaratishga intildi. Bu til barcha uchun tushunarli bo‘lishi, mahalliy shevachilikdan yuqori turishi va milliy birlikka xizmat qilishi kerak edi. Bu g‘oya ko‘p tilli Buxoro muhiti uchun, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega edi. Shu o‘rinda, qayd etish lozimki, jadidlarning bir qismi bu qarashlarni qo‘llab-quvvatlamagan. Jumladan, Hoji Muin ustozi Mahmudxo‘ja Behbudiy va Ismoilbek G‘asparali o‘rta turk tilini joriy qilish uchun harakat qilgani, ammo bu natijasiz tugaganini qayd qilib o‘tadi: “Marhum Ismoilbek o‘zining “Tarjumon” gazetasi bilan til birlashdirish to‘g‘risida 25 yil fikr tarqatdi. Bu muddatda Rusiya musulmonlari orasida o‘ziga tarafdorlar ham topdi. Lekin tajriba natijasida bu ishning mumkin bo‘lmasliq darajada qiyinlig‘i ko‘runa boshladi... Turkistonda “tavhidi lison”chilarning birinchisi, manim bilganimcha, marhum Behbudiy edi. Behbudiy afandi maktab uchun bir necha risolasini

(til birlashdirishga xidmat qilsun deb) o‘rtaroq shevada yozishg‘a tirishdi. Bu maqsadni asarlarining muqaddimasida ham yozib o‘tdi... Bu to‘g‘rida Behbudiy afandi bilan ba’zan mubohasa qilishar edik. Mumkin qadar xalq tushunarlik darajada sodda o‘zbekcha yozishning kerakligini aytar edik. Lekin ul hech qabul qilmas edi. Behbudiy afandi aytar edi: “Har narsaning taraqqiy qilishidek tilning ham yuksalishi lozimdur. O‘zbek tilining yuksalishi turkchaga (usmonlicha) yaqinlashishi bilan bo‘ladur. Biz o‘zbekchani shu yo‘l bilan yuqori ko‘tarsak, turklar ham o‘z tillaridan mumkin qadar forscha va arabcha so‘zlarni chiqarsalar, shuning bilan o‘rta bir sheva maydong‘a chiqib til birlashish vujudga chiqar” .

– Fikrda birlik. Bu, avvalo, islom olamining qoloqligiga barham berish, jaholat va xurofotga qarshi kurashish, diniy taassubni engib, islom dinini zamonaviy fanlar bilan uyg‘unlashtirish degani edi. “Tarjumon” ta’limni isloh qilish, dunyoviy bilimlarni o‘rganish va Yevropa fani yutuqlarini o‘zlashtirish zarurati haqida tinimsiz targ‘ibot olib bordi.

– Ishda birlik. Bu g‘oyalar va fikrlar shunchaki qog‘ozda qolmasligi, balki amaliy harakatga – yangi usul maktablari ochishga, xayriya jamiyatlari tuzishga, iqtisodiy islohotlar o‘tkazishga olib kelishi kerakligini anglatardi.

“Tarjumon”ning Buxoro jadidlari dunyoqarashiga ta’sirini bir necha jihatdan ko‘rish mumkin. Birinchidan, bu gazeta ta’lim islohotlarining ya’ni usuli savtiya yoki usuli jadid maktablari faoliyatini tashkil qilishning bosh targ‘ibotchisi edi. Gazeta sahifalarida yangi usul maktablarining afzalliklari, ularning an’anaviy maktablardan farqi (4-5 yil ichida o‘qish, yozish va hisob-kitobni o‘rgatish), bunday maktablar uchun o‘qituvchilar tayyorlash va darsliklar yaratish masalalari muntazam yoritilgan. Buxoro jadidlari, xususan, Abduvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Mukammil Burhonov va boshqalar Ismoilbek Gasparali tajribasiga tayanib, jadid maktablarini ochishga harakat qildilar.

Ikkinchidan, “Tarjumon” ayollar huquqlari, xususan, ularning ta’lim olishi masalasini ko‘targan birinchi turkiy nashrlardan edi. Garchi bu Buxoroning an’ana muhitida ochiq muhokama qilinmagan bo‘lsa-da, bu g‘oyalar jadidlar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

Uchinchidan, gazeta islom dinini mutaassiblik va bid’atlardan tozalash, uni asl manbalariga qaytarish, ayni paytda zamonaviy fan yutuqlarini qabul qilish mumkin va zarur ekanini targ‘ib qildi. Bu, Buxorodagi qadimchi ulamolarning “har qanday yangilik – xurofot” degan

qarashlariga qarshi kuchli g‘oyaviy qurol edi. “Tarjumon”ning Buxoroga ta’siri shu qadar kuchli ediki, jadidlar o‘zlarining bo‘lajak gazetasini aynan uning modeli asosida tasavvur qilganlar.

Buxoro amiri Abdulahadxonni 1883 yilda rus imperatori Aleksandr III (1881-1894) huzuriga Buxoro taxtiga bo‘lajak vorisligini tasdiqlatish uchun Peterburgga borgan vaqtida Bog‘chasaroyda “Jadidchilik harakatining otasi” Ismoilbek Gasparali bilan uchrashadi va “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘ladi . 1883 yilgi Peterburg sayohati Abdulahadxon qarashlarida tub burilish yasab, unda islohotchilik kayfiyati paydo bo‘ladi. Buxoroning jahon taraqqiyotidan ancha ortda qolganini anglab, hamma sohalarda jiddiy o‘zgarishlar qilish zarurligini tushunib etadi. Amirning islohotlarni qo‘llab-quvvatlashi, yangiliklarni joriy qilishga intilishi Buxoro taraqqiyparvarlarining xorijdagi taraqqiyparvarlar bilan, ayniqsa, Ismoilbek Gasparali bilan hamkorlik qilishiga imkoniyat bergan. “Tarjimon” gazetasiga umumiy a’zo bo‘lganlar Turkistondan 200 ta bo‘lsa, ularning katta qismi buxorolik jadidlar bo‘lgani shubhasiz. Gazetaning muntazam etib kelishi Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligini tashvishga solgan hamda “zararli” nashrning tarqalishiga keskin qarshilik qilgan. Natijada gazeta Buxoroga Toshkent va Samarqanddagi jadidlari tomonidan ishonchli savdogarlar yoki talabalar orqali jo‘natilgan. Gazeta nusxalari kiyimlar orasiga, savdo mollari ichiga yashirib, pochta-telegraf nazoratini chetlab o‘tib olib kirilgan . Gazetaning birta nusxasi o‘nlab kishilar tomonidan o‘qilib, madrasa hujralarida, savdogarlarning xufiyona yig‘inlarida qizg‘in muhokama qilingan. Sadriddin Ayniy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abduvohid Burhonov kabi buxorolik jadidlarning dunyoqarashiga “Tarjumon”ning ham ta’siri bo‘lgan . Gazetaning tili, uslubi, mavzu ko‘lami – bularning barchasi keyinchalik “Buxoroyi Sharif” gazetasining tahririyati uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan .

“Tarjumon”dan tashqari, Buxoro amirligi muhitiga boshqa nashrlar ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Ular orasida Tiflisda (Tbilisi) nashr etilgan “Mulla Nasriddin” hajviy jurnali (1906 – 1931) alohida o‘rin tutadi.

Jalil Mammadqulizoda tomonidan nashr etilgan bu jurnal o‘zining o‘tkir hajvlari, xalqchil tili va karikaturalari bilan mashhur bo‘lgan. Agar “Tarjumon” islohotlarning ijobiy dasturini taklif qilgan bo‘lsa, “Mulla Nasriddin” mavjud tuzumning illatlarini fosh etib borgan. U mutaassib ruhoniylar, riyokor eshonlar, poraxo‘r amaldorlar, jaholat va ijtimoiy

adolatsizlikni achchiq kulgi ostiga olgan. Jurnalning ta'sir kuchi uning tili sodda bo'lib, Buxoroning turkiyzabon aholisiga ham tushunarli ekanida edi. Bu jurnalda buxorolik taraqqiyparvarlarning maqolalari ham chop etilganini qayd o'tib o'tish joiz. Jumladan, jurnalning 1907 yil 14-sonida Buxoro shahrida bosmaxona yo'qligi tanqid qilingan bo'lsa, 1909 yilgi sonida Abdulvohid Munzimning jadid maktabi yopib qo'yilgani, ayrim mullalarning shariatga zid faoliyatlari muhokama qilingan .

"Mulla Nasriddin" Buxoro jadidlariga ijtimoiy tanqidning naqadar kuchli qurol bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan. Sadriddin Ayniy "Tahsib us sibyon" hamda Abdurauf Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohi qissasi" asarlaridagi o'tkir satirada jurnalning ta'siri seziladi . Jadidlar bu jurnalni o'qib, jamiyatdagi illatlarni ochiq aytishdan ko'ra, kulgi orqali fosh etish xavfsizroq va ta'sirchanroq ekanini anglab etganlar.

Buxoro amirligidagi o'zgarishlarga Usmoniylar davlatidagi voqealar, ayniqsa, 1908 yilgi Yosh turklar inqilobi va konstitutsiyaviy islohotlarning ham o'rni borligini ta'kidlash joiz. Istanbuldan kelgan gazeta va jurnallar ("Siroti Mustaqim", "Tanin", "Ijtihod") ularga "konstitutsion monarxiya" (mashrutiyat), "parlament" (majlisi mab'uson), "siyosiy partiyalar", "saylov" va "fuqarolik huquqlari" (hurriyat) kabi siyosiy tushunchalarni yaxshiroq tushinish imkonini bergan.

Jadidlar uchun bu hodisa yakka hukmronlikni cheklash, respublika tartiblarini joriy qilish, davlatni qonun ustuvorligi asosida boshqarish mumkinligining amaliy ifodasi edi. Ular Buxoroda amir hukmronligini cheklab, Ta'sis majlisi tuzish g'oyasini ilgari surdilar . 1917 yilga kelib, Abdurauf Fitrat va uning safdoshlari "Yosh turklar" harakatidan ilhomlanib amir hokimiyatini to'liq ag'darib tashlash, respublika tuzumini o'rnatish g'oyasini ilgari surdilar. Abduvohid Munzim boshchiligidagi guruh esa bu qarashlarga qarshi bo'ldi .

Buxoro amirligida milliy matbuot vujudga kelgunga qadar Eronning Tabriz shahrida chop etilgan "Adolat" va "Al-Hadid", Misrda nashr qilingan "Parvarish" va "Chehranoma" kabi gazeta va jurnallar ham alohida o'rin tutgan. Jumladan, fors tilida nashr etilgan "Al-Hadid" gazetasi 1904-yildan chiqa boshlagan bo'lib, unda Eron, Turkiya, umuman islom olami va Yevropa davlatlaridagi yangiliklarni yoritib borgan. Gazetaning Kavkaz va Turkistonda o'z muxbirlariga ega bo'lish istagini bildirishi ham uning mintaqaviy ta'sir doirasini kengaytirishga intilganidan dalolat beradi . Sadriddin Ayniyning ushbu fikri yuqoridagi xulosalarni tasdiqlaydi: "Bu

gazetalar Buxoroga etib borib, jamoatchilik fikri sakrashlarga erishdi" . Ushbu davriy nashrlar ham "Buxoroyi Sharif" va "Turon" gazetalarining dunyoga kelishi uchun zamin yaratdi.

20-yuzyillik boshlarida Hindiston va Misr nashrlari ham Buxoroga kirib kelgan. Kalkuttada fors tilida chiqqan "Hablul matin" gazetasi va Misrda Rashid Rizo tomonidan nashr etilgan "Al-Manor" jurnali islomiy islohotchilik (modernizm) g'oyalarini targ'ib qilgan. Ular Jamoliddin Afg'oniy va Muhammad Abdo kabi islohotchilarning qarashlariga asoslanib, musulmon dunyosining qoloqligi sabablarini tahlil qilganlar. Ularning asosiy g'oyasi – qoloqlik sababi islomda emas, balki musulmonlarning dinni noto'g'ri tushunishi, taqlidchilikka berilib, Qur'on va Sunnatning asl mohiyatidan uzoqlashishida, deb bilganlar. Ular islomni zamonaviy taraqqiyot va ilm-fan bilan uyg'unlashtirish yo'llarini izlaganlar . Bu nashrlar savdogarlar va hojilar orqali yashirincha Buxoroga olib kelingan va madrasalardagi ilg'or mudarrislar hamda talabalar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan.

20-yuzyillikning birinchi o'n yilligiga kelib, Buxoro jadidlari orasida o'z milliy gazetasini chiqarish g'oyasi nazariy qarashlardan amaliy ehtiyojga aylandi. Ular xorijiy matbuot bilan tanishish orqali gazetaning jamiyatni o'zgartirishdagi ulkan kuchini anglab etdilar. Jadidlar Buxoro muhiti uchun moslashtirilgan, aholining saviyasi va ehtiyojlariga javob beradigan, o'z ona tilidagi (forsiy va turkiy) nashrga ega bo'lishni maqsad qildilar.

Nashr qilinishi ko'zda tutilgan gazeta quyidagi vazifalarni bajarishi kerak bo'lgan:

1) Ma'rifat tarqatish va dunyoqarashni kengaytirish. Bu eng asosiy vazifa edi. Bo'lajak gazeta aholiga geografiya (dunyo mamlakatlari, ularning joylashuvi, boshqaruv tartibi, aholisi, tili, dini va b.), tabiiy fanlar (fizika, kimyo), zamonaviy tibbiyot va gigiena (yuqumli kasalliklarning oldini olish) va tarix (boshqa xalqlar tajribasi) haqida sodda va tushunarli tilda ma'lumot berishi kerak edi. Bu esa o'z navbatida, aholining g'aflat uyqusidan uyg'onishiga xizmat qilishi lozim edi.

2) Ijtimoiy tanqid va illatlarni fosh etish. Gazeta jamiyatdagi mavjud illatlar – poraxo'rlik (qozixonalar va b.), amaldorlarning zulmi, jaholat, diniy mutaassiblik va ijtimoiy adolatsizlikni tanqid qilishni maqsad qilgan. Albatta, amirlik sharoitida bu imkonsiz edi. Shu sababli jadidlar "Mulla Nasriddin" tajribasiga tayanib, ramziy hikoyalar, kinoyali maqolalar

va “xorijdan kelgan maktublar” orqali bu illatlarni fosh etishni rejalashtirgan. Bu orqali ular ham amir g‘azabidan saqlanishni, ham xalqqa o‘z fikrlarini etkazishni maqsad qilganlar.

3) Islohotlarni targ‘ib qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirish. Gazeta islohotlarning asosiy minbari bo‘lishi ko‘zda tutilgan. U birinchi navbatda, yangi usul maktablarini ommalashtirish, ota-onalarni farzandlarini shu maktablarga berishga undashi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, u vaqf mulklarini tartibga solish (ulardan keladigan daromadni maktab va shifoxonalarga yo‘naltirish), iqtisodiyotni (savdo, dehqonchilik) zamonaviylashtirish, shaharlardagi obodonchilik va sanitariya muammolarini hal qilishi zarur edi. Gazeta bu muammolarni muhokamaga qo‘yish orqali asta-sekin jamoatchilik fikrini shakllantirishni maqsad qilganini gazetada chop etilgan maqolalar ham tasdiqlaydi.

4. Milliy o‘zlikni anglashni va birlikni kuchaytirish. Bo‘lajak gazeta umumiy til, adabiyot, tarix va madaniyatni targ‘ib qilish orqali Buxoro aholisida vatanparvarlik va milliy birlik tuyg‘ularini shakllantirishi kerak edi. Gazeta orqali milliy shoirlarning she’rlari, tarixchilarning maqolalari chop etilishi rejalashtirilgan . Bu esa o‘z navbatida, jamiyatni g‘oyaviy jihatdan birlashtirishga xizmat qilishi lozim bo‘lgan.

Vazifalarni amalga oshirish uchun jadidlar nafaqat g‘oyaviy, balki moddiy va tashkiliy jihatdan ham tayyorgarlik ko‘ra boshlaganlar. Amirlikdagi Muhiddin Mansur, Mirzo Sirojiddin Hakim kabi ishbilarmon va tadbirkorlarning moliyaviy yordamiga tayandilar. Shu bilan birga, gazetada maqolalar, she’rlar yozish uchun mualliflar guruhini shakllantirdilar.

Shunday qilib, 20-yuzyillik boshida Buxoroda xorijiy matbuot ta’sirida shakllangan g‘oyaviy-ma’rifiy ehtiyojlar va milliy bosmaxonalarning paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan moddiy-texnik imkoniyatlar o‘zaro birlashdi. Bu ikki omilning birlashuvi, jadidlarning tinimsiz sa’y-harakatlari bilan birgalikda, pirovard natijada 1912 yilda Buxoro amirligi tarixidagi birinchi milliy gazeta – “Buxoroyi Sharif”ning dunyoga kelishi bilan yakunlandi.

**Foydalanilgan adabiyot va manbalar royhati**

1. Hoji Muin. Vaqtsiz mubohasa // “Zarafshon” gazetasi. 1924 yil 7 fevral

2. Amir Sayyid Abdulahadxon Buxoriy // “Tarjimon”, 1892 yil 31 iyul, № 27.

3. Абдурашидова З. Аннонированная библиография Туркестанских материалов в газете “Тарджуман” (1883-1917)... – С. 60-62.

4. Холиқулов А. Бухоро жадидлари матбуотида ислоҳотчилик ғоялари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 22.

5. Холиқулов А. Бухоро жадидлари матбуотида ислоҳотчилик ғоялари. – Б. 22-25.

6. *Bu haqda qarang*: Әлійев Q. “Молла Нәсрәддін” вә Özбәк Нәятı // “Азәрбайжан”. 1966. №7. С. 170 – 175.

7. Балдауф И. XX аср оъзбек адабиёти чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 35-40.

8. Qarang: Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: “Фан” АН РУз, 1997. – С. 15-18.

9. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охірі – XX аср бошларі). – Б. 110.

10. Ushbu gazetalarning ayrim sonlari Buxoro davlat muzey-qo’riqxonasi qoshidagi Kamoliddin Behzod nomidagi san’at muzeyida saqlanmoqda. *(K.H).*

11. Айній С. Таріхі інқілобі Бухоро / Таржімаі Раһім Ношім. – Душанбе: Адіб, 1987. – С. 32.

12. Абдурашидова З. Аннонированная библиография Туркестанских материалов в газете “Тарджуман” (1883-1917)... – С. 60-62.

13. Qarang: Аъзамова Г. Бухоро амирлиги Россия протекторати остида (1868-1917 йй.). – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. – Б. 130-134. (Bu erda Rossiya Siyosiy Agentligining Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, jumladan, matbuotga urinishlarni nazorat qilish siyosati bayon etilgan).

**MUNDARIJA**


| | |
|---|---|
| **Q.Rajabov**. TOSHKENT – SHARQ DARVOZASI YOXUD "TOSHKENT RUHI"NING OLAMSHUMUL AHAMIYATI..... | 5 |
| **А.Аширов.** ТОШКЕНТ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИ ВА УРФ-ОДАТЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР..... | 12 |
| **Д. Алимова.** ДЖАДИДЫ ТАШКЕНТА И ИХ СПОНСОРЫ..... | 21 |
| **Sh.Qo'ldashev.** "ZAFARNOMAI XUDOYORXON"DA CHIRCHIQ DARYOSI BO'YIDAGI JANG TAFSILOTI..... | 32 |
| **D.Normurodov.** BO'STONLIQ TUMANI "SIJJAK" MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA..... | 36 |
| **R.Ikramov.**TURKISTONDA RUS IDORA USLULLARINING JORIY ETILISHI..... | 40 |
| **Я.Ғаффоров.** МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИК ВА БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЎЗБЕКИСТОН-МДҲ ҲАМКОРЛИГИ..... | 43 |
| **D.Axmadjanov.** O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK..... | 51 |
| **O.Normatov.** TOSHKENT VILOYATI TARIXI RAYONLASHTIRISH DAVRIDA. | 53 |
| **B.Qandov.** TURKISTON ASSRDA NAZIR TO'RAQULOV BOSHCHILIGIDA YER-SUV ISLOHOTINING AMALGA OSHIRILISHI..... | 57 |
| **M.Kamolova**. XIX ASRNING IKKICHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRINING ARXITEKTURASIDAGI O'ZGARISHLAR (Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman faoliyati misolida)..... | 68 |
| **J.Abduraxmanova.** TOSHKENT VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI TARIXI..... | 71 |
| **Ш.Жумаева.** ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ: ИМКОНИЯТЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР..... | 75 |
| **Р.Ибадуллаева.** AMUDARYO VILOYATINING TASHKIL TOPISHI VA UNING SIYOSIY AHVOLI..... | 79 |
| **M.Raxmanova.** KATTA O'RTA OSIYO IQTISODIY RAYONINING GEOGRAFIK JOYLASHUV XUSUSIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR..... | 85 |
| **А.Турсунметов** КОЛОНИАЛЬНАЯ БЮРОКРАТИЯ ТАШКЕНТА В ПЕРИОД ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ. ДЕЛО О БАНКАХ В ЖУРНАЛЕ «ИЗОХ»..... | 90 |
| **M.Sherov.** TOSHKENT VILOYATI IJTIMOIY – SIYOSIY HAYOTIDA CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTINING TUTGAN O'RNI..... | 93 |
| **Н.Холикова.** СИДҚИЙ ХОНДАЙЛИҚИЙНИНГ "РУСИЯ ИНҚЛОБИ" ДОСТОНИДА ИЖТИМОИЙ-МАЪРИФИЙ МАЗМУН ВА АДАБИЙ-ЭСТЕТИК ХОССАЛАР..... | 98 |
| **О.Пуговкина.** ГЕОГРАФИЯ С ИСТОРИЕЙ. ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ ТАШКЕНТА В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ Н.Г. МАЛЛИЦКОГО..... | 109 |
| **Sh.Yuldashov.** O'ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI | |

| | |
|---|---|
| SHARQIY TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA O'ZBEK MA'RIFATPARVARLARINING XIZMATI..... | 113 |
| **Z.Nurmanova, X.Tuychiboyev.** QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI TOSHKENT VOHASI ARXEOLOGIYASI..... | 118 |
| **N.Nurmuhammedova.** QADIMIY SHOSHTEPA..... | 124 |
| **U.Usarov.** XX ASRNING 40-YILLARI IKKINCHI YARMI – 80-YILLARI OXIRLARIDA O'ZBEKISTON SSR HUDUDIDAGI SUV OBORLARINING BARPO ETILISHIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR..... | 129 |
| **Ж.Адилов.** ТОШКЕНТ ШАҲРИ ГЕРБИ: ЯРАТИЛИШ ТАРИХИ ВА УНИНГ СЕМАНТИКАСИ..... | 133 |
| **S.Hamrayev.** BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARIDA TOSHKENTNING AHAMIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR..... | 140 |
| **S.Toshtemirova.** CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI..... | 145 |
| **М.Рахманова.** ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИГА МАЖБУРИЙ КЎЧИРИЛГАН ХАЛҚЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ АҲВОЛИ (1944-1948 ЙИЛЛАР)..... | 159 |
| **S.Toshev.** "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ FAOLIYATINING TARIXIY-EVOLYUTSION TAHLILI..... | 163 |
| **N.Boyqabilov.** AMIR TEMUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON SHAXSIYATLARI HAMID ZIYOYEV TALQINIDA..... | 168 |
| **Ch.Jalilova.** O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN KO'CHIRISH SIYOSATI (CHIRCHIQ SHAHRI MISOLIDA..... | 173 |
| **S.Yoriqulova.** TOSHKENT VILOYATINING TURIZM TARIXI..... | 177 |
| **Z.Xurramova.** TOSHKENT VILOYATIDAGI YANGI SHAHARLARNING RIVOJLANISHI (CHIRCHIQ SHAHRI MISOLIDA)..... | 181 |
| **R.Do'smuratov .** CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI..... | 186 |
| **D.Sa'dulloyeva**. CHIRCHIQ SHAHAR VA SANOAT KORXONALARI TARIXI..... | 189 |
| **T.Jumabaev.** CHIRCHIQ SHAHRI: KECHA VA BUGUN..... | 193 |
| **J.Bafoyev** CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI YOXUD O'TMISHDAN BUGUNGACHA.. | 197 |
| **О.Ирискулов.** XIX АСРНИНГ ОХИРИ -XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДА САВДО МУНОСАБАТЛАРИ..... | 201 |
| **Б.Ирискулов.** ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИ БЮДЖЕТИ ВА УНИНГ МУСТАМЛАКАЧИЛИК МОҲИЯТИ..... | 207 |
| **B.Mirzayev.** ASHTARXONIY MALIKA ZUHROBEGIM – TADBIRKOR AYOL SIFATIDA..... | 212 |
| **P.Jamolidinova** TOSHKENT SHAHRIDAGI MAKTABLARGA PEDAGOGIK NAZARIYALAR VA METODLARNI JORIY QILISH..... | 219 |
| **M.Eshonov.** SAMARQAND VILOYAT DAVLAT ARXIVI: YUZ YILLIK TARIX VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI..... | 222 |
| **A.Terkashev.** QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI..... | 225 |

| | |
|---|---|
| **R.Mirzaxmatov.** XIX – XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI:ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR..... | 228 |
| **R.Samandarova.** TOSHKENT DARVOZALARI..... | 230 |
| **Sh.Parmonov.** TOSHKENT SHAHRIDA JOYLASHGAN JO‘RABEK QABRISTONI VA MAQBARASI TARIXI..... | 232 |
| **M.Nomozov.** O‘RTA ASRLAR TOSHKENT VOHASI TARIXIY OBIDALARI..... | 237 |
| **H.Abuyev.** SSSR BOSHQARUV ELITASIDA SIYOSIY QARAMA QARSHILIK VA UNING O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI (XX asr 80-yillari)..... | 240 |
| **M.Erkinova.** TOSHKNETNING VOHASINING QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDAGI MANZLGOHLARI..... | 249 |
| **O.Rashidov.** JADIDLAR ILMIY MEROSINI TADQIQ ETISH VA MILLIY O‘ZLIK..... | 254 |
| **R.Yolg’oshov.** ALIQULI AMIRILASHKARNING TOSHKENT MUDOFASIGA QO’SHGAN HISSASI..... | 260 |
| **S.Norboyev.** TURLI MANBALARDA QADIMGI SUG‘DGA DOIR MA‘LUMOTLAR..... | 262 |
| **N.Homidjonov.** TOSHKENTDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING NAMOYANDALARI..... | 267 |
| **S.Nuriddinova. X**IX-XX ASRLARDA TURKISTON O‘LKASIGA YANGI PAXTA NAVLARINING JORIY ETILISHIGA OID BA’ZI MULOHAZALAR..... | 271 |
| **H.Murodov.** O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMINI TIKLASH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI (1990-2007 yillar)..... | 275 |
| **B. Suyunov.** ASRLAR MOBAYNIDA TOSHKENT NOMADIZIM TA’SIRIDA..... | 282 |
| **S.Abdivaitov** MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIX..... | 285 |
| **D.Nurmatova** “FATAVOI SUFIYYA” ASARI TASAVVUF VA FIQH UYG’UNLIGI..... | 289 |
| **I.Joldasov.** CHIRCHIQ SHAHAR TOPONOMIKASI..... | 292 |
| **U.Joldasova.** BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHLARIDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... | 296 |
| **Г.Юлдашева.** "ЖЕНЩИНЫ-ИССЛЕДОВАТЕЛИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ИЗУЧЕНИЕ ФЛОРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1920–1970 ГГ.)"..... | 299 |
| **А.Тўраев.** БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯЛАШДА БЎШ ВАҚТ СОҲАСИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ..... | 305 |
| **S.Barotov.** XVII ASRNING O‘RTALARIGACHA BO‘LGAN DAVRDA BUXOR XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIY HAYOTI. NOROZILIK HARAKATLARI..... | 309 |
| **Z.Mahkamova.** TURKISTON ASSRDA SOLIQ SIYOSATINING O‘zMA FONDLARI HUJJATLARI ASOSIDA YORITILISHI..... | 314 |
| **F.Kamoliddinov.** FORS KO‘RFAZIDAGI ARAB DAVLATLARI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK | 319 |

| | |
|---|---|
| MUNOSABATLARNING HUQUQIY ASOSLARI (Saudiya Arabiston podshohligi misolida)..... | |
| **Ф.Илмуродова** ТАРИХИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ҚАЙТА ТИКЛАШДА 3D ТЕХНОЛОГИЯСИ АХАМИЯТИ..... | 322 |
| **Sh.Sulaymanova.** SHAROF RASHIDOV - O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI RAISI..... | 326 |
| **Sh.Karshiyev.** MILLATLARARO ZIDDIYATLAR VA ULARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI AYRIM IJTIMOIY OMILLAR..... | 331 |
| **А.Нафасов.** ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ..... | 335 |
| **S.Qo‘ldoshev. “**DEVONU LUG‘ATIT TURKDA” QO‘SHIN..... | 343 |
| **R.Norbekov.** BERUNIY OBRAZINING O‘ZBEK ADABIYOTIDA IFODALANISHI..... | 348 |
| **Ф.Амонова.** ТОШКЕНТ – ТУРКИСТОН-ГЕНЕРАЛ ГУБЕРНАТОРЛИГИНИНГ САНОАТИ ШАҲРИ..... | 353 |
| **О.Жайнаров.** ТОШКЕНТ ВОҲАСИДА ЮРИДИК ХИЗМАТ ТИЗИМИ: АҲВОЛИ, ЎЗГАРИШЛАР ВА МУАММОЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)..... | 357 |
| **А.Нигматов.** СОТРУДНИЧЕСТВО ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ..... | 362 |
| **F.Sodiqov.** O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI VA MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARINING SHAKLLANISHI..... | 369 |
| **А.Горин.** КРЕПОСТЬ УЗУНДАРА – ЭЛЛИНИСТИЧЕСКАЯ СТРАЖ БАКТРИИ..... | 374 |
| **O.Xayritdinov.** MADANIY XILMA XILLILIKNI SAQLASHDA NOMODDIY MADANIY MEROSNING AHAMIYATI | 378 |
| **B.Qandov.** NAZIR TO‘RAQULOV BIRINCHI O‘ZBEK DIPLOMATI VA DAVLAT ARBOBI SIFATIDA YAQIN SHARQDAGI FAOLIYATI | 383 |
| **K.Hazratqulov.** XORIJIY MATBUOT BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI TARIXI | 392 |

**QAYDLAR UCHUN**

# TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

**Mas'ul muharrir:**
G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

**Tahrir hay'ati:**
R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor
Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor
D.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
O.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
S.Toshev – katta o'qituvchi

***Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.***

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.
© «Zebo print» nashriyoti, 2025.